Ecotourism, или природный туризм, предполагает проведение оздоровительных мер через этот вид деятельности, без использования комфортных условий, но с опорой на природу и культуру и ответственным бережным отношением к ним. Поэтому вполне объяснимо, что его называют «мягким типом туризма», а также используют определение «зеленый» при его характеристике. Это особенный тип, ставящий цель сохранения растительного и животного мира, привлечения для реализации данной задачи местных жителей.

Cultural tourism (связан с путешествиями с целью ознакомления с достопримечательностями (памятники, музеи, театры, выставки и пр.), способствующий познанию исторического прошлого и настоящего культурного наследия).

Space tourism (сектор туристической индустрии, связанный с полетами в космос в качестве туриста, предполагает также посещение космодромов, полеты на околоземную орбиту).

Rural tourism – вид туризма, включающий отдых в сельской местности с целью занятия садоводством и животноводством (агротуризм), а также он включает познание культурных ценностей конкретного этноса, проживающего в селе, т.е. это этнотуризм.

SPA-туризм включает такого рода оздоровительные меры как водные процедуры, массаж, грязелечение и прочие оздоровительные процедуры. Эта аббревиатура возникла на базе выражения *sanus per aqua*. Иногда сюда включают иглоукалывание, а также альтернативные виды оздоровления, типа индийской, китайской традиций в данной области знания и другие виды философского отношения к жизни. Например, Аюрведа – это согласие души и тела (в значении знание жизни). Согласно этой философии здоровье – это смысл жизни.

Congress tourism направлен на деловые цели, скажем, проведение форумов, выставок, бизнес-мероприятий.

Sustainable tourism (устойчивый туризм), responsible tourism (ответственный туризм), agritourism (агротуризм).

Жизненные ситуации, когда в семье кроме общих есть дети от предыдущего брака, породили неологизм *jigsaw family*.

В области спорта появились неологизмы *mud run* – новый вид спорта по преодолению препятствий людьми по грязной дороге; *board sport* – вид спорта с использованием доски (например, snowboarding, surfing, skateboarding) [14]. Например, способом телескопии образуется неологизм *ransomware* (от *ransom+ware*) – это Интернет-программа, способная заблокировать пользователя в случае неуплаты за определённые услуги. В данном случае компонент *ware* выполняет основную семантическую функцию (ср: *software* – программное обеспечение), в то время как *ransom* (в значении «выкуп») является второстепенным составляющим значение рассматриваемого композита.

Ср: также неологизм *zenware*, образованный способом словослияния и имеющий значение «приложения, позволяющие сосредоточиться только на выполнение работы». Приведем ещё примеры неологизмов, связанных с тематикой Интернета: *cloud computing* – облачные вычисления, обозначают различные вычислительные службы через Интернет.; *chatbot* – программа, позволяющая с помощью Интернет технологий имитировать разговор с пользователем; *chatroom* (от *chat + room*) – онлайн-платформа для общения; *cyber-attack* – кибератака; *cyber safety* – Интернет-разработки, направленные на защиту от вирусов; *digital hangover* (неологизм образован способом словосложения, Adj+N; буквально цифровое похмелье) – это ощущение стыда за выложенные видео или фотографии; *hyperconnected* – Интернет-пользователь, постоянно использующий всевозможные приспособления для выхода в нейросеть и др. [8].

К глубокому сожалению, новые слова не всегда отражают веками накопленные ценности человечества. Появление в самом обществе нового отношения к гендерному вопросу, времяпровождению, стремление к иждивенчеству, накопительству, наркомании, легкой наживе, потеря семейных ценностей и пр. привело к возникновению в английском языке новых слов и устойчивых словесных комплексов отражающих подобную тенденцию. Сравним такого рода новые образования, как: *funemployed* – праздный не работающий человек, в намерения которого входят лишь развлечения (образованного путем словосложения *fun* и *employed*), *photobomb* – намеренно портящий фото человек, *guyliner* - макияж гея [11].

В своём монографическом исследовании «Язык в истории развития человеческой мысли» Т.А. Бушуй высказывает следующее обобщение: «На уровне лексической семантики в акте словообразовательной номинации учёту подлежат, прежде всего, следующие явления: 1) Вовлечение всей семантической сферы мотивирующего слова в процесс создания нового производного наименования - мотивировка всем содержанием. 2) Актуализация ряда компонентов семантической структуры мотивирующего слова, участвующих в акте номинации в качестве мотивирующего признака - мотивировка частью содержания. 3) Сохранение между исходными и результативными единицами словообразовательного акта отношений семантического тождества. 4) Семантическая модификация производного, сводящаяся к суждению или расширению значения» [1, 236].

Заключение. Данное исследование показало, что явление неологии характерно для современной языковой системы. Отмечается возрастание в количественном отношении и богатое

разнообразии англоязычных неологизмов. Этот факт подтверждается также многочисленными исследованиями, связанными с причинами возникновения неологизмов, способов их образования, перспективами развития данной стороны языка, культурологическими, когнитивными, прагматическими и другими сторонами. Динамика развития английского языка на современном этапе широко представлена инновациями в лексикографической системе языка. Данный вектор развития языка составляет довольно внушительный пласт языка.

Выявлено, что большинство неологизмов связаны с темой Интернета вследствие электронной революции. Общественные изменения также способствуют появлению новообразований в языке из различных сфер жизни: спорт, политика, экономика, музыка, живопись, военное дело, медицина, туризм и др. Анализ неологизмов показал отражение социальных, политических и эмоциональных процессов в английском языке. Отмечается тенденция образования новых слов, связанная с пересмотренными жизненными ценностями в отношении накопительства, наживе, праздного времяпровождения, гендерной стороны, устоев семьи и прочего. Многочисленные неологизмы английского языка находят свое отражение на страницах газет, журналов, словарей различных типов. Однако наблюдается тенденция, когда современные словари не успевают фиксировать неологизмы в силу быстро изменяющейся языковой картины. По причине своей подвижности многие неологизмы остаются вне их поля зрения. В связи с неоднородностью неолексем и способов их появления в английском языке, остается востребованным выявление таких типов новых слов и выражений как: собственно неологизмов, семантических инноваций и номенов-неологизмов.

Сложившиеся современные типологии новых слов и выражений не могут рассматриваться как уже устоявшееся явление вследствие того, что данный языковой уровень открыт для последующих обновлений. Поэтому подобного рода классификации актуальны лишь в определенный временной отрезок. Языковая ситуация показывает необходимость выявления особенностей взаимосвязи между неолексикой и общелитературной лексикой, определения хронологических рамок возникновения новых слов и выражений и их этимологии, рассмотрения экстралингвистических факторов, связанных с их появлением в английском языке, изучение основных приемов номинации данного феномена. Английский язык не только сам подвержен появлению новых слов и выражений, но и сам является источником пополнения подобными феноменами других языков мира. Тем самым, наблюдается несомненное взаимообогащение различных культур.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Бушуй, Татьяна. *Язык в истории развития человеческой мысли. Монография.* – Т.: Фан, 2011. – 384 с.
2. Фалеева А. В. Отражение лексико-семантических особенностей скрытого смысла коллоквиализмов-зоонимов в лексикографических источниках // *Вестник Челябинского государственного университета.* – 2021. – №. 9 (455). – С. 192-199.
3. Фалеева А. В. Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках // *Miasto Przyszłości.* – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.
4. Фалеева Е. В. Неологический бум в английском языке: проблемы и перспективы // *International scientific review.* – 2022. – №. LXXXVI. – С. 70-74.
5. Bushuy T. A. (2023). *Language in Modern Linguistics.* *Miasto Przyszłości*, 39, 23–26. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/167>
6. Cambridge Dictionary Online. URL: <https://dictionary.cambridge.org/>
7. Collins English Dictionary Online. URL: <http://www.collinsdictionary.com/>
8. Definder Dictionary Online. URL: <https://www.definder.net/>
9. Faleeva E. V. *Current Status of English Neology // Til, ta'lim, tarjima xalqaro jurnali.* – 3-Son, 3-Jild. – Tashkent, 2022. – Б. 70-80. DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.7191413>
10. Faleeva E. V. *Lexical and Derivational Peculiarities of English Neologisms in the Sphere of new Technologies // Интернаука.* – № 32(255). – Часть 2. – Москва, 2022. – С.34-36 <https://www.internauka.org/journal/science/internauka/255>
11. Free Dictionary Online. URL: <https://www.thefreedictionary.com/>
12. Macmillan Dictionary Online. URL: <https://www.macmillandictionary.com/>
13. Merriam-Webster dictionary Online. URL: <https://www.merriam-webster.com/>
14. Oxford Learners Dictionaries Online. URL: <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>
15. Urban Dictionary Online. URL: <https://www.urbandictionary.com/>

UO•K 413=20=943.75(021)

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "ADOLAT" KONSEPTINING ETIMOLOGIK VA KULTUROLOGIK TADQIQI

*Xazratova Iroda Furqat qizi,
Qarshi davlat univesiteti tayanch doktoranti
irodaxazratova95@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Adolat" konseptining etimologik kelib chiqishi va bu tadrijiy rivojlanish bosqichida jamoaviy qatlamlarning tillar va davlatlar miqyosida bu konsepsiyadan foydalanish o'rinlari va usullari haqida fikr yuritiladi. Xususan, ingliz va o'zbek tillaridagi "Adolat" va "Justice" (jastis) atamalarining qo'llanilish sohasiga keng e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, ko'p asrlar davomida shakllanib, rivoj topgan insoniyat taraqqiyotida davlatlar tuzumi va qonunlar, qoidalar ishlab chiqilish bosqichi keng ko'lamda tub burilish yasagan omil bo'lib hisoblanadi. Bunday tuzumlarning mezoni esa, shubhasiz, adolat tushunchasining asl negizini ochib berishga va bu orqali insonlar o'rtasida tenglik, bag'rikenglik, jamiyat qatlamlari orasida tabaqalashuv illatining oldi olinishi bilan alohida tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: halollik, tenglik, kognitiv yondashuv, axloqiy qadriyatlar, analitik tahlil, qonun, qoida, sud-huquq tizimi, huquqiy me'yorlar, etimologik xususiyatlar, chog'ishtirma-qiyosiy uslub, konsept.

ЭТИМОЛОГИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОНЯТИЯ СПРАВЕДЛИВОСТИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье рассматривается этимологическое происхождение понятия «Справедливость», а также места и способы употребления этого понятия на уровне языков и стран коллективных слоёв на данном этапе постепенного развития. В частности, большое внимание уделено сферам применения терминов «Адолат» и «Справедливость» в английском и узбекском языках. Известно, что в развитии человечества, которое формировалось и развивалось на протяжении многих столетий, этап развития системы государств и законов и правил считается фактором, совершившим принципиальный поворот в большом масштабе. Критерием таких систем, несомненно, является раскрытие истинной основы понятия справедливости и через это равенство между людьми, толерантность, предотвращение расслоения социальных слоёв.

Ключевые слова: честность, равенство, когнитивный подход, моральные ценности, анализ, право, правило, правовая система, правовые нормы, этимологическая характеристика, метод перекрёстного сравнения, понятие.

ETYMOLOGICAL AND CULTURAL STUDY OF THE CONCEPT OF "JUSTICE" IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract. This article discusses the etymological origin of the concept of "Justice" and the places and methods of using this concept at the level of languages and countries of collective layers at this stage of gradual development. In particular, a lot of attention is paid to the fields of application of the terms "Adolat" and "Justice" in the English and Uzbek languages. It is known that in the development of mankind, which has been formed and developed for many centuries, the stage of development of the system of states and laws and regulations is considered to be a factor that made a fundamental turn on a large scale. The criterion of such systems is undoubtedly to reveal the true basis of the concept of justice and, through this, equality between people, tolerance, prevention of stratification among social strata are described.

Keywords: honesty, equality, cognitive approach, moral values, analytical analysis, law, rule, legal system, legal norms, etymological characteristics, cross-comparative method, concept.

Kirish. "Adolat" tushunchasi butun dunyoda jamiyatlar faoliyatining asosini tashkil etuvchi muhim tamoyildir. O'zbek va ingliz tillarida "adolat" atamasi huquqiy tizimlar, axloqiy qadriyatlar va jamiyat normalarini shakllantirishda salmoqli ta'sir va ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi "adolat" tushunchasining etimologik xususiyatlari o'rganilib, bu ikki xil lingvistik kontekstda uning tushunilishi va qo'llanilishini shakllantirgan tarixiy ildizlari va lingvistik nuanslariga oydinlik kiritiladi. O'zbek va ingliz tillarida "adolat" etimologiyasini chuqur o'rganish orqali biz ushbu muhim tushunchaning boy madaniy va tarixiy ma'nolarini va uning zamonaviy jamiyatga ta'sirini ochib berishni

maqsad qilganmiz. Har ikki tilda "adolat" atamasining kelib chiqishi va evolyutsiyasini o'rganib, qiyosiy tahlil o'tkazilib, ushbu tushuncha bilan bog'liq bo'lgan semantik nuanslar va madaniy ta'sirlar ochiladi. Tilshunoslik, tarixiy va huquqiy nuqtayi nazarlarni birlashtirgan multidisipliner yondashuv orqali ushbu tadqiqot til bizning adolat haqidagi tushunchamizni qanday shakllantirishi va jamiyat qadriyatlarini aks ettirishiga oydinlik kiritadi. Topilmalar til, madaniyat va adolatning o'zaro bog'liqligi to'g'risida qimmatli tushunchalar berib, adolat va tenglik haqidagi tushunchalarimizni asoslovchi til merosini chuqurroq anglash imkonini beradi.


Tadqiqot metodologiyasi. Jahon miqyosida "Adolat" tushunchasining etimologik va kulturologik xususiyatlarini o'rganuvchi asarlar anchagina serob. Xususan, Maykl J. Sandel tomonidan yozilgan "Adolat: Nima qilish kerak?" kitobi adolatning falsafiy, axloqiy va madaniy jihatlarini o'rganadi, adolatning turli nazariyalari va ularning jamiyatga ta'sirini tahlil qiladi. Sandel adolat tushunchasining tarixiy ildizlarini va uning vaqt o'tishi bilan evolyutsiyasini analiz qiladi va madaniyat adolat va tenglik haqidagi tushunchamizni qanday shakllantirishi haqida tushuncha beradi. Bundan tashqari, Maykl J. Sandel tomonidan tahrirlangan "Adolat: kitobxon" nomli asar ham menda katta qiziqish uyg'otgani sir emas. Ushbu antologiya adolat tushunchasini turli nuqtayi nazardan, jumladan, falsafa, huquq, siyosat va madaniyat nuqtayi nazardan o'rganuvchi ocherk va maqolalar to'plamini jamlagan. Ushbu kitobdagi o'qishlar adolatning madaniy va axloqiy jihatlarini har tomonlama ko'rib chiqadi, adolatni turli jamiyatlarda tushunish va qo'llashning turli usullarini yoritadi. Yana bir kitobdagi nishonga olingan fikrlar jamlanmasi adolat tushunchasining tom ma'nodagi yaxlit qolipini namoyon qilib beradi. Ostin Saratning "Til adolati: qonun, ma'no va kuch" asari xuddi shu keltirilgan ta'rifga aynan mos. Ushbu kitob huquq tizimlarida adolat tushunchalarini shakllantirishda til, qonun va hokimiyatning kesishishini o'rganadi. Sarat tilning huquqiy nutq, qaror qabul qilish va ijtimoiy adolat harakatlariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi, huquqiy kontekstlarda tildan foydalanishning madaniy va siyosiy o'lchovlarini o'rganadi. Shu bilan bir qatorda, ba'zi maqolalar ham ayni konseptning to'liq mohiyatini ochib beruvchi omil bo'lib xizmat qildi. Xususan, "Adolatning madaniy evolyutsiyasi" (Robert Boyd va Piter J. Richerson) nomli maqola madaniy omillar turli jamiyatlarda adolat bilan bog'liq normalar va amaliyotlarning rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqadi. Boyd va Richerson madaniy evolyutsiya bizning adolat haqidagi tushunchalarimizni qanday shakllantirishini o'rganib, axloqiy qadriyatlarimizni shakllantirishda til, din va ijtimoiy me'yorlarning rolini ta'kidlaydi. "Til, madaniyat va adolat: chorrahani o'rganish" (Sara Myurrey) maqolasi ham til, madaniyat va adolat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi, lingvistik tuzilmalar va madaniy qadriyatlar bizning adolat haqidagi tasavvurimizni qanday shakllantirishini yoritadi. Myurrey tilning axloqiy tamoyillar, huquqiy me'yorlar va adolat bilan bog'liq ijtimoiy umidlarni yetkazishdagi rolini muhokama qiladi, til va madaniyat o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni adolatli va teng deb hisoblashni ta'kidlaydi. Xulosa qilib aytganda, ushbu asarlar "adolat" tushunchasining etimologik va madaniy xususiyatlari haqida qimmatli fikrlarni taqdim etib, til, madaniyat va tarix bizning adolat, tenglik va ijtimoiy tartib haqidagi tushunchalarimizni qanday shakllantirishini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Jahon tilshunosligida inson omiliga yangicha yondashuv, bugungi kunda rivojlanib kelayotgan yangi sohalar, xususan kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmatika, sotsiolingvistika, etnolingvistika sohalaridagi ilmiy izlanishlar til bilan bog'liq hodisalar mohiyatini aniqlashga antropologik nuqtayi nazardan keng qirrali tahlilni talab etmoqda. Bu bevosita badiiy matnda amal qiluvchi konseptlarni o'rganish bilan bog'liq masalalarni ham qamrab oladi. Mazkur holat jahon tilshunosligida kognitiv tilshunoslik bo'yicha erishilgan yutuqlar, badiiy konseptlarni o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish orqali o'zbek hamda ingliz og'zaki va yozma adabiyotida ma'naviy dunyoqarashimiz, milliy qadriyatlarimiz, jamiyatdagi "Adolat" va shu kabi axloqiy normalar mezonini belgilash bilan bog'liq konseptlarni tahliliga chuqurroq yondashuvni taqozo etishi bilan dolzarbdir. Dunyo fanida amalga oshirilayotgan lingvistik tadqiqotlar tildagi mavjud hodisalar mohiyatini ochib berishda konseptlarning muhim o'rin tutishi, ularda til sohibining ijtimoiy hayot tarzi, dunyoqarashi, til birliklaridan foydalanish mahorati namoyon bo'lishida o'ziga xos imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu bevosita badiiy matnda amal qiluvchi konseptlarni o'rganish bilan bo'g'liq masalalarni ham qamrab oladi. Mazkur holat o'zbek va ingliz tilshunosligida chog'ishtirma-qiyosiy uslubda millatlarning etnomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi konseptlarni monografik rejada o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi,

Ingliz tilidagi "Justice" konseptining lug'aviy ma'no xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, bu atama ingliz tilida sud-huquq tizimi, hokimiyat boshqaruvi va jamiyat kommunikatsiya jarayonida tenglik, tabaqa chegaralarini yanchib o'tuvchi mezon sifatida keng qo'llaniladi. Ingliz tilidagi "Adolat" so'zining etimologiyasi:

LINGUISTICS

Ingliz tili "adolat" atamasi haqida gap ketganda ancha murakkab etimologik tarixga ega. "Adolat" soʻzi oʻzining kelib chiqishi lotincha ildizlarga borib taqaladi, xususan lotincha "justitia" soʻzi solihlik yoki adolatni anglatadi. Ingliz huquqi va falsafasidagi adolat tushunchasiga turli manbalar, jumladan, Rim huquqi, nasroniy ilohiyoti va maʼrifatparvarlik gʻoyalari erkinlik va tenglik taʼsirida boʻlgan. Ingliz tilidagi "adolat" atamasining evolyutsiyasi individual huquqlar bilan jamiyat manfaatlarini muvozanatlashtirishga intiladigan huquqiy asosda adolat, javobgarlik va tegishli jarayonning kengroq tushunchasini aks ettiradi.



Bundan farqli oʻlaroq, Oʻzbek tilidagi "Adolat" soʻzining etimologiyasi:

Asosan Oʻzbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarida soʻzlashuvchi turkiy til boʻlgan oʻzbek tili boshqa turkiy va fors tillari bilan tarixiy aloqalarini aks ettiruvchi boy til merosiga ega. Oʻzbek tilida "adolat" atamasi "adolat" boʻlib, arabcha "adl" soʻzidan olingan, barqarorlik yoki tenglik maʼnosini bildiradi. Oʻzbek madaniyatida adolat tushunchasi islomning adolat va axloqiy poklik tamoyillarida chuqur ildiz otgan boʻlib, axloqiy qadriyatlarni saqlash, boshqalarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda boʻlish muhimligini taʼkidlaydi. "Adolat" etimologiyasi oʻzbek jamiyatida adolat, axloq va diniy eʼtiqodlar oʻrtasidagi chambarchas bogʻliqlikni ochib beradi, bu tushunchaning ijtimoiy normalar va huquqiy amaliyotni shakllantirishdagi madaniy ahamiyatini koʻrsatadi.

Ma'nosi	Kognitiv yondashuv	Qo'llanilish sohalari	Birikmalar
<ul style="list-style-type: none"> • odilona ish tutish • odillik • ism(Adolat) 	<ul style="list-style-type: none"> • halollik • tenglik • bag'rikenglik 	<ul style="list-style-type: none"> • sud-huquq tizimi • qonun va qarorlar tadbqiqida • jamiyatda halollik va tenglik mezoni sifatida 	<ul style="list-style-type: none"> • adolat darajasi • halollik qadriyati

Shunday qilib, Adolat tushunchasi har qanday jamiyatning asosiy tayanchi boʻlib, uning huquqiy tizimlari, axloqiy kodekslari va ijtimoiy normalarini shakllantiradi. Til jamiyatning madaniy qadriyatlari va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi adolat tushunchalarini aniqlash va ifodalashda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Ushbu maqolada biz o'zbek va ingliz tillaridagi "adolat" atamasining etimologik xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalangan holda, uning lingvistik ildizlarini izlaymiz va vaqt o'tishi bilan semantik evolyutsiyasini ko'rib chiqamiz. Bu ikki tildagi adolat tushunchasi bilan bog'liq lingvistik nuanslar va madaniy konnotatsiyalarni solishtirib, biz tilning adolat, tenglik va ijtimoiy tartib haqidagi tasavvurlarimizni qanday shakllantirishini chuqurroq tushunamiz. O'zbek va ingliz tillaridagi "adolat" so'zining etimologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilib, bu ikki madaniyatning adolat tushunchalarini qanday ifodalashi va ifodalashidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlay olamiz. Ikkala til ham arab va lotincha adolat atamalarida umumiy ildizlarga ega bo'lsa-da, ular o'zlarining noyob tarixiy trayektoriyalari va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi alohida lingvistik iboralarni ishlab chiqdilar. O'zbek tilidagi "adolat" tushunchasi adolatning muhim tarkibiy qismi sifatida axloqiy poklik va diniy taqvodorlikni ta'kidlasa, inglizcha "adolat" tushunchasi demokratik boshqaruvni ta'minlovchi huquqiy tamoyillar, ijtimoiy axloq va siyosiy ideallarni o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz tillarida "adolat" tushunchasining etimologik tadqiqi uning ma'no va ahamiyatini shakllantirgan chuqur tarixiy va madaniy ildizlarni ochib beradi. Bu ikki tildagi "adolat"ning lingvistik evolyutsiyasidagi o'xshashlik va farqlar huquqiy tizimlar, axloqiy qadriyatlar va jamiyat normalari o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. "Adolat" ning etimologik xususiyatlarini tushunish orqali biz uning konsepsiyasiga ta'sir qilgan turli tarixiy va madaniy kontekstlarni chuqurroq tushunamiz. Ushbu bilim adolat va uning zamonaviy jamiyatda qo'llanilishi haqidagi tushunchamizni boyitib, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga va ushbu asosiy tamoyilning ko'p qirrali mohiyatini qadrlashga yordam beradi. Globallashtirilgan dunyomizda adolatning murakkabliklarini kechishda davom etar ekanmiz, uning etimologik xususiyatlarini turli tillarda chuqurroq tushunish barcha uchun adolatga nisbatan yanada inklyuziv va adolatli yondashuvlarga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. *"Adolat: nima qilish kerak?"* Maykl J. Sandel Oksford universiteti nashriyoti, Nyu-York (2009): 16-20-betlar
2. *"Adolat: kitobxon"* Maykl J. Sandel Oksford universiteti nashriyoti, Nyu-York (2007): 316-325-betlar.
3. *"Faqat genlar orqali emas: madaniyat inson evolyutsiyasini qanday o'zgartirdi"* Piter J. Richerson va Robert Boyd. *Biologiya va falsafa* (2008) 293-298-betlar.
4. *"O'zbek tilining izohli lug'ati"* A.Madvaliyev tahriri ostida *"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"* Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent(2013) 41-43-betlar.
5. *Lera Boroditskiyning "Lingvistik nisbiylik"*, // *Psixologiyaning yillik sharhi*, (2017) 37-41.
6. *"Sapir-Uorf gipotezasi va uning madaniyatlararo muloqotga aloqadorligi"* Brendan MakSvini, // *Til va madaniyatlararo muloqot*, (2010) 87-93.
7. *Geert Hofstedening "Madaniy ramzlar va madaniy o'zgarishlar"*, // *Madaniyatlararo psixologiya jurnali*, (2011) 110-112.

O‘ZBEK BOLALARIDA YANGI SO‘Z O‘ZLASHTIRISH JARAYONI TADQIQI

Salimova Dildora Furqat qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
furqatovnadildor@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tilisi o‘zbek tili bo‘lgan bolalarda ona tilining o‘zlashtirilish jarayoni, ona tilidagi so‘zlarning o‘zlashtirilishidagi ba‘zi xususiyatlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, bolalarda nutq hosil qilish bosqichlari, psixolingvistik tadqiqotlarda bola nutqidagi so‘z o‘zlashtirish jarayoni, tabiiy tartib gipotezasining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Ona tilida so‘z o‘zlashtirish jarayoni bo‘yicha tajriba o‘tkazilib, bolalar nutqidagi so‘z o‘zlashtirish jarayonidagi o‘xshash va farqli jihatlar bo‘yicha xulosalar berildi.

Kalit so‘zlar: til o‘zlashtirish, psixolingvistika, nutq bosqichlari, bola nutqi, leksemalar tartibi.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА УСВОЕНИЯ НОВЫХ СЛОВ У УЗБЕКСКИХ ДЕТЕЙ

Аннотация. В данной статье анализируются процесс овладения родным языком у детей, родным языком которых является узбекский, анализируются некоторые особенности усвоения слов на родном языке. Также обсуждаются этапы формирования речи у детей, процесс усвоения слов в детской речи в психолингвистических исследованиях, а также значение гипотезы естественного порядка. Был проведён эксперимент по процессу усвоения слов на родном языке, и сделаны выводы о сходных и различных сторонах процесса усвоения слов в детской речи.

Ключевые слова: овладение языком, психолингвистика, этапы речи, речь ребёнка, порядок лексем.

STUDY OF NEW WORD ACQUISITION PROCESS IN UZBEK CHILDREN

Abstract. In this article, the process of acquiring the native language in children whose mother tongue is Uzbek, some features of the acquisition of words in the native language are analyzed. Also, the stages of speech formation in children, the process of word acquisition in children’s speech in psycholinguistic research, and the importance of the natural order hypothesis are discussed. An experiment was conducted on the process of word acquisition in the mother tongue, and conclusions were given on the similar and different aspects of the process of word acquisition in children’s speech.

Keywords: language acquisition, Psycholinguistics, stages of speech, child speech, order of lexemes

Kirish. Jahon tilshunosligida 60-yillardan boshlab til o‘zlashtirish jarayonini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratildi. Til o‘zlashtirishda leksemalar tartibini aniqlash orqali tilning ona tili va ikkinchi (xorijiy)til sifatida o‘zlashtirilishi bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borildi. Bola nutqi turli xil rivojlanish bosqichidan o‘tadi. Ilmiy adabiyotlarda bola nutqining rivoji 3 bosqishga ko‘ra tasniflangan. Dastlabki bosqich anglash bosqichi bo‘lib, bunda bola tevarak-atrofdagi kishilarning xatti-harakati, imo-ishoralari, turli xildagi hayotiy vaziyatlar orqali narsa-buyum, kishi, harakat bildiruvchi so‘zlarni qanday, qachon, qay vaziyatda ishlatish kerakligini anglay boshlaydi. Ikkinchi bosqich passiv nutq bosqichi bo‘lib, ushbu bosqichda bola ijtimoiy hayotga kirib boradi. Undagi ehtiyoj asta-sekin ongdagi so‘zlarini bevosita nutqqa chiqarib, dastlab so‘zlarni alohida keyinchalik birikma holida ishlatishga sabab bo‘ladi.

Uchinchi bosqich faol nutq bosqichi bo‘lib, bu bosqichda passiv nutq bosqichidagi so‘zlar faol nutqqa o‘tib boradi va o‘zlashtirilgan so‘zlar soni kuniga oshib boradi. Bunda bola kuniga kamida 20 tadan 50 tagacha so‘z o‘zlashtiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida til o‘zlashtirish va uning nazariy asoslari (Ammon, Mary Sue, 1981; Amodeo, Luiza B., Cardenas, Manuel.1983; Anglin, Jeremy M.1993; Akhtar, Nameera; Jipson, Jennifer, Callanan, Maureen.2001.), ona tilida so‘z o‘zlashtirish (Berko, Jean.1958.; Omar, Margaret K.1973.; Aksu-Koç, Ayhan, Slobin, Dan I.1985.; Bloom, Luis.1991.; Au, Terry K.-F.; Dapretto, Mirella, Song, You-Kyung.1994.), leksemalar o‘zlashtirilishidagi jihatlar (Bates, Elizabeth.1976.; Barret

Martyn D. 1978; Bamberg, Michail G.N.1987; Bialystok, Ellen.2007.) kabi masalalar turli tillar doirasida o'rganilgan.

Rus tilshunosligida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, N.I.Jinkin, V.P.Zinchenko kabi olimlar tadqiqotlarida bola nutqining shakllanishi, til o'zlashtirishning psixolingvistik omillari, ona tilini o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. O'zbek tilshunosligida M.Ismailov, O.Umarxo'jayeva, N.Sayidraximova, G.Iskandarova va M.Qurbonovalar tomonidan amalga oshirilgan qator tadqiqotlarda o'zbek tilisi ona tili bo'lgan bolalar nutqining fonetik hamda grammatik xususiyatlari, bolalarda nutq paydo bo'lishi va shakllanishi, bola nutqiy faoliyatida ijtimoiy muhitning ahamiyati kabi masalalar o'rganilgan. M.Qurbonova tomonidan bolalar nutqini o'rganish sotsiopsixolingvistik va pragmatik aspektida tadqiq etildi. Bu tadqiqotda xorijiy tilni o'zlashtirish jarayoniga oid sotsiopsixolingvistik muammolar tadqiq qilinib, bolalar nutqida ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga keluvchi leksik dialektizmlar semantik xususiyatlariga ko'ra guruhlariga tasniflangan, bolalar nutqiga xos so'zning atash vazifasi asoslari yoritilgan, o'zbek bolalariga xos nutqning pragmatik xususiyatlari ochib berilgan. [Qurbonova, M.2009.] Shunga qaramay o'zbek tili ona tilisi bo'lgan bolalar nutqining so'z o'zlashtirish tartibi alohida tadqiq etilmagan. Niyatimiz o'zbek tilining ona tili sifatida o'zlashtirilishida bolalarning leksemalar tartibini aniqlash bo'lib, bu tahlil qanday masalalarni qamrab olishi haqida to'xtalmoqchimiz.

Til o'zlashtirilishi bilan bog'liq ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Tilshunoslikka S. Krashen tomonidan Tabiiy tartib gipotezasi atamasi olib kirildi.[Krashen, S.1982, 11] Ushbu gipotezaga ko'ra, grammatik strukturalar tizimli tartibda o'zlashtirilib, tartib til o'zlashtiruvchining yoshi yoki uning ona tilidan mustaqildir. Krashen tomonidan ilgari surilgan gipoteza ikkinchi tilni o'qitish sohasidagi tadqiqotlarga sezilarli tarzda ta'sir ko'rsatdi.

Tabiiy tartib gipotezasi – grammatik qoidalar hamda birliklarning muayyan tartibda o'zlashtirilishidir. J. Berko ona tilisi ingliz tili bo'lgan bolalarda morfemalar o'zlashtirilishidagi tartibni tajriba-kuzatuv asosida o'rgangan. [Berko, J.1958] Tadqiqotchi 4 yoshli bolalar grammatik shakllarni 7 yoshli bolalarga nisbatan faolroq o'zlashtirishini ta'kidlaydi.

Ona tilini o'zlashtirishda bir so'z boshqa bir so'zdan oldinroq egallanadi. Bolalar tug'ilgandan so'ng asta-sekinlik bilan til o'zlashtirishni boshlaydi. So'z o'zlashtirishda ular dastlab kattalar nutqiga taqlid qilishni boshlaydi. Nutqida g'uldirashlar paydo bo'ladi. Bola nutqidagi dastlabki so'zlar ehtiyoj asosida aytiladi. Masalan, o'zbek bolasi nutqidagi ilk so'zlar: *dadda*[dada], *nanna*[ona] *mamma*[non], *bobbo*[bobo yoki buva], *be*[ber] tarzida namoyon bo'ladi. Yangi tug'ilgan chqaloqqa oila a'zolari kattalar tomonidan turli xil so'zlar, gaplar, murojaatlar bo'ladi. Bola bu so'zlarni anglamaydi, unga bu so'zlar turli shovqindan tovushlar kabi eshitiladi. Sekin-asta kattalar suhbat jarayonida narsalar va harakatlar uchun oddiy so'zlardan foydalanadilar. Bunda kattalar tomonidan kishilar, oziq-ovqat, o'yinchoqlar, uy hayvonlari, transport vositalari o'simliklar va atrofdagi narsalarni anglatuvchi turli so'zlarni taqdim etishadi.

Suhbat tilni o'zlashtirish uchun asosiy manba bo'lib, suhbat davomida bolalar o'zlarining bilimlarini tilni ishlatish mahorati bilan birga namoyon etadilar. Kattalar bilan suhbatlar bolalarga so'z shakllari va so'z ma'nolari va undan foydalanish haqida ma'lumot beradi. Shunday qilib, bolalar olayotgan har qanday til darslari til tuzilishidan ko'ra tildan foydalanish darslaridir.[Clark, E.2009] Kattalar bilan suhbatlar bolalarga yangi so'zlarni o'zlashtirishda yordam beradi.

Go'daklar tug'ilgandan boshlab yig'i tovushlarini chiqaradilar va bu ma'lum bir narsaga ehtiyoj bo'lganda amalga oshadi. Eng birinchi bo'lib bir bo'g'inning takroridan iborat bo'g'in o'zlashtiriladi. Masalan, babababa yoki dadadada. Bu kabi takrorlardan iborat bo'lgan bo'g'inlar ketma-ketligi tez-tez va uzoqroq bo'lib, sekin-asta bo'g'in tarkibidagi undoshlar asosan *m*, boshqalari *t* tovushiga almasha boshlaydi. Keyinchalik bo'g'inlardagi unlilar ham sistematik tarzda almasha boshlaydi. Bu esa ularda nutqiy faoliyatning boshlanganidan darak beradi. Dastlabki davrda bolalar so'zlarning o'rnini almashtirgan holda avvalroq o'rgangan so'zlari bilan gapirishni boshlashadi. Biror narsa haqida bilish u haqida gapirish yoki boshqalar u haqida gapirganda tushunish qobiliyatini anglatmaydi. Bola atrofdagilar, oila a'zolari tomonidan taqdim etilgan so'zlarning barchasini ham nutqida qo'llamaydi. Bu asosan, so'z qo'llanish chastotasi bilan bog'liq. Odatda bolalar o'z nutqlarida kundalik hayotda kattalardan tez-tez eshitadigan so'zlaridan foydalanib gap tuzishadi. Bolalar atrof-muhitni kuzatar ekan, ular o'z tajribalarini tartibga solishni boshlaydilar. Bola obyektlarda harakat qiluvchi shaxslar, obyektlar bilan odatiy bog'langan shaxslar, obyektlarning nisbiy joylashuvi va obyektlarning joylashuvini o'zgartiruvchi shaxslar kabi obyektlar o'rtasidagi aqliy munosabatlarni aks ettirish uchun sxemalarni ishlab chiqadi. Bunday kognitiv sxemalar umumiy va alohida shaxslar yoki obyektlar uchun xos bo'lmagan bo'lib, ular turli shaxslar va obyektlar ko'p to'qnashuvlar asosida shakllangan. Har bir sxema bilan bola odamlar va obyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda muntazamlikni keltirib chiqaradi [Bloom,L.1991] Bu esa so'zlarning bola leksikonida

o'zlashib, ushbu so'zlar bola nutqida noma'lum vaziyatlarda ham ishlatilishini ta'minlaydi. Bowerman (1973) va Schlesinger(1971) bolalar tilni erta o'rganish sintaktik emas, balki semantik ekanligini, ikki va uchta so'zni birlashtirganda, bolalar semantik munosabatlarni o'rgangan va grammatik munosabatlarni o'rganmaganligini ta'kidlaydilar. Bowermanning qayd etishicha, ega-kesim kabi grammatik munosabatlar erta yoshdan boshlab bola tilida mavjud degan xulosaga kelish uchun yetarli dalillar yo'q va bu farq keyinchalik bola nutqining rivojlanish davrida paydo bo'lgan lingvistik qurilmalarni o'z ichiga oladi.

Schlesingerning ta'kidlashicha, ma'nolar birinchi navbatda kirish belgilari ko'rinishida keladi va keyinchalik bola bularning lingvistik shaklda qanday amalga oshirilishini bilib oladi. Tilni o'zlashtirishni o'rganishdagi biologik tadqiqotlarda katta yutuqlarni kutishning hojati yo'q. Biz nafaqat bolaning nutqini, balki kattalar bola bilan muloqot qilishda qo'llaydigan nutq va boshqa muloqot usullarini, bola nutq orqali o'z fikrlarini bildirgan paytda shug'ullanayotgan faoliyatini ham hisobga olishimiz kerak.

Xomskiy tomonidan taklif qilingan grammatika nazariyasi(1965) bolalar o'z ona tilini qanday o'zlashtirilishi mumkinligini tushuntirishga intiladi. Har qanday ma'lum tildagi ma'lumotlardan bolalar qisqa vaqt ichida o'sha tilning cheksiz jumlar to'plamini tushuna oladilar. Bir tomondan, bolalar so'zni noto'g'ri qo'llash, tilning sirpanishi, ikkilanishlar va hokazo ko'rinishidagi xatolarga duch kelishi mumkin va til o'rganuvchida xatolar yoki ular qachon va qayerda sodir bo'lishi mumkinligini oldindan bilish imkoniyati yo'q. Boshqa tomondan, grammatika bola uchun mavjud emasligiga qaramay, u grammatik munosabatlarni yo'l qo'yilgan xatolar, noaniqliklar tufayli sekin-asta o'zlashtirib boradi.

Ma'lumotlar va grammatikaning o'zaro ta'siri quyidagicha ifodalangan (Xomskiy,1967; McNeill,1970):

Ma'lumotlar \longrightarrow Til o'zlashtirish \longrightarrow Grammatika

Ya'ni ma'lumotlar yetarli darajada ko'p bo'lishi va grammatik qoidalar majmui yetarlicha cheklangan bo'lishi mumkin. Shu sababli muvaffaqiyatli bolalar tomonidan til o'zlashtirish uchun belgilangan grammatika mavjud bo'lgan ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish tartibi sintaktik, semantik, shakliy murakkablik va so'zning qo'llanish chastotasiga bog'liq. Ma'nosi va shakliy ifodasi sodda, qo'llanish chastotasi yuqori so'zlar avval o'zlashtirilsa, aytilishi va shakli birmuncha murakkab, shuningdek, past chastotali so'z nutqda keyinroq namoyon bo'ladi. Chastotaning yuqoriligi semantik murakkab so'zning erta o'zlashtirilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Buxoro viloyati Romitan tuman 29-MTM dagi 4 yoshli 20 ta bog'cha tarbiyalanuvchilari bilan ularning yangi so'z o'zlashtirish jarayoni, ular bu yangi so'zni qanday qabul qilib, uni o'z nutqlarida ishlatilishini tahlil etish maqsadida tajriba-kuzatuv olib borildi. Tajriba uchun jismoniy va ruhiy sog'lom, shuningdek, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar tanlab olindi. Tajriba-kuzatuvga ko'ra, bolalarga yangi so'z taqdim etish uchun ularga turli topshiriqlar berildi va ularning faolligi, hozirjavobligini rag'batlantirib, har bir bola diplom bilan rag'batlantirildi. Bolalar ushbu so'zni bemalol nutqlarida ravon talaffuz etib, bir-birlariga, oila a'zolariga bog'cha opalari tomonidan diplom berilganini aytib maqtanishdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holatda ular bu so'z ularning ma'lum bir yutuqlari evaziga berilgan mukofot ma'nosini anglatishini tushunishgan. 20 ta bola orasidan 19 nafari diplom so'zini to'g'ri talaffuz etib, ayni mazmunda o'z nutqida qo'llagan. Faqat H.E. ismli bola ushbu so'zni diplomat tarzida o'zlashtirgan. O'zbek tilining izohli lug'atidagi ushbu so'zlar izohiga murojaat etamiz:

Diplom [fr. Diplome< yun. diploma – ikki buklangan varaq, hujjat] **1** Biror o'quv maskanini bitirganlik yoki biror ilmiy unvon, ilmiy daraja berilganligini tasdiqlovchi rasmiy hujjat. *Imtiyozli diplom. Diplom olmoq.*

2 Universitet, institut va sh.k. ni bitirish oldidan, shunday hujjat olish maqsadida yoziladigan ish, tadqiqot yoki loyiha. *Diplom ishi.*

3 Biror huquq yoki mukofot berilganligini tasdiqlovchi guvohnoma. *Boksdan jahon chempioni diplomi.*

Diplomat I [fr. Diplome<yun. diploma – ikki buklangan varaq, hujjat] **1** Chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokaralar olib borish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan va shunday ishlar uchun o'z hukumati tomonidan vakil etib tayin etilgan lavozimli kishi. *O'zbekiston diplomati. Diplomat bo'lib ishlamoq.*

2 s.t. Ish, gap, muomalada usta, mohir kishi. Juda diplomat bo'lib ketibsiz-ku.

Diplomat II Kichik chemodan shaklida ishlangan, qulflanadigan portfel. [O'TIL 1981.]

Tajriba-kuzatuvga ko'ra, H.E. ismli bolaning oila a'zolaridan biri Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida tahsil olganligi sababli bola diplomat so'zini oldinroq o'zlashtirgan. Bolaga onasi va boshqalar

tomonidan turli tushuntirishlar berilib, bog'cha opasi tomonidan unga diplom berilganligi aytilsa ham, u bu so'zni rad etgan va nutqida diplomat so'zini ishlatishda davom etgan.

Ona: O'g'lim, bu diplomat emas, diplom deyiladi.

Bola: Yo'q, bu – mening diplomatim (onasi qo'lidagi diplom deb yozilgan qog'ozni ko'rsatib).

Oyijon, diplomatimni bering, uni tog'amga ko'rsataman.

Tajriba-kuzatuv uchun tanlangan so'zlardan yana biri "olxo'ri" so'zi bo'lib, bu so'z ma'nosi bolalarga ko'rgazmali surat tarzida taqdim etildi, ya'ni olxo'ri daraxti va shu nomdagi daraxt mevasi surati doskagab ilib qo'yildi. So'ng bolalarga ushbu meva haqida ularning yoshiga mos ma'lumotlar berildi. Shundan keyin bolalardan eshitgan ma'lumotlari asosida savollar berildi va javobni topgan bolaga olxo'ri mevasi tarqatildi. Tajribada qatnashgan tarbiyalanuvchilardan J. Sh. ismli qiz bola **olxo'ri** so'zini "**qo'shaloq**" deb o'zlashtirganligi qayd etildi.

Tarbiyachi: Shirina, bu mevaning nomi nima?

Bola: Qo'shaloq.

Tarbiyachi: yaxshilab eslab ko'rgan, biz bu meva nomini nima deb aytgan edik? Qani, esla-chi?

Bola: qo'shaloq. Ha, men har kuni yeyman bu mevani.

Tarbiyachi: voy, ajoyib-ku! Ayt-chi, kim senga olxo'ri olib beradi?

Bola: Buvim. Uyimizda ko'ro'p qo'shaloq bor. Buvim har kuni daraxtdan uzib beradilar.

Demak, bu bola ushbu meva nomini oldinroq eshitgan va bu mevani tatib ham ko'rgan. Lekin olingan natijaga ko'ra aytishimiz mumkinki, bola ushbu meva haqidagi dastlabki ma'lumotni olganda qo'shaloq so'zini ushbu meva bilan yonma-yon holatda o'zlashtirgan. Albatta, bir –biriga aloqasi bo'lmagan, shakl hamda talaffuz jihatdan bir-biridan farqlanuvchi bu ikki so'z bolaning meva nomini umuman farqli holda ham o'zlashtirishiga to'sqinlik qilmaganligini qayd etish zarur. Garchi bolaga bu so'zning asl ma'nosi bo'yicha yetarli tushunchalar berilgan bo'lsa-da, bola baribir o'z nutqida bu tushunchaga aloqasi bo'lmagan boshqa so'z bilan o'z nutqida foydalanishda davom etgan.

Tajriba kuzatuvdan shunday xulosa qilish mumkinki, bolalarga yangi so'zni ularni o'sha vaziyatga solib, so'ng bu so'z taqdim etilsa, ular bu so'zni osonlikcha o'zlashtira olishadi. Albatta, bu yerda yana bir muhim jihat shuki, bolalar tomonidan oldin bu so'z talaffuziga o'xshash boshqa bir so'z o'zlashtirilmaligi lozim. Aks holda yangi so'zlarning ma'nosi ikki xil bo'lib, ularning shakli va aytilishida o'xshashlik bo'lsa, bola birinchi o'zlashtirgan so'zi bilan ikkinchi so'zdan foydalanish maqsadida nutqida ishlatishi mumkin.

Xulosa va takliflar. O'zbek tilining ona tili sifatida o'zlashtirilishida so'zning qo'llanish chastotasi, shakl va ma'no jihatdan o'xshashligi ta'sir qiladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bola tilni, asosan, maktabgacha bo'lgan davrda o'zlashtirishiga qaramasdan til o'zlashtirish insonning butun umri davomida kechadigan jarayon bo'lib hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari, sotsiolingvistik va pragmatik jihatlari, shuningdek, bolalar nutqidagi qo'shimchalar tartibi o'rganilgan ekan, bolalar nutqidagi so'z o'zlashtirish tartibini o'rganish masalasi ham dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Qurbonova M. *O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. Fil.fan.nom...dis.* – Toshkent, 2009.
2. Krashen, S. *Principles and Practice in Second Language Acquisition.* New York: Pergamon Press. 1982. –P. 11.
3. Clark, Eve V. 2009. *First Language Acquisition.* –P.41.
4. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* –M., 1981. I jild. –B.92.
5. Bates, Elizabeth. 1976. *Language and context: The acquisition of pragmatics.* New York: Academic Press.
6. Akhtar, Nameera; Jipson, Jennifer & Callanan, Maureen. 2001. *Learning words through overhearing.* *Child Development* 72, 416-430.
7. Berko, Jean. 1958. *The child's learning of English morphology.* *Word* 14, 150-177.
8. Bloom, Luis. 1991. *Language development from two to three.* Cambridge: C.U.P.

FARMATSEVTIKA TERMINING SHAKLLANISHI

Safarova Olima Mustaf o'z qizi,

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

olimasafarova06@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada farmatsevtika terminining shakllanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, turli ta'riflari haqida munosabat bildiriladi. Sohasidagi yutuqlar, soha lingvistikasining rivojlanishi va terminlar tadqiqi haqida, shuningdek, farmakologiyaning rivojlanishi, qadimgi dorishunoslikning rivojlanishi, farma o'zagi asosida shakllangan terminlar haqida fikr yuritiladi. Farmatsevtika va dorixona terminlari bir xil ma'no anglatmasligi to'g'risidagi nazariyalar tadqiqi maqolada izohlanadi. Maqolada tibbiy lingvistikaning o'rganilishi va yangi terminlarning shakllanishi haqida ham ayrim fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, kognitiv terminologiya, termin, sotsiopragmatika, farmatsevtika, dorishunoslik, farmakognoziya, farmakologiya, farmatsiya, farmakokinetika, farmakogenomika.

ОБРАЗОВАНИЕ ТЕРМИНА ФАРМАЦЕВТИКА

Аннотация. В статье описана история термина фармацевтика, этапы развития, различные определения. Обсуждаются достижения в области терминологии, развития отраслевой лингвистики и исследования терминов, а также развития фармакологии, развития древней фармакологии и терминов, сформировавшихся на основе фармядра. В статье объясняется исследование теорий о том, что термины фармацевтика и фармацевция означают не одно и то же. В статье также высказываются некоторые размышления по поводу изучения медицинской лингвистики и образования новых терминов.

Ключевые слова: терминология, когнитивная терминология, термин, социопрагматика, фармацевтика, фармакогнозия, фармакология, фармацевция, фармакокинетика, фармакогеномика.

PHARMACEUTICAL TERM FORMATION

Abstract. The article describes the history of the pharmaceutical term, its stages of development, and various definitions. The achievements in this field, the development of the linguistics of the field and the study of terms, as well as the development of pharmacology, the development of ancient medicine, and the terms formed on the basis of the pharma core are discussed. The research of the theories that the terms pharmaceutical and pharmacy do not mean the same thing is explained in the article. The article also expresses some thoughts about the study of medical linguistics and the formation of new terms.

Keywords: terminology, cognitive terminology, term, sociopragmatics, pharmaceuticals, pharmacology, pharmacognosy, pharmacology, pharmacy, pharmacokinetics, pharmacogenomics.

Kirish. Terminologiya ilm-fan taraqqiyoti rivojini ko'rsatib beruvchi asosiy sohalardan biri sanaladi. Dunyo tilshunosligida terminologiya sohasini o'rganish va terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo'lib kelgan va bugun ham bu masala o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, so'nggi yillarda soha terminologiyasi, kognitiv terminologiya va sotsiopragmatik jihatdan terminologiyani o'rganish yangi tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanib ulgurdi.

Jahon tilshunosligida terminologiya sohasining rivojlanishi, G.O.Vinokur, D.S.Lotte, V.P.Danilenko, I.S.Kvitko, A.S.Gerd, M.N.Volodina, B.N.Golovin, Z.I.Komarova, V.N.Vasilyeva, V.M.Leychik[1-10] kabi olimlar tadqiqotlari bilan bog'liq.

Shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida ham terminologiya sohasi va terminlar tadqiqi alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi.

O'zbek lug'atchiligi tarixi uzoq davrlarga, ya'ni Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga borib taqalsa ham, terminologiyani fan sifatida tadqiq etish va turli sohalarga oid terminalogik lug'atlar tuzish XX asrning o'rtalarida gazeta va jurnallarga maqolalar e'lon qilish bilan boshlangan. Ulug' Tursunov tomonidan o'zbek tili terminologiyasini o'rganishga bag'ishlangan ilk risola e'lon qilindi[11]. N.T.Hotamov, H.A.Dadaboyev, E.A.Begmatov, G'M. Ismailov, B.B. Abdushukurov, H.V. Mirzaxmedova[12-17] va boshqa olimlar tomonidan ham o'zbek tili terminologiyasi va terminlar tadqiqi

o'rganilgan. Bir qator olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida terminologiya va terminlar haqida bir qancha konsepsiyalar ishlab chiqilgan.

V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababli fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi[3]. V.N. Shevchuk terminga quyidagicha ta'rifni beradi: "Termin – bu so'z bo'lib, o'rta asrlarda "aniqlash", "ifodalash" degan ma'nolarni bildirgan, qadimiy fransuz tilida mavjud bo'lgan "terme" leksemasi "so'z" degan ma'noni ifodalagan"[18,132]. O.Vinokurning fikricha, termin – har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi[19,3-10].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunoslari terminologiya va termin tushunchasiga quyidagi ta'riflarni keltirishgan.

A.Hojiyev "Tilshunoslik teminlarining izohli lug'ati" kitobida terminologiyaga quyidagi ta'rifni keltiradi. Terminologiya (termin+logos – so'z, ta'limot), 1. Biror ilm, kasb va sohaga oid terminlar majmui. Masalan, grammatik terminologiya, san'at terminologiyasi va b. 2. Tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi bo'limi[20,104-164].

H. Jamolxonov termin tushunchasiga quyidagicha munosabat bildiradi. "Terminlar fan-texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalariga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shone (botanikada); to'rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi"[21]. O'zbek tilshunosi S.Usmonov quyidagi ta'rifni keltiradi: "Termin gapdan tashqarida olinganda ham ma'lum bir aniq ma'no ifodalaydigan so'z yoki turg'un holatdagi so'z birikmasidir"[22, 4]

Terminologiya fanining rivojlanib, taraqqiy topishi turli sohaga oid terminlarning o'rganilishiga, yangi terminlarning paydo bo'lishiga va tadqiq etilishiga imkon yaratdi. Sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bir qator olimlarning ishida atroflicha tahlil qilindi va turli soha terminlarining paydo bo'lishiga imkon yaratdi. Masalan, harbiy terminologiya, paxtachilik terminologiyasi, pedagogik terminologiya, zargarlik terminologiyasi, kitobchilik terminologiyasi, bank-moliya terminologiyasi, tibbiy terminologiya, farmatsevtik terminologiya kabi soha terminlari tadqiq etilgan. Har bir soha o'ziga tegishli terminlar guruhiga bo'lib o'rganilmoqda. Masalan, tibbiy terminologiyaning o'zini ham turli guruhlarga ajratish mumkin: kasallik nomlari, dori-darmon nomlari, tibbiy uskuna nomlari ko'rinishida. Birgina kasallik nomlari ham bir necha makro va mikro terminlarga bo'linishi mumkin. Yurak qon-tomir kasalliklari, ko'z kasalliklari, asab sistemasi bilan bog'liq kasalliklar, ginekologik kasalliklar kabi. Sohaning rivoji – dori-darmon nomlarining kelib chiqishiga, ularning ishlab chiqilishi va saqlanishi bilan bog'liq terminlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Biz o'rganayotgan farmatsevtika terminining kelib chiqishi ham uzoq tarixga bog'liqligi bilan alohida ahamiyatga ega. Farmatsevtika termini farmatsiya o'zagidan kelib chiqqan bo'lib, bu haqida bir nechta qarashlar va talqinlar mavjud.

Farmatsevtika – farmakologiya, farmatsiya so'zlari bilan bir xil paradigmada qo'llanilib, vikipediya va izohli lug'atlarda ushbu istilohlarga turli xil izohlar berilganligini ko'rib o'tamiz.

Farmatsevtika – dori preparatlari va moddalarini ishlab chiqarish jarayoni va texnologik muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan qismi hisoblanadi. Ma'lumki, farmakologik xususiyatga ega bo'lgan ko'plab kimyoviy birikmalar xom holatda foydasiz yoki zararli bo'ladi. Farmatsevtika bunday moddaga ma'lum bir ishlov berish orqali qabul qilish yo'li va qo'llash usuli bilan bemorlarning ma'lum bir guruhini davolash uchun mos keladigan noyob dozalash shaklini ishlab chiqaradi[23].

Farmatsiya (yunoncha pharmakeia – dori; dori ishlatish) – dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha izlanishlar, tadqiqotlar, shuningdek, ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, sifatini nazorat qilish, standartlash usullari, davlat ro'yxatidan o'tkazish, saqlash, ular haqida axborot berish, dorixonona va davolash muassasalariga yetkazib berish va sotish kabi vazifalarni o'z ichiga oladigan ilmiy-amaliy faoliyatlar majmui[24].

Farmakologiya – dori-darmon mahsulotlarining organizmga ta'sirini va dorilarni qo'llashning usul va tamoyillarini o'rganadigan va belgilaydigan fan, dorishunoslik[25,680]. Farmakologiya tarixi insoniyat tarixi bilan birga boshlangan, chunki o'sha davlarda ham odamlar kasal bo'lganlar, yirtqich hayvonlarga, yong'inlarga duch kelganlar, ilonlar, chayonlar chaqqan, ular atrofdagi giyohlardan, hayvonot olamidan shifo, dori-darmon izlaganlar.

Farmatsiya – eng qadimgi fanlardan biri. Farmatsevtikaga oid bilimlarning kelib chiqishi neolit davrdan boshlanadi. Dori vositalari to'g'risidagi birinchi, batafsil ma'lumotlarni esa miloddan avvalgi 1700-

yillarda Qadimgi Misrda tuzilgan G. Ebers papirusidan olingan. Farmasiya – atamasi yunoncha “farmakeia” – “dorilarni qo‘llash” so‘zidan olingan. Bu so‘zning kelib chiqishi esa tarixning yanada qadimgi davrlariga to‘g‘ri keladi. Qadimgi Misrdagi tibbiyotga homiylik qiluvchi ma‘bud – Tot ibodatxonasi devoridagi suratlardan birida “far-ma-ki” so‘zi uchraydi.[26]. Bu saqlanganlik, ayniqsa kasalliklardan himoyalanganlik ma‘nosini beradi. Miloddan avvalgi 3-4 ming yillar davomida qadimgi misrliklarda, dori vositalarini tayyorlash huquqi faqat ruhoniylarning eng yuqori qatlamiga mansub kishilarda bo‘lib, ularning e‘tiqodlari bo‘yicha barcha davolash ishlari “tot” xudosi homiylikida olib borilgan va uni “farmaki”, ya‘ni “qutqaruvchi”, “himoyachi”, “davolovchi” deb nomlashgan. “Farma” o‘zagiga ega bo‘lgan so‘zlar aynan shu davrda hosil bo‘lgan va bizgacha turli xil nomlarda yetib kelgan. “Dorixona” so‘zining o‘zi Misrning “pharmaki” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “xavfsizlik yoki shifo berish” degan ma‘noni anglatadi. Buni Misr tibbiyot san‘ati xudosi Tot surati ostidagi yozuv ham tasdiqlaydi. Bundan, shubhasiz, yunoncha “farmakon” – “tibbiyot” so‘zi paydo bo‘lib, keyinchalik dunyoning barcha tillariga o‘tdi.

Hindiston madaniyatining eng qadimgi markazlaridan biri. Qadimgi Hind tibbiyotini o‘rganish manbalari arxeologik tadqiqotlar va yozma yozuvlar bo‘lib, ular orasida Vedalar, ayniqsa, Ayurveda yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu asarlarda dori vositalarini tayyorlash, ulardan foydalanish va ularning nomlari haqida ma‘lumotlar beriladi. “Ayur Veda” (Hayot ilmi) kitobida quyidagi so‘z bor: “Nodoning qo‘lida dori zahardir va uning ta‘sirida pichoq, olov yoki yorug‘lik bilan solishtirish mumkin”.

Xitoy dorishunosligi dunyodagi eng qadimiylardan biridir. Bizgacha saqlanib qolgan kitoblar qadimgi Xitoyda eramizgacha II-III asrlarda dorilarni tayyorlash, dorivor o‘simliklar va ulardan terapevtik foydalanishni tasvirlaydi. 652-yilda Sunn Su-Siaoning “Mingta oltin dorilar” kitobi chop etildi. 659-yilda Xitoy rasmiy davlat farmakopeyasini e‘lon qildi va bu dunyoda birinchi farmakopeya edi. Miloddan avvalgi III-II ming yillikdagi patriarxat davrida, cho‘pon, suruvni tomosha qilib, o‘simliklarning hayvonlarga terapevtik ta‘sirini payqadi. U hayvonlar fe‘lini kuzatish natijasida olgan malakasini insonlarga ham tatbiq etdi. Og‘riqni qoldiruvchi ta‘sirga ega paslyon kabi o‘simliklar dastlabki dorivor o‘simliklardan biri sifatida e‘tirof etilgan; juda erta, oshqozon traktida qitqlovchi ta‘sir qiluvchi o‘simliklar ham ajratib olindi. Shu davrda, ko‘knori, tamaki va nasha kabi o‘simliklarning narkotik (giyohvandlik) xususiyatlari ma‘lum bo‘ldi. Ibtidoiy odam foydalana boshlagan ko‘pchilik narsalar hali ham qo‘llanilmoqda: masalan, efedra dorivor o‘simlik sifatida 5 ming yil ilgari Xitoyda ma‘lum edi. Kinchona (xinin) daraxtining shifobaxsh xususiyatlarini inklar topgan. Ular birinchi bo‘lib tropik bezgakda bu daraxtning kukuni va po‘stlog‘ini ishlatishgan. Bahorgi tog‘rayxon (gorisvet) bilan suvchechak (vodyanka) va nafas qisilishi (otdishka)ni davolashgan.

Qadimgi Yunoniston (Gretsiya)da farmatsevtikaning rivojlanishi va bu terminning paydo bo‘lishi Gippokrat nomi bilan bog‘liq. U dorishunoslikka katta ahamiyat berdi va dorilarni retsept asosida tayyorladi. Bu juda ko‘p yangi dori nomlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Sharqiy tibbiyot va farmakologiya XI asrda butun dunyo bo‘ylab shuhrat qozondi va bu davr arab deb nomlandi. Arab davri. Bu taniqli tojik olimi Ibn Sinoning nomi bilan bog‘liq. Yevropada u Avitsenna sifatida tanilgan. Ushbu olimning “Tibbiyot san‘ati qonuni” asari juda mashhur bo‘lib, ko‘p asrlar davomida shifokorlar uchun qo‘llanma bo‘lib kelgan. U tibbiyot va farmakologiya rivojiga katta hissa qo‘shdi. Dorishunoslik sohasida dunyoga mashhur “Tib qonunlari” 1019-1020-yillarda yozilgan. Unda Ibn Sino 20 yil davomida to‘plagan va tizimlagan barcha ma‘lumotlar aks ettirilgan. “Tib qonunlari” beshta kitobdan iborat bo‘lib, anatomiya, fiziologiya, patologiya, terapiya, jarrohlik, gigiena, ovqatlanish masalalarini qamrab oladi. Asosiy retseptlar tahlili shuni aniq ko‘rsatadiki, Ibn Sino o‘zining salafiy merosxo‘ri va davrining tibbiyot darajasini bilgan. Masalan, murakkab dorilar uchun resept alifbo tartibida emas, balki 70 dan ortiq komponentlardan tashkil topgan eng murakkab preparatlarni yozishdan boshlangan. Keyinchalik oddiy reseptlar va ularning tayyorlash usullari izchil ta‘rifi kelgan.

Beshinchi kitobning birinchi qismida “Farmakopeyada joylashgan murakkab dorilar to‘g‘risida” deb nomlangan. Bu eng keng hajmli va X asrgacha qo‘llanilgan barcha murakkab dorilarni (katta taryoqlar va taryoq uchun kulchalar, katta va kichik bo‘tqalar, kukunlar, yalash uchun dorilar, siroplar va quyultirilgan sharbatlar, pilyulalar, moylar, plastirlar va boshqalar) tavsiflovchi 12 ta mustaqil maqolalardan iborat. Jami 508 murakkab dorilarni tarkibi va tayyorlash usullari jamlangan. Ibn Sino qaynash, kuydirish, sovutish, yuvish, ratifikasiya qilish va aralashtirish kabi texnologik jarayonlarni dori vositalari “kuchi” (terapevtik faolligiga) ta‘sirini o‘rganib chiqdi. U kimyoga qiziqqan va bu sohada ko‘p ishlagan. U fermentatsiya, koagulyatsiya, erish, sublimasiya kabi kimyoviy jarayonlar bilan tanish edi.

Dori saqlash muddati aniqlashga katta e‘tibor berdi. U uzoq muddatli saqlashni dori vositasi samaradorligini pasaytirishiga haqli ravishda ishongan. Ibn Sinoning aytishicha, “issiq iqlim sharoitida dorilar sovuqdan ko‘ra qisqa muddatda o‘z xususiyatlarini saqlab qoladi”.

“Tib qonunlari”ning muallifi og‘riqni yengillashtiradigan yoki kamaytiruvchi dorivor moddalarning tibbiy amaliyotida o‘rganish va tatbiq etishda katta ahamiyatga ega. Bu anesteziologiyaning dastlabki bosqichlari edi. U dori vositalarining giyohvandlik va og‘riqsizlantiruvchi xususiyatlariga ega bo‘lishini bilgan va ulardan foydalangan. Masalan, belladonna, dolchin, mandragora, afyun, sovuq, qorni og‘riqsizlantiruvchi vosita sifatida qo‘llagan.

Ko‘rinib turibdiki, farmatsevtika terminining ildizi “Tib qonunlari” asarida ham mavjud va dori vositalarini tayyorlash, ishlab chiqarish, saqlash va ulardan foydalanish kabi ma’nomlarni ifodalaydi. Ibn Sino dorivor vositalarning tarkibini, xususiyatlarini hamda kasallikka ta’sirini, dorivor vositalardan dorinoma bo‘yicha malham, ichimlik, dori tayyorlashni aniq yozgan.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, dorivor o‘simlik mahsulotlarining yuqori sifatli bo‘lish mezonini va unga qo‘shiladigan talabni aniqlash bilan Ibn Sino kelajak farmakognoziya faniga asos solgan. Dorivor o‘simlik mahsulotlarini yig‘ish vaqtlari, quritish usullari va saqlash muddatlari to‘g‘risidagi Ibn Sino fikrlari, uni dorivor mahsulotlarni yuqori sifatli bo‘lishiga qo‘ygan talablari, albatta, kelajakda farmakognoziyaning fan sifatida shakllanishiga va bu fanning maqsadlarini aniqlashga so‘zsiz o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Alloma dori vositalarini davolash maqsadida ishlatilishida asosiy uchta prinsipga rioya etilishi zarurligini ta’kidlaydi. Bular, birinchisi, dorilarni kayfiyatga qarab, ya’ni issiqlik yo sovuqlik, ho‘llik yo quruqligiga qarab tanlash qonuni, ikkinchisi, dorilarning miqdorini saqlash qonuni; bu ikkinchi qonun dorilarning og‘irligini o‘lchash qonuniga va dorilar kayfiyatini o‘lchash, ya’ni issiqlik, sovuqlik va boshqalarning darajasini aniqlash qonuniga bo‘linadi. Uchinchi esa dorilarni istemol qilish vaqtini aniqlash qonuni. Abu Ali ibn Sino qisqa ammo mazmunli hayot kechirgan, yaratgan asarlari ayniqsa “Tibbiy doston” tibbiyotni, xususan dorishunoslikni rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga buyuk alloma tabobat mavzuiga oid bir necha nazmiy asarlar yaratgan. U bunday asarlarni aruzning rajaz vaznida yozganligi jihatidan ularni urjuzalar deb atagan.

Beruniy umrining so‘ngida yaratgan “Kitab as-saydana fi-t-tibb” (“Tibbiyotda farmakognoziya kitobi”) asari yetarli o‘rganilgan emas. Uning yagona asl nusxasi 1927-yilda Turkiyaning Bursa shahrida topilgan va o‘sha yerdagi kutubxonada saqlanadi. Fors tiliga tarjima qilingan nusxasi esa 1899-yilda Hindistonning Lakshnau shahrida topilgan bo‘lib, hozirda Britaniya muzeyida saqlanadi. “Saydana”ni rus tiliga olim Ubaydulla Karimov o‘g‘irgan bo‘lib, “Fan” nashriyotida 1973-yilda nashr etilgan. “Beruniy” tanlangan asarlarining IV jildini tashkil etadi. “Saydana” farmakognozika asar bo‘lib, tibbiyotning quroli sanalmish dori-darmon tayyorlanuvchi vositalar haqidagi ma’lumotlar yig‘indisidir. Farmakognoziya grekcha “dori” va “bilim” ma’nomlarini anglatuvchi so‘zlardan iborat. Nabotot, hayvonot va ma’danlardan olinadigan dorivor vositalar haqidagi ilmiy fandir. “Saydana” o‘sha vaqtlari mavjud bo‘lgan dorishunoslik tarixi bo‘yicha yozilgan eng noyob manba hisoblanadi. Olimning bu asari Ibn Sinoning “Tib qonunlari”dan keskin farq qiladi.

Shunday qilib, dori vositalarini ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarga “farma” yoki “farmako” asosiga ega bo‘lgan nomlar berila boshlandi. Bu esa Terminologiya sohasida farma o‘zagi ostida bir nechta yangi terminlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bularning ayrimlariga izoh berib o‘tamiz.

Farmakokinetika – dorilarning so‘rilishini, oqsillar bilan bog‘lanishini, tarqalishini, biotransformatsiyasi va organizmdan chiqib ketish jarayonlarini o‘rganadi va dorining organizmda miqdoriy dinamikasi[27,5] haqida ma’lumot beradi.

Farmakodinamika – dori moddalarning ko‘rsatadigan ta’sirini, ta’sir kuchi va ta’sir mexanizmini o‘rganadi[27,12].

Farmakogenomika. Farmakogenetika (qadimgi yunoncha phrmokin — tibbiyot va genetika) – tibbiy genetika va klinik farmakologiyaning bo‘limi bo‘lib, u dori vositalari ta’sirining o‘zgaruvchanligining irsiy asoslarini o‘rganadi hamda dori vositalarining ta’sirini (nojo‘ya ta’sirini) bashorat qilish imkonini beradi[28,34]

Xulosa qilib aytganda, aholining tibbiy madaniyati, bilimi, dori-darmonlardan foydalanish, salomatligini tiklashga oid tushunchalarni anglash katta ahamiyatga ega. Bu esa dori-darmonlar haqidagi turli terminlarning kelib chiqish tarixi va shakllanish omillari bilan bog‘liq. Farmatsevtika terminining paydo bo‘lishi yangi sohalarning paydo bo‘lishiga, rivojlanishiga va yangi atamalarning shakllanishiga imkon yaratdi.

ADABIYOTLAR:

1. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии// Труды Московского Института истории, философии, литературы. – т. 5. – Москва, 1939.
2. Лотте Д. С. Образование и правописание трехэлементных научно- технических терминов. М.: Наука, 1968 .
3. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания.- М.,: Наука, 1977.
4. Квитко И. С. Термин в научном документе. Львов: Изд-во при Львовском ун-те, 1976.
5. Герд А. С. Формирование терминологической структуры русского биологического текста. Л.: Изд-во ЛГУ, 1981.
6. Головин Б. Н Лингвистические основы учения о терминах. М.: Высшая школа, 1987.
7. Комарова З.И. Семантическая структура специального слова и её лексикографическое описание. – Свердловск: Изд-во Уральского университета, 1991.
8. Васильева В. Н. Термин. // Большой энциклопедический словарь. М.: Большая Российская энциклопедия, 1998.
9. Володина М.Н., Когнитивно – информационная природа термина. – М.,2000.
10. Лейчик В.М. Проблемы отечественного терминоведения в конце XX века // Вопросы филологии. – Москва, 2000
11. Турсунов У.Т. Ўзбек терминологияси. Тошкент.1993
12. Ҳотамов Н.Т.. Развитие узбекской литературоведческой терминологии в советский период: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1971. – 28 с .
13. Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке. Дисс. канд. филол.наук.-Тошкент, 1981.
14. Бегматов Э.А.Ҳозирги Ўзбек адабий тилининг лексик қатлами –Тошкент: Фан, 1985.
15. Ismailov G‘M.. O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Fil.fan nom..diss... Toshkent.2011.
16. Abdushukurov B.B. Eski turkiy adabiy til leksikasi. –Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2015.
17. Mirzahmedova H.V.Fors tili transport terminlarining struktur qatlamlari va yasalish usullari: Filol.fan.nom...diss. aftorefarat. –Toshkent 2017 45 b.
18. Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке.–М: Воениздат,1983.-231 с.
19. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т. Сборник статей по языкознанию. - М., 1961.-С.3-10.
20. Ҳожиев А. Тилишунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент, 2002. – Б. 104. – 164 б.
21. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili II qism. Toshkent –“Talqin” –2005.
22. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – Б.4.
23. https://uz.wikipedia.org/wiki/Farmatsevtika_mahsulotlari.
24. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Farmatsiya>.
25. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдди. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 1-жилд. – 680 б. – Б.
26. “Farmakologiya asoslari” Toshkent – “ILM ZIYO” - 2007
27. Farmakologiya. T: “O‘zbekiston” Ilmiy nashriyoti, 2006. 351 b. 5-12.
28. Talking glossary of genetic terms: genome (англ.). National Human Genome Research Institute. Дата обращения: 1 ноября 2012. Архивировано 4 ноября 2012 года.

ERTAK VA AFSONALARDAGI MIFONIMLAR VA ULARNING QIYOSIY TADQIQI

Odilova Nozima Nizomiddinovna,
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
ingliz tili o'qituvchisi
g.p.odilovanozimaxonim@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola I.L.Kucheshevaning astronomik obyektlar, minerallar va kimyoviy elementlarni ifodalovchi antik davr mifonimlarini ingliz va nemis tillarida o'rganish natijalarini taqdim etadi. Tadqiqot antik mifologiyadagi mifonimlarning tematik tasnifini ikki asosiy guruhga ajratadi: minerallar va kimyoviy elementlarni ifodalovchi mifonimlar, astronomik obyektlarni, jumladan, sayyoralar, yulduzlar, yulduz turkumlari, yo'ldoshlar va asteroidlarni ifodalovchi mifonimlar. Maqolada rus tadqiqotchisi R.Z. Muryasovning fikrlari ham e'tiborga olinadi. U qadimgi mifologiyalardagi xudolar va qahramonlarning nomlarining umumiy otdan maxsus nomga o'zgarishi orqali boshqa tillar tizimiga kirib kelganini ta'kidlaydi. Muryasovning ta'kidlashicha, bunday nomlar ma'lum bir madaniyat yoki adabiyot kontekstida ishlatilganida, o'sha madaniyatning tarixiy va madaniy qismlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Tilshunoslik va semantika nuqtayi nazaridan, so'zlarning yaratilishi va ularning ma'nolari muhim o'rganiladi. Mifonimlar va spellonimlar tilning qanday ishlashini, yangi so'zlarning qanday paydo bo'lishini va til rivojlanishini tushunishga yordam beradi. "Spellonimlar" kabi atamalar sehrli yoki fantastik dunyolar yaratishda ijodkorlar uchun muhim vositalar bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola mifonimlarning tematik va funksional rolini o'rganish orqali, ularning tillararo aloqalari va madaniy kontekstini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: mifonimlar, mifofitonimlar, mifozonimlar, spellonimlar, etimologiya, mifologiya, astronomik obyektlar, tilshunoslik, semantika, madaniy kontekst, tarixiy aspekt.

МИФОНИМЫ В СКАЗКАХ И ЛЕГЕНДАХ И ИХ СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования античных мифонимов, обозначающих астрономические объекты, минералы и химические элементы, на материалах английского и немецкого языков, проведённого И.Л. Кучесевой. Исследование разделяет тематику античных мифонимов на две основные группы: мифонимы, обозначающие минералы и химические элементы, и мифонимы, обозначающие астрономические объекты, такие как планеты, звёзды, звёздные скопления, спутники и астероиды. Также в статье рассматриваются взгляды российского исследователя Р.З. Мурясева. Он подчёркивает, что имена богов и героев древних мифологий вошли в другие языковые системы через трансформацию от общего имени к конкретному. По мнению Мурясева, такие имена, используемые в контексте конкретной культуры или литературы, помогают лучше понять исторические и культурные аспекты этой культуры.

С точки зрения лингвистики и семантики, важным является исследование того, как создаются слова и какие у них значения. Мифонимы и spellонимы помогают понять, как функционирует язык, как появляются новые слова и как развивается язык. Термины, такие как "spellонимы", могут играть важную роль в создании волшебных или фантастических миров и быть полезными для писателей, сценаристов и других деятелей. В заключение, статья помогает более глубоко понять тематическую и функциональную роль мифонимов, их межъязыковые связи и культурный контекст.

Ключевые слова: мифонимы, мифофитонимы, мифозонимы, spellонимы и их этимология. мифология, астрономические объекты, лингвистика, семантика, spellонимы, культурный контекст, исторический аспект.

MYTHONYMS IN FAIRY TALES AND LEGENDS AND THEIR COMPARATIVE STUDY

Abstract. This article presents the results of I.L. Kuchesheva's study on ancient mythonyms denoting astronomical objects, minerals, and chemical elements, based on English and German materials. The research categorizes ancient mythonyms into two primary groups: those representing minerals and

chemical elements, and those representing astronomical objects such as planets, stars, star clusters, moons, and asteroids. The article also incorporates insights from Russian scholar R.Z. Muryasov, who emphasizes that names of deities and heroes in ancient mythologies have entered other linguistic systems through the transformation from generic terms to specific names. According to Muryasov, such names, when used within a particular cultural or literary context, help in understanding the historical and cultural aspects of that culture more effectively. From a linguistic and semantic perspective, the study examines how words are created and their meanings. Mythonyms and spellonyms assist in understanding how language functions, how new words emerge, and how language develops. Terms such as "spellonyms" can play a significant role in creating magical or fantastical worlds, serving as valuable tools for writers, screenwriters, and other creators. In conclusion, this article contributes to a deeper understanding of the thematic and functional roles of mythonyms, their interlinguistic connections, and cultural context.

Keywords. *Mythonyms, mythofitonims, mythozonims, spellonyms, etymology, mythology, astronomical objects, linguistics, semantics, cultural context, historical aspect*

Kirish. Ertak va afsonalardagi mifonimlar va ularning qiyosiy tadqiqi bir qator izlanishlarda olib borilgan. Masalan, V.V.Oshepkovaya, N.V.Solovyevalar Britaniya ertaklarida mifonimlar bir turi bo'lgan spellonimlar va ularning etimologiyasini, o'zbek tadqiqotchisi B.M.Mirsanov nemis va o'zbek tillaridagi mifonimlarning mifofitonim hamda mifozoonim turlarini qiyosiy o'rganishgan. Bundan tashqari, rus tadqiqotchisi I.L.Kuchesheva astronomik obyektlar, minerallar va kimyoviy elementlarni ifodalovchi antik davr mifonimlarining ingliz va nemis tillari materiallari qiyosida o'rganib, antik davrdan olingan mifonimlarning tematik tasnifini quyidagicha keltiradi: 1) minerallar va kimyoviy elementlarni ifodalovchi mifonimlar; 2) astronomik obyektlarni (sayyoralar, yulduzlar, yulduz turkumlari, yo'ldoshlar, asteroidlar) ifodalovchi mifonimlar. Mifonimlar tadqiqi haqida so'z yuritganda, rus tadqiqotchisi R.Z.Muryasovning ham xulosalari ahamiyatga molik. Uning fikricha, qadimgi mifologiyalardagi xudolar va qahramonlarning nomlari turdosh otdan atoqli otga o'zgarishi orqali boshqa tillar tizimga kirib kelgan. Agar bu so'zlar ma'lum bir madaniyat yoki adabiyot kontekstida ishlatilsa, ularni o'rganish o'sha madaniyatning ko'rgazmali qismlarini tushunishga yordam beradi. Masalan, mifonimlar afsonalar va rivoyatlarni aks ettirishi mumkin, bu esa o'sha madaniyatning tarixiy va madaniy kontekstini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. **Tilshunoslik va semantika nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak** tilshunoslikda so'zlarning qanday yaratilganligi va ularning ma'nolari o'rganilishi muhimdir. Mifonimlar va shunga o'xshash atamalar tilning qanday ishlashini, yangi so'zlarning qanday paydo bo'lishini va tilning qanday rivojlanishini tushunishga yordam beradi. Yangi so'zlar yaratish va ularni qanday ishlatish ijodiy jarayonni rivojlantiradi. "Spellonimlar" kabi so'zlar sehrli yoki fantastik dunyolar yaratishda yordam berishi mumkin, bu esa yozuvchilar, ssenariy mualliflari va boshqa ijodkorlar uchun foydalidir. Qisqa qilib aytganda **Mifonimlar:** Asosan afsonalar va mifologiya bilan bog'liq bo'lgan nomlar. **Mifofitonimlar:** Afsonaviy tushunchalar va maxsus tasniflar bilan bog'liq bo'lgan nomlar. **Mifoozonimlar:** Afsonaviy tushunchalar va ixtiro qilingan yoki maxsus nomlar. **Spellonimlar:** Sehrli yoki jodugarlik bilan bog'liq bo'lgan nomlar.

Qo'llanilgan metod va manbalar: Ertakdagi sehrli va mifologik elementlar, masalan, jodugarlar, ajdarlar yoki sehrli hayvonlar, tasviraganda **tasvirlash metodi** ishlatiladi. Bu metod ertakning sarguzashtli va sirli atmosferasini yaratadi va o'quvchini hikoyaga jalb qiladi. Metafora va simbolizm sehrli buyumlar va mifologik mavjudotlar orqali qahramonlar o'z maqsadlariga erishadilar va o'zlarining donishmandliklari bilan o'rgatadigan saboqlarni olishadi. Bu metod xalq orasida qadimiy qadriyatlarini o'rgatish va hikoyaning mag'zini boyitish uchun ishlatiladi. Sehrli dunyoga kirish va ko'plab sinovlardan o'tish, hikoyaga dinamik va qiziqarli xususiyatlar qo'shadi. Bu metod ertakning sarguzasht va sirli xususiyatlarini kuchaytiradi. Bu metodlar birgalikda ishlatilishi orqali ertakning jozibadorligini, axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatini, shuningdek, tasviriy va sarguzasht elementlarini kuchaytiradi.

Ertaklardagi afsonalar ko'pincha bir-biriga to'g'ri keladi. Afsonalar odatda xudolar, yaratilish hikoyalari bilan bog'liq bo'lib, dunyo yoki tabiat hodisalarining kelib chiqishini tushuntirsa, ertaklar odatda axloqiy saboqlar va insoniy tajribalarga e'tibor qaratib, inson xarakterlari va sehrli elementlarni o'z ichiga oladi. Biroq, afsonalar va ertaklar kesishgan holatlar mavjud. Misol uchun ajdarlar, devlar va parilar afsonalardagi mavjudotlar kabi ertaklarda uchratish mumkin. Bu mavjudotlar ko'pincha xazina qo'riqchilari, betartiblik kuchlari yoki qahramonga yordamchi qahramon obrazida gavdalanadi.

Mifonimlar va spellonimlarning G'arb va Sharq ertak va afsonalarda uchrashi va badiiy tahlili. "Kelpi va ko'l" ertagini oladigan bo'lsak, Kelpi-sehrli ot ko'rinishidagi mavjudot bo'lib Shotland va Britaniya xalq og'zaki ijodida uchraydi. Ular ko'l va suv atrofida yurib insonlarni o'ziga mahliyo qilib chorlashadi va suv domiga tortishadi. Steel, F.A (1918) "Fairy Tales of the British Isles" kitobidan olingan

[1-3]. Kelpi (ot ko'rinishidagi mahluq)ko'l bo'yiga suv olish maqsadida kelgan qizaloqni o'ziga rom qiladi. Qiz unga yaqinlashayotganda cho'pon yigit ko'rib qoladi va sehrli qamchi yordamida uni taslim qilmoqchi bo'ladi. Kelpi yengiladi va ozod etishni iltimos qiladi. Cho'pon yigit boshqa insonlarni bezovta qilmaslikni buyuradi va uni ozod etadi. Kelpi va'da beradi va suvga kirib g'oyib bo'ladi. Qissadan hissa shuki chiroyli ko'ringan har bir jism va mavjudotga ishonish mumkin emasligini aql idrok bilan qaror qabul qilish kerakligini ochib beradi. Boshqa bir misol bu ertak yetim qiz va uning o'gay onasining yolg'onlari natijasida yuzaga kelgan kutilmagan vaziyatlar va qizning taqdiri shu qiyinchiliklardan keyin baxtga erishishi haqidadir. Inson va'da berayotganda o'ylab, mulohaza qilib keyingi gapirishi kerakligi aks holda yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ilgari suradi. O'gay ona qirolichaga qizi sehrgarligi, somonlarni ham oltinga aylantirishi mumkinligi haqida yolg'on ma'limot beradi. Qirolicha zudlik bilan qizni saroyga keltirtiradi va bir kechada somonlarni oltinga aylantirishni buyuradi. Qiz yig'lab, chorasiz qolganda **sehrgar (Goblin) kichkina jin paydo bo'ladi va unga yordam berishni taklif qiladi**. Evaziga uch kun ichida uning ismini topishi kerakligi, topolmasa unga turmushga chiqishini talab qiladi. Qiz chorasizlikdan rozi bo'ladi. Goblin unga va'da berganidek somonlarni tillaga aylantiradi va uch kundan keyin kelib qizdan uning ismi nima ekanligini so'rashini aytadi. Tilla somonlarni ko'rgan qirolicha zudlik bilan qizni shahzodaga uylantirmoqchi bo'ladi ammo Goblinga bergan va'dasi yodiga tushadi. Qirolichaga bu haqida so'zlab beradi. Qirolicha yordamchilari orqali Goblinning ismini topishadi va qiz Goblinga turmushga chiqish mas'uliyatidan ozod bo'ladi. Qissadan hissa shuki inson va'da berishdan oldin o'ylab, tafakkur qilishi kerakligi ilgari suriladi. [2] O'zbek adabiyotida mifonimlar va spellonimlar qatnashgan ertaklardan biri sifatida "Gul and Gulbadan" ertagini keltirish mumkin. Bu ertakda mifologik va sehrli elementlar ko'p uchraydi. Ertakda Gul and Gulbadan ismli ikki go'zal qiz haqida hikoya qilinadi. Ularning hayoti sehrli kuchlar bilan to'ldirilgan. Bu qizlar bir kuni o'zlarining sehrli ko'zoynaklari yoki shunga o'xshash sehrli buyumlari yordamida ko'plab sarguzashtlarga duch keladilar. **Gul** ertakdagi asosiy qahramonlardan biri bo'lib, u juda go'zal va donishmand. Gulning sehrli ko'zoynaklari mavjud bo'lib, ular orqali u sehrli olamni ko'ra oladi. **Gulbadan** esa gulning opa-singlisi va do'sti, u ham sehrli qobiliyatlarga ega. Gulbadan odatda aqlli va jasoratli bo'ladi. Ertakda ko'plab sehrli buyumlar, masalan, ko'zoynaklar yoki qilichlar mavjud. Bu buyumlar qahramonlarga maxfiy dunyolarni ochishga yoki yovuz kuchlarga qarshi kurashishga yordam beradi. [7]

Ertakda sehrli va mifologik elementlar, masalan, jodugarlar, ajdarlar yoki sehrli hayvonlar mavjud. Bu elementlar ertakning sarguzashtli va sirli atmosferasini yaratadi. Ertakda Gul va Gulbadan o'zlarining sehrli buyumlari yordamida turli muammolarni hal qiladilar. Ular yovuz kuchlarga qarshi kurashadilar va adolatni tiklaydilar. Sehrli dunyoga kirish uchun ular ko'plab sinovlardan o'tishadi va nihoyat, yaxshilikka erishadilar. Ertak orqali yaxshilik va yomonlik, adolat va haqiqiy kuchning ahamiyati haqida gapiriladi. Sehrli buyumlar va mifologik mavjudotlar orqali qahramonlar o'z maqsadlariga erishadilar va o'zlarining donishmandliklari bilan o'rgatadigan saboqlarni olishadi. Xulosa qilganda "Gul and Gulbadan" ertagi mifonimlar va spellonimlar yordamida o'zining ajoyib va sarguzashtli hikoyasini yaratadi. Bu ertak xalq orasida qadimiy mifologiya va sehrli elementlar orqali qadimiy qadriyatlarni o'rgatadi va hikoyaning mag'zini boyitadi.

G'arb va Sharq adabiyoti mifologiya va sehrli nomlarni qanday ishlatishini taqqoslash, ularning madaniyatlari va tarixiy kontekstlari bilan bog'liq qiziqarli farqlarni ko'rsatadi. Keling, ba'zi muhim nuqtalarni ko'rib chiqamiz. Mifonimlar (afsonalar va mifologiya bilan bog'liq bo'lgan nomlar). G'arb adabiyotini oladigan bo'lsak Grek yoki Rim mifologiyasiga asoslangan nomlar keng tarqalgan. Misol uchun, Zeus (Grek mifologiyasida), Mars (Rim mifologiyasida) kabi nomlar. [5-6]

G'arbiy mifologiya ko'pincha qadimgi qahramonlar, xudolar va afsonalar bilan bog'liq, ularning hikoyalari ko'plab roman, she'riy asar va pyesalarda aks etgan. Mifoozonimlar (afsonaviy tushunchalar va ixtiro qilingan yoki maxsus nomlar) fantaziya janridagi asarlarning ko'pida afsonaviy tushunchalar va ixtiro qilingan nomlar ishlatiladi. J.R.R. Tolkienning "Hobbit" va "Yuz yil davomida" kabi asarlarida, "Mordor", "Gondor" kabi maxsus ixtiro qilingan joylar mavjud. Spellonimlar (sehrli yoki jodugarlik bilan bog'liq bo'lgan nomlar) g'arbiy sehrli adabiyotda, "Hogwarts", "Merlin" kabi nomlar mavjud. Sehrli nomlar ko'pincha xayoliy dunyolar, sehrli qudratlar yoki jodugarlar bilan bog'liq. Sharq Adabiyoti mifonimlari (afsonalar va mifologiya bilan bog'liq bo'lgan nomlar) ko'p hollarda tabiat kuchlari, xudolar va qahramonlar bilan bog'liq. Sharq adabiyotida, "Xan" (G'arbiy Osiyo afsonalarida) yoki "Fenghuang" (Xitoy mifologiyasida) kabi tasniflangan nomlar ishlatiladi. Ularni taqqoslaydigan bo'lsak kontekstual farqlar G'arbiy adabiyotda afsonaviy va sehrli nomlar ko'pincha o'ziga xos fantastik dunyo va tarixiy mifologiyalarga asoslanadi. Sharq adabiyotida esa ko'proq an'anaviy va diniy mifologiyalar asosida ishlatiladi. [3-4] G'arbiy adabiyotda ixtiro qilingan nomlar ko'pincha madaniyatlararo aralashuv yoki yangi

dunyolar yaratishga asoslanadi. Sharqiy adabiyotda esa bu nomlar ko‘proq an’anaviy tushunchalar va tarixiy hikoyalar bilan bog‘liq. Sehrli elementlarni G‘arbiy sehrli adabiyotda sehr ko‘pincha maxsus ixtiro qilingan qoidalar va muhit bilan bog‘liq bo‘lsa, Sharqiy adabiyotda sehr ko‘proq tarixiy va diniy kontekstlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Adabiyotlarni taqqoslash janrlar, uslublar, va yozish usullaridagi o‘zgarishlarni o‘rganishga imkon beradi. Masalan, G‘arb adabiyotida ko‘proq realistik tasvir va tafsilotlarga e‘tibor qaratiladi, Sharq adabiyotida esa ko‘proq simvolik va metaforik usullar ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, bu taqqoslash orqali adabiyotlarning qanday estetik uslublar va janrlar orqali ifodalanishini tahlil qilish mumkin. G‘arb va Sharq adabiyotlarini solishtirish tarixiy va madaniy kontekstlarni aniqlashda yordam beradi. Masalan, Yevropa adabiyoti ko‘pincha ijtimoiy va siyosiy inqiloblar bilan bog‘liq bo‘lsa, Sharq adabiyoti ko‘proq diniy va ma‘naviy qadriyatlar bilan bog‘liqdir. Taqqoslash orqali, adabiyotlarning tarixiy rivojlanishiga ta‘sir etgan omillarni aniqlash mumkin. Shuningdek, adabiy asarlarning estetik va tematik xususiyatlarini o‘rganish mumkin. G‘arb adabiyotida individualizm, romantik muhabbat, va erkinlik kabi temalar keng tarqalgan bo‘lsa, Sharq adabiyotida ko‘proq ma‘naviylik, diniy hikmatlar, va tabiat bilan uyg‘unlik mavzulari ustuvor bo‘ladi. Bu adabiy asarlarning qanday tematik va estetik yondashuvlarni ifodalashini tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. *Beaumont, C. R. Fairy Tales of the British Isles. 2019, books.google.ie/books?id=tBfTygEACAAJ&dq=steel,+F.A.++Title:+Fairy+Tales+of+the+British+Isles+(&hl=&cd=1&source=gbs_api.*
2. *Gobbo, Federico. “David J. Peterson. The art of language invention: From horse-lords to dark elves, the words behind the world-building.” Language Problems & Language Planning, vol. 41, no. 2, Oct. 2017, pp. 214–16. <https://doi.org/10.1075/lplp.41.2.13gob>.*
3. *Gilbert, Glenn G., and William Labov. “The Social Stratification of English in New York City.” Language, vol. 45, no. 2, JSTOR, June 1969, p. 469. Crossref, <https://doi.org/10.2307/411682>.*
4. *Wayman, T., Mayr, S., Barbour, D., & Balan, J. (2009). Wild Words: Essays on Alberta literature. In Athabasca University Press eBooks. <https://doi.org/10.15215/aupress/9781897425305.01>*
5. *Hunt, Peter. “J.R.R. Tolkien : The hobbit and The lord of the rings.” Palgrave Macmillan eBooks, 2013, [ci.nii.ac.jp/ncid/BB13908732](https://doi.org/10.1017/9781107008732).*
6. *Baleghizadeh, Sasan, and Maryam Moghimi. “A Survey of ELT Teachers and Learners’ Perception of Learner’s Autonomy in Iran and Turkey.” Critical Language and Literary Studies, vol. 18, no. 26, CMV Verlag, June 2021, pp. 15–34. Crossref, <https://doi.org/10.52547/cls.18.26.15>.*
7. *Grabe, William, and Ronald Wardhaugh. “An Introduction to Sociolinguistics.” Language, vol. 64, no. 2, JSTOR, June 1988, p. 443. Crossref, <https://doi.org/10.2307/415470>*
8. <https://www.natlib.uz/>

**O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDAGI -day/dek AFFIKSLI TURG'UN VA ERKIN
O'XSHATISHLAR TADQIQI**

*Latifova Maftuna Yashin qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o'qituvchisi
Asadov To'lqin Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasasi dotsenti, f.f.n.*

Annotatsiya. Maqolada turg'un va erkin o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlari badiiy matn doirasida o'rganildi, misollar keltirildi va izohlandi. O'xshatish qiyosga asoslanadigan eng qadimgi tasviriy vosita sanalib, ularning lingvistik tadqiqi millatimizning qadim o'tmishi, dunyoqarashi, narsalarni bir-biriga qiyoslashdagi salohiyati kishilarning ma'naviy olami bilan uzviy bog'liq bo'lishi haqidagi fikrlar keltirildi. Turg'un o'xshatishlarning lisoniy hodisa, erkin o'xshatishlarning nutqiy hodisa ekanligi, ularning lug'atlarga munosabati kuzatildi. O'tkir Hoshimov asarlaridagi -day/dek affiksli erkin o'xshatishlarning yuzaga kelish omillari, tarkibiy-mazmuniy tuzilishi tasnif va tavsif etildi. Erkin o'xshatishlarni paydo bo'lishi, bundagi zarurat, ularning matndagi stilistik-funksional o'rni misollar asosida keng tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: o'xshatish, tasviriy vosita, o'xshatish komponenti, turg'un o'xshatish, an'anaviy o'xshatish, erkin o'xshatish, o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi, o'xshatish vositasi.

**ИССЛЕДОВАНИЕ УСТОЙЧИВЫХ И СВОБОДНЫХ АНАЛОГИЙ С АФФИКСОМ-
DAY/DEK В РАБОТАХ УТКИРА ХАШИМОВА**

Аннотация. В статье были изучены лингвистические особенности устойчивых и свободных аналогий в рамках художественного текста, приведены примеры и даны пояснения. Сравнение считается древнейшим изобразительным средством, основанным на сравнении, и их лингвистическое исследование выдвинуло мысль о том, что древнее прошлое нашей нации, её мировоззрение, её потенциал в сравнении вещей друг с другом неразрывно связаны с духовным миром людей. Наблюдалось, что устойчивые аналогии - языковое явление, а свободные аналогии - речевое явление, их отношение к лексике. Классифицированы и описаны факторы возникновения, структурно-содержательная структура свободных аналогий с аффиксами-day/dek в работах Уткира Хашимова. Возникновение свободных аналогий, необходимость в них, их стилистико-функциональная роль в тексте широко исследовались на примерах.

Ключевые слова: аналогия, изобразительная среда, компонент сравнения, фиксированная аналогия, традиционная аналогия, свободная аналогия, субъект сравнения, эталон сравнения, основа сравнения, средство сравнения.

**A STUDY OF THE-DAY/DEK AFFIX STEADY AND FREE LIKENESSES IN THE WORKS
OF THE UTKIR HOSHIMOV**

Abstract. In the article, the linguistic features of stagnant and free analogies were studied within the framework of the artistic text, examples were given and annotated. The analogy is considered the oldest pictorial instrument based on comparison, and opinions have been drawn that their linguistic study is inextricably linked with the spiritual world of people, the ancient past of our nation, the worldview, the potential for comparing things with each other. It was observed that stationary analogies are a linguistic phenomenon, free analogies are a speech phenomenon, their attitude to dictionaries. The factors of occurrence, structural-substantive structure of the-day/dek affix-free analogies in the works of Hoshimov were classified and described. The emergence of free metaphors, the necessity in it, their stylistic-functional place in the text were extensively researched on the basis of examples.

Keywords: emulation, pictorial medium, emulation component, stationary emulation, traditional emulation, free emulation, emulation subject, emulation benchmark, emulation basis, emulation tool.

Kirish. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlar, uning tasviriy vosita sifatidagi badiiy matndagi roli, lingvistik tabiati atroflicha o‘rganilgan[1;6;7]. Yaqin yillarda o‘zbek tilidagi an’anaviy (turg‘un) o‘xshatishlarni jamlagan maxsus lug‘atning yaratilishi bu boradagi ishlar ko‘lamini belgilovchi dalil ham bo‘la oladi[5]. Sintaktik birliklar sanaladigan badiiy tasvir vositalari, jumladan, o‘xshatish “trop” (troplar) termini ostida ham o‘rganiladi. Troplar nutq ta’sirchanligini oshirish, ifodaviylikni ta’minlash maqsadida qo‘llanadi[3,100].

O‘xshatishlar jonli so‘zlashuv tili hamda badiiy matnda keng qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. Prof. S.Karimov o‘xshatishlar qo‘llanishi borasida shunday yozadi: “So‘zlashuv jarayonida o‘xshatish hikoya qilayotgan narsa va hodisaning kengroq ko‘lamdagi obrazini chizishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda esa uning vazifasi ancha mas’uliyatliroq. U badiiy adabiyotda obraz yaratishga ko‘maklashadi”[3,101]. O‘xshatishlar tilning ichki imkoniyati, har bir til jozibasini, shu tilda fikrlovchi shaxs tafakkur ko‘lami, dunyoni idrok etish salohiyati bilan ham baholanadi. “Til dunyoni bilish..., ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajarar ekan”[4,44], bunda o‘xshatishlar ham til va nutqda o‘z pozitsiyasiga ega, albatta. Zero, tilshunos olim N.Mahmudov ta’kidlaganidek, “Tilni faqat kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini...aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo mosuvo bo‘lgan suniy tilga tenglashtirishdan, yo‘l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas”[4,44].

O‘xshatish qiyosga asoslanadigan eng qadimgi tasviriy vosita sanaladi. An’anaviy o‘xshatishlarni tadqiq va tahlil etish orqali millatimizning qadim o‘tmishi, dunyoqarashi, o‘xshatishdagi salohiyati, ma’naviy olami, idrokini ham his etib turamiz. O‘xshatishda uning tuzilmasida, odatda, to‘rt unsur nazarda tutiladi: 1) o‘xshatish subyekti; 2) o‘xshatish etaloni; 3) o‘xshatish asosi; 4) o‘xshatish vositasi. Ayrim manbalarda “o‘xshatish maqsadi” haqida ham so‘z boradi [9,153].

Asosiy qism. O‘xshatish etaloni o‘xshatish konstruksiyasining poetik qimmatini, estetik salmog‘ini belgilaydi. O‘xshatish etaloni qanchalik original bo‘lsa, o‘xshatish konstruksiyasi ham shu darajada ohorli bo‘ladi. Har qanday o‘xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo‘lgan holatlarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarining eng nozik jihatlarni kitobxon ko‘zi o‘ngida go‘zal bo‘yoqlarda gavdalantirishdan iborat [8,281]. Mazkur holat ko‘pincha muallif nutqi bilan bog‘liq o‘xshatishlarda kuzatiladi. Muallif o‘xshatishlari *erkin o‘xshatishlar* ham deyiladi. Erkin o‘xshatishlar ijodkor mahoratini ko‘rsatuvchi omillardan biri sanaladi. Hayot falsafasining chuqur bilimdonlari, shuningdek, mushohadali, til sezgirligi yuqori bo‘lgan ijodkorlarga mantiqqa asoslangan, go‘zal ko‘rinishli o‘xshatishlar yaratishga usta bo‘lishadi [2,92]. Erkin o‘xshatishlar asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki uning tuzilmasiga mansub unsurlar doim ham qat’iy bo‘lmaydi, ular o‘zgarib turadi.

Iste’dodli yozuvchi O‘tkir Hoshimov asarlarida *-day/dek* grammatik vositasi (o‘xshatish vositasi) orqali hosil bo‘lgan turg‘un o‘xshatishlar kop uchraydi. Bu guruhga quyidagilar mansub: arvoqdek, ayiqdek, azroildek, angishvonadek, baliqdek, barkashdek, bilakdek, boladek, bulbuldek, buloqdek, bo‘zdek, bo‘yradek, bo‘riday, danakdek, devdek, devordek, dokadek, dumdek, do‘zaxdek, do‘ppidek, ertakdek, echkidek, eshakdek, farzanddek, farishtadek, gadoydek, gavhar donalaridek, guldek, go‘rday, halqaday, haykaldek, hayvondek, ho‘kizdek, ilondek, ilon chaqqandek, ipdek, kaftdek, kafandek, kalladay, kamalakdek, kapalakdek, koptokdek, kosovdek, katalakdek, ko‘zdek, marjondek, marmarday, maymundek, mixday, mix qoqqanday, moldek, momaqaldiroqdek, moyday, munchoqdek, musichadek, muzdek, mushtdek, mushukdek, nayzaday, nondek, nordek, nuqradek, odamdek, olmadek, olovdek, omburdek, otday, otning kallasidek, oydek, patnisdek, pashshsadek, piyoladek, piyoz po‘stidek, popukdek, pufakdek, qaldirg‘ochdek, qaldirg‘och bolasidek, qasrdek, qilichday, qordek, qopdek, qoqqan qoziqdek, qozondek, qurtdek, quyunday, quyoshday, quyunde, qushdek, qong‘iroqday, qo‘ydek, qochqordek, rapidadek, sandiqdek, sehrlangandek, soyaday, soch tolasidek, supadek, suratday, sutdek, suvdek, suv quygandek, so‘loqmondek, tarashadek, tariqday, taxtaday, tayoqdek, tangadek, temirdek, terakday, tironqday, talqondek, tovuqday, toyloqdek, tog‘dek, toshbaqadek, tog‘dek, toshday, tuxumdek, tuyadek, tushday, undek, vulqondek, xumchadek, yashindek, yaproqday, yeldek, yeb yuborgudek, qurbaqadek, quzg‘undek, yoqutdek, yulduzdek, zanjirdek, zahardek, zig‘irday, zulukdek, o‘pqondek, o‘radek, o‘tdek, o‘qday, g‘unchaday, shamdek, shapaloqdek, sharpaday, sherday, chaqmoqdek, chayondek, chayon chaqqandek, chigirtkaday, chillakdek, chinnidek, choynakdek, chumoliday, chumchuqdek, cho‘michdek, cho‘gdek va b. Badiiy matindan olingan misollarni kuzatamiz: 1. *Xayolimga yashindek urilgan fikrdan seskanib ketdim. (“Tushda kechgan umrlar”)* 2. *Betonchi Safar aka ayiqdek lapanglab vagoncha tomonga birinchi bo‘lib yurdi. (“Ikki eshik orasi”)* 3. *Lo‘ppi yuzi yanayam shishib, barkashdek bo‘lib ketgan. (“Dunyoning ishlari”)* 4. *U yaxshi chalayotganini, tor o‘zining qo‘lida bulbulday sayrayotganini bilar, bilgan sayin zavq bilan*

chertardi. (“Bahor qaytmaydi”) 5. **Devdek** mashina u yoqqa bursa, u yoqqa buriladi, bu yoqqa bursa – bu yoqqa. (“Ikki eshik orasi”)

-day/dek vositali turg'un o'xshatishlarning lingvistik tadqiqi – semantik-struktur tahlili quyidagi xulosalar chiqarishimizga asos bo'ladi:

I. Tarkiban sodda va murakkab o'xshatishlar:

1. Sodda tarkibli o'xshatishlar: *azroildek, angishvonadek, boladek, devordek, dokadek, dumdek, do'zaxdek, do'ppidek, ertakdek, echkidek, eshakdek, farzanddek, farishtadek, gadoydek* va b.

2. Murakkab tarkibli o'xshatishlar: *gavhar donalaridek, ilon chaqqandek, otning kallasidek, piyoz po'stidedek, qaldirg'och bolasidek, qoqqan qoziqdek, suv quygandek, yeb yuborgudek* va b.

II. Ma'noviy guruhiga ko'ra;

1. Asosi aniq otlardan iborat o'xshatishlar:

a) asosi narsa oti: *angishvonadek, barkashdek, bo'zdek, bo'yradek, danakdek, devordek, dokadek, do'ppidek, gavhar, halqaday, haykaldek, ipdek, kafandek, koptokdek, ko'zdek, tasmadek, marjondek, marmarday, mixday* va b.

b) asosi hayvon (hasharot, parranda) oti: *ayiqdek, baliqdek, bulbuldek, bo'riday, echkidek, eshakdek, ho'kizdek, ilondek, kapalakdek, maymundek, moldek, musichadek, mushukdek, qaldirg'ochdek, qaldirg'och bolasidek, quyunday, chigirtkaday, qushdek, tovuqday, toyloqdek, toshbaqadek, tuyaday, zulukdek, qurbaqadek, quzg'undek, sherday, chayondek, chumoliday, chumchuqdek* va b.

c) asosi o'simlik oti: *guldek, piyoz po'stidedek, yaproqday, zig'irday, g'unchaday* va b.

2. Asosi mavhum otlardan iborat o'xshatishlar: *arvohdek, azroildek, devdek, do'zaxdek, farishtadek, sharpaday* va b.

O'tkir Hoshimov asarlarida -day/dek vositasi bilan hosil bo'lgan turg'un o'xshatishlar bilan bir qatorda erkin, ya'ni ijodkor individual nutqi o'xshatishlari ham ko'p kuzatiladi. Mazkur guruhga belkurakday, bodom guliday, bodringdek, dorbozlardek, etikday, guvaladek, jarrohddek, jovadek, kovushdek, lentadek, mahsidek, mag'zavadek, novvot parchasidek, oqqushdek, pahlavondek, polvondek, pilladek, poyezddek, qabrdek, qassobxonadek, qoramoydek, sariyog'dek, savalab tashlagandek, sigirday, sumalakdek, supurgidek, teplavoz gudogidek, tillaqoshdek, tiqmachoddek, tirrakdek, tovadek, tuynukdek, saksovludek, o'qlovday, shaftolidek, upadonidek, uydek, xirmondek, yelpig'ichdek, yovvoyidek, yugurgudek, yumronqoziqdek, yo'lakday, zoldirdek, o'tindek, g'o'ladek, shudringday, chanadek, chigit bosgandek va h.k. Mazkur so'zlarning “O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati” [5] da o'z aksiga ega emasligi ham bu kabilarning erkin o'xshatishlar (nutqiy o'xshatishlar) guruhiga mansubligidan dalolat beradi. Ma'lumki, erkin o'xshatishlar nutqiy hosilalar sanalib, lug'atlar qamrovi darajasiga yetib ulgurmag'an bo'ladi. Shu jihati bilan ham ular o'ziga xoslikka ega bo'ladi hamda ularni kuzatish va tadqiq etish zarurati mavjud bo'ladi.

O'tkir Hoshimov asarlaridagi erkin o'xshatishlarni kuzatar ekanmiz ikki holatga duch kelamiz, ya'ni bu kabi o'xshatishlarni yaratishda yozuvchi yo biror jiddiy holatni tasvirlash yoki kulgili vaziyatni ifoda etish uchun ularni yaratgan.

Birinchi holat bo'yicha misollarni kuzatamiz: 1. *Qishloqda sog' uyning o'zi ko'rinmas olisga qonga botgan kalladek qip-qizil quyosh ufqqa cho'kib borardi.* (“Tushda kechgan umrlar”) 2. *Shoiraning umri bodom guliday bevavrid ochildi-yu, sovuq urgan chechakdek qovjiradi.* (“Nur borki, soya bor”) 3. *Onasi bir nuqtadan ko'z uzmay turar, sarpoychan oyog'i go'shtdek qizarib ketgan edi.* (“Tusgda kechgan umrlar”) 4. *Hech kimni ko'rgim kelmas, birova savalab tashlagandek a'zoyi badanim og'riydi.* (“Ikki eshik orasi”) Bu kabi misollarda jiddiy holat tasviri – ruhiy holat ifodasi ustunlik qiladi.

Ikkinchi holat, ya'ni kulgili, yengil hajv ifodasi uchun yaratgan erkin o'xshatishlar qatoriga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin: 1. *Ming marta katta amaliyam oyog'ingdagi etikday gap.* (“Ikki eshik orasi”) 2. *Voyemkomat degani qassobxonadek gap* (“Tushda kechgan umrlar”) 3. *Orqa oyoqlab turgani uchunmi bodringdek yelinlari dikkayib ketgan.* (“Ikki eshik orasi”) 4. *Ola sigir shundoqqina uning yonida poyezddek pishillab o'tlashga tushadi.* (“Dunyoning ishlari”) 5. *Oqsaqol belkurakdek kafti bilan tizasiga urib mazza qilib kuldi.* (“Ikki eshik orasi”)

Bilamizki, har bir muallif nutqi neologizmi (individual nutq) yaratilar ekan undagi stilistik-funksional qo'llanishda muayyan bir asos, matn tarkibidagi boshqa birliklar bilan mantiqiy uyg'unlik bo'lishi kerak. Shundagina mazkur muallif nutqi neologizmining nutqiy hosilaligidan lisoniy sath sari siljishi oson kechadi. Fikrimiz dalili uchun yozuvchi asaridagi parchaga murojaat qilamiz: *Bechora onam! O'sha iztirobli afsonani aytayotganingdan inidan mo'ralagan qaldirg'och bolasidek ko'rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo'lishini shunchalik xohlaganmiding!* (“Tushda kechgan umrlar”)

O'zbek xalqi erta bahorda yurtimizga kelgan va in qurishga shaylangan qaldirg'ochlarga bejizga xayrixohlik ko'rsatmaydi, albatta. Bunda ham, albatta, hikmat bor. Sir emaski, qaldirg'ochning turmush tarzi

xalqimiz turmush tarziga o'xshaydi. Barcha mavjudotlar singari qaldirg'och ham nasl qoldirish uchun erta bahordan harakatga tushadi, mehnat qiladi – in quradi, ayrim qushlar kabi tasodifiy, tayyor kovak topib, ko'nib ketavermaydi. Uning ini loydan, ya'ni somonli loydan. Har tomonlama qulay, toza, bahavo joydan. So'ngra juft tanlaydi, o'z jufti bilan bo'lib, nasl qoldiradi. Palaponlarini o'zbek xalqi misoli bir inda ulg'aytiradi. Buning uchun ham ona, ham ota qaldirg'och tinimsiz yemak keltiradi. Birini ikkinchisidan kam ko'rmay palaponlarini o'stiradi. Ularning ovqat talashib chug'urlash holati bir ko'rpa ostida ulg'aygan serfarzand o'zbek oilasini eslatadi. Mana shu hayotiy falsafa, turmushning chuqur bilimdoni O'tkir Hoshimov "inidan mo'ralagan qaldirg'och bolasidek" tarzidagi erkin o'xshatishining yuzaga kelishi ham o'ta o'rinli deb aytishimizga asos bo'la oladi.

Xuddi shunday, ya'ni mantiqqa tayanib yuzaga keltirilgan o'rinli o'xshatishlardan yana birini kuzatamiz: *Ammam juda chiroyli, yuzida xoli bor, qosh-ko'zi chaqmoqdek xotin. Ammo judda shaddod. Har gapini xuddi mix qoqqondek tirsillatib gapiradi.* ("Dunyoning ishlari")

Подобного рода модифицированные структуры отмечаются и на территории определённых регионов, городов и т.д. Например, при формировании синонимических пар к *hacked-off* и *pissed-off* в период конца XX века были использованы конструкции с доминантой *jacked* с варьированием *off* и *out* в значении «злой, раздражённый» [Thorne 1996: 266].

Первая из вышеуказанных разговорных структур применима в международном, в так называемом, мировом английском языке. Однако преимущественное употребление второй конструкции фиксируется на территории северных регионов Америки. Рамки использования обоих выражений с варьированным предлогом ограничиваются речью подростков и молодежи.

Изменение состава компонентов сочетаний и выражений может достигаться не на уровне слова, а на уровне морфемного состава. Ср.: *hairy-legger* и *hairy-legs* в значение «примитивный человек» [Фалеева 2023: 540]. Лексический состав сочетания не подлежит изменению в данном случае. Однако второй компонент *leg* в первой комбинации используется с суффиксом *-er*, а во втором – с окончанием во множественном числе *-s*.

Заключение.

1. Классифицирование русской и английской терминологии, связанной с разговорной лексикой до сих пор не приведено к единообразию. Существуют различные трактовки к терминам: общий сленг, специальный сленг, разговорные профессионализмы, просторечие, коллоквиализм, вульгаризмы, лексические диалектизмы, корпоративные жаргонизмы, конспиративный язык, арготизм, рифмованный сленг, эмоционально-окрашенная лексика, общелитературная разговорная лексика, нелитературный слой языка, жаргонизмы, устный тип речи, разговорный вокабуляр, разговорный пласт, разговорная стратификация, *nautical slang, jargon, colloquialism, informal speech, spoken language, vulgar speech, dialect, cant, low colloquial lexis, substandard, unconventional language, spoken standard, back slang, medial slang, centre slang*.

2. При анализе имплицитного значения коллоквиализмов выявляются большой показатель метафорических переносов качеств, признаков и т.д. одних предметов и объектов на другие. Появление нескольких значений к исходной лексеме может обуславливаться наложением сразу нескольких ассоциаций (например, возраст, внешний вид, цвет, оттенок, коннотативная закреплённость, размер, субъективная оценка, стереотипное представление, субкультурный образ и т.д.).

3. Модификация конкретных компонентов разговорных выражений может быть распространена на территории конкретных регионов, т.е. регулироваться в пространственном отношении в пределах относительно малых, средних, больших и мега ареалов распространения. Выход за пределы данной территории обусловлен внешними факторами (миграцией, процессами интеграции мировых сообществ, трансатлантическим типом работы и жизни населения, межэтническими союзами и т.д.).

4. Вариация компонентного состава означает не только изменение одной лексемы на другую, но и микро трансформации на уровне морфемного состава. Вариации могут изменять выражения посредством добавления новых компонентов в структуру. Однако отдельные примеры демонстрируют и сокращения структуры выражения за счёт опущения целых слов или отдельных морфемных составляющих.

5. Рамки варьирования классифицируются за счёт изучения особенностей константного ядра выражения и так называемой варьiruемой части.

REFERENCES:

1. Bushuy T. *Word and Pragmatics //Language and Speech in Synchrony and Diachrony: Papers from an International Linguistics Conference.* – Cambridge Scholars Publishing, 2017. – С. 252.
2. Бушуй Т. А. *Neolexicography: problems and prospectives //Международный журнал языка, образования, перевода.* – 2022. – Т. 3. – №. 3.
3. Бушуй Т.А. *Когнитивные особенности функционально-тематических групп арготизмов русского языка / Т. Бушуй.* – Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – № 1. – С. 12-17. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/traditions-innovations-language/article/view/26319>
4. Бушуй Т.А. *Современный словарь как продукт определенной научной концепции // IQRO.* – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10.
5. Thorne T. *Dictionary of Modern Slang.* – М.: Вече, Персей, 1996. — 592 с.
6. Фалеева А.В. *Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках // Miasto Przyszłości.* – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.
7. Фалеева Е.В. *Неологический бум в английском языке: проблемы и перспективы // International scientific review.* – 2022. – №. LXXXVI. – С. 70-74.
8. Bushuy T.A. *Language in Modern Linguistics.* – Poland: Miasto Przyszłości, 2023. – Vol. 39, pp. 23–26. URL: <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678>
9. Bushuy T.A. *Features of Representation of some Word forms and Meanings of Phraseological Units in Contrastive Lexicographical Sources.* – Toshkent: TIL, TA'LIM, TARJIMA. - 2-SON, 4-JILD, 2023. – С. 7-16.
10. Bushuy T.A. (2023). *Language in Modern Linguistics.* Miasto Przyszłości, 39, 23–26. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678>
11. Collins English Dictionary Online. Режим доступа: <http://www.collinsdictionary.com/> (CEDO)
12. Faleeva A. V. *Investigation of the colloquial formation of modern english language //Международный журнал языка, образования, перевода.* – 2022. – Т. 3. – №. 2.
13. Faleeva A. *Theoretical and practical research of the formation of colloquialistics of the english language in level interpretation //Международный журнал языка, образования, перевода.* – 2023. – Т. 4. – №. 5.
14. Faleeva A. V. *Traditions and innovations in the study of english colloquialistics in the perspective of modern printed and electronic lexicographical sources //Academic research in educational sciences.* – 2024. – Т. 5. – №. CSPU Conference 1. – С. 337-341.
15. Urban Dictionary Online. URL: <https://www.urbandictionary.com/> (UDO)

**TOSHPO‘LAT AHMAD SHE‘RIYATIDAGI MILLIYLIKNI IFODALOVCHI
TIL VA NUTQ BIRLIKLARI HAQIDA**

*Azimova Aziza O‘ktamovna,
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi
a.u.azimova@buxdu.uz*

***Annotatsiya.** Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til hamda madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha o‘laroq, bu ilmiy sohada milliylikni ifodalovchi til va nutq birliklari bo‘lishi tabiiy. Mazkur maqolada milliy-madaniy birliklar, ya‘ni leksik-grammatik vositalarning she‘riyatdagi ifodasi, xususan, Toshpo‘lat Ahmad she‘riyatidagi milliylikni namoyon etuvchi realiyalar, o‘zbekona luft, stereotiplar tadqiq etilgan bo‘lib, ular shoir ijodida muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Har bir nazariy fikr shoir ijodidan olingan misralar vositasida dalillangan hamda munosabat bildirilgan. Bunda shoirning “Gavhari jonim” she‘riy to‘plamiga kiritilgan she‘rlardan foydalanilgan.*

***Kalit so‘zlar:** lingvokulturologiya, milliylik ifodasi uchun qo‘llanuvchi vositalar, realiya, murojaat birliklari, o‘zbekona muomala, stereotiplik, etnomadaniy stereotiplar.*

**О ЯЗЫКОВЫХ И РЕЧЕВЫХ ЕДИНИЦАХ, ВЫРАЖАЮЩИХ НАЦИОНАЛЬНОСТЬ В
ПОЭЗИИ ТАШПУЛАТА АХМАДА**

***Аннотация.** Лингвокультурология – это отдельная научная область, изучающая целостную связь “языка и культуры”, явлений, отражающих его становление и развитие – языка и культуры вместе. В этой научной области естественно наличие языковых и речевых единиц, репрезентирующих народность. В данной статье исследованы национально-культурные единицы, то есть выражение лексико-грамматических средств в поэзии, в частности реалиям национализма, узбекского духа и стереотипов в поэзии Ташпулата Ахмеда, а также их значению в творчестве поэта было выделено особое место. Каждая теоретическая идея обосновывается и выражается посредством стихов из произведений поэта. При этом были использованы стихи, вошедшие в поэтический сборник поэта “Гавхари Жоним”.*

***Ключевые слова:** лингвокультурология, средства выражения национальности, реальность, референциальные единицы, узбекская трактовка, стереотипизация, этнокультурные стереотипы.*

**ABOUT LANGUAGE AND SPEECH UNITS EXPRESSING NATIONALITY IN
TASHPULAT AHMAD’S POETRY**

***Abstract.** Lingvoculturology is a separate scientific field that studies the integral relationship of “language and culture”, phenomena that reflect its formation and development – language and culture together. In this scientific field, it is natural to have language and speech units that represent nationality. In this article, the national-cultural units, that is, the expression of lexical-grammatical tools in poetry, in particular, the realities of nationalism, Uzbek air, stereotypes in the poetry of Tashpulat Ahmad, and their importance in the poet’s work are highlighted. Each theoretical idea is proven and expressed by means of verses taken from the poet’s work. Poems included in the poet’s poetry collection “Gavhari jonim” were used in this.*

***Keywords:** linguoculturology, tools used for the expression of nationality, reality, units of reference, Uzbek treatment, stereotyping, ethnocultural stereotypes.*

***Kirish.** Muayyan bir ijodkor asarlarining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashda milliylikni ifoda etishga xizmat qiluvchi nutqiy va lisoniy birliklar ham alohida mavqega ega. Vaholanki, har bir zamon va har bir makonda “lingvokulturologiyaning eng muhim masalalaridan biri milliylikni o‘rganish hisoblanadi” [8,208]. Har bir xalqqa xos milliy-madaniy ruh ifodalovchilari sanaladigan nutqiy va lisoniy vositalar fonetik, leksik va grammatik shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu borada, ya‘ni xalqimiz – o‘zbek millatigagina xos bo‘lgan jumlarlar bir qator zakiy tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan [1; 5; 7; 9; 10;11].*

Badiiy matnning lingvomadaniy tahlilini amalga oshirish uchun ko'zlangan atamalar va tushunchalarni kuzatishga, tadqiq etishga zarurat tug'ildi. Madaniyat tushunchasini va uning til vositalarda yuzaga chiqish jarayonini kuzatishda, odatda, madaniy sema, madaniy konnotatsiya, madaniy kelib chiqish, shuningdek, etnografiya, folklorga murojaat qilinadi. Tilshunoslikda madaniyatga, ma'lum bir xalqning milliylikiga, o'zligiga xos bo'lgan so'zlar borki, ular "realiya" hodisasi tarkibida ham o'rganiladi. Realিয়া ma'lum bir xalqning madaniyati bilan bog'liq bo'lgan so'z va sintaktik birliklar bo'lib, matn tarjimai jarayonida tarjimon mazkur so'zni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda bir qadar qiyinchilikka ham duch keladiki, bu har bir xalq mentaliteti, lingvomadaniy xususiyatlari, olamni anglashi, unga munosabati, hayot falsafasi bilan bog'liq. Realialar to'g'risida nisbatan mukammal ta'rifni S.Vlaxov va S.Florinlar berishgan: "Realialar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlarini, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar".

Til inson aqliy faoliyatining oliy mahsuli bo'lib, tafakkur xazinasini til va nutq orqali namoyon bo'lar ekan bunda, albatta, shu xalqqagina xos milliy-madaniy tushunchalarni ifoda etuvchi birliklar – realialar alohida o'rin tutadi. Til madaniyat, jamiyat bilan uzviy bog'liq. Har qanday til jamiyatdan tashqarida rivojlana olmaydi. Ona tilimizda xalqimizning tarixi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlarini, qadr-qimmatini, ruhiyati, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning bor-yo'g'i gavdalanadi. Tilimiz o'tmish, hozir va kelajak avlodlarni bir butun tanga jipslashtiradi. Ziyolilardan biri A.N. Tolstoy aytganidek, til millionlarcha ajdodlar tomonidan yaratilgan bir butun tirik jondir. Tilimiz bizga ajdodlarimizdan qolgan xazina, bebaho mulkdir. Undagi har bir so'z, har bir jumla qadim tarixga, shonli yo'lga ega, ularning yoshi yettinchi ajdod bobomiz yoshida yoki undan ancha katta bo'lishi tabiiy [3,36].

Tadqiqotchi T.Asadov aytganidek, "xalqimizda yaxshi odatlar ko'p. Bir o'zbek mehnat qilib turgan, ya'ni yer chopayotgan, uy qurayotgan boshqa bir o'zbek oldidan lom-mim demay, shunchaki o'tib ketolmaydi. O'zini yaxshi anglagan, o'zbekona lutf, iltifotga ega kishi, albatta, "hormang" deya so'z qotadi. Ishlab turgan kishi esa unga javoban "bor bo'ling" yoki "salomat bo'ling" deb javob qaytaradi. Bu bilan har ikkala tomon ko'ngil xotirjamligi, ma'naviy rag'bat topadi, kayfiyati ko'tariladi. Dalada hosil yig'ishtirish bilan band insonni ko'rgan o'zbek "salom-alik qilish" bilan birga, "xirmonga baraka", "choshga baraka" deyishi aniq. Unga javoban esa "umringizga baraka" degan alqovni eshitadi. Mehmon kelsa, "xush ko'rdik", "xush kelibsiz", deb so'z boshlasak, "xush vaqt bo'ling, hamma vaqt bo'ling" degan iliq so'zni eshitamiz. Muqaddas dargohlarni ziyorat qilib qaytgan kishiga "ziyoringiz qabul bo'lsin" desak, "murodingiz hosil bo'lsin" tarzidagi javobni eshitishga sazovor bo'lamiz" [3,38].

Lingvistik madaniyat obyekti lingvistik va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistik kabi qator fundamental fanlar kesishmasida o'rganiladi. Ayniqsa, badiiy matnlarda muayyan maqsadlarda qo'llanuvchi lingvokulturmalar millat qiyofasini, ijodkorning badiiy tafakkur tarzini ifoda etadi. Ular muayyan leksik birliklar, mifologema va arxiteplar, paremiologik fondlar, frazeologik birliklar, ramzlar, o'xshatishlar, metaforik birliklar, nutqiy etiketlar kabi til hodisalari hamda tilning uslubiy imkoniyatlari zahirida yuzaga chiqadi [2,23].

Asosiy qism. Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Toshpo'lat Ahmad ijodida ham milliylikni ifoda etuvchi bir qator birliklar mavjudligi kuzatildi. Ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. Jumladan, o'zbek millatiga mansublikni ifoda etuvchi vositalardan biri do'ppidir. Do'ppi bizning qaysi millatga xosligimiz haqida yaqqol so'zlaydi. Shoir Toshpo'lat Ahmad "Za'faron nidolar" dramatik dostonida ayni realiyaga murojaat qilgan: **Do'ppingizga ko'ra andijonliksiz/ Siz esa albatta namangonliksiz.** Do'ppi yurtimizda keng tarqalgan bosh kiyimi hisoblanib, ayol va erkaklarning do'ppilari shakli, ko'rinishi, rangi, naqsh hamda bezaklari bilan farqlanadi. Mazkur misralarda do'ppi so'zi shu insonning qaysi hududdan ekanligini ham ochiqlikda. Xalqimiz do'ppi kiygan kishining shu bosh kiyimi tashqi belgilariga ko'ra qaysi hududdan ekanligini (andijonlik, namangonlik, buxorolik va b.) ham farqlay oladi.

Milliylikimizni ko'rsatuvchi vositalardan yana biri – belbog'. O'zbek erkaklari azaldan belbog'siz yurmagan. Biror yumushni bajarishda yoki to'y, marakalarda ishtirok etishda erlarimizning belidan belbog' tushmagan. Belbog' ularga ham jismonan, ham ruhan kuch berib turganki, Toshpo'lat Ahmad bi'rsh'rida belbog'siz kurashga kirgan polvonning yerni quchishi (yengilishi) mumkinligiga ishora qiladi: *Ko'rni so'qir yetaklasa, chohga tushmasmu/ Belbog' bog'lamagan polvon yerni quchmasmu?* ("Ko'rni so'qir yetaklasa").

Toshpo'lat Ahmad qo'llagan milliy-madaniy vositalarni atovchi birliklar orasida urf-odatlarimiz bilan bog'liq realialar ham talaygina. Madaniyatimizda muqaddas deb qaraluvchi chimildiq hodisasi shulardan biridir. Bo'yiga yetgan yigit-qizlar nikoh to'yi arfasida chimildiqqa kiritiladi. Bu jarayon asosiy marosimlardan biri sifatida yoshi katta ayollar guvohligida o'tkaziladi. Shoir madaniyatimizning bir parchasini, qadriyatimizni shu so'z vositasida quyidagicha ko'rsatib beradi. *So'ng, mayliga, chimildiqda*

qaysaringiz/ Men g'aribni nozlar qilib, azob bersin/ Bir kun kelib Sizni quchsa nevarangiz/ Hoy, dadasi, kechiring deb, gulob bersin... ("Qarasangiz Buxoroning qizlariga") Shoir to'rtliklaridan birida ham ayni so'z uchraydi: *Cho'ri chimildiq ko'rsa, uni cho'ri demaslar/ Chol otning yolin quchsa, uni qari demaslar/ Aytaversa topilgay har narsaning o'xshovi/ Kampir qoshini qoqsa, uni pari demaslar...* ("Cho'ri chimildiq ko'rsa")

Milliy an'analarni ifoda etuvchi *do'ppi, belbog', chimildiq* kabi leksik hodisalarni qo'llash orqali Toshpo'lat Ahmad nafaqat qahramonning tashqi ko'rinishiga, balki uning ichki qiyofasi – ruhiyatini ham namoyon etishga erishadi.

So'ngra olov yoqding tandirga o'zing/ Lek tomida turganni ko'rmadi ko'zing. ("Ishq bog'in bezaylik"). Mazkur parchada paydo bo'lishiga ko'ra miloddan avvalgi II mingyillikka, ya'ni bronza davriga taalluqligi deb taxmin qilinadigan tandir realiyasi uchraydi.

O'zbek xonadonlarida farzand dunyoga kelsa, chaqaloq, avvalo, beshikka belanadi. Yillar o'tsa-da avloddan avlodga o'tib kelayotgan beshiklarimiz har zamonda xalqimiz uchun muhim sanalgan. Mixsiz yasalgan qurilma – beshik bilan bog'liq qadriyatlarimizning bir bo'lagi bo'lgan urf-odatlarimiz (beshikto'y, gavorabandon va b.) talaygina: *Beshikdan to shu kunga qadar/ Hamroh bo'lib kelding, ming rahmat* ("Yurak bilan muloqot"). Beshik so'zi bu misrada qo'shimcha ma'noda, yani "yoshlik", "bolalak" kabi ifodalarni ham anglatgan.

Xalqimizda farzand tug'ilmasidan turib unga beshik sotib olish rasm hisoblanmaydi. Toshpo'lat Ahmad nazdida chaqaloqning beshikka belanmasligi xosiyatli holat emas. U buni shunday tasvirlaydi: *Kapalakning ko'zida gullar gullaydi, Qulunlar tik oyoqda tunlar uxlaydi/ Bu dunyoda nima ko'p? Sir-sinoat ko'p, Chaqaloq belanmasa, beshik yig'laydi...* ("Kapalakning ko'zida"). Is'tedodli shoirning topib aytgan, hayot falsafasi bilan uyg'un mazkur she'rda *beshik* so'zi misrada mantiqiy urg'u olganligini anglash qiyin emas.

Xalqimiz Navro'z bayramini, ya'ni yangi kunning tug'ilishini aynan bahor fasli – yer-u zaminning sabza urishi bilan uyg'unlikda ko'radi. Bunda qizlarimizning "hino qo'yish" odati bor. "Ming tasadduq" she'rda shoir Navro'zning kelishini aynan hino qo'yish marosimi bilan bog'liqligini shunday tasvirlaydi: *Qizlar sochin tarab-tarab, Navro'z keldi hino bilan/ Hinosiga ming tasadduq, Ra'nosiga ming tasadduq* ("Ming tasadduq").

Darddan yiroq emas bu yorug' olam, Dardiga odamzod izlaydi malham/ Do'stlar, alyor ayting, g'animat bu dam/ Bugun mehmon kutgan dehqonga ta'zim/ Dasturxon podshosi – oq nonga ta'zim! ("Ta'zim"). O'zbek xalqi xalqlar orasida o'zining mehmondo'stligi bilan ajralib turadi. Mehmondo'st xalqimizning "dasturxon" ham realiyalardan biridir. Dunyoda o'zbekchalik nonga yuksak hurmatda bo'lgan xalq bo'lmasa kerak. O'zbek xalqining o'ziga xosligi ochiq dasturxon va undagi issiq noni, qand-qursi bilan ham belgilanadi. Bu hodisa lingvokulturologiyada o'zbekona "stereotip" lik tarzida ham belgilanadi. Stereotiplik – u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. V.A. Maslovaning ta'biricha, "stereotip dunyoda mavjud tip bo'lib, u faoliyat, xatti-harakat va hokazoni o'lchaydi. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular doimo guruhlarda, ya'ni tarixi uzoq, qadimiy bo'lgan xalqlarda yuzaga keladi. Stereotiplik, haqiqatdan ham, ma'lum bir millatning hamma uchun umumiy ko'rinuvchi izi yoki o'ziga xos belgisidir [12, 328-332].

N.Adizova o'z tadqiqotida mifologema, arxetiplar orqali yuzaga keladigan milliy-madaniy vositalar haqida fikr-mulohaza yuritishi davomida o'zbek xalqi uchun nonning ahamiyati haqida shunday yozadi: "Non o'zbek xalqi uchun qadim zamonlardan buyon qadrlanib kelingan ne'mat sifatida hamisha o'pib, ko'zga yoki peshonaga surilgan. Uzoqroq yerga ketish oldidan non tishlab qoldirish odatga aylangan, ushug'ini qushlarga sepish, yerga tushsa, darhol terib olish ham mifologik qarashlar asosida vujudga kelgan" [2,28].

Mehmonnavoz xalqimiz mehmonini izzat-hurmatda kutib oladi. Mehmon kutish fasl, makon, vaqt tanlamaydi. Mehmon kutish, mehmondorchilik kabi tuyg'ular ham o'zbek xalqining stereotipligi sanaladi. Buni Toshpo'lat Ahmadning quyidagi misralarida kuzatamiz: *Darddan yiroq emas bu yorug' olam, Dardiga odamzod izlaydi malham/ Do'stlar, alyor ayting, g'animat bu dam/ Bugun mehmon kutgan dehqonga ta'zim/ Dasturxon podshosi – oq nonga ta'zim* ("Ta'zim") Shoir "Farg'onaning chinorlari" she'rda, hatto ona yurtimizning chinorlar ham ta'zim aylab mehmon kutishini quyidagicha tasvirlaydi: *Ta'zim aylab, bedor kutgay mehmonlarni/ Oh, qandayin dilga safo bu go'zallik.*

Ijodkor bir she'rini "Mehmon ila xush" deb nomlaydi. Chunki mehmon kirgan ko'ngil, xonadon mezbonning ta'bini xush qiladi: *Ko'ngilning eshigin ochiq qo'yingiz/ Magar vayronadur, mehmon ila xush* ("Mehmon ila xush")

Tilimizda bir-birimizga murojaat qilganda qo‘llanuvchi *qoqindiq*, *o‘rgilay*, *aylanay* singari hech bir millatda uchramaydigan birliklar (erkalovchi murojaat birliklari) borki, ularni qo‘llash bilan yuzaga keladigan she‘riy misralar she‘riyatda juda oz miqdorda, desak yanglishmaymiz. Mazkur so‘zlar bilan bog‘liq misralar Toshpo‘lat Ahmad ijodida ko‘p kuzatiladi:

Yaxshilar, o‘rgilay, zaboningizdan/ O‘rgilay manzil-u makoningizdan (“...Yaxshi gapirsin”), *Aylanaylik, o‘rgilaylik bo‘ylaridan/ “She‘riyat” deb nom qozongan suluv “qiz”ning* (“Oshiq shoirlarga”), *Senga ko‘z tegmasin, Orifjon, bolam/ Nomingdan o‘rgilib ketay, shalolam* (“Ming shukur...”), *O‘rgilay yurtimning tuproq-toshidan/ Uning jonni yoqar ming xil guli bor* (“Borar yo‘li bor”), *Ikki kokili Sayxun-u Jayxun/ Men o‘rgilayin, bahor o‘zingdan* (“Men o‘rgilayin...”), *O‘rgilay sendan elim, dunyo bilan bo‘ylashding/ Har o‘g‘il, har qizingning doim barori bo‘lsin* (“Bo‘lsin”).

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *o‘rgilmoq* so‘zi shunday izohlanadi: 1 Yuksak hurmat, sadoqat va sevgi tufayli butun borlig‘ini baxsh etmoq, fido qilmoq, qurbon qilmoq. 2. (buyruq m. shaklida – o‘rgilay, o‘rgilsin) Nihoyatda yoqtirish, mehribonlikni ifodalaydi [14,163]. Ayni so‘z “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da dominanta sifatida kelib, *aylansin, o‘rgilay, o‘rgilsin, girgitton, qoqindiq, saqada* kabi so‘zlar bilan bir sinonimik qatordan o‘rin olgan [4,20]. Bu so‘zlar erkalash-suyish va iltimos, yalinish murojaatini bildiradi. *Aylanay* va *o‘rgilay* mamnunlik, xursandlik ifodasi uchun ham qo‘llanadi [4,20].

Dunyoga kelganman o‘rganayin deb/ Mudom urinaman sirg‘anmayin deb/ Jon yurtim, non yurtim, quling bo‘loyin/ Hadigim: yuraman qarg‘anmayin deb (“Dunyoga kelganman o‘rganayin deb”), *Ona O‘zbekiston, dardingni olay/ Qurbon bo‘lgin desang, qurboning bo‘lay/ Degan shahidrling buncha ko‘p sening/ Rang-ro‘yi zarldaring buncha ko‘p sening* (“Za‘faron nidolar”). Misralardagi *quling bo‘loyin, dardingni olay, qurboning bo‘lay* kabi birliklar *o‘rgilay* so‘zi singari “butun borlig‘ini baxsh etish, fido bo‘lish, qurbon bo‘lish” ma‘nolarini ifodalagan.

O‘zbek nutqiy odatlarining tadqiqotchisi Sh.Iskandarova o‘zbek nutqiy odatlarining gender xususiyatlariga alohida to‘xtalib, ayollar o‘rtasidagi muloqot jarayonida qo‘llanilishi odat tusiga kirgan ayrim so‘z va iboralarni (*aylanay, o‘rgilay, girgitton, qoqindiq* va b.) qayd etib o‘tadi [6,26]. Bu kabi so‘zlar ijobiy ma‘no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi. Sh.Usmanovning “Lingvokulturologiya” kitobida bu kabi milliylik ifodasini ko‘rsatib turadigan birliklar ko‘proq keksa ayollar nutqida qo‘llanishi bayon etiladi [13,198].

Kuzatgan satrlarda shoir Toshpo‘lat Ahmad ayni vositalardan ham o‘rinli foydalanganiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur so‘zlar ayollar nutqida ko‘proq bir-biriga murojaat tarzida qo‘llanganiga duch kelsak, xalqparvar shoir Toshpo‘lat Ahmad esa bu kabilarni yurti, xalqi, yurt bahori, she‘riyatga ko‘ra qo‘llaydi. Bu ham shoir she‘riyatining o‘ziga xosligidan dalolat beradi.

O‘zbekona lutfning go‘zalligini shoirning quyidagi misralarida ham kuzatamiz. “Mushoira etadi davom...” she‘rida Toshpo‘lat Ahmad shunday yozadi: *O‘ta kamtar, o‘ta xoksor Sobir O‘nar, Bir og‘iz gap aytdi xolos: - Hormanglar, deb/ Tursun ali so‘zga chiqar-chiqmas birdan Javob qaytdi: barchangiz bor bo‘linglar deb!* Yana bir misol: *To‘yga kelgan do‘st-yoronlar, xush ko‘rdik sizni/ Birodarlar, qadrdonlar, xush ko‘rdik sizni* (“Xush ko‘rdik sizni”).

Bilamizki, o‘zbek xalqi azaldan e‘tiqodli, iymonli, diniy tushunchalarga keng e‘tibor beruvchi, diniy tushunchalarni hurmat qiluvchi xalq bo‘lib kelgan [12,330]. Bu tushunchalar avvalida e‘tiqod, iymon, taqvo kabilar turadi. Shu nuqtayi nazardan Toshpo‘lat Ahmad ijodiga nazar solamiz:

1. *E‘tiqod* va *Iymon* – *olam tayanchi, Shu bois azizdir bu rangin hayot/ Diyonat va Insof – odam tayanchi, Shundan har mushkulga topgaydir najot* (“Professor Bobojonovning oydin tilaklari”). 2. *Haq poymol etilsa, iymon to‘zg‘isa/ So‘z uvol etilsa, vijdon to‘zg‘isa* (“O‘lchab bo‘lgaymu?”). Bu kabi falsafiy misralar orqali shoir olam va odamning tayanchi aynan shu kabi ezgu tuyg‘ular ekanligini ta‘kidlaydi.

“O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da *uyat, nomus, sharm, hayo, or, oriyat, andisha, ibo, isnod* so‘zlari bir sinonimik qatordan o‘rin olgan. “Izza hissi, xijolatlilik (uyalish) hissi” tarzida izohlangan bu so‘zlar o‘zbek er yigit va qizlariga xos ichki bezak sanaladi. Kuzatamiz:

Navro‘z kelibon samo bezandi/ Kokil yozibon hayo bezandi (“Bezandi”), *Eng so‘nggi ilinjing – uyat to‘zg‘isa/ Or-nomus chekinsa, netgaysan, o‘rtoq?..* (“Nozik savollar”), *Ahmadiy, ko‘p kuyima, hayo abadiy/ Ko‘nglingdan oqqan kuy, navo abadiy* (“Dunyoda sir ko‘pdir”). Mazkur misralardagi *uyat* so‘zi nisbatan kengroq ma‘noga ega. *Or* so‘zi ko‘pincha *nomus* so‘zi bilan juft so‘z holida (*or-nomus*) qo‘llanishi aytiladi [4,206]. Bu holat biz kuzatgan misralarda ham uchraydi.

Toshpo‘lat Ahmad bir she‘rida “O‘tkan kunlar” romani qahramoni – Kumushbibi portretini chiza turib, uni *hayo timsoli* sifatida tasvirlaydi: *Etmadim deb shahringiz tavof, Rostin aytsam, qilmadim armon/ Chunki Hayo timsoli bo‘lib, Yuraklarda qurgansiz oshyon/ Bilamanki, bu yurtida har bir, Iboli qiz Kumushbibidir* (“Kumushbibi, oy Oqqushbibi”). She‘r misralarini kuzatishni davom ettiramiz: *Shu birgina*

karam – Hayodan, Vujud yonib, kuymasmi jonlar? Yer ostidan boqqan nigohdan/ Ko‘pirmasmu tomirda qonlar?.. Aminmizki, Toshpo‘lat Ahmad (qahramon)ning vujudini yondirgan, tomirda qonini ko‘pirtirgan narsa – o‘zbek ayollaridagi hay ova ibodir.

Ibo, hayo, iffat kabi so‘zlar (realiyalar) keltirilgan misralarni kuzatamiz: 1. Halimaxon ibo bilan, hayo bilan/ Lutf aylasa, ko‘zin yordi qo‘sh chanoqlar. (“Mushoira etadi davom...”) 2. *Men dedimki, bilmamishsiz, chun demish Momo Havvo/ Odamizot qaddini tik saqlagay tanho hayo. (“Hayo”)* 3. *Iffat gulday ochilarkan, Ko‘ngil degan bog‘larda (“Hayot falsafasi”).*

Xulosa. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, tahlilga tortilgan birliklar, ular ostidagi keng va betakror tushunchalar turli ma‘no ifodalarga ega bo‘lib, tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvoma‘naviyatshunoslik, lingvoo‘lkashunoslik kabi fanlar nuqtayi nazaridan ham tadqiq etilishi mumkin. Bu kabi birliklar ko‘pgina fanlar uchun tayanch obyekt bo‘lib xizmat qila oladi. Tadqiqotimiz obyekt sanalgan Toshpo‘lat Ahmad ijodidagi milliy-madaniy belgilarni ifoda etuvchi lisoniy va ayrim nutqiy birliklarni saralab olish, tasnif hamda tavsif etish shoir ijodini chuqurroq tadqiq etishga ko‘mak beradi. Toshpo‘lat Ahmad she‘riyatida kuzatiladigan realiyalar, o‘zbekona lutf, stereotiplar madaniyatimiz, turmush tarzimizning ajralmas bir qismi bo‘lib, ular tadqiqi shoir ijodining lingvokulturologik tadqiqi bilan uyg‘un holda kechadi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. *Сўз эстетикаси.* – Тошкент: Фан, 1981.
2. Adizova N. *Erkin Vohidov dostonlarining lingvostilistik va milliy-madaniy xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ...diss.* – Buxoro, 2022.
3. Asadov T. *Matn – lutf hazinasi. Monografiya.* – Buxoro: Durdona, 2018.
4. Хожиев А. *Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати.* – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
5. Иномхўжаев С. *Нотиқлик санъати.* – Тошкент, 1992.
6. Искандарова Ш. *Ўзбек нутқ маданияти мулоқот шакллари: Фил. фан. ном. дисс. автореф.* – Самарқанд, 1993.
7. Маҳмудов Н. *Маърифат манзиллари.* – Тошкент, 1999.
8. Maslova V.A. *Linguoculturology: Proc. Settlement for stud. Universities.* – M.: Academy, 2001.
9. Мўминов С. *Сўзлашув санъати.* – Фарғона, 1997.
10. Расулов Р. Хусанов Н. Мўйдинов Қ. *Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. Ўқув қўлланма.* – Тошкент, 2006.
11. Сатторов М. *Ўзбекнинг гапи қизиқ.* – Тошкент: Фан, 1994.
12. То‘ланбойева Г., Юсупова С. *Lingvokulturologiyada “Stereotip” tushunchasi // Scientific progress.* – T., 2023. 2-son, 328–332-b.
13. Usmanova Sh. *Lingvokulturologiya. Darslik.* – Toshkent, 2018.
14. *Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли.* – Тошкент: Ўзб. мил. энцикл., 2006–2008.

O‘ZBEK LUG‘AT QATLAMIDAGI NEOLOGIK SHAXS OTLARI VA ULARNING TARKIBIY-MAZMUNY TUZILISHI

Asadov To‘lqin Hamroyevich,

Buxoro davlat universiteti,

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Saidova Xurshida Faxriddin qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek va rus tillari kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillikdan so‘ng, xususan, yaqin yillarda o‘zbek tiliga kirib kelgan shaxs otlari ularning tarkibi va mazmuni haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Shaxs otlarining yuzaga kelish omillari, muayyan bir tilga mansubligi, tarkibidagi elementlarning qanday mazmuni ifodalashi, o‘zlashish manbasi bo‘yicha ma‘lumot keltirildi. Shuningdek, o‘zbek tilining ikki asosiy manbasi, ya‘ni eng oxirgi avlod imlo va izohli lug‘atlaridagi qamrovi, shaxs otlarining derivatsion tarkibi haqida so‘z yuritildi va shaxs otlarining mavzuviy guruhlar bo‘yicha tahlili amalga oshirildi. Qolaversa, hali lug‘atlar qamrab olmagan, lekin so‘zlashuv tilida mavjud yangi shaxs otlari va ularning izohi keltirildi.

Kalit so‘zlar: turdosh ot, shaxs oti, neologizm, neologik shaxs oti, so‘z yasovchi affiks, xalqaro terminelement, derivatsion tahlil, mavzuviy guruh.

НЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА В УЗБЕКСКОМ ЛЕКСИЧЕСКОМ СЛОЕ И ИХ СТРУКТУРНО-СОДЕРЖАТЕЛЬНОЕ СТРОЕНИЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются личные существительные, вошедшие в узбекский язык после обретения независимости, особенно в последние годы, их состав и значение. Приведены факторы образования личных имён существительных, их принадлежность к определённому языку, значение их элементов, источник их происхождения. Также были рассмотрены два основных источника узбекского языка – освещение в орфографических и толковых словарях последнего поколения, словообразовательная структура личных имён существительных и проведён анализ личных имён существительных по тематическим группам. Кроме того, даются новые личные существительные, которые ещё не освещены словарями, но имеются в разговорной речи, и даны их пояснения.

Ключевые слова: родственное существительное, личное существительное, неологизм, неологическое личное существительное, словообразовательный аффикс, интернациональный терминальный элемент, деривационный анализ, тематическая группа.

NEOLOGICAL PERSONAL NOUNS IN UZBEK VOCABULARY AND THEIR CONTENT STRUCTURE

Abstract. This article discusses personal nouns that entered the Uzbek language after independence, especially in recent years, about their composition and meaning. The factors of the formation of personal nouns, their belonging to a certain language, the meaning of their elements, and the source of their origin were given. Also, two main sources of the Uzbek language, i.e. coverage in the last generation spelling and explanatory dictionaries, the derivational structure of personal nouns were discussed and the analysis of personal nouns by thematic groups was carried out. In addition, new personal nouns that are not yet covered by dictionaries, but are available in colloquial language, and their explanation are given.

Keywords: cognate noun, personal noun, neologism, neological personal noun, word-forming affix, international terminal element, derivational analysis, thematic group.

Kirish. Til lug‘at qatlami to‘xtovsiz ravishda o‘zgarib, taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy hodisa. Til rivoji jamiyat taraqqiyoti, insoniyat turmush tarzi o‘sishi bilan bevosita bog‘liq. Tildagi o‘zgarishlar, lug‘at qatlamining tarkiban va mazmunan boyib borishi yoki aks holatlarning yuz berishi birinchi navbatda har bir tilning lug‘at sirasida bo‘y ko‘rsatadi. Odatda, kishilik jamiyatining o‘zgarib, o‘sib borishi, bunda ilm-fan, texnika va madaniyatning taraqqiyoti til leksikasini boyitadi.

O'zbek milliy tili hozirgi o'zbek millatiga mansub bo'lgan barcha kishilarning umumiy va yagona tilidir. U o'zbek millatining shakllanishi bilan bog'liq. Qadimiy tarixga ega tilimiz lug'at qatlamidagi birliklar davrlar osha qayta-qayta saralandi, qancha-qanchasi eskirib, qayta yangilandi. Mazkur holat ham til ijtimoiyligining dalili sanaladi.

Mustaqillik tilimiz uchun yangi davr, yangi shart-sharoitlarni ochib berdi, avvalo, ona tilimizning o'zbekona tabiati (milliy grammatika)ni yaratish uchun katta imkoniyat berdi. Zakiy tilshunoslarning mehnati, tinimsiz izlanishlari evaziga tilimiz o'z qaddini bir qadar tiklab oldi.

O'zbek tili lug'at qatlamiga mustaqillik davrida, xususan, XXI asr birinchi choragida yuzlab yangi-yangi birliklar, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq turli tushunchalar paydo bo'ldi, jumladan, o'nlab neologik shaxs otlari kirib keldi yoki shu mazmundagi o'zga til birliklari o'z tilimizga moslashtirildi.

Muayyan bir so'zning shaxs oti bo'lib shakllanishi ham ma'lum bir davrni talab etadi. Masalan, kundalik turmushdagi shaxs otlari, jumladan, *ishchi, suvchi, quruvchi* va h.k. shaxs otlarida dastlabki bosqichda – ijtimoiy tuzumning ma'lum bir davrida, aniqrog'i, yasama so'z yuzaga kelgan bir davrda mazkur shaxs otlarida predmetlikdan belgilik tabiati yuqori bo'lgan. Ular shaxs oti bo'lgunga qadar ma'lum bir davrni kechirgan. Mazkur fikrni aksariyat shaxs otlariga ko'ra aytish mumkin. "Umuman, predmet-belgi ma'noli muayyan bir so'zning ot bo'lib turg'unlashishi yoki sifat turkumiga siljishida muayyan bir qonuniyat mavjud emas, bu tilning ijtimoiyligi bilan bog'liq. Masalan, ijtimoiy tuzumning ma'lum bir tarixiy davrida, "Oktabr to'ntarishi"dan oldingi davrda maktab-maorif sohasida xususiy maktabi bo'lgan shaxs *maktabdor* deyilgan, demakki, o'z davri nuqtayi nazaridan bu so'z shaxs oti sanalgan. Sobiq ittifoq davrida bu faoliyat turiga to'siq qo'yiladi, mazkur so'zning iste'mol doirasi ham keskin cheklanib, qisqa vaqtda tarixiy so'zga aylanadi. Lekin bu so'z shu kasb egalari faoliyatining rivoji bilan bog'liq holda, kelajakda yana "jonlanib" shaxs oti guruhidan o'rin egallashi mumkin" [1,120]. Ko'rinadiki, har qanday shaxs otining yuzaga kelishi mazkur so'z ostidagi ma'no-mazmunning kishilik jamiyatida barqarorlikka erishishi, shu kasb va kasb ostidagi tushunchaning kengayishi bilan belgilanadi.

Asosiy qism. Manbalarda otlarning ma'no turlari, u bilan bog'liq masalalar yetarlicha talqin etilgan. Bu masalaga alohida to'xtalib o'tish joiz emas, nazarimizda. Faqat shuni ta'kidlaymizki, bir turdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh otlar deyiladi. Turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra aniq va mavhum otlarga bo'linadi[12,121]. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarda turdosh otlar takibidagi shaxs otlari turlicha nomlanganligi ham kuzatiladi [7,115].

Ma'lumki, ot neologizmlarning ma'lum qismi shaxs otlaridan iborat. Turdosh otlar ot turkumiga kirgan so'zlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Turdosh otlar tarkibidan o'rin olgan shaxs otlari "shaxsning yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasi, nasl-nasabiga qarab nomlab keladi" [8, 251]. Kuzatishlar ko'rsatadiki, yaqin yillarda o'zbek tiliga kirib kelgan shaxs otlari, asosan, kasb-kor va mansab-unvon bildiruvchi so'zlar bilan bog'liq. Masalan: *admin, master, vayner, bloger, instabloger, pranker, vlogger, programmist, kopirayter, tiktoker, yutuber, negativchi, mobilograf, videograf, merchendeyzer, supervayzer, animator, treyder, dasturchi, nutritsiolog, defektolog, psixosomatolog, psixoterapevt, pulmonolog, motivator, gipnolog, kosmetolog, endokronolog, innovator, auditor, makler, diler, marketolog, eksportyor, dizayner, modelyer, vizajist, imijmeyker, klipmeyker, grafist, kolorist, prodyuser, targetolog, assotsiatsiyachi, oriflamechi, tyutor, volontyor, bakalavr, metodist, menejer, menejment, assistent, styuardessa (bort kuzatuvchisi), master, sotuvchi-konsultant, qalbshunos, kouch, storiesmaker, call operator, mobilmontaj.*

Bilamizki, lug'at qatlamiga kirib kelgan o'zlashma so'z ommalashib, umumiste'moldagi qatlamga o'tsa, shu xalq lug'atlari tarkibidan ham o'rin egallay boshlaydi. Lug'atda o'z aksiga ega so'zgina ommalashgan so'z sanaladi. Bunda ikki qonuniyatga amal qilinadi, ya'ni so'zlar tilimizga o'z shaklicha (shakliy tamoyil) qabul qilinadi yoki orfoepik, imloviy me'yorlarga ko'ra moslashtiriladi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, eng oxirgi avlod imlo lug'ati da quyidagi so'zlar – shaxs otlari o'z belgisiga ega: *artelchi, assistent, auksionchi, auditor, avtogreyderchi, avtooperator, badmintonchi, bakalavr, bananxo'r, baryerchi, bilyardchi, bloger, bobsleychi, brandmauer, dasturchi, diyetolog, dizayner, domen, dyuzdochi, endokrinolog, finishchi, gid, grimyor, imijmeyker, internatsionalist, invertor, investor, irrigatsiyachi, kikkokschi, kinoprodyuser, klipchi, klipmeyker, kosmetolog, makler, markirovkachi, marketmeyker, marketolog, menejer, menejment, nutritsiolog, parhezshunos, pleymeyker, protezshunos, protezchi, sarmoyador, skeytbordchi, skuterchi, taekvondochi, vaterpolochi, vizajist, volontyor, xaker* [5].

"O'zbek tilining katta imlo lug'ati" (-T.,2023.) hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati" (-T.,2023) o'zaro qiyoslanganda neologik shaxs otlarining berilishida miqdor va sifat jihatdan farqlanish sezildi.

Izohli lug'atda mavjud neologik shaxs otlari: *abituriyent, agent, anderayter, animator, biatlonchi, biznesmen, bloger, broker, bukmeyker, defektolog, dekorator, delegat, deponent, diler, diyetolog, dizayner,*

importyor, investor, kikkobschi, makler, dallol, master, menejer, montajyor, nanotexnolog, rezident, stayer, supervayzer, taekvondochi, videomontajchi, volontyor, xaker[2].

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi ikki lug'at qiyosan tadqiq qilinganda imlo lug'atida mavjud *anemograf, assistent, auksionchi, bananxo'r, bobsleychi, brandmauer, marketmeyker, imijmeyker, marketolog, menejment, klipchi, nutritsiolog, dekorator, protezchi, skuterchi, skeytbordchi, dyuzdochi* kabilar izohli lug'atda o'z belgisiga ega emas va aksincha, izohli lug'atda mavjud: *admin, animator, diler, bukmecker, master, importyor, montajyor, stayer, supervayzer* kabilar esa imlo lug'atida keltirilmagan. Demakki, lug'atlardagi neologik shaxs otlarining berilishida nomuvofiqlik kuzatiladi.

Bilamizki, lug'at tasodifan paydo bo'lgan har qanday so'z (neologik birlik)ni ham zudlik bilan qamrab olishga majbur emas, albatta. Neologik so'z o'zlashma so'zga aylanganda va bu birlik nisbatan ommalashgandan keyingina lug'at bilan munosabatga kirisha oladi. Mazkur fikrni kuni kecha paydo bo'lgan va lug'atlardan o'rin egallamagan quyidagi so'zlarga nisbatan ham aytishimiz mumkin: *mobilograf, layfkouch, helz(health)-kouch, kolorist, grafist, merchendayzer, targetolog, flebolog, storiesmaker* kabi. Mazkur so'zlar mohiyatan to'liq shaxs oti bo'lib shakllansagina lug'atlar tarkibidan o'rin olishi mumkin, aks holda lug'at qatlamidagi ortiqcha so'z (tasodifiy so'z) sifatida qaraladi va davr o'tib yo'qolib boradi.

Kuzatganlarimiz ko'rsatadiki, shaxs otlarining asosiy qismi o'zlashma (aksariyati inglizcha) bo'lib, ma'lum bir qismigina o'z qatlamga oid so'zlar sanaladi. Jumladan, ingliz tilidan: *bloger, biznesmen, menejer, supervayzer, merchendayzer, xaker, mobilograf, yutuber, stayer, tiktoker*; lotin tilidan: *rezident, bakalavr, assistant*; nemis tilidan: *master, makler, konsertmeyster* kabilar o'zlashgan, ba'zi so'zlar tarkiban "yunoncha elementli" so'zlar sanaladi: *kosmetolog, trixolog, flebolog, mammolog*. Shu bilan birga, neologik shaxs otlarining bir qismi ruscha-baynalminal so'zlar bo'lib, ular tarkibida rus tiliga mansub affikslar, jumladan, -ist, -al, -izm, -ik, -ka, -ika [8,448-452] kabi o'z tili doirasida ot yasovchi hisoblanadigan shakllar mavjud: *programmist, stilist, vizajist, grafist*. Bu so'zlar (jumladan: *marketolog, multivarka, tiktoker, bloger, vayner* kabi) so'z beruvchi til doirasida yasama hisoblansa-da, o'zbek tili yo'z yasalishi qonuniyatlariga ko'ra tub so'z sanalishini izohlashga hojat yoq.

Tilimizga kirib kelgan so'zlarning derivatsion jihatdan tahlili amalga oshirilganda quyidagilarni kuzatishimiz mumkin:

a) sodda tub neologik shaxs otlari: *admin, master, diler, bakalavr, dallol, kouch*.

b) sodda yasama neologik shaxs otlari: *negativchi, internetchi, dasturchi*.

c) murakkab tarkibli neologik shaxs otlari: *imijmeyker, kopirayter, klipmeyker, psixoterapevt, mobilograf, videograf, instabloger*.

O'zbek tilida shaxs oti yasovchi qo'shimchalar sifatida *-chi, -dosh, -kash, -bon, -dor, -boz, -paz, -xon, -shunos, -do'z, -soz, -gar, (-kar), -parvar, -xo'r, -furush* kabilar aytiladi.[11,125]. Hozirgi o'zbek tilida shaxs oti yasovchi affikslarning so'z yasash darajasi bir xil emas. Ularning ayrimlari, ayniqsa, *-chi* affiksi eng faol so'z yasovchi vosita sifatida xizmat qilsa, ba'zilari, jumladan, *-dosh, -dor* kabi affikslarning so'z yashash imkoniyati deyarli to'xtab qolgan, deyish mumkin. Bu fikrni *-bon, -xo'r, -do'z, -paz* kabi affikslarga nisbatan ham aytish mumkin. Eslab o'tilgan *-shunos, -parvar, -xo'r, -paz, -do'z, -boz, -bon, -dor, -soz, -xon, -go'y* kabi yasovchilar tojik tilida mustaqil so'z asosidan iborat bo'lib, o'zbek tilida yasovchi affiks (affiksoid) sifatida xizmat qiladi [9, 40].

Umuman, ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy leksika yasalishida mavjud affikslarning barchasi ham birdek qo'llanavermaydi. Shaxs otlari juda katta to'dani tashkil qiladi, anglatgan ma'nolarining xilma-xilligi, yasovchi affikslarining miqdoran ko'pligi, mahsuldorligi bilan boshqa to'dadagi otlardan ajralib turadi. Bu kabi otlar sof o'zbekcha affikslar hamda boshqa tillardan (asosan, tojik tilidan) qabul qilingan yasovchi morfemalar vositasi bilan ham hosil bo'ladi. Qolaversa, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy leksik-semantik guruhning birida unumli bo'lgan affiks boshqasida unumsiz bo'lishi tabiiy. Ayrim affikslar yordamida bir necha so'z yasalgan bo'lsa, ayrimlari orqali bir-ikki so'zgina hosil bo'lganligini kuzatamiz:

a) **ot+chi** modeli: *internetchi, assotsiatsiyachi, eskalatorchi, paynetchi, ayfonchi, telefonchi, akfachi, dasturchi, konditsionerchi, mikrovalnovkachi, pitsachi, oriflamechi, vaynchi, montajchi, fitneschi*.

b) **sifat+chi** modeli shaxsning qandaydir biron xarakterga ega ekanligini bildiruvchi shaxs otini hosil qiladi: *negativchi*

c) **ot+kor** modeli. O'zbek tilida forsiy ot yasovchi *-kor* affiksi so'zlarga qo'shilib, kasb egasini, asosda ifoda etilgan predmet bilan ish ko'ruvchi, bajaruvchi, ishlab chiqaruvchi shaxsni bildiradi [15,104]. Masalan: *banankor, qalampirkor, limonkor* va h.k.

d) **ot+dor** modeli. *-dor* affiksi shaxsning so'z asosi orqali ifoda etilgan predmetga ega ekanligini, shu jihatdan ortiqlikni va shu kabi ma'nolarni ifodalaydi [15, 106]. Masalan: *sarmoyador*.

e) **ot+dosh** modeli. -dosh morfemasi bir ishga mansublik, bir paytga mansublik kabi semalarga ega. U hozirgi o'zbek tiliga nisbatan yangi kirib kelayotgan so'zlarga qo'shilib, shaxs otlarini hosil qilish imkoniyatiga ega [15,105]. Masalan, *abituriyentdosh* yangi nutqiy yasama so'z bunga misol bo'ladi.

f) **ot+xo'r** modeli. -xo'r affiksi ko'pincha asosdan anglashilgan predmetni ortiq iste'mol qiluvchi ma'nosidagi so'zni ifodalaydi [15,111]. Masalan: *bananxo'r*, *ananaxo'r* kabi.

g) **ot+shunos** modeli. -shunos suffiksi so'zning birinchi qismidan anglashilgan predmet (bilim ma'nosida) bo'yicha mutaxassis, shuni biluvchini anglatadi. Bugungi kunda bu qo'shimcha o'rnida ko'pincha -chi affiksidan foydalaniladi [15,111]. Masalan: *protezshunos* (*protezchi*), *qalbshunos*, *ruhshunos* (*psixolog*).

O'zbek adabiy tilining leksik fondi, aniqrog'i, shaxs otlari guruhining kengayishi rus tili va u orqali kirib kelgan so'zlar hisobidan ham o'sib boryapti. Yaqin yillarda tilimizga kirib kelgan neologik shaxs otlarida bir qator xalqaro terminelementlar (-log, -ist, -ant, -ent, -ator, -er) asosiy o'rinni egallagan kuzatiladi. Ma'lumki, xalqaro terminelementlar aniq ma'noni ifodalashga xoslanganligi bilan xarakterlanadi [3,25]. Yasovchi elementlardan -log (grekcha "olim" demakdir) shakli yordami bilan so'zning birinchi qismidan anglashiladigan predmet bo'yicha mutaxassisni ko'rsatuvchi ot yasaladi [15,111]. Masalan: *kosmetolog*, *travmatolog*, *nervpatolog*, *endokrinolog*. -ist affiksi yordami bilan yasalgan ot shaxsning ijtimoiy vaziyatga, ijtimoiy yo'nalishga, qandaydir biror ilmiy oqimga, turmush hodisasiga, biror mehnat jarayoniga bo'lgan munosabatini bildiradi [15,110]. Masalan: *vizajist*, *metodist*, *okulist*, *programmist* kabilar. -ator affiksi shaxsning qandaydir biror faoliyatga ixtisoslashganligini ko'rsatadi [15,111]. Masalan: *animator*, *ordinator*, *dekorator*. -ant affiksi orqali hosil bo'lgan otlar shaxsni qandaydir biror muassasaga harakat yoki qandaydir biror ish, jarayonga bo'lgan munosabatiga ko'ra so'z yasaydi [15,115]. Masalan: *magistrant*.

Shuni ham takidlash joizki, -chi qo'shimchasi mohiyati, ya'ni shaxs otlarini hosil qilishi jihatdan -ist, -er, -yor elementlari bilan ma'nodoshlikka kirishadi. Shu sababdan ko'pincha mazkur shakllar (terminelementlar) bilan hosil bo'lgan so'zlar o'rnida o'zbekcha -chi qo'shimchali so'zlar qo'llanadi. Masalan: *ssenarist-ssenariychi*, *montajchi-montajyor*, *vaynchi-vayner*.

Mustaqillik davri neologik shaxs otlarini mavzuviy turlarga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

San'at sohasiga oid neologik shaxs otlari: *dizayner*, *modelyer*, *vizajist*, *imijmeyker*, *klipmeyker*, *grafist*, *kolorist*, *montajyor*, *prodyuser*, *rejissyor*.

Ijtimoiy tarmoqlar (internet olamiga)ga oid neologik shaxs otlari: *admin*, *vayner*, *bloger*, *instabloger*, *pranker*, *vlogger*, *programmist*, *kopirayter*, *dasturchi*, *tiktoker*, *yutuber*, *obunachi*, *negativchi*.

Iqtisodiy sohaga oid neologik shaxs otlari: *innovator*, *auditor*, *makler*, *inkassator*, *reportyor*, *kreditor*, *diler*, *tadbirkor*, *bizneschi*, *biznesmen*, *marketolog*, *broker*, *eksportyor*, *merchendeyzer*, *supervayzer*, *targetolog*, *tadbirkor*, *debitor*.

Tibbiyot va psixologiya sohasiga oid neologik shaxs otlari: *nutritsiolog*, *defektolog*, *psixosomatolog*, *psixoterapevt*, *terapevt*, *gastroenterolog*, *pulmonolog*, *motivator*, *gipnolog*, *gipnoterapevt*, *kosmetolog*, *endokrinolog*, *anti eydj shifokor*, *helz kouch*, *kouch*, *moderator*, *mammolog*, *layf-kouch*, *flebolog*, *nevrolog*, *trixolog*.

Ta'lim sohasiga oid neologik shaxs otlari: *abituriyent*, *bakalavr*, *master*, *tyutor*, *volontyor*.

Sport sohasiga oid neologik shaxs otlari: *trekchi*, *fitnesschi*, *dyuzdochi*, *futzalchi*, *yogachi*. Bunday mavzuiy guruhlar sirasini yana davom ettirish mumkin. Chunki hozirgi kunda jamiyatimizda yangi-yangi sohalar kunora yuzaga kelmoqda va uning taraqqiyoti shu soha vakili, mutaxassisi (shaxs oti) bilan ham bog'liq.

Tilimizda *volontyorlik*, *blogerlik*, *menejerlik*, *supervayzerlik* kabi shaxs oti modeli [oti+lik] orqali hosil bo'lgan neologik faoliyat otlari ham kuzatiladi. Bunday faoliyat otlarining asosi neologik shaxs otlari sanaladi, ya'ni shaxs oti faoliyat otiningi yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Ushbu so'zlarning o'zbek tili lug'atlarida o'z aksiga egaligi ularning faol qo'llanuvchi so'zlar qatoridan o'rin egallaganligini ko'rsatadi. Yana bir dalil ahamiyatliki, hozirgi kunda faoliyat ma'nosini ifodalovchi otlardan ham ayrim shaxs otlari yuzaga kelmoqda: *kopirayting-kopirayter* kabilar.

Keyingi masala o'ta yangilik bo'yog'iga mansub bo'lgan hamda ayni shu kunlarda lug'at qatlamimizga yopirilib kirib kelayotgan bir guruh so'zlarga munosabat masalasi. Bu kabi so'zlarning o'zlashish-o'zlashmaslik masalasi tilning ijtimoiyligi bilan bog'liq, albatta. Bular zarurat taqozosi bilangina lug'atimizdan o'rin egallashi mumkin yoki aksincha. Biz internet ma'lumotlardan foydalangan holda bu so'zlarni quyidagicha izohlashga harakat qildik:

Kopirayter. Kompaniyalar uchun kuchli sotuv matnlarini yozib, pul ishlaydigan mutaxassis.

Moderator. Qoidalarga rioya qilish va spam xatti-harakatlarning oldini olish uchun veb-saytlar, forumlar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi kontentni kuzatuvchi shaxs yoki dastur.

Kouch. Savollar berib, qo'llab-quvvatlash va yo'l-yo'riq ko'rsatish orqali boshqalarga o'z malakalarini oshirish, rivojlantirish va maqsadlariga erishishga yordam beradigan shaxs.

Zumer. Zumerlar 2000 yildan keyin tug'ilgan ayrim avlod vakillari.

Keyter. Biror kishiga yoki biror narsaga ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar (internet) orqali zarar yetkazish yoki birovni xafa qilish uchun ataylab salbiy munosabatni bildiruvchi shaxs.

Brend-shef. Bir nechta restoranlarning oshxonalarini boshqaradigan, jumladan, menyular yaratish va yangi taomlarni joriy etuvchi, boshqaruvchi xodim.

Merchendayzer. Sotuvchi yoki sotuv ishlarida yordam, maslahat beruvchi shaxs.

Mobilograf. Sifatli tasvirlar olib, uni kontent ko'rinishiga (tayyor video holda) olib keluvchi kasb egalari.

Layf-kouch. Yashash tarzini yaxshilovchi, sog'lom turmush tarzi va sog'lom ongni rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Bukmeyker. Turli qimor o'yinlarida yoki sport o'yinlari, saylovlar va shu kabilar natijasiga pul tikishda dovlarni qabul qiladigan shaxs.

Trixolog. Soch bilan bog'liq kasalliklar (soch to'kilishi, kallik, erta oqarishi)ni o'rganuvchi va davolovchi mutaxassis.

Flebolog. Flebologlar venoz kasalliklar, shu jumladan, varikoz tomirlari, tromboz va boshqalarni tashxislash, davolash va oldini olish bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassis.

Bunday so'zlar qatorini yana davom ettirish mumkin. Biz keltirgan mazkur izohlarni to'liq, batafsil, to'la-to'kis deb bo'lmaydi, albatta, chunki bu kabi so'zlarning ma'no ifodasi shu kasb egalari faoliyati, kasb-kor barqarorligi va shu kasbning kelajagi bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tilimiz lug'aviy qatlamidan o'rin egallayotgan neologizmlar, jumladan, neologik shaxs otlarini to'plash, ularning har bir yo'nalishi, tarmog'i uchun maxsus va umumiy imlo, izohli lug'atlar yaratish, yangi o'zlashmalarning imlosi, transliteratsiyasi muammolari bilan shug'ullanish hozirgi kun tilshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi. Neologik shaxs otlari kasb-kor turlarining oshib borishi natijasida sifat va miqdor jihatdan kengayib, o'sib boradi. Ularni keng tasnif va tahlil etish, tilimiz me'yorlariga moslagan holda, ehtiyoj, zaruratga ko'ra qabul qilish til lug'at qatlami so'zlarining o'rganilishi bilan uzviy bog'liq.

ADABIYOTLAR:

1. Asadov T. *Predmet-belgi ma'noli yasama so'zlar va ularning lug'atlardagi ifodasi.* BuxDU ilmiy axboroti. – Buxoro. 5-son, 2023. –116-122.
2. Begmatov E., Hojiyev A. va boshq. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* –T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022–2023.
3. Dadaboyev H. *O'zbek terminalogiyasi. O'quv qo'llanma.* –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
4. Xo'jayev A. *Ўзбек тили сўз ясашиши тизими.* –Т., 2007.
5. Mahmudov N. *O'zbek tilining katta imlo lug'ati.* –T.: Kafolat print company, 2023.
6. Миртожиев М. *Ҳозирги ўзбек адабий тили. I жилд.* –Т., 2004.
7. Раҳматуллаев Ш. *Ҳозирги ўзбек адабий тили.* –Т.: Университет, 2006.
8. Раҳматуллаев Ш. *(Масъул муҳаррир). Ҳозирги узбек адабий тили.* –Т., 1992.
9. Сапаев К. *Ҳозирги ўзбек тили. (морфемика, сўз ясашиши ва морфология).* –Т., 2009.
10. Тожиёв Ё. *Ўзбек тили морфемикаси.* –Т., 1992.
11. Турсунов У. ва б. *Ҳозирги ўзбек адабий тили.* –Т., 1991.
12. Холмонова З. *Тилишуносликка кириши.* –Т., 2007.
13. Хўжаев А. ва бошқ. *Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларнинг изоҳли лугати.* – Т., 2001.
14. Ғулмонов А., Камолов Ф. *Ўзбек тилининг илмий грамматикаси учун материаллар.* – Т.: ЎзФАН наشريёти, 1992.
15. Ғулмонов А., Тихонов Р., Қўнғиров Р. *Ўзбек тили морфем лугати.* –Т.: Ўқитувчи, 1977.
16. Шукуров О. *Замонавий ўзлашмалар эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини. Монография.* – Қарши: INTEЛЛЕКТ наشريёти, 2022.
17. www.ziyounet.uz va internet ma'lumotlari.

FE‘L EVFEMIK BIRLIKLARNING TIL VA NUTQDAGI O‘RNI

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich,
Termiz davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti v.b. (PhD)
turdimurodovs@tersu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada fe‘l evfemik birliklarning nutqiy madaniyatni shakllantirishdagi xizmati, shuningdek, qo‘pol harakatlarni yumshatib, "qog‘ozga o‘rab" ifodalovchi evfemik birliklarning ayrim o‘ziga xos lisoniy va nutqiy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Evfemik birliklarni o‘z nutqida qo‘llagan har bir inson turli suhbat, muloqot va ma‘lumot-axborot almashish jarayonida uni uni ma‘lum darajada hijolatlikni saqlagan holda ham qo‘llaydi. Bunda leksemaning semantikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tinglovchiga odob-axloq doirasida muomalada bo‘lish, o‘zaro vaziyatni yumshatish, uyat holatlarni yashirish, qo‘pollikni yumshatish va nutqiy madaniyatni ta‘minlash jarayonida ot va sifat evfemik birliklarga nisbatan fe‘l evfemik birliklar faol qo‘llaniadi.

Kalit so‘zlar: til, nutq, nutq madaniyati, evfemizm, evfemik birlik, nutqiy, aqliy, jismoniy, holat, fe‘l.

РОЛЬ ГЛАГОЛЬНЫХ ЭВФЕМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ЯЗЫКЕ И РЕЧИ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль глагольных эвфемистических единиц в формировании культуры речи, а также некоторые специфические лингвистические и речевые особенности эвфемистических единиц, смягчающих грубые действия и выражающих «заворачивание в бумагу».

Каждый, кто использует в своей речи эвфемистические единицы, употребляет их в процессе различных разговоров, общения и обмена информацией с определённой долей неловкости. В данном случае важна семантика лексемы. Глагольные эвфемистические единицы активно используются по отношению к существительным и прилагательным эвфемистическим единицам в процессе общения со слушателем в рамках этикета, смягчения взаимной ситуации, сокрытия неловких ситуаций, смягчения грубости и обеспечения культуры речи.

Ключевые слова: язык, речь, речевая культура, эвфемизм, эвфемистическая единица, речевое, психическое, физическое, состояние, глагол.

THE IMPORTANT ROLE OF VERB EUPHEMIC UNITS IN LANGUAGE AND SPEECH

Abstract. This article discusses the service of verb euphemistic units in the formation of speech culture, as well as some specific linguistic and speech features of euphemistic units that soften rough actions and express "wrapping in paper".

Anyone who uses euphemistic units in their speech uses them in the process of various conversations, communication and exchange of information with a certain amount of awkwardness. In this case, the semantics of the lexeme is important. Verbal euphemistic units are actively used in relation to nouns and adjectives euphemistic units in the process of communication with the listener within the framework of etiquette, softening the mutual situation, concealing awkward situations, softening rudeness and ensuring the culture of speech.

Keywords: language, speech, speech culture, euphemism, euphemistic unit, mental, physical, state, verb.

Kirish. Til va nutqda qo‘pol, uyatli, noo‘rin qo‘llaniluvchi birlik qaysi so‘z turkumiga tegishli bo‘lsa, uning o‘rnida yumshoq tarzda almashib qo‘llaniluvchi evfemik birliklar ham asosan shu so‘z turkumiga doir so‘z turkumlari bilan ifodalanadi. Nutqda, umuman, tilning boshqa vazifaviy uslublarida ham qo‘pol harakat (fe‘l)lar o‘rnida almashib qo‘llaniluvchi evfemik birliklar juda ko‘p. Fe‘l evfemik birliklar til leksikasini, uning ma‘nodoshlik qatorlarini, ko‘p ma‘nolilikni, bo‘yoqdor so‘zlar sirasini hamda lug‘at boyligimizni tinimsiz boyitishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Evfemik ma‘noli birliklarni tasniflaganda grammatik shakllanishiga uning materiali, qurilishi ba‘zi ibora evfemalarning bosh komponenti va semantikasiga e‘tibor qaratish juda muhim. Evfemik birliklarning o‘rganilishida uning morfologik tizimi haqida

tadqiqotlarda soʻz turkumlariga ajratishga jiddiy kirishilmagan. Bu muammoga bagʻishlangan ayrim ishlarning mavjudligiga qaramay, ularni turkumlashning lingvistik jihatdan tan olingan mezonlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu kichik ishimizni quyidagi evfemist olim va olimalarimizning tadqiqlari: A.Omonturdiyevning “Professional nutq evfemikasi” (2009); X.Qodirovaning “Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati” (2012); N.Gʻaybullayevaning “Oʻzbek tilida tibbiy evfemizmlar” (2019) nomli monografik ishlarining davomi sifatida qarash mumkin. Yuqoridagi adabiyotlarimizda evfemik birliklarning mavzuiy guruhlari, funksional-semantik xususiyatlariga xos lingvistik jihatlariga koʻproq eʼtibor qaratilganligi bilan ahamiyatli. Biz esa ularning morfologik xususiyatlariga koʻproq eʼtibor qaratishni maqsad qilib oldik. Qayd etilgan ishlarda ham evfemik birliklarni turkumlarga ajratishga qisman eʼtibor qaratilgan. Ishda ana shu jihatlar eʼtiborga olingan holda feʼl evfemik birliklarni struktur-morfologik va maʼnoviy guruhlarga ajratishga shuningdek, yasaliş yoʻllariga doir tadqiqni kengroq olib borishga harakat qildik.

Asosiy qism. Oʻzbek tilidagi evfemik birliklar morfologik jihatidan feʼl evfemik birliklar ot va sifat evfemik birliklarga qaraganda koʻproq qoʻllanilishini koʻrsatmoqda. Bularga masalan, **haydab yubormoq** (ish faoliyat bilan bogʻliq) oʻrnida *dumini tugmoq, boʻshatmoq, vazifasidan ozod qilmoq; yurmoq* oʻrnida *don olishmoq; zoʻrlamoq* oʻrnida *tajovuz qilmoq; isnod keltirmoq* oʻrnida *dogʻ tushirmoq; tugʻilmoq* oʻrnida *dunyoga kelmoq; oʻlmoq* oʻrnida *vafot etmoq, joni uzilmoq, jon bermoq; tahorat ushatmoq* (qoʻpol variantini yozma qayd qilish noʻoʻrin deb hisoblandi) diniy matnlarga xos shu soʻzning oʻzi ham evfemik birlik va uning maʼnodoshlari *yozilmoq, boʻshamoq; oʻgʻirlamoq* oʻrnida *yulmoq; ozmoq* (shevada arriqlamoq) oʻrnida *et oldirmoq, soʻppayib qolmoq; oʻldirmoq* oʻrnida *jon olmoq, tinchlantirmoq, tinchitmoq, boshiga yetmoq, nobud qilmoq; qusmoq* oʻrnida *oʻxchimoq; ajralmoq* oʻrnida *nikohi buzilmoq, nasibasi qoʻshilmadi, turmushi oʻxshamadi, bir-birini qabul qilmadi, oʻzaro fikri bir-biriga toʻgʻri kelmadi, kelishmabdi, qaytilish qilindi, yulduzi-yulduziga toʻgʻri kelmabdi; tugʻmoq* oʻrnida *koʻzi yorimoq, bolalamoq (chipqon bolalamoq); sotmoq s.t* (aytib bermoq) oʻrnida *gullamoq; vaysamoq* oʻrnida *bulbuligoʻyo boʻlmoq; qochib ketmoq* oʻrnida *justakni rostlamoq, quyon boʻlmoq; pora bermoq* oʻrnida *rozi qilmoq, ogʻzini yogʻlab qoʻymoq; aldamoq* oʻrnida *toʻqimoq; “yoqimsiz hid chiqarmoq”* soʻzlashuv tili oʻrnida *bavl qilmoq, yel chiqarmoq; semirmoq* oʻrnida *toʻlishmoq, etlanmoq* va shu kabilar.

Harakat maʼnolarini ifodalovchi evfemik birliklar davlat va davlat ahamiyatiga ega nufuzli tashkilot rahbarlari va ularning faoliyati bilan bogʻliq rasmiy uchrashuv va tashriflar doirasida ham faol qoʻllanilishini kuzatish mumkin. Ushbu jarayonda evfemik birliklarning qoʻllanilishi muhim ahamiyatga ega. Ularning asosan OAV, yaʼni, publisistik va rasmiy uslub doirasida qoʻllanilishini kuzatishimiz mumkin. Ularga, **keldi** oʻrnida *tashrif buyurdi; bormoq, ketmoq* oʻrnida *joʻnab ketdi; yemoq* oʻrnida *tatib koʻrmoq; koʻrmoq* oʻrnida *koʻrib chiqmoq; yozmoq* oʻrnida *qayd qilmoq; bermoq* oʻrnida *taqdim etmoq* kabilarni misol tariqasida olishimiz mumkin. Masalan, 1. *Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Qozogʻiston respublikasiga joʻnab ketdi.* 2. *Hukumat rahbarlari va faxriy mehmonlar yurtimizning milliy taomlaridan tatib koʻrdi. Davlat tashrifi bilan yurtimizda boʻlib turgan mehmonlar xotira daftarlariga oʻz fikrlarini qayd qildi. Ikki davlat rasmiy vakillari tuzilgan deklaratsiyalarni oʻzaro taqdim etishdi* (Gazetadan). Yuqoridagi misollarni tahlilidan oʻzaro hurmat, muomala munosabati, nutqiy madaniyat yuzasidan davlat rahbarlari va ularning harakatlariga nisbatan ... **keldi, ... ketdi, ... yedi, ... yozdi, ... berdi** jummalari qoʻllaniladigan boʻlsa qoʻpollik yuzaga kelishini anglash qiyin emas.

Feʼl evfemik birliklarning tarkibiy qismini tadqiqimiz davomida yasaliş jihatdan 3 turga: sodda, qoʻshma va frazeologik evfemik birliklarga ajratish mumkin.

a) Sodda feʼlli evfemik birliklar: Nutqimizda qoʻpol maʼnoli hisoblangan sodda feʼllarni yumshatish va yuqori uslubiy maʼno berish uchun qoʻllaniladi. Masalan, *tanavul qilmoq, ovqatlanmoq* feʼllari oʻrnida bu feʼlning yumshoq varianti *ichmoq, yemoq; “tinchlantirmoq”* koʻchma maʼnosi oʻlmoq (vaqti soati bitmoq), “tinchlantirmoq” (koʻchma maʼnosi oʻldirmoq) kabi feʼllari ishlatilishini uchratamiz. Izohli lugʻatda **oʻlmoq** feʼli *vafot etmoq, hayoti tugamoq, yashashdan toʻxtamoq, qazo qilmoq...* kabi yuzlab evfemik vositalarga ega. Shulardan biri vafot etmoq (yoki qilmoq) oʻlmoq, olamdan oʻtmoq maʼnolarini angalatadi. Masalan, *Mirzakarimboyning xotini Lutfiniso toʻsatdan, qalb xastaligidan boʻlsa kerak, bir kechada vafot etdi.* Oybek, *Tanlangan asarlar. Ammam vafot qilganidan keyin, toqqa ketib qolgan.* (P.Tursun, Oʻqituvchi) [5. 151].

b) Qoʻshma feʼlli evfemik birliklar. Qoʻshma evfemik feʼllar ot (yoki sifat hamda boshqa soʻz birikmalari) va koʻmakchi feʼl yordamida yasaladi. Qoʻshma feʼl tarkibiga kirgan sodda feʼllar asosan oʻzlarining leksik maʼnolarini yoʻqotib koʻmakchi feʼl vazifasini bajaradilar.

d) Frazeologik felli evfemik birliklar. Frazeologik birikmalar alohida soʻzlar kabi nominativ vazifa bajaradi. Feʼl soʻz turkumlariga koʻproq frazeologik modelda soʻz yasash xosdir. Shuning uchun tadqiqimiz davomida frazeologik feʼlli evfemik maʼnoli birliklarni ham tahlilga tortdik.

Sodda feʼlni idiomatik feʼlli birliklarga almashtirish orqali evfemizmlarning ifodalanishida feʼlni idiomatik xarakterga ega boʻlgan feʼl birikmasiga almashtirishni evfemik vositalarning biri sifatida koʻrsatish mumkin. Bunday feʼlli iboralar nutqqa ekspressivlik, obrazlilik bagʻishlab, hazil, mazax, piching kabi maʼnolarni ifodalaydi. Ekspressiv evfemalarning shakllanishida boʻyoqdor maʼnoli soʻzlar, majoziy maʼnoli vositalar muhim rol oʻynaydi. Idiomatik xarakterdagi feʼlli iboralarning maʼnosi har doim ham tarkibiy qismlarning maʼnosidan kelib chiqavermaydi. Feʼlli iboralar ham feʼlga xos barcha xususiyatlarga ega boʻladi, shu sababli, feʼllarni idiomatik feʼlli iboralar oʻrnini almashtirish mumkin. Masalan: **“xafa qilmoq”** oʻrnida *“ranjitmoq”*; **“chiqishmoq”** oʻrnida *“murosa qilmoq”* iborasi qoʻllanishi mumkin.

e) Mustaqil feʼlli birikmalar bilan ifodalangan evfemizmlar. Evfemik vositalarning keyingi turi sifatida feʼlning yumshoq shakldagi sinonimi hisoblangan mustaqil feʼlli birikmalarning qoʻllanishini koʻrsatish mumkin. Masalan, **“esdan chiqarmoq”** oʻrnida *“yoddan koʻtarilmoq”*; **“eshitmoq”** oʻrnida *“qulogʻimga chalindi”*; **“tugʻilmoq”** oʻrnida *“dunyoga kelmoq”*; **“oʻlmoq”** oʻrnida *“dunyodan oʻtmoq”*; **“koʻmmoq”** oʻrnida *“dafn qilmoq”*, *“tuproqqa qoʻymoq”* (*topshirmoq*) va boshqalarni misol tariqasida olish mumkin.

Birinchi navbatda, evfemizmlar soʻz-evfema koʻrinishida ifodalanadi. Masalan, *farzandli boʻlish* [sifat+feʼl] tarkibli qoʻshma feʼli nutqda **tugʻmoq** feʼlining evfemik oʻrindoshi sifatida qoʻllanadi: *Uning birdan-bir orzusi farzandli boʻlish* (“Tashxis”. 2016.№2. – B.11.) [2, 19]. Shuningdek, nutqda evfemik birliklar nafaqat soʻz-evfemalar koʻrinishida, balki erkin birikma shaklida ham qoʻllanadi.

N.Gʻaybullayevaning yuqoridagi tadqiqida jamiyat tarqqiyotidagi muhim sohalardan biri hisoblangan tibbiyot sohasidagi *nozik davr, ona suti bilan parvarishlash, orqa chiqaruv kanali, jiddiy aʼzolar, nozik sohalar, peshob chiqarish kanali* kabi birliklar aytilishi uyat sanalgan fiziologik jarayonlar hamda jinsiy aʼzolarining tibbiy nutqdagi evfemik ifodasi boʻlib, erkin birikma koʻrinishiga ega ekanligi ifoda etilganligini kuzatishimiz mumkin [2, 19]. *Vujudga kelmoq, dunyoga kelmoq, dunyoga keltirmoq, dunyo yuzini koʻrsatmoq, koʻzi yorimoq, boʻyida boʻlmoq, omonatini topshirmoq* singari turgʻun birikmalar evfemik ifoda hosil qilish vazifasiga koʻra birlashuvini, ammo har biri alohida, oʻziga xos qoʻllanishi asosida bu vazifani bajarganligini dalillaydi. Shu bilan birga, ayni vazifasi tufayli ular ibora-evfema qatoriga kirishini tasdiqlaydi va evfemik birliklarning ibora-evfema koʻrinishi mavjudligini qayd etib oʻtishimiz mumkin. Zotan, bu til birliklarining frazeologik lugʻatdan oʻrin olganligi ham ularni **tugʻilmoq, tugʻmoq, homilador boʻlmoq, oʻlmoq** soʻzlarining evfemalari sifatida baholash uchun yetarli dalil hisoblanadi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, hodisaning boshqa muqobillari koʻplab nutqiy holatlarda oʻlim vaziyati bilan bogʻliq tarzda qoʻllanilishini kuzatish mumkin. Shunday misollardan yana biri **oyoq uzatmoq** (yoki choʻzmoq) 1) **koʻngli tinchimoq, gʻam tashvishdan xoli boʻlmoq**. *Oftob oyim hamon oyoq uzatmadi*. (A.Qodiriy, “Oʻtgan kunlar”); 2) koʻchma oʻlmoq, jon bermoq. Keltirilgan misolda *oyoq uzatmoq birinchi* gap tarkibida Oftob oyimning hamon koʻngli tinchimaganligi, bemalol, xotirjam, tashvishlardan xoli boʻlmaganligini tushunsak, *ikkinchi koʻchma maʼnosi* asosidagi *oʻlmoq, jon bermoq* oʻrnida harakat oʻxshashligi asosidagi feʼl evfemik birlik vazifasini bajarishini anglash mumkin. Shuningdek, *oyoq uzatmoq* evfemik maʼnoli birligi oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida bosh soʻz sifatida emas, balki bosh soʻz bilan bogʻliq boʻlgan oyoq leksik birligining lugʻat maqolasida ifodalangan frazeologik birlik sifatida berilgan. Bu kabi misollar qatoriga *tugʻish arafasida* birligining oʻrnida *oy koʻrmoq, oyi toʻlmoq, oy kuni yaqinlashmoq; urishmoq, janjallashmoq* oʻrnida *yoqa olishmoq* evfemik maʼnoli birligi; **axloqsizlik qilmoq** oʻrnida *don olishmoq; oʻgʻirlamoq, oʻzlashtirib yubormoq (“yeb ketmoq”)* oʻrnida *saranjom qilmoq; sharmanda qilmoq* oʻrnida *sarnigun qilmoq; pora bermoq* oʻrnida *tomogʻini yogʻlamoq (yoki moylamoq)* kabi misollarni keltirib oʻtishimiz mumkin. Ushbu leksema va birliklarga berilgan gaplar mazmuniga eʼtibor qaratamiz: masalan, 1) *Kumushning oyi toʻlmasdan, u [onasi] beshik yasatish bilan mashgʻul edi*. 2) *Yoqasidan tutib boʻgʻishmoq, urishmoq* 3) *Xotini avtobusda qaytayotib, “Eshqobil! ferma sigir sogʻuvchisi Oʻrozgul bilan don olishib yuradi”, – degan gapni eshitib qolibdi*. 4) *Hisobchi... shu yilning oʻzidayoq kolxoza oʻnlab qoʻyini saranjom qilib yubordi*. 5) - *Sen ahmoqning bu ishing hazrat oldida mening yuzimni sarnigun qildi, — dedi Norboʻta*. 6) *Mudirga choʻtal toʻlagan yuqoridagi kishilar “boshliqning tomogʻini moyladik, endi ovozi chiqmaydi”, deb bir porsiyali ovqatni uch porsiya qilib, xoʻrandalarni choʻmichdan qoqa boshladilar*.

Feʼl evfemik birliklarni maʼnoviy guruhleri boʻyicha ajratib tahlil qiladigan boʻlsak, ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

a) nutqiy faoliyat feʼlli evfemik birliklar: yolgʻon gapirmoq oʻrnida *haqiqatdan chetlashmoq va toʻgʻri, rost soʻzlamaslik; yoʻqol (buyruq) feʼli oʻrnida tuyogʻingni shiqillat, koʻzimga koʻrinma;*

b) aqliy faoliyat fe'lli evfemik birliklar: rasmiy diplomatik munosabatlar doirasida qo'llaniladigan ko'rmoq o'rnida *ko'rib chiqmoq*; unutmok o'rnida *yoddan ko'tarilmoq*;

d) jismoniy faoliyat fe'lli evfemik birliklar: o'ldirib yubormoq o'rnida *saranjomlamoq, tamom qilmoq, tinchitmoq, boshini olmoq, jahannamga yubormoq, jon olmoq, bir yoqli qilmoq, tanini boshidan yengillatmoq, yostig'ini quritmoq*; ko'mmoq o'rnida *dafn etmoq, yerga qo'ymoq, tuproqqa topshirmoq, ko'pga qo'shmoq*; o'g'irlamoq o'rnida *shil(i)moq, urmoq, yulmoq, tunamoq*; birovni haqini yemoq o'rnida *jig'ildoniga urmoq*; qamoqqa olmoq o'rnida *ushlab olmoq, olib ketmoq*; emizmoq o'rnida *ko'krak suti bilan oziqlantirmoq*; jinsiy aloqa qilmoq o'rnida *birga bo'lmoq, qovushmoq, yaqinlik qilmoq, visoliga etmoq, diydoriga musharraf bo'lmoq, zino qilmoq*; ichmoq (spirtli ichimlik) o'rnida *tomoqni ho'llamoq*; o'pmoq o'rnida *labidan qand so'rmoq, bo'sa hadya etmoq*; yurmoq (axloqsizlik) o'rnida *don olishmoq*; qochib ketmoq o'rnida *juftakni rostlamoq*; rasmiy diplomatik munosabatlar doirasida keng qo'llaniladigan keldi o'rnida *tashrif buyurdi*; bormoq, ketmoq o'rnida *jo'nab ketdi*; yemoq o'rnida *tatib ko'rmoq*; yozmoq o'rnida *qayd qilmoq*; bermoq o'rnida *taqdim etmoq* va.b. Misollarga e'tibor qiladigan bo'lsak, ketmoq o'rnida "*Davlatimiz rahbari Farg'ona viloyatiga tashrifini yakunlab, Andijonga jo'nab ketdi*" [8. 1], ...*soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish borasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun imtiyozli shartlarda qarz taqdim etish ma'qullandi* [9. 1].

Birinchi gap tarkibidagi *jo'nab ketmoq* jismoniy faoliyat fe'lli evfemik ma'noli leksemasi ketdi leksemasi o'rnida qo'llanilib, rahbar shaxsga alohida hurmatni ifodalashda hamda ushbu vaziyatda... *ketdi* noo'rin birligining o'rnida o'rinli evfemik birlik sifatida ishtirok etmoqda. Yuqoridagi keltirilgan leksemalarning qo'llanilishini ommaviy axborot vositalarida ko'plab uchratish mumkin.

e) holat fe'lli evfemik birliklar: tug'moq o'rnida *ko'zi yorimoq, yengillashmoq, bo'shalmoq, vujudga kelmoq, dunyoga kelmoq, dunyoga keltirmoq, qutilmoq*;

"tashqariga chiqmoq" o'rnida tahorat ushatmoq, bo'shanmoq (ikkala holat uchun ham s.t. "*kattasi*" va "*kichigi*") *yoziqlamoq, bo'shanmoq, yel chiqarmoq, bavl qilmoq*; qarimoq o'rnida *keksay(r)moq*; ersiramok o'rnida *kuyikmoq*; sharmanda bo'lmoq o'rnida *sarnigun bo'lmoq*; axloqiy jihatdan buzilmoq o'rnida *suyuqlashmoq*; sha'nini bulg'amoq, tahqirlamoq o'rnida *toptamoq*; buzmoq o'rnida *nomusidan ayirmoq*; bo'g'oz bo'lmoq (chorva mollari haqida) o'rnida *to'xtamoq*; pora bermoq o'rnida *uzatmoq, og'zini yog'lamoq (moylamoq)*; erga bermoq o'rnida *uzatmoq*; uylantirmoq o'rnida *boshini qovushtirmoq, boshini ikkita qilmoq, boshini bog'lamoq, boshini juftlamoq, boshini biriktirmoq, oyog'ini to'rtta qilmoq*; erga tegmoq o'rnida *bir yostiqaqa bosh qo'ymoq*; balog'atga yetmoq o'rnida *bo'yi yetmoq*; uylanmoq o'rnida *boshini bog'lamoq, bir yostiqaqa bosh qo'ymoq*; zo'r'lamoq o'rnida *nomusiga tegmoq, tajovuz qilmoq*; qusmoq o'rnida *o'xchimoq, ko'ngil aynimoq, qayt qilgisi kelmoq*; sevmoq o'rnida *ko'ngil qo'ymoq*; homilador (bo'g'oz) bo'lmoq o'rnida *bo'yida bo'lmoq*; semirmoq o'rnida *to'lishmoq*; unashtirilgan o'rnida *boshi bog'liq*; kasal bo'lmoq o'rnida *tobi qochmoq, og'ir bo'lib qolmoq, dardga chalinmoq, og'irlashmoq*; bo'kib yemoq o'rnida *hasanlamoq (shevada)*; ozmoq (arriqlamoq shevada) o'rnida *o'zini oldirmoq*; ishdan haydalmoq o'rnida *xizmat vazifasidan bo'shatilmoq, chetlashtirilmoq, dumi tugilmoq*; qamalmoq o'rnida *ozodlikdan mahrum etilmoq, kesilmoq*; serraymoq o'rnida *devor bo'lib qotib qolmoq*; zorlanib qaramoq o'rnida *nolon boqmoq*; isnod keltirmoq o'rnida *dog' tushirmoq* kabilar shular jumlasidandir.

Nutqiy faoliyat fe'lli evfemik birliklar asosan so'zlashuv uslubida, nutqiy vaziyatlarda ko'proq qo'llaniladi. Aqliy faoliyat fe'lli evfemik birliklar ham qisman diplomatik munosabatlar va so'zlashuv uslubida ishlatiladi. Jismoniy faoliyat fe'lli evfemik birliklar esa barcha uslublar doirasida qo'llanilishi mumkin.

O'zbek tilida **ichmoq** leksemasi o'rnida qo'llanadigan *tomoqni ho'llamoq, ichimlikdan (asosan, spirtli ichimlikdan) biroz olmoq, ichmoq* kabi ma'nolari mavjud: *Yoshlikning oxiri, qarilikning boshi, deganday, ozroq tomoqni ho'llab olsak bo'lardi*. "Mushtum" [6. 144]. Bunday misollarda yana biri **don olishmoq** izohli lug'atlarda quyidagicha izohlangan: ya'ni, **don olishmoq, biror kimsa bilan yaqinlik qilmoq, intim munosabatda bo'lmoq; o'ynash bo'lmoq** kabi ma'nolarni anglatishi aytib o'tilgan va shunday misol keltirilgan: *Oyim tirikligida ham dadam Zumrad kampir bilan don olishib yurardilar*. S.Ahmad, Yulduzlar [7. 642]. Ushbu misollarda evfemik birlik jismoniy harakat o'xshashligi asosida yuzaga kelishini ko'rish mumkin. Bu esa jismoniy faoliyat fe'lli evfemik birlik qatoriga kiritishimizga asos bo'ladi.

Xulosa. Fe'l evfemik birliklar orqali til va nutqda predmet va narsalarnig harakat-holatiga nisbat berilishida nutq madaniyati nuqtayi nazaridan aytilishi noqulay bo'lgan harakatlarni, shaxsning dunyoga kelishidan to vafot etguniga qadar bo'lgan oraliqdagi harakatlarini, insonning aqliy, nutqiy, jismoniy, mavjud holat bilan bog'liq, nikoh (oila qurish)gacha va undan keyingi jarayonlar bilan bog'liq harakatlarni ifodalash uchun juda ham zarur. Ushbu birliklarning grammatik xususiyatlarini keng tahlil qilish, ularning lisoniy va

nutqiy xususiyatlarini lingvistik tahlil qilishda, shuningdek, yuqori saviyadagi nutqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. *Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол.фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. 255 б.*
2. *Ғайбуллаева Н. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий наир материаллари мисолида). Ф.ф.ф.д. дисс. – Бухоро. 2019. 145 б.*
3. *Қодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиши маҳорати: Филол.фанлари номзоди...дисс. – Тошкент, 2012.*
4. *Турдимуродов С. Ўзбек тилининг изоҳли лугатларида эвфемик маънолар талқини. Ф.ф.ф.д. дисс. – Термиз. 2022. 139 б.*
5. *Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 томлик, 5-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. –151 б.*
6. *Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 томлик, 4-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. –144 б.*
7. *Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 томлик, 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. –642 б.*
8. *Халқ сўзи. – Тошкент, 2021. 29.09. 208-сон. – 1-б.*
9. *Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2021. 01.10. 196-сон – 1-б.*

HARBIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Soatova Malika Sayfitdinovna,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
malikasoatova111@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy diskursning asosiy nazariy jihatlarini, maxsus terminologiyasi va kommunikativ strategiyalari tahlil qilinadi. Harbiy nutq va hujjatlarda aniqlik, qisqalik hamda iyerarxiya muloqotning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, harbiy diskursda qo'llaniladigan maxsus atamalar va qisqartmalar harbiy operatsiyalarni boshqarish va harbiy xodimlar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlash uchun zarur bo'lgan til vositalari sifatida o'rganiladi. Maqola davomida harbiy diskursning rasmiy hujjatlar bilan bog'liq bo'lgan stilistik va funksional xususiyatlari, shuningdek, uning jamoatchilik bilan aloqalardagi roli ham ko'rib chiqiladi. Ushbu tahlil orqali harbiy diskursning kommunikativ ahamiyati va uning strategik nuqtayi nazardan muhimligini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuv taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: diskurs, kommunikatsiya, pragmatik, morfologik, metaforik, kommunikativ strategiyalar, terminologiya, ritorika.

ОСОБЕННОСТИ ВОЕННОГО ДИСКУРСА

Аннотация. В статье анализируются основные теоретические аспекты, специальная терминология и коммуникативные стратегии военного дискурса. Военная речь и документы подчеркивают важность точности, краткости и иерархичности общения. Также изучаются специальные термины и аббревиатуры, используемые в военном дискурсе, как языковые средства, необходимые для управления военными действиями и обеспечения эффективного общения между военнослужащими. В статье рассматриваются стилистические и функциональные особенности военного дискурса, связанного с официальными документами, а также его роль в общественных отношениях. Благодаря этому анализу представлен научный подход к определению коммуникативной ценности военного дискурса и его важности со стратегической точки зрения.

Ключевые слова: дискурс, коммуникация, прагматическая, морфологическая, метафорическая, коммуникативные стратегии, терминология, риторика.

PECULIARITIES OF MILITARY DISCOURSE

Abstract. This article analyzes the main theoretical aspects, special terminology and communicative strategies of military discourse. Military speech and documents emphasize the importance of precision, brevity, and hierarchical communication. Also, special terms and abbreviations used in military discourse are studied as language tools necessary to manage military operations and ensure effective communication between military personnel. The article examines the stylistic and functional features of military discourse related to official documents, as well as its role in public relations. Through this analysis, a scientific approach is presented to determine the communicative value of military discourse and its importance from a strategic point of view.

Keywords: discourse, communication, pragmatic, morphological, metaphorical, communicative strategies, terminology, rhetoric.

Kirish. Harbiy diskurs tushunchasi haqida fikr yuritganda, uning nafaqat harbiy sohadagi o'zaro muloqot uchun muhimligini, balki bu til orqali o'zining ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini saqlab qolish lozimligini qayd etish zarur. M.L.Makarov o'zining "Diskurs nazariyasining asoslari" kitobida harbiy diskursning nazariy asoslarini bayon qilib, uning boshqa soha diskurslaridan farqlanishiga urg'u beradi. Harbiy til va nutq, bu muayyan iyerarxiya va aniq vazifalarni bajarish uchun xizmat qiluvchi maxsus diskursdir. Uning kommunikativ jihatlarini qudrat, buyruq va bo'ysunish mexanizmlarini o'z ichiga oladi [10; c. 260-267]

Harbiy diskurs ko'pincha hokimiyatga asoslangan bo'lib, harbiy xodimlarning bir-biriga va yuqori rahbariyatga bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu diskursda berilgan har bir buyruq va topshiriq aniq bo'lishi lozim, chunki harbiy operatsiyalar davomida xatolar qimmatga tushishi mumkin. Strelkovskiy G. M. nemis tilidan

harbiy tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni tadqiq qilgan va harbiy atamalarni to'g'ri tarjima qilishning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, harbiy tarjimalarda atamalar juda nozik bo'lishi kerak, aks holda noto'g'ri tarjima harbiy amaliyotlar davomida noaniqliklarga sabab bo'lishi mumkin [11; c. 272].

Dijk T.A. o'zining "Text and Context" asarida diskursni nafaqat til vositalari orqali shakllangan matn, balki uning tushunilishi va talqin qilinishida kontekstning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, matn va kontekst o'zaro bog'liq bo'lib, matnning semantik va pragmatik xususiyatlari faqatgina uni o'rab turgan ijtimoiy va madaniy omillar orqali to'liq tushunilishi mumkin. Bu yondashuv harbiy diskurs uchun ham dolzarb bo'lib, harbiy buyruqlar va topshiriqlarni to'g'ri anglash va ijro etishda ularning kontekstual ahamiyati katta rol o'ynaydi [3; p. 87-98]. Diskursni pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali harbiy diskursning muloqotdagi o'ziga xos iyerarxik tuzilishi va hokimiyatni ta'minlashda qanday vositalar ishlatilishini chuqurroq tushunish mumkin[4].

Tadqiqot obyekti va foydalanilgan metodlar. Tadqiqot davomida harbiy diskursning turli elementlari o'rganiladi. Tadqiqot manbalari qatorida quyidagilar mavjud: harbiy hujjatlar, harbiy tarjimalar bo'yicha ilmiy ishlanmalar, harbiy nutqlar va maxsus adabiyotlar, jumladan Christopher, H.S., Dubrova Yu.Yu., Ulanov A. V., kabi olimlarning asarlari. Ular harbiy kommunikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilishda muhim manbalar hisoblanadi.

Metodologik jihatdan, diskurs tahlili va pragmatik yondashuvlar asosiy tadqiqot metodlari sifatida tanlandi. Diskurs tahlili harbiy hujjatlar va harbiy sohadagi kommunikatsiya shakllarini tahlil qilishda qo'llanilgan. Pragmatik yondashuv esa harbiy diskursda tilning qanday funktsional ishlatilishini va harbiy mavzudagi nutqlarning amaliy qirralarini o'rganishga yordam berdi.

Tadqiqotda harbiy hujjatlar va maxsus terminlarning morfologik va sintaktik tahliliga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, Makarov M.L., Dubrova Yu.Yu. Dijk T.A. tadqiqotlari asosida ko'p komponentli terminlarning struktura va semantik jihatlari ham o'rganiladi. Tadqiqotdagi barcha tahlillar ilmiy ijodning tahlil qilish (analiz) metodidan hamda tahlil davomida olingan natijalar umumlashtirish (sintez) yordamida ma'lum xulosalarga erishildi.

Natija va muhokama. Harbiy diskursning yana bir muhim jihati bu uning maxsus terminologiyasidir. Harbiy hujjatlar va nutqlar ko'pincha murakkab, ko'p komponentli terminlardan iborat bo'ladi. Dubrova Yu.Yu. ko'p komponentli terminlarning harbiy hujjatlardagi strukturaviy va mazmun jihatlari o'rganib chiqdi. Olim bu terminlarning nutqda qisqalik va aniqlikka erishish maqsadida ishlatilishini ta'kidladi. Masalan, bir nechta so'zlardan iborat bo'lgan ko'p komponentli terminlar harbiy operatsiyalar va strategiyalarni ifodalashda tez-tez qo'llaniladi [9; c. 86]. Harbiy diskurs hujjatlari funktsional stili rasmiy hujjatlar stiling bir ko'rinishi sifatida o'sha stilga tegishli barcha struktural, semantik, funktsional va stilistik xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) Harbiy diskursga oid rasmiy hujjatlar aniq bir muloqot maqsadi asosida shakllantiriladi;
- 2) Harbiy diskursga oid rasmiy hujjatlar bir biriga chambarchas bog'langan lisoniy va stilistik vositalar tizimini tashkil qiladi;
- 3) Harbiy diskursning asosiy vazifasi bir-biriga o'zaro funktsional ierarxik jihatdan bog'liq ikki tomonini o'zaro munosabatini tartibga solishdir;
- 4) Bu tomonlar bo'lishi mumkin: Jamiyat-fuqaro; fuqaro-oila; fuqaro-harbiy tizim; fuqaro-fuqaro; ofitserlar tarkibi-askarlar tarkibi; komandir-harbiy hizmati; serjant -oddiy askar; yuqori ofitserlar-quyi ofitserlar;
- 5) Harbiy diskursga oid rasmiy hujjatlarning yana bir yo'nalishi yuridik shaxslar va harbiylar o'rtasidagi iqtisodiy va moliyaviy-bugalteriya, transpartirovka va logistika, ishlab-chiqarish va harbiy strukturalarning umumiy faoliyatiga oid hujjatlar bo'lishi mumkin;
- 6) Harbiy diskursga oid rasmiy hujjatlarning yana bir yo'nalishi davlat va hukumat organlarining harbiylar hayoti va faoliyatiga tegishli bo'lgan buyruq, farmon va boshqa qonun, farmoyish va yo'riqlari statusida bo'lishi mumkin;
- 7) Harbiy diskursga oid rasmiy hujjatlarning yana bir turi bu turli xalqaro-harbiy tashkilotlar bilan o'rnatilgan aloqalarni rasmiylashtirishga xizmat qiluvchi hujjatlar;
- 8) Davlatlar orasida hukumatlararo harbiy aloqalarni tartibga soluvchi rasmiy hujjatlar: kelishuvlar, bitimlar, har xil mazmundagi bir tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuv kabilari;
- 9) Harbiy tarkibni tashkil etuvchi birliklarning huquq, burch, vazifa va statusini aniqlab beruvchi ustav, kodeks va buyruq beruvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, bayonnomalari;
- 10) Harbiy tarkib ichida amalga oshiriladigan tashkiliy-ierarxik o'zgarishlarni qonunlashtiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

Harbiy diskurga oid yozishmalarning quyidagi asosiy funksional uslubiy tuzilishining o'ziga xosligi uning uslubiy jihatdan o'ziga xosligini belgilaydi. Harbiy diskursning meyoriy hujjatlari quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: a) harbiy diskurga oid hujjatlarda kelishuv tizimi ko'p qo'llaniladi;

b) harbiy diskurga oid hujjatlar matni ko'plab ishlatilishi bilan xarakterlanadi;

v) harbiy diskurga oid matnlarda to'g'ridan to'g'ri matndan anglashilgan ma'noni nazarda tutuvchi birliklar ko'p ishlatilishini kuzatish mumkin: *M: I beg to inform you, I beg to move, I second the motion, provisional agenda, the above mentioned, here informed, on behalf of; private advisory, dear sir* [7];

g) harbiy hujjatlarga tartib belgilovchi qoidalari majmui bo'lmish ustavlar, qurol-aslahalarga oid qo'llanmalar, buyruq, farmoyishlar kabi hujjatlar kiradi.

9) maxfiy ma'lumotlar berishda turli xil qisqartmalarning ishlatilishi harbiy diskurga oid hujjatlarning eng muhim belgilardan biridir.

e) harbiy diskurga oid hujjatlarda hamda bevosita harbiy ishlarda ham harbiy texnikada ishlatiladigan maxsus terminlar juda ko'p uchraydi.

j) harbiy diskursda geografik nomlar, daryo, tog', shahar, tepalik kabi boshqa joy obyektlarning nomlari tog'ri ma'nosida va kodlashtirilgan yashirin ma'noda ishlatilishi ham kuzatiladi.

z) harbiy diskursda shartli, simvolik ma'noda ishlatilgan so'zlar ham ishlatiladi.

i) harbiy diskursda buyruqlar sintaktik qurilishida ham o'ziga xosliklar kuzatiladi. Ularda ko'pincha kesim fe'lining buyruq istak mayli bilan ifodalangan sodda gaplar ishlatiladi.

k) Murakkab qo'shma gaplar kamroq qo'llaniladi. Aytilgan fikrlar, buyruqlar qismlarga ajratilib, tartib raqami bilan beriladi.

Harbiy terminologiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu soha terminlar ko'pincha boshqa soha terminologiyalaridan farqlanadi. Bu atamalar harbiylarning o'zaro bir-birini tushunishiga, shuningdek, hujjatlar va buyruqlarning aniq va to'g'ri bo'lishiga xizmat qiladi. Masalan, "strategik hujum operatsiyasi" yoki "quruqlikdagi qo'shinlarning taktikasiga asoslangan mudofaa" kabi atamalar nafaqat murakkab, balki operatsiyalarni qisqa shaklda tasvirlaydi, lekin ularning qanday amalga oshirilishi haqida batafsil ma'lumot beradi [9]. Strelkovskiy G.M. nemis harbiy tilini o'rganishda ushbu terminlarning tarjima qilish qiyinchiliklarini tahlil qilgan va ularning aniq va to'g'ri bo'lishi qanchalik muhimligini ko'rsatgan [11].

Ayrim harbiy hujjatlarda ba'zan metaforik nomlash holatlari ham kuzatiladi, ammo bu holatlar bu hujjat mualliflari va retsipiyentlari ma'lum bo'lgan umumiy kod til unsurlari yordamida amalga oshiriladi. Unga ko'ra tog', daryo, tepalik, adir yoki qishloq, ovul kabi katta-kichik geografik obyektlarga nisbatan estetik qiymatga ega bo'lgan kodlashgan so'zlardan foydalaniladi. *M: 2. 102. Inf. Div. continues. atk. 26 feb. 45. To captive objs Spruce, Peach and Cherry and prepares to take over objs Plum and Apple after capture by CCB. Armd Divi* [2; p. 76-85].

Bundan tashqari, harbiy matnlarda qo'llaniladigan qisqartmalar harbiy kodni bildiruvchi maxsus simvollar ham bo'lishi mumkin:

- D.A.O-Divisional Ammunition officer-Diviziyada qurol-yarog' va harbiy aslahalar bilan ta'minot uchun javobgar ofitser:

- A/T- Anti-tank- tankga qarshi qo'llaniladigan moslama, qurol-aslahalar;

- ATAS-Air transport Auxiliary service- havo kuchlari transportidagi yordami xizmat qismlari.

Shuningdek, qisqartmalar birikmalarning emas balki so'zlarning qisqartmasi ham bo'lishi mumkin.

Masalan:

- obj-object, obyekt

- adv-advance-avvaldan, oldindan

- atk-attack-hujum

- M.P-member of Parliament-parlament a'zosi.

- Gvt-government-hukumat

- Ltd-limited-mas'uliyati cheklangan

- \$-dollar-dollar

- L-pound-funt

- IAW-In accordance with your reference - siz bilan kelishuv asosida, sizning taklifingiz asosida.

- Pergra-permission granted-ruhsat berilgan.

- MG-machine gun-pulemyot

- RP-recoilleo rifle-otkat bermaydigan qurol.

- Rkt Lchr-rocket launcher-reaktiv tankga qarshi granatomyot,

- Cal-caliber-kalibr.

- Cbn-carbine-karabin-miltiq

- SMG-submachine gun-avtomat
 - AP-Armor-piercing-zirh teshar.
 - AT-antitank-tankga qarshi
 - HE-high explosive-yuqori darajada portlash quvvatiga emas.(fugas)
 - Incd-incendiary-obyektzni yondirib yuboruvchi.
 - APers-anti personnel-piyoda askarlarga qarshi qo'llanuvchi qurol (oskolkali)
 - LMG-light-machine gun- qo'lda otiladigan pulimiyot,
 - HGM-heavy machine gun-og'ir(stanok shaklidagi) pulimiyot
 - Veh-vehicle-avtomobil-transport vositasi
 - GI-Government issue-kazyonniy-davlat xazinasiga tegishli,
 - ASN-Army serial number-piyoda askarlarning shaxsiy tartib raqami,
 - Cas-Casualty-qurbon
 - AR-Army regulations-piyoda qo'shinlar ustavi.
 - CO-commanding officer-qism va bo'lim komandiri
 - Equip-Equipment-moddiy va harbiy ta'minot.
 - APO-army post office-piyoda qo'shinlar armiyasi pochta xizmati bo'limi.
 - AAA-Anti-aircraft artillery-zenit artilleriyasi;
 - USMA-United states military Academy-AQSHdagi harbiy bilim yurti.
 - ROTC-Reserve officers Training Corps-Zahiradagi ofitserlarni qo'shından tashqari tayyorlash xizmati.
 - Tac-Tactical-taktik.
 - Trps-Troops-qo'shinlar.
 - Comb-combat-jang, harbiy harakat.
 - Inf-Infantry-piyoda qo'shinlar.
 - CE-Corpse of Engineers-AQSH Injenerlar xizmati qo'shinlari korpusi.
 - SigC-Signal Corpse-AQSH aloqa xizmati korpusi.
 - CmlC-Chemical Corpse-AQSH kimyoviy xizmat kuchlari korpusi.
 - Msn-mission-topshiriq, harbiy topshiriq.
 - Atk-attack-hujum.
 - Def-defense-mudofaa.
 - CAtk-counterattack-qarshi hujm.
 - Spt-support-qo'llab quvvatlash.
 - TC-Transportation Corpse-AQSH transport xizmati korpusi.
 - Sqd-squad-bo'linma.
 - Sec-section-seksiya-bo'lim.
 - Plat-platoon-vzvod.
 - CO-company-rotta.
 - Brig-brigada-brigada.
 - F-Formation-qo'shinlar birlashuvi,operativ birlashma, etroy, harbiy tartib.
 - MOS-Military occupational speciality; ruscha BYC- военно-учётная специальность - harbiy soha bo'yicha qayd etiladigan ixtisoslik.
 - En-enemy-dushman.
 - Psn-position-vaziyat, joylashuv.
 - Gnr-gunner-artillerist,to'pchi.
 - Aslt-assault-ataka, hujum, shturm qilmoq, intensive harbiy harakatlarni amalga oshirmoq.
- Yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari, harbiy texnika sohasida ham yuzlab qisqartmalar borki ularning ma'nosini bilmas harbiy harakatlar vaqtida noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ulardan ayrimlarini eslab o'tish lozim deb topdik:
- RadSta-radio station-radiostansiya
 - DF-direction finder-radiopelengator
 - Freq-frequency-chastota
 - SOI-signal operation instruction-aloqa xizmati bo'yicha instruksiya
 - HF-high fidelity-qisqa to'lqinli yuqori chastotalar
 - VHF-very high frequency-ultra yuqori chastota, ultra qisqa to'lqinli(UKV)
 - Fm-frequency modulated-chastotasi modulyatsiyalangan
 - AM-amplitude modulated-amplitudasi modulyatsiyalangan

- TT-teletype-teletayp
- Aja-adjacent-qo'shnilikda joylashgan turdagi harbiy qism
- SiqO-signak ofitser-AQSH armiyasida aloqa xizmati qismning boshlig'i

n)Harbiy diskurs yozma matnning yana bir o'ziga xos xususiyati shunda ko'rinadiki, bunda matnda qo'llanilgan so'zlar o'zlarining to'g'ri lug'aviy, birlamchi va asosiy ma'nolarida ishlatiladi. U yerda badiiy diskursdan farqli o'laroq hech qanday metaforik, metonimik, konnotativ, ko'chma yoki ikkilamchi nominatsiya xosilasi bo'lgan ma'nolar ishlatilmaydi. Yuqorida eslatilgan semantik bo'yoqlanish yoki ko'chish holatlari kontekstda so'z ma'nosining turlicha tushunilishiga olib keladi va axborot almashinuviga katta to'siq bo'ladi [1].

Yuqorida keltirilgan misoldagi (peach) va olcha (cherry), olxo'ri (plum), olma (apple) meva nomlari orqali kodlashtirilgan joy nomlarini faqat hujjat jo'natgan va hujjatni ijro uchun qabul qilib olgan tomonlargagina ma'lum. Agar qaandaydir sabablarga ko'ra xabar dushman tomonga tushib qolsa ham ular bu mevalar nomi nimani bildirishini baribir bila olmaydi [13]. Harbiy diskursga oid rasmiy hujjatlarda his-hayojonni bildiruvchi so'zlar ishlatilmaydi. Harbiy diskursga oid rasmiy hujjatlarning turlari haqida yakuniy ma'lumot sifatida aytishimiz mumkinki unga ko'ra harbiy diskursga oid rasmiy hujjatlar ikki turga bo'linadi. Ochiq xarakterdagi hujjatlar :

1)Harbiy struktura, tizim faoliyati va uning elementlari haqida ochiq yozma ma'lumot-hujjatlar. Bu guruhga quyidagilar kiradi:harbiy strukturalar faoliyatini meyorlashtiruvchi, tizim elementlar faoliyatini reglamentlashtiruvchi turli me'yoriy-huquqiy hujjatlar-ustavlar, harbiy xodimlar hayotini regulatsiya qiluvchi ayrim me'yoriy-yuridik hujjatlar, ochiq xarakterdagi, davlat sirlarini oshkora qilmaydigan buyruq farmoyish, qonun va turli kodekslar ochiq hujjatlar safiga kiritiladi[5].

2)Taqiqlangan, kompetent hujjatlar: taqiqlangan hujjatlar armiya, aviatsiya va flotning tarkibi, miqdori, dislokatsiyasi, turlari, vazifalari, harbiy texnikasi miqdori, turlari, mexanik holati, moliyalashtirishning ahvoli shaxsiy tarkib haqidagi ma'lumot, reja va joriy faoliyati haqidagi harqanday ma'lumot yashirin (konfidensiya) ma'lumotlar hisoblanadi va ular bilan tanishishi mudofaa vazirligiga tegishli idora va tashkilotlar tomonidan qat'iy qo'riqlanadi.

Kommunikativ strategiyalar va ritorika. Ulanov A.V. o'zining harbiy diskurs bo'yicha tadqiqotida, harbiy nutq va matnlarning kommunikativ strategiyalarini o'rganib, ularning qanday maqsadga erishish uchun ishlatilishini yoritadi. Ulanov harbiy diskursda muloqotning asosiy strategiyalari sifatida ishonitirish, tahdid qilish va axborotni yetkazish vositalarini keltiradi. Harbiy diskursda qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalar tilning kuchini namoyish etadi. Nutqda qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalar va taktikalar orqali buyruq berish, ishonitirish, muomala qilish kabi strategiyalarni qanday amalga oshirish haqida ko'rsatmalar beradi [12]. Harbiy nutqlarda bu strategiyalar nafaqat ma'lumot yetkazish, balki auditoriyaga ta'sir o'tkazish, ularni birlashtirish va maqsad sari yo'naltirish uchun ishlatiladi. Shuningdek, harbiy nutqlarda patriotizm, birlik va fidoyilik kabi mavzular doimo ko'tariladi va bunday nutqlar askarlarning ruhiyatini ko'tarish uchun ishlatiladi. Ritorik strategiyalar harbiy diskursning ajralmas qismi bo'lib, u orqali askarlar va jamiyat harbiy missiyalarning qanchalik muhimligini tushunadi[8].

Shkuratova E. A. esa harbiy nizolar haqida ma'lumot uzatishda kommunikativ strategiyalarni qanday qo'llash haqida tadqiqot olib borgan. U harbiy diskursda xavfsizlik masalalari va operational maxfiylikni saqlashni hisobga olgan holda axborotni yetkazishning qanday muhim ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bunday strategiyalar harbiy mavzularni ommaviy axborot vositalari orqali qanday yoritilishi kerakligi borasida ham muhim rol o'ynaydi[14; c. 204-209].

Harbiy diskursning jamoatchilik bilan aloqalar va ommaviy axborot vositalaridagi roli. Harbiy diskurs nafaqat harbiylar o'rtasida, balki jamoatchilik bilan aloqalarda ham muhim rol o'ynaydi. Jamoatchilik bilan aloqalar va ommaviy axborot vositalari orqali harbiy diskursning qanday amalga oshirish, saylov kampaniyalari davomida harbiy mavzularning qanday taqdim etilishini "The National Military Strategy of the United States of America" hujjatlari harbiy operatsiyalar va siyosat haqida axborot yetkazishda nutq strategiyalarining o'rni va rolini tushintirib boradi. Zamonaviy harbiy strategiya hujjatlari, harbiy kommunikatsiyaning jamoatchilik bilan aloqalar doirasida qanday amalga oshirilishi kerakligini belgilab beradi. Ushbu hujjatlar harbiylarning ichki va tashqi auditoriyalar uchun maxsus nutq va xabarlarini qanday yetkazishini ko'rsatadi. Shuningdek, Ash Carter's Armed Forces Day Message (2016) kabi rasmiy bayonotlar ham harbiylar o'rtasidagi birlikni ta'minlash, jamiyatda harbiy xizmatga bo'lgan hurmatni oshirish va ittifoqchi davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi[6].

Xulosa. Harbiy nutqning yuqorida keltirilgan tahlillari natijasida quyidagi xulosalarni ta'kidlab o'tish lozim. Harbiy diskurs — bu o'ziga xos terminologiya va kommunikativ strategiyalarni o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. U nafaqat harbiy buyruqlarni yetkazish uchun xizmat qiladi, balki ijtimoiy va siyosiy

jihatlardan ta'sirchan vosita sifatida ham ishlatiladi. Harbiy diskursning tuzilishi va mazmuni uni boshqa institutsional diskurslardan ajratib turadi. Harbiy diskurs turli kommunikativ strategiyalardan iborat bo'lib, ularning asosiy vazifasi xabarlarini to'g'ri va aniq yetkazish, auditoriyaga ta'sir o'tkazishdir. Natijalar shuni ko'rsatadiki, harbiy diskursning tuzilishi va undan foydalanish mexanizmlari ijtimoiy va siyosiy ta'sirni oshiradi. Shuningdek, murakkab harbiy atamalarning aniq qo'llanilishi harbiy operatsiyalar va strategik rejalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Zero, harbiy diskurs – bu o'ziga xos kommunikativ makon bo'lib, uning muhim jihatlari hokimiyat, buyruq va bo'ysunishning iyerarxik mexanizmlarida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada harbiy diskursning asosiy xususiyatlari, maxsus terminologiya va uning kommunikativ strategiyalari batafsil tahlil qilindi.

Harbiy matnlar va nutqlarning aniqlik va qisqalik talablari, ular o'rtasida kuchli muloqotni ta'minlash uchun muhimdir, chunki har qanday noaniqlik yoki xato harbiy amaliyotlar davomida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Maxsus terminlar va qisqartmalar harbiy diskursning ajralmas qismi bo'lib, ular orqali harbiy xodimlar o'rtasidagi o'zaro tushunish va tezkor muloqot ta'minlanadi. Shuningdek, harbiy hujjatlarda ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan rasmiy uslub, qat'iy tilda ifodalangan buyruqlar va axborotlarni yetkazish vositalari muhim o'rin tutadi. Ritorika va kommunikativ strategiyalar harbiy diskursning yana bir muhim jihati bo'lib, ular orqali jamoatchilik bilan aloqalar va ichki kommunikatsiyalar samarali tarzda boshqariladi. Harbiy diskursning maxfiylik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi muhim roli, uning strategik axborotlarni yetkazish va himoyalashdagi o'ziga xosligini ko'rsatadi. Maqolada keltirilgan ilmiy manbalar va tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, harbiy diskurs faqat harbiy amaliyotlar uchun emas, balki kengroq ijtimoiy va siyosiy kontekstda ham muhim ahamiyatga ega. Harbiy diskursdagi kommunikativ strategiyalar va ritorik nutqlar harbiy xodimlarning ruhiyatini ko'tarishda, jamoatchilikni birlashtirishda va harbiy missiyalarni oqlashda katta rol o'ynaydi. Harbiy mavzular ommaviy axborot vositalarida qanchalik muvaffaqiyatli yoritilsa, jamiyatning harbiy siyosat va operatsiyalarga bo'lgan munosabati shunchalik ijobiy bo'ladi. Mazkur tadqiqot natijalari harbiy diskursning murakkabligi va uning turli jihatlari haqida kengroq tasavvur hosil qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Adrey, J. *Discourse and struggle in minority language policy formation: Corsican language policy in the EU context of governance*. Palgrave Macmillan. 2009. – pp. 37-45.
2. Christopher, H. S. *Military communications: From ancient times to the 21st century*. Santa Barbara, CA: ABC-CLIO. 2008. pp. 76-85.
3. Dijk T.A. van. *Text and Context. Explorations in the semantics and pragmatics of discourse*. – London; New York: Longman, 1977. pp. 87-98.
4. Hakimov, M. *Pragmalingvistika asoslari*. Toshkent: Akademnashr. 2020. – 146 b.
5. Sultanov, B., Rashidov, A., & Kuziev, Sh. *Military Rhetoric In Uzbek And English Languages // Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt/Egyptology. Volume-17, Issue-6, 2020. pp. 3374-3375.*
6. *The National Military Strategy of the United States of America 2015*. [Electronic resource] – URL: http://www.jcs.mil/portals/36/documents/publications/2015_national_military_strategy.pdf (Accessed: 20.07.2016).
7. Uwen, G., & Mensah, E. (2022). *Tomorrow may not be yours: Military slang and jargon as linguistic performance in Nigeria*. *Language Matters: Studies in languages of Africa. Volume-53, Issue-3, 2022. pp. 91–111.*
8. Гришечко, Елизавета Георгиевна. *Средства реализации коммуникативной стратегии вежливости в современном английском языке*. дис. канд. филол. наук. / Е. Г. Гришечко. – ФГБОУ ВПО Российский университет дружбы народов. – Ростов-на-Дону, 2011. – С. 118.
9. Дуброва Ю. Ю. *Структурно-содержательная специфика многокомпонентных терминов (на материалах военных документов): дис. ... канд. филол. наук. / Ю. Ю. Дуброва. - Моск. гос. лингвист. ун-т. – М., 2015. – С. 201.*
10. Макаров М. Л. *Основы теории дискурса / М. Л. Макаров. – М.: Гнозис, 2003. – С. 277.*
11. Стрелковский Г.М. *Теория и практика военного перевода: Немецкий язык / Г. М. Стрелковский. – М.: Воениздат, 1979. – С. 272.*
12. Уланов А. В. *Коммуникативные стратегии в военном дискурсе / А. В. Уланов // Сибирский филологический журнал. № 4, 2014. – С. 247-251.*
13. Фахрутдинова Д. Р. *Структурирование жанрового пространства военного институционального дискурса / Д. Р. Фахрутдинова // Ученые записки Казанского университета. – 2008. – Серия «Гуманитарные науки». – Вып. №2. –Т. 150. – Кн. 2. – С. 259–266.*
14. Шкуратова Е. А. *Коммуникативные стратегии и тактики передачи сообщений о военном конфликте / Е. А. Шкуратова // Вестник КемГУ. – 32013. – №2(54). – Т.2. – С. 204–209.*

THE STORY OF THE FLOOD IN THE EPIC «GILGAMISH» AS A SYMBOL OF LIFE AND DEATH

Shamsiddinova Sitora Badriddinovna,

*Base doctoral student of Tashkent State University of Oriental Studies
yildizjim18@gmail.com*

Abstract. Just as the problem of life and death in philosophy is a category that is studied a lot, the question of life and death plays an important role in literary studies. Like any biological organism, a person is helpless in the face of death, and together it is different from other animals. This makes him play about the meaning of life and death. This article explores an example of ancient Mesopotamian literature as a symbol of the life and death of a water cult, the complete phenomenon of which is mentioned in Chapter 11 of the epic “Gilgamesh”. The flood event in epos has been compared with other sources.

Keywords: life, death, water, epic, flood, people, Utnapishtim, Dilmun, ship.

СЮЖЕТ ПОТОПА В ЭПОСЕ О ГИЛЬГАМЕШЕ – СИМВОЛ ЖИЗНИ И СМЕРТИ

Аннотация. Так же, как проблема жизни и смерти в философии является категорией, которая много изучается, вопрос жизни и смерти играет важную роль в литературоведении. Как любой биологический организм, человек беспомощен перед лицом смерти, и вместе с тем он отличается от других животных. Это заставляет его думать о смысле жизни и смерти. В данной статье исследуется пример древней месопотамской литературы как символ жизни и смерти культа воды, полное явление которого упоминается в главе 11 эпоса «Гильгамеш». Событие потоп в эпосе было сопоставлено с другими источниками.

Ключевые слова: жизнь, смерть, вода, эпос, потоп, люди, Утнапиштим, Дильмун, корабль.

“GILGAMISH” EPOSIDAGI TO‘FON QISSASI HAYOT VA O‘LIM RAMZI SIFATIDA

Annotatsiya. Falsafada hayot va o‘lim muammosi juda ko‘p o‘rganiladigan kategoriya bo‘lgani kabi adabiyotshunoslikda ham hayot va mamot masalasi muhim o‘rin tutadi. Har qanday biologik organizm kabi inson ham o‘lim qarshisida ojiz, ammo boshqa hayvonlardan farqli o‘laroq, u o‘limini tushunadi. Bu esa, uni hayot va o‘limning ma‘nosi haqida o‘ylashga majbur qiladi. Ushbu maqolada Qadimgi Mesopotamiya adabiyoti namunasi “Gilgamesh” eposining 11-bobida keltirilgan to‘fon hodisasi hamda suv kulti hayot va o‘lim ramzi sifatida o‘rganilgan. Eposdagi to‘fon hodisasi boshqa manbalar bilan qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: hayot, o‘lim, suv, epos, to‘fon, xalq, Utnapishtim, Dilmun, kema.

Introduction. The analysis and review of the epic, which is an integral part of folklore, is counted from the pressing problems of literary studies. The commonality of literary ties is doubted by Universal Concepts in the world, the peculiarities of the people, their values and attitude to being their significance for its present and future. Just as the problem of life and death in philosophy is a highly studied category, the question of life and death plays an important role in literary studies. Some events have not lost their relevance, even though thousands of years have passed before they reach the present day. One such event, the flood of Noah, has a special place in the mythology of many countries from Mesopotamia to the Nile River. These stories, covered in works of different genres, differ slightly depending on the region in which they occur. Each text on this topic is studied from the point of view of culture and belief. It was believed that the flood event was first cited in the Torah. However, the discovery of the Assyrian king Ashurbanipal¹ library in 1872, as a result of excavations in Nineveh, and the presence among them of a narrative indicating the flood of Noah, in which the last 11th part of the epic “Gilgamesh” is written. It was this story that was the determining factor in the value of the epic “Gilgamesh” and attracted the attention of European scientists

¹The Gilgamesh Epic is the most famous literary work which found in the Mesopotamian hills of Babylon, however, more than half of them were collected by King Ashurbanipal (668-626 BC) at his palace in Nineveh, found among the remains of a collection of cuneiform inscriptions discovered by Austin Henry Layard in 1854. Another part is Kuyunjik (opposite Mosul – a city in the northern part of Iraq. It is located on the Dajla River. The administrative center of the protection of Nineveh) was captured during excavations on the hill. Compiled by George Smith.

as a whole. Given its historical basis, a number of excavations have been carried out to study the catastrophic flood that covered the Mesopotamian plain. During the study, symptoms from severe flooding were found in the main cities in Mesopotamia, such as Ur, Uruk, Kish and Shuruppak. Archaeological excavations show that the cities in question were flooded about three hundred thousand BC. Thus, the flood mentioned in the epic “Gilgamesh” is indeed the flood of Noah, and according to tradition, the flood occurred in ancient Mesopotamia, in the Chaldean city adjacent to the borders of Kurdistan in what is now Iraq. The standard version we are researching is written in Akkadian. However, the names mentioned in it belonged to the Sumerians. Indeed, a half-broken fragment found in the Museum of the University of Philadelphia proved this. On this tablet, the story of the flood was first written in Sumerian, in a poetic style. In 1922, a prism was discovered in Iraq by British Herbert Blundell, 20 centimetres long and 9 centimetres wide, with four sides inscribed in cuneiform. The inscription dates to the 1800s BC. It contained the most comprehensive list of Sumerian kings found to date, who lived between 3200 and 1800 BC. The list lists the names of Kings who lived before the Great Flood. The prism also speaks of a flood. The inscription, unlike the epic “Gilgamesh”, is written in literary language, not in a poetic way, as a historical record. [1,65]

Materials and methods. Comparative-typological, comparative-historical, partially hermeneutic method was used. In the course of the comparative analysis, new information was obtained about the three epics to be compared. The three epics being compared gained new insights into the interplay of events. The article provides an overview of the past, present and future of epics.

Results. In ancient belief, both water and earth are sacred elements that complement each other. A symbol of power, abundance, purification, power, burial in water was considered death, and exit from water was considered a symbol of rebirth, life. This symbolism was more evident in the epic “Gilgamesh”. The flood as a symbol of death, in turn, is also a symbol of life. Humanity began a new life after it was cleared of the chaotic environment of ancient civilizations of the pre-flood period, life continued in the world with a new order. Because it was perceived by the gods as a penance given to mankind that it would not be erased from the world, giving humanity a chance again. The flood event is listed in Chapter 11 of the epic. The narrative details the flood event by Utnapishtim² (in Akkadian ut(ta)-napista/i), who has survived the flood and is ruled immortal by the gods, to Gilgamesh, who aspires to immortality. The conversation with Utnapishtim begins at the end of Chapter 10 of the epic. Intrigued and somewhat disturbed by what was the reason that started Gilgamesh towards Dilmun, Ziusudra worried about yellow and exhausted Gilgamesh. Chapter 11 in the standard version is quite different from other versions in terms of style and composition. Chapter 11 in this version is based on a series of fragmented copies with different number of lines. From cumulative texts, it is understood that the rows were continuously numbered, forming 305 lines. [2,203] The first 7 lines of Chapter 11 ask questions about the fact that Gilgamesh, who saw Utnapishtim’s bow-Bass, did not differ from an ordinary person, was not even as energetic as himself, achieved this calm for what care and why the gods chose him exactly to remain immortal. From line 11, the story of the flood is given the word. It ran until line 163. The decision to drown human beings was not given because of dhikr and disobedience, as cited in the divine books. It was written that the reason for this was that people were rioting with overpopulation and making noise, and as a result, Gods were disturbed and unable to sleep. [3,146] It is then cited that the four great Gods – Anu, Enlil, Ninurta, and Ennugi-decided to destroy humans by storm, and that the event took place in Shuruppak³, on the Euphrates. And Ea⁴, the God of bright wisdom, defied the divine community by heart and conveyed this message to Utnapishtim by means of a wall: **Original**

Transcript:

- 11 šurippak ālu ša tīdūšu atta
- 12 ā[lu ša ina kišā]d puratti saknu
- 13 [āl]u šū labirma ilāni qerbuššu
- 14 [an]a šakān abušūbi ubla libbašūti
- 15 [it]māma abušunu anum
- 16 mālikšunu qurādu enlil
- 17 [g]uzallāšunu ninurta

² Utnapishtim is an Assyrian, quoted in this way in the Akkadian version of the epic. Atrahasis is found in Babylonian texts, Ziusudra in Sumerian texts, and Xisouthros in ancient Greek. The prototype of Noah.

³ Shurippak (Shuruppak) is now a Fara settlement in Southern Mesopotamia, north of Uruk; according to legend, it was ruled by Ziusudra (“who achieved longevity or longevity”) until the flood.

⁴ Ea is the God of fresh waters and wisdom, one of the three great gods in Sumerian-Akkadian mythology, along with Anu and Enlil. God of wisdom, patron of the underworld and waters, creator of rivers, God who misses good for people.

18 gugallašunu ennugi
 19 ninšiku ea ittišunu tamīma
 20 amassunu ušannā ana kikkišu (Standard version, chapter 11, 11-20 rows) [8]

English translation:

11 "The city of Shuruppak — a city you yourself know,
 12 the [city that] is situated on the [banks] of the Euphrates —
 13 that city was old and the gods were inside it,
 14 (when) the great gods decided to cause the Deluge.
 15 "Their father Anu took the oath,
 16 (as did) their counsellor, the hero Enlil,
 17 their chamberlain, Ninurta,
 18 their inspector of waterways, Ennugi
 19 "Prince Ea was likewise under oath with them,
 20 (but) repeated their words to a reed fence.

Discussion. In lines 23-31, Utnapishtim's need to build a ship, a short explanation of how all living souls can enter it and the description of the ship of salvation - rectangular, sides, length, height equal, huge, and of course covered with a roof are given. Neither Ziusudra nor anyone else of that time had any knowledge of shipbuilding. Ea taught how it should be.

In Nasiruddin Rabguzi's "Kissasi Rabguzi" in the story about Noah, peace be upon him, it is said about the size and shape of the ship: "Kemi uch qat erdi, oldida yilqi qoralar erdi, o'rtasinda Nuh qavmi birla, ustunda qush-qurtlar erdi. Nuh o'g'li Som va Xom va Yofas va Kan'on o'g'li to'rt erdi. Kemi yo'ndilar, uzuni uch yuz qari, eni ikki yuz qari erdi. Ba'zilar aymishlar, uzuni ming ikki yuz qari, eni olti yuz qari, adizlig'i olti yuz qari erdi." [4, 41]

In response to Utnapishtim's question of how I persuade people, Ea Enlil despises him, saying that they cannot live longer in this land should head to the sea and go towards ruler Ea, a huge flood will happen on Earth. In contrast to the Biblical narrative of Noah, The Epic states that Gilgamesh was a ruler at the time, confident that the citizens would follow him, we can realize that the problem was when Enlil fell out of favor with him. Utnapishtim, who started making the ship, defines its size in lines 57-62 as follows:

Original Transcript:

57 ina hanši ūmi attadi būnāša
 58 iki kippassa ešer nindanā šaqqâ igārātūša
 59 ešer nindanā imtahir kibir muhhīša
 60 addi lān[ša] šāši ēširši
 61 urtaggib ana šeššīšu
 62 [a]ptara[ss]u ana sebīšu
 63 qerbīssu aptaras ana tišīšu

English translation:

57 "On the fifth day I set in place her (outer) surface:
 58 one "acre"⁵ was her area, ten rods each her sides stood high,
 59 at ten rods each, the edges of her top were equal
 60 "I set in place her body, I drew up her design:
 61 I gave her six decks,
 62 I divided her into seven parts,
 63 I divided her interior into nine.

During the construction of the ship, the children carry cattle and glue, resin, when the ship is lowered into the water, cracks appear in it, Utnapishtim poured resin into the cracks, and the storks were slaughtered for the helpers. Fruit juices, red wine, raisins were siped as if the people were drinking water from the river. They celebrated party as if waiting for the new year. At sunset, the ship was ready. Lines 81-86 detail who and what was increased on the ship. Utnapishtim said that the total he had included gold, silver, creatures, sheep-sheep with his lamb, loved ones and family in the ship. She told Shamash Utnapishtim about the ship's duration of swimming. In the epic, a special place is given to the image of the storm. Lines 91-131 describe to the reader when the flood began, when rain and Jala were added, and the pillars of the dams were broken from the cast, the horrors of the flood were contributed by the gods themselves, the sky was like a shrouded Cup, after the process went too far, the Gods also entered each other's pygmy as many children, on each

⁵ 1 akr – 4046,86 kvadrat metr

According to Epic, the storm lasted for six days and seven nights. The "story of the Lord" says that forty days and forty nights of rain fell and water came out of the Earth, and that the Lord Noah stayed on the ship for 6 months.[43] it lasted 7 days and 7 nights according to Sumerian mythology, and nine days and nine nights according to Greek mythology. Genesis 6-9 lists forty nights and forty days of continuous rain, 150 days later, and on the 17th day of the seventh month, the ark was reanimated to the peaks of Mount Ararat, 10 months of water dwindled, the first day of the tenth month saw the peaks, and forty days later, the ark was opened and given a crow. [5,74] Utnapishtim observed the surroundings on the seventh day by opening a hole from the ship. For another seven days, a Dove and then a Swallow were first launched from the ship, which had stopped at Mount Nimus (Ararat in the Torah, which Ibn Kassir cites as Mount Juvdi⁶ in "Al bidoya van Nihoya" [6,73]). After the result was not found, the crow flew, but did not return. As a symbol of Thanksgiving, Utnapishtim smoked incense and slaughtered offerings: **Original Transcript:**

157 ušēšīma ana erbe šārī attaqī niqā
 158 aškun šurqinnu ina muhhi ziqqurra šadī
 159 sebe u sebe adagurra uktīn
 160 ina šaplīšunu attabak qanā erēna u as[a]

161 ilū īšīnū irīša

162 ilū īšīnū irīša ṭāb[a]
 163 ilū kīma zumbē eli bēl niqī iptahrū

English translation:

157 "I brought out an offering and sacrificed to the four corners of the earth,
 158 I strewed incense on the peak of the mountain.
 159 Seven flasks and seven I set in position,
 160 below them I heaped up (sweet) reed, cedar and myrtle.
 161 "The gods smelled the savour,
 162 the gods smelled the sweet savour,
 163 the gods gathered like flies round the sacrificer".

Conclusion. As a conclusion, it should be said that the flood of Noah is a historical phenomenon that was first mentioned in the epic of Gilgamesh. The legend on the Sumerian plates attracted public attention due to its humanized elements. While their names change within the plaques, the flooding experienced by the characters is written as if it were a similar event. Analysis of written sources suggests that the flood stories were moved first to the Sumerian, then Akkadian, Assyrian, Hittite, huri-mitanian cultures. It thus moved beyond the borders of Mesopotamia. Due to its deep influence, it has been transmitted mutasyl from century to Century. The storm event is also a symbol of life in the bar of a mass death symbol. Humanity began anew after it was cleared of the chaotic environment of ancient civilizations of the pre-flood period, life continued in the world with a new order. Because it was perceived by the gods as a penance given to mankind that it would not be erased from the world, giving humanity a chance again.

REFERENCES:

1. Aksoy, Bilal. *Çağdaş Bilim Işığında Hz. Nuh. Ankara: İnsanlık Yolu, 1987.*
2. Дьяконов И. М. (перевод с аккадского). *Эпос о Гильгамеше («о все выдавшем») Издательство академии наук СССР Москва-Ленинград: 1961.*
3. Erhat, A. *Mitoloji Sözlüğü. —Remzil nashriyoti: Istanbul. 1996.*
4. Rabg`uziy, Nosiruddin Burhoniddin. *Qissasi Rabg`uziy. T.:Yozuvchi,1990.*
5. Инжил. *Юнон ва ибрий тилларидаги асл нусхадан таржима. III.: Библияни таржима қилиши институти, Стокгоlm, 1992.*
6. *Ибн Касир. Аль-бидая ва ан-нихая. М.:Издательство Бейт аль-афкар ад-довлия. 768.10125 с.*
7. Fathalizoda, Ali. "Kaynaklarda Tufan, Nuh'un Gemisi ve Dağ", II. *Uluslararası Ağrı Dağı ve Nuh'un Gemisi Sempozyumu, 2009.*
8. <https://www.soas.ac.uk/baplar/recordings/epic-gilgames-standard-version-tablet-xi-lines-1-163-read-karl-hecker>.

⁶ Mount Juvdiy, on which Noah's Ark rests, is in Kurdistan in Diyarbakır, one of the Jazira cities. The Judi mountain range extends into the Armenian mountains.

NUTQIY MULOQOTDA XUSHMUOMALALIK, EVFEMIZM VA FEYSNING O'RNI

Ruziyeva Nilufar Xafizovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

n.x.ruziyeva@buxdpi.uz

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikdagi dolzarb masalardan xushmuomalalik, evfemizm va feys refleksiya va ularni voqelantirish mexanizmi haqidagi ilmiy qarashlar tahlili, lingvistik va ijtimoiy darajalar o'rtasidagi shaxslararo muloqotda kuzatiladigan lingvistik xushmuomalalik va ijtimoiy xushmuomalalik qoidalari evfemizm bilan uzviy bog'liqligi tavsif etilgan. Shuningdek, leksik evfemizmlar va verbal yumshatishning diskursiv strategiyalari ma'lum nutq aktlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan potensial ziddiyatni kamaytirish yoki umuman yo'l qo'ymaslik uchun xizmat qilishi haqidagi mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: evfemizm, feys refleksiya, diskurs, nutqiy muloqot, kinoya, lisoniy omillar, informativlik, imperativlik, etiketlik, ijtimoiy tabu.

РОЛЬ ВЕЖЛИВОСТИ, ЭВФЕМИЗМА И ФЕЙСА В РЕЧЕВОМ ОБЩЕНИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные вопросы современной лингвистики, анализ научных взглядов на вежливость, эвфемизм и фейсовую рефлексию и механизм их реализации, описывается, как правила лингвистической вежливости и социальной вежливости, ожидаемые в межличностном общении между лингвистическим и социальным уровнями, неразрывно связаны с эвфемизмом. Также освещаются рассуждения о том, что дискурсивные стратегии лексических эвфемизмов и смягчения вербального языка служат для уменьшения или полного предотвращения потенциального конфликта, который может быть связан с конкретными речевыми актами.

Ключевые слова: эвфемизм, рефлексия фейса, дискурс, речевое общение, ирония, языковые факторы, информативность, императивность, этикет, социальное табу.

ROLE OF POLITENESS, EUPHEMISM AND FACES IN SPEAKING COMMUNICATION

Abstract. This article examines topical issues of modern linguistics, analyzes scientific views on politeness, euphemism and face reflection and the mechanism of their implementation, describes how the rules of linguistic politeness and social politeness expected in interpersonal communication between linguistic and social levels are inextricably linked with euphemism. It also highlights the reasoning that discursive strategies of lexical euphemisms and mitigation of verbal language serve to reduce or completely prevent potential conflict that may be associated with specific speech acts.

Keywords: discourse, speech, text, linguistic factors, non-linguistic factors, complex communicative speech, speaker's position, informativeness, imperativeness, etiquette.


Kirish. Lisoniy faoliyat jarayonida muloqot shakli va til birliklarining tanlovida suhbatdoshning ijtimoiy tabaqasi inobatga olinadi. Ammo bunday tabaqalashtirish ko'p hollarda nutq vaziyati bilan bog'liqdir. Ishtirokchilarning ijtimoiy tabaqalanishiga nisbatan simmetrik va asimmetrik vaziyatlar farqlanadi. Ayrim olimlar bu hollarda "gorizontal va vertikal vaziyatlar" tushunchalarini qo'llashni ma'qul ko'rishadi va bunda hukmdorlik, nufuz inobatga olinsa, tabaqalashtirish vertikal tus oladi, ijtimoiy mavqe masofasi nazarga tutilganda, gorizontal tabaqalashtirish yuzaga keladi. Ushbu vaziyatlarning bu turdagi farqlanishi ularning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari bilan bog'liq. Zero, muloqot muhiti o'z-o'zidan, mavhum holda simmetrik yoki asimmetrik ko'rinish ololmaydi.

Nutqiy muloqotning yuqorida eslatilgan hamkorlik va xushmuomalalik tamoyillari asosan tinglovchi - adresantning "foydasi"ni ko'zlovchi tamoyillardir. Shaxslararo muloqot jarayonida so'zlovchi o'z foydasini ham unutmaydi, u o'z shaxsiyatining qimmatini ko'rsatishga, o'z hurmatini saqlashga urinadi. Shaxsiy qadri saqlashga yo'naltirilgan tamoyil ko'pincha asimmetrik munosabatlar vaziyatida namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyil, masalan, kinoya mazmunidagi nutqiy harakatlar ijrosida faollashadi, chunki tabaqa

pillapoyasida yuqoriroq o‘rin egallagan shaxs – so‘zlovchi pastki pog‘onada turgan tinglovchiga kinoya vositasida ta‘sir o‘tkazishga harakat qiladi. Kinoya qo‘pollik va qat‘iyatni bir oz bo‘lsa-da, yumshatish imkonini beradi [1;34].

Haqiqatan ham, nutq vaziyati, suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqei, ular bajaradigan nutqiy harakatlarning axloqiy-ma‘naviy normalarga oid xususiyatlari kabilar muloqot tizimining muhim belgilaridir. Ularni to‘liq bir majmua sifatida tadqiq qilish pragmalingvistika va sotsiolingvistikaning dolzarb vazifalaridandir.

Tahlil va natijalar. Xushmuomalalik, evfemizm va feys refleksiyasi va ularni voqelantirish mexanizmi haqidagi ilmiy qarashlar tahlili zamonaviy tilshunoslikning asosiy diqqat markazidagi masalalardandir. Lisoniy xushmuomalalikka kommunikativ almashinuvdagi til birliklari va ijtimoiy xulq-atvor normalarining qo‘llanilishi o‘rtasidagi munosabat sifatida qarash kerakligi ko‘pgina olimlar tomonidan ilgari surilgan. Bu taqqoslashda lingvistik va ijtimoiy darajalar o‘rtasidagi shaxslararo muloqotda kuzatiladigan lingvistik xushmuomalalik va ijtimoiy xushmuomalalik qoidalari evfemizm bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan hodisadir. Shu ma‘noda leksik evfemizmlar va verbal yumshatishning diskursiv strategiyalari ma‘lum nutq aktlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan potentsial ziddiyatni kamaytirish yoki umuman yo‘l qo‘ymaslik uchun xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, evfemizm silliqlash uchun kuchli lingvistik vosita vazifasini bajaradi. Shunday qilib, evfemizm, shubhasiz, bilvositalik tarafdorlari Lakoff, Lich, Braun va Levinsonlarning nazariyalarida o‘z ifodasini topgan lingvistik xushmuomalalikning haqiqiy belgisi sifatida tan olinadi [10; 78].



1-rasm. Xushmuomalalik bilan ifodalangan evfemistik mexanizmlar

Evfemizmni verbal strategiya sifatida o‘rnatish va uning xushmuomalalik va feys – obro‘ni saqlash muammolariga nisbatan ta‘sirini tahlil qilish uchun lingvistik ta‘qiqni o‘rganishda odatda kuzatilganidan ko‘ra kengroq nuqtai nazarni qabul qilish kerak. Aslida, evfemizm muloyim lingvistik foydalanish uchun yaroqsiz deb topilgan so‘zlar va iboralarni almashtirish uchun ishlatiladigan sof leksik hodisa sifatida qaraladi. Biroq, Krespo Fernandez o‘zining “Euphemistic strategies in politeness and face concerns” nomli maqolasida evfemizmni qat‘iy leksik yondashuv bilangina chegaralanmasligiga ishonishini aytib o‘tgan. U evfemizmni nafaqat leksik jarayon sifatida, balki ijtimoiy diskursda o‘z aksini topgan lisoniy xatti-harakatlar sifatida ham sodir bo‘lishini aytib o‘tadi.


Shu nuqtai nazardan, evfemizm va xushmuomalalik o‘zaro bir biriga bog‘liq hodisa bo‘lib, hurmat bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji evfemizmlardan keng ko‘lamda foydalanishni taqozo etadi. Evfemizmlardagi bilvositalik xususiyati, o‘z navbatida, xushmuomalalik kategoriyasiga xos bo‘lgan pozitiv (muloqot ishtirokchilarining omma oldidagi obro‘sini saqlash) va negativ (ma‘qullanishga bo‘lgan ehtiyoj) strategiyalar muloqotda ishtirok etayotganlarni xafa qilishni oldini olishni ta‘minlaydi va kafolatlaydi.

Shu nuqtayi nazaridan, evfemizm ijtimoiy qarama-qarshilik, ya‘ni shaxslararo muloqotda so‘zlovchi va adresantning obro‘sini saqlagan holda suhbatni ravon davom ettirish va ishtirokchilarni qoniqtiradigan usullardan foydalanishni taqozo etadi. Shu maqsadda, suhbatda qo‘pol va hurmatsizlikni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan Face-threatening-act – obro‘ (feys)ga tahdid soluvchi aktlarga misol bo‘luvchi direktiv nutqiy aktlardan, ayniqsa buyruq va bevosita so‘roq gaplardan foydalanishdan o‘zini saqlash muhimdir.

Xushmuomalalik va evfemizm. Verbal xushmuomalalik kooperativ muloqot jarayonida umumiy suhbat strategiyasi sifatida o‘zaro almashish, tilni ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilishning asosiy tamoyilini tashkil etadi va turli pragmatik nazariyalarning muhim qismi sifatida ajralib turadi.

Aytish joizki, xushmuomalalik lingvistik xatti-harakatni shakllantiradi. Chunki muloqotda ifodalangan maqsadni xushmuomalalik tamoyiliga (Tact, Generosity, Approbation, Modesty, Agreement and Sympathy) nisbatan, uni hurmat qilish yoki aksincha, undan uzoqlashish orqali namoyon bo‘ladi. Demak, xushmuomalalik kommunikativ almashinuvlarda shunday hal qiluvchi o‘rin egallaydiki, xushmuomala

bo‘lish suhbat jarayonida ma’lumot uzatish uchun zarur bo‘lgan aniqlikdan ham muhimroq ekanligini ta’kidlash mumkin [6;23]. Aytib o‘tilgan bu fikr izohi sifatida Freyzer o‘zining ishida Lakoffning quyidagi xulosasini keltirib o‘tgan: “Xushmuomalalik odatda ustun turadi, ya’ni suhbatda aniqlikka erishishdan ko‘ra suhbat jarayonida muloqot ishtirokchilarining ko‘ngliga tegmaslik yoki xafa qilmaslik muhimroq deb hisoblanadi” [10;87].



Rasm 2. Xushmuomalalik, feys va evfemizm refleksiyesi

Tilda aks etgan xushmuomalalik kategoriyasining global xususiyatlarida berilganidek, bu konsept har bir olim tomonidan qabul qilingan qarashlar asosida turli nuqtai nazardan tahlil qilingan. Verbal xushmuomalalikka nisbatan eng keng tarqalgan yondashuv, lingvistik bilvositalik ijtimoiy xushmuomalalik va hurmat qoidalarini saqlashga yordam beradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, mazkur yondashuv Braun va Levinson tomonidan zamonaviy tilshunoslikga kiritilgan. Ular ham o‘z navbatida Goffmann tomonidan taklif qilingan muloqotda so‘zlovchining o‘z ijtimoiy imidjiga tahdidni minimallashtirishga katta yordam beruvchi feys tushunchasini muloqotdagi xushmuomalalik aktlari sifatida qabul qilishadi. Shu bois evfemizm bilvosita verbal strategiyada foydali lingvistik vosita sifatida ajralib turadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, evfemizm va xushmuomalalik bir-biriga bog‘liq hodisalar bo‘lib, xushmuomala bo‘lish zarurati evfemizmlarni sezilarli darajada keng qo‘llashni belgilab beradi. Evfemizm orqali ifodalangan bilvositalik, o‘z navbatida, muloqot ishtirokchilarining ko‘ngliga tegmaslik yoki xafa qilmaslikni amalga oshishi uchun sharoit yaratib beradi va xushmuomalalikni ikki tomonlama- ijobiy va negatv jihatdan ta’minlaydi.

Shuni hisobga olgan holda, evfemizmlarning bosh maqsadi Malinovskiy fatik muloqot deb atagan shaxslararo muloqotda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi asosiy diskursiv vazifa bilan mos keladi. Shu maqsadda, so‘zlovchi kommunikativ muhitda ijtimoiy hamohanglikni kuchaytirish hamda ishtirokchilar obro‘yini saqlashda evfemistik vositalarga keng ko‘lamda tayanadi. Bu evfemistik vazifa leksik almashtirish (sabstitutsiya), ayniqsa, diskursiv evfemistik strategiya orqali amalga oshiriladi.

Diskursiv strategiyalar. Ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida xushmuomalalik tamoyillari to‘g‘ridan to‘g‘ri asos bo‘luvchi bilvosita diskursiv strategiyalarning xilma xil turlari so‘zlovchining ijtimoiy munosabatlarga erishish xohishiga ko‘proq bog‘liq. Shuni ta’kidlash joizki, bu bilvosita verbal usullar ma’no tarkibiga biror o‘zgartirishsiz nutqiy aktlarning illokutiv ta’sirini kamaytirish, minimallashtirishga moyildir. Bunga sabab bilvosita nutqiy aktlar tinglovchiga ko‘proq tanlov imkoniyatini beradi hamda negatv va noxush ta’sirni kamaytirishga sharoit yaratib beradi.

Shaxslararo muloqotda tushunmovchiliklardan qochish maqsadida tildan foydalanuvchilar quyidagi yumshatuvchi (palliativ) strategiyalarga tayanishadi:

-yumshatuvchi uzr so‘rash iboralarni (“*I’m sorry to say*”, “*I’m afraid*”, “*If you forgive my asking*” or *the more elaborate “I wouldn’t like to appear too inquisitive, but ...”*);

-Soxta-imperativ gaplar:

a) ajratuvchi so‘roq gaplar

-*Fill the form, will you?*

-*Don’t be so impatient, will you?*

b) modal fe’llar (*may, could, would, should, ...*) bilan ifodalangan gaplar

May I ask you to push the button?

Push the button.

I would do it again. ←→ *Do it again.*

c) modallik markerlari (*possibly, perhaps, etc.*)

“Could you *possibly* help me?”.

d) miqdor ko‘lam markerlari (*in a way, to some extent, by chance, etc.*)

e) shart ergash gapli qo‘shma gaplar – ergash gapda ifodalanadigan ko‘p variantlilik tufayli direktiv nutqiy akt yuzaga keltiradigan dag‘allikni yumshatishda evfemistik maqsad bilan qo‘llaniladi. Buni quyidagi holatda ko‘rish mumkin:

“*If I were you, I would take it to the deanary*”.

Pirpovardida, yuqorida aytib o‘tilgan misollardagi har qanday bilvosita strategiyalar xushmuomalalik orqali ifodalangan evfemik nutq aktlarini yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Shu ma‘noda, bu yumshatish uchun qo‘llaniladigan usullar bilvosita muloqot strategiyalarida o‘zi xos manba sifatida ajralib turadi va ham ijobiy ham negativ o‘lchovlarda lingvistik xushmuomalalikning bosh ko‘rsatkichlarini hosil qiladi.

Diskursiv xatti-harakatni yumshatish va soxtaimperativ strategiyalar bizga muloqotda evfemistik vositalardan foydalanish haqida muhim ma‘lumotlar bilan ta‘minlaydi. Ushbu og‘zaki manbalar ishlaydi ma‘lum bir kontekstda kutilgan rasmiyatchilik darajasiga qarab nutqda turlicha. Shunday qilib, muloqotda takt va hurmatning ijtimoiy me‘yorilarini saqlash zarurati qanchalik ko‘p bo‘lsa, yumshatish va bilvosita strategiyalarning soni shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu sababli, bu lingvistik mexanizmlarning mavjudligi Vigner ta‘kidlaganidek, xushmuomalalik darajasini belgilaydi.

Aslida, ikkita soxtaimperativga ega bo‘lgan direktiv nutq akti orqali ifodalangan strategiyalar yanada xushmuomala ko‘rinishda bo‘ladi va ulardan faqat bittasi mavjud bo‘lsa, bu ijtimoiy jihatdan mos keladi.

“*With all due respect, close the window, if you don’t mind*”

Vigner yumshatuvchi komponentlar deb atovchi vositalar ham xushmuomalalik darajasiga sezilarli darajada ta‘sir qilishini ta‘kidlagan. Shunga qaramay, ushbu olimning ta‘kidlashicha, juda uzun evfemistik komponentlar bilan tuzilgan so‘roq gaplar istehzo sifatida talqin qilinishi mumkin va shuning uchun adresant dastlab nazarda tutilgan ma‘no teskari ta‘sir ko‘rsatadi.

Evfemizm va feys. Yoqimsiz iboralar va jumalarni hisobga olmaganda holda, shu narsa ayonki, bevosita nutqiy aktlar va eksplisit yoqimsiz ta‘sir etuvchi jumalar bilan ifodalangan assertivlar ham verbal muloqotga kirishgan ikki tomonning ijtimoiy obro‘yiga to‘g‘ridan to‘g‘ri tahdid sifatida ta‘sir etishi aks etadi.

Goffman tomonidan taklif etilgan feys (ijtimoiy obro‘) nazariyasi muloqot jarayonini tahlilining bosh unsuri deb ko‘rsatgan. Feys (Face) tushunchasini ishimizda xushmuomalalik strategiyalarining ifodalanishi sifatida qo‘llaganmiz. Bu ibora xorij tilshunoslari tomonidan zamonaviy tilshunoslikka kiritilgan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida shu olimlarning ishlari orqali kirib kelgan. Braun va Levinsonlar feys tushunchasi xushmuomalalik strategiyalari sifatida Goffmanning “feys” tushunchalariga tayanganlar.

O‘z o‘rnida Goffman ham xitoy konsepsiyasida mavjud bo‘lgan mianzi va lian tushunchalariga asoslanganalar. Mianzi (“mee-yan-zer”)-(respect) yoki feys sotsiologik konsepsiyaga ishora qiladi. Biz ko‘plab madaniyatlarda inson ijtimoiy vaziyatlarda his qiladigan sharaf, qadr-qimmat, o‘z qadr-qimmat va obro‘si g‘oyalarni bog‘laymiz. Xitoy konsepsiyasiga ko‘ra, mian “hurmat” ga teng. Mian feysning 3 ta turi bor (losing face, giving face, fighting for face). Xitoy madaniyatiga ko‘ra, mianzi/mian ishoch va hurmat uyg‘otadi, lian esa feysning tavsifidir.

Evfemizm feysning ikki o‘lchovi - ijobiylik va negativlikning har biriga tayangan holda harakatlanadi. Agar muloqotda ishtirokchilar ijtimoiy obroyiga negativ ta‘sir sezilsa, ishtirokchilar bevosita ta‘sirdan qochishga harakat qiladilar yoki ziddiyatli taassurotlarni minimallashtirish uchun evfemistik strategiyalar qo‘llanilishi orqali hech qanday tahdid ko‘zda tutilmaganligini ko‘rsatadi.

Natijada, “*Close the window*” direktiv nutqiy akti o‘zidan oldinda joylashgan “*With all due respect...*” yoki o‘zidan keyingi “*... If you don’t mind*” soxtaimperativ gapining qo‘llanilishi ehtimoliy ziddiyatli vaziyatni kamaytirish va yumshatishni ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, evfemizm, xushmuomalalik va feys, shubhasiz, diskursiv hodisalar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Allan va Burridj bu haqda quyidagicha izoh berib o‘tgan; “Umuman olganda, muloqot ishtirokchilarining nutqida qanchalik feys obro‘yiga va hurmatiga tahdid ehtimoli yuqori bo‘lsa, shunchalik katta ehtimol bilan xushmuomalalik ifodalanadi va o‘z navbatida, evfemizmlar darajasi ham oshib boraveradi”[11;88]. Shu asnoda, ijtimoiy diskursga mos ravishda evfemizmlar xushmuomalalik va feys obro‘yini saqlash strategiyalarida asosiy lingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика.-Тошкент,2008.-Б.
2. Xafizovna, R. N. (2022). *On Linguistic Politeness Theory: Robin Lakoff's Theory of Politeness, Brown and Levinson's Theory of Politeness, Geoffrey Leech's Theory of Politeness.* // *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(6), 66-74.
3. Nafisa K. *Cognition and Communication in the Light of the New Paradigm* // *European journal of innovation in nonformal education.* – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 214-217.
4. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). *Politeness In Literary Works: An Overview.* // *Eurasian Research Bulletin*, 7, 200–206.
5. Xafizovna, R. N. (2022). *Discourse Analysis of Politeness Strategies in Literary Work: Speech Acts and Politeness Strategies.* // *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 123-133.
6. Ruziyeva Nilufar Xafizovna (2021). *The category of politeness in different linguocultural traditions. Academicia: // An international multidisciplinary research journal* 11 (2), 1667-1675.
7. Xafizovna, R. N. (2022). *Linguistic Politeness Theory Review: Yueguo Gu, Sachiko Ide, Shoshena Blum Kulka, Bruce Frasher and William Nolen, Hornst Arndt and Richard Janney.* // *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 145–152.
8. Ruziyeva N. (2020). *Face concept in the category of politeness.* // *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 1(4), 15-20.
9. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Akhmedova Shahnoza Murodilloyevna. (2022). // *The study of culture in cultural studies. Conferencea*, 276–278.
10. Crespo Fernández, Eliecer. *Euphemistic strategies in politeness and face concerns.* // *Pragmalingüística*, 13, 2005, – P. 77-86.
11. Allan Keith, Burridge Kate. *Forbidden Words.* Cambridge University Press, 2006. – P. 88-102.

EVFEMIZMLAR O‘ZBEK AYOLLARI NUTQI MISOLIDA

*Jo‘rayeva Nilufar Shuxrat qizi,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
n.sh.jo‘rayeva@buxdu.uz*

Annotatsiya. Evfemizm yoqimsiz hodisani nomlashdan qochish, shunday hodisaning yomon ta‘sirini yumshatishga, insonga ma‘qul kelmaydigan, etik va estetik normalarga nomuvofiq holatlar, ochiq gapirish taqiqlangan yashirin hodisaning noxush ta‘sirini kamaytirish uchun ishlatiladi. Ushbu maqolada evfemizm tushunchasi, mazkur tushunchaning tilshunoslikdagi o‘rni, gender lingvistikasi, shuningdek o‘zbek ayollari nutqida evfemik birliklardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, tabu, evfema, evfemizatsiya, lingvokulturologiya, gender lingvistikasi, evfemik guruh.

ЭВФЕМИЗМЫ В РЕЧИ УЗБЕКСКИХ ЖЕНЩИН

Аннотация. Эвфемизмы используются для избегания наименования неприятных явлений, смягчения их отрицательного влияния, а также для уменьшения негативного воздействия скрытых явлений, которые не принято обсуждать открыто и которые противоречат этическим и эстетическим нормам. В данной статье рассматриваются понятие эвфемизма, его место в лингвистике, гендерная лингвистика, а также особенности использования эвфемистических единиц в речи узбекских женщин.

Ключевые слова: эвфемизм, табу, лингвокультурология, гендерная лингвистика, эвфемистическая группа.

EUPHEMISMS IN THE SPEECH OF UZBEK WOMEN

Abstract. Euphemisms are used to avoid naming unpleasant phenomena, to mitigate their negative impact, and to reduce the adverse effects of hidden phenomena that are not openly discussed and that contradict ethical and aesthetic norms. This article examines the concept of euphemism, its place in linguistics, gender linguistics, and the peculiarities of using euphemistic units in the speech of Uzbek women.

Keywords: euphemism, taboo, linguistic cultural studies, gender linguistics, euphemistic group.

Kirish. Til – murakkab va ko‘p aspektli hodisa. Lingvistika tildagi evrilishlarni muntazam tadqiq etib boradi. Mazkur fan, boshqa fanlardan farqli o‘laroq, tilni sof lingvistik nuqtai nazardan o‘rganib, inson tilining tuzilishiga, tarixiy taraqqiyotiga, uning funksional qonuniyatlariga xos bo‘lgan masalalarni o‘zida mujassam etadi. Til tafakkurni aks ettirgani bois u falsafa, mantiq, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarning o‘rganish sohasiga ham daxldor. Tilda evfemizmning qo‘llanishi tabu hodisasi bilan bog‘liq holda tarixiy etnografik hodisa sifatida shakllangan. Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me‘yorlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha axloq-odob, yangicha dunyoqarash me‘yorlari asosida evfemizmning yangi yangi shakllari yuzaga keladi.

“Evfemizm” yunoncha “yumshoq ifodalash” so‘zlovchiga aytilishi o‘rinsiz, xunuk, qo‘pol birliklarning ma‘nodoshi o‘laroq hosil bo‘ladigan so‘zlardir. Tilda evfemizmning qo‘llanishi tabu hodisasi bilan bog‘liq holda tarixiy etnografik hodisa sifatida shakllangan [1].

Ma‘lumotlarga ko‘ra, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida, ayniqsa, ibtidoiy bosqichlarda ba‘zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Ana shunday man qilish hodisasi “tabu” deb ataladi. Bu hodisa tilda ham uchraydi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, ana shunday man etilgan so‘zlar o‘rniga boshqa so‘zlarning ishlatilishi evfemizm deb ataladi. Biror sababga ko‘ra qo‘llanishi ta‘qiqlangan yoki qo‘llanishi noqulay bo‘lgan qo‘pol, dag‘al so‘z, ibora o‘rniga boshqa yumshoqroq so‘z yoki ibora qo‘llash evfemizatsiya sanaladi [2].

Tilshunoslik adabiyotlarida evfemizm tushunchasiga oid ko‘plab fikrlar mavjud. E.Tyurina evfemizmga quyidagicha ta‘rif beradi: “Evfemizm bu - aytilishi noqulay bo‘lgan til birliklarining, ba‘zi hollarda esa qaysidir jihatdan ta‘qiqlangan, odobsiz deb topilgan qo‘pol, dag‘al, yoqimsiz so‘z va

iboralarning boshqa soʻz va ifodalar bilan pardali, yumshoq aks ettirilishidir ” [3]. Olima I.Zabodkina shunday yozadi: “Evfemizm oʻzida koʻplab ijobiy xislatlarni jamlaydi bular: xushmuomalalik, nazokat, muloyimlik, odob va h.k.” [4].

Asosiy qism. Mazkur ishda evfemizmlarning qoʻllanilishini oʻzbek ayollari nutqi misolida kuzatamiz. Shu bilan birga evfemik birliklarning gender xususiyatlariga ham eʼtibor qaratamiz.

Bilamizki, ayollar nutqida muloyimlik, mulohazakorlik kabi sifatlar ustovor boʻlib, aynan mazkur jins vakillari suhbatdoshining fikriga qoʻshilish yoki qoʻshilmaslik hamda shaxsiy munosabatlarini ifodalar ekan, suhbatdoshini xafa qilib qoʻymaslik uchun ehtiyot boʻlib jumla quradi, yaʼni oʻz eʼtirozlarini, noroziliklarini ifodalash uchun tilning sintaktik qurilishida mavjud boʻlgan neytralroq konstruksiyalardan, qoliplardan foydalanadi. Oʻzbek tili va madaniyatida ayol konsepti zamirida or-nomus, iffat, hurmat, hayo, farzandga, elga fidoyilik, iroda, mehnatsevarlik, uyatchanlik, tashqi va ichki goʻzallik kabi kognitiv belgilarning fikran yonma-yon kelishini koʻrish mumkin.

Oʻzbek ayollaridagi eng buyuk fazilatlar boʻlmish uyat, hayo, ibo, or-nomus birinchi oʻrinda turib, yuksak qadrlanadi. Oʻzbek ayollari nutqini tahlil qilish jarayonida shu narsa aniq boʻldiki, yuqorida sanab oʻtilgan, aynan oʻzbek ayollariga xos qadriyatlar nutq jarayonida ham oʻzining goʻzal namunasini topgan. Sharqda oila va farzand koʻrish, bola tarbiyasi, eng avvalo, ayol bilan bogʻliq deb tushuniladi. Mazkur jarayon, yaʼni bola koʻrish yoki ayollardagi Yaratganning tuhfasini boʻlmish “*homiladorlik*” jarayoni uyatchanlik libosi bilan oʻralib, evfemik iboralar bilan goʻzal ifodalanishini quyidagi misollarda koʻrish mumkin:

Bosh qorongʻu boʻlmoq. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorongʻi boʻlsamchi! (A.Qahhor., 1-t., 285-b.) [5].

Boʻyida boʻlmoq. Hozir yana uning boʻyida boʻlgan, uch oydan keyin farzand tugʻilishi kerak (P. Qodirov., “Avlodlar dovoni”, 177-b.) [6].

Yuzida dogʻi bor. Yuzingda dogʻ koʻrdim... muborak boʻlsin (“Oila va jamiyat”, 1989, 6-yanvar.)

Yoki mazkur jarayonning uzviy davomi sifatida *tugʻmoq* soʻzi ham bir qancha evfemik birliklar orqali ifodalanadi:

Bola koʻrmoq. Niso buvi toʻrt bola koʻrdi (A.Qahhor, 1-t., 208-b.) [5].

Bolali boʻlmoq. Qizim olti yil deganda bolali boʻldi (“Saodat”, 1992, № 3, 21-b.).

Yengil boʻlmoq. Agar kelingiz eson-omon yengil boʻlsa bor-ku... Keling, yaxshisi, aytib oʻtirmang (Neʼmat Aminov, “Yelvizak”, 33-b.).

Koʻzi yorimoq. Oʻsha yerda aytdim-ku, yo bugun, yo ertaga kennyoyimning koʻzlari yoriydi deb (Neʼmat Aminov, “Yelvizak”, 33-b.).

Koʻpaymoq. Qutlugʻ boʻlsin kelin, eson-omon koʻpayib oldingizmi? (“Saodat”, 1992 №3, 10-b.).

Oʻzbekona milliy tarbiyada er-xotin munosabati oʻz oʻrni bilan qadrlanadi. Ayniqsa, oʻzbek ayolining oʻz turmush oʻrtogʻiga murojaatida uning ismini aytmaligi, oʻzbekona milliy tarbiyaning yaqqol namunasidir. Bu jarayonda ham ayollar evfemik birliklardan mohirona foydalanishi koʻzga tashlanadi:

Adasi. – UZR, uyda adasi yoʻq edilar, – deb trubkani qoʻydi (Neʼmat Aminov, “Yelvizak”, 216-b.).

Bagʻrim. Qancha sevar eding, bagʻrim, bu bahorni,

Oʻrik gullarining eding maftuni (Zulfiya “Bahor keldi, seni soʻroqlab”, 204-b.) [7]

Begim. UZR begim, – Rayhon uyalib, qizarib erining koʻksiga yuzini bekitdi (E.Turon, “Bu togʻlar ulugʻ togʻlar”, 213-b.).

Boyim. Ichay desam choyim yoʻq, Haq doʻst, yo Ollo!

Oʻynay desam, boyim yoʻq, Haq doʻst, yo Ollo! (Folklor)

Bolalarimning otasi (dadasi, adasi) ...bolalarimning otasi butunlay boshqa soha kishisi (“Saodat”, 1989, №10, 20-b.).

Dadasi. – Meni tabriklang, dadasi! – dedi entikib (Saʼdulla Siyoyev., “Hurmatli oʻrtoq rafiqam”, 210-b.).

Yor. Shunda goʻzal Mumtoz Mahal,

Tinglab shohning zorini,

Oʻqib har gal bitta gʻazal,

Ovutardi yorini (E.Vohidov, “Sadoqatnoma”, 314-b.) [8].

Turmush oʻrtoq. Taqdir taqozosiga koʻra, turmush oʻrtogʻim bilan ajrashib ketgan edik... (“Oila va jamiyat”, 1992, 2-yanvar).

Umr yoʻldosh. Shunda onaxonimiz ham umr yoʻldoshlariga muloyimgina mayin tovushda soʻzladilar (“Fan va turmush” jurnali, 1997, №3, 18-b.).

Qimmatligim. Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,

Seni izlab yurdi, kezdi sarsari (Zulfiya, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, 204-b.)

Oilaviy munosabatlarni A.Fitrat, “Bani Odam madaniyatining asosi”, “manzil tadbiri (ro‘zg‘or tebratish tadbiri)” ni esa oila, ahil, tinchlikda yashash sharti deb atagan. Axloqiy-ma‘naviy tarbiya “odamning fe‘l va harakatida yaxshi fazilatlarini shakllantirmoq demakdir” [9]. O‘zbek ayollari oilasi, farzandlari uchun yashaydi. Ular jamiyatdagi islohotlarning mohiyatini oilasi va farzandlari tarbiyasi bilan o‘lchaydi. Axloq, odob ular uchun asosiy komillik, madaniyat o‘lchovidir. Anbar Otin yozadi:

*Ulg‘ayursan, senda bor bo‘lsa adab,
Ulg‘ayursan, senga yor o‘lsa adab,
Odam ersang, tashqi surata berma zeb,
Ona yurtningni hamisha ayla zeb [10].*

Demak, ayol komillikni faqat o‘z oilasi va farzandlari bilan cheklab qo‘ymaydi, u ona yurti taraqqiyotini ham o‘ylaydi. Oila mavzusi haqida so‘z yuritar ekanmiz, o‘zbek xalqi oilalarida oila qurish bilan bog‘liq go‘zal an‘analar borligini ta‘kidlashimiz darkor. Bular “*sovchilik*”, “*unashtirmoq*” kabi o‘zbek xalqiga xos an‘analar bo‘lib, bu kabi urf-odatlarini o‘z o‘rnida bajarish aynan ayollarimizning zimmasiga tushar ekan. So‘fi Oллоhyor hazratlari aytib o‘tganlaridek, qattiq so‘z bo‘lar ishni bo‘lmas qiladi. Mazkur hikmatga amal qilgan holda, o‘zbek ayollari sovchilikka borganlarida nihoyatda nozik va latif jummalarni qo‘llab, qiz tomonning ko‘ngil qulfiga kalit solib, ijobiy javob olishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham bu vazifani ado etish uchun dono, gap-so‘zi mantiqli kishi tanlanadi. Quyida ayollarimiz tomonidan sovchilikka borganda qo‘llaniladigan iboralar ketma-ketligini keltirib o‘tamiz. Avvalo, ko‘z ostilariga olib qo‘yilgan, “*balog‘atga yetgan qiz*” haqida so‘z borganda quyidagilar ishlatiladi:

Bo‘yi yetib qolmoq. Endi Zaynabning ham bo‘yi yetib qoldi (H.Olimjon., “Zaynab va Omon”, 16-b)

Balog‘atga yetmoq. Qizimiz balog‘atga yetib qolgan. Uning ertasini o‘ylayman (“Saodat”, 1990, №4, 25-b)

Ostona hatlab o‘zga xonadonga kirilganda esa salom alikdan so‘ng “*ostonangizni supurgani keldik*”, “*qulchilikka keldik*” singari evfemizmlar ishlatiladi. Sovchilik masalasida ma‘lum bir holatlarni ifodalovchi so‘z quloqqa qo‘polroq eshitilgani uchun, aksar hollarda, ramzlardan foydalanib fikr ifoda qilinadi. Masalan, sovchilar quda bo‘lmish tomonga *qizingizni so‘rab keldik* iborasi o‘rnida, aksar hollarda, *sizda bir gul bor ekan, bizda bir bulbul* deb shoirona tarzda so‘z boshlaydilar. Bordi-yu, yoshlar bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan bo‘lsalar, sovchi ayollar bu holatni yumshoqlik bilan mezbonlarga tushuntirish maqsadida *sevishmoq* fe‘lini emas, balki uning evfemik ekvivalenti bo‘lmish *ahdu paymon qilmoq, ko‘ngil bermoq* kabi evfemik so‘z-iboralar qo‘llaniladi.

Xalqimiz fitratida latif so‘zlamoqlikka intilish bor. Latif so‘zlar barcha davralarda qadrlanadi. Oila masalasi bilan bog‘liq *unashtirmoq* so‘zini ham go‘zal tarzda evfemik birliklar bilan qo‘llanishini ko‘rish mumkin:

Aytilmoq. Meni hech nimadan xabarim yo‘q, yoshligimda qo‘shnimizning Mahmud ismli o‘g‘liga aytilgan ekanman (“Saodat”, 1996, №2, 13-b).

Atalmoq. Men boshqa yigitga atalganman (“Ayol va zamon” 1998, 4-may).

Beshikkerti qilinmoq. Ular tug‘ilishlari bilanoq beshikkerti qilingan edilar (“Yosh kuch”, 1997, №5, 41-b).

Patir ushatmoq. Tunov kun kenjamizgayam patir ushatib qo‘ydik, ko‘klamda to‘yi (“Ayol va zamon”, 1999, 28-noyabr).

Bundan tashqari, o‘zbek xonadonlarida qiz farzandni *uzatmoq, erga bermoq* so‘zlarining bir qancha evfemik o‘rindoshlari bor:

Nasibasi qo‘shilmoq. Mening nasibam boshqa bir yigitning nasibasiga qo‘shildi, dedi Muattar (A.Qahhor., 3-t., 351-b.).

Oila qilmoq. Oila qilgan qizlar boshda do‘ppi, atlas ko‘ylak... bilan ajralib turadi (“Chimildiq”, 1999, 10-fevral).

Oila qurmoq. Singlim, oila qurganlaringizga qancha bo‘ldi? (“Chimildiq”, 1999, 10 fevral).

Turmush qilmoq. Muhayyoning turmush qilganini eshitib, yeru ko‘k ko‘zimga qorong‘u bo‘lib ketdi (“Saodat”, 1989, №9, 21-b.).

Turmush qurmoq. Qiz bola turmush qurgandan keyin bironing xasmi bo‘ladi (“Surxon tongi”, 2001, 3-fevral).

Turmushga bermoq. “Meni ota-onam turmushga berayotir ...” (A.Jumaqul, “Yurakka sig‘magan gaplar”, 34-b.).

Turmushga uzatmoq. Qizimizni turmushga uzatdik (“Saodat”, 1992, №3, 29-b.).

Turmushga chiqarmoq. Domla kichik qizlarini turmushga chiqarmoqchi bo'ladilar (Ne'mat Aminov, "Yelvizak", 87-b.).

To'y bo'lmoq. O'g'lim, Saida ham to'y bo'lib ketdi ("Ayol va zamon", 1990, 18-noyabr).

Xulosa. Xalqimiz fitratida latif so'zlamolikka intilish bor. Latif so'zlar barcha davralarda ham qadrlanadi. O'zbek ayollari nutqining tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek madaniyatida ayol uchun zarur hisoblangan ruhiy sifatlar, iffat, ibo, hayo, uyat kabilar nutq jarayonida ham ustuvor bo'lib, yuqoridagi misollarda o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR:

1. Шомақсудова А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х., Ўзбек тили стилистикаси. – Т., 1983.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 218.
3. Тюрина Е. Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка. Н. Новгород, 1998. 127 с.
4. Заботкина В.И. Новая лексика в современном английском языке. - М.: Высшая школа, 1999.- 137 с.
5. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар: 5 жилдлик. 1-ж. Сароб: Роман. Ҳикоялар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 336.
6. Пиримқул Қодиров. Ҳумоюн ва Акбар. (Авлодлар довони): Тарихий роман. – Т.: "Шарқ", 2018. – Б. 672.
7. Зулфия. Баҳор келди сени сўроқлаб: шеърлар/ Зулфия Исроилова. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 192.
8. Эркин Воҳидов. Садоқатнома. "Ғафур Ғулом" номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 528.
9. Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 7-8, 84.
10. Анбар Отин. Юртингни хамиша айла зеб. // Оила, 2004, 1-сон. – Б.90.
11. Жўраева Н. Evfemizm, yohud yumshoq tuomala fransuz ayollari talqinida //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – т. 6. – №. 2.
12. Jo'rayeva N. S. Evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari //экономика и социум. – 2021. – №. 1-1. – с. 107-110.
13. Жўраева Н. evfemizm lingvokulturologik fenomen sifatida //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
14. Жўраева Н. Evfemizmlarning gender xususiyatlari xususida //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
15. Жўраева Н. Француз ва ўзбек тилларида эвфемик ва дисфемик бирликларнинг лингвокультурологик хусусиятлари //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA SHAXS NOMLARI
TARKIBIDA QO‘LLANGAN QO‘SHIMCHALAR TAHLILI

Bafoyeva Nigora Azimovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

bafoyevanigora@buxdpi.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada indikatorlar ishtirokida shakllangan nomlardan Abdulla Qodiriy o‘zining «O‘tkan kunlar» romanida ham o‘rinli foydalanganligi va antroponimik indikatorlarning uslubiy-semantik xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: antroponim, antroponimik indikatorlar, nom, Abdulla Qodiriy, «O‘tkan kunlar», uslubiyat, antropoindikator turlari.

АНАЛИЗ СУФФИКСОВ ЛИЧНЫХ ИМЁН В РОМАНЕ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ
“МИНУВШИЕ ДНИ ”

Аннотация. В данной статье научно анализируются уместное употребление Абдуллой Кадыри имён, образованных при участии индикаторов, в его романе «Минувшие дни» и стилистико-семантические особенности антропонимических показателей.

Ключевые слова: антропоним, антропонимические индикаторы, имя, Абдулла Кадыри, «Минувшие дни», рост, типы антропоиндикаторов.

ANALYSIS OF SUFFIXES USED IN PERSONAL NAMES IN ABDULLA QADIRI'S NOVEL
“BYGONE DAYS”

Abstract. In this article, the appropriate use of nouns formed with the participation of indicators in Abdulla Qadiri's novel "Bygone Days" and the stylistic-semantic features of anthroponymic indicators are scientifically analyzed.

Keywords: anthroponym, anthroponymic indicators, name, Abdulla Kadiri, "Bygone Days", growth, types of anthroponymic indicators.

Kirish. O‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomining berilishidan maqsad – respublikamiz hayotida o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeyini tiklash, uning qo‘llanish doirasini yanada kengaytirish va uni o‘rganishni izchillik bilan yo‘lga qo‘yishdan iborat. Ma’lumki, dunyo tamaddunida milliy taraqqiyot, milliy ong, milliy tafakkur, milliy mentalitet, milliy nom va shaxs munosabati – har bir xalqning ona tilisi mavqeyi va nufuzi rivoj topishida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Xususan, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda”[1:1].

Zero, xalqimiz til boyligini o‘ziga mujassamlashtirgan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan yozma adabiyot tilini chuqur o‘rganish, shu asosda ma’lum bir so‘z san’atkorining so‘z qo‘llash uslubini, mahoratini izchil dadqiq qilish orqali bu maqsadga erishish mumkin bo‘ladi.

Badiiy adabiyotda til juda kata rol o‘ynaydi. Badiiy asarda tilning hal qiluvchi rol o‘ynashi hamda asar tilining go‘zal va sermazmun bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida o‘zbek yozuvchilari Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘fur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon va boshqa yirik so‘z ustalari qimmatli fikrlar bildirganlar.

Asosiy qism. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari onomastikasi salmog‘ini tahlil etar ekanmiz, asarda mavjud onomastik birliklarning o‘ziga xos semantik-uslubiy, nominativ va konnotativ xususiyatlari, shaxs nomlari tarkibidagi indikatorlarning o‘rni, mavjud toponimlar qatlami va ularning “O‘tkan kunlar” asari tarkibidagi o‘rni o‘ziga xos alohida vazifaga ega ekanligini ushbu ishimizda ma’lum ma’noda yoritishga harakat qildik.

Ismlarda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ergan bo‘ladi. Ismlar ma’lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o‘rni haqida ham xabar beradi. Insoniyat paydo bo‘libdiki, uning ismi ham mavjud. Ismsiz inson yo‘q. Ismlar jamiyatda muhim ma’noviy va siyosiy ahamiyatga ham ega. Ular qanday

shaklda bo'lmasin, kishilarni alohida shaxs, individ sifatida atashga xizmat qiladi. Har bir ism ma'lum bir sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. U ommabop yoki kam qo'llanuvchi bo'lishi mumkin. Har bir nom o'z tarixi "dunyoga kelishi" va "yashash joyi" ga ega.

Antroponimlar tizimini tilshunoslikda til doirasida ilmiy o'rganish va tahlil qilish, ularning leksikografiyada ifodalanishi, turlar bo'yicha tizimga solish, tasnif qilinish, turli tabiatli tillardagi antroponimlarni chog'ishtirish orqali o'ziga xos va o'xshash jihatlarini aniqlash zarur masalalar sirasiga kiradi. Mazkur masalalarni tadqiq etish antroponimlarning o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatishda, tilga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirilayotgan bir davrda madaniyatlararo muloqotdagi ayrim to'siqlarni bartaraf etishda hamda tillarni o'qitish va o'rganishda o'rinli xizmat qiladi. Asosan, badiiy asar tili, onomastik birliklar orqali ta'sir etish masalalari o'z ilmiy yechimlarini hali hamon kutmoqda. Bizning tadqiqodimiz obyekti hisoblangan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romasi onomastikasi bu o'rinda diqqatga sazovor manba. Chunki muallif har bir qahramoniga shunchaki nom tanlamagan.

Antroponimlarning vujudga kelishida antroponimik indikatorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Indikatorlar (lotincha: «ko'rsatgich») antroponimlar tizimida alohida bir guruhni tashkil etadi. Bu xususda prof. Z.Do'simovning maqolasi [2:34] hamda I.Xudoynazarovning nomzodlik dissertatsiyalarida atroflicha ma'lumot berilgan [2: 20-21]. Ular kishi ismlari tarkibida kelib uni biror jihatdan xarakterlab, ma'no ifodalaydi. Antroponimlarda indikatorlik vazifasini turli affiksoid va umumlashtiruvchi tavsifiy so'zlar bajaradi. Masalan, qul, bek, oy, jon, gul, beka, niso, xon kabilar.

Antroponimik indikatorning ichki va tashqi kabi ko'rinishlari mavjudligi qator tadqiqotlarda sharhlangan [3:23]. Ichki indikatorlar deganda, antroponim o'zining antroponim ekanligini o'z-o'zidan ko'rsatib turishi nazarda tutiladi. Chunonchi, yozuvda antroponimlarning bosh harf bilan yozilishi, antroponimlarning ma'lum bir qurshovlarda uchrashi (Otabek keldi), nutqiy qurshovlarda o'zining ma'nosiga ko'ra antroponimlarning qanday ichki guruhlariga xos ekanligini ko'rsatib turishi (Kumush, Xushro'y-ayollar ismi). Tashqi indikatorlar turli xil qo'shimcha affiksoid va ma'no umumlashgan so'zlar bo'lib, ular ko'pincha antroponimlar bilan birika oladi.

Indikatorlarning deyarli barchasi konnotativ ma'noga ega. Bunday ma'no ayrim so'z va affiksoidlarning tarkibida joylashgan bo'lib, o'zi birikib kelayotgan ismga turli xil qo'shimcha ma'nolarni kiritishga xizmat qiladi.

Bu kabi qo'shimcha ma'nolar sirasiga kichraytirish, sevish, erkalash, hurmat, iltifot, mehribonlik, yaqinlik kabi qator ijobiy baho hamda kamsitish, masxaralash, past nazar bilan qarash kabi salbiy baho ma'nolarini kiritish mumkin. Bu haqida Ya.Gremm yozadi «Erkalatish formalari faqatgina kamchilik ma'nosini emas, balki iltifot, mehribonchilik, erkalatish ma'nolarini ham ifodalaydi. Shuning uchun ham biz kichraytirish formalari ulug', muqaddas, hatto dahshatli predmetlarga ham ularga yaqinlashish, uning muruvvatini, iltifotini qozonish uchun qo'shamiz» [4:41].

«O'tgan kunlar» romanida antroponimik indikatorlarning quyidagi ko'rinishlarini uchratish mumkin:

1. Ayol ismiga xos antropoindikator.

– bibi (yuqori sinf, aslzodalar avlodiga mansub qiz, ayol; mo'tabar, baland martabali ayol): Kumushbibi, Oltinbibi, Oyshabibi, Xonimbibi, Xushro'ybibi. Masalan, Xushro'ybibi Zaynabning egachisidir. Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo'ldi. Oyshabibi qizig'a ma'nolik qilib bir qarab oldi: – Bolam, axir ikki og'iz gap eshit-chi oldin! — dedi.

– bonu (shohlar, sultonlar avlodiga mansub ayol; aslzoda ayol):

Mohinabonu. Masalan, O'zbek oyimning ko'ngil tortar qo'shnilaridan Karima otin, Sharofat chevar va Mahinabonular ham yasanib-tusanib.

– gul (guldek ko'rkam, go'zal; zebo): Anorgul. Masalan, Anorgulning qo'lidagi dutor «O'rtoqlar» kuyini tanlarga larza berib, tarona qildi.

– oyim (oliy nasab avlodga mansub qiz, ayol): Oftoboyim, Roziyaoyim. Masalan,

– Xush kelibsiz, – dedi Oftoboyim...

2. Erkaklar ismiga xos antropoindikator:

– boy (asli boylar, badavlatlar avlodiga mansublik; boy-badavlat, hukmron janob): Sariboy. Masalan, Albatta yodingizda bo'lsa kerak, hov, biz Sariboyning do'konida choy ichishib o'lturg'an edik-ku, yodingizga tushdimi?

– mirza (ziyoli, qalam ahli; kotib, sarkotib, munshiy): Mirzakarim. Masalan, – Bu kishi otangizning yaqin do'stlaridan Mirzakarim qutidor.

– nor 1) xol, qizil xol; 2) bir o'rkachli erkak tuya – qudratli, baquvvat; 3) o't, olov, alanga): Normuhammad. Masalan, Normuhammad qushbegiga yordamga yetib kelish uchun chopar yugurtirdi.

– oxund (turkiycha: og‘a, janob; forsha: xudovand, janob, xudojo‘y; ism tarkibida: o‘qimishli, ilmlı kishi): Solihbek oxund. Masalan, Biz Toshkand ulamo va ashrofidin domla Solihbek oxund, mulla Yusufbek hoji, sarkardalardin Qosim va Niyoz qushbegilar, Karimqul va Muhammadrajab qo‘rboshi ham Qambar shariatdorlar bir orag‘a o‘lturishib voqi‘an Musulmonqulning zulm va taaddasi Xo‘qand fuqarosi va ayni zamonda bo‘lak shahar va qishloq, kent aholisi ustiga ham bag‘oyat oshib borg‘anlig‘ini muzokara va mukolama qilishdiq.

– qul (xizmatchi, g‘ulom, qul; itoatgo‘y, tobe; sig‘inuvchi): Karimqul, Musulmonqul kabi. Masalan, Musulmonqul qo‘shinning boshida bo‘ladi...

Bugungi kunda qul so‘zi o‘zining dastlabki ma‘nosida qo‘llanilmay, balki erkalash suyish ma‘nolarida, shuningdek, turdosh otlarni atoqli otlarga aylantirishga ham xizmat qiladi.

– bek 1) hukmdor, hokim, boshliq; o‘tmishda maxsus mansablardan birining nomi; 2) –bek/berk ma‘nrsida mustahkam, himoya qilingan, kuchli, qudratli): Azizbek, Yodgorbek, Komilbek, Nusratbek, Otabek, Yusufbek kabi. Masalan, Azizbek qushbегininggapi ikki qila olmadi.

«O‘tkan kunlar» asaridagi Otabek antroponimi tarixan ikki qismdan iborat bo‘lgan: Ota va bek. Lekin vaqt o‘tishi bilan bek «ota» o‘zagi bilan to‘liq qo‘shilib ketgan. Shuning uchun qator nomlarda ajratilishi mumkin bo‘lgan bek bo‘lagi (Nusrat/bek, Komil/bek, Yodgor/bek, Aziz/bek, Yusuf/bek), Otabek antroponimida ajratilmaydi.

– jon (ruh, tiriklik, hayot): Ahmadjon, Qayumjon kabi. Masalan, Manglayim sho‘rlik ekan, bolam, Saodatning Qayumjon otlıq bir akasi bor edi, yoshi yettiga chiqib, otasi rahmatlik endigina to‘y qilaman deb turg‘anda, qizamiq degan bir

falakat kasal bilan og‘rib dunyodan o‘tdi, buning ustiga Saodatning otasi ham marhum bo‘lib bizlarni ora yo‘lda qoldirib ketdi.

– xon (hukmdor, boshliq, podshoh): Sheralixon, Murodxon, Muhammadxon, O‘rmonxon kabi. Masalan, Musulmonqul o‘z g‘arazi yo‘lida orada yo‘q nizolarni qo‘zg‘ab, kuyavi Sheralixonni o‘ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo‘y kabi yovvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o‘ldirib, o‘rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o‘zini mingboshi deb e‘lon qilib, aqlsiz bir go‘dakni (Xudoyorni) xon ko‘tarib el yelkasiga mindi.

3. Ayol va erkaklar ismlariga qo‘shilishiga ko‘ra betaraf bo‘lgan antropoindikatorlar.

Bularga –jon, –xon, –bek affiksoidlarini kiritish mumkin. Bu indikatorlar o‘rni bilan har ikkala jins vakillari nomlariga qo‘shiladi. Ammo asarda faqat –bek indikatorı uchraydi.

–bek affiksoidi ham yuqoridagi xususiyatlarga ega. Asar antropoindikatorlarini tahlil etish davomida ayol ismiga qo‘shilish holatlarini ham kuzatdik.

“O‘tgan kunlar” asaridagi Otabek antroponimi tarixan ikki qismdan iborat bo‘lgan: Ota va bek. Lekin vaqt o‘tishi bilan bek “ota” o‘zagi bilan to‘liq qo‘shilib ketgan. Shuning uchun qator nomlarda ajratilishi mumkin bo‘lgan bek bo‘lagi (Nusrat/bek, Komil/bek, Yodgor/bek, Aziz/bek, Yusuf/bek), Otabek antroponimida ajratilmaydi.

Bu kabi antropoindikatorlar ayollar ismida ham mavjud: Sorabek, Xushro‘ybek. Masalan, *O‘n oltinchi kun mehmon oyog‘i tovsillanib, O‘zbek oyim Sorabek oyimga o‘zlarining borishlaridan xabar yubordi va Hasanaliga aravani qo‘shmoqqa buyurdi.*

Bu o‘rında ham Sorabek antroponimi ajralmaydi, ammo quyidagi gapda Xushro‘yning bekka qiyoslangani yaqqol sezilib turadi:

Nusratbek bo‘lsa ko‘chaga chiqq‘anda bekklik da‘vosini qilib, uyiga kirganda Xushro‘ybekka mute‘.

Ba‘zi o‘rinlarda asosga bir necha antropoindikator qo‘shilish holatlari ham kuzatiladi. Bu indikatorlar –affiks va –sufiks holatidagi indikatorlardir. Ular ayol va erkaklar ismida ham qo‘shilish hollarini kuzatdik. Yuqorida tahlil qilganimizdek, bu indikatorlar qahramonlar “men”nini ,ruhuyatini ochib berishga xizmat qilgan.

– *Ancha turdik aylanay, buv Zaynab, — dedi Oftob oyim, — endi navbat sizlarning borishlaringizg‘a qoldi.*

– *Zaynabnisa yaxshi ko‘rgan tomoqni qilingiz, — dedi Kumush.*

Zaynabka qarab: «Bolam Zaynab otin! Sizdan hali yoshlik g‘ururi ketmagan, lekin manim bolam bo‘lg‘an-lig‘ingizni siz ham unutmang!»

Ba‘zi misollarni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Kumush → oy, xonim, nisa, bibi.

mirza ← Karim → qul, bek, boy.

buv ← Zaynab → nisa, otin.

Mohira → bonu, oyim.

Buv → Oftob → oyim

O‘zbekcha ismlar familiya bilan ishlatilganda “o‘g‘li”, “qizi” so‘z formallari bilan birga keladi. Ota ismlariga Kumushbibi binti Mirzakarim Marg‘inoniy, Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li, Muhammadrahim Yo‘ldosh o‘g‘li kabilar misol bo‘ladi.

Kumushbibi binti Mirzakarimboyga-zavji toshkandlik Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lidan.

Domlaning: “Sizkim, Kumushbibi Mirzakarim qizi, o‘zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o‘g‘liga bag‘ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo‘ldosh o‘g‘liga topshirdingizmi?”- degan so‘rog‘i olti, etti qaytarilgandan keyin, shunda ham yangalar qistog‘i ostida arang uning rizolig‘i olindi.

Ushbu misollarda “o‘g‘li”, “qizi” so‘z formallarining qo‘llanishi ismlarda milliylik xususiyatini yaqqol aks ettirib turibdi.

Antroponimik tadqiqodlarda ruscha familiyalar esa –ev,-eva,-ov,-ovna forma yasovchilari bilan hosil qilinishi. Ota ismining yaqin kunlarga kishi ismi bilan birgalikda qo‘llanganligi va keyinchalik rus tili ta‘sirida ota ismi ham kishi ismi bilan mustaqil ishlatilishi uchray boshlaganligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Sanalgalardan oyim, qul, oxund kabilar hozirgi kun nuqtayi nazaridan keng iste‘moldan chiqayotganligi sezilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek antroponimiyasida turli indikatorlar o‘tmish davrlardan beri keng qo‘llanib kelinmoqda. Indikatorlar ishtirokida shakllangan nomlardan Abdulla Qodiriy o‘zining «O‘tkan kunlar» romanida ham o‘rinli foydalangan. Bu tipdagi antroponimlar asar g‘oyasini ochib berish hamda davr ruhini tasvirlashda o‘ziga xos vosita sanaladi.

ADABIYOTLAR:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori // “Ma‘rifat” gazetasi. – Toshkent, 2019 yil 5 oktyabr. – №77.*

2. *Do‘simov Z. Toponimik indikatorlar//O‘zbek tili va adabiyoti, 1972, 5-son.*

3. *Xudonazarov I.I. Antroponimlarning til tizimidagi o‘rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari (Ergash Jumanbulbul dostonlari asosida). Filol.fanl.nomz.diss... –T.: 1998. –B.43-45.*

4. *Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B.16.*

5. *Qo‘ng‘urov R. Onomastika va uning predmeti// O‘zbek tilining grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. To‘plam. – Samarqand, 1972. – B.41-48.*

6. *Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romani. «Adabiy barqaror asarlar turkumi», – T., 2019.*

7. *Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Ўқув қўлланма. —Т., 2004. –60 б.*

7. *Bafoyeva N. Translation difficulties of abdulla kahhar ‘s essay “thief” into english //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – T. 4. – №. 05. – C. 60-63.*

8. *Bakhronovna G. R. The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore // Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 237-242.*

9. *Jiyanqulovna J. L. Til, millat va madaniyat munosabati // The theory of recent scientific research in the field of pedagogy. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 39-43.*

10. *Saidova R. A. Semiotic square and binary opposition // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – C. 201-205.*

RASMIY USLUBNING ICHKI TURLARI, RASMIY MATNLARGA XOS XUSUSIYATLAR VA ULARNING VAZIFALARI

*Ashurova Muxayyoxon Sanjarbek qizi,
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti
mohinabonu9414@mail.ru
f.f.f.d., dotsent D.N.Satimova taqrizi asosida*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada rasmiy uslubning qo'llanilish doirasiga ko'ra turlari o'zbek va dunyo tilshunoslari tasnifi asosida o'rganiladi. Rasmiy uslubni o'zida aks ettiruvchi rasmiy hujjatlarning ham tuzilish o'rniga, mazmuniga, tegishlilik jihatiga, xizmat mavqeyiga va boshqa jihatlariga ko'ra ichki turlari o'rganilib tahlil qilinadi. Shuningdek, rasmiy hujjatlar matnining o'ziga xos xususiyatlari va ularga qo'yilgan talablar borasida ilmiy ma'lumotlar beriladi. Rasmiy matnlarning maqsad va vazifalari bir qator olimlarning fikrlari asosida tadqiq etiladi. Yuqorida sanab o'tilgan ishlar borasida turli ilmiy tadqiqot va izlanishlarning xulosalariga asoslanib yakuniy xulosalar beriladi.*

***Kalit so'zlar:** rasmiy uslub, rasmiy matn, idoraviy hujjatlar uslubi, qonunchilik uslubi, diplomatik uslub, nutqiy me'yor, sintaktik tuzilish, lingvistik xususiyat, lisoniy me'yor.*

ВНУТРЕННИЕ ТИПЫ ОФИЦИАЛЬНОГО СТИЛЯ, ХАРАКТЕРИСТИКИ ОФИЦИАЛЬНЫХ ТЕКСТОВ И ИХ ФУНКЦИИ

***Аннотация.** В данной статье изучаются виды формального стиля по сфере применения на основе классификации узбекских и мировых лингвистов. Вместо структуры изучаются и анализируются внутренние виды официальных документов, отражающие официальный стиль, по их содержанию, актуальности, служебному положению и другим аспектам. Также даются научные сведения об особенностях текста официальных документов и требованиях, предъявляемых к ним. Цель и функции официальных текстов изучаются на основе мнений ряда учёных. На основе выводов различных научных исследований и исследований даются окончательные выводы относительно вышеупомянутых работ.*

***Ключевые слова:** официальный стиль, официальный текст, стиль ведомственных документов, законодательный стиль, дипломатический стиль, речевая норма, синтаксический строй, языковой признак, языковая норма.*

INTERNAL TYPES OF OFFICIAL STYLE, CHARACTERISTICS OF OFFICIAL TEXTS AND THEIR FUNCTIONS

***Abstract.** This article studies the types of formal style by scope based on the classification of Uzbek and world linguists. Instead of structure, internal types of official documents reflecting the official style are studied and analyzed in terms of their content, relevance, official status and other aspects. Scientific information about the features of the text of official documents and the requirements for them is also provided. The purpose and functions of official texts are studied based on the opinions of a number of scholars. Based on the findings of various scientific studies and studies, final conclusions regarding the above-mentioned works are given.*

***Keywords:** official style, official text, style of departmental documents, legislative style, diplomatic style, speech norm, syntactic structure, linguistic feature, language norm.*

***Kirish.** Rasmiy uslub – bu kommunikatsiya jarayonida ma'lumotlarni aniq, lo'nda va rasmiy shaklda yetkazib berishga mo'ljallangan uslub hisoblanadi. Ushbu uslub ko'pincha davlat boshqaruvi, qonunchilik, ilmiy tadqiqot, ta'lim va boshqa sohalarda qo'llaniladi. Rasmiy uslubning ichki turlari, uning xususiyatlari va vazifalari tahlil qilinganda, uning nafaqat muloqotni samarali tashkil etish, balki axborot almashinuvini ham tartibga solishdagi ahamiyati oshadi.*

Rasmiy matnlar ko'plab xususiyatlarga ega, jumladan, aniqlik, mantiqlilik, va rasmiylik. Ushbu matnlar ko'pincha standartlashtirilgan shaklda bo'lib, ular muayyan qoidalar va shaklga amal qiladi. Rasmiy

matnlarda foydalaniladigan til va frazeologiya ham diqqat bilan tanlanadi, chunki bu matnning professionalligi va ishonchliligiga ta'sir qiladi.

Metodlar. Ushbu maqolada o'rganish obyekti va tushunchalarini tavsiflash uchun tavsifiy, ularni turli guruhlarga ajratish uchun tasnifiy, shuningdek, qiyosiy metoddan ham foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Rasmiy uslub qo'llanilish doirasiga ko'ra ayrim turlarga ajratilib o'rganiladi. Shunga ko'ra rasmiy uslubning quyidagi turlari farqlanadi:

- 1) qonunchilik hujjatlari va diplomatik aloqalarga doir hujjatlar uslubi;
- 2) ish yuritish hujjatlari uslubi [10, 10].

“O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari” kitobida rasmiy uslub atamasi o'rniga rasmiy nutq termini ishlatiladi va uning ikkita turlari keltiriladi:

a) o'g'zaki tarzidagi rasmiy ma'ruzalar (dokladlar) nutqi;

b) rasmiy ish qog'ozlari nutqi (asosan yozma nutq)[18, 65]. Ushbu tasnif uchun rasmiy nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlari asos qilib olinganini ko'rish mumkin.

Y.Tojiev, N.Hasanova, H.Tojimatov va O.Yo'ldoshevlar fikricha rasmiy uslubdagi hujjatlar qo'llanilish sohasiga ko'ra quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

1. Yuridik munosabatlar doirasida: qonun, kodeks, fuqarolik aktlari va jinoyat ustavlarini kabilar.

2. Idoraviy-administrativ shakli: aktlar, buyruqlar, har xil ish qog'ozlari (ariza, xarakteristika, tarjimai hol, ma'lumotnoma, tilxat va boshqalar).

3. Diplomatik munosabatlarga doir hujjatlar: bayonot, nota, bitim, memorandum, konvensiya, deklaratsiya kabilar[4, 154].

T. Enazarov ham rasmiy uslubni uch turga ajratadi va muallif keltirgan rasmiy uslubning ichki turlari yuqoridagi tasnifga yaqin ekanligini ko'rishimiz mumkin: 1. Idoraviy hujjatlar uslubi: Bunga ish qog'ozlari(ariza, tavsifnoma va hokazo), akt va buyruqlar kiradi. 2. Diplomatik munosabatlarga doir hujjatlar uslubi: bayonlar, nota, bitim, shartnoma, deklaratsiya kabilar. 3. Huquqiy munosabatlar doirasidagi hujjatlar uslubi: qonun, kodeks, fuqarolik, jinoyat aktlari va boshqalar[1, 103].

Jahon tilshunosligida ham rasmiy uslubning ichki turlari tahlili yuzasidan bir qator tilshunoslar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, G.A.Ilmuxametov boshqird tili rasmiy uslubini uch turga: diplomatik, qonunchilik va konselyariya uslublariga ajratgan[8].

Rus tilshunosi I.R.Podzolkova tasnifiga ko'ra rasmiy uslubning ichki turlari quyidagilar:

1) Diplomatik uslub (xalqaro bitimlar, kelishuv, konvensiya, memorandum, nota, kommunik kabilar; og'zaki shaklda: bayonnoma nutqi);

2) Qonunchilik uslubi (qonunlar, buyruqlar; davlat ahamiyatiga molik fuqarolik, jinoyat aktlari; og'zaki shakli: sud nutqi);

3) Boshqaruv uslubi (nizom, shartnoma, buyruq, ko'rsatma, ariza, tavsifnoma, tilxat kabilar; og'zaki shakli: ma'ruza, so'zga chiqish, rasmiy telefon suhbat, og'zaki ko'rsatma)[15, 49].

I.R.Galperin ingliz tili rasmiy hujjatlar uslubini ham boshqa funksional uslublar singari o'z ichki turlari borligini ta'kidlab, ularni quyidagi to'rt guruhlarga ajratgan: 1.Biznes hujjatlar; 2.Huquqiy hujjatlar; 3.Diplomatik hujjatlar; 4.Harbiy hujjatlar[2, 325].

Rasmiy uslubning tasnifi borasida ayrim tilshunoslar tomonidan o'xshash fikrlar keltirilgan bo'lsada, ushbu uslubning ichki turlari bir-biridan farqlanadi.

Rasmiy-idoraviy nutq uslubi, avvalo, kishilar o'rtasidagi idoraviy rasmiy munosabatlar uchun xizmat qiluvchi hujjatlar uslubidir. Tilshunoslikda ushbu uslubda yaratiladigan idoraviy ish hujjatlari mohiyati, tuzilishi, vazifasi kabi qator omillar asosida bir qancha turlarga bo'lib o'rganilgan[10, 12]. Xususan, O.Qudratov ilk va o'rta asrlarda devon-mahkama idoralari hamda ish yuritish amaliyotida qo'llangan hujjatlarning huquqiy mavqei, ijtimoiy-siyosiy vazifasi, mohiyati, qo'llanilish doirasi, stilistik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanishini aniqlagan. Shu asosda bu davrda bitilgan turkiy hujjatlarni quyidagi turlarga ajratgan:

a) davlat boshqaruvi va qonunchilik bilan bog'liq rasmiy hujjatlar;

b) diplomatik hujjatlar;

c) devon-mahkama idoralariga tegishli hujjatlar;

d) diniy idoralarga tegishli vaqf hujjatlari;

e) kishilar o'rtasidagi notarial munosabatlar, oldi-berdi, savdo-sotiq ishlarini rasmiylashtirish bo'yicha tuzilgan vasiqalar hamda xo'jalikni yuritish bilan bog'liq ish qog'ozlari[13, 12].

Ma'lumki, rasmiy uslub, asosan, rasmiy ish qog'ozlarida aks ettiriladi. Shunga ko'ra o'zbek milliy hujjatchiligida bir qator rasmiy ish qog'ozlari farqlanadi.

“Ish yuritish” kitobida ish hujjatlari quyidagi turlarga ajratilgan:

1. Tuzilish o'rniga ko'ra: a) ichki. Ichki hujjatlar ayni muassasaning o'zida tuzilib, shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlardir; b) tashqi. Tashqi hujjatlar muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladigan hujjatlardir.

2. Mazmuniga ko'ra: a) sodda hujjatlar; b) murakkab hujjatlar. Sodda hujjatlar muayyan bir masalani qamrab olgan, murakkab hujjatlar esa ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga olgan bo'ladi.

3. Mazmun bayonining shakli jihatidan: a) xususiy; b) namunaviy; 3) qolipli hujjatlar. Xususiy hujjatlar matni o'ziga xosligi, betaakror, hamisha bir andoza bo'lmasligi, mavzu bayoni bir qadar erkinligi bilan xarakterlanadi. Namunaviy hujjatlar bir-biriga o'xshash, ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni qamrab oladi. Qolipli hujjatlar oldindan tayyorlangan bosma qog'ozlarga yoziladi.

4. Tegishlilik jihatiga ko'ra: a) xizmat yoki rasmiy; b) shaxsiy hujjatlar. Xizmat (rasmiy) hujjatlari muassasa yoki mansabdor shaxslarga, shaxsiy hujjatlar yakka shaxslarga tegishli bo'ladi.

5. Tayyorlanish xususiyati va darajasiga ko'ra: a) qoralama; b) asl nusxa; d) nusxa; e) ikkinchi nusxa (dublikat); f) ko'chirma. Qoralama hujjatning qo'lyozma yoki mashinkalangan dastlabki nusxasidir. Asl nusxa hujjatning birinchi rasmiy nusxasidir, uning aynan qayta ko'chirilgan shakli shakli esa nusxasi hisoblanadi. Hujjatning ikkinchi nusxasi dublikat sanaladi, ko'chirma esa muayyan hujjatning bir qismi asosida tuziladi.

6. Xizmat mavqeiga ko'ra: a) tashkiliy hujjatlar; b) farmoyish hujjatlari; d) ma'lumot-axborot hujjatlari; e) xizmat yozishmalari [3, 18].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, rasmiy ish hujjatlari bir biridan turli belgilari asosida farqlanadi va ayrim mezonlarga tayangan holatda tasniflanadi. Rasmiy ish hujjatlari yoki matnlarini tavsiflashda, asosan, mana shu belgilariga e'tibor qaratiladi. Aytish joizki, rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matnini faqatgina ular bilan aloqador bo'lgan belgilari asosidagina emas, balki rasmiy ish hujjatini yaratuvchi shaxs, uning hujjatdan ko'zlangan pragmatik maqsadi, hujjat yaratilgan ijtimoiy vaziyat singari omillarni ham o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, idoraviy ish hujjatlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga egaligi hamda turli sohalarda qo'llanilishidagi farqlanishi jihatidan ularni umumiy guruhlarga birlashtirgan holda matniy xususiyatlari, terminologik birliklari, rasmiylashtirilishi kabi masalalar bo'yicha alohida o'rganish ham mumkin. Bu masalalar boshqa tilshunosliklarda muayyan darajada tadqiq etilgan. Masalan, rus tilshunosligida rasmiy xatlar maxsus tekshirish obyekti sifatida o'rganilgan. Bundan tashqari, ishlab chiqarish tashkilotlari va ilmiy muassasalarda rasmiy ish yuritish masalalari bo'yicha [6] hamda ish yuritish hujjatlarini rasmiylashtirish kabi masalalar bo'yicha maxsus tadqiqotlar [5] o'tkazilgan. Respublikamizda ham rasmiy ish yuritishning umumiy masalalari, xususan, ish hujjatlarini rasmiylashtirish masalasiga doir ayrim manbalar mavjud va bugungi kunda ham rasmiy-idoraviy ish yuritish hujjatlari uslubi va hujjatlar tilini davlat tili normalari asosida takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Muhokama va natijalar. So'ngi yillarda yurtimizda rasmiy-idoraviy ish hujjatlarini rasmiylashtirish, hujjatlar matnini davlat tili me'yorlari asosida shakllantirish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, rasmiy hujjatlar matnining o'ziga xos xususiyatlari va ularga qo'yilgan talablarga alohida to'xtalib o'tish joiz.

Rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matni o'ziga xos sintaktik tuzilishi, mazmuniy va nutqiy me'yorga solinganlik xususiyati bilan boshqa uslubdagi matnlardan farqlanib turadi.

N.Mahmudov rasmiy hujjatlar matnining lingvistik xususiyatlari haqida fikr yuritarkan, bunday hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri sifatida xolislikni keltirib o'tgan. Bundan tashqari, u rasmiy hujjatlar matnlari aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik va mazmuniy to'liqlik kabi talablarga javob berish kerakligini ham ta'kidlab o'tadi [3, 15].

Ayrim rus tilshunoslari ham bu borada o'z mulohazalarini keltirib o'tgan, jumladan, G.P.Nesgovorova ish hujjatlari matniga xos quyidagi jihatlarni ajtarib ko'rsatgan:

- 1) mazmunning ishonchliligi va haqqoniyligi;
- 2) ma'lumotning to'liqliligi;
- 3) mazmunga ziyon yetkazmaydigan darajada ifodaning qisqaligi;
- 4) bayonda ohangning neytralligi;
- 5) dalil va natijalar mantiqiy bahosining vositalari;
- 6) bir ma'noga ega bo'lmagan ifodalar (barcha darajadagi ononimiya)ning yo'qligi;
- 7) nutqiy vositalarning bir xillashtirilishi va terminologiyaning standartlashtirilishi [12].

Rus olimasi Y.P.Rashevskaya rasmiy ish hujjatlari matni uslubining quyidagi lingvistik xususiyatlarini sanab o'tgan:

1. Rasmiylik, haqqoniylik, vazminlik.

2. Aniq va ixcham bayonda ma'lumotlarning to'liqligi.
3. Ohangning rasmiyligi, ehtirosga berilmaslik, his-tuyg'u, subyekivlikning to'g'ri kelmasligi.
4. Hujjatlarning stereotipligi yoki rasmiy ish vaziyati nutqiy vositalarga cheklov qo'yishi va standartlashtirishni taqazo etishi kabilari.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan rasmiy ish hujjatlari matnlarining xususiyatlari bir qancha umumlashtirilgan va izchillik yetishmaydi, shu sababli ham keltirigan rasmiy matnlarning ayrim xususiyatlari va ularga qo'yilgan talablar rasmiy uslubdagi matnlarning barchasiga ham birdek mos kelavermaydi.

A.G.Ilmuxametov fikriga ko'ra rasmiy uslubga xos bo'lgan o'ndan ortiq xususiyatlarning berilishi va fikrlarning turfaligi rasmiy uslubning bir ichki turida bir xususiyat, ikkinchisida boshqa, uchinchisi va yana boshqalarida ham o'zlarigagina xos bo'lgan belgi va jihatlarni mavjud ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, u kanselyarlik uslubida bir xillik, qoliplashtirilganlik xususiyatlari ustuvor ekanligini, qonunchilik uslubida esa ko'rsatma berish, mavhumlik, majburiylik belgilari ko'zga tashlanishi, shu bilan birga, aniqlik, rasmiylik, obyektivlik va neytral ton kabilarni rasmiy ish uslubining hamma janrlariga xos ekanligini ta'kidlaydi [8].

D.E.Lutfullayeva rasmiy-idoraviy ish hujjatlarida bayon etiluvchi axborotga va rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matniga qo'yiladigan umumiy lingvistik talablarni o'zaro farqlash zarur deb hisoblaydi [10, 17]. Unga ko'ra rasmiy-idoraviy ish hujjatlarida bayon etiluvchi axborotga qo'yiladigan talablarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Idoraviy ish hujjatlarida axborotning haqqoniy bo'lishi. Ish hujjatlari matniga qo'yiladigan talablardan eng asosiysi ifoda etilayotgan rasmiy ma'lumotning haqqoniy bo'lishidir. Ish hujjati yolg'on ma'lumot bermasligi; obyekt, uning xususiyati asliga mos, haqiqiy va huquqiy asosga ega bo'lishi lozim.

Yolg'on ma'lumotga asoslangan har qanday rasmiy hujjat qonunan asossiz deb topiladi.

2. Idoraviy ish hujjatlarida axborotning yetarli darajada to'liq bo'lishi. Ish hujjatlarida matnida aks etgan har qanday axborot to'liq bo'lishi, obyekt mohiyatini to'la ochib berishi lozim. Zarur ma'lumotlar to'liq berilmagan ish hujjatlari huquqiy jihatdan yaroqsiz bo'lib qolishi mumkin.

3. Idoraviy ish hujjatlarida axborotning aniq va ixcham shaklda bayon etilishi. Bu jihatdan rasmiy-idoraviy ish hujjatlari uslubi ilmiy uslub bilan umumiy belgiga ega bo'ladi. Ish hujjatlari matnida axborot aniq bayon etilishi lozim. Bayonda noaniqlikka yo'l qo'yilgan ma'lumot turli talqinlarga sabab bo'ladi. Bu esa rasmiy munosabatlarda tushunmovchilikni keltirib chiqaradi. Ayrim ish hujjatlari axborotni ixcham tarzda bayon etilishini taqozo etadi. Jumladan, e'lon, tilxat, ishonchnoma, telegramma kabilarda axborot ixcham va qisqa ifoda etiladi.

4. Idoraviy ish hujjatlarida axborotni bayon etish tartibining aniq qo'yilishi. Ish hujjatlari matnida axborotni izchillikda ifoda etish tartibiga, matn tarkibiy qismlarining ketma-ket joylashuviga qat'iy rioya qilish lozim bo'ladi. Ish hujjatlari matnida belgilangan tartib buzilsa, hujjatdan kerakli ma'lumotlarni olish, hujjat ustida ishlash jarayoni murakkablashadi.

5. Idoraviy ish hujjatlarida bayon etiluvchi axborotning subyektivlikdan holi bo'lishi. Ish hujjatlarida barcha turdagi axborot subyektiv munosabatlarsiz bayon etilishi lozim. Salbiy baho munosabati aks etgan ish hujjati shaxsiy munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishi ijobiy munosabat ifoda etilgan ish hujjati esa rasmiy munosabatlarning erkinlashuviga yo'l ochishi mumkin. Bu esa kishilar o'rtasidagi ishonchsizlik ruhini yuzaga keltiradi, tarafkashlikka yo'l ochadi.

6. Idoraviy ish hujjatlarida bayon etiluvchi axborotning to'liq yoki qisman stereotip bo'lishi. Idoraviy ish hujjatlarining ayrim turlari axborotning stereotip, ya'ni bir xil shaklda bayon etilishini taqozo etadi. Stereotip qo'llanishlar tez-tez takrorlanib turadi. Jumladan, haydovchilik guvohnomasi, talabalik guvohnomasi va shu kabilarda axborot deyarli bir xil shaklda taqdim etiladi. Ammo bayonnomalari, farmoyish, dalolatnoma kabilarda axborot to'liq bir xil bayon etilavermaydi. Ularning kirish qismiga xos ma'lumotlarga standart shaklda bayon etiladi [10, 18].

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matnida axborotni bayon etishning o'ziga xos jihatlari mavjud. Shuningdek, bunday ish hujjatlari matnining muayyan lisoniy me'yorlar asosida shakllantirilishi ularning matniga ayrim lingvistik talablar ham qo'yilishini ham ko'rsatadi. Bu borada N.Mahmudov o'z fikrini quyidagicha bayon etgan: "Boshqaruv jarayonining murakkabligi va serqirraligiga muvofiq ravishda idoraviy ish yuritish qog'ozlari, hujjatlar ham xilma-xil va miqdoran juda ko'p. Hujjatlarning maqsadi, yo'nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatleri ham turlichadir. Shunday ekan, hujjatlar tiliga bo'lgan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar tuzish ishiga qo'yiladigan ko'pgina lisoniy talablar ham mavjud" [3, 18].

Rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matniga qo'yiladigan lingvistik talablardan biri matnni rasmiy til me'yorlariga mos tarzda tuzilishidir. Shunga ko'ra idoraviy ish hujjatlari matniga umumiy tarzda quyidagi lisoniy me'yorlarga amal qilish talabi qo'yiladi:

- Leksik me'yorlarga amal qilish;
- Morfologik me'yorlarga amal qilish;
- Sintaktik me'yorlarga amal qilish;
- Imlo me'yorlariga amal qilish;
- Stilistik me'yorlarga amal qilish;
- Punktatsion me'yorlarga amal qilish kabilar.

Rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matnining yuqorida sanab o'tilgan lingvistik me'yorlarga amal qilgan holda tuzilishi uning o'ziga xos leksik, morfologik va sintaktik birlikarga ega bo'lishiga olib kelgan. Ushbu jihat idoraviy ish hujjatlari uslubining rasmiy uslubning ichki turi sifatida alohida shakllanishiga va rivojlanishiga asos bo'lgan.

Rasmiy matnlarning vazifaviy imkoniyatlari ham ancha keng. Rasmiy matn kishilar o'rtasidagi rasmiy aloqa-munosabatlarni nafaqat qayd etish, balki ularga bu haqida ma'lumot yetkazish vazifasini ham bajaradi. Hamma rasmiy hujjatlar mana shu maqsadga xizmat qiladi. Masalan, ishga qabul qilish so'rab yozilgan arizada ariza beruvchining istak-xohishi haqida ma'lumotga ega bo'linsa, majlis bayonnomasida kun tartibida belgilangan masalalar, ularning muhokamasi, qabul qilingan qarorlar haqida ma'lumot beriladi. Yoki biror bir anjumanning o'tkazilishi haqidagi axborot xati matni orqali ham u haqida ma'lumotga ega bo'linadi.

Rasmiy uslub matnlari fuqarolarga davlat, oila, jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarini o'rgatish, ularga qat'iy amal qilish va bo'ysunish, huquqiy me'yorlarni targ'ib qilish kabi vazifalarni ham bajaradi. Mana shu maqsad asosida rasmiy uslubdagi matnlar kishilarning belgilangan vazifa va majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga dav'at etadi, ularni ogohlikka chaqiradi.

Rasmiy uslub yillar davomida shakllanib, sayqal topgan ma'lum tartib-qoidalar majmuidir. Ushbu uslub kishilar nutqini belgilangan tartib, qoidalarga bo'ysundiradi va bu bilan nutqni rasmiy jihatdan tartibga solishga xizmat qiladi [10, 10].

Idoraviy ish hujjatlari matni jamiyat a'zolarining iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va ijtimoiy sohalarida rasmiy doirada o'rnatiladigan aloqa munosabatlarini ifoda etish, namoyish qilish va qayd etishga xizmat qiluvchi matn hisoblanadi.

Rasmiy uslubdagi matnlarning maqsadi va vazifalari borasida I.R.Galperin quyidagi fikrlarini keltirgan: "Tilning boshqa uslublari singari bu uslub ham muayyan kommunikativ maqsadga ega va shunga ko'ra o'zaro bir biriga bog'liq bo'lgan til va stilistik vositalarning o'ziga xos tizimiga ega. Ushbu uslubdagi matnlarning asosiy maqsadi aloqaga kirishayotgan ikki tomonni ishdagi majburiyatlarini bayon qilishdir. Ushbu tomonlar quyidagilar bo'lishi mumkin: davlat va fuqaro, yoki fuqaro va fuqaro (yurisdiksiya); jamiyat va uning a'zolari; ikki yoki undan ortiq korxonalar yoki tashkilot (biznes-yozishmalar yoki shartnomalar); ikki va undan ortiq davlat hokimiyati; vakolatdagi shaxs va unga bo'ysunuvchi shaxs; kengash yoki prezidium va majlis yoki umumiy yig'ilish va boshqalar"[2, 325].

— Rasmiy matnlarning asosiy vazifalaridan biri aniq va ravshan ma'lumotlarni berishdir. Masalan, qonunlar, qarorlar, buyruqlar va boshqa hujjatlar orqali muayyan axborotlar taqdim etiladi.

— Rasmiy matnlar orqali davlat va davlatlararo munosabatlar, shuningdek, tashkilotlar o'rtasidagi rasmiy aloqalarni o'rnatiladi.

— Odatda rasmiy matnlar huquqiy kuchga ega bo'ladi va ularning mazmuni qonuniy jihatdan ahamiyatlidir. Bunday matnlar huquqiy munosabatlarni belgilaydi va tasdiqlaydi.


— Rasmiy matnlar normativ hujjatlar sifatida qabul qilinadi va ularning asosida boshqa hujjatlar va qarorlar ishlab chiqiladi.

— Rasmiy matnlar ma'lumotlarni tartibga solish va tizimlashtirishga yordam beradi, bu esa ularni osonroq tushunish va ishlatishga imkon yaratadi.

— Rasmiy matnlar ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular muayyan qoidalar va tartiblarni belgilaydi.

— Rasmiy matnlar jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarni aks ettiradi va ularning mazmun-mohiyatini tushunishga yordam beradi.

— Rasmiy matnlar ijtimoiy hayotning turli qatlamlarida foydalaniladigan ariza, shartnoma, dalolatnoma va boshqa shu kabi hujjatlarni rasmiylashtirishda qo'llaniladi.



Xulosa. Bizningcha, rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matnlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

Biz yuqorida keltirib oʻtgan vazifalar rasmiy matnlarning qay darajada dolzarbligini va uni ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy sohalarida muhim vosita sifatida xizmat qilishini koʻrsatadi. Rasmiy uslubda yozilgan matnlarning yetarlicha qisqa, aniq, ravshan va tushunarli boʻlishi esa ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Enazarov T. *Nutq madaniyati (o'quv qo'llanma)*. – Toshkent.2017. – b.103.
2. Galperin I.R. *Stylistics*. – Moscow: Higher school publishing house, 1971. – 344p.
3. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. *Иш юритиши*. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 456 б.
4. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умурқулов Б. *Ўзбек нутқи маданияти очерклари*. – Тошкент: Фан, 1988. – б.154.
5. Васильева В.Д., Лермонтов М.А. *Составление и оформление служебных документов*. – М.: Статистика, 1980;
6. Веселов П.В. *Современное деловое письмо в промышленности*. М.: Изд-во стандартов, 1970.
7. Головач А.С. *Оформление документов*. Изд. 2. – Киев-Донецк: Бица школа, 1983;
8. Ильмухаметов А.Г. *Формирование и развитие официально-делового стиля башкирского литературного языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук*. – Уфа. 2005. <https://cheloveknauka.com/formirovanie-i-razvitie-ofitsialno-delovogo-stilya-bashkirskogo-literaturnogo-yazyka#ixzz5HQwPtMkM>
9. Лихачев М.Т. *Организация делопроизводства в научных учреждениях*. – М.: Экономика, 1986.
10. Лутфуллаева Д.Э. *Мустақиллик даври расмий-идоравий иш услуги тараққиёти (Monografiya)*. – Тошкент.2020. – 95 б.

11. Муҳитдинова М., Абдуллаева Н. Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури. – Тошкент: 1997. – 56 б.
12. Несговорова Г.П. Пособие по написанию разного рода деловых текстов: https://www.iis.nsk.su/files/item/sbor_kas_16_nesgovorova.pdf?ysclid=m0z0t5knti764417264
13. Омонов Қ. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомилли (илк ва ўрта асрлар): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент. 2016.
14. Осипова Г.Ф. Работа руководителя с документами. Изд. 2. – М.: Экономика, 1983.
15. Подзолкова И.Р. Лингвостилистические и жанровые особенности официально-делового функционального стиля // Вестник Челябинского государственного университета. 2013. -14(305). Филология. Искусствоведение. Вып. 77. – с. 49-54.
16. Рацевская Е.П. Деловой русский язык. Учебное пособие. – Кострома: 2012. – 186 с.
17. Содиқов Қ. Хужжатлар услуги / Содиқов Қ., Омонов Қ. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. Тошкент: 2010. - 193 б.
18. Тоғжиев Ё., Ҳасанова Н., Тоғжиматов Ҳ., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Фан, 1994. – 131 б.

O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA MAQOLLAR O'RGANILISHINING NAZARIY JIHATLARI

Abdukodirova Yulduz Safaraliyevna,

Navoiy davlat pedagogika instituti

*Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik ixtisosligi tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola turli milliy ingliz va o'zbek xalq maqollarining o'xshash va farqli tomonlarini belgilash hamda ularning o'ziga xosligi, o'xshashligini aniqlashtirish bilan bog'liq masalalarga bag'ishlanadi. Ingliz va o'zbek xalq maqollari tarkibidagi pul birliklarini anglatuvchi leksikani batafsil o'rganish har qaysi birlikning o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha tadqiq etishga xizmat qiladi. Muallif pul birligi bilan bog'liq maqollarning aksiologik, leksik-semantik xususiyatlarini misollar bilan birga ochib berdi.

Kalit so'zlar: kuzatish usuli, tasniflash, qiyosiy-chog'ishtirma usullari, morfologik tahlil, leksik tahlil, etimologik tahlil, stilistik tahlil, lingvokulturologiya, maqol.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ПОСЛОВИЦ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРЕ

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам, связанным с определением сходства и различия различных национальных английских и узбекских народных пословиц и выяснением их своеобразия и сходства. Детальное изучение лексики денежных единиц, содержащейся в английских и узбекских народных пословицах, служит тщательному исследованию специфических особенностей каждой единицы. На примерах автор раскрыл аксиологические, лексико-семантические особенности пословиц, связанных с денежной единицей.

Ключевые слова: метод наблюдения, классификация, сравнительно-сопоставительные методы, морфологический анализ, лексический анализ, этимологический анализ, стилистический анализ, лингвокультурология, пословица.

THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING PROVERBS IN UZBEK LINGUISTICS

Abstract. This article is devoted to issues related to determining the similarities and differences of various national English and Uzbek folk proverbs and clarifying their uniqueness and similarity. A detailed study of the lexicon of monetary units contained in English and Uzbek folk proverbs serves to thoroughly research the specific characteristics of each unit. The author revealed the axiological, lexical-semantic features of proverbs related to monetary unit with examples.

Keywords: method of observation, classification, comparative methods, morphological analysis, lexical analysis, etymological analysis, stylistic analysis, linguoculturalism, proverb.

Kirish. Maqol xalq madaniyati va o'ziga xosligining bir qismi bo'lib, uning boyligi va ko'lami madaniy boylik ko'lami hamda millatning taraqqiyot darajasidan dalolat beradi.[Alsaidiy, 2014] Maqollarning ahamiyati shundaki, maqol kishilar hayotida namoyon bo'ladigan, xalq bilan uzviy bog'liq bo'lgan hikmat bo'lib, boshqacha aytganda, ular xalq ziyolilarining miyasini yuvish bo'lib, u hamma narsani qamrab olgan va yaxshi xususiyatlarga ega. [Farahani va Ghasemi, 2012] Hikmatlar va aytishmalar tarixning olis chekkalaridan omon qolgan noma'lum ziyolilarning eng o'tkir fikrlari va onglaridan biri bo'lib, shuning uchun o'ramlar va tarixiy qo'lyozmalar kabi hujjatlarga qoladi. [Shastri, 2012] Maqollar, shubhasiz, xalqlarning fikr va qarashlarining majmui bo'lib, fikr va qarashlarga ijtimoiy sharoit ham ta'sir ko'rsatadi. Maqollar va hikoyalar qisqa jumlalar bo'lib, ular umumiy muzokaralarda mulohaza yuritish hamda so'zlovchiga yordamga kelgan va qisqa, yaxshini targ'ib qiluvchi bayonotda so'zlovchining nima deyishiga qaratilgan va maqsadini yoritib beradigan so'z tuzilmalaridir.

Hikmatlarning donoligi odamlarni ijtimoiy o'zaro munosabatlarida dunyo bo'ylab ming yillar boshqargan. Maqollar lo'nda va formulali tilda kundalik tajribalar va umumiy kuzatuvlarni o'z ichiga jamlovchi til birliklaridir. Ularni eslab qolishni osonlashtiruvchi va darhol samarali foydalanishda, og'zaki

yoki yozma muloqotga ta'lluqli tayyor xolga keltirilgan nutq aktlaridan tashkil topadi. Maqollar uzoq tarixga ega bo'lib qanday qilib bugungi rivojlangan jamiyatga kelib qolganligi haqida ma'lum otlar juda kam. Chunki ular og'zaki nutq mas'ulidir. Ammo vaqti-vaqti bilan maqollar yuksak rivojlangan madaniyatlarda yo'q bo'lib ketmoqda, degan fikrlar davom etmoqda. Darhaqiqat bugungi asrimizda o'tgan asrning ko'plab maqol va matallarini eshitish qiyin bo'lib bormoqda. Ba'zi maqollar mazmunan yoki metafora xususiyatiga ko'ra bugungi zamonga to'g'ri kelmay qolganligi uchun ishlatilmay qolgan bo'lsa ajabmas. Ammo, hozirgi zamonning odob-axloqi va holatini aks ettiruvchi yangi maqollar doimiy ravishda maqol repertuariga qo'shib bormoqda. Masalan, "If you sell the cow, you sell her milk too/Sigiringni sotsang uning sutini ham sotgan bo'lasan" maqoli XXI-asr badiiy asarlarida juda kam uchraydi. Ushbu maqol metonimik ahamiyatga ega bo'lib, seni boqib turgan nimaiki bor (sigr, tovuq, cho'chqa va hk) uni sotishga urunma degan fikrni o'zida mujassamlashtiradi. Chunki bunday moddiyatlarni seni nafaqat boqadi balkim ertaning uchun g'aming ham bo'lishi mumkin. Yuqoridagi maqol zamirida o'ylab fikr qilish va tavakkalchilikdan inson o'zini asrashi kerakligidek falsafiy fikrlar yotadi.

Asosiy qism. Har bir mamlakatning maqollari yaratilish tarixi va odamlarning turmush tarzida ifodalash usullariga qarab bir-biridan farq qiladi. Ingliz va o'zbek tillarida maqollar o'rtasida o'xshashlik bor. Bu munosabat maqollarni turlicha tahlil qilganimizda yuzaga keladi:

1. Morfologik;
2. Leksik;
3. Etimologik;
4. Stilistik.

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning turli yo'llariga xos bo'lgan frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish nafaqat til xususiyatlarini aniqlash, balki ijtimoiy sohadagi yondashuvlarni, stilistik rangtasvir va sotsiolingvistik tahlilni o'rganish imkonini beradi. Bir qarashdayoq har qanday erkin so'z turkumi va frazeologik birlikni o'xshash deb o'ylashimiz mumkin. Biroq, bu o'ylaganimiz kabi emas. Ular orasida juda ko'p farqlar mavjud. Ularni ajratishni qiyinlashtiradigan asosiy fakt shundaki, ular orasidagi chegara chizig'i aniq ko'rinmaydi. Leksik va grammatik valentlik ularni bir-biridan farq qiladigan bir qator xususiyatlarga ega. [Sh. Jalolova. Z.Yuldasheva, 2021] Masalan, *Pul dunyoni boshqaradi* yoki *Pul bu hamma narsa* iborasida metofarik sinonimlik bor.

O'zbek millatida maqol vaziyatni umumlashtiradigan, o'tmishdagi masala bo'yicha hukm chiqaradigan yoki kelajak uchun harakat qillishni tavsiya qiladigan an'anaviy ma'noda bo'lishi mumkin. Ba'zi maqollarda *Honesty is the best policy/ Halollik - eng yaxshi siyosat* kabi bir haqiqat bor. Lekin ko'pchilik maqollar o'z ma'nosida emas majoziy ma'noga ega ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega. Maqollar kamida bitta mavzudan va shu mavzuga oid bitta fikrdan iborat bo'ladi. Ularda ikkita so'z bo'lishi mumkin. Masalan, *Money talks /Pul gapiradi, Time flies/Vaqt uchadi* (tez o'tadi). Maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimgi shakllaridan biridir. Darhaqiqat, maqolga "ko'pchilikning donoligi, birning aqli" deb ta'rif berilgan. Maqollar muayyan vaziyatlarga mos keladi va ular har doim ham hamma vaqt uchun to'g'ri emas. Ko'pgina maqollar, masalan, ba'zi xalq ertaklari va xalq qo'shiqlari, haqiqatan ham xalqaro ahamiyatga ega. Maqollar ko'pincha hikoyalardan kelib chiqadi. [Shamuradova N,2021]

Maqol va matallar dunyoning lisoniy lingvistik tasvirining markaziy qismi bo'lib, ularda xalqning barcha madaniy merosini o'zida mujassamlashtiradi. Biroq, zamonaviy dunyoda, tilshunoslik jadal rivojlanishdalgini hisobga olsak, bu qatlam hali ham yetarli darajada o'rganilmagan deya olish mumkin. Chunki shunga o'xshash til birliklarini tarjima qilish yoki ma'nosini ang'lay olish etimologiya sohasiga murojaat qilishga undaydi. Mashhur tadqiqotchi S.G.Terminasova tilning milliy xususiyatlarini o'rganish masalasi alohida ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Uning bunday fikrlash sababi maqollar, aforizmlar, paremiologik birliklar ma'lum bir inson xuq-atvori bilan bog'liq xarakterni ifodalaydiga xususiyatga ega. Bu xususiyat jamoa ongida madaniyatning chuqurlik darajasini ifodalovchi mentalitet orqali namoyon bo'ladi. Uning zamirida ko'plab avlodlar ongiga singib ketgan insoniy qadriyatlar tizimi yotadi. Mentalitet maqollar va matallar orqali til, uning leksik darajasi va millat ongini qamragan bir qator milliy madaniyat bilan bog'langan tushunchalar orqali millat ruhiyatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, muloqot tili nafaqat real dunyoga, balki jamiyatning bir necha avlodlarga xos bo'lgan ma'naviy ongiga, xalqning mentalitetiga, uning axloqiy me'yorlariga, qadriyatlar tizimiga, milliy xarakteriga ham ta'sir ko'rsatishga qodir. Bunday munosabatlar, Terminasova ta'kidlaganidek, jo'n qobiliyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, dunyoning ijtimoiy-madaniy manzarasi fonida bizning zamonamizga kelajak avlodga qadar rivojlangan va haqiqatda mavjud bo'lgan dunyo qarashlarini ma'lum bir tasvirni yetkazish mana shu birliklarning to'la to'kis kelajak avlodga yetkazilishi bilan bog'liq. F.I.Buslayev maqol va matallarni xarakterlovchi sifatida shakllanganligini

ma'lum qiladi. U badiiy asar birliklari, odamlarning kundalik hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, uning aql-idrokini va axloqiy-tabiiy xususiyatlarini o'zida mujassamlovchi ona so'zlardir degan.

O'zbekiston Respublikasi FA. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida ham Rabg'uziy asarining o'ndan ortiq nusxalari bor bo'lib, 7397, 11537, 11202-raqamlari ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalar nisbatan qadimiyroq hisoblanadi.

Matnshunoslik va manbashunoslik tajribasida asar muallifining o'zi hayotligi davrida ko'chirilgan qo'lyozmaga ishonchli nusxa sifatida qaraladi. "Qisasi Rabg'uziy"ning hijriy 740 (melodiy 1340) yilda kitobat qilingan nusxasi Nosiruddin Rabg'uziy hayotligi davrida uning zamondoshi tomonidan ko'chirilgan.

Istiqlol arafasida filologiya fanlari doktori Ergash Fozilov hamda filologiya fanlari nomzodlari Abdulla Yunusov va Hamidulla Dadaboyevlar tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etilgan ikki jildan iborat "Qisasi Rabg'uziy" kitobi uchun muallif hayotligi davrida kitobat qilingan, ilmda London nusxasi nomi bilan yuritiladigan o'sha qo'lyozma asos sifatida xizmat qilgan.

"Qisasi Rabg'uziy" ning mazkur nashri mashaqqatli mehnat natijasi bo'lib, bugunga qadar katta amaliy vazifani bajardi. 35 yildirki ushbu nashr adabiyot va ilm ahlining "Qisasi Rabg'uziy"ga bo'lgan behad katta ehtiyojini qondirish yo'lida xizmat qilib keladi. O'zbek va turkiy xalqlar adabiyotining turli muammolariga bag'ishlangan izlanishlarda tadqiqotchilar o'z mulohazalarini dalillash, muammoning "Qisasi Rabg'uziy" bilan bog'liq qirralarini yoritishda asosan shu manbaga murojaat qilib keladilar.

H.Safarova "Qisasi Rabg'uziy" tarkibidagi "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom"ning, Abu Ali Ibn Sinoning "Yusuf qissasi", Qul Alining "Qissai Yusuf", Shayyod Hamzaning "Yusuf va Zulayho", Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonlari bilan uyg'un hamda farqli jihatlarini yoritishda, "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalomning janriy tabiati, tuzilishi va tarkibini tadqiq qilishda, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, timsollar olami talqinida Rabg'uziy kitobining E.Fozilov, A.Yunusov, H.Dadaboyev tomonidan amalga oshirilgan nashri matniga tayanadi. "Qisasi Rabg'uziy" 1859-1916- yillar orasida Toshkent va Qozonda bir necha marta bosilgan.

Asarning qo'lyozma va bosma nusxalarining yutuq va nuqsonlari haqida professor Ergash Fozilov tadqiqotlarida hamda I.Ostonaqulovning "Qisas-ar-Rabg'uziy – adabiy asar" 10.01.03 – o'zbek adabiyoti tarixi ixtisosligi bo'yicha filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi va shu tadqiqot mazmuni yuzasidan e'lon qilingan ilmiy ishlarida keng mulohaza yuritilgan. Badiiy asar matni tarixini chuqur o'rganmay turib, uning g'oyaviy-badiiy tahlilini risoladagidek amalga oshirish mushkul

ekanligini chuqur his qilgan H.Safarova E.Fozilov va I.Ostonaqulov tadqiqotlarini sinchiklab nazardan o'tkazgan. "Qisasi Rabg'uziy" qo'lyozma manbalari va bosma nusxalaridagi nuqsonlarga ilm ahli e'tiborini qaratgan. "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom"ning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining yuzaga chiqishidan uning yaratilishigacha aloqador bo'lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan bog'liq jihatlar tadqiqigacha bo'lgan barcha jarayonlarni diqqat nazaridan uzoqlashtirmay ish ko'rgan H.Safarova "Yusuf va Zulayho" sayyor syujetini qiyosiy- tipologik asosda tadqiq qilish uchun juda katta tayyorgarlik ko'rgan. Y.E.Bertels, A.Mirzoyev, A.Qayumov, B.Valixo'jayev, A.Nasriddinov, A.G.Tohirjonov, E.Ibrohimova, A.Zuhuriddinov, S.Amirqulov, A.Irisov, X.Rasulov, S.Haydarov, J.Lapasov, X.Islomov, Q.Tohirov, G.Nazarov, D.Almaz, N.Sh.Xisamov, Dilijon, A.A.Gvaxariya, G.A.Gorbatkina, M.B.Rudenko kabi o'nlab o'zbek va xorijiy olimlarning dissertatsiya, monografiya, risola, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarini nazardan o'tkazgan. Ayrimlarining nomlari qayd qilingan olimlarning tadqiqotlarida kuzatiladigan xususiy va umumiy jihatlar, mushtarak va farqli qirralarni aniqlagan. Fidoyi olima "Yusuf va Zulayho" sayyor syujetida yaratilgan doston-u qissalarni qiyosiy o'rganish o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan dolzarb vazifa ekanligini kechiktirib bo'lmas ilmiy ehtiyoj sifatida qayd qiladi. Va "Yusuf va Zulayho" mavzuining jahon xalqlari adabiyotidagi, jumladan, turkiy hamda forsiyazon xalqlar adabiyotidagi sayri, ayni jarayonning qudratli ildizlari bilan birga tadrijiy taraqqiyot qonuniyatlarini zukkolik bilan ochadi.

"Qisasi Rabg'uziy" tarkibidagi 72 qissadan har birini alohida-alohida o'rganmasdan, yaxlit asarga yetarli ilmiy baho berib bo'lmaydi, degan qat'i xulosaga kelgan tadqiqotchi turkman adabiyotshunosi Geldi Nazarovning "Yusufu Zulayho" syujetida IX asrdan XX asrga qadar arab, fors-tojik, turkiy, panjob, pushtu, hindu, gurji, afg'on, olmon, latish tillarida 118 ta asar yozilganligini aniqlaganligini qayd qilar ekan, uning o'zi ham izlanishlari jarayonida G.Nazarov tadqiqotida o'z ifodasini topmagan "Yusuf va Zulayho" syujetida bitilgan 14 asarni aniqlashga muvassar bo'lganligini ma'lum qiladi (9,10). G.Nazarov tomonidan aniqlangan "Yusuf va Zulayho" mavzuidagi asarlar ko'rsatkichi H.Safarova tadqiqotiga ilova qilingan (9,116-118). Olima "Yusuf va Zulayho" syujetidagi asarlar ko'rsatkichi aks etgan jadvalni ko'chirishda G.Nazarov tayyorlagan nusxaga qat'i amal qilgan. Ro'yxatda yillar ketma-ketligining buzilishi, ba'zi munozarali o'rinlar, chalkashliklar haqida H.Safarova tadqiqotining birinchi bobida mulohaza yuritilgan. Olimaning xulosasiga ko'ra, jug'rofiyasi behad keng, xilma-xil tillarda ro'shnolik ko'rgan "Yusuf va Zulayho" syujetida "Xalq ertaklari va qissalari ham inobatga olingudek bo'lsa, bugungi kunda yuz ellikdan ortiq asar yaratilganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi" (9,10). H.Safarovaning "Hazrati Yusuf- go'zallik timsoli" monografiyasining birinchi bobi "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom" ning diniy, tarixiy va adabiy manbalari" deb nomlangan va u quyidagi fasllardan iborat:

1. Ilohiy kitoblar – Yusuf va Zulayho voqealar tizmasining ilk sarchashmasi.
2. Yusuf va Zulayho sarguzashtining badiiy adabiyotda ishlanishi, uning tarixiy tadriji.
3. Yusuf va Zulayho mavzuining she'riyatda ishlanishi.
4. Yusuf va Zulayho voqealarining nasriy talqinlari.

M.B.Piotrovskiy, F.Sulaymonova, N.Sh.Xisamov kabi rus, o'zbek, tatar olimlarining tadqiqotlarini chuqur o'rgangan olima: "Yusuf va Zulayho ishqiy sarguzashti haqidagi syujetning tarixi arab va yahudiy xalqlarining qadimiy og'zaki ijodiga borib taqalsa-da, uni faqat shu xalqlarning qadimiy og'zaki ijodigagina bog'lab ko'rsatish bir tomonlamalik bo'lur edi"(9,12), - deb yozadi. Boshqa xalqlar folklorida "Yusufu Zulayho" ga bag'ishlangan afsona, rivoyat va ertaklar mavjudligiga e'tibor qaratadi, o'z mulohazalarini asoslash uchun tatar olimi N.Sh.Xisamov va iste'dodli o'zbek olimasi F.Sulaymonovanning tadqiqotlariga murojaat qiladi. Eslatilgan tadqiqotlardan nazarga tashlanishicha, "Yusuf va Zulayho" mavzui bilan aloqador ayrim lavhalar eramizdan avvalgi III va IV asrlarda Vavilionda yaratilgan. Tamuza va Ishtar eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikdan oldin yuzaga kelgan siro-finikiyaliklar ijodiyotiga aloqador Adonis va Astrata misrliklarning Osiris va Isida miflariga borib taqaladi. Yusufning akalari tomonidan quduqqa tashlanishi, quduq yonidan o'tib ketayotgan karvonning uni qutqarishi, bundan tashqari bundan xabar topgan akalari Yusufni qochoq qul sifatida karvonboshiga sotishidan Misrga borishigacha, Misr podshosining qizi Zulayho Yusufga oshiq bo'lishidan uning zindonband qilinishigacha, Yusufning Misr yurtining shohi bo'lishi va Zulayhoga uylanishi, keyin o'z vataniga cheksiz muhabbati tufayli toju taxtdan voz kechib, o'z kindik qoni tomgan Kan'onga qaytishi voqealari qadim turkman ertaklarida mavjud bo'lgan. O'zbek va turkman xalqining mushtarak shoiri Nurmuhammad Andalib adabiy merosini sinchiklab o'rgangan olima Andalib "Yusuf - Zulayho"si mag'zida kelgan "Misrda shoh bo'lgandan ko'ra, Kan'onda gado bo'lgan" maqolining etimologiyasi shu ertakka bog'lab ko'rsatilganligini qayd qiladi. "Yusuf va Zulayho" dostonini qadim zamonlardan qissasoz va qissaxonlar katta sayllarda, to'y-ma'rakalarda kuylab kelganlar. U azal-azaldan xalifalar ijodidan mustahkam o'rin olgan. "Yo ramazon" qo'shiqlari turkumida Ramazon oyida ijro

etilgan. Avlodlardan -avlodlarga, asrlardan-asrlarga, zurriyodlardan-zurriyodlarga o'tib uzoq masofali tarixiy va jug'rofiy sayrni boshidan kechirgan. Ko'pgina namunalar yangicha talqinlari yuzaga kelgan.

Yusuf asrlar osha dunyo xalqlari ko'nglidan keng o'rin olib, jahon adabiyotining suyakli qahramoniga aylangan. H.Safarova ta'kidlashicha, folkloridagi "Yusuf va Zulayho" haqidagi afsona dastlab muqaddas diniy kitoblar sahifasidan joy olgan. Muqaddas kitoblar esa ikki qismga bo'linadi:

1. Qadim Ahd: Tavrot va Zabur
2. Yangi ahd: Injil

Yusuf haqidagi qissa ilk bor Tavrotning "Ibtido" nomli birinchi kitobida keltirilgan (9,14). Mazkur qissa Qur'oni Majidning o'n ikkinchi surasidan o'rin olgan. H.Safarova Ilohiy kitob tarjimonlari va mufassirlarining ma'lumotlariga tayanib, Yusuf surasining nozil bo'lish sabablari haqida batafsil fikr yuritadi. Va quyidagi asosli xulosani bayon etadi: "Qissaning Qur'ondan joy olishiga sabab: kishilarning eng og'ir damlarida o'zlarini tuta bilishga va barcha qiyinchiliklarni sabr-matonat bilan yengishga chog'lanishlarini uqtirishdan iboratdir" [9,15]. H.Safarovaning qat'i xulosasiga ko'ra, Tavrot va Qur'oni karimdagi uyg'unlik quyidagi lavhalarda namoyon bo'ladi:

1. Yusufning akalari tomonidan quduqqa tashlanishi va ota mehridan judo qilinishi;
2. Uning Misr hukmdori xotinining ig'vosi sababli zindonband qilinishi;
3. Misr xalqini ocharchilikdan qutqarishi;
4. Akalarining o'ziga qilgan shafqatsizligini kechirishi;
5. Farzandi hajrida yig'layverib, ko'zlari ko'r bo'lib qolgan Ya'qub Yalavochning ko'zlari Yusuf ko'yagini ko'ziga surtishi bilan ochilishi;

6. Yusufning zindonda shohning soqiysi va nonvoyi tushini ta'birlashi;

7. Uning shohning tushini aniq ta'bir qilib, zindondan ozod bo'lishi.

Qur'oni karimdagi Yusuf qissasi mazmuni Tavrotidagi rivoyatdan farq qiluvchi quyidagi nuqtalarga ega:

1. Qur'onda Yusufning tushi va tush ta'biri ancha batafsil keltirilgan;

2. Yusuf akalarning g'arazli maqsadlari va uning amalga oshirilishi bilan aloqador tafsilotlar chuqur asoslangan;

3. Tavrotida Zulayho obrazi mukammal berilmagan, uning nomi ham zikr qilinmagan. Qur'onda esa Zulayho siymosi ancha mukammal ifodalangan;

4. Tavrotida Yusufning kelajakdagi buyuk ishlaridan bashorat qiluvchi ikkita tushi ketma-ket berilsa, Qur'onda bu bashorat bitta tushda o'z ifodasini topgan va hokazo.

Olima talqinicha, ayrimlariga e'tibor tortilgan tafovutlarga zohiriy alomatlar sifatida qarash to'g'ri emas, chunki Qur'oni karimdagi har bir ishora zamirida inson tabiati, fe'li-atvori, hamida axloqi, sabr-u bardoshiga daxldor ulkan ibratlar yotadi. Fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, riyozat, itoat, qonuniyat kabi shariati islomiyaning talab-tamoyillariga uyg'un husni xulq talablari qur'oniy qissaning mag'z-mag'ziga singdirilgandir. H.Safarova Qur'oni karimdagi Yusuf qissasini Injil bilan muqoyasa qilgan ekan, akademik M.B.Piotrovskiyga fikrdoshlik qiladi. Bibliyadagi Yusuf qissasi yahudiylik va nasroniylik rivoyatlarini qayta ishlangan holda Qur'onga kirib kelganini qayd qiladi. Ikki ilohiy kitob orasidagi tafovutlarni ko'rsatishda ham atoqli olim tahlillariga tayanadi. "Qur'ondagi hikoyatlarda Bibliyaga muvoziy keluvchi, biroq undagi Yusuf tarixiga aloqador bo'lmagan nuqtalar bor. Shu bilan birga, Yusufning bashorati bilan bog'liq ayrim o'rinlar ko'zga tashlanmaydi. Masalan, yetti yillik qurg'oqchilikdan so'ng mo'l- ko'l yomg'ir yog'ib, uzumzorlarni suv bosib ketishi sodir bo'ladigan yillar haqida ishora yo'q" [9,17]. Hilola Safarova talqinicha, ming yillar davomida jahon so'z san'ati tarixida adabiy an'anaga aylangan noyob hodisalardan biri mavzular sayyorligidir. Sharq xalqlari adabiyoti tarixidan mustahkam o'rin olgan "Yusuf va Zulayho", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Vomiy va Uzro", "Tohir va Zuhro", "Vis va Romin", "Gul va Bulbul", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Bahrom va Gulandom", "Mehr va Suhayl" shunday yo'nalishda yaratilgan asarlar sirasiga kiradi. Yirik ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy, badiiy-estetik qimmatga ega bo'lgan mazkur asarlar bir xalq adabiyoti doirasida qolib ketmay jahon xalqlari adabiyoti xazinasidan munosib o'rin olib, asrlar davomida Odam Ato farzandlarining axloqiy-ma'naviy kamoloti yo'lida xizmat qilib kelmoqda. Ayrimlarining nomlari tilga olingan sayyor voqealar negizida o'nlab, yuzlab nodir asarlar yaratilgan. Masalan, turk adabiyotshunosi Ogah Sirri Levend guvohlik berishicha, "arab, fors, turk tillarida Layli va Majnunlarning sevgi sarguzashti haqida yuz ellikdan ziyod masnaviy yaratilgan" (9,18). Sinchkov olima "Yusuf va Zulayho" nomi bilan bog'liq sarguzashtlar mavzuida yozilgan dostonlarga nisbatan munozarali qarashlar deyarli barcha xalqlar adabiyoti va adabiyotshunosligida mavjud ekanligiga ilm ahli e'tiborini qaratar ekan, ularning aksariyatiga oydinlik kiritishga erishadi. Ana o'shalardan biri Durbekka nisbat berib kelingan "Yusuf va Zulayho" dostoni muallifi masalasidagi bahslardir. Eslatilgan munozalar ta'sirida "Yusuf

va Zulayho” va uzoq yillar davomida Mavloni Lutfiyga nisbat berib kelingan “Gul va Navro‘z” dostonlari o‘rta umumta‘lim maktablarining to‘qqizinchi sinflari uchun tayyorlangan adabiyot majmuasida “Muallifi noma‘lum dostonlar” rukni ostida berildi [10, 235-245]. Abiturentlar uchun tayyorlangan test topshiriqlari to‘plamidan “Muallifi noma‘lum asarlar qaysi javobda berilgan?” degan savol joy oldi.

“Gul va Navro‘z” dostonining muallifi masalasida o‘tgan asrning (XX) 70-yillaridan “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida boshlangan bahslar 1994-yilga qadar, aniqrog‘i Shayx Ahmad Xudaydod Taroziyning “Fununul-balog‘a” asari ilm ahliga ma‘lum bo‘lganiga qadar davom etdi. 1993-yili iste‘dodli tilshunos olim, filologiya fanlari doktori Ergash Umarov AQSHning Bolumington shahridagi Indiana universitetida ma‘ruzalar o‘qiydi. Olim ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanib, O‘zbekistonga qaytishida o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi uchun g‘oyatda qimmatli bo‘lgan qo‘lyozma asarlarning fotonusxalarini olib kelib, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot institutiga topshiradi. Shu qo‘lyozmalar orasida Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Fununul-balog‘a” (1436-1437) asari ham bo‘lib, ustoz Abduqodir Hayitmetovning aniqlashicha, olim unda “Gul va Navro‘z”dan Haydar Xorazmiyning asari sifatida qo‘lyozmaning 13a, 47a varag‘ida ikkita misol keltiradi. Haydar Xorazmiy ham, Mavloni Lutfiy ham Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning zamondoshi bo‘lib, olim ularning ijodidan mukammal xabardor bo‘lgan [4, 70-73].

Filologiya fanlari doktori Ergashali Shodiyev o‘zining “Yusuf va Zulayhoni kim yozgan?” hamda “Ulusdin tanlagonim” sarlavhalari ostidagi ikki maqolasida “Yusuf va Zulayho” dostoni Durbek qalamiga mansub emas, uni Alisher Navoiy yozgan degan fikrni asoslashga urinadi. Hilola Safarovaning tahlillaridan ayon bo‘ladiki, quyidagi ikki jiddiy sabab atoqli olimning shunday xulosaga kelishi uchun asos sifatida xizmat qilgan:

1. Durbekka nisbat berib kelingan “Yusuf va Zulayho”ning ilmga ma‘lum qo‘lyozma nusxalarida doston muallifining taxallusi ifodalanmagan;

2. Fransuz sharqshunosi Edgor Bloshe Parij Milliy kutubxonasi xazinasidagi Sharq qo‘lyozmalarini tavsif qilganida 1365 - raqami ostida saqlanayotgan “Yusuf va Zulayho” dostonini Alisher Navoiyga nisbat bergan. 1365- raqamli qo‘lyozmaning boshida Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlab yozilgan madhiyaning borligi sharqshunos olimni shunday xato qilishiga sabab bo‘lgan. Ammo professor E.Shodiyevdan yigirma uch yil oldin ustoz olim Botirxon Valixojayev “O‘zbek klassik adabiyotida epik poeziyaning taraqqiyot tarixi”(1967) doktorlik dissertatsiyasida asosli ravishda ayni muammoni yechgan. Akademik B.Valixojayevning doktorlik dissertatsiyasi mazmuni yuzasidan chop etilgan “O‘zbek poeziyasi tarixidan” monografiyasidagi dalillarga tayangan holda H.Safarova yozadi: “Olimning (akademik B.Valixojayevning – Sh.H.) dadil ilmiy xulosaga kelishiga samarqandlik ma‘rifatparvar Abduhamid Po‘lodiyning shaxsiy kutubxonasida mavjud bo‘lgan “Yusuf va Zulayho” dostonining qo‘lyozma nusxasi asos bo‘lgandi. Ustoz alloma noma‘lum kotib tomonidan hijriy 1255, milodiy 1839- yilda ko‘chirilgan bu nusxadagi “Ayladi bu nusxani Durbek nazm” satrida Durbekning nomi ochiq va aniq yozilganligini, xuddi shu dalilga tayanib professor Abdurauf Fitrat ilk bor doston muallifini Durbek deya qayd etganini e‘tirof qilgan edi” [9, 21].

XIV asrning oxiri va XV asr boshlarida yashab ijod etgan iste‘dodli shoir Durbek “Yusuf va Zulayho” dostonining muqaddimasida o‘z asarining yozilgan yilini abjad hisobida raqam qilgan:

“Zod” edi tarix taqi “he”yu dol”,

Muddati hijratdin o‘tub mohu sol.

“Zod” 800, “he” 8, “dol” – 4 ga teng. Mazkur raqamlarning yig‘indisi 812 ni tashkil qiladi. “Yusuf va Zulayho”ning hijriy 812, milodiy 1409-1410- yillarda yozilgani ma‘lum bo‘ladi. Atoqli olim, professor Natan Mallayev: “Ayrim nusxalarda “he” emas, “ayn” (70) kelgan, u taqdirida dostonning yaratilgan yili, hijriy 874 (milodiy 1469/70) yil bo‘ladi”, - deb izoh beradi [5, 270]. Akademik B.Valixojayev fikricha, 1409-1410- yilda yozilgan “Yusuf va Zulayho” kam miqdorda tarqalgan. Shuni inobatga olgan bir noma‘lum shoir 1469-1470-yilda Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaroning Balxga harbiy safari va uni zabt etishi munosabati bilan dostonni qayta tahrir qilib, unga zafarpanoh shohga bag‘ishlangan madhiyani qo‘shgan. Ustoz olimning mazkur mulohazalarini matnshunos olim F.Sulaymonovanning “Yusuf va Zulayho” dostonining Alisher Navoiyga nisbat berilgan Parij qo‘lyozmasi haqida” maqolasidagi talqinlar bilan quvvatlantirgan. H.Safarova ikki yirik olimning mulohazalariga fikrdoshlik qilib, qo‘shimcha tarzda yana bir dalilga tayanmoqni maslahat beradi. Hazrat Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asaridagi: “Komi xotirgabu orzuni kechirurkim, inshoalloh, umr omon bersa, turk tili bila o‘q kofur chun varaq uzra xomayi mushkin shamomani surgay va bu qissa nazmin ibtilo qilib, intihosiga yetkurgay...” kabi o‘z ta‘kidlariga ilm ahli e‘tiborini tortadi. H.Safarovaning qat‘iy xulosasi shuki, “Durbekka nisbat berilgan doston aslida Navoiyniki” degan fikr asossizdir. A.Hayitmetov, N.Mallayev, B.Valixojayev, R.Vohidov va boshqa ustoz olimlar o‘rinli e‘tirof etganlaridek, “Yusuf va Zulayho”ni yozish buyuk Navoiyning armonga aylangan adabiy orzusidir.

Ustoz olim B.Valixojayev o'z tadqiqotida XV asrdan boshlab, yana ham aniqrog'i Nuriddin Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho"sidan keyin munozara yuritilayotgan sayyor mavzuga munosabatning ikkinchi bosqichi boshlanganini qayd qiladi. Va Olim Devona, Salohiy Buxoriy, Shirin, Abdusamat Buxoriy, Mullo Qurbon Xiromiy, Nurmuhammad Andalib dostonlarini tahlil qilib, ularni keyingi bosqichda bitilgan asarlar ekanligini dalillaydi. Tojik adabiyotshunosi A.Zuhriddinov Jomiy va Nozim Hirotiylarning bir xil mavzudagi dostonlarini qiyosiy o'rganib, yuqoridagiday xulosaga keladi. Tojik adabiyotshunosi S.Amirqulov ustoz B.Valixojayev bilan bir vaqtda (1967) yaratilgan "Junaydulla Hoziq va dostoni "Yusuf va Zulayho" tadqiqotida Hoziq o'z asarini Mavlono Jomiyga izdoshlik qilib yozganini asoslab bergan. Ilmning qaysi tarmog'ida bo'lmasin, har bir tadqiqotchi o'zi qilayotgan ishning maqsadi, vazifasi, ilmiy yangiligini to'g'ri belgilab olishi zarur. Ana shundagina qilingan mehnat behuda ketmaydi. Zahmatli mehnat natijasida dunyoga kelgan tadqiqotdan ilm manfaat ko'radi. Masalaga ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, H.Safarova to'g'ri yo'l tutadi. U o'z tadqiqoti uchun sayyor mavzuning XIV asrga qadar bo'lgan sayrini asos qilib oladi. "Qissasi Rabg'uziy" tarkibidagi "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom"ni o'rganar ekan, XIV asrgacha nasr va nazmda yozilgan asarlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish bilan cheklanadi.

H.Safarova tomonidan aniqlanishicha, Yusuf va Zulayho nomi bilan bog'liq sevgi sarguzashtlari axloqiy-maishiy voqealar tizmasi badiiy adabiyotda ikki yo'nalishda davom etdi:

1. Birinchi yo'nalishga mansub ijod ahli talmeh san'ati vositasida qissa voqealari tizimining eng muhim nuqtalaridan lavha keltirib, o'z qarashlarini bayon etdilar. H.Safarova Shayx Muslihiddin Sa'diy, Alisher Navoiy, Nodira, Pahlavonquli Ravnaq, Shermuhammad Munis she'riyatidan Yusuf, Zulayho va Ya'qub obrazi talqiniga oid baytlarni keltirib o'z ilmiy qarashlarini asoslaydi. Ayni masalada Husayn Makkiy tomonidan tayyorlanib, 1950- yilda Tehronda chop etilgan "Gulzori adab" to'plamiga ilm ahli e'tiborini tortadi. Mazkur to'plam tojik-fors shoirlarining eng go'zal she'rlaridan to'plangan ajoyib guldasta bo'lib, unda Yusuf, Zulayho, Ya'qub mavzuidagi talmehli baytlar jamlanib, 63 yo'nalishga ajratib, tasnif etilgan.

2. Yusuf mavzuida katta hajmli she'riy yoki nasriy asarlar yaratgan ijodkorlar ikkinchi yo'nalishni tashkil etadi. Yusuf haqidagi afsona asosida ilk bor IV asrda siriyalik shoir Afrim asar yaratgan. U o'z asarini arab tilida yozgan hamda Yusuf va Zulayho voqealarining an'anaviy sayyor mavzuga aylanishiga, syujet shuhratining keng yoyilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Sayyor mavzu takmiliga arab shoirlari Narsan va Ya'qub Sergun ham munosib hissa qo'shganlar. Shu tartibda mazkur syujet VII -VIII asrlarda Falastin, Mesopotamiya, Misr, Eron, Priney yarim oroli, Shimoliy Hindistonga qadar quloch yoyadi. Qadim Turonning arab xalifaligi tomonidan zabt etilishi va islomlashtirish siyosati, arab tili va adabiyotining kirib kelish jarayonida Yusuf va Zulayho voqealari Turon yerlariga ham tarqala boshlaydi. Turonlik ijodkorlarning Yusuf va Zulayho syujetida yozgan asarlari ro'shnolik ko'radi. Dastlab Abul Mu'ayyat Balxiy va Baxtiyor Axvaziy kabi adiblar o'z asarlarini tojik-fors tilida yozadilar. Keyinchalik Abulqosim Firdavsiy Yusuf va Zulayho voqealar tizmasini qayta ishlab, she'riy doston bitadi. XI-XII asr shoiri Am'aq Buxoriy o'zining "Yusuf va Zulayho" dostonini fors-tojik tilida yaratadi. Mazkur syujetga turkiygo'y shoirlar ham murojaat qila boshlaydilar. Hilola Safarova turkiy tilda yozilgan asarlarni ikki guruhga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi. Olima Yusuf va Zulayho syujetida doston yozgan Qul Ali, Shayyod Hamza, Durbek kabi shoirlarni birinchi guruhga kiritadi. Mazkur an'anaviy mavzuda nasriy asar yaratgan adiblar H.Safarova tomonidan ikkinchi guruhga kiritilgan va namuna sifatida Rabg'uziyning "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom" asari ko'rsatilgan.

Yusuf va Zulayho syujetida turk, ozarbayjon, o'zbek, tatar, turkman tillarida ham ko'plab asarlar yaratilgan. H.Safarova turkman adabiyotshunosi Geldi Nazarov qayd qilgan 46 hamda o'zi tomonidan aniqlangan o'zbek tilidagi 4 asarni qo'shib, turkiy tilda bitilgan shu mavzudagi asarlar soni 50 taga yetadi, deydi. Turkiy tillarda yaratilgan Yusuf va Zulayho mavzuidagi dostonlarni qiyosiy o'rganar ekan, Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom"i, Qul Alining "Qissai Yusuf", Shayyod Hamzaning "Yusuf va Zulayho", Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonlarini shu yo'nalishda yaratilgan asarlarning go'yaviy-badiiy jihatdan eng mukammali sifatida qayd qiladi. Olimaning aniqlashicha, Yusuf va Zulayho mavzuida yaratilgan asarlarning aksariyati nazmda bitilgan. Buning asosiy sababi esa musulmon mintaqa badiiy san'ati tarixida she'riyatning yetakchi mavqeda turishidadir. Shuningdek, nazmda bitilgan voqealar, sarguzashtlarning o'qilishi oson, ta'sirchanligi kuchli. O'ynoqi ohangga ega bo'lganligi uchun ularni kuylash va yodlash nasriy matnga nisbatan qulay.

H.Safarova e'tiroficha, Qul Alining "Qissai Yusuf" dostoni Yusuf va Zulayho sayyor syujetida yaratilgan eng mashhur asardir. Mazkur doston ko'p tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortgan. Badiiy asarlar matni tarixini o'rganishda ijodkorning hasbi holini bilish nihoyatda muhim ilmiy ahamiyat kasb

etishini chuqur his qilgan olim Qul Aliga oid tarixiy va adabiy manbalardagi tarqoq ma'lumotlarni hijjalab o'rganishdan erinmagan. Shoir qalamiga mansub "Qissai Yusuf" dostoni, 1763-1837-yillarda yashagan Tojiddin Yalchuqul o'g'lining "Tarixi Bulg'oriya", "Chingiznoma" kitoblariga ijodkorning oila muhiti va hayot yo'li haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi manba sifatida munosabatda bo'lgan.

H.Safarovaning qayd qilishicha, Tojiddin Yalchuqul o'g'li "Tarixi Bulg'oriya" va "Chingiznoma" kitoblarini yozishda Imom Tabriziy, Imom Tusiy kabi o'rta asr tarixchilarining asarlaridan hamda tariqat mashoyixlaridan eshitgan ma'lumotlariga tayangan. Manbalarga asoslangan holda "Qissai Yusuf" dostonining muallifi Qul Ali, uning ota-bobosi, ajdodi avlodi haqida nodir ma'lumotlar bergan. Qul Alining ota-bobolari Bulg'orda xon sifatida davlatni boshqargan, o'z zamonasining yetuk kishilari bo'lganlar. Qul Ali Xorazmda 45 yil mudarrislik qilgan. 110 yil umr ko'rgan. "Tatar adabiyotshunoslari "Qul Ali ibn Hojibning ustozlari bo'lgan", - degan fikrni ham izohlab beradilar,"- deb yozadi Hilola Safarova [9, 31]. Alisher Navoiy "Majolisun-nafois"ning "Ul jamoati azizlar zikridakim, faqir alardin ba'zining mulozamatig'a kichiklikda yetibmen va ba'zining suhbatig'a yigitlikda musharraf bo'lubmen..." sarlavhasi ostidagi 4-fiqrasida Samarqandda fiqhshunoslikdan tahsil olgan ustozlari Xoja Fazlulloh Abullaysiy ta'rifida yozadilar: "Samarqand akobiridundur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqhda ani Abu Hanifai Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi" [6, 33]. "Majolisun-nafois"ning "Izoh" qismida Ibn Hojib haqida ixcham ma'lumot berilgan bo'lib, undan nazarga tashlanishicha, to'liq ismi Jamoliddin Abu Amr Usmon ibn Umar ibn Hojib (1175-1249) arab tili bo'yicha mashhur olim bo'lgan. Uning sintaksisga bag'ishlangan "Al-qofiya" va morfologiyaga oid "Al-shofiya" asarlari asrlar davomida madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan [6, 230]. 45 yil mudarrislik qilgan "Qissai Yusuf" dostonining muallifi Qul Alining shunday yirik allomaga ta'lim berganligi inobatga olinsa, uning nafaqat iste'dodli shoir, nihoyatda yuksak salohiyatga ega bo'lgan olim ekanligi ma'lum bo'ladi. Misralar miqdori 3000 satr atrofida bo'lgan "Qissai Yusuf" matnining qurilmasi haqida H.Safarova yozadi: "Qissai Yusuf" muqaddima, o'n besh fasl va xotimadan tarkib topadi. Ayni tarkib Qul Alining ijtimoiy-axloqiy g'oyalarini to'la ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi" [9, 32].

H.Safarova monografiyasida Qur'oni karim, uning eng go'zal qissasi "Yusuf" surasi shoir e'tiborini o'ziga tortib, qalam ushlatganini asoslash uchun dostonning kirish bobidan quyidagi satrlarning keltirilishi g'oyatda o'rinli:

Qissalardan, hikmatlardan ko'rklirog'i,
Afsonadek tinglanmog'i totlirog'i,
Qur'on ichra beshak oning mazkurlig'i,
Ushbu qissa erdiki zohir emdi.

Monografiyada ushbu iqtibos adabiyotshunos N.Sh.Xisamovning "Poema "Qissa-i Yusuf" kitobining (Москва:Наука, 1979) 31-sahifasidan olib berilgan. H.Safarova – mehnatkash olim. U o'ziga qadar Qul Alining "Qissai Yusuf" asari haqida kattayu kichik tadqiqotlar yaratgan A.N.Samoylovich, M.Gaynullin, X.Usmonov, G.Xalit, N.Yuzeyev, I.Nodirov, Sh.Adilov, M.Ma'diyev, A.Tohirjonov, N.Xisomov, E.Fozilov, M.Xautsma, K.Brokkelman, M.F.Ko'pruluzoda kabi olimlarning tadqiqotlarini sinchiklab o'rgangan. "Борынты татар эдэбияти", "Tatar poeziyasi antologiyasi" to'plamlarida Qul Ali va uning asariga doir keltirilgan ma'lumotlar ham olim nazaridan chetda qolmagan.

Har bir tadqiqotchining Qul Ali "Qissai Yusuf"ni o'rganish borasidagi o'ziga xosligi H.Safarova tadqiqotida aniq ko'rsatilgan. Ahamiyatiga ko'ra, ulardan ayrimlarini nazardan o'tkazamiz:

1. Filologiya fanlari doktori Ergash Rustamov Qul Ali uchun "Qissai Yusuf"ni yaratishda Abdulla Ansoriyning "Anis al-muridi va shams ul – majolis" asari asosiy manba vazifasini bajarganligiga ilm ahli e'tiborini tortadi.

2. Akademik A.N.Samoylovich o'zigacha yaratilgan tadqiqotlarni tanqidiy nazardan o'tkazar ekan, Qul Alining "Qissai Yusuf", Qutbning "Xisrav va Shirin", Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarlarida til va badiiyat jihatdan yaqinlik ko'radi. A.N.Samoylovich tadqiqotlarida Qul Ali dostoni tilshunos, folklorshunos, tarixchi, etnograf sifatida keng qamrovda o'rganilgan.

3. "Qissai Yusuf"ning yaratilgan joyi, g'oyaviy manbai, qurilishi, muallifning an'anaviy sayyor syujetga kiritgan yangiliklari, dostonning qo'lyozma manbalari haqida N.Xisomov o'z tadqiqotlarida mukammal ma'lumot beradi.

N.Xisomov va boshqa tatar adabiyotshunoslarining ulkan xizmati bilan "Qissai Yusuf" bir necha marta chop etildi. Asarning rus tilidagi nashri amalga oshirildi.

Qul Ali qalamiga mansub "Qissai Yusuf" dostonining g'oyaviy yo'nalishlari H.Safarova tomonidan quyidagicha umumlashtirilgan: "Qul Alining "Qissai Yusuf" asari XIII asrda yaratilgan go'zal she'riy dostonidir. Asarning "Qissai Yusuf" deb atalishi ham bejiz emas. Chunki unda nafaqat Yusuf va Zulayhoning

sevgisi, balki ota va farzand, aka-ukalarning o'zaro munosabatlari, bunda notavonbinlik va kechirimlilikning o'rni, xalq taqdirini o'ylash, hukmronlik qoidalari, musofirlikda o'zini tuta bilish, qiyinchiliklar oldida bukilmalik, doimo ezgulik tarafida bo'lish, vijdonni pok, iymonni butun tutish, sabr-toqatli va qanoatli bo'lish g'oyalari o'z ifodasini topgan" [9,33].

H.Safarovaning aniqlashicha, shoir Qul Ali Qur'oni karimdagi "Yusuf" surasiga ijodiy munosabatda bo'lgan. Voqealar kechadigan joy, ishtirok etadigan qahramonlar nomi dostonda Qur'ondagiday saqlangan. Asarda voqealar sodda til bilan, qiziqarli bayon qilingan. "Qissai Yusuf"ga quyida mazmuni keltiriladigan ikkita lavha Qul Ali tomonidan kiritilgan bo'lib, ular Qur'oni karimda yo'q.

1. Malik Dutor karvon bilan yo'lga chiqish oldidan tush ko'radi. U tushida Kan'on shahriga boradi. Go'yo quyosh uning qo'ynidan kirib, yoqqasidan chiqqan emish. Osmondan dur yog'iladi, Malik Dutor injularini terib olib, sandig'iga joylashtiradi. Ta'birlovchi ikki dona qizil oltin evaziga mazkur tushning ta'birini aytib beradi. Bashoratga ko'ra Kan'onda Yusufni sotib olgan Malik Dutor uni Misrda sotib katta boylikka ega bo'ladi, davlatmand odamga aylanadi.

2. Yusuf alayhissalom karvon bilan Misrga ketayotganida Nil daryosida cho'miladi. U daryoga kirgan zahoti bir katta baliq suv jonzotlarini: "Suvga Allohga yaqin odam kirdi, unga qaramanglar", - deb ogohlantiradi va Yusufni ustiga mindirib, daryo bo'ylab ancha joygacha suzib boradi. Havoda: "Misrga bir aziz inson keldi, uning ziyoratiga shoshiling", - degan sado taraladi. Yusuf alayhissalomni Misr xalqi katta xursandchilik bilan qarshilaydi.

Mazmuni muxtasar keltirilgan lavhalarni tahlilga torgan H.Safarova badiiy to'qimaning doston qurilmasida tutgan o'rni va ahamiyatini teran yoritishga erishgan. H.Safarovaning ta'kidicha, shoir Qul Ali go'zal, aqlli, sabrli, kechirimli, shirinso'z, saxiy Yusuf alayhissalomni quyidagi o'n fazilat sohibi sifatida badiiy talqin qiladi:

1. Bo'yi yaxshi, ziyrak;
2. Yuzi nurli;
3. So'zi durust;
4. 72 tilni biluvchi;
5. Saodatli va muruvvatli;
6. Botir, yurakli va haybatli;
7. Kuchli;
8. Iymoni komil va diyonatli;
9. Xiyonat qilmaydi va omonatli
10. Payg'ambar naslidan.

Qul Ali o'z dostonida dono, aql-zakovatli, tadbirkor, insonparvar, kelajakni oldindan ko'ra oluvchi xalq sarvarining obrazini mahorat bilan yaratgan. Yusuf payg'ambar obraziga xos bunday fazilatlar H.Safarova tadqiqotida Misr zindonida bir necha yil gunohsiz yotgan Yusufni xalq xursandchilik bilan kutib olishi, yetti yillik qahatchilikdan Misr xalqining qiynalmay chiqishi lavhalarini tahlil qilish orqali dalillangan. "Sabr o'zni chiqarmoqdur huzuz nafsonidin va tana'umot jismonidin va nafsini jins qilmoqdur ibodat mehnatida va qadamni sobit qo'ymoqdur riyozat suubatida", - yozadilar Alisher Navoiy(7,56). Sabr g'oyasi Yusuf qissasining markaziy g'oyaviy yo'nalishlaridan biridir. Sabrga da'vat Qur'oni karimda ham, dostonda ham aka-ukalarning quduqqa tashlab, otalariga: "uni bo'ri yedi", - deb aytishlari voqeasidan boshlanadi. Bu mudhish xabarni eshitib, qattiq qayg'uga botgan Ya'qub yalavoch sabr qilmoqqa qaror qiladi. Sabr g'oyasi butun doston voqealarini ichdan nurlantirib turadi. Ayni ta'kid Yusuf va Zulayho sayyor syujetida yozilgan barcha nazmiy va nasriy asarlarga ham daxldordir. Masalan, Durbek dostonida Zulayhoning onasi Yusuf huzuriga kelib, qizning ishq so'zlarini unga yetkazadi. Yusuf rad javobini beradi. Sabr qilish zarurligini uqtiradi. Sabrga da'vat enaganing Zulayhoga nasihatida ta'sirchan ifoda etilgan:

Yusuf erur suhbatingda subhu shom,
Sabr bila yetkassen andin bakom.

Sabr bila Tengri berur komi dil,
Sabr qilu, sabr qilu, sabr qil.

Qul Ali dostonida Zulayho Yusuf uchun qasr qurdirib uni qasriga chorlaydi. Qo'lidan tutib, shahvoniyatini qo'zg'atishga harakat qiladi. Yusufda ham Misr malikasiga nisbatan mayl paydo bo'lgandek ko'rinadi. Ammo shu zahoti Ya'qub payg'ambar o'g'li ko'zi o'ngida namoyon bo'lib, farzandini yomon yo'ldan qaytaradi:

Yusuf unga (Zulayhoga - Sh.H.) kulib boqdi.
Shunda tahdidli ovoz eshitildi.

Uni yo‘ldan qaytardi,
Yusufga otasi ko‘rindi.

Mohiyatan mazkur lavha mag‘zida ham sabr g‘oyasi turadi. Yusuf tuhmat bilan zindonband qilinganida ham sabr tufayli murodi hosil bo‘ladi. Tutqinlikdan ozod bo‘lib, Misr hukmdoriga aylanadi. Bolalik yillarida akalari Yusufni kamsitib, urib, qul sifatida sotib unga ko‘p malomatlar qilgan bo‘lsalar-da, Yusuf ularni kechiradi. Qahatchilik yillarida ularni oziq-ovqat bilan ta‘minlaydi. Qur‘oniy timsolning ayni fazilatlarini chuqur ilmiy mushohadadan o‘tkazgan H.Safarova “Qul Ali Yusuf siymosida saxovatpesha, oliyjanob, komil inson obrazini yaratgan”, - degan xulosa bilan Qul Ali dostoni tahliliga nuqta qo‘yadi.

Olimaning qat‘iy ishonchiga ko‘ra, Yusuf va Zulayho mavzuida o‘zbek tilida yaratilgan ikkinchi doston Shayyod Hamzaning “Yusuf va Zulayho”sidir. Shayyod Hamza dostonida Qur‘ondagi asosiy voqealar saqlangan. Shayyod Hamza “Qissai Yusuf” dostonining muallifi Qul Alining zamondoshi bo‘lib, uning dostoni Qur‘oni karim va Abulqosim Firdavsiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni ta‘sirida yaratilgan.

Shayyod Hamza hayoti va adabiy merosini o‘rganishni turk adabiyotshunosi boshlab beradilar. H.Safarova o‘z adabiyotshunoslik uslubiga ko‘ra, turk adabiyotshunosligida Shayyod Hamza hasbi holi va ijodi bilan shug‘ullangan har bir turk olimining tadqiqoti ustida maxsus to‘xtaladi.

Shayyod Hamza hayoti va ijodiga oid ilk ma‘lumotni taniqli turk olimi M.F.Kuprulizoda bergan. U dastlab 1921-yilda shoirning bir g‘azalini topib e‘lon qiladi va uni turk tasavvuf adabiyotining ilk namoyandasi sifatida tavsiflaydi. Turk adabiyotshunoslari keyinroq shoirning sakkiz g‘azalini aniqlashga muvaffaq bo‘ladilar.

Shayyod Hamzaning Yusuf va Zulayho sayyor syujetida doston yozganligi 1946-yilda turk adabiyotshunosi D.Dilchin tomonidan aniqlangan va shu olim tomonidan lug‘at va izohlar bilan ta‘minlangan holda nashr etilgan. U Shayyod Hamza dostonini bulg‘or – tatar shoiri Qul Ali va XIII asr turk shoiri Suli Faqihning shu syujetda yaratgan dostoni bilan qiyosiy – tipologik metoddan o‘rganib, qimmatli ilmiy-nazariy xulosalarni bayon qilgan.

Shayyod Hamza dostonini N.A.Anikiyeva rus tiliga o‘girib, tadqiqiy maqola va izohlar bilan 1992-yilda Moskvada chop ettiradi. Turk adabiyotshunosligida yaratilgan tadqiqotlar asosida H.Safarova Shayyod Hamza ilmiy tajimai holiga doir muhim ma‘lumotlarni o‘z monografiyasida quyidagicha ifodalaydi: “Shayyod Hamza XIII asr o‘rtalarida Svriyhisor yoxud Oqshaharda yashagan. Ammo uning qizi Asli xotun qabrining Oqshaharda ekanligi inobatga olinsa, shoirni shu shaharda yashagan bo‘lsa kerak degan xulosaga kelish mumkin. Shoirning xalq qahramoni Xoja Nasriddinga muxlisligi, e‘tiqodining balandligi uning ijodiyotiga alohida ta‘sir qilgan. Ayni omillar va Shayyod Hamzaning nihoyatda hozirjavob bo‘lgani o‘z davri bilimlarini puxta egallagani sabab bo‘lgandir” [9,38].

H.Safarova Qur‘oni karimning 12-“Yusuf” surasini o‘nlab nasr va nazmiy “Yusuf va Zulayho”lar bilan qayta-qayta qiyoslab o‘rganish natijasida 12- suradagi asosiy nuqtalarni tezis shaklida, ixcham, aniq va tiniq ifodalay olganki, ularni shu o‘rinda keltirish foydadan xoli bo‘lmaydi, deb o‘ylaymiz: Yusufning qul qilib sotilishi, uning Qutayfer uyidagi hayoti, xo‘jayin xotinining hiylasi, hayratdan barmoqlarini kesgan ayollarning ahvoli, Qutayfer xotinining tuhmati, Yusufning zindonga tashlanishi, vinosoz va nonpaz, so‘ngra esa Fir‘avn tushlarini ta‘birlashi, akalarining Misrga kelishi va Yusufning ular gunohidan kechishi, nihoyat otasi bilan uchrashuvi [9,38]. Olimaning aniqlashicha, Ilohiy manba va Qul Ali asari bilan Shayyod Hamza dostoni orasidagi tafovutlar quyidagilardan iborat:

1. Shayyod Hamza akalarining Yusufni jazolashlarini biroq boshqacharoq talqin qiladi. Unda Qul Ali dostonida kuzatilganidek, Shomunning Yusufga xanjar solishga chog‘lanishi manzarasi yo‘q.

2. Qul Ali dostonida Yusufni quduqda zohid ming yildan beri kutib turgani bayon qilinsa, Shayyod Hamza dostonida bu vazifa Hud alayhissalom zimmasiga yuklatilgan.

3. Shayyod Hamza dostonida Yusuf quduqqa tashlanganida akalari tomonidan kiyimlari yechib olinib, yalang‘och qolgan payg‘ambarzodaga Jabroil farishta kiyim olib kelib beradi. Yusuf bu kiyimlarni kiyib o‘z husnini oynada ko‘rgach, o‘z jamoliga o‘zi mahliyo bo‘lib, “Qul bo‘lganimda meni sotib olish uchun kimning puli yetar edi”, - degan so‘zlarni ko‘nglidan kechiradi. Shu kibriga javoban uning 19 tangaga sotilishi Allohning o‘ziga bino qo‘ygan bandasiga yuborgan ulug‘ jazosi edi. Iste‘dodli shoir dostonning bosh qahramoni bilan aloqador quduq ichida kechgan lavhani yuksak ma‘naviy-axloqiy ibrat maqomida talqin qilgan.

Bibliya va Qur‘onda Yusufning Misrga borishi haqidagina so‘z yuritiladi. H.Safarovaning aniqlashicha, Shayyod Hamza dostonida karvonning Misrga safari va Misrga borib tushishi bilan aloqador tafsilotlar ancha kengaygan. Xususan, undagi quyida mazmuni bayon qilinadigan uchta lavha ancha ta‘sirchan chiqqan:

1. Karvon safarda davom etar ekan, Yusuf onasining mozori yaqinidan o'ta boshlaydi. Karvondan ajralib qolib, onasining ruhi bilan xayrlashish uchun uning qabriga boradi. Karvon ahli uni izlashga tushadilar. Yusufni qo'riqlash topshirilgan soqchi (qul – qora habash) uni topib olib qattiq kaltaklaydi. O'sha kecha tabiatning avzoyi buzilib, yomg'ir va qor yog'adi. Karvondagilar Yusufni nohaq jazolaganlari uchun Allohning g'azabi kelib, tabiatda shunday jiddiy o'zgarish sodir bo'lganligini his qiladilar. Qul – qora habash (soqchi) Yusufdan kechirishini so'rab, uning qo'llarini o'padi. Barcha karvon ahli o'zlarini va mollarini tabiiy ofatdan omon saqlashni so'rab, Yusufga iltijo qilishga tushadilar. Yusuf o'ziga ozor yetkazgan johil qulni kechiradi. Osmondagi qora bulutlar tarqalib, quyosh nur socha boshlaydi.

2. Karvon yo'li turli o'lkalardan, shaharlardan o'tadi. Yusuf yo'lda uchragan qishloq va shahar ahlini islomga da'vat etib boradi. Odamlar uning husni va notiqlik mahoratiga mahliyo bo'lib islom dinini qabul qiladilar.

3. Karvon Misrga kelishi bilan, Yusufning husni ta'rifi butun mamlakat bo'ylab tarqaladi. Odamlar dastlabki kunda bir tanga, ikkinchi kunda ikki tanga, uchinchi kunda uch tanga berib, Yusufning husnini tomosha qila boshlaydilar.

H.Safarovaning fikricha, karvonning Misrga kelishi bilan Yusufga oid syujet chizig'ining birinchi qismi tugaydi. Dostonning navbatdagi qismida voqealar rivoji Zulayhoga bog'liq holda davom etadi. Dostonning ikkinchi qismida talqin qilingan Zulayhoga daxldor lavhalar ilohiy kitoblarda yo'q. Qul Ali dostonida Zulayhoning bolaligi, otasining uyidagi hayoti tasvirlangan bo'lsa, Shayyod Hamza dostonida bunday lavhalar uchramaydi. Shayyod Hamza Zulayhoning otasi Taymus Mag'rib shohi ekanligini qayd qiladi va o'z dostoniga Zulayhoning go'zalligi, tushida chiroyli bir yigitni ko'rib, unga oshiq bo'lib qolishi voqeasini kiritadi. Mag'rib shohi Taymus qizining shunday mazmundagi tushi uch marta takrorlanadi. Zulayho tushida yigitdan kim ekanligini so'raganda yigit o'zining Misr hukmdori ekanligini ma'lum qiladi. Shundan keyin Zulayho otasidan Misrga elchi yuborishini so'ragan. Misr hokimi Aziz Zulayhoni nikohiga olishga rozilik beradi. Zulayho Misrga kelgach, tushida ko'rgan yigitni emas, taxtda Qutayfer ismli boshqa kishi o'tirganini ko'radi. Dostonda talqin qilinishicha, Misr Azizi uchun Zulayho emas, uning o'rnida bir pari xotinlik vazifasini bajaradi. Xuddi shunday tafsilotlar Yusuf va Zulayho sayyor syujeti asosida qalam tebratgan boshqa ijodkorlarning asarlarida ham bor. Ammo muhimi shundaki, Shayyod Hamza dostonidagi ushbu lavha mantiqidan kelib chiqib, H.Safarova chiqargan xulosalar, ilmiy nazariy mushohadalar g'oyatda o'rinli, hayot haqiqati bilan mutanosib." Aytish joiz, shu lavhada jiddiy dalillovchi yuk mavjud. Zulayhoning tushida ko'rib, sevib qolgan yigitga erishish yo'lidagi keyingi telbavor xatti-harakatlari mohiyatan ana shu nuqtada dalillangan va ishonchli chiqqan. Aslida Zulayho tushida Yusufni ko'rgan va unigina sevgan. Shu sababli u shoshma- shosharlik bilan qilgan xatosini tuzatish va faqat Yusuf jamoliga erishish uchun kurashadi. Shu sababli Zulayhoning Yusufga ehtiros bilan talpinishlariga hirsiy maqsad – mazmun berib bo'lmaydi. Uning barcha sa'y – harakatlarini otashin muhabbatning nishonasi sifatida qarash adolatdan bo'lur edi" [9, 40-41].

Zulayhoning istagiga ko'ra Qutayfer Yusufni o'z og'rami bilan teng tilla evaziga sotib oladi. Yusufni tarozining bir pallasiga qo'yib, ikkinchi pallasiga tilla tangalarni qo'rganlarida Qutayfer xazinasidagi oxirgi tangani tashlaganidagina tarozi pallalari tenglashadi. Ammo Yusuf Qutayfer xonadoniga qadam qo'yishi bilan uning xazinasini qaytadan to'lib, avvalgi holatiga keladi. G'ayritabiiy mo'jizani ko'rib hayratlangan Misr hokimi Yusufni oddiy odam emasligini angelaydi va Zulayhoga uni farzandi kabi asrashni buyuradi. Erining farmoniga ko'ra Zulayho Yusufga mehribonlik ko'rsata boshlaydi, ammo Yusufning o'ziga nisbatan befarqligidan iztirob chekib kasal bo'lib qoladi. U xizmatkorining maslahati bilan qasr qurilishini boshlab yuboradi. H.Safarova tadqiqotida qasr qurilishi, qasr va uning devorlari tasviri, qurilishning tugashi, Zulayhoning oltin taxtda o'tirib Yusufni yangi saroyga chorlashi va uni o'ziga moyil qilish uchun qilgan xatti – harakatlarigacha bo'lgan barcha katta-yu kichik lavhalar e'tibordan soqit qilinmagan. Ayrimlari sanalgan lavhalar tasvirida bosh manba (Qur'on), Qul Ali, Shayyod Hamza, Abulqosim Firdavsiy dostonidagi juz'iy farq va o'xshashliklarga e'tibor qaratilib, har bir ijodkorning badiiy mahoratiga xolis baho berilgan. Mulohazamiz tasdig'i uchun bu o'rinda Shayyod Hamza dostonining ikkinchi qismidagi so'nggi lavhaning H.Safarova talqinidagi qiyosini aynan keltiramiz: "Ma'lumki, Qur'onda Zulayho ta'qibidan qutilish uchun Allohdan o'zini zindonga tashlanishini so'raydi. Firdavsiy talqinida uni Qutayfer zindonga buyuradi. Qul Ali va Shayyod Hamzalar talqinida esa Zulayho Misr shohiga o'z qulidan shikoyat qiladi va Yusuf uning amri bilan zindonga solinadi. Dostonning ikkinchi qismi shu nuqtada tugaydi" [9,42].

Olimaning aniqlashicha, Shayyod Hamza "Yusuf va Zulayho"ning uchinchi qismi Qur'on va Bibliyada bo'lmagan lavha bilan boshlanadi. Zulayhoning Misr podshosiga o'z quli ustidan qilgan shikoyati tufayli shoh amri bilan zindonband qilingan Yusufga zindonda yotgan bir qul o'n ikki shoxidan birini yo'qotgan mahobatli daraxt haqida so'zlab beradi. Yusuf gap nimada ekanligini anglab bir arab orqali

o'zining bilakuzugini otasiga yuboradi. Qutayfer vafot etadi. Barcha mahbuslar ozod etiladi, Yusufgina zindonda qoladi. Ana shu ulkan sabr-bardoshi tufayli Haq subhonahu va taolo mahbub bandasiga tushlarni ta'birlash iqtidorini beradi.

Qur'on va Bibliyada Misr shohi Firavnning nomi zikr qilinmagan. Shayyod Hamza dostonida esa uning nomi Rayyondir. Shayyod Hamza o'zining "Yusuf va Zulayho" sigiga novvoy va sharobsoz tomonidan tayyorlangan suiqasd va uning fosh etilishiga doir yangi lavha kiritgan. Shuningdek, Hilola Safarova nigohida Yusuf va Rayyonning uchrashuvi Shayyod Hamza dostonida yangicha talqinda berilgan. Yusuf alayhissalomning Misr taxtiga o'tirishi, akalari gunohidan kechishi, otasi bilan ko'rishish, zaxiradagi don tugagandan so'ng har oyda bir marta mamlakat xalqiga yuzini ko'rsatishi, uning husniga mahliyo bo'lgan odamlar ochlikni unitishlari haqidagi hikoyalar Shayyod Hamza dostonida qanday berilgan bo'lsa, Abulqosim Firdavsiy va Qul Ali dostonlarida ham shunday ifodalangan.

Zulayho Yusuf ishqida yig'layverib, ko'zlari ko'rmas bo'lib, qoladi. Yusuf uning uyi yonidan o'tayotganida Zulayhoni yo'l yoqasiga chiqarib qo'yadilar. Ammo Yusuf yo'ldan o'tar ekan, unga parvo qilmaydi. Zulayho muhabbatiga erishish uchun Allohga munojot qiladi. Parvardigor uning O'ziga yalinib – yolvorib qilgan iltijolarini qabul qiladi. Yusuf Zulayhoni eslay boshlaydi. Hilola Safarova yozadi: "Shayyod Hamza o'z qahramoni muhabbatini sinash bilan aloqador yangi lavha kiritadi. Bu Zulayho nafasidan Yusuf qamchisiga o't tushgani haqidagi mo'jaz hikoyadir. Shu tariqa Yusuf qalbida Zulayho ishq o'lovlan boradi. Alloh irodasi bilan samimiy ishq tufayli Zulayho yasharib boradi. Alqissa, ular bir-biri bilan qovushib, o'n to'rt o'g'il ko'radi" [9, 43]. Iste'dodli dostonnavis Yusuf va Zulayhoning baxtli hayoti tasviri bilan o'z asariga nuqta qo'yadi.

H.Safarovaning aniqlashicha, Durbekning "Yusuf va Zulayho" asari XIV asrda shu mavzuda bitilgan mashhur dostonlarning uchinchisidir. Mazkur doston o'zbek adabiyotshunosligida keng o'rganilgan. Oliy va o'rta umumta'lim maktablari darslik va majmualarida, ilmiy adabiyotlarda mazkur asar haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Sattor Haydarov 1962-yilda "Durbekning o'zbek dunyoviy adabiyoti taraqqiyotida o'rni" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Durbek dostoni haqida: "Yusuf va Zulayho ishqiy-maishiy sarguzashti g'oyat go'zal, ko'lamlil, qiziqarli va ta'sirchan, o'ynoqi ohanglarda ifodalangan", - deb yozgan Hilol Safarova doston "Kitob nazmining ibtidosi" qismidagi quyidagi satrlarga ilm ahli e'tiborini tortadi:

Goh boqar erdim zi kitobi Qasas,
Goh ichar erdim zi sharobi g'usas.

Lek Qasas ichra vale mayli jon,
Qissai Yusufda edi, ul zamon

Bandayi bechoraga shomu sahar,
Qissai Yusuf edi andar-nazar [9, 43].

Olima fikricha, she'riy iqtibosning ikki o'rni "Qisas"ning tilga olinishi satrlar muallifining, eng avvalo, o'z ona tilida yaratilgan asarlarga, aniqrog'i Nosiruddin Burhonuddin o'g'li Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asariga murojaat qilgan, degan farazga olib keladi. Masalaning yana bir jihati shundaki, XIV asrning turkiygo'y shoiri Durbek uchun Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan "Qisasul- anbiyo"ning fors-tojik tilidagi xalq kitobi nusxalari ham begona bo'lmagan.

Biri nasrda, biri nazmda yaratilgan ikki asarni qiyosiy-tipologik asosda chuqur o'rgangan olim badiiy ijod tajribasida ko'p kuzatiladigan ijodkorning xalq kitoblari orqali u yoki bu adib ijodiy olamiga yo'l topishi, undan ta'sirlanib, ilhomlanib o'z asarini yaratishi tamoyiliga tayanib o'z xulosasini qat'iy bayon qiladi: "Ko'rinadiki, "Qisasul-anbiyo" asaridagi Yusuf alayhissalom qissasi muallifni mahliyo etgan, ilhomlantirgan. Shoir qo'liga qalam olib, turkiy tilda "Yusuf va Zulayho" dostonini yaratganining boisini shu xilda izhor etayotir. Durbek ishora etgan "Qisasul- anbiyo" aslida "Qisasi Rabg'uziy"ning xalq o'rtasida keng tarqalgan xalqona ruhda qayta ishlangan nusxasidir" [9, 44].

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari: "Sonsiz hamdu sanolar, saqishsiz telim o'gdular, ul izi azz ava jalla karim qudrati birla bizlarni odamiy yaratdi, yilqi qora yaratmadi, **va laqad karramna bani a'dama** [8, 9]", - deb boshlanadi. "Qisas" tarkibidagi "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom" asarining boshida ham yaxlit asar ibtidosida kuzatilgani kabi Qur'oni karim oyatlari keltirilib, undan keyin qissa bosh qahramonining ziddiyatli hayoti tasviriga o'tilgan. Nasriy matndan keyin berilgan olti baytlik she'rda Yusuf payg'ambarning mashaqqatlarga to'liq hayoti va undan keyingi nasriy jumalalarda Yusuf qissasining "Axsan ul-qasas" deyilishining sabablari badiiy talqin qilingan.

LITERARY CRITICISM

Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni ham Allohga hamd, Rasuli Akram (SAV) ga na’t bilan boshlangan.

Bir xil mavzuda yozilgan ikki asar o’rtasidagi tafovutlarni H.Safarova nozik anglagan. Olima talqinlariga tayanib, ularni quyidagi bandlarga ajratib aks ettirish mumkin:

1. Rabg’uziy o’z qissasida Yusuf akalari tomonidan tashlangan quduqni Nuh payg’ambarning o’g’li Som qaziganini, uning nomi “Hubbul – axyor”- “Ezgulik qudug’i” atalib, suvining achchiqligini qayd qiladi. Durbek quduq qadimgi podshohlardan Shayyod qavmi tomonidan qazilgan bo’lib, uning suvi sut kabi pok va totli deb ta’riflaydi.

2. Rabg’uziy asarida Yusufni chohga tashlaganlari bilan Alloh taolo Jabroil farishtaga “Uni ushlab ol”, - deb farmon beradi. Parvardigor karomati bilan quduq ichidagi katta tosh yumshoqlik kasb etadi. Jabroil alayhissalom Yusufga behi, joynamoz, ko’ylak keltirib beradi. Haq subhanohu va taolo unga payg’ambarlikni in’om qilganligi haqidagi xushxabarni yetkazadi. Durbek dostonida quduqqa tashlanayotgan Yusuf Yaratganga munojot qiladi. Haq amri bilan Jabroil quduq ichidagi toshni taxtga aylantiradi. Toj, kiyim va yegulik olib keladi. Tangri Yusuf alayhissalomni dunyo xalqlariga imom, Misr mamlakatiga podshoh qilishi haqidagi xabarni yetkazadi.

3. “Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom”da Malik Zarning ko’ngliga Misrdan Shomga safar qilish niyati keladi. Yusufni quduqdan Malik Zarning Bashir va Bushir ismli qullari tortib oladi. Bi ikki qul xojalariga qirq yil xizmat qilgan edilar, Yusufni quduqqa tashlanganiga esa to’rt kun bo’lgan edi. Durbek dostonida Molik Totir tush ko’rib, Mag’rib orqali kelib, Yusufni Kan’ondan topadi. Qullari Bashir va Bushir ko’magida uni quduqdan tortib oladi.

4. Rabg’uziy asarida akalari Yusufni 18 misr yarmog’iga sotadilar. Durbek dostonida u 20 dirhamga sotiladi.

Kirish. Xorazm xalq qo‘shiqlari nomi ostida kuylanadigan qo‘shiqlarning yarmidan ko‘pini doston qo‘shiqlari tashkil etadi. Xorazmlik ko‘plab mashhur qo‘shiqchilar dastlabki ta‘limni baxshilardan olgani buni isbotlaydi [1]. Dostonlar esa, xalqimizning hayoti, urf-odatlarini, qadriyatlarini va orzu-umidlarini aks ettiruvchi muhim adabiy manbalardan biridir. “Oshiq Mahmud” dostoni ham ana shunday xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan biri bo‘lib, uni o‘rganish va tahlil qilish o‘zbek adabiyoti hamda madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shadi. “Oshiq Mahmud” dostoni o‘zbek xalqining sevgi va sadoqat haqidagi tasavvurlarini, insoniy fazilatlarini aks ettiruvchi asarlardan biridir.

Doston qahramoni Mahmudning oshiqona his-tuyg‘ulari, qiyinchiliklarga bardosh berishi va sevgan yoriga erishish yo‘lidagi kurashi mazmunida yotadi. Ushbu asar xalq orasida keng tarqalgan va ko‘p yillar davomida og‘zaki ravishda avloddan-avlodga o‘tib kelgan. “Oshiq Mahmud” dostonining o‘rganilishi XX asrning o‘rtalarida keng ko‘lamda boshlanib, bugungi kunda ham davom etmoqda. Dostonning turli variantlari va ularning kelib chiqishi, qahramonlarning obrazlari, voqealar rivoji va ma‘nosi haqida ko‘plab

ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Dostonning xalq og‘zaki ijodida qanday shakllanganligi, undagi syujet va obrazlar tizimi, poetik xususiyatlari haqida qator adabiyotshunoslar tomonidan qimmatli asarlar yaratilgan.

“Oshiq Mahmud” dostonining O‘zRFA TAFI folklor bo‘limining qo‘lyozmalar fondida 1431-raqamli inventarda saqlanayotgan qo‘lyozmasi [2] mavjud. O‘zbek folklorini to‘plash, nashr ettirish va o‘rganishga katta hissa qo‘shgan J.Qobulniyozov Xorazm xalq dostonlari va qo‘shiqlarini yozib olib, xalfalar ijodini o‘rgangan. Bola baxshi Abdullayevdan “Bozirgon”, “Avazxon”, “Oshiq Mahmud”, Mahmud Yusupovdan “Oshiq Mahmud”, “Sayyodxon va Hamro” dostonlarini yozib olib, 1966-1970 yillarda chop ettirgan. 1966-yilda esa o‘zi to‘plagan xalq qo‘shiqlari asosida “Xorazm xalq qo‘shiqlari” to‘plamini nashr ettirgan [3]. Xorazm dostonchilik maktabi bir qancha xususiyatlari bilan ajratib turadi. Buning sabablarini tadqiqotchilar Xorazmning hududiy o‘ziga xosligi bilan bog‘laydilar. Xorazm vohasi hududiy jihatdan bir necha xalqlarning - o‘zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, tojiklar, qisman qozoqlarning madaniyati uchrashgan makondir. Shu sababli bu yerning dostonchilari “auditoriyaga qarab o‘zbekcha, turkmancha yoki boshqa tilda kuylay oladi”.

Tadqiqot metodologiyasi. Xorazm dostonlari hajman qisqa, mazmunli, bir vaqtda o‘ynoqi sozi, yig‘loqi nidosi bilan ham boshqa dostonchilik maktablari ijrosidan farqlanadi. Baxshilar doston ijrosi davomida tinglovchining yoshi, dunyoqarashi, kasbi-korini hisobga olib, o‘zidan shu tinglovchilar didiga, xohishiga mos jummalarni qo‘shib, davrada jonlanish paydo qiladi va doston oxiriga qadar shu holatni saqlab qoladi [4]. “Oshiq Mahmud” dostonida ham yuqoridagi xususiyatlar saqlanib qolgan.

Dostonni O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, I darajali mehnat faxriysi, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti dotsenti Otaxon Matyoqubov o‘zining ilmiy-ijodiy izlanishlarida ham teran o‘rganishga harakat qilgan. O‘zbek baxshichilik san‘atiga yuksak hissa qo‘shgan ustoz san‘atkor “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Avaz”, “Xirmondalli”, “Oqqan daryo oqar begumon”, “Shahidlar maskani” kabi dostonlar bilan birga “Oshiq Mahmud” dostonini ham baxshidan yozib olgan ekan.

Dostonlar o‘zining ijrochiligi bilan tirikdir. Shu sababli mazkur janrni ularning ijrochilari baxshilarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Qadimiy an‘analarga ega bo‘lgan o‘zbek eposining salmoqli qismini Xorazm dostonchiligi tashkil etadi va bir qator o‘ziga xos qirralari bilan umum o‘zbek dostonchiligidan ajralib turadi.

Xorazm dostonlarining xalq orasida targ‘ib qilinishi asosan ikki turli yo‘l bilan amalga oshib kelgan: A) baxshilar va dostonchi – ansambli xalfalar repertuarida orqali og‘zaki tarzda; B) yakka xalfalar va qissaxonlar repertuari orqali kitobiy matn o‘qib yoki yodaki eshittirish tarzida. Baxshilar repertuari haqida gapirganda shu narsani nazardan qochirmaslik lozimki, doston kuylash uslubi, baxshilarning ustozlik-shogirdlik an‘analari, ularning epik repertuari vohaning o‘zbeklar yashaydigan barcha hududda ham bir xil xususiyatga ega emas. Ular kuylanish uslubi, ijrochilari, repertuari hamda ishlatiladigan musiqa asboblarining turlari bilan o‘zaro farq qilinadi. Shu sababdan bu yerdagi dostonchilikni ikkita an‘ana asosida o‘rganishga tog‘ri keladi [5].

“Oshiq Mahmud” dostonini o‘rganishda folklorchi olimlar alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, dostonning turli variantlarini yig‘ish, ularni tahlil qilish, ilmiy izohlar bilan ta‘minlash kabi ishlar amalga oshirilgan. Ushbu jarayonda o‘zbek folklorshunoslari tomonidan dostonning turli yillarda to‘plangan variantlari taqqoslanib, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlangan. Bugungi kunda “Oshiq Mahmud” dostoni ham ilmiy, ham badiiy adabiyotda o‘z o‘rnini topib kelmoqda. Dostonning yangi talqinlari va uning asosidagi sahna asarlari, filmlar yaratilib, xalqimizga taqdim etilsa, madaniy boyliklarimiz soni yana bir karraga ko‘paygan bo‘lar edi. Shuningdek, yuqori sinflar, o‘rta va oliy ta‘lim muassasalarida ushbu dostonning o‘rganilishi orqali yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning adabiy savodxonligini oshirishda katta ijobiy kuch sifatida xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. “Oshiq Mahmud” dostoni o‘zbek xalqining boy adabiy merosidir. Uni o‘rganish va tahlil qilish orqali biz xalqimizning tarixi, madaniyati va urf-odatlarini haqida chuqurroq bilimga ega bo‘lamiz. Ushbu dostonning turli talqinlari va uning o‘ziga xosligi o‘zbek adabiyoti va folklori uchun katta ahamiyatga ega. Dostonning o‘rganilishi kelajakda ham davom etib, yangi ilmiy izlanishlar va badiiy asarlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

YouTube internet platformasiga “Alpomish media” xususiy korxonasini boshqarayotgan tadqiqotchi O‘ktam Hakimov dostonning Bola baxshi (Abdullayev Qurbonnazar) tomonidan ijro etilgan variantini (xorazm baxshilari: bola baxshi qurbonnazar abdullayev "oshiq mahmud"dostoni. (youtube.com)) joylagan. Ayni vaqtda Xorazm vohasidagi baxshichilik san‘atining o‘rganilishi, ilk manba‘lari, shoir-dostonchi, qiroatxon-qissaxon va sozanda-ijrochilar, xalfalarning ijodiy faoliyatlari va repertuarida “Oshiq Mahmud” dostoni o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

“Oshiq Mahmud” dostonining poetik tuzilishi, asarning xalq og‘zaki ijodi an‘analariga sodiq qolgan holda yaratilganligini ko‘rsatadi. Dostonda foydalanilgan she‘r tuzilmalari, qofiya va ritm orqali

qahramonlarning his-tuyg'ulari, voqealar rivoji aniq ifoda etilgan. Dostonning xalq orasida keng tarqalishiga uning o'qishli, eslab qolishga osonligi hamda musiqiy ohangga ega bo'lishi katta ta'sir ko'rsatgan, deyish mumkin. Dostonning poetik xususiyatlari orasida asar davomida takrorlanadigan frazalar va xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan metafora, epitetlar kabi badiiy vositalar mavjudligi ham alohida o'rin tutadi. Ushbu vositalar orqali qahramonlarning xarakteri, ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlari va dostonning umumiy mazmuni yanada kuchaytiriladi. Dostonning tarkibida xalq mifologiyasiga oid unsurlar va simvolizmning ishlatilishi asar mazmunini chuqurlashtiradi. Mahmudning boshidan kechirgan qiyinchiliklar, u duch kelgan sinovlar bilan bo'lgan kurashlari va ularni yengib o'tishi dostonni yanada jozibador qiladi. Ushbu mifologik unsurlar orqali doston o'quvchiga axloqiy saboq beradi, haqiqiy sevgi, sadoqat va jasorat kabi qadriyatlarni ulug'laydi.

“Oshiq Mahmud” dostonining bugungi kundagi ahamiyati ham o'zgarmagan. Asar xalqimizning milliy o'zligini, madaniy merosini saqlab qolishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, “Oshiq Mahmud” dostoni xalq ijodiyotining yuksak namunasi sifatida o'rganilishi bilan birga, zamonaviy adabiyot va san'at asarlariga ham ilhom manbai bo'lmoqda. “Oshiq Mahmud” dostoni haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar juda keng qamrovli deya olmaymiz. Ammo, dostonning turli jihatlarini o'rganish hali ham davom etmoqda. Kelajakda, dostonning yangi variantlari, ularning o'ziga xosligi, qahramonlarning obrazlari va asarning mavzulari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilishi mumkin. Bundan tashqari, dostonning zamonaviy talqinlari, uning boshqa tillarga tarjimalari va ularning boshqa madaniyatlarda qanday qabul qilinishi ham alohida o'rganish sohalarini sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Ushbu izlanishlar nafaqat adabiyotshunoslik balki, madaniyatshunoslik va tilshunoslik sohalarida ham qimmatli natijalar berishi mumkin. “Oshiq Mahmud” dostoni o'zbek xalqining boy adabiy merosi bo'lib, uni o'rganish orqali xalqimizning tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarini yanada chuqurroq tushunish mumkin. Dostonning o'rganilishi nafaqat o'zbek adabiyoti va folklori balki, butun xalqimizning madaniy hayotida muhim o'rin egallab, kelajak avlod uchun ham bebaho manba bo'lib qolishi shubhasiz. “Oshiq Mahmud” dostonining o'zbek xalq madaniyatidagi ahamiyati faqat adabiy meros sifatida emas, balki uning tarbiyaviy jihatlarida ham yotadi. Doston orqali yosh avlodga sadoqat, jasorat, mardlik va to'g'rilik kabi insoniy fazilatlar o'rgatiladi. Mahmudning qiyinchiliklarga qaramay, o'z maqsadiga yetish yo'lida ko'rsatgan matonati, xalq orasida keng tarqalgan qahramonlik afsonalari bilan uyg'unlashib, o'quvchilarda mustahkam axloqiy asoslarni shakllantiradi.

Asarda namoyon bo'ladigan sevgi va sadoqat mavzusi yoshlar uchun axloqiy o'gitlar bilan boyitilgan. Oshiq Mahmudning sevgi yo'lida chekkan aziyati, unga erishish uchun kurashi orqali yoshlarga hayotdagi muhim qadriyatlar, orzu-maqсадlarga yetishish uchun kerak bo'lgan sabr-toqat va kuch-g'ayrat haqida saboq beriladi. Dostonni o'rganish orqali o'quvchilar o'zbek xalqining boy adabiy merosi bilan tanishadi, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni o'rganadi va badiiy didini rivojlantiradi. Maktab ta'limida dostonni o'rganish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Dostonning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, qahramonlarning obrazlarini tahlil qilish va voqealar rivojini tahlil qilish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishni, adabiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Doston nafaqat adabiy meros balki, o'zbek xalqining turmush tarzini va qadriyatlarini aks ettiruvchi madaniy yodgorlik sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu asar xalqimizning boy ma'naviy merosini kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Dostonning bugungi zamonda ham dolzarbligini saqlab qolishi uning universalligi va abadiy qadriyatlarni ulug'lashida yotadi. “Oshiq Mahmud” dostoni qayta chop etiladigan yoki elektron kitob holatida taqdim etiladigan bo'lsa xalqimiz orasida sevib o'qilishi va yangi avlodlar tomonidan o'rganilishi, o'zbek madaniyatining uzluksiz rivojlanishida va uning boy adabiy merosini saqlab qolishda ham katta ahamiyat kasb etgan bo'lardi. Kelgusida “Oshiq Mahmud” dostonini o'rganish yanada chuqurlashtirilishi mumkin. Xususan, dostonning zamonaviy talqinlari va ularning xalq og'zaki ijodiyoti bilan bog'liqligi bo'yicha tadqiqotlar olib borish, dostonni xalq hayotining turli bosqichlarida qanday qabul qilinganligini o'rganish kabi yo'nalishlarda yangi ilmiy izlanishlar olib borish lozim.

Dostonni chop ettirish, boshqa tillarga tarjima qilish va uni xorijiy adabiyotshunoslikda o'rganish orqali o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti va madaniyatini dunyoga tanitish, milliy adabiy merosimizning global miqyosda tanilishiga hissa qo'shishi mumkin. Bu borada xalqaro konferensiyalar, seminarlar va nashrlar orqali dostonni targ'ib qilish, uning xalqaro adabiyot va madaniyat doirasida tanilishiga erishish mumkin. “Oshiq Mahmud” dostoni faqat xorazm doton ijrochilig doirasida emas, balki boshqa madaniy kontekstlarda ham qiziqarli tadqiqot obekti bo'lishi mumkin. Dostonning qahramonlari va voqealari, boshqa xalq og'zaki ijodi namunalardagi motivlar bilan solishtirilsa, umumiylik va o'ziga xoslikni aniqlash mumkin. Bu esa o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining jahon madaniy merosidagi o'rnini aniqlashga yordam beradi.

Ayrim tadqiqotchilar “Oshiq Mahmud” dostonini turkiy xalqlar folkloridagi sevgi eposlari bilan solishtirib, uning umumturkiy motivlarga asoslanganligini aniqlashga intilishadi.

Shu bilan birga, asar milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolgan holda, xalqimizning tarixiy-madaniy tajribasini ham o‘zida aks ettiradi. Dostonni spektakl qilib saxnalashtirib, xalqaro adabiy forumlar, simpoziumlar, anjumanlar va ko‘rgazmalarda dostonning namoyishi orqali, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti turkiy dunyo adabiyotiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatish mumkin. Bunday ijodiy ishlar nafaqat o‘zbek adabiyotini, balki xalqimizning qadriyatlarini, urf-odatlarini va madaniy boyliklarini xorijliklarga tanitish imkonini beradi. Doston asosida sahnalashtirilgan teatr spektakllari yoki kino filmlari xalq orasida keng qabul qilinib, milliy san’atning rivojlanishiga hissa qo‘shgan bo‘lar edi. Mazkur mavzu yuzasidan ilmiy ishga manba yig‘ish mobaynida O‘zbekiston va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan dostonning tuzilishi, syujeti, qahramonlari va badiiy obrazlarining tahlili bo‘yicha tadqiqotlar juda kamdir. Doston yanada chuqurroq o‘rganilsa, doston motivlari zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham aks etib, yangi avlod yozuvchilari e‘tiborini tortgan bo‘lardir. Ushbu asar asosida yangi hikoyalar, romanlar yoki she‘riy asarlar yozish mumkin. Ushbu asarning talqinlari va tahlillari orqali xorazm dostonchilik maktabining boshqa turkiy xalqlar madaniyati bilan o‘zaro ta‘sirini, umumiylik va o‘ziga xoslikni aniqlash mumkin. Dostonning xalq orasida qanday tarqalganligi va shakllanganligi haqida to‘liq ma‘lumot beruvchi tadqiqotlar mavjud emas. Badiiy tahlili jihatidan dostonning poetikasi, badiiy vositalari, obrazlar tizimi va syujet xususiyatlari o‘rganilmagan. Bu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar dostonning badiiy qiymatini aniqlash va uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini belgilashda yordam beradi. Dostonning boshqa xalq eposlari bilan qiyosiy tahlili, uning umumturkiy eposlar orasidagi o‘rni va boshqa madaniyatlar bilan bog‘liqligi haqida ham izlanishlar olib borilish zarurligini ko‘rsatadi.

Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar dostonning umumiy madaniy kontekstdagi ahamiyatini yoritishga yordam berishi mumkin

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash mumkinki, “Oshiq Mahmud” dostoni nafaqat xalqimizning urf-odatlarini va an‘analarini aks ettiradi, balki insonning ichki olami, sevgi va sadoqat kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham yuqori darajada ifoda etadi. XX asrga kelib baxshichilik san‘ati, shuningdek, dostonchilik dunyoning ko‘pgina hududlarida so‘nish arafasiga keldi. Tadqiqotlar orqali folklor namunalari unutilishini oldini olish, bu borada izlanishlar qilgan olimlar faoliyatiga oid monografiyalar yaratish folklorshunoslik sohasida qilingan barcha tadqiqotlarni tasniflash va talqin orqali keng xalq ommasini folklor namunalari qadrlashga undovchi omillar kerak bo‘la boshladi. Hali o‘rganilish zarur bo‘lgan mavzu va tadqiqot manbalari folklore sohasida g‘oyatda ko‘p. Shu bilan birga, mazkur doston bo‘yicha hali ham to‘liq o‘rganilmagan jihatlar talaygina. Xususan, dostonning zamonaviy adabiyotga ta‘siri pragnoz qilinmagan. Kelajakda ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha olib boriladigan izlanishlar dostonning ilmiy o‘rganilish doirasini yanada kengaytiradi va milliy madaniyatimizga qo‘shimcha yoritishlar olib keladi. Umuman olganda, “Oshiq Mahmud” dostoni o‘zbek xalq ijodiyotining muhim qismi bo‘lib, uning ilmiy tadqiqoti adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohasidagi ilmiy ishlar uchun boy manba bo‘lib xizmat qilaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Toshmatov O‘. *Baxshi doston kuylasin* // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2021. – № 215.
2. Sabirova N. *Shevashunoslik va folklorshunoslik xorazm baxshichilik an‘analari: kecha va bugun* // “Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta‘lim texnologiyalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferenciya materiallari to‘plami. – Nukus, 2022. – B. 251-256.
3. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. *Folklorshunoslikka kirish*. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – B. 180.
4. Yaqubova M. *Xorazm dostonlari va ularning etnomadaniy tavsifi* // “Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali. – Toshkent, 2023. – №1/4. – B. 5-7.
5. Karimova M. *Xorazm xalfachiligi va baxshichiligi san‘ati tadqiqi masalalari* // *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers. 2023. – B. 871-886.

AMIR TEMUR HAQIDAGI ASARLARDA HAYOT HAQIQATI VA BADIY TO'QIMA

Yaxshiyeva Zebo Rashidovna,

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
Qarshi filiali "Axborot ta'lim texnologiyalari va gumanitar fanlar" kafedrası mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
zebona.sevinch@gmail.com
ORCID:0009-0006-0973-6147*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashhur Ozarbayjon adibi Husayn Jovidning "Amir Temur" romaniga kiritilgan bosh qahramon obrazining boshqa asarlar bilan farqli jihatlarini o'rganilgan. Ushbu o'rganilishda tarixiy-germenevtik, tarixiy- qiyosiy metodlar vositasida qiyoslanayotgan asarlarning farqli jihatlarini ochib berishga harakat qilingan. Shu bilan birgalikda, tarixiy shaxs bo'lgan Temurbekning badiiy asarlarga ko'chirish mezonlari ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: obraz, syujet, prototip, fabula, Husayn Jovid, dramaturgiya, "Zafarnoma".

ПРАВДА ЖИЗНИ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВООБРАЖЕНИЕ В РОМАНАХ ОБ АМИРЕ ТЕМУРЕ

Аннотация. В данной статье исследуются различные аспекты образа главного героя, вошедшие в роман известного азербайджанского писателя Хусейна Джавида "Амир Темур", в сравнении с другими произведениями. В данном исследовании предпринята попытка выявить различные аспекты сравниваемых произведений с помощью историко-герменевтического и историко-сравнительного методов. В то же время научно изучены критерии отнесения Темурбека, исторической личности, к произведениям художественного сюжета.

Ключевые слова: образ, сюжет, прототип, фабула, Хусейн Джавид, драматургия, Зафарнома.

TRUTH OF THE LIFE AND ARTISTIC IMAGINATION IN NOVELS ABOUT AMIR TEMUR

Abstract. This article examines the differences between the image of the main character included in the novel "Amir Temur" by the famous Azerbaijani writer Husayn Javid and other works. In this study, an attempt was made to reveal the different aspects of the works being compared by means of historical-hermeneutic, historical-comparative methods. At the same time, the criteria for copying Temurbek, a historical figure, into works of art were scientifically researched.

Keywords: image, plot, prototype, fabula, Husein Jovid, dramaturgy, Zafarnoma.

Kirish. Ma'lumki, o'rta asrlar Markaziy Osiyoda markazlashgan saltanat asoschisi, o'z zamonasining tengsiz sarkardasi va mohir jang san'ati ustasi bo'lmish Sohibqiron Temur bobomiz haqida butun dunyoda bir necha yuzlab ilmiy, badiiy va tarixiy asarlar bitilgani sir emas. Shunday izlanishlar davomida mashhur yana bir asar "Amir Temur" dramasi muallifi taniqli Ozarbayjon shoiri va dramaturgiyasining buyuk vakili Husayn Jovid Turkiyada uzoq yillar tahsil olgan, turklarning Amir Temur haqidagi uydirmalarini eshitgan va rivoyatlarini o'qigan holda, buyuk sohibqiron haqida holislik bilan qalam tebratishga kirishgan adiblardan sanaladi. Uning o'z davrida aksariyat kitobxonlarga ma'qul bo'lgan "Amir Temur" asarida o'tmish voqealarini haqqoniy yoritilganligi va Yildirib Boyazid bilan kelib chiqqan ixtilofning tub mohiyatida turk sultonining kibri asos qilib olingan. Asar bosh konfliktiga aylangan ikki yurt sultonlarining muhorabasining kelib chiqish sabablarida ham ikki tarixiy siymolarni badiiy talqin etishda, tarix haqiqatini buzib ko'rsatmaslikka harakat qiladi. Qahramonlar: Amir Temur- tarixiy shaxs bo'lsa, bir qator to'qima obrazlar sanalmish Dilshod- Temurning suyukli xotini, Oqbug'a- Temur sardorlaridan biri, Urxon- mingboshi, Olmos- devonbegi-bosh vazirning qizi, Urxonning xotini, Olga-Urxonga ko'ngil qo'ygan rus qizi, Subutoy-yosh zobit, Qoraqush- vahimachi ayol, Temurqoya- barvasta, yog'on ovozli sarboz va boshqalar. Asar konfliktining ikkinchi qutbida tarixiy shaxs bo'lgan Yildirim Boyazid, uning tarafidagi obrazlar Ali Podsho-

sadri a'zam, Shayx Buxoriy- fozil bir kishi, Jo'ja –pakana masxaraboz, Nozim og'a- qora ori q arab- haram og'asi, Qishloqlik ayol, raqqosa qiz, jallod va boshqalar ishtirok etishadi.[1;43-78]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Husayn Jovid qalamiga mansub “Amir Temur” asari garchi qator to'qima obrazlar, tarixiy fabulaning badiiylashtirilgan syujet shakllari bilan boyitilgan bo'lishiga qaramasdan, dramaturg tarixiy ma'lumotlarni chuqur o'rgangan holda tarixiy germeneytik usula yordamida ularni o'z asariga kiritadi, muallif sifatida ikkisini ham adolat tarozusida baholaydi. Sohibqiron Temur asarda turkiy, musulmon elatlar va xalqlar birligi va tinchligi uchun kurashuvchi diplomat, tajribali sardor va tadbirli davlat boshqaruvchisi talqinidagi tarixiy shaxs prototipi asosidagi badiiy obraz bo'lsa, Turk sultoni Boyazid Turon sultonini mensimasligi va pisand etmasligi bilan o'tmish solnomalarida qolgan siymo, Jo'ja, Shayx Buxoriy obrazlari orqali uning tarixda qilgan xatti-harakatlari asarning badiiy syujetlarlari rivojida ochib beriladi. Shuningdek, Amir Temurning islomga e'tiqodi baland musulmon vakili ekanligi, savdo va san'atshunoslikni, hunarmand va olimu fuzaloni, mamlakatlar obodligi va memorchiligi ravnaqi rahnamosi sifatida tarixan dalillangan siymo ekanligini ushbu shaxsni ideallashtirmagan holda, muallifga xos muhabbat bilan ko'rsatib berishga intiladi.

Asar avvalida Temurbek saroyi muhitini tasvirlashda Turon sultoni go'shasi butun dunyoning eng sara va noyob san'at namunalari asosida bezatilgani, atrof esa doimgidek go'zal bog'lar bilan o'ralgani tasvirlanadi. “Samarqand. Amir Temur saroyida sharqona bezatilgan go'zal bir qasr. U Turkiston, Eron, Hindiston jihozlari bilan bezatilgan... Oldinda katta bir deraza, derazadan gullarga burkangan ajoyib bir bog' ko'zga tashlanadi...” Bu tasvirda go'zal bog'ning tasviri ham to'qima tasvir emas, Yazdiy asarida keltirilgan Amir Temurning bog'lar barpo etish bo'yicha ixlosmand ekanligini, Klavixoning o'z kundaliklarida “Jannat bog'lari” tasvriga monand.

Ozarbayjon shoiri Rui Gonsales de Klavixoning Amir Temur tashqi ko'rinishiga bergan ta'riflarini yanada boyitib, o'z asarini badiiylashtiradi: “U o'rta bo'yli, yag'rindor, keg manglayli, boshi katta, oq yuzli, yonoqlari qizg'imgir, yelkalari keng, barmoqlari baquvvat, chakkalari cho'ziq, go'yat sog'lom shaxs.” Asarda Temurbek zamonidagi orombaxsh kunlar, sayllar, osuda va shonli hayot tasvirlari, kitobxonni o'sha davr Samarqand atrofidagi daralarga yetaklaydi: “Zarafshon daryosi bo'yinda Bingul darasidagi zafq safoli sayllar, yashil adirlar ustiga tikilgan chodirlar, Arab va Eronga xos nafis pardalarning qiyosi yo'qdir. Xindistondan kelgan uyinchilar, askiyachi va latifago'ylar, raqqos va raqqosalar. Pahlavonlar kurashi, rang-barang matolar bilan bezatilgan fillar, har xil musobaqalar, tengi yo'q hayratmuz turfa xonandalar. Tantalarda amir va shahzodalar xotinlarining, butun turk qizlarining ishtiroki turli ellardan kelgan ajnabiylarni lol etur. Buyuk Temurning bu hashamatlarini ko'rgan har bir kishi hayratdan o'zini yo'qotib quyur. [2;47]” Demak bu manzaralar tasviri o'z o'zidan bo'lib qolgan emas, u esa bosh qahramon tilidan aytilganidek, “Samarqanddagi muhtasham saroylar va oliy madrasalar, buyuk obodalar faqat fathu safarlar tarixidir.” Shu o'rinda XX asr boshida yashab o'tgan Ozarbayjon shoiri Temur tilidan Samarqandda mavjud “Ma'budlar”ni keltiradi. Bizningcha, bu yerda turli din vakillarining ham musulmonlar qatori o'z e'tiqodida ekanligi, turli yurtlar fath etilgandan so'ng, olib kelingan olimu, hunarmandlar ham Samarqandda bir diniy bag'rikenglik asosida o'z ibodatlari bilan mashg'ul va mavjudligiga ishora deb tushunish mumkin[3;30].

Asarda Amir Temurning ahli ayollariga o'z shikoyatlari bilan kelgan kekxa dehqonlar, mansabdorlardan jabr ko'rgan oddiy xalq vakillarining arzi mamlakat sultonining nazoratiga olinishi, xolis guvohlar va qattiq surishtirovlar natijasida bularning bartaraf etilishi asar voqealari silsilasida ko'rsatilsa, aynan bu syujetlar asar muallifining tasavvurlari emas, balki u tarix tasdig'i, bu jarayonlar bayoni aynan “Temur tuzuklari”da ham keltiriladi. Demak, muallif asarga qalam qoralash jarayonida buyuk Sohibqironning qonunlari jamlanmasi - “Temur tuzuklari”dan ham xabardor bo'lgani oydinlashadi. Shuningdek, sohibqironning har bir muhoraba oldidan o'tkazajak mashvaratlari haqida asar qahramonlari tilidan aytilishi, tarixda ham sohibqironning kengashlar va mashvaratlarni muntazam o'tkazib kelganligi isbotidir. Asarda Temurbekning insoniy tug'ularni qadrllovchi, inson ko'ngilshunoslari - shoirlarni ardoqllovchi va shu bilan birgalikda, o'z hayotiy maqsadlarini yana bir to'qima obraz Shoirga ifoda etgan buyuk qalbli siymo ekanligi oydinlashadi: “Afsuski, inson nomi bilan yurgan ba'zi ikki oyoqli hasharot kabi qabix va razillarni... tartibga solmoq uchun, ularning qurum va chirkin bosgan vijdonlarini tozalamoq uchun Temur qilichi lozim. Hayhot, insonlar marhamat va muhabbatdan ko'ra ko'proq dahshat va kuch quvvatga topinurlar.”[4;50] Bu yerda Amir Temurning o'z hayotiy maqsad va hayratlari, ilinj va tashvishlari, ko'ngil va aql, g'azab va mehr murosasi yozuvchi tomonidan mahorat bilan poetik talqin etiladi. Eng ajablanarlisi, Turkiyada tahsil olgan, turklarning Amir Temur haqidagi tasavvurlarini XX asr boshida chil-parchin qilgan bu asar turklarning o'zlari tomonidan ham iliq kutib olinadi va mashurlik erishadi. Amir Temur shaxsiyatini, u bosib o'tgan harb yurishlari, davlat tutumini sinchiklab o'rgangan Husayn Jovid katta bir mahorat bilan badiiyatda yana bir Amir Temur obrazini boshqaruvdagi podshoh va hayotda qalbi ummon orzular va

nadomatlarga to'la inson sifatida talqin etib, uning ulkan saltanat rivojidadagi siyosat negizini shunday bayon etadi: "Har bir sajiya va shaxsiyat bir qonundir. Men hozirga qadar biron qurultoyisiz, sho'rosiz ish qilganim yo'q. Men hamisha fozil va oqil kishilarni tingladim, buyuk sardorlar ila mashvarat qildim. Faqat harb va urushlarni emas, sulh manfaatlarini ham ko'zda tutdim. Men shu chek-chegarasiz o'lkalarni goh tadbir va siyosat ila, goh sulh va muhabbat ila, goh tahdid va shiddat ila, goh avfu mulozamat ila idora etmak istaydurman. Men har ishda sabot va matonatni sevganim kabi hazmu ehtiyotdan ham ko'nglim hush tortadir, lozim bo'lsa ba'zan dushmaningizga ham sabr va tahammul ko'rsaturman, ba'zan esa g'ofil va johil ko'rinmakdan ham zavq olurman."

Muhokama. Husayn Jovudning ushbu asarida katta tarixiy ahamiyat shundaki, u o'z dramasi orqali Yevropaning asrlar mobaynida sahnalarini bezab kelgan Kristofer Marlning "cho'pon yigitning o'z kuchi va tadbiri bilan, to'pori hayotida bilagi kuchi orqali, zo'rvonligi tutumidan saltanat tuzgan" Temburleynidan, Nikolas Rouning "uddaburonligi va taqdiri porlab kulganidan, sarkardalik hiylalari kuchidan taxtga kelgan" Temurlangidan, Charlz Sanderzning "oddiy oilaning yetishmovchiligi vazijdan alam va yo'qchilikdan talonchilik va qarochilikdan o'sib chiqqan" Temurleynidan batamom o'zgacha obrazi bilan teatr sahnalari bezadi. Yevropada ushbu asar ta'siridagi "ideal sarkarda va adolatli podshoh" Temuri XX asr dunyo olimlari tomonidan taqdim etila boshlandi. Bu salbiylikdan ijobiylikka erishuvda Husayn Jovudning ham ushbu asarining ta'siri katta.[5;137] Chunki, asar syujetini yaratishda tarixiylik mezonlarini bo'rtirmagan yohud to'qima obrazlarga burkamagan tarzda badiiylik kompozitsiyasini shakllantirish Husayn Jovudning ushbu asarining o'qimishliligini ta'minlashga xizmat qilgan.

"Amir Temur" asari orqali Husayn Jovud Yeldirim Boyazidni may ichishga mukkasidan ketgan, kalondimog' va doimo sarhush, bu sarhushlik oqibatida atrofidagi takaburlarni ko'ra olmaydigan darajada manfur shaxs sifatida sahnaga chiqaradi. "Yildirim esa sharobning quli. Hayhot, shunday kunlar keladirki, mag'rur yildirim o'z poytaxti Bursada oqsoq Temurni kutib oladir, o'shanda... faqat o'shanda o'z sarxushligining oqibatini va mening kim ekanligimni anglab yetadir". Asarda musulmon olamining ikki buyuk fotihining o'zaro janga kirishuvi, ularni chetdan kuzatib turgan ajnabiy qirollar uchun bir imkon ekanligi dono vazir Devonbegi tomonidan go'zal bir tarzda ifoda etiladi: "Har ikkingiz Turon olamining ikki qutbidirsiz. Shul ikki qutb bir-biri bilan chopishsa, o'rtada falokatli bir o'p'qon paydo bo'lar va bu nifoqdan foydalanish ilinjida yurgan atrofdagi ajnabiy davlatlarga turk dunyosini zabt etmoq uchun imkon tug'ulur." Afsuski mana shunday jangga sharoit yaratilgan kibr va manmanlik natijasi ham asarda ta'sirli bir tarzda kitobxonlarga yetkazilgan. Ushbu urushni tezlashtirishda muallif Temurbek tilidan "Olloh yagona bo'lgani kabi podshoh bitta bo'lmog'i lozim" iqroriga kelishini Yildirim Boyazid bilan murosalyu madora yo'lini tutishni istagan Temurbekka qo'rs va masxaralash javobi natijasida, bir musulmonning ikkinchi bir musulmon cho'zgan qo'lni siltab solar ekan, bu kibrga javobning maquli, iqrori yagona podshoh lozimdir degan fikrga kelishi xulosasi bilan ikki yurt sultonlari janggi boshlanadi. Ikki turkning urushlaridan payt poylab turgan Obro'palilar va dushmanlarga Temurning mardonavor hitobi yangraydi "turk avlodi faqat bosib, qirmoqdan emas, yashamoq va yashnatmoqni ham bilur. Zero hozirga qadar yaratganlarimiz hech narsa emas. Bu madaniyatni rivojga bizning avlod kamolga yetkazgay. Boshlangan bir odim, kelajak uchun bir ibtido, xolos. Biz boshlagan yumushlarni kelgusi butun mamlakat taraqqiyoti uchun namuna bo'lmog'i lozim. Biz faqat buning tamal toshini quyurmiz. Bu tamal toshu uzra muhtasham binolar, qurmak, bu diyorni gullarga burkamak, bu mas'uliyat keyingi nasllarning, sabotli avlodlarning zimmasiga tushgay." [6;53]

Asarda "Temurnoma" asarini bitayotgan Shoir tilidan aytilgan ta'rif ham badiiy zamon kategoriyasini asarda tarixiy fabula asosida ro'yobga chiqarishda mahoratli amalga oshirilgan. O'z davrida sohibqiron davlatiga berilgan madhlarni, buyuk mamlakatlar sultonining shonu shavkatini, Ovro'padagi mavqeyini, mamlakat poytaxti Samarqanddagi madaniy hayotni tasavvur qilishga yordam beradi. Ayniqsa, asarda dunyo muzaffar qahramonlarini tiz cho'ktirgan Temurning olimu ulamo, shoir va adiblar, fozil kishilarni hurmatlashi, ularni omonlikda saqlashi va mehr muhabbat ko'rgizish tasvirlari barcha zamon tarixchi va solnomachilari tasdiqlagan ma'lumotlar bilan monand. Bu tasvirlar garchi XX asr Ozarbayjon shoirining badiiy tasavvurlari bo'lsa-da, ammo bu voqealar fabulasi tarixiy voqeliklaridan, Ali Yazdiy va Shomiy "Zafarnomalaridan", Kalvixo hamda Ibn Arabshoh tasvirlaridan oziqlanganligi shubhasiz.[7;25-30] "Temur mamlakatlarni fath etgay, eng shijoatli qahramonlarni tiz cho'ktirgay, faqat mo'tabar shoiri adiblarni, olimu fozil shaxslarini hurmatlab, mehr muhabbat ko'rgazur. Zero, Samarqand xonadonlari, musofir xonadonlargina emas, shahar atrofidagi ko'shklari bog'larga ham olisdan kelmish fan va san'at arboblari sigmay qolayotir. Nainki, Sharq davlatlari, xatto Mag'rib hukumatlari ham elchi va savdo vakillarini muttasil jo'natib tururlar." Mana shu tasvirlarda tarixiy manbalarni badiiy asarda akslanishi masalasini yuzaga chiqarishda xronotop masalariga alohida ahamiyat qaratish zarur bo'ladi. Chunki, kitobxon bunday madaniy hayot gullab yashnagan Samarqandda o'sha zamon ruhi bilan yashar ekan, makon xronotoplari-

Samarqandning olimlarga to'lib tushgan hayoti, atrofdagi ko'shklarning ham ulamolar bilan band ekanligi, Sharq va Mag'rib hukumatlarining mana shunday katta madaniyat o'chog'idan xabar keltirishi, aloqalar o'rnatishi uchun o'z elchi va savdo vakillarini muntazam yuborib turishi tasvirlari bilan yanada jonlanadi. Ushbu asarda shuningdek, tarixiylik masalasini badiiylikka aylantirishning muhim unsurlaridan bo'lgan maktub yozuvchining poetik mahoratini amalga oshirishda muvaffaqiyatli unsur sifatida tanlangan. Yildirim Boyazidning kibrga to'la maktublari, Temurning bosiqlik bilan bir necha marotaba qayta elchilar jo'natish lavhalarini bu nazariy qarashlarni asoslaydi. Asarda shuningdek, maktublar vositasida Temurning sevimli ayollaridan Dilshod begimga arz bildirgan dehqonlar, Mironshoh Mirzo siyosatidan norozi, isyon ko'targan Ozarbayjon eli vakillari, mamlakatning turli burchaklaridan kelgan hufyalar nomalari bunga misol bo'la oladi. Turon sultoni boshqargan mamlakat siyosiy ahvoluti, halq turmush tarzi, tarixiy haqiqat bo'lgan isyonlarni asarga muallif xronologik ketma-ketlikda kiritib tashlayverishdan qochish, asar badiiyligini oshirish, sahna asarini tinglovchi va tomoshabinga ta'sirchan usulda yetkazish vositasi uchun maktub poetik vositasidan unumli foydalangan.

Natijalar. Shu vaqtga qadar badiiy adabiyot, xususan, nasriy asarlarda inson ruhiy borlig'i bilan mushohada qilinadigan, munozara yuritiladigan ko'plab o'ziga xos jihatlarni nazariy-ilmiy tamoyillar negizida tadqiq qilish malakasiga ro'baro' kelganligimiz ayni haqiqatdir. Negaki, badiiyat durdonalarida inson ruhiy borlig'i u yoki bu tarzda zuhur etilishi mumkin. Lekin bu, bir tomondan, to'g'ri ilmiy mushohadalar sirasiga kiradi. Biroq tarixiy tipik asarlarda o'sha davr kayfiyatini, inson taqdiri bilan olamga nazar tashlash, o'sha davrda amalda bo'lgan arxaik qadriyatlar ma'lum ma'noda adabiy asar kompozitsiyasini bir maromda birlashtirishi tayin.[8;138] Musulmon elida tarbiyadan va ilmdan singan oilaviy rushtalar muqaddasligi, otaning farzand uchun doimo qayg'urib turishi, yorning oilasi oldidagi sadoqati va mas'uliyati, davlat boshlig'ining raiyyat oldidagi g'amho'rliqi masalasi doimo ustuvor sanalgan. Husayn Jovid asarida ham Temurning og'li Mironshoh tarafdin kelgan isyon sadolariga nisbatan ota o'g'linigina uylab, uni erkini o'zida qoldirmadi, xalqni noroziligiga sabab bo'ladigan ishlar sodir etildimi, buni tezlik bilan taftishga tortish, o'z farzandini bu yo'lga boshlaganlarni aniqlash chorasi uni o'ylantiradi. "Oh, Mironshoh, Mironshoh, agar unda jindek tadbir va siyosat bo'lsa edi, hech kimsa uning izmidan chiqmas edi. U yerni idora etmak uchun sog'lom va tadbirkor bosh lozim. Afsuski, Mironshoh kabi besabrlar bu xislatdan juda yiroqdir". Tasvirda otaning o'z o'g'lini yosh va besabrligini, bu esa davlat boshqaruvida pand berishini otalarcha mehr va qayg'urish bilan tilga olinadi.

Asarda Temurga dono maslahatchi ayol, turmush toshu tarozusini ushlab turishni burchi sanagan oqila beka rolida Dilshod begim shubhasizki, Saroymulkxonim prototipiga mos keladi. U uzoq safarga ketayotgan Urxonga usiz yog'iz qolayotgan rafiqasiga "Olmos yolg'iz qolayotir, ko'nglingni unga qoldirib ketganing ma'qul" xitobi, oilaning muqaddas ekanligi, o'z yorini vazifasi o'laroq ayshu ishratda ko'rsa-da, xiyonatda ayblasa-da juda og'ir tuyulsada, sabr etishga undagan beka tasallilari Olmos bekaning iztiroblariga taskin bo'lishini uylaydi.

Ma'lumkin, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishda "yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi va yangidan ta'sirli va jonli, tabiiy va go'zal tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit syujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi".[9;80] Ko'rinadiki, tarixiy haqiqat (syujet) badiiylashganda muayyan shaklda ijodiy tasavvur va qayta idrok qilish negizida yanada jonlilik kasb etadi. Unda muhit va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar hamda personajlar tabiatidagi o'zgarishlar (inqiroz va yuksalish) voqelikni bir maromda kechishida, ya'ni asar ruhiyatini anglashda qo'l keladi: Yildirim Boyazidning Amir Temur maktublarida bir-biridan qo'rs va sovuq jaboblarini har bir yozuvchi har xil tasavvurda, turli faktlarga asoslangan tarzda, urush boshlanishiga asosgacha qabihlashtirib bitganini turli asarlarda turlicha talqinda o'qiydiz. Husayn Jovidning "Amir Temur"ida esa bu manzarada Yildirimning o'zini yakka ayblamaydi, sulton atrofidagi laganbardor, o'z maqsad va manfaati yo'lida sultonni gij-gijlovchilari davrasida tasvir etishni, ular ta'siri ostida, ularning sultonga cheksiz maddohliklari va uni kuch qudratda tengsizlikka ishontirishlari, bir oqsoqqa quloq solish unga sharmandalik ekanligiga undashlari vajlari oqibatidagina mana shu siyosiy jarayonlar harakatlanganini urg'ulaydi. Shuningdek, Yildirim Boyazidning kayfu safoda, sharoblar ta'sirida yanada olovlanganligini, unga qadah uzatganlar sultonni aqlidan mosuvo etgan holdagina uni ishonchiga kira olishlarini, unga dunyoning yarmini mag'lubiyatsiz egallagan Temur siymosini tasavvur etishlari uchun masxaraboz obrazidan foydalanishlari, bu esa atrofidagi Ali Podsho va Jo'ja, ularning pinjiga kirgan Qora Yusuf va Ahmad Jaloyirlar Boyazidni "Xudoning yerdagi soyasi" dega maddohlik bilan uni ko'klarga ko'tarishi, o'zlarini o'ylab sultonni ko'zlarini pardalashi sabab qilib olingan.

Xulosa. Demak, asarda nozik ishoralar orqali Yildirim o'zini tengsiz hisoblab turar ekan, aslida uning fuqarolari ahvoli dono olim Shayx Buxoriy tilidan ifoda etiladi. "Yildirim podsho ichadigan sharoblari

LITERARY CRITICISM

yo‘qsil qishloqlikning to‘kilgan qizil qonlari, qonli ko‘z yoshlari evazidandir”. Bu tasvirlarda butun malakat qudrati deya hisoblanmiz lashkarni jamlash va ta‘minlash, xatto sulton sharobini, saroy kayfi safosi bu sulton mamlakatining osudaligidan emas, aksincha yo‘qsillashib borayotgan bechora xalqning ko‘z yoshlari, sitamlari evaziga ekanligi ayonlashadi. Ammo, ushbu asarda ham asrlararo mashhur bo‘lgan o‘sha rivoyat Temurning Isfaxonda uch ming lashkarni qirib tashlagan Qoraqayunlining lashkari qasosida kallalardan minora tiklagani bayon etiladi. Lekin, ayna mana shu masalada uzoq yillar izlanish va arxeologik qazishmalar olib brogan tarixchi olimlar Isfaxon voqealarining to‘laqonli uydirma ekanligini asoslab berishdi. Asar so‘ngida go‘lib va kechirimli, mard va saxiy Temur va Boyazid yuzma yuz qolishar ekan, Yildirimning qilmishlari Xudoga ham hush kelmagani, undiq ersa yakun bu dunyo qiymati o‘zini tengsiz sanagan Yildirimning mag‘lubiyati-yu, oqsoq deya haqoratlanmish Turon sardorining g‘olibligi bilan nihoyalana edimi, qabilidagi muallif va tarix tasdig‘i va tan olishlari bilan nihoyalanaadi.

ADABIYOTLAR:

1. Husayn Jovid. *Amir Temur. 5 pardali sahna ko‘rinishi. Jahon adabiyoti. 1998. 1 son. 43-78 b.*
2. Husayn Jovid. *Amir Temur. 1 parda. Jahon adabiyoti. 1998. 1 son. 46 bet.*
3. Yaxshiyeva Z. *Alisher va ingliz adiblari ijodida Amir Temur obrazi talqinlari. // Alisher Navoiy. Xalqaro jurnali. ISSN. 2181-9904. DOI Jurnal. 10.26739/8121-9904. 2023.3-jild, 2 son. 25-30.*
4. Husayn Jovid. *Amir Temur. 1 parda. // Jahon adabiyoti. 1998. 1 son. 50 bet.*
5. Yakhshieva Z.R. *Exploration of the linguistic style of novels about Amir Timur. // Journal of advanced linguistic studies vol. 10, no. 2, Jul-dec 2023 (issn 2231-4075). 128-137.*
6. Husayn Jovid. *Amir Temur. 1 parda. // Jahon adabiyoti. 1998. 1 son. 53 bet.*
7. Yaxshiyeva Z. *Alisher va ingliz adiblari ijodida Amir Temur obrazi talqinlari. // Alisher Navoiy. Xalqaro jurnali. ISSN. 2181-9904. DOI Jurnal. 10.26739/8121-9904. 2023.3-jild, 2 son. 25-30.*
8. Yaxshiyeva Z. *G‘arb va Sharq adabiyotida Amir Temur prototipi asosida yaratilgan asarlar tadqiqi. // O‘zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik. 2024 Vol. 1[2] ISSN 2181-92-2x. www.literature.tssull.uz 120-138.*
9. Умуров Х. *Бадий иждо асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 80.*

ИБРАЙИМ ЮСУПОВ ИЖОДИДА БАДИЙ ПУБЛИЦИСТИКА

Палуанов Бахитбай Нурлибаевич,

*Қорақалпоқ давлат университети профессори в.в.б,
филология фанлари номзоди
bpaluonov@gmail.com*

***Аннотация.** Мақолада Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ шоири Ибрайим Юсуповнинг ижоди бадиий публицистика нуқтаи назаридан ўрганилган. Шу асосда унинг бадиий публицистик ижодидаги жанрлар (очерк, мемуар, эссе) ёритилган, муаллифнинг публицистик асарлари орасидаги муштараклик ва тафовутлар кўрсатилган.*

***Калит сўзлар:** публицистика, адабиёт, журналистика, эссе, очерк, мемуар, образ, жанр.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ПУБЛИЦИСТИКА В ТВОРЧЕСТВЕ ИБРАЙИМА ЮСУПОВА

***Аннотация.** В статье рассматривается творчество народного поэта Узбекистана и Каракалпакстана Ибрайима Юсупова с точки зрения художественной публицистики. На этой основе выделены основные жанры (очерк, мемуары, эссе) в его творчестве, показаны общие черты и различия между его произведениями.*

***Ключевые слова:** публицистика, литература, журналистика, эссе, очерк, мемуары, образ, жанр.*

ARTISTIC JOURNALISM IN CREATIVITY OF IBRAYIM YUSUPOV

***Abstract.** The article examines the creative works of Ibrahim Yusupov, People's poet of Uzbekistan and Karakalpakstan, from the point of view of the artistic journalism. On this basis, the main genres (feature article, memoirs, essay) in his artistic work are identified and the common features and differences between his creative works are shown.*

***Keywords:** publicism, literature, journalism, feature article, essay, memoirs, image, genre.*

Кириш. Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ шоири Ибрайим Юсуповнинг шеърӣ асарларини ўқиб, ундан маънавий озуқа олган муштарӣлар, ижодкорнинг бадиий публицистикада ҳам ижод қилганига кўп аҳамият қаратмайди. Бу омма учун табиӣ ҳол ҳисобланади. Чунки, Ибрайим Юсупов ўзбек ва қорақалпоқ адабиётларида халққа ўзининг шеърлари билан машҳур бўлди ва халқ шоири даражасида ном қозонди. Яна бир асосий сабабларидан бири муаллифнинг шеърӣ асарлари Қорақалпоғистондаги матбуотда чоп қилинганидан сўнг алоҳида китоб ёки тўрлам ҳолида чоп қилиниб, оммага тақдим этилишидадир. Ибрайим Юсуповнинг бадиий публицистикадаги асарлари ўз вақтида матбуот саҳифаларида берилгани билан, улар тўпланиб, алоҳида китоб шаклида чоп қилинмаган. Шу боис, ижодкорнинг бадиий публицистика асарлари мазмун жиҳатидан давр талабларига жавоб берса ҳам, фақат матбуот саҳифаларида қолиб кетгани аниқ. Мана бу бўшлиқни тўлдиришда ҳисса қўшган ёш тадқиқотчи А.Тилегенова (тузувчи) билан шоир С.Ибрагимов (махсул муҳаррир)лар меҳнатининг самараси сифатида И.Юсуповнинг дастлабки публицистик асарлар тўплами чоп қилинди. [1, 116]

И.Юсупов ўз вақтида маҳаллий матбуотда насрнинг кичик шаклидаги қатор асарларини ёзган. Унинг бадиий публицистика жанрдаги асарлари ҳозирги давр нуқтаи назаридан аҳамиятсиздек кўрингани билан, асар ёзилган замон ва макон учун катта аҳамият касб этган. Бўлғиси шоирнинг келажакдаги ижод йўлларига негиз яратган. Биз бу мақоламизда Ибрайим Юсуповнинг бадиий публицистик асарларини таҳлил қиламиз ва уларни ижодиётнинг уч хил йўналишида ўрганамиз.

Асосий қисм. Биринчидан, Ибрайим Юсупов ўзининг ижодий муҳитининг бошида қатор очерклар ёзиб, уларни қорақалпоқ матбуоти орқали оммага тақдим қилган. Мазкур ижодий асарлар орқали Ибрайим Юсупов ижодий йўналишини кичик насрда белгилашга ҳаракат қилган. Ўзбекистондаги таниқли адабиётшунос олим, академик Марат Нурмухамедов томонидан очеркларининг айримлари ижобий баҳосини ҳам олган: «И.Юсуповнинг «Ўрнекшилер» очеркида Кегейли тумани колхозчиларининг хизматлари ҳақида сўз бўлади. Мингдан ортиқ газета

очерклариди ёритилган пахта терими мазкур асарда қийин вазиятларни, лирик чекинишларни ўринли фойдаланиш орқали қизиқарли, таъсирчан ифодаланган.»[2, 181]

Шоирнинг очерк жанридаги асарларида ўз замонининг ижтимоий ўзгаришлари, давр янгиликлари берилган. «Кўп сонли очерклар Бош Туркмон каналининг (1951-1952) ва Тахиаташ шаҳрининг қурилишига оид ёзилган. Бош Туркмон каналига бағишланган илк очеркларнинг бири ҳисобланган И.Юсуповнинг «Эрман ҳақийқатлыққа айланады» («Армон ҳақиқатга айланади») очеркида Қорақалпоғистоннинг ўзгарган келажагига кўз ташланади.» [3, 184]. Сабаби, очерк «ўзининг ҳажми ва тасвирлаш усуллари жиҳатидан ҳикояга яқин, аммо, ҳозирги ҳаётнинг аниқ қаҳромонлари ва фактлари масалаларидан жамланган кичик насрий асар.»[4, 152-153] Ўзбек тилидаги изоҳли сўзликда жанрга қуйидагича изоҳланган: «Ҳаётий фактларнинг қисқача тасвиридан иборат кичикроқ бадиий асар.» [5, 162] Мазкур жойда биз очерк насрининг кичик жанри деб ҳисоблашимизга асосни учратамиз.

Ибрайим Юсупов публицист сифатида «Жасарып жайна, Қонырат!» («Яйнаб яшна, Қўнғирот»), «Ҳәтептеги сегиз жигит» («Ҳәтепдаги саккия йигит»), «Нөкесте бәхәр» («Нукусда баҳор»), «Тарас таўидағы ойлар» («Тарас тоғидағы ўйлар»), «Биз сенликпиз, Африка!» («Биз сенликбиз, Африка!»), «Сәўир – Шығыс самалы» («Савр – Шарх шамоли»), «Пахта - халқымыздың мақтанышы» («Пахта-халқимизнинг мақтаниши») номли очеркларнинг муаллифи эканлиги академик М.Нурмухамедов томонидан таъкидланган. Тадқиқотчи Ибрайим Юсуповнинг очеркларнинг ютуқлари билан бирга айримларини такомиллаштиришга муҳтож эканини кўрсатади. Чунингдек, шоир сифатида ўзи ёзган очеркларига кўп жойларда ўзи битган шеърларини киргизишига ўрғу беради. [6, 247-249]

Иккинчидан, шоир Ибрайим Юсуповнинг ўткан асрнинг 90-йилларидан кейин ёзган шеърятда публицистикага кўпроқ мурожаот қилгани, давр тақозаси билан ўзи истикомат қилган муҳитга оид муаммоларига омма диққатини қаратишда публицистика имкониятларидан фойдаланганини тадқиқотчилар алоҳида таъкидлайди. [7] Мазкур ижодийтдаги ўзгаришларни шоирнинг ўзи ҳам тасдиқлаб, «ҳозир жамиятдаги сиёсий бурилишларнинг сабабидан, қўшиққа, шеърятга публицистика босқинчилик қилиб кириб олди. Шу боис, биз кўп вазиятда сиёсат минбаридан айтиладиган сўзларни қофиялаб, шеърга айлантиришга кўпроқ одатланиб кетганмиз.» [8, 15] - деб ёзади. Шоир Ибрайим Юсуповнинг публицистик мазмундаги лирик асарлари қатор тадқиқотчилар томонидан алоҳида ўрганилгани боис, мазкур асарларига эътибор қаратиб, алоҳида тўхталмаймиз.

Учинчидан, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ шоири Ибрайим Юсуповнинг ижодида лирик асарлар билан бадиий публицистик асарлар ҳам айриқча аҳамият касб этади. Ибрайим Юсупов ижодидаги бадиий публицистик жанрларга тўхталадиган бўлсак, унинг мемуар жанрига нисбатан ижодий интилишини икки жараёнда кўраемиз. Биринчи гуруҳ - халқ шоири дўст-яранларини, яқин одамларини эслаб, ёзган шеърый асарлари [9] берилган бўлса, (масалан, «Эрназар алакөздин естелигине» («Эрназар алакўзнинг хотирасига») ва «Ағамсаң» («Оғамсиз») (Жолиμβет оға Сейтниязов 75 ёшда) шеърлари), иккинчи гуруҳ - қора сўз билан ёзган эпик шаклдаги, публицистик жанрдаги асарлари ҳисобланади. Мисол учун, «Марат Нурмухамедовты еске түсириў» («марат Нурмухамедовни хотиралаш») шеърида академик Нурмухамедовни шундай эслайди.

«Жулдыз ағып кетсе, ақшамғы ўакта,

Бирден сен түсирсең ядыма менин.

Жасын түсти десе жасыл даракқа,

Дәрхал сен түсерсең ядыма мениң.» [10, 18] -

деган сатрларда дўстининг бевақт вафот этганини тасвирли ифодалайди. Демак, «бирден» («тасодифан») деган сўзга символик маъно юклатилган. Бу орқали тадқиқотчининг кутмаган пайтда вафот қилганини кўрсатса, «жасын» («яшин») сўзи билан олим сифатидаги илм-фандаги ўрни тасвирий баёнланган. Муаллиф лирик шаклдаги мемуарларида фақат оламдан ўтканларни хотирлаш билан кифояланмайди ва ўткан кунларди эслаш усулида ҳам ижод қилган. И. Юсуповнинг «Қайтып келсе еди балалық шағым» («Ортга қайтганда эди, болалигим») [11, 22-24] деган шеърида ўзининг такрорланмас болалигини эсга олади. Эътиборли томони, Ибрайим Юсуповнинг мемуар асарларини нафақат шеърятда, балки бадиий публицистикада ҳам эпик шаклда учратиш мумкин. Унинг «Қуслар қайтып келмейди» («Қушлар энди қайтмайди»)[12] деган мемуар асари академик Ч.Абдировга арналган: «Замондошларининг тафаккурида теран одамзотликга оид из қолдирадиган одамлар ҳам бўлади. Улар билан бирга юрганинда маънавий куч-қувват олиб, орқангни томга ташлаган киби ишончли яшайсанг. Улар сенга вафот қилмайдигандек, ўзинг ҳам улар билан доим бирга яшайдигандек кўринасанг. Аммо, яшаган сари гувоҳи бўлар экансанг, бугун кўрганинг эртага йўқ

деганидек, ҳар кимса нафаси битган пайтда, Мақтумкули таъкидлаганидек, «Ўнг томондан чапга боққанча бўлмас» экан.

Базы адамлар бар ӧлди дегенде,
Исенбей турасаң ӧз қулағыңа,
Бир ғәлетий боран қутырып демде,
Бастырып киргендей кеӱил бағыңа,
Жаның ыршып түсер қылыш шабақтай,
Жакын-жуӱық болмаса да ол саған,
Сәӱбетин тәрк еткен қутлы қонақтай,
«Ай-хай, ийт дӱнья» деп кеӱлиң ғаӱсаған.....»

Чаржаӱ Абдиоровнинг ӱлими, эртада ӕзилган мазкур шеърни яна эсимга туширди.»

Ибрайим Юсуповнинг мемуарида бошқаларга мутлақо ухшамайдиган янгича ижодий усулни фойдаланган. Мемуарни ӱқиб, биз шоир-публицист шеърларидаги оддийлик, халқ тилига ва юрагига яқинлик жараёнларни сезамиз. Асарда муаллифнинг публицистик ӱйлари лирик кечирмалар билан боғланади. Масалан, «Бандалик, ӱзин «кароматли инсон» деб эълон қилган айрим билимдонлар билан бир-икки учрашгандан кейин одамлар, имкони бўлса, унинг билан қайта кӱришмашга интилади. Мабода, учрашса, кирпичиконнинг тикани кирмасдан ажралсам бўлар эди деган ӱйда ӱтиради... «Яманни кӱрсанг, яхшини соғинасанг» деганидек, Чаржаӱ билан тадбир-мажлисларда учрашиш менинг кӱнглимда шоирлик илхом келтирар эди. Шу боис, мазкур хотирамда Чаржаӱнинг одамийлик хусусиятларини, унинг билан айрим учрашиш зохатларимни эслагим келди.»

Мемуар муаллифи асарда ӱткан ҳодисаларнинг дизимини кӱрсатмасдан, уларни таҳлил қилади ва бирини бири билан таққослаб, тегишли хулоса чиқарган. Лекин, асарда лирик чекиниш ҳам мавжуд. Воқеалар изчил шаклда берилмасдан, муаллифнинг умумий ғоясига бўйсиндирилган, жамланган ҳолида берилган. Мемуарда муаллиф асар қахрамони билан бирга ӱзини ҳам тасвирлайди ва ӱзининг айрим шеърларини қандай ӕзилганини таъкидлайди. Мисол учун, асардаги қуйидаги сатрларга эътибор қаратиб кӱрайлик: «Иккимиз бир жойга бормоқчи бўлиб, университет ректорининг кабинетига келсам, у бир аспирант билан қаттиқ баҳслашаётганини кӱрдим. Чаржаӱнинг таклифи билан кабинеттаги бошқа стол ёнида ӱтириб тингласам, кӱпол гапираётган йигит белгиланган вақтда номзодлик диссертациясини тугата олмай, аспирантлик муддатини учинчи бор узайтиришни талаб қилаётганини сездим. Бекор ӱтирмасдан шу жойда тӱртлик вужудга келди:

«Ислемен басты қыйнап терлеме,
Атларға урмасын ешектиң шаңы,
Алма түскен менен ақмақ геллеге,
Ашыла бермейди, Ньютонның заңы...

Чаржаӱ росса роҳатланиб кулиб, тӱртликни столидаги ойна тагига жойлаштирди ва барқулла уни айтиб юарди.»

Мемуар жанрининг бошқа жанрлардан асосий хусусияти унинг услубида кӱринади. Аксарият мемуарларда «эди» деган ёрдамчи сӱз кӱшиб айтилади. Уни халқ шоирининг қуйидаги фикрлари ҳам тасдиқлайди: «Аттанг, қолган томонида у ҳақида сӱз бўлганида феълнинг ӱткан замони билан айтишга тӱғри келади: азамат инсон эди, халқ уни қаттиқ ҳурмат қилар эди.»

Ибрайим Юсуповнинг мазкур мемуарининг бошқа асарларидан ӱзига хослиги унда муаллиф шеърый сатрлари билан асарни бошлаб, якунида ҳам шеърый оят билан мемуарга хулоса ясайди: «Дунё ишлари шоирга нималарни ӕздирмайди дейсиз. Энг охирида, у сенга ӱзининг энг кӱнгли яқин одамнинг қӱлпи тошига эсдалик сӱз ӕздирди экан:

Алымлардың алғыр тарланы едиң,
Жигиттиң бир туўған султаны едиң,
Байтеректиң бийик нәрӱаны едиң,
Ел ядында мәнги қалдың да кеттиң.»

Ибрайим Юсупов эпик шаклдаги публицистик услубда ӕзган мемуар асарларида ҳам поэзия имкониятларидан кенг фойдаланади. Бу муаллифнинг лирик ва эпик шаклларни бирлаштириш орқали замонавий муштарий учун эътибор тартадиган асарлар яратганини кӱрсатади.

«Қорақалпоқ матбуотида мемуар асарлар ҳам, эссе асарлар ҳам кӱрлаб учрайди. Бизнинг нуқтаи назаримиздан, мемуар билан эссе ӕзилиш услуби жиҳатидан бироз яқин бўлгани билан уларни бирдек деб ҳисоблаб, шалқаштирмаган мақул.» [13, 82].

Ибрайим Юсуповнинг публицистиканинг янги ва эркин шакли эссе жанридаги асарлари ҳам марказий ва маҳаллий матбуот саҳифаларида чоп қилинди. Эътиборлиси, муаллиф уларга эссе деб

алоҳида жанр номини кўрсатмагани билан, ҳозирги замон илмий-адабий нуқтаи назаридан, асарлари эссе жанри талабларини бажарганини кўриш мумкин. Публицистик асарлари Ибрайим Юсуповнинг «Сөз ҳам пикир» («Сўз ва фикр») номли 2024 йили босмадан чиққан тўпламига киргизилган. Тўпланда эссе, суҳбат, мақола жанрларидаги публицистик асарлари жой олган. Мазкур тўпланим орқали биз И.Юсуповнинг ижодида шеърятдан ташқари муаллиф бадиий публицистикада ҳам самарали меҳнат қилганининг гувоҳига айланамиз. [14]

Ибрайим Юсуповнинг матбуотда чоп қилинган публицистик асарларида, асосан, эсселаридаги муаллиф позициясининг жуда очиқ билдирилиши, тарих билан замонавийликнинг қиёсланиши, муштарийлар билан тўғридан-тўғри суҳбатга киришишга интилиш шоир публицистикасининг ифодалаш усулининг ўзига хослигини белгилаб беради. Матбуот саҳифаларида чоп этилган И.Юсуповнинг «Жаҳонди «жаўлап» алган Шыңғыс» [15] («Жаҳонни «босиб» олган Чинғиз») мемуарлик асари, «Ерекке тигилген отаў» («Алоҳида ўрнатилган ўтов») [16] эссеси бадиий публицистика талабларига тўлиқ жавоб беради. Булардан биз бадиийлик (эдебиёт) ва хужжатликни (журналистика) учратиш қалмасдан, уларнинг синтезини ҳам кўрамиз. Мисол учун, Чинғиз Айтматовнинг ҳаёти ва ижодиётини изчил анкета киби услубда беришдан йироқлашиб, «Мазкур кичик мақолада таниқли ёзувчимизнинг қолға киритган унвонлари ва мукофотларини барчасини таъкидлашнинг илоди йўқ, бор бўлганида ҳам уларни санаб ўтириш шарт эмас» деб ёзган. Мақолада муаллиф бадиий ифодалаш услубидан фойдаланиб газета оммасига ифодали тасвирлаш орқали Айтматовнинг сиймосини яратган: «У юқори минбардан чиқиш қилганида ҳам, мақола ёзганида ҳам, ҳозирги дунёнинг энг йирик зарурли муаммоларини осилган от киби ёлидан ушлаб, у муаммоларни ечишда омманинг эсига келмайдиган ечимларни «қуриқ ташлаб тутиб беради». Келтирилган мисолдаги «осилган от киби ёлидан ушлаб», «қуриқ ташлаб тутиб беради» деган сўз ишлатишларининг ўзи асарнинг бадиийлигини белилайди. Мақоланинг хулоса қисмида «Икки Чинғиз босиб олди элимни» деб бошланадиган икки байт шеъри билан якунлаб, ижодиётда бадиий публицистика имкониятларини кўрсатган. «Ерекке тигилген отаў» («Алоҳида ўрнатилган ўтов») номли публицистик мақоласида муаллиф қорақалпоқ халқи тарихига оид қатор илмий фактларни публицистик услубда ифодалаш орқали оммага тушунарли қилиб тақдим қилади.

Хулоса. Шоир Ибрайим Юсуповнинг бадиий публицистик асарларини ўқиган газета ёки китоб муштарийларининг диққати бадиийлик ва хужжатлик бирикган бадиий сўз маконида кароматли қаломи билан ўзига тортилади. Ўтмиш фактлари замонавийлик учун хизмат қилган ва қуруқ хужжатликдан кўра, тасвирли ифодалаш асосий ўринга кўтарилган Ибрайим Юсуповнинг бадиий публицистикаси ҳам унинг шеърятидан даражаси кам эмас. Муаллифнинг бадиий публицистик асарлари фақат бир марта алоҳида тўпланим сифатида 1963-йили чоп қилинган [17] ва бундан сўнгги бадиий публицистик асарлари вақтли матбуот саҳифаларида ва назм тўпланимларининг кириш қисмларида қолиб кетган, улар ўз вақтида алоҳида тўпланим шаклида оммага тақдим қилинмаган. Муаллифнинг бадиий публицистик асарларидан ташқари, унинг илмий-публицистик мақолалари ҳам ўз вақтида матбуотда чоп қилинган. Чунингдек, шоир сифатида И.Юсупов билан қатор матбуот ходимлари (журналистлар, мухбирлар, муҳаррирлар) суҳбат олиб борган. Бу ҳам шоирнинг ижодининг публицистик қирраларини кўрсатади. Демак, унинг бадиий публицистикасида матбуотдаги нисбатан мураккаб жанрлар (очерк, мемуар, мақола, эссеб суҳбат) асосий ўринни эгаллайди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Юсупов И. *Сөз ҳам пикир*. Ургенч, Қуванчбек-Машҳура, 2024. Б. 116.
2. Нурмухамедов М. *Шығармалары. II Том. Нөкис, Қарақалпақстан, 1985, Б. 400.*
3. Ахметов С., Есенов Ж., Жаримбетов Қ. *Эдебиаттаныў атамаларының орысша-қарақалпақша түсіндірме сөзлиги*. Нөкис, Билим, 1994. Б. 240.
4. *Ўзбек тилинің изоҳли лугати*. Тошкент, 2006. 5 жилд. Б. 129.
5. Аяпов А. *Мустақиллик дәври қарақалпоқ публицистик лирикаси*. Филология.ф.н. дисс. Автореферати. Нукус, 2010. Б. 28.
6. «*Еркин Қарақалпақстан*» газетасы, 1996-жыл, 18 январь.
7. Юсупов И. *Үмит жағғысы* Нөкис, Қарақалпақстан, 1990. Б. 141.
8. «*Еркин Қарақалпақстан*» газетасы, 1998, 26-ноябрь.
9. Палъанов Б. *Эссе ҳам мемуар: айырмашылық ҳам жанрлық синтез мәселеси*// «Глобалласыў процесінде галаба хабар қуралларының роли» атамасындағы халықаралық илимий конференция мақалалары топламы. Нөкис. 2020. Б.237.

LITERARY CRITICISM

10. «Еркин Қарақалпақстан» газетасы, 1998-жыл, 31-декабрь.
11. «Еркин Қарақалпақстан» газетасы, 1997-жыл, 3-июль.
12. Юсупов И. Фарры туттағы гүз. Нөкис, Қарақалпақ мәмлекетлик баспасы, 1963. Б.153.

XALQ LIRIK QO'SHIQLARI VA MUMTOZ SHE'RIYATDA QUSH OBRAZI TALQINI

O'roqova Nafosat Yoriyevna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
n.y.uroqova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy-estetik tafakkur rivojida asosiy rol o'ynovchi obraz, ramz kabi tushunchalarga urg'u berilgan. Olamning badiiy manzarasini ifodalashda qush obrazlari muhim o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz lirika namunalari misolida ushbu obrazning genezisi va tadrijiy taraqqiyoti o'rganildi. Ularga xos alohida xususiyatlar tadqiq qilindi. Ibtidoiy animistik dunyoqarashga asosan turkiy xalqlar ayrim qushlar kultiga ham sig'inishganligi hamda qush obrazlari parallelizmni yuzaga keltirishda eng ko'p qo'llanadigan obrazlardan biri ekanligi dalillandi. Mumtoz she'riyatda qushlarning tasavvufiy, ramziy-timsoliy mohiyat kasb etganligiga diqqat qaratildi.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, obraz, qushlar obrazi, ramziy ma'no, animistik dunyoqarash, qush kulti, motiv, mifologik inonch, xalq lirikasi, mumtoz she'riyat, afsonaviy qushlar.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ПТИЦЫ В НАРОДНЫХ ЛИРИЧЕСКИХ ПЕСНЯХ И КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется таким понятиям, как образ и символ, которые играют ключевую роль в развитии художественно-эстетического мышления. Изображения птиц играют важную роль в выражении художественного ландшафта мира. Генезис и постепенное развитие этого образа изучались на примере фольклора и классической лирики. Изучены их особенности. На основе первобытного анимистического мировоззрения доказано, что тюркские народы также поклонялись некоторым культам птиц и что изображения птиц являются одними из наиболее используемых образов для создания параллелизма. В классической поэзии обращалось внимание на то, что птицы приобрели мистическую, символическую сущность.

Ключевые слова: художественная литература, образ, образ птицы, символическое значение, анимистическое мировоззрение, культ птицы, мотив, мифологическое верование, народная лирика, классическая поэзия, мифические птицы.

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF A BIRD IN FOLK LYRIC SONGS AND CLASSICAL POETRY

Abstract. This article emphasizes concepts such as image and symbol, which play a key role in the development of artistic and aesthetic thinking. Images of birds play an important role in expressing the artistic landscape of the world. The genesis and gradual development of this image was studied on the example of folklore and classic lyrics. Their special features were studied. Based on the primitive animistic worldview, it was proved that the Turkic peoples also worshiped some bird cults and that bird images are one of the most used images to create parallelism. In classical poetry, attention was drawn to the fact that birds have acquired a mystical, symbolic essence.

Keywords: fiction, image, image of birds, symbolic meaning, animistic worldview, bird cult, motif, mythological belief, folk lyric, classical poetry, mythical birds.

Kirish. Badiiy adabiyotda qushlar obrazi genezisi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda qushlarga xos xususiyatlar va ularning badiiy adabiyotdagi ifodasi, qadimgi xalqning qushlarga munosabati, ular ifodalagan ramziy ma'nolar yoritilayotir. Turkiy xalqlar lirikasida tovuq, o'rdak, g'oz, xo'roz kabi parrandalar hamda kabutar, bulbul, lochin, qaldirg'och, to'rg'ay, qarchig'ay, chumchuq, kaklik, qarg'a, to'ti singari qushlar obrazlari parallelizmni yuzaga keltirishda eng ko'p qo'llanadigan obrazlardir. Adabiyotda ko'p qushlar tinchlik-xotirjamlik, erkinlik, farovonlik ramziy ma'nolarini ifodalab keladi. Bundan tashqari, ularning har biri o'ziga xos ko'chma ma'nolarda ham talqin qilinadi. Xususan, kabutar – tinchlik-xotirjamlik; bulbul – oshiqlik; qaldirg'och – sadoqat, fidoyilik; lochin – mardlik; qarg'a –

yovuzlik, musibat; to‘ti – donolik va mahmadanalik; chumchuq – chaqimchilik ramzi sifatida obrazlar olamini boyitishda ulkan ulush qo‘shayotir.

Asosiy qism. Ibtidoiy animistik dunyoqarashga asosan turkiy xalqlar ayrim qushlar kultiga ham sig‘inishgan. “Qadimda marhumlar jasadini qushlarga yem qilish yo‘li bilan ruhni qushlarga ko‘chirish, shu orqali uni o‘liklar olamiga jo‘natish ko‘zda tutilgan. Ruhi qushga ko‘chirilgan marhum zoomorf qiyofada qayta tiriladi-yu, abadiy hayotga erishadi, deb tushunilgan. Marhumlar ruhini qush qiyofasida qayta tiriladi deb qarash qushlarga nisbatan xalqning e‘tiqodiy munosabatda bo‘lishiga olib kelgan. Hatto hozirgacha shu qarashlar asosida mozoristonga ziyoratga borganlar o‘zlari bilan bug‘doy, guruch, makkajo‘xori, arpa kabi donli ekinlardan olib borib, uni qabr ustiga sepish odati saqlanib kelayotir” [5, 328]. Demak, xalq qo‘shiqlarida qo‘llangan qushlar obrazi genezisiga ko‘ra juda qadimiy bo‘lib, inson va unung xarakter-xususiyatiga parallel ravishda kela oladigan obrazlar safida turadi.

Natijalar va muhokama. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida kaptar (kabutar) bilan bog‘liq e‘tiqodiy inonchlar kuzatiladi. Folklor asarlarida kaptar tinchlik, osoyishtalik, go‘zallik, xotirjamlik, farovon hayot hamda jon ramzi sifatida talqin etiladi.

“Yurak duk-duk urmiymi?” xalq qo‘shig‘ida kaptar obrazi orqali oshiq yigitning kechinmalari, his-tuyg‘ulari ochiq-oshkor ifodalangan. Bunda kaptar go‘zal va qaddi raso yor siymosiga ishora qilgan:

Ulli yo‘lda ikki kaptar o‘yniydi,
Sendan boshqa yora ko‘nglim urmiydi.
Sendan boshqa yora ko‘nglim urganda,
Hech qaysisi o‘zginangga turmiydi [12, 62].

Mifologik inonchlarga ko‘ra, kaptar ayol jinsidagi ma‘budalar bilan aloqador tarzda talqin qilinadi. El orasida tarqalgan afsona va rivoyatlarga quloq tutadigan bo‘lsak, ularda parilarning kaptarga aylanish jarayoniga guvoh bo‘lamiz. Shu jihatga asoslanib, ularga ozor berish, o‘ldirish, tuzumchalarini olish yoki bolachalarini qiynash gunohi azim hisoblanadi. Bu jajji qushning qarg‘ishi kuchli bo‘ladi, unga ozor bergan dilozorlarning ham biror kulfatga muftalo bo‘lish ehtimoli yuqoridir. O‘zbeklar orasida, xususan, ko‘k rangli kaptar alohida ulug‘lanadi. Xalq dostonlari va afsonalarida ham kaptarlarning bir yumalab pari qizga aylanishi lavhasi talaygina.

Qoshi qora, yuzi oqni,
Men yori bo‘lsam kerak.
Ko‘kkina kaptar bo‘lib,
Ko‘ksida jon bersam kerak [12, 254].

Ushbu parchada kaptar jon ramziy ma‘nosini ifodalab kelgan. Mifologik qarashlarga ko‘ra, bu qush, asosan, jon suratida ham gavdalanadi. Buning isboti o‘laroq, xalq dostonlari, afsona va rivoyatlarida jonning kaptar ko‘rinishida namoyon bo‘lishini ta‘kidlash lozim. Shuningdek, u jon oluvchi go‘zallik timsoli bo‘lib ham suvratlanadi.

“Eshik oldi gulhovuz” xalq aytimida insonga do‘st sanaluvchi, o‘zbekning milliylik ramzini ko‘rsatuvchi qush – qaldirg‘och xususida so‘z boradi. Bahor kelishi bilan, uning ilk qadamlarini qutlovchi ushbu xokisor qush badiiy adabiyotda do‘stlik, sabr, xokisorlik ma‘nolarini tashiydi. Bahor bilan birga o‘zbek xonadonini nurga, fayz-barakaga to‘ldirib kelishi jihatidan ota-bobolarimiz qaldirg‘ochni muqaddas bilganlar. Qaldirg‘och makon tutgan uy – eng baxtli xonadon qatorida e‘zozlangan. Ularga uylarining to‘ridan joy ajratib, bola ochib chiqquncha bezovta qilmaganlar. Kimda-kim qaldirg‘och inini buzs, bolalarini o‘ldirsa, uni buyuk qarg‘ish tutishiga ishonganlar. Shu e‘tiqodga asoslanib yozilgan qator badiiy asarlar, lirika namunalari buning dalilidir. Bu inonch esa bizda bobomeros aqida hisoblanadi:

Qaldirg‘och qaro bo‘lur,
Qanoti alo bo‘lur.
Yoshlikda bergan ko‘ngil

Ayrimlas balo bo‘lur [12, 219].

Yuqoridagi misralarda qaldirg‘ochning tashqi ko‘rinishi: uning rangi qoraligi, qanotining olaligiga diqqat qaratilgan. Yoshlikda ko‘ngildan kimningdir joy egallashi, ya‘ni qalbning mehr-muhabbatga to‘lishi bilan bog‘liq muqaddas tuyg‘ular muqaddas qush bilan parallel tarzda qo‘yilgan.

Qadimiy “Yor-yor” qo‘shiqlarida esa qizning qoshi qaldirg‘ochga qiyoslangan. Bunda ikki jihat e‘tiborga olingan: 1. Qaldirg‘och qanotining qayrilmaligi. 2. Qaldirg‘och rangining qoraligi.

Qaldirg‘och qanotiday
Qoshlik singlim, yor-yor [12, 374].

Ko‘rinadiki, mazkur qush turkiy xalqlarda qadimdan ulug‘langan va uni muqaddaslashtirishga asos bo‘luvchi fazilatlarini yetarlichadir. Bunga, eng avvalo, uning inson zotiga do‘stligi, sabr va mehr bilan bolasini ulg‘aytirishi, yaxshilik ulashishi, xonadonlarga fayz-baraka, baxt olib kirishi tilga olinadi.

Yana bir faol qo‘llanuvchi qush obrazi to‘tiqush bo‘lib, ham ijobiy, ham salbiy ma‘no tashiydi. U, bir qarasangiz, donolik, boshqa vaziyatda esa mahmadanalik ramzini tashiydi:

To‘tiqushning bolasidek
Ikkalamiz intizor... [12, 46]

Yoki:

Bir qiyo boqdim – tutildim,
To‘tining zanjiriga.
Hech iloj topolmadim
Parvardigor taqdiriga [12, 111].

Bunda birinchi lirik to‘rtlik o‘sha mashhur “Qarg‘alar” qo‘shig‘i tarkibidan joy olgan. Mazkur qo‘shiq tarixi juda ayanchli bo‘lib, u o‘zbeklarning shonli va qonli tarixidan so‘zlaydi. Lirik qahramon o‘zi hamda mard vatandoshini to‘tiqush bolalariga qiyoslamoqda. Polaponlarning onalarini kuta-kuta intizor qolishlari kishiga noxush kayfiyat bag‘ishlaydi. Bunda noilollik tufayli ikki qutbning o‘z niyatiga yetolmayotganidan tuyilgan alam aks etgan.

Ikkinchi lirik to‘rtlikda asosiy qahramon bilan bog‘liq vaziyatda to‘tiqush obrazi biroz salbiy bo‘yoqdorlik xususiyatiga ega ekanligi ko‘rinadi. Ya‘ni bir nazar tashlaboq to‘tisifat (istalmagan) insonning to‘riga ilinish taqdirida bor bo‘lganligi talqini keltirilgan. Demak, xalq lirikasi misolida to‘tiqush ramz-obrazining yana ko‘plab ma‘no qirralarini kashf etish mumkin degan xulosaga kelsak, mubolag‘a bo‘lmas.

Olamning badiiy manzarasini ifodalashda bulbul obrazi keng yoyilgan timsollar safida turadi. Badiiy adabiyotning barcha adabiy tur va janrlarida uchraydigan mazkur obraz o‘z mazmun-mohiyatidan tashqari bir qancha ramziy ma‘no hamda motivlarni ifodalab keladi. Ko‘pincha, u yor va uni orzulagan oshiq yigit timsoli bilan parallel qo‘yiladi. Bulbul obraziga yondosh obrazlar sifatida gul, bog‘, chamanzor, tikan motivlari ishlatiladi. Ular esa qo‘shilib, birgalikda tanosub badiiy san‘atini yuzaga chiqaradi:

Bog‘laringda toza gullar ochilmish,
Kel, Zuhrajon, bog‘ sayliga ketaylik.
Bulbullar mast bo‘lib, shabnam sochilmish,
Yur, Zuhrajon, bog‘ sayliga ketaylik [12, 314].

“Bog‘ sayliga ketaylik” xalq qo‘shig‘ida bog‘ – xonadon, toza gul – bokira qiz, bulbul esa balogatga yetga oshiq yigit ma‘nosida kelgan bo‘lib, ushbu timsollar misrani poetik jihatdan boyitgan.

Yuqorida qisman tilga olganimiz “Qarg‘alar” qo‘shig‘ining yaralish tarixi marg‘ilonliklarning Chor Rossiyasiga qarshi kurashi bilan bog‘liq. Xalqning qonli va qayg‘uli davrlarini o‘zida mujassam etgan ushbu xotira-qo‘shiqda qar‘ga obrazi falokat, musibat motivini anglatib kelgan:

Qarg‘alar uchsa, qaraylik
Marg‘ilonning yo‘liga.
Hidi kelsa, mast bo‘laylik
Handalakning bo‘yiga [12, 46].

Xo‘roz – parrandalar turkumiga kiruvchi eng faol qo‘llanadigan poetik obrazlar qatorida turadi. “Alla” va dehqonchilik bilan bog‘liq lirik qo‘shiqlarda ko‘makchi obraz sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Binobarin, bunda tun bilan tong orasidagi masofa inobatga olingan holda lirik vaziyat yaratiladi:

Uyimizning oldi gilos,
Gilosdan men oldim biroz,
Yana qichqirdimi xo‘roz?
Uxla, qizim, uxla [4, 104].

Qadimiy e‘tiqodga ko‘ra, xo‘roz dono va tadbirkor insonlar sifatini o‘zida namoyon etgan. Yuqoridagi misralarda ham buning isbotini ko‘rish mumkin. Ya‘ni tun bilan tong oralig‘i nazoratini belgilash xo‘rozning zimmasida go‘yo. U tunning ma‘lum bir qismlarida uch marta qichqiradi. Va shundan so‘ng, qarabsizki, tong otadi. Deyarli barcha allalarda xo‘roz obrazi bor. Uning ilk qichqirig‘i yarim tunga to‘g‘ri keladi. Mazkur nomning tilga olinishi onaning o‘z bolasini tezroq uxlashga da‘vat qilishi bilan dalillanadi.

Mumtoz adabiyotimiz, xususan, she‘riyatda eng ko‘p qo‘llanadigan obrazlar jamlanmasi ham, albatta, qushlardir. Qush atamasi “Navoiy timsollari so‘zligi”da quyidagicha izohlangan: “Qush – 1. mif. a. Ruh. b. Quyosh. d. Shamol. e. Erkinlik. f. Hayot. g. Xayol. h. Tush. i. Nafas. j. Elchilik. 2. tas. a. Jon. b. Ko‘ngil [1, 171]. Demak, she‘riy asarlarda kelgan qush obrazi o‘z ma‘nosidan tashqari majoziy, mifologik hamda tavavvufiy mazmun-mohiyatni ham tashiydi. “Badiiy adabiyotda, xususan, majozni faqatgina metonimiya,

istiora, metafora, allegoriya kabi vositalar natijasida hosil bo'lgan so'z va so'z birikmalari tashkil etmaydi. Majoz vositalari asosida badiiy adabiyotda butun bir yaxlit asarlar yaratish an'analari mavjuddir" [7, 48]. Buni lirik asar matnida ifodalangan tasvir yo'nalishidan aniqlab olish mumkin. Qush obrazi haqida gap ketar ekan, Navoiyning to'laligicha majoziylik qununiyati asosida yozilgan "Lison ut-tayr (Qush tili)" dostonini chetlab bo'lmaydi. U Fariddin Attorning xuddi shunday uslubda bitilgan "Mantiq ut-tayr" dostoni ta'sirida yaratilgan. Navoiyning falsafiy ruhda yozilgan dostonida obrazlarning barchasi qushlar: Simurg', Hudhud, To'ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kabutar, Kabki dariy (Tog' kakligi), Tazarv, Qarchig'ay, Shunqor, Burgut, Kuf (Boyo'g'li), Humoy, O'rdak, Tovuq (Xo'roz). Ular majoziy obraz sanaladi. Qushlarning turfa sarguzashtlari ortiga shoir o'zining tasavvufiy qarashlarini singdirgan.

Kim qilib Simurg' o'ttuz qush havas,
O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas.
Munda zohir bo'ldi sirri «man araf»,
Kim ko'rubtur gavhar o'lmog'lig' sadaf [2, 300].

Unda insonning o'zi eng ulug' yaratiq, muqaddas xilqat ekanligi e'tirof etilgan. Hayotda, eng muhimi, insonning o'zini o'zi anglashi, qalban, ruhan tozarishi g'oyalari dostonidan chiqarilgan asosiy va so'nggi xulosa tarzida yangraydi.

"Lison ut-tayr" falsafiy dostonidagi turli ilmiy masalalar qatorida qushlar obrazini adabiyotshunos olimlardan E.Bertels, N.Komilov, I.Haqqul, Sh.Sharipov, S.Olim, M.Imomnazarov, Z.Mamadaliyeva, Y.Is'hoqov, D.Yusupovalar tadqiq qilganlar. Shu bois bu mavzuni keng yoritishni, asarga chuqurroq munosabat bildirishni lozim topmadik.

Mumtoz she'riyatimizda jon qushi, g'am qushi, ko'ngil qushi, mehr qushi singari birikmalarga tez-tez duch kelamiz:

Bobur, ul gul zulfi ostinda emasdur xollar,
Jon qushin sayd aylar uchun donalardur domida [3, 18].

Yoki:

Oldi ko'ngul qushlarin har lahza mushkin turrasi,
Boli shohindurki, sayd aylarda tarrori ajab [10, 54].

Ma'lumki, tasavvuf ta'limotiga ko'ra, qush obrazi jon hamda ruhga tenglashtiriladi. So'fiy insonning tani qafasga, ruhi qushga mengzaladi. O'lim tufayligina badan qafasdan qutilib, ruh Arshga parvoz etmog'i, boqiy olamga safar qilmog'i mumkin.

Yig'di to xoshok selobi sirishkim boshima,
Tutti har yondin kelib g'am qushlari anda yuvo [10, 49].

Nodira qalamiga mansub mazkur baytdagi "g'am qushi" dunyoviy qayg'ular, o'tkinchi tashvishlarni anglatib kelgan. Yuvo – qush uyasi. Bunda esa lirik qahramonning qalbi ma'nosida gavdalangan. Tilga olingan barcha birikmalar istiora san'atining betakror va go'zal namunasi hisoblanadi.

Lirikada keng qo'llanuvchi majoziy obrazlardan yana bir qanotli jonzot – bulbul. U chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush. O'zining yoqimli ovozi bilan har qanday ko'ngilni sehrlash qobiliyatiga ega. U qadimgi manbalardan tortib hozirgi adabiy jarayonda ham ma'shuqa ko'ngilni ovlashga bel bog'lagan oshiq ramzini gavdalanitiradi.

Folklor janrlariga qaraganda mumtoz she'riyatimizda bulbul obrazi faollashdi. Har bir ijodkor asarida unga duch kelishimizning o'ziyoq bu mulohazamizni tasdiqlaydi:

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to'ti takallum shakkaristondin judo [11, 91].

Mutafakkir Navoiyning hayratangiz she'riyati go'yo bir ma'naviy xazina. Olti asrdan buyon uning hayratlari dunyo kezmoqda. Yuqoridagi baytda shoir bulbul bilan to'ti obrazini yonma-yon tasvirilaydi. Ya'ni ikkalasining navo qilishi, yayrab sayrashi uchun ozod muhit zarur ekanligini uqtiradi. Bulbul guliston bilan, to'ti shakkariston bilan tirik, go'yasini ilgari suradi. Bulbulga guliston nega kerak? Chunki unda gul o'sadi. Bu, o'z navbatida, uzviylikni ta'min etadi:

Boburo, hargiz quloq she'ring'a ul gul solmadi,
Gulga ne parvoki yuz faryod qilsa andalib [3, 19].

Bobur ijodidan keltirilgan bu baytda bulbulning ikkinchi shakliy ko'rinishi qo'llangan. Mumtoz lirikada bunday variant qabul qilingan bo'lib, u takrorning oldini olishga xizmat qiladi.

Ey gul, aylarsan jafu xorin urub, Munisg'a javr,
Andalibi dilkash, ilhoning kerakmasmu sanga [9, 10]?

Munisning "Sanga?" radifli g'azalida shu holat takror keladi. Andalib va bulbul so'zlari bir-biriga sinonim bo'lib, sinonimik qatorni hosil qiladi. Har ikki nom ostida ovozining go'zalligi bilan mashhur bir

qushni ko‘ramiz. Mazkur obrazning mumtoz lirikamizda tutgan o‘rni beqiyos. An’anaviy oshiq timsolini gavdalandirishi jihatidan muhim ahamiyatga molikdir.

Bundan tashqari, klassik janrlardagi chug‘z (boyo‘g‘li) obrazi ham e‘tiborni tortadi. U vayronalarda yashashi bilan ajralib turadi. Asosan, kechqurun sayraydi. Ovozining xunukligi kishida salbiy emotsiya qo‘zg‘aydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, mifologik dunyoqarashga asosan, uning sovuq sayrashi ortidan biror falokat sodir bo‘lishi taxmin qilinadi.

Chug‘z bo‘lmish ganji vasling shavqidin ko‘nglum qushi,
Zaxmi ko‘p ko‘nglum uyi ul chug‘zning vayronidur [11, 12].

Yoki:

Bulbul aylar nolalar yolg‘iz dema, ey gul‘uzor,
Cho‘g‘zdek qilgay Muqimiy ham navo vayronada [8, 53].

Boyo‘g‘lini boyqush nomi bilan ham atashadi. U haqda xalq orasida turli afsona va rivoyatlar yuradi. Boyo‘g‘li donishmandlik va zakovat sohibi sifatida majoziy ma’no tashiydi. Ayrim asarlarda esa u xuddi ilon singari xazinani qo‘riqlovchi ramzida gavdalanadi.

Birinchi lirik parchada Navoiy mahoratiga ko‘ra boyo‘g‘lidan tuyiladigan ikki his ifodalangan. Birinchi misrada lirik qahramon yor vasliga erishish haqidagi ko‘nglidan kechirgan xayollarini xazina sanab, unga chug‘zni qo‘riqbon sanaydi. Ikkinchi misrada unga teskari ravishda alamzada ko‘nglini chug‘zning vayronasiga o‘xshatadi.

Muqimiy esa, o‘zini vayronada navo qiluvchi chug‘zga tenglashtiradi. Tasavvufiy istiloh sifatida “boyqush/chug‘z – ilohiy sirlarga erishgan komil inson, vayrona – xush ko‘rilgan darbadar darvesh, ahli xarobot [1, 40]”. Darhaqiqat, tasavvufiy atamalarning jilosi turlicha. Ularni anglash, baytning mazmun-mohiyatiga yetib boorish uchun cheksiz mashaqqat talab etiladi.

Boyqush kabi salbiy emotsiya uyg‘otuvchi qushlar orasida zog‘ ham bor. Uning o‘ziga xos turmush tarzi boshqa qushlardan ajralib turishiga asos bo‘ladi. So‘zlashuv uslubida, xalq tili bilan aytganda, uni qarg‘a deb atashadi. Majoziy ma’noda raqib obrazini ifoda etadi. Ayrim payt xarakter-xususiyatidan kelib chiqqan holda shayton, yovuzlik, jaholat motivlarini ham tashiydi:

O‘lsa xoriston, ne tong, bechora bulbulg‘a vatan –
Kim, jahon bog‘ida yer yo‘qtur hujumi zog‘siz [9, 161].

Bunda bulbul-zog‘ qarama qarshi qo‘yilib, zid ma’noni chiqarib berishda foydalanilgan. Antonim badiiy sana‘tining maydonga kelishida bu zidlik yetrali sanalgan. Xoriston-bog‘ so‘zlari ham ushbu safni to‘ldirib turibdi. Ular hammasi, o‘z navbatida, tanosubni ham hosil qilib, baytning badiiy qimmatini oshirishda beqiyos hissa qo‘shgan.

O‘zbek xalq og‘zaki va yozma manbalarida uchratganimiz shunday qush obrazlari borki, biz real hayotda ularni hech qachon ko‘rmaganmiz. Ular haqiqatda bormi-yo‘qmi, bunisi ham bizga qorong‘u. Ammo xalq orasida bu qushlar haqida turli afsona va rivoyatlar kezib yuradi.

Mashrabning sodda, ravon uslubda yozilgan “Ishqingda o‘ldum” radifli g‘azalida afsonaviy qushlardan qaqnus tilga olingan:

Qaqnusga o‘xshab nola qilurman,
O‘rtandi jonim, ishqingda o‘ldum [6, 59].

Bu qush o‘zining kuchli nolasi bilan boshqa qush va hayvonlarni hayratga soladi. Uning nomi “Lison ut-tayr” da ha uchraydi. O‘limidan oldin “qanotidan o‘t chaqnab chiqadi, keyin butun vujudini o‘t qoplab yona boshlaydi, olov o‘tinlarga o‘tadi va birga-birga yonib cho‘g‘ga aylanadilar. Keyin cho‘g‘lar sovib kul bo‘ladilar. Kul ichida bitta kichkina cho‘g‘ qoladi va u kichkina qaqnus bo‘lib dunyoga keladi” [13].

Yana bir mo‘jizaviy qush – samandardir. Afsonaga ko‘ra, u olov ichida tug‘ilib, olov ichida yashaydigan, rangi ham olovrang jonivor. Olovda yonuvchi bu qush otashin ishq ramzi bo‘lib, visol yo‘lida oshiqni yoqib kul qiladi.

Emasmen ishqidin ayruki, bo‘lmas
Samandar otashi so‘zondin ayru [9, 79].

Munis qalamiga mansub baytda u tasavvufiy istiloh bo‘lib kelgan. Lirik qahramon ma’shuqa ishq o‘tida kuyganini samandar holati bilan parallel qo‘yadi.

Bog‘larda, oromgoh hamda sihat yerlarida ko‘zimiz tushsa, yaqqol diqqatimizni jalb qiluvchi qush – tovus. U o‘zining yorqin jozibasi – tashqi go‘zalligi, chiroyli patlari bilan ko‘ngillarni maftun aylaydi. Sallamno yurishlari ma’shuqaning ohista va jilvakor qadam tashlashiga qiyoslanadi.

Yuzung ko‘rmakka doim muntazir nargiz bila gulzor,
Xirom et bog‘ aro tovusvor ohista-ohista [8, 57].

Ogahiy lirik xazinasining yuksak namunasi bo'lgan bu baytda yuqorida ta'kidlaganimiz g'oya ilgari surilgan. Nargis bilan gulzor yorning bog'da to'vusvor xirom aylashiga muntazir. Uning rango-rang tuslanib kiyingani, zeb berilgan qaddi-qomati to'vusning yorqin bo'yoqli patlari bilan uyg'un. Zero, ma'shuqa to'vus kabi yurishni qoyillatib, oshiqclarini kuydirishda davom etayotir. Misralarda qo'llangan nargis, gulzor, yuz, bog', to'vus poetik obrazlari olamning badiiy manzarasini yorqin bo'yoqlarda ifodalash uchun xizmat qilgan.

Mumtoz janrlarda oz bo'lsa-da, xuffosh obrazini uchramiz. U hozirgi o'zbek tilida ko'rshapalak deb ataladi. O'z nomi bilan ma'lumki, uning ko'zlari ko'rmaydi. Biroq haddan ortiq kuchli sezgiga ega.

Har kimki bo'lsa bebasar ul yuz ziyosidin qochar,

Ul nav'kim, tushkach quyosh anvori xuffosh ustina [9, 126].

Ogahiyning "Ustina" radifli g'azalida xuffosh tasavvufiy mazmun-mohiyat kasb etgan. Zuhd so'fiy [1, 251] ramzini gavdalandirgan. Tasavvufiy dunyoqarashga asosan, kimki dunyodan parhez etsa, uning qalbi tajalliyot nuri kiradigan joyga aylanadi. Baytdagi yor ALLOHga, quyosh anvori esa HAQ ziyosiga ishora qiladi.

Xulosa. Demak, olamning badiiy manzarasini ifodalashda qush obrazlari adabiy-badiiy asar tarkibida inson obrazlari bilan hamisha yonma-yon tasvirlanib kelingan. Mazkur obrazning individual xususiyatlari, ular ifodalaydigan ramziy ma'nolar, nafaqat xalq qo'shiqlari tarkibidan joy olgan, balki buyuk mutafakkir allomalar, mumtoz she'riyat vakillari e'tiboridan ham chetda qolmagan. Ular she'riy asarlarida ilgari surgan g'oyalarning aniq va tushunarli bo'lishi, tuyg'ularning teranroq ifodalanishi, yondosh obrazlarni yorqinroq tasvirlash uchun hamisha faunistik obrazlarga ehtiyoj sezganlar.

ADABIYOTLAR:

1. Avaznazarov O. Navoiy timsollari so'zligi. – T.: Spectrum Media Group, 2024.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн иккинчи том. Лисон ут-майр. – Т.: Фан, 1996.
3. Бобур. Девон. –Т.: Фан, 1994.
4. Энг сара аллалар. Наирга тайёрловчи Абдумурод Тулаов. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2017.
5. Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2019.
6. Mashrab: she'rlar/nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. – T.: Akademyashr, 2020.
7. Мирзоҳидова Л.Б. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадийати. Фил.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. авт-ми. Самарқанд – 2018.
8. Muqimiy. Ikki tomlik asarlar to'plami. 1-tom. Lirika. – T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
9. Mushkin qoshining hay'ati: Munis, Ogahiy/to'plovchi va so'zboshi muallifi E.Ochilov. – T.: O'zbekiston, 2015.
10. Nodira-Komila. Devon. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
11. Orazin yopqach ko'zumdin: g'azallar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar, fardlar/Alisher Navoiy. So'zboshi, izohlar muallifi va to'plab nashrga tayyorlovchi M. Abdulxayr. –T.: Zabardad media, 2023.
12. Шоода-шоода марварид: Ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: Шарқ, 2006.
13. Қақнус умрининг узунлиги ва унинг аҳволи ҳикояси. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/ibratli-hikoyatlar/a-nus-umrining-uzunligi-va-uning-a-v/>
14. O'roqova N. (2024). Abdulla Oripov lirikasida ramziy-floristik obrazlar ifodasi. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(3), 193-199.
15. O'roqova N. (2024). Sadridin ayniy uslubiga doir chizgilar. // *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 47(47). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12188
16. O'roqova N. O'zbek she'riyatida kapalak obrazi talqini // *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*. – 2024. – Т. 47. – №. 47.
17. Yorievna U.N. ., & Ikhtiyar's K.N. . (2024). National Portrait in Otkir Hashimov's Stories. // *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 831–837. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1923>.

ABDULLA SHER IJODIDA DOSTONNING O'RNI

Xamroyeva Dilnoza Jumanazarovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
d.j.xamroyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. *Abdulla Sher shoir sifatida nafaqat lirik turga murojaat qilib, she'rlar yaratdi, balki liro-epik turga mansub janr sanalgan she'riy dostonlar yozdi. Uning she'riy dostonlarida o'ziga xoslik, mavzular ko'lami kengligi, o'z obrazlar olami bor. Abdulla Sher doston yaratishda o'z uslubidan boradi, ya'ni o'z personajlarini oq va qoraga ajratmagan holda bu vazifani kitobxonga yuklaydi. Uning dostonlaridagi chiroyli tashbehlar, so'z qo'llash mahorati va badiiy bo'yoqdorligi alohida e'tiborga molik. Maqolada Abdulla Sherning dostonlari mavzu jihatidan tasnif qilingan hamda ularning har biriga alohida to'xtab o'tilgan holda ijodkorning badiiy maqsadi ochishga harakat qilingan. Maqolada shu haqidagi fikrlar o'z aksi ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *doston, xalq dostoni, lirik doston, janr, tur, obraz, mavzu, tashbeh, liro-epik tur, mavzu, tasnif.*

РОЛЬ ЭПОСА В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ ШЕРА

Аннотация. *Как поэт Абдулла Шер создавал стихи не только, обращаясь к лирическому типу, но и писал поэтические эпосы, жанр, относящийся к лирико-эпическому типу. Его поэтические эпосы обладают своей неповторимостью, широтой тематики и миром собственных образов. Абдулла Шер следует своему собственному стилю в создании эпоса, то есть, не разделяя своих героев на чёрных и белых, он поручает эту задачу читателю. Особого внимания заслуживают красивые аллюзии, мастерство слова и художественный колорит его эпосов. В статье эпосы Абдуллы Шера классифицированы по тематике, а также сделана попытка раскрыть художественную цель художника, остановившись на каждом из них в отдельности. В статье отражены мнения по этому поводу.*

Ключевые слова: *эпос, народный эпос, лирический эпос, жанр, тип, образ, тема, аллегория, лирико-эпический тип, тема, классификация.*

THE ROLE OF THE EPIC IN THE WORKS OF ABDULLA SHER

Abstract. *As a poet, Abdulla Sher created poems not only by turning to the lyrical type, but also wrote poetic epics, a genre belonging to the lyrical-epic type. His poetic epics have their own uniqueness, a wide range of topics, and a world of their own images. Abdulla Sher follows his own style in creating an epic, that is, without dividing his characters into black and white, he assigns this task to the reader. The beautiful allusions, skill of using words and artistic coloring in his epics are of particular note. In the article, the epics of Abdulla Sher are classified in terms of subject matter, and an attempt is made to reveal the artist's artistic goal, focusing on each of them separately. In the article, the opinions about this are reflected.*

Keywords: *epic, folk epic, lyrical epic, genre, type, image, theme, allegory, lyric-epic type, subject, classification.*

Kirish. *Doston janri o'zining tarixiy taraqqiyoti mobaynida ko'plab ko'rinishlar kasb etgan. Shu sababli uning ta'rifi kengayib bormoqda. "Doston" atamasi xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot namunasi sifatida lirik va epik turning qorishiq kelishi bilan bog'liq janr sifatida e'tirof etiladi. Xalq dostonlarida qahramonlarning ruhiy kechinmalari, qalb iztiroblari yoki shodliklari aynan she'riy usulda kuylanadi va voqealar bayoni nasriy tarzda, aksar hollarda saj' ko'magida beriladi. Yozma dostonidan farqli o'laroq xalq dostonlari bir necha variantli bo'lishi mumkin. Yozma adabiyotga mansub dostonlar asosan to'liqligicha she'riy tarzda yoziladi, ammo ba'zan she'riy va nasriy qismlardan iborat dostonlar ham uchraydi. Doston o'zbek adabiyotining eng qadimiy va qadrdon janrlaridan biri. Mumtoz adabiyotimizda ko'plab dostonlar, xususan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonidan tortib Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Alisher Navoiyning "Xamsa"sini eslash orqali bu janr nihoyatda boy va teran janr ekanligini anglash mumkin.*

“Adabiyot tarixida butunicha liriklik negiziga qurilgan poemalar ham ko‘p. Ularda shoir muayyan voqea-hodisa, hayotiy masala yuzasidan o‘z fikr tuyg‘ularini, o‘y mulohazalarini mufassal, ehtirosli tarzda ifodalaydi, poema esa qalb qo‘shig‘iga aylanadi. Bunday epik syujetga suyanmagan asarlar lirik poemalar deb yuritiladi” [7.232.]. XX asr ijodkorlari Oybekning “Davrim jarohati”, Maqsud Shayxzodaning “Toshkentnoma”, Sulton Akbariyning “Mening mahallam”, E.Vohidovning “Palatkada yozilgan doston” kabi asarlari lirik dostonidir. Bunday asarlar ko‘p hollarda hajman qisqa bo‘ladi. Doston janri bilan poema janri parallel tarzda qo‘llaniladi. Poema janri XX asrning 20-30-yillarida yangicha bosqichga ko‘tarila boshladi. 50-yillar oxiri 60-yillar boshlarida Mirtemirning “Surat”, E.Vohidovning “Nido”, H.Sharipovning “Quyoshga oshiqman”, J.Jabborovning “Ona yer qo‘shig‘i” kabi bir qancha dostonlari yaratildiki, unda epik voqelik lirik tarzda ifoda etildi.

“Doston zamonaviy adabiyotda keng tarqalgan yirik hajmli she‘riy asar, unga sinonim tarzida poema atamasi ham qo‘llaniladi. Hozirgi adabiyotda dostonlar bitta umumiy nom bilan atalsa-da, janr xususiyatlariga ko‘ra ular turlichadir. Shuning uchun ham amaliyotda lirik doston, epik doston, dramatik doston kabi aniqlashtiruvchi atamalar qo‘llaniladi” [6.94.]. Hozirga qadar o‘zbek adabiyotida juda ko‘plab lirik dostonlar yaratildi. Zulfiyaning (“Quyoshli qalam”), S.Zunnunovanning (“Ruh bilan suhbat”), E.Vohidovning (“Nido”), Cho‘lpon Ergashning (“Bezovta ruhtar”), Habib Sa‘dullaning (“Do‘st qadri”), Toshpo‘lat Ahmadning (“Buxoronoma”), Salim Ashurning (“Atirgul”) kabi dostonlarini misol keltirish mumkin.

Natija va muhokama. Abdulla Sher ham o‘zbek zamonaviy dostonchiligida o‘z o‘rniga ega ijodkoridir. U har bir mavzu mohiyatini ulug‘ qalbi, teran aqli, tafakkur va xayoli bilan ocha olgan, tabiat, atrof-muhit, umuman, borliqdan go‘zallik topa olgan shoir sanaladi. U o‘zbek adabiyotida voqelikni she‘riyatning boshqa janrlariga nisbatan kengroq tasvirlashga, personajlarning ruhiy olami va xarakterini shakllanish va rivojlanish jarayonlarida ko‘rsatishga qodir doston janri rivojiga ham beqiyos hissa qo‘shdi. Uning ijodida “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Yig‘layotgan tosh”, “Yonayotgan yo‘l”, “Sevilmagan mening sevgilim” kabi lirik dostonlar o‘rin olgan. Ushbu dostonlarda shoirning lirik darajasi, imkoniyatlari va so‘z qo‘llash mahorati yaqqol aks etadi. Abdulla Sherning lirik dostonlarini mavzu ko‘lami va obrazlar tizimiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Asosiy qahramonlari tarixiy hamda real shaxslar bo‘lgan dostonlar (“Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Yonayotgan yo‘l”).

2. Asosiy voqealari muhabbat atrofida sodir bo‘lgan dostonlar (“Sevilmagan mening sevgilim”, “Yig‘layotgan tosh”).

Shoirning “Sevilmagan mening sevgilim” lirik dostoni qadr topmagan muhabbat haqidagi dostonidir. Lirik dostonga Hodi Toqtoshning “Muhabbat!.. Ul o‘zi eski narsa, lokin har bir yurak oni yongartar” jumlasini epigraf qilib olingan. Lirik doston bag‘ishlov va 4 ta qo‘shiqdan iborat. Har bir qo‘shiq bo‘limlarga bo‘linadi: 1-qo‘shiq XXI bo‘lim, 2-qo‘shiq XXIII bo‘lim, 3-qo‘shiq XX bo‘lim va 4-qo‘shiq XXIII bo‘limdan iborat. Har bir bo‘lim o‘ziga xoslik kasb etsa-da, kompozitsiyasiga ko‘ra bir butunlikni tashkil qiladi. Sakkiz qatorli 11 bo‘g‘inli misralardan tashkil topgan bu qo‘shiqlarda vazmin ohang bor. Doston shoir tili bilan aytganda:

Men bir doston atadim senga,
Sevilmagan mening sevgilim” [1.583.].

Insonni kimdir “sevgilim” desa, u inson sevilgan hisoblanadi. Shoir oksimoron yordamida holatni kuchaytiradi. Dostonda lirik qahramonning o‘y-kechinmalari, iztiroblari, yetisha olmagan muhabbati ask ettirilgan. Doston xuddi muhabbat madhiga bag‘ishlangan qasida singari o‘qiladi. Asar shoirning ancha yillardan so‘ng, sevgilisini ko‘rib, yetisholmagan muhabbati haqida o‘ylovga botishi bilan boshlanadi. Dostonda go‘zal tashbehlardan juda o‘rinli foydalanilgan.


Muhabbat mavzusi azal-azaldan barcha ijodkorlarni o‘ziga maftun etgan. Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Atoiy kabi ijodkorlar asarlarida uning yorqin ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Nafaqat mumtoz adabiyotda, balki zamonaviy adabiyotda ham muhabbat shoirlar madhida yetakchilik qiladi. Nodiraning “Muhabbatsiz kishi odam emasdur, Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et” [5.68.] misralarini eslash kifoya.

Muhabbat xushbo‘ydir, lekin chechakmas,
U ko‘z-ko‘z qilinmas chakkada, zotan.
Muhabbat – hikoya, u – bir ertakmas:
Tugamas faqat to‘y-tomosho bilan [1.583.].

Shoir yuqoridagi misralar orqali muhabbatning qalbdan pinhon yashashi haqidagi fikrlarini dalillaydi. Dostonning birinchi qo‘shig‘i to‘liqligicha muhabbat madhiga bag‘ishlangan. Muhabbat sha‘niga tashbehlar keltirib, uni baralla kuylaydi. Keyingi qo‘shiqlarda shoir fikri, uning iztiroblari yanada yaqqolroq aks etadi.

LITERARY CRITICISM

Yetisha olmagan muhabbati, uni ancha yillardan so'ng tasodifan ko'chada ko'rib qolishi va shu orqali og'riqli tuyg'ularini qog'ozga tushirishga majbur bo'lgani juda ta'sirli bo'yoqlarda aks ettiriladi. Dostonda sevib qolgan, ammo uni vaqtida anglay olmagan yigit iztiroblari qalamga olingan. Ayni damda, yigit g'ururli, oriyatli. U birovning mahramiga yomon ko'z bilan qaramaydi va buni "Bormoqqa, azizim, mening haqqim yo'q, Uzukli barmoqqa uzuk taqqim yo'q" [1.583.] shaklida ifodalaydi. So'ngra, muhabbat o'zi nima ekanligi, uni qanday tushunish mumkinligi. bu abadiy savol ekanligi eslanadi. Ba'zan shu savol javobini topa olmagan umrlar, taqdirlar borligini, bunday ulug' tuyg'uni anglash har kimga ham nasib qilavermasligini uqtirgan holda uni quyidagicha ta'riflaydi:



Bu misralarning har biri muhabbatga ta'rif, ayni damda, muhabbatning bir xususiyatini ifodalash hamdir.

Dostonning so'nggi qo'shig'ida olamga yaxshilikni yoymoq uchun sevgilisidan ayrilgan oshiq yigit iztiroblari avjiga chiqadi. Va nihoyat, shoir muhabbat juda buyuk dard ekanligini, bu olamda dardlilar nihoyatda ko'p ekanligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, ushbu doston lirik qahramon nidolari bilan sug'orilgan buyuk asardir.

Shoirning "Karvon qo'ng'irog'i" dostoni do'sti Murod Xidirga bag'ishlanadi. Ushbu doston Buxoroning sharaflari va biroz ayanchli tarixi tarixiy faktlarni misralarga marorat bilan joylash orqali yoritilgan. Abdulla Sherning Buxoro haqidagi dostonini tahlil qilish jarayonida biror hodisani ko'zdan qochirmaganiga guvoh bo'lamiz. Abdulla Sherning yutug'i shundaki, uning she'rlari shunchaki Buxoroga maqtov tarzida emas, balki har bitta misrasini yaratishda tarixiy faktlarga asoslanganidir. Biroq yana dalillash uchun quyidagi misralarni keltiramiz:

Ulkan qulbozorga aylandin-ku, sen,
Dallolsiz sotdilar, sotdilar seni.
Zambarak og'ziga bog'landing-ku, sen,
Jadid deb otdilar, otdilar seni [2.22].

Bu misralar mohiyatini tushunish uchun Buxorodagi quldorlik tuzumi va o'tgan asrning qatag'on mashinasiga qurbon bo'lgan buyuk ma'rifatparvar arboblarmiz Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Ubaydulla Xo'jayevlarni eslashimiz kifoya.

Ushbu dostonni o'qish jarayonida iste'dodli ijodkor – Addulla Sher tomonidan Buxoro tarixi puxta o'rganilgan va tarixiy faktlar badiiy bo'yoqlar orqali mohirona yoritilganiga guvoh bo'ldik. So'zlarni qo'llashda juda xushyorlikni hamda bir so'z bilan ikki ma'no berishga harakat qilganini sezamiz. She'rlarda ona yurtga muhabbat, Buxorodan faxr tuyg'ulari yaqqol sezilib turadi. Haqiqatda, Buxoro tabarruk zamin. U jahon tamadduniga hissa qo'shgan buyuklarni yetishtirdi. Buxoroni qalamga olayotgan har bir ijodkor aynan ushbu jihatlarga e'tibor beradi. Buxoroning serzahmat shoiri Toshpo'lat Ahmad "Gavhari jonim" to'plamida "Buxoroga kirar bo'lsang, etingni yechib kir, Xayollaring shaffof etib, yuragingni ochib kir"[4.32.] deganda ham aynan Buxoroning Avliyo shahar ekanligiga ishora qiladi.

Abdulla Sherning "Yonayotgan yo'l" dostoni mavjud. Dostonga "...Ular Ulug' Oktyabrning yigirma yilligi "sharfiga" Solovkidagi lagerda otib tashlandilar... Otilgan, taqiqlangan va keyinchalik oqlangan

o‘zbek shoir-yozuvchilarining qatag‘on qilinganlar ro‘yxatidagi soni yetmish ikki nafar...[3.109] “Pravda” gazetasi, 1990-yil, 29-dekabr sonidagi xabar epigraf qilingan. Ushbu doston sobiq sho‘ro davrida qatag‘on qilingan shoir-yozuvchilar xotirasiga bag‘ishlanadi. Doston juda ta’sirli syujetga ega bo‘lib, muqaddima, yetti bob va xulosadan iborat. Asar buyuk arman shoiri, yozuvchisi va jamoat arbobi Yegishe Charents bilan bog‘liq voqealar bilan boshlanadi.

...Shofyor nimanidir yerga irqitdi.
Qop emas, nimadir qopdan uzunroq
Nonga o‘xshamasdi, hayhot, u biroq, –
Tuproqda yotardi xor bo‘lgan murda [3.110].

Qatag‘on qurbonlarini “Non” mashinada, ya’ni non tashiydigan mashinada yashirincha tashilishi va otib tashlab, kafansiz ko‘mib yuborilishi ayanchli tasvirlangan. Insonlar bu mashinani ko‘rganlarida issiq nonning hidini tuyushgandek bo‘ladi, lekin uning ichida murdalar – ma’rifat fidoiylarining jasdlari olib ketilayotgani qalamga olinadi.

G‘izillab boradi o‘ttiz yettining
Kuzida qop-qora “NON” mashinasi;
Mahbus-u murdalar tashir betinim
Tunning mashinasi, qon mashinasi[3.123].

Endi shoir qurbon bo‘lgan jadidlar haqida gapiradi. Dostonda qatag‘on qurbonlaridan ikki kishining – Yegishe Charents va Abdulla Qodiriy nomlari sanaldi. Ammo shu ikki obraz orqali bu siyosatning butun dahshatlarini ochib tashlaydi. Dostondagi usta Nazir tomonidan aytilgan hikoyada “Bu arvoch kechagi xor bo‘lgan murda Julqunboy – Abdulla Qodiriy edi. To‘rt gazli kafanga zor bo‘lgan murda O‘zbekning gavhari, nodiri edi” [3.132.] kabi satrlar orqali ham buni yanada yorqinroq ko‘rish mumkin.

Abdulla Sher “ITTIFOQ” nomi ostida birlashtirilib, saqlab turilgan tuzumni gurillab lov-lov yonayotgan yo‘lga qiyoslaydi. Bu yo‘lda chopib borayotgan odamlar kuyib, jizg‘anak bo‘lishi, taqdirlar, umrlar kuyishi bo‘g‘liq bir ovoz bilan ta’kidlanadi. Va nihoyat, xotimada shoir bu ishlar ortida turgan, ziyolilar uning siyosati qurboni bo‘lgan – Stalinga murojaat qilib, shoirlarning millari Erk ekanligini, ularni biror johil yo‘q qilolmasligini ta’kidlaydi va dostonga yakun yasaydi.

Abdulla Sherning XVI bobdan iborat “Yig‘layotgan tosh” dostonida Qrim xoqoni Garoy va uning go‘zal Diloroga bo‘lgan mislsiz muhabbati haqida kuyiladi. Ushbu doston muhabbat va sadoqatning cheksiz qudrati haqida hikoya qilinadi. Insoniy va yoniq fazilatlar yorqin ko‘rsatilgan ushbu doston g‘aroyib voqealar ta’sirchan izohlar bilan yo‘g‘rilgan holda tasvirlanadi. Dostonda Qrim Garoy va dovyurak qiz Diloru sevgisi shu tarzda ifodalanadi:

Qilar edi ularga havas
Qashshoqlar ham, Qorundek boy ham.
Ishqdan yonib olardi nafas
Qovoq uygan Bog‘chasaroy ham[1.217].

Ammo har qanday kechaning kunduzning kechasi, har bir quvonchning g‘ami bo‘lganidek ularning ham baxtli damlari yakuniga yeta boshlaydi. Bu asarda: “Orzulardan g‘olibdir armon”[1.218] misralari orqali ifodalanadi. Noma’lum dardga chalingan Diloru kundan-kunga so‘lib boradi. Uning ushbu holati xonadagi shamning erishiga qiyoslanib, “Oltin qandil tutamidagi Eng go‘zal sham tutaydi nigun”[1.218] holatida tasvirlanadi. Dostondagi boshqa yordamchi obrazlar ham juda jonli ishlangan. Xususan, devonbegi, saroy a‘yonlari, usta Umar timsollarida hushyorlik, bilimlilik, ishonch tuyg‘ulari go‘zal ifodalar orqali beriladi va haykalning yaralish g‘oyasi quyidagicha qalamga olingan:

Zero, sizga qodir Xudoyim
Baxsh aylamish toshday cho‘ng bardosh.
Siz taxtda ham, ahdda ham qoyim,
Sizga haykal – yig‘layotgan tosh [1.221].

Bir o‘qishda shoir bir rivoyatni vazn va qofiyaga solib bergandek ko‘rinishi mumkin. Ammo ushbu doston har bir qalbdagi o‘zgacha hissiyot bag‘ishlangan holda, sevgining kuchi va qudrati, uning umrga ma’no baxsh etishi haqida baralla kuyiladi.

Xulosa. Abdulla Sher nafaqat doston yaratdi, balki shu doston olamiga o‘quvchini yetaklay oldi. U kitobxonini bir o‘rinda kuldirdi, bir o‘rinda xomush torttira bildi. Shoir biror narsaga munosabat bildirib, bu yaxshi, bu yomon deb ajratmaydi, balki butun xulosani o‘qiguvchiga havola qiladi. Shu taxlit lirik doston yuzaga kelgan. Ko‘rinadiki, lirik doston voqelikdan ko‘ra kechinma ifodasi ustuvor. Unda obrazlar ko‘p-kamligi emas, liriklik muhim. Abdulla She‘r esa mahorat bilan lirik doston yaratgan shoirlardan.

ADABIYOTLAR:

1. Абдулла Шер. *Танланган асарлар*. – Т.: “ШАРҚ” НМАК, 2021. – Б.583.
2. Абдулла Шер. *Қадимги куй*. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.47.
3. Абдулла Шер. *Ёнаётган йўл*. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.104.
4. Ahmedov Toshpro'lat. *Gavhari jonim*. – Т.: *Xalq merosi*, 2002. – В.32.
5. Нодира шеърятидан. (*Маҳбуба Қодирова талқинида*) – Т.: Ўзбекистон, 1979. – В.68.
6. Қуронон Д., Мамажонов З., Шералиева М. *Адабиётшунослик лугати*. – Т.: Академнашр, 2010. – Б.94.
7. Худойбердиев Э. *Адабиётшуносликка кириш*. – Т.: “ШАРҚ” НМАК, 2008. – Б.232.

«BOVARY XONIM» VA «HAYOT» ROMANLARIDA AYOLLAR OBRAZINING IFODALANISHI

*Xolmanova Shoxsanam Qobiljon qizi,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Fransuz filologiyasi kafedrasida stajyor o'qituvchisi
shoxsanamxolmanova96@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqola fransuz yozuvchisi Gi de Mopassanning "Une vie" ("Hayot") va Gyustaf Floberning "Madame Bovary" ("Bovary xonim") asarlarida bosh qahramon ayol obrazlari to'g'risida bo'lib, unda XIX asr fransuz ayoli timsoli gavdalaniriladi. "Une vie" ("Hayot") va "Madame Bovary" ("Bovary xonim") romanidagi bosh qahramonlar o'z taqdiridan norozi ayol qahramonlar sifatida namoyon etiladi. Ikki qahramon obrazlar Emma va Janna taqdiri maqola davomida tahlil qilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: romantizm, romantik, realizm, realistlar, "Romantizm estetikasi", xarakter, bovarizm, metafora.

ОБРАЗЫ ГОСПОЖА БОВАРИ («MADAME BOVARY») И ЖАННЫ («UNE VIE») КАК ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ФРАНЦУЗСКИХ ЖЕНЩИН XIX ВЕКА

Аннотация. В данной статье речь идёт об образах главной героини произведений французского писателя «Une vie» («Жизнь») и «Madame Bovary» («Госпожа Бовари») Гюстава Флобера, которая воплощает образ французской женщины XIX века. Главные героини романов «Une vie» («Жизнь») и «Madame Bovary» («Госпожа Бовари») предстают женскими персонажами, недовольными своей судьбой. В статье будет проанализирована судьба двух героинь, Эммы и Жанны.

Ключевые слова: романтизм, романтик, реализм, реалисты, «Романтическая эстетика», персонаж, боаризм, метафора.

THE IMAGES OF MADAME BOVARY ("MADAME BOVARY") AND JEANNE («UNE VIE») AS A REPRESENTATION OF FRENCH WOMEN OF THE XIX CENTURY

Abstract. This article is about the characters of the female protagonist in the works of the French writer Guy de Maupassant "Une vie" ("Life") and "Madame Bovary" ("Madame Bovary") by Gustave Flaubert, which embodies the image of a French woman of the 19th century. The main characters in the novels "Une vie" ("Life") and "Madame Bovary" ("Madame Bovary") appear as female characters dissatisfied with their fate. The fate of two heroines, Emma and Zhanna, will be analyzed in the article.

Keywords: romanticism, romantic, realism, realists, "Romantic aesthetics", character, Bauvarism, metaphor

Kirish. Romantizm davri — XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida Yevropa va Amerika madaniyatidagi g'oyaviy va badiiy oqim bo'lib, u shaxsning ma'naviy va ijodiy hayotining ichki qiymatini tasdiqlash, kuchli (ko'pincha isyonkor) tasvirlash bilan tavsiflanadi. U inson faoliyatining turli sohalariga tarqaldi. XVIII asrda haqiqatda emas, balki kitoblarda mavjud bo'lgan g'alati, chiroyli va hamma narsa romantik deb ataldi. [<https://tarix.sinaps.uz/hodisa/romantizm-davri/>].

Realizm - bu yozuvchilar o'z asarlarida haqiqatni iloji boricha haqqoniy aks ettirishga intilgan adabiy yo'nalish. "Realizmda ijodkorning shaxsi va uning ijtimoiy estetik ideali ham katta rol o'ynaydi. Realizm insoniyatning ezgu orzulari jahondagi hamma kishilarning haqiqiy insonlarcha yashashga erishuvi uchun kurashni shior qilib oldi. Shuning uchun ham buyuk realist yozuvchilar ijodi izchil xalqchillik ruhi bilan sug'orilgandir. Realizmining yirik vakillari G.Geyne, V.Gyugo, G.Mopassan, J.London, B.Shou, L.Tolstoy kabi yozuvchilarning ijodi buning yaqqol misoli bo'la oladi". [Fones Philip S. "Mark Twain: social critic" New York, 1958].

Yozuvchilar va rassomlar tomonidan realizm atamasining yaxshi qo'llanilishi tufayli bu so'z 1878-yilda Fransiya akademiyasining lug'atiga kirdi. Fransuz adabiyotida Flober va Mopassan Romantizm davrining eng buyuk yozuvchilaridandir. Atoqli san'atshunos V.Vanslov "Romantizm estetikasi" kitobida

jahon adabiyoti va san'atida vujudga kelgan bu oqimga mansub san'atkorlar (bastakor, rassom, dramaturg, janr, faylasuflar) insoniyatning ruhiy, ma'naviy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan nodir iste'dod egalari ekanligini, ular ijodida butun insoniyat orzu-ideallari yorqin aks etganligini aytadi. "Romantiklar g'arazli manfaatga", yovuzlikka begona; go'zal, qalbi toza, mehr-shavqatli odamlarning qadrlanishini, inson va olam garmoniyasini (ya'ni insonlarning olam go'zalligiga muvofiq bo'lishini), erkin va baxtli hayotni, insoniyat baxt-saodati uchun qahramonliklarni, yuksak ma'naviyatli, ma'rifatli insonlarning birdamligini va birodarligini, iste'dodli shaxslarning barcha qobiliyatlari ro'yobga chiqishini orzu qiladilar. Voqe'likda esa romantiklar buning teskarisini, baxtsizlikni, qullikni, muhtojlikni, tubanlik va buzuqlikni, shaxsning (insoniylikning) yemirilishini ko'radilar. [B.B.Ванслов. эстетика романтизма. «Искусство», М. 1966, стр. 4-5].

Asosiy qism. Flober va Mopassan o'z romanlarida ayollarning o'z jamiyatini tanqid qiladigan ahvolini tasvirlab, o'z davrining pessimizmi va iztiroblarini ikki qahramonning turmush sharoiti orqali ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan yozuvchilardir. Yozuvchilar ayollarning jamiyatdagi o'rni haqidagi qarashlarini o'z asarlarida tadbiiq etgan. Ushbu davrning ijtimoiy ahvolini yaxshi tushunish uchun bu jamiyatdagi shaxsning holatini tushunish ham kerak. Qahramonlar orqali yozuvchi inson va uning jamiyat bilan munosabatini tasvirlaydi. Masalan, aristokratik dunyo ta'rifini o'sha dunyoga maftun bo'lgan kichik burjuaziya xonim Bovari nigohi bilan ko'rish mumkin. Bu qarash orqali Flober, uning fikricha, tashqi dunyo haqiqatini, shaxsning holatini va uni o'rab turgan muhitni ochib beradi. Pol Burje "Zamonaviy psixologiya ocherklari" asarida pessimist yozuvchilarning adabiy asarlari orqali pessimizm egallagan shakllarni tahlil qiladi. Quyida Ninane de Martinoir fikriga ko'ra, Burje Flober haqida shunday deydi: "*Ses personnages sont le produit d'une civilisation fatiguée. Dans toutes ses œuvres, il entend un sanglot, celui de l'homme qui a trop pensé*". [Ninane de Martinoir Francine, «Maupassant et le pessimisme 'fin de siècle'», Analyses et réflexions sur Guy de Maupassant Une Vie, Ouvrage collectif, Ellipses, Paris, 1999. p. 168-169.]. Ma'nosi - "Uning qahramonlari charchagan sivilizatsiya mahsuli. O'zining barcha asarlarida u haddan tashqari o'ylagan odamning yig'isini eshitadi". Bu Floberning o'z jamiyati va shaxsi haqida qanday fikrda ekanligini tushuntiradi. U o'z fikrlarini qahramonlari orqali tarjima qiladi. Uning qahramonlari jamiyatning ma'lum bir sinfi shaxsining holatini tushunishimiz uchun G. Flober berishi mumkin bo'lgan yaxshi namunadir.

Stiven Xitning "*Gustav Flober, Madame Bovary*" kitobida u barcha tanqidlarga qaramay, roman katta muvaffaqiyatga erishganini aniq tushuntiradi: "*Everyone has read it, is reading it or wants to read it*". [Heath, Stephen. Gustave Flaubert, Madame Bovary, Cambridge, New York: Cambridge University Press, 1992, p.48]. Ya'ni- "*Hamma uni o'qigan, o'qiyapti yoki o'qishni xohlaydi*". Flober o'zining "*Madame Bovary*" romanini yozish uchun besh yil vaqt sarfladi. U mazmun yoki mavzu bilan bir qatorda vaziyatning to'liq tasvirini berish uchun til va uslub mukammal bo'lishini xohladi.

XIX asr ijodi davomida adabiyotni hayotga yaqinlashtirishda ma'lum darajada hissa qo'shgan yozuvchilardan romannavis va tanqidchilar Gi de Mopassan (1880—1890) va Gyustav Floberdir. (1821-1880). Ular adabiyotda sun'iylikka qarshi chiqib, "nozik realist"larning favqulodda, alohida voqealarni tasvirlashiga javoban kundalik hayotda uchraydigan oddiy hodisalarni real ko'rsatishga chaqirdilar. Floberning buyuk mahorati - tashqi faktlarni tasvirlash orqali ichki tuyg'ularni qanday yetkazishni bilishdir. U o'z asarlarida yaratgan obrazlar o'z davri uchun xos siymolar edi. Floberning asosiy tashvishi ham uslubning ravshanligi va soddaligi edi. Bu fazilatlarining barchasi uni tanqidiy realizmning so'zsiz ustalaridan biriga aylantiradi. Gyustav Flober XIX asrning buyuk realistlaridan biridir. - o'z davrining yangi hayotiy hodisalarini aks ettirish vositalarini izlab topgan. G. Flober ijodi adabiyotshunoslikka cheksiz qiziqish uyg'otadi: fransuz yozuvchisining badiiy asarlarida o'z davrining dolzarb masalalari yoritilgan.. Qayd etilishicha, yozuvchi aholining ijtimoiy qatlamlariga qarama-qarshi munosabatda bo'lgan: "*U butun umri davomida burjuaziya nafratlangan, ommaga nafrat bilan qaragan va siyosiy faoliyatni behuda deb hisoblagan. Romantizm unga (Flober) asossiz vasvasa, vaziyatlarning kuchi - o'zgarmas va deyarli yakuniy qonun sifatida ko'rinadi*". [Карельский А.В. От героя к человеку. – М.: Советский издатель, 1990. – 405 с.].

Emma xayolparast va romantik ayol bo'lib, u o'zining romanistik o'qishlari kabi sevgiga to'la mukammal hayotni xohlaydi. Orzu va ehtiros Emma o'smirlik davridagi adabiyot va sevgi hikoyalarga qiziqdi. Bu uning ishtiyoqini va bunday sevgini boshdan kechirish istagini oziqlantirdi: "Emma kitoblarda juda go'zal ko'rinadigan baxt, ehtiros va mastlik so'zlari hayotda aniq nimani anglatishini bilishga intildi. U "sevgilar, oshiqlar" haqida hikoya qiluvchi uzun boblarni o'qidi va "tarixiy narsalarga oshiq bo'ldi, sandiqlar, qorovullar va qo'riqchilarni orzu qildi". Shunday qilib, u bu boy hayotni va o'tmishda yashashni xohlagan ajoyib vaqtni orzu qildi. Oilaviy hayot Emma tasavvur qilganidek emas edi. Nikohning boshidanoq

u eri Charlz Bovaridan hafsalasi pir bo'lgan, u hech qachon uning his-tuyg'ularini va ehtirolarini tushunmagan. Ularning hayot haqidagi fikrlari boshqacha edi va ular umumiy manfaatlariga ega emas edilar: "Charlzning suhbatlari ko'cha yo'lakhasidek tekis edi, hayajonli his-tuyg'ular, kulgi va hayollarsiz. Turmush qurgandan so'ng, u haqiqatga moslashganda, u kutgan qiziqarli hayotni topa olmaydi. Aksincha, u baxtsiz bo'lib, oxir oqibat umidsiz va vayron bo'ldi. Shundan so'ng qahramon o'zining haqiqiy hayotida amalga oshirishni orzu qilgan orzulari va ishtiyoqini so'ngra uning zerikishi, noroziligi, umidsizlik, turmush hayotidan va o'zi baxtsiz deb hisoblagan taqdiridan qochib qutuladi. Yakunda u qurbon bo'ladi.

« *Et Emma se mit à rire, d'un rire atroce, frénétique, désespéré, croyant voir la face hideuse du misérable qui se dressait dans les ténèbres éternelles comme un épouvantement.*

Il souffla bien fort ce jour-là,

Et le jupon court s'envola !

Une convulsion la rabattit sur le matelas. Tous s'approchèrent. Elle n'existait plus. [Gustave Flaubert Madame Bovary La Bibliothèque électronique du Québec Collection À tous les vents Volume 715 : version 2.01,p.884] . *Ma'nosi: So'qir! - Emma baqirdi va birdan o'z hushini yo'qotdi, mudhish, telbalaracha kuldi, zulmat ichida uning ko'z oldida badbashara yuz qo'riqhidek gavdalandi.*

Birdan shamol ko'zg'aldi sarin,

Hilpiratdi qiz etaklarini

Oxirgi talvasa Emmani yostiqaqa tashladi va hamma uni o'rab oldi, Emma vafot etdi. Sevgi va harakatsiz hayot Emma Bovari uchun bo'sh hayotdir. Ko'p o'tmay, uning atrofidagi hamma narsa uni zeriktirdi, odamlar u yashagan qishloqqa o'xshardi: "Sa vie était froide comme un grenier dont la lucarne est au nord, et l'ennui, araignée silencieuse, filait sa toile dans l'ombre à tous les coins de son cœur". [Gustave Flaubert Madame Bovary La Bibliothèque électronique du Québec Collection À tous les vents Volume 715 : version 2.01,p.252]. *Ma'nosi - "Uning hayoti shimol tomonda joylashgan chodir kabi sovuq edi va zerikarli edi, jim o'rgimchak esa yuragining har bir burchagida o'z to'rini aylantirardi".* Bu yerda o'xshatish va metafora Emmaning sovuq va zerikarli hayotini ifodalaydi. « Metafora nom ko'chishi bilan bog'liq (ya'ni nom ko'chish turlaridan biri yoki hammasi) ekanligini shu soha bilan shug'ullanganlardan hech biri rad etmaydi, biroq nom ko'chish turlarini noto'g'ri talqin etish yoki, yanada to'g'rirog'i, e'tibordan chetda qoldirish natijasida metafora nom ko'chish bilan aloqador bo'lmagan hodisalar ham qamrab olinadi ». [Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, April, 2023]. Zerikish shuning uchun Emma uchun muqarrar edi. Bu Emma orzu qiladigan Parijdagi hayot, u yerda hamma narsa hayajonli: Parij, okeandan ham kengroq, qizg'ish muhitda Emmaning ko'zlarida porlab turardi.

Gi de Mopassan romantizm davrining eng yorqin namoyondalaridan hisoblanadi. Mopassanning ijodiga Flober kabi realist yozuvchilar ta'sir qilgan. Mopassan o'z ustozlari Floberning bilimi va ta'siri tufayli real yozishni o'rgandi. Mopassan realizm haqidagi o'z pozitsiyasini ta'kidlab, shunday deydi: "Le réaliste, s'il est un artiste, cherchera, non pas à nous montrer la photographie banale de la vie, mais à nous en donner la vision plus complète, plus saisissante, plus probante que la réalité même". [Guy de Maupassant, « Le roman », Pierre et Jean, Classiques Hachette, Paris, 1998, p.15]. *Ma'nosi - "Realist, agar u san'atkor bo'lsa. U bizga hayotning oddiy suratini ko'rsatishga emas, balki haqiqatning o'zidan ko'ra to'liqroq, yorqinroq va ishonchliroq tasavvur berishga intiladi".* Demak, gap haqiqatni qanday bo'lsa, shunday tasvirlashda emas, balki jamiyatning ahvolini aks ettiruvchi matn yaratish uchun rassomning tasavvuriga ega bo'lish masalasidir. Mopassanning "Une vie" ("Hayot") romani bosh qahramoni Janna begunoh va romantik yosh ayol bo'lib, uning orzulari, sevgi va baxt topish umidlari haqiqatga to'g'ri kelmasligini ko'rsatadi. Orzu va ishtiyoq Jannaga o'xshagan romantik qahramon, albatta, o'zining kelajagi, baxtli oilasi va oilaviy muhitda, tabiat qo'ynida yashashi haqida orzu qiladi. Nihoyat Janna orzusidagi inson Julienni uchratadi. U juda baxtli edi va u bilan baxtsiz taqdirni kutmagan edi. Romanning birinchi boblaridagi ko'plab ta'riflar Janning hozirgi hayotidagi baxtli holatini aks ettiradi: Ular (Janna va Julien) bir-birining yonida o'zlarini baxtli his qilishdi. Nikohdan so'ng, oilaviy hayot uni tashvishga soladi va uni xafa qiladi.

Mopassan o'z asrining norozi ayolining tasvirini taqdim etadi. Janna Julienni xiyonatini aniqlaganidan keyin uning xatti-harakati va azobini tasvirlab beradi: " Elle ne répondait point, broyée, endolorie, épuisée maintenant, sans force même pour la colère et la rancune. Ses nerfs lui semblaient lâchés, coupés doucement, elle ne vivait plus qu'à peine". [Guy de MAUPASSANT- Un vie ,La Bibliothèque électronique du Québec Collection À tous les vents Volume 382 : version 1.01 163 p.] . *Ma'nosi-"U javob bermadi, ezildi, charchagan va g'azabga ham kuchi yo'q edi. Asablari singandek, u zo'rg'a tirik edi".* Flober ta'sirida Mopassan o'zining Janning xarakterini va uning yashash azobini tasvirlash orqali hayot va dunyo haqidagi pessimistik tasavvurini ko'rsatadi. Bunday holda, uning hayoti Emmaga o'xshaydi. Shuning uchun u Janning Bovarizmini ko'rsatadi. "Le Bovarisme est relié au fait de la conscience qui reflète en

même temps non seulement l'image des sentiments, mais aussi des pensées, des actes qui lui sont étrangers. Ces images étrangères deviennent un principe d'hypnose et de suggestion". [Réveille-toi et combats : l'art de renouveler l'âme et le corps / Ellick Morn ; Paris Edition NILSSON 7, 1910 p.38] . *Ma'nosi - "Bovarizm - bir vaqtning o'zida nafaqat his-tuyg'ular tasvirini, balki unga yot bo'lgan fikrlar, xatti-harakatlarni ham aks ettiruvchi ong haqiqati bilan bog'liq"*. Yosh qiz, roman boshida faqat o'z fikrlarini ko'rinmas va yo'qlikka qaratadi. Bu uning fe'l-atvorining asosiy elementini tashkil etuvchi "*bovarizm*", hozirgi kunni ko'ra olmaslik va unga to'xtalmaslikdir. Emma Bovaridan farqli o'laroq, Janna hozirgi paytdan qochish uchun zinokorlikni tanlamadi, bu yo'l, ehtimol, o'sha paytdagi ba'zi ayollar baxtsiz nikohda bo'lganlari uchun oson bo'lgan. Ammo Janna sodiq qoladi. Uning sodiqligining sababi, ehtimol, monastirda o'qiganligi va "yaxshi ota-onasining muhiti" bo'lishi mumkin. Janna o'z hayotida baxtga umid qiladi, lekin u faqat baxtsizlik va yolg'izlikni topadi. Uning hayoti azob-uqubatlarga va umidsizliklarga to'la. Hammasi Janni monastirda o'qiganidan boshlandi, bu esa uni baxtsiz bo'lishga tayyorladi. Ishq va zavqdan umidvor bo'lgan narsasi turmush qurgandan keyin yo'qoldi. Jannaning o'smirlik davridagi romantik orzularidan hafsalasi pir bo'lgan, bugun u hayotga pessimistik nuqtayi nazarga ega. Zerikish, sevgi va his-tuyg'ularning yetishmasligi Jannaning ruhini o'ldirish uchun etarli edi. Ushbu fojiali hikoya orqali Mopassan hayot har doim ham go'zal emasligini va ayollarning maqomi XIX asr jamiyatida muammo bo'lib qolayotganini aytib o'tadi.

Ikkala romanda ham jamiyat va ayniqsa ayollarga nisbatan pessimistik qarashlar mavjud. Ikki qahramonning taqdiri, o'y-fikrlari mutlaqo bir xil bo'lmasa-da, har ikki romanda ham hayotidan ko'ngli to'lmagan ayolning yurak iztiroblari va his-tuyg'ulari fosh etilgan. Emma va Janna monastirda diniy ta'lim olgan ikki romantik qahramondir. Romantik shaxs orzusi ularga hayotning mukammal qiyofasi, baxt va ishtiyoq bilan to'la tasvirni beradi. Ammo turmush qurgandan so'ng, ular oilaviy hayot ular o'ylagandek emasligini bilishadi. Ikkalasi ham hafsalasi pir va baxtsiz. Emma o'z navbatida, uni tushunadigan odamni xohladi, lekin u buni Charlzdan topa olmadi. Janna, o'z navbatida, orzu qilgan nikoh va unga baxt keltiradigan erkak haqida, lekin u eri Julien haqidagi haqiqatni bilib, u umid qilgan hamma narsa g'oyib bo'ldi. Shunday qilib, ikkalasi ham sovuq hayotni boshdan kechirdilar, natijada nikoh muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Charlzning tushunmovchiligi Emmani umidsizlikdan qutulish va taqdirini unutish uchun zino yo'lga olib boradi. Jannaga kelsak, u o'zini boshqa vaziyatda topadi, bu uning eri bevafo va shafqatsiz. U bu vaziyatdan voz kechadi va yashash istagini yo'qotadi. U Emma kabi o'z orzulariga erishish uchun isyon qilmaydi, o'z o'tmishini eslab, baxtsiz va qayg'uli taqdiriga tan berib, ojiz bo'lib qoladi. Ko'rib turganimizdek, ikkala qahramon ham fikrlash tarzi va munosabati jihatidan bir-biriga o'xshamaydi. Ammo oxir-oqibat, ular norozilikni boshdan kechiradilar va oilaviy hayotlarida muvaffaqiyatsizlikka duch kelishadi. Aytishimiz mumkinki, ularning har ikkisi ham biz *bovarizm* deb ataydigan narsani boshidan kechirgan, ya'ni turmushidagi baxtsiz kunlarini qabul qila olmay, yaxshi hayotga, o'zlarini qanoatlantiradigan va baxtli qiladigan hayot umidida orzularida qolib ketishgan. Aytishimiz mumkinki, Flober va Mopassanning fikriga ko'ra, ikkala qahramon ham XIX asr ayollarning ahvoli haqidagi ijtimoiy va oilaviy me'yorga oid pessimistik g'oyalarini ifodalaydi. Agar ular bir oz ahmoqroq bo'lganlarida, ehtimol ular kamroq baxtsiz bo'lar edilar. Mopassan bu yerda jamiyat ayollarga o'z hayoti uchun to'g'ri yo'lni tanlashi uchun ko'proq bilimli bo'lish imkoniyatini berishi kerakligini tushuntiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, realistik uslubda yozuvchi Flober ayol holati mavzusiga e'tibor qaratdi. Uning norozi ayol haqida hikoya qiluvchi romani orqali biz muallifning XIX asrdagi jamiyati ahvoliga nisbatan nuqtayi nazarini tushunamiz. Flober o'zining Emma qahramoni orqali haqiqatni ko'rsatgan yagona odam emas. Ikkala yozuvchi ham o'z g'oyalarini taqdim etish uchun voqelikni batafsil tasvirlaydigan ikkita realist muallifdir. Ularning asarlari xafsalasi pir bo'lgan va ko'ngli to'lmagan ayolning hayotini, uning ta'limi, orzulari, keyin esa hayotdagi umidsizliklari haqida gapirib beradi. Emma va Jannani haqiqatdan uzilgan jamiyatda ularni qamab qo'ygan bilimlari va orzulari tufayli qurbon bo'lishdi. Haqiqatga duch kelganda, ular turmush qurganlaridan keyin hayotlarining xatosini bilib olishadi, bu esa ularni baxtsizlikka olib keladi. Ularning asarlari personajlar orqali ko'ngli qolgan ayolning ahvolini tushunish imkonini beradi, ular voqelik ko'zgusi, o'z davrining bu voqeligini tasvirlaydigan san'atdir.

ADABIYOTLAR:

1. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/romantizm-davri/>
2. Fones Philip S. "Mark Twain: social critic" New York, 1958
3. Ванслов В.В. эстетика романтизма. «Искусство», М. 1966, стр. 4-5
4. Ninane de martinot Francine, «Maupassant et le pessimisme 'fin de siècle' », *Analyses et réflexions sur Guy de Maupassant Une Vie, Ouvrage collectif, Ellipses, Paris, 1999. p. 168-169.*

LITERARY CRITICISM

5. Heath, Stephen. *Gustave Flaubert, Madame Bovary*, Cambridge, New York: Cambridge University Press, 1992, p.48
6. Карельский А.В. *От героя к человеку*. – М.: Советский издатель, 1990. – 405 с.
7. Gustave Flaubert *Madame Bovary* La Bibliothèque électronique du Québec Collection À tous les vents Volume 715 : version 2.01,p.884
8. Gustave Flaubert *Madame Bovary* La Bibliothèque électronique du Québec Collection À tous les vents Volume 715 : version 2.01,p.252
9. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, April, 2023
10. Guy de Maupassant, «Le roman», *Pierre et Jean*, Classiques Hachette, Paris, 1998, p.15
11. Guy de MAUPASSANT- Un vie ,La Bibliothèque électronique du Québec Collection À tous les vents Volume 382 : version 1.01 163 p.12. Réveille-toi et combats : l'art de renouveler l'âme et le corps / Ellick Morn ; Paris Edition NILSSON 7, 1910 p.38

QUR'ON ILMINING VUJUDGA KELISHI

Soliyev Elyorbek Muxammadmo'sa o'g'li,

Yangi asr universiteti, Mumtoz sharq filologiyasi o'qituvchisi,

A. Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada avvaliga Qur'on nozil bo'lishi oldidan Nabi alayhissalomning unga tayyorlanishi, Hiro g'orida yog'iz qilishlari va Qur'on oyatlari ilk nozil bo'lgani, ya'ni vahiy haqida gap yuritiladi. So'ngra Qur'on ilmlari (ulumul Qur'on) ilmining paydo bo'lishi, sahobalar rasulullohdan qanday qabul qilganlari, Payg'ambar alayhissalom tirikligida qay holatda bo'lgan bu ilm. Tafsir ilmi qay darajada rivojlangan, u zotning vafotidan keyin nimalar bo'ldi va bu ilm da eng ko'p mashhur sahobalarning hamda ularning hayotlaridan namuna va ma'lumotlar ilmiy asoslar bilan keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qur'on, tafsir, Ulumul Qur'on, sahobalar, rasm xati, vahiy.

ПОЯВЛЕНИЕ УЧЕНИЯ КОРАНА

Аннотация. В данной статье рассказывается о подготовке Пророка перед ниспосланием Корана, его сожжении в пещере Хира и первом ниспослании аятов Корана, то есть откровении. Затем возникновение знаний Корана (улум аль-Коран), как сподвижники получили их от Посланника Аллаха, и в каком состоянии находились эти знания при жизни Пророка. Насколько развилась наука об интерпретации, что произошло после его смерти, а также с научным обоснованием представлены примеры и сведения из наиболее известных сподвижников и их жизни в этой науке.

Ключевые слова: Коран, тафсир, Улумул Коран, сподвижники, письмо-картинка, откровение.

THE EMERGENCE OF QUR'AN SCIENCE

Abstract. This article firstly talks about the preparation of the Prophet before the revelation of the Qur'an, his burning in the cave of Hira and the first revelation of the verses of the Qur'an, that is, the revelation. Then, the emergence of the knowledge of the Qur'an (ulum al-Qur'an), how the companions received it from the Messenger of Allah, and what state this knowledge was in when the Prophet was alive. To what extent the science of interpretation has developed, what happened after his death, and examples and information from the most famous companions and their lives in this science are presented with scientific grounds.

Keywords: Qur'an, tafsir, Ulumul Qur'an, Companions, picture letter, revelation.

Kirish. O'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixi, boy ilmiy-ma'naviy merosi, adabiyot va san'ati haqidagi qimmatli ma'lumotlar qo'lyozma manbalarda aks etgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning ilmiy-tarixiy va madaniy merosini tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidan biriga aylandi. Bunday merosimizning kattagina qismini qo'lyozma manbalar tashkil qiladi.

O'zbek tilidagi Qur'on karimning ma'nolar tarjimasi va tafsirlarini yuzaga kelishi ayrim manbalarga ko'ra XIII asrdan boshlab yangi bir qancha noma'lum asarlar bilan boyidi. Shu yillardan boshlab chet davlatlarning yirik qo'lyozma markazlari va kutubxonalariga arxeografik ekspeditsiyalar uyushtirila boshlandi. Bu ulug' ilm, ya'ni Qur'oni karim ilmi payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning davlaridayoq yuzaga kelgan. Qur'oni karimning birinchi mufassiri va tarjimoni aynan rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o'zlaridirlar. Barcha zamon va makon tarjimonlari va tafsirchilarining imomi ham nabiyimiz sollallohu alayhi va sallamdir. Chunki u zoti bobarakot odamlarga Qur'oni karimning ma'nolarini o'z sunnatlari ila bayon qilib, beribgina qolmay, sahobalarning Qur'on oyatlari ma'nosi to'g'risidagi ko'pgina savollariga aniq va mukammal javoblar bergan.

Asosiy qism. Qur'oni karimni tushunish uchun katta tayyorgarlik kerak. Uning oyatlari yigirma uch yil davomida hayotga aralashib tushgan. Demak, o'sha hayotning nozik taraflarigacha bilish kerak, oyatlarning tushush sabablari, bo'lib o'tgan vaqealardan xabardor bo'lish kerak. Uni bir-ikki o'qish bilan nihoyasiga yetib bo'lmaydi. Aksincha, qayta-qayta o'qish jarayonida har safar yangidan yangi ma'nolar chiqaveradi. 1437-yil avval bepayon sahraning sodda hayotidan boshqa narsani bilmagan, tili, hayot tarzi tabiiy holatga yaqin bo'lgan arabni hayratga qo'yib, qalbiga yo'l topgan.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yoshlari qirqqa yaqinlashgan sayin tez-tez Makka yaqinidan 3 miyl uzoqlikda joylashgan Hiro tog'iga borar va u yerda tanho qolar edilar. Bu tanholik bir yilda bir oydan kam bo'lmasdi. Yeguliklarini ham birga olib ketardilar. U kishining aksariyat yeguliklari zaytun, zaytun yog'i va qotgan non bo'lardi. Hiro tog'i Makkadan besh chaqirim uzoq, 500 metr balandlikdagi kichik bir tepalik edi. Atrofdagi ba'zi joylar past bo'yli butazorlar bilan qoplangan, toshloq va kimsasiz bir joy edi. Mana shunday chekkada, kuydiruvchi quyosh tig'i ostida joylashgan tepalikdagi g'orda payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bir oy ibodat bilan mashg'ul bo'lar edilar. Makkaliklar u kishi haqida, Muhammad Parvardigoriga oshiq bo'lgan, deyishardi [1].

610-yili Ramazon sharif oyida dushanba kuni Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam Hiro g'orida ibodat qilayotgan paytlarida bir nur u kishini o'rab oldi. So'ngra Jabroil alayhissalom keldi va "Men Jabroilman, sen esa Allohning Rasulisan", dedi. Rasulalloh sollallohu alayhi va sallamga besh oyat nozil bo'ldi. Bular ya'ni oyati karimalar Qur'ondan ilk oyatlar [2], ilk ilohiy vahiy edi. Bu oyati karimalarda shunday deyiladi:

أَفْرَأُ بِاسْمِ رَبِّكَ الَّذِي خَلَقَ (۱) خَلَقَ الْإِنْسَانَ مِنْ عَلَقٍ (۲) أَفْرَأُ وَرَبُّكَ الْأَكْرَمُ (۳) الَّذِي عَلَّمَ بِالْقَلَمِ (۴) عَلَّمَ الْإِنْسَانَ مَا لَمْ يَعْلَمْ (۵)

Ma'nosi: 1. (Ey Muhammad, barcha mavjudotni) yaratgan zot bo'lmish Parpardigoringiz nomi bilan (boshlab) o'qing!

2. U insonni laxta qondan yaratgan (zotdir).

3-4. O'qing! Sizning Parvardigoringiz (insoniyatga) qalamni (ya'ni yozishni - xatni) o'rgatgan o'ta karamli zotdir.

5. U zot insonga uning bilmagan narsalarini o'rgatdi [3]. "Alaq" surasi 1-5- oyatlari.

Izoh: Ushbu oyatlar insoniyat hayotiga yangi ilohiy ta'limot va to qiyomatgacha buzilmay saqlanib qoladigan, Alloh taolo yuborgan dinlarning eng so'nggisi bo'lgan mukammal bir din - Islom kirib kelgani haqidagi ilk xabarlar edi. Ushbu ilk oyatlardan oq Islom dini insonlarni jaholat-xurofotga emas, balki ilm-ma'rifatga chorlashi va faqat o'qish-o'rganish bilan Yaratgan, rozi bo'ladigan Hidoyat yo'lini topishga da'vat etishi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham Payg'ambar alayhissalom «**Ilm istash har bir muslim va muslima uchun farzdir**», deb marhamat qilganlar. Shundan so'ng Rasulalloh sollallohu alayhi va sallam uylariga qattiq qo'rqqan holda qaytadilar. Hadicha onamizga: "Meni o'rab qo'y, meni o'rab qo'y" dedilar. Keyin bo'lgan voqeani aytib berdilar. Hadicha onamiz esa gapni amakisining o'g'li Navfalga borib aytdi. Zamonasining olimi Navfal buni eshtib: "Allohga qasamki, u Hazrati Musoga kelgan nomusi akbar Jabroildir", dedi. U kishining, ya'ni Rasulalloh sollallohu alayhi va sallamning payg'ambarligiga ishonadi. Shu tarzda Rosulalloh sollallohu alayhi va sallamga vahiy nozil bo'la boshladi va asta-sekin yigirma uch yildan ozroq muddat ichida nozil bo'ldi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam insonlar tarafidan qanday kelishmovchilik chiqib qolsa, u zotdan so'rashar edilar. Barcha islomiy ilmlar qatori, agarchi "ulumul qur'on" deb shakllanmasa-da bu ilm ham, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning davrlarida ham kurtaklagan. O'sha saodat asriga oid rivoyatlarga diqqat bilan nazar soladigan bo'lsak, bugungi kunda Qur'on ilmlari orasidan joy olgan makkiy va madaniy oyatlar, oyatlarning nozil bo'lish sabablari, nosih va mansuh, muhkam va mutashobih kabi ilmlarga oid ma'nolarni o'ziga jo qilgan ma'lumotlarga ko'zimiz tushadi. Sahobayi kiromlardan "falon oyat falon sabab ila nozil bo'lgan" shunga o'xshash ma'nodagi rivoyatlar juda ham ko'p kelgan. "Qur'on ilmiga" to'rt roshid xalifa davrlarida asos solina boshlagan. Hazrati Abu Bakr roziyallohu anhunung davrida Qur'oni karim yozma shaklda jamlanib, mus'haf shakliga keltirildi. Hazrati Usmon roziyallohu anhunung davrlarida Qur'oni karimdan nusxa ko'chirish ishlari yo'lga qo'yildi, Qur'oni karimni xatga tushirish - "rasm xat" ilmiga, Qur'oni karimni muayyan shaklda ta'lim berish faoliyatiga asos solindi. Hazrati Aliy roziyallohu anhunung davrlarida Qur'oni karimga doir ilmlar paydo bo'la boshladi. Odamlar Qur'oni karimni arab tili qoidalariga zid o'qiyotganlari mulohaza qilinib, nahv ilmiga asos solindi. Undan so'ng Qur'on e'robi ilmi yuzaga keldi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan Qur'oni karimni uning o'ziga xos ilmlari bilan qabul qilib, olgan sahobayi kiromlar ularni o'zlaridan keyingi avlod - tobeinlarga omonat bilan yetkazish borasida ulkan xizmatlarni amalga oshirdilar. Bu sharafli ishga ayniqsa to'rt xalifa, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Mas'ud, Ubay ibn Ka'b, Zayd ibn Sobit, Abu Muso Asha'riy, Abdulloh ibn Zubayr raziyallohu anhumolar katta hissa qo'shgalar. O'z navbatida tobe'inlar ham, o'zlaridan keyingi avlod musulmonlariga Qur'oni karimni va uning ilmlarini yetkazishda tahsinga sazovar ulug' xizmatlarni ado etdilar. Ushbu ulkan ahamiyatli ishni amalga oshirishda, xususan, Mujohid, Ato, Qatoda, Ikrima, Hasan Basriy, Sa'id ibn Jubayr, Zayd ibn Aslam va boshqalar - hammalariga Allohning rahmati bo'lsin - beqiyos jonbozlik ko'rsatdilar.

Boshqa islomiy ilmlarda bo'lganidek, "Qur'on ilmlari" borasida bitiklar ham ikkinchi hijriy asrda yuzaga kela boshladi. Dastlab bu sohada yozilgan narsalar "Qur'on ilmlari" dan ma'lum biriga bag'ishlanar edi. Birinchilardan bo'lib uchinchi hijriy asrda Abu Ubayd Qosim ibn Sallom rahmatullohi alayhi [4] nosix

va mansux ilmi haqida kitob yozdi. Imom Buxoriyning [6] ustoz Aliy ibn Madiniy rahmatullohi alayh “asbabun-nuzul” ilmiga oid asar yaratdi. Undan keyin yana boshqa ulamolar turli mavzularda asarlar bitdilar. Vaqt o'tishi bilan tafsirlarning muqaddimalarida ham “Qur'on ilmiga” oid ma'lumotlar bo'lishi odat tusiga kira boshladi. Imom Tabariy rahmatullohi alayhning mashhur tafsirlari muqaddimasida “Qur'on ilmiga” oid “Al-huruf-sab” hamda boshqa mavzularni ko'ramiz. Muhammad Abdulazim Zarkoniy rahmatullohi alayhning ta'kidlashlaricha, ushbu mavzuga oid kitobning hozirgi ko'rinishdagi nusxasi dastlab Aliy ibn Ibrohim ibn Sa'd Hufiy rahmatullohi alayhi yozgan bo'lib, mazkur kitobning ismi “Al-burhan fi ulumil Qur'an”dir. Bu kitobning asli o'ttiz juzdan iborat bo'lib, undan o'n besh juzi qo'lyozma shaklida bugungi kungacha yetib kelgan. To'qqizinchi hijriy asrda esa imom Jaloluddin Suyutiy rahmatullohi alayhi “Al-itqon fi ulumil-Qur'on” nomli kitobni ta'lif etdi. Bu kitob o'z sohasidagi barcha kitoblarning gultoji bo'ldi. Undan barcha foydalanadi va foydalanmoqda [5].

Qur'oni karimga yoyishlik borasida hamda uni tarjima hamda tafsir qilish borasida xizmat qilgan sahobayi kiromlarni keltirsak.

Abdulloh ibn Abbas (roziyallohu anhu)ning tarjimai holi.

Tafsir va tarjima sohasida so'zlari eng ko'p naql qilingan, barakali mufassir Abdulloh ibn Abbas (roziyallohu anhu)dirlar. U kishining to'la nomlari Abdulloh ibn Abbas ibn Abdulmuttolib ibn Xoshim ibn Abdi Manof Al-Qurashiy al-Xoshimiy bo'lib, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga amakivachcha bo'ladilar. Ibn Abbasning onalari Luboba al-Kubro Horis ibn Huzn al-Hiloliyning qizidir. Ibn Abbas tug'ilgan vaqtlarida, chaqaloqni Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga olib kelishdi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam chaqaloqning tanglayiga o'zlarining muborak tupuklaridan surtib qo'ydilar. Bu voqea hijratdan uch yil oldin bo'lgan edi. Ibn Abbas juda yosh bo'lishlariga qaramay, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga qarindoshliklari ham bo'lgani uchun (Ibn Abbasning xolalari Maymuna Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallamning zavjalari edi), Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamdan ajralmas edilar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam vafot etganlarida Ibn_Abbos o'n uch yoshda edilar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dan keyin sahobayi kiromlarning ulug'lari etagidan ushlab, ulardan tafsir va hadis ilmimi chuqur o'rgandilar. Ibn Abbas 68 hijriy yilda, 70 yoshlarida Toifda vafot etdilar va shu yerga dafn qilindilar.

Abdulloh ibn Mas'ud (roziyallohu anhu)ning tarjimai holi.

Ibn Mas'udning to'liq nomlari Abdulloh ibn Mas'ud ibn G'ofil ibn Habib ibn Sammah bo'lib, Abu Abdurrohman al-Huzaliy kunyalaridir, nasablari Muzarga yetadi. Onalari Ummu Abd binti Abdul Huzayl qabilasidan bo'lib, ba'zida Abdullohning nomlarini onalariga nisbatan ibnu Ummi Abd ham deyiladi. Ibn Mas'ud (roziyallohu anhu) ozg'in, bo'ylari past, bug'doyrangli edilar. Ancha avval Islomni qabul qilgan edilar. O'zlarining shohidlik berishlaricha, Yer yuzida hali hech kim musulmon bo'lmaganda, yettinchi bo'lib Islomni qabul qilganlar. Qur'oni Karimni Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dan keyin Makkada birinchi bo'lib oshkora tilovat qilganlar va shu sababdan ham Quraysh kofirlaridan ko'p aziyatlar chekkanlar. Ibn Mas'ud Islomni qabul qilganlaridan keyin Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam uni o'zlariga xizmatga oldilar. Ibn Mas'ud jon-u dil bilan xizmat qilib, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga tahorat suvi tayyorlab berardilar, misvoklarini va kovushlarini avaylab saqlar edilar [8].

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam agar o'rinlaridan tursalar, kavushlarini kiydirib qo'yardilar, agar o'tirsalar kavushlarini yechib, qo'ltiqlarida saqlar edilar, agar yursalar Ibn Mas'ud oldinda yurardilar, agar g'usl qilsalar, Ibn Mas'ud parda bilan to'sib turardilar. Agar uxlab qolsalar, uyg'otar edilar. Ibn Mas'ud onalarimiz huzurlarida ham behijob yurardilar, hatto Abu Muso al-Ash'ariy ibn Mas'udni Payg'ambar oila a'zolaridan biri, deb gumon qilgan edi. Abu Muso al-Ash'ariy aytadilar: «Men birodarim bilan Yamandan kelib, Payg'ambar xonadonlarida biroz turganimda ibn Mas'ud va onalarini Payg'ambar huzurlariga ko'p kirib-chiqqanligidan shu xonadon ahli bo'lsa kerak, deb o'yladim». (Buxoriy va Muslim). Umrlarining oxirida Madinaga qaytib keldilar va shu yerda o'ttiz ikkinchi hijriy sanada oltmish yoshda vafot etdilar. U kishining jasadlari Baqi' qabristoniga dafn etilgan.

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu)ning tarjimai holi.

Hazrat Alining to'liq ismlari Abul Hasan Ali ibn Abu Tolib ibn Abdulmuttolib Al-Qurashiy Al-Xoshimiy bo'lib, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning amakivachchalari va kuyovlaridirlar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning kenja qizlari Fotimaga uylanganlar, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ning zurriyotlari Ali va Fotimadan tarqalgan. Alining onalari Fotima binti Asad ibn Xoshimdir. Hazrat Ali Xoshimiylardan tug'ilgan birinchi o'g'ildirlar, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan keyingi to'rtinchi roshid xalifadirlar. Juda yosh bo'lishlariga qaramay, Islomni birinchilardan bo'lib qabul qilganlar va Payg'ambar risolatini tasdiq etganlar. Madinaga hijrat qilganlar. Qur'oni Karimning ushbu

Odamlar orasida Alloh rizoligi yo'lida o'z jonini beradigan zotlar ham bor [3], "Baqara" surasi 207-oyati degan oyati karimasi Hazrat Ali haqlarida nozil bo'lgan. Tabuk g'azotidan boshqa hamma g'azotlarda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bilan birga bo'lganlar. Tabuk g'azoti vaqtida esa Payg'ambarimizning o'zlari Hazrat Alini Madinaga xalifa qilib, qoldirgan edilar. Hazrati Alining boshlaridan juda ko'p sinovlar o'tgan. Ko'plab g'azotlarda Payg'ambarning o'zlari Alining qo'llariga bayroq tutqazganlar.

Ubay ibn Ka'b (roziyallohu anhu)ning tarjimai hollari.

Ubay ibn Ka'bning to'liq ismlari Abul Munzir yoki Abut Tufayl Ubay ibn Ka'b ibn Qays ibn Ubayd ibn Zayd ibn Muoviya ibn Amr ibn Molik ibn Najjor Al-Ansoriy Al-Xazrajidir. Ubay ibn Ka'b Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam huzurlarida vahiy yozuvchi kotiblardan biri bo'lganlari uchun, Allohning kalomini eng yaxshi biluvchilardan sanaladilar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ga birinchi bo'lib maktub yozib, unda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamni Madinaga taklif etganlar. Hazrat Umar(roziyallohu anhu) Ubay ibn Ka'b haqlarida: «Ubay musulmonlarning sayyididir», - degan maqtov so'zni aytganlar. Ubay ibn Ka'bning vafotlari haqida ulamolar turli fikr bildirganlar. Eng to'g'rirog'i, u kishi Hazrat Umar(roziyallohu anhu)ning xalifalik davrlarida vafot etganlar. Ubay ibn Ka'b (roziyallohu anhu) qorilarning sayyidi edilar. Bu haqda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: «**Ubay ibn Ka'b qorilarning eng zo'ridir**», - deganlar.

Ubay ibn Ka'b (roziyallohu anhu) qiroatlarining go'zalligi va bexatoligi shundan ham ma'lumki, Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam ham u kishidan qiroat o'tkazganlar. Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: «Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam Ubay ibn Ka'bga dedilar: «**Alloh taolo senga «Lam Yakun» surasini o'qib berishimni menga buyurdi**». **Ubay taajjublanib: «Alloh sizga mening nomimni aytdimi?» - deb so'radilar.**

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam - Ha! - deganlarida, Ubay yig'ladi. (Imom At-Termiziy rivoyati) Ubay ibn Ka'b Qur'oni Karimni eng yaxshi biluvchi sahobalardan edilar. O'zlari yahudiylarning olimlaridan biri edilar. Qadimiy kitoblar axborlarini yaxshi bilar edilar. Buning ustiga vahiy yozuvchi kotib bo'lganlari sababli, sura va oyatlarning sababi nuzullari, muqaddam va muaxxarligi, nosix va mansuxligi, sura va oyatlarning joylashishi singari muhim ma'lumotlarni hech kim Ubay Ibn Ka'bchalik bilishi mumkin emas edi. Shunga qaramay boshqa mufassir sahobalar singari Ubay ibn Ka'b nomlaridan ham buzg'unchilar juda ko'plab rivoyatlarni to'qib, rosti bilan yolg'onni aralashtirib yuborishgan. Olimlar Ubay ibn Ka'bdan rivoyat qilingan yo'llarni tadqiq qilishib, u kishidan ikki yo'lni to'g'ri deb topishgan:

1. Abu Ja'far Ar-Roziy - Ar-Rabi' ibn Anas - Abul Oliyah - Ubay ibn Ka'b.

2. Vaki' - Sufyon - Abdulloh ibn Muhammad ibn Uqayl - Tufayl ibn Ubay ibn Ka'b - Ubay ibn Ka'b. Ushbu ikki yo'l bilan Hokim «Mustadrak» kitobida, Imom Ahmad «Musnad»ida, Imom Termiziy «Sunan»ida Ubay ibn Ka'bdan tafsirlar rivoyat qilganlar. Tayanch iboralar: Muhammad ibn Hanafiya: «Bugun bu ummatning donishmandi vafot etdi», - dedi, «Ibn Abbas Qur'oni Karimning qanday ajoyib tarjimoni!», Badr jangi, Umar(roziyallohu anhu): «Bu bola yosh bo'lsa ham barchangizdan olimroqdir», - dedilar, «Vasila - ehtiyoj degani», Ibn Abbasning Qur'onni qancha bilsalar, xalq tilini, xalq merosini ham shuncha yaxshi bilganliklari, «Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar: «**Agar mo'minlarning mashvaratisiz biror kishini amir qilmoqchi bo'lsam, albatta, Ibn Ummi Abd (Ibn Mas'ud)ni amir qilgan bo'lardim**», Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam aytar edilarki:

«**Qur'oni Karim qanday nozil etilgan bo'lsa, nami ketmagan holda o'shanday ohang bilan o'qishni kim yoqtirsa, Ibn Ummi Abd qiroati bilan o'qisin**», Tabuk g'azoti, «Men bugun bayroqni Alloh va Rasulini sevadigan va Alloh va Rasuli ham uni sevadigan kishiga beraman, Alloh uning qo'li bilan Xaybar qo'rg'onini fath qiladi», muhojirlar bilan ansorlar, «Siz mening dunyoda ham, oxiratda ham birodarimsiz», «Bu hukmni yechadigan Ali qaerda?», «Rabbim menga fikrlovchi qalbni va ko'p so'rovchi tilni berib qo'ygan», «Qur'oni Karim yetti harfda (yetti ma'noda) nozil bo'lgan, Har bir harfning botin (ichki) va zohir (tashqi) ma'nolari bor, Ali ibn Abu Tolib zohirni ham, botinni ham yaxshi biladi», «Ahli bayt», Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam:

«**Ubay ibn Ka'b qorilarning eng zo'ridir**», - deganlar.

Xulosa. Qur'oni karim Payg'ambar alayhissalomga yigirma uch yil mobaynida turli voqea va hodisalarga bog'langan holda nozil bo'ldi. Ammo, aynan Ulumul Qur'on faniga alohida e'tibor berish hijratning ikkinchi sanasidan boshlandi. Chunki, insonlar oaytlarning asl mohiyatini tushunishlari uchun endi ular sharhlarga muhtoj bo'lib qoldilar. Ana shu vaqtda Rasulullohdan so'rardilar. U zotning vafotidan so'ng sahobalaridan so'ray boshladilar. O'z navbatida tafsir ilmida mohir bo'lgan sahobalar nihoyatda omonatdor

LITERARY CRITICISM

va oshonchli kimlar bo'lgan. Shunday qilib hozirgi kunimizga qadar yangilik va kashfiyotlari tugamaydigan Qur'on kitobiga turli tafsir va tarjimalar bitilib kelmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. "Payg'ambarlar tarixi" Anvar qori Tursunov. Toshkent 2014. 398-b.
2. Oyat -Qur'on surasiga kirgan, boshlanishi va tugashi belgisi bo'lgan so'zlar majmuasi.
3. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" Shayx Abdulaziz Mansur.
4. Abu Ubayd Qosim ibn Sallom (224 vafot etgan. Tug'ilganlari to'g'risida aniq ma'lumot yoq.)
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Qur'on ilmlari" Toshkent 2013 "Hilol nashri" 13-b.
6. Abu Abdulloh Muxammad Abulhasan Ismoil ibni Ibrohim ibni Mug'iyra ibni Ahnaf Yazdabih al-Buxoriy hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni (810 yil 20 iyulda) juma kuni Buxoro shahrida tavallud topganlar. Al-Buxoriy yoshligidayoq otasidan judo bo'lib, onasi tarbiyasida o'sgan. Yoshlari 9 ga yetganda Qur'oni Karimni to'la yod oldilar. U kichikligidan aql-idrokli, o'tkir zehni va ilmu ma'rifatga havasi kuchli edi, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallaydi. Voyaga yetgunlaricha 10000 dan ziyod hadisni yod bilardilar.
7. Imom Buxoriy hijratning 256 yili, Shavvol oyining boshida Fitri hayiti kechasida vafot etdilar. Imom Buxoriy 13 kun kam 62 yil umr kechirdilar.
8. "Qur'oni va tafsir ilmlari" Rahmatulloh qori Obidov 2003-yil Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.
9. "Hadis va Hayot" 20-juz Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Toshkent-2009 "Sharq nashriyoti".

STIVEN KING VA OMON MUXTOR DETEKTIV ASARLARINING SEMANTIK TAHLILI

Soliyev Firuz Furkatovich,

O'zbekiston respublikasi Qurolli Kuchlari

"Tinchlik yo'lida hamkorlik" Markazi kafedra boshlig'i

Annatsiya. Semantik tahlil adabiy asarlar tarkibiga kiritilgan chuqur ma'no va madaniy kontekstlarni tushunishda hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Tahlil matndagi so'zlar va iboralar matnning umumiy mavzusi va mohiyatiga qay darajada hissa qo'shishini aniqlaydi. Detektiv asarlar sujetida tergovga oid so'roq jarayoni tasviri guvohlar, jabrlanuvchilar va jinoyatda gumon qilinuvchilardan ma'lumot olish uchun qo'llaniladigan asosiy muloqot usuli hamda jinoyat jumbog'ini yechishga qaratilgan muhim jarayon sifatida gavdalanadi. Mazkur jarayon o'zagini esa muloqot tili va uning mazmun-mohiyati, hamda yetkazilgan ma'lumotning talqin qilinish aniqligi egallaydi. Ushbu maqolada Sharq va G'arb detektiv asarlari "Mo'jiza" va "Janob mercedes" misolida matnning semantik tahlili hamda ularning mushtarak va o'ziga xos jihatlari tadqiq qilinadi. Shuningdek, maqolada izquvar tomonidan tergov jarayonida qo'llanilgan strategik diskursiv muloqot vosita va usullari ya'ni ta'riflash, nutqni to'xtatish, muloqot mavzusini nazorat qilish, makon-zamon, so'z va iboralarni tanlash, kishilik olmoshlari tanlovi, modallik hamda boshqa til birliklari o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: leksika, semantika, poetika, sujet, motiv, personaj, muloqot, madaniy ohang, nutq

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕТЕКТИВНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СТИВЕНА КИНГА И АМОА МУХТОРА

Аннотация. Семантический анализ играет решающую роль в понимании глубокого смысла и культурного контекста литературных произведений. Анализ определяет, в какой степени слова и фразы в тексте способствуют общей теме и смыслу текста. В предмете детективных произведений воплощается образ следственного процесса допроса как основного способа общения, используемого для получения информации от свидетелей, потерпевших и подозреваемых в совершении преступления, и важного процесса, направленного на решение загадки преступления. Ядром этого процесса является язык общения и его сущность, а также точность интерпретации передаваемой информации. В данной статье рассматривается смысловой анализ текста, их общие и уникальные аспекты на примере восточных и западных детективов «Мужиза» и «Мистер Мерседес». Также в статье рассматриваются инструменты и методы стратегической дискурсивной коммуникации, используемые исследователем в процессе расследования, т.е. определение, остановка речи, контроль темы общения, выбор пространства и времени, слов и словосочетаний, выбор личных местоимений, модальности. и другие языковые единицы изучаются.

Ключевые слова: лексика, семантика, поэтика, сюжет, мотив, персонаж, общение, культурный тон, речь.

SEMANTIC ANALYSIS OF THE DETECTIVE WORKS OF STEVEN KING AND AMON MUKHTOR

Abstract. Semantic analysis plays a crucial role in understanding the deep meaning and cultural context of literary works. The analysis determines to what extent the words and phrases in the text contribute to the overall theme and meaning of the text. The subject of detective works embodies the image of the investigative process of interrogation as the main means of communication used to obtain information from witnesses, victims and suspects in the commission of a crime, and an important process aimed at solving the mystery of the crime. The core of this process is the language of communication and its essence, as well as the accuracy of interpretation of the transmitted information. This article considers the semantic analysis of the text, their common and unique aspects on the example of Eastern and Western detectives "Mujiza" and "Mr. Mercedes". The article also considers the tools and methods of strategic discursive communication used by the researcher in the investigation process, i.e. definition, stopping speech, control of the topic of communication, choice of space and time, words and phrases, choice of personal pronouns, modalities. and other linguistic units are studied.

Kirish. Detektiv adabiyot eng mashhur adabiy janrlardan biri bo'lib, asrlar davomida mavjud, ammo bu janrning rivojlanish bosqichlari va bu mavqega erishishiga nimalar turtki bo'ldi? Nima sababdan sirli, shubhali va jumboqlarga to'la jinoyat tafsilotlari haqidagi detektiv asar badiiy adabiyot va ommaviy madaniyatning ulkan qismiga aylandi? So'nggi 200 yil ichida detektiv janr hikoya va romanlari sujeti qanday o'zgardi? Bu o'zgarishlarga qanday omillar turtki bo'ldi?

Detektiv fantastikaning yuzaga kelishi 1800-yillarga ya'ni sanoat inqilobi davrida to'g'ri keladi. Bu davrga kelib insoniyat kichikroq shaharlarda yashagan va bir-biriga yaqin muhitda ishlagan va muloqot qilgan, shuning uchun odamlar ko'pincha ular bilan aloqada bo'lgan har bir kishini tanigan. Ammo sanoat ish joylarining ko'payishi bilan ko'proq odamlar shaharlarga ko'chib kela boshladilar, bu esa kundalik hayotda ko'proq begonalar bilan muloqot qilish, shubha va noaniqlik hissi hamda ko'plab jinoyatlar sodir etilishiga olib keldi. Aynan shu davrda kelib Yevropa shaharlarida ilk bora politsiya kuchlari tashkil etilgan. London va Nyu-York shaharlari 1800-yillarning o'talariga kelib politsiya kuchlariga ega bo'ldi. Shaharlarda odamlar sonining ko'payishi va jinoyatchilik darajasini oshib borishi tufayli detektiv janrning gullab-yashnashi uchun qulay sharoit yaratilgan[1].

Asosiy qism. Detektiv asarlar va hikoyalar asosan sirli jinoyatlar, o'g'rilik, talonchilik, ko'cha bezorilari, qotillik sujeti hamda izquvarlarning jinoyatni fosh etishga qaratilgan sa'y-harakatlari va tergov jarayonini kitobxonga jozibador qilib tasvirlashga qaratilgan. Asar sujeti va qaxramonlari ijodkor yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy oqimiga hamohang tarzda jamiyatda yuzaga kelayotgan adolatsizliklarni ommaga yetkazishga intilgan. Ushbu jarayonda yangi tug'ilgan detektiv janr boshqa adabiyot janrlaridan farqli o'laroq sud-huquq va kriminalistik til birliklari va atamalarni paydo bo'lishiga va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Detektiv hikoya sujetida tasvirlangan jinoyat, qidiruv, tergov va so'roq tushunchalari aynan lingvistik nuqtai nazardan qayta jonlantirildi va turli poetik usul va stilistik yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. Shu tufayli asarlar matnini sintaktik, semantik, pragmatik va madaniy tahlil qilish va kitobxon tomonidan asarni talqin qilishda vujudga keladigan nomutanosibliklarni oldini olish birinchi darajali vazifaga aylandi. Sababi ilk detektiv hikoyalar o'quvchilarida asar ma'no-mazmunini to'liq anglab olish va tushunish uchun yetarli bilim va ko'nikma shakllanmagan. Olib borilgan lingvistik izlanish va tadqiqotlar natijasida detektiv asar hikoyasi sujetini kitobxonga oson, qulay va bir vaqtda qiziqarli qilib yetkazishga erishildi. XIX-XX asrlarda yuzaga kelgan texnologik yutuqlar, kompyuter, zamonaviy ovoz, rasm va video yozish qurilmalari detektiv asarlar mazmuniga ta'sir o'tkazdi[2].

Tadqiqot usullari. Mazkur asarlar tahlili uchun solishtirish, ta'riflash, mantiqiy taqqoslash, tipologik lingvistik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari ikki til tizimlari, ular o'rtasidagi umumiylik va bog'liqlik, lingvistik unsurlar va ulardagi mushtarak va farqli tomonlarni solishtirish imkonini beradi.

Omon Muxtorning "Mo'jiza" romani muqaddimasi o'zbek madaniy unsurlari va ingliz yozuvchisi Artur Konan Doyl tomonidan tasvirlangan klassik detektiv janrining ajoyib uyg'unligini namoyon qiluvchi detektiv romandir. Roman matni o'zbek tilining leksik-semantik elementlari, tilning lingvistik boyligi, hikoyaning o'ziga xos madaniy kontekstini o'zida mujassamlashtiradi [3].

Asarning leksik tahlili matnda foydalanilgan o'zbek tili lug'aviy birliklari va so'z tanlash usullarini o'rganadi. Romanda o'zbek tilidagi madaniy mazmunga boy so'zlardan keng foydalanilgan. "Qaria", "qorong'u xona", "sharpa" (soya), "jimjitlik", "halovat", "notinch" kabi so'zlar o'zbek hikoyachiligiga xos bo'lgan an'anaviy qiyofalar, makon zamon va personajlarni aks ettiradi. Asarda rus tilidan olingan so'zlarni o'z ichiga olgan gibril leksikani ham uchratish mumkin. Masalan: "anketa", "kolxoz", "front" va boshqa so'zlar O'zbekistonning Sovet Ittifoqidagi o'tmishidan kelib chiqqan tarixiy lingvistik ta'sirlarni aks ettiradi. Bu qorishma matnni boyitib, o'zbek tilining dinamik xususiyatini namoyon etadi. Shuningdek asarda yetarli darajada tilning tasviriy vositalaridan foydalanilgan bo'lib, matnda jonli sahnalar va kayfiyatni tasvirlash uchun atrof-muhit va borliqdan foydalanadi. Masalan, asarda ushbu iborada "Osmonni qop-qora bulut qoplagan" ehtimoli bo'lgan xodisani bashorat qilish tuyg'usini ifodalash maqsadida tasvir vositasi qo'llanilgan. O'zbek tilshunosligida ma'no hosil qilish uchun so'z o'zagiga turli affiksalar qo'shiladi. Romanda foydalanilgan, "ishqirgani" so'zida (hushtak) fe'l o'zagi "ishqir" bilan so'z yasovchi "gani" suffiksi mujassamlashtirib, hikoyani bayon qilish kontekstidagi ish-harakatni ifodalaydi. Harakatga qo'shimcha urg'u berish yoki davom etayotgan harakatni ifodalash uchun reduplikatsiya unsurlaridan foydalanilgan, masalan: "Tap-tap bosilgan" oyoq tovushlari eshitildi" iborasida muallif tovushning takrorlanish xususiyatiga urg'u beradi[4].

Semantik maydon tahlili matn ichidagi bog‘liq ma‘nolarning klasterlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. “Mo‘jiza”da Muxtor boy va rang-barang so‘z boyligidan foydalangan bo‘lib, bu romanning mavzuviy o‘tkirlikini oshiradi. Asosiy semantik sohalarga jinoyat va tergov bilan bog‘liq atamalar kiradi. “Jinoyat”, “qotillik”, “surishtiruv” (tergov), “guvoh” kabi so‘zlar detektiv janrining markaziy mavzusini ta’kidlab turuvchi semantik maydon yaratadi [4]. Romanda ishlatilgan axloqiy va ruhiy holatni tasvirlovchi “Axloqiy” (axloqiy), “vijdon” (vijdon), “haqiqat” (haqiqat) kabi so‘zlar qahramonning ichki kurashlarini, hikoyada ko‘rsatilgan kengroq ijtimoiy muammolarni ko‘rsatadi.

“Mo‘jiza”dagi semantik elementlar bir nechta asosiy mavzularni o‘rganishga yordam beradi. Adolat va haqiqatga intilish markaziy mavzu bo‘lib, u bilan bog‘liq atamalarni tez-tez ishlatish orqali ta’kidlanadi. Qahramonning haqiqatni ochishga bo‘lgan tinimsiz izlanishlari jamiyatdagi adolat va halollikka bo‘lgan intilishlarini aks ettiradi. Romanda foydalanilgan “Korruptsiya va hokimiyatni suiste‘mol qilish”, “Poraxo‘rlik” va “hokimiyat” kabi so‘zlar tizimdagi axloqiy kamchiliklarni tanqid qilish uchun ishlatiladi. Muallif asarda inson tabiati va motivatsiyasining murakkabliklarini yoritish bilan birga personajlarning ichki nizolari va istaklarini tasvirlashda nozik iboralardan foydalanadi. Qo‘rquv, ochko‘zlik, sevgi va sadoqat bilan bog‘liq atamalar hikoyada murakkab tarzda foydalanilgan.

Asar mazmuni va madaniy kontekstining semantik tahlili o‘zbek xalqi kundalik hayotida an’anaviy va zamonaviy qarashlar va hayot tarzida yuzaga kelgan ziddiyatlarni ochib beradi. Roman an’anaviy o‘zbek qadriyatlarini, urf-odatlar, ijtimoiy me‘yorlari va zamonaviy ta’sirlar o‘rtasidagi ziddiyatni gavdalanitiradi. Masalan: ushbu “*U shaharga qatnab, kundan-kunga injiq, erka, sal olifta bola turqini ola boshladi. Mehnatga tobi yo‘q. O‘ylagan o‘yi: tezroq ulg‘ayib, shaharga ketish.*” iborasida qadimdan o‘zining mehnatsevarligi va tantiligi bilan tanilgan o‘zbek xalqiga yot xislatlarga salbiy fikr bildirilgan[4].

Shu tufayli asar qahramonlari “Narzi va Ismat” qadimiy urf-odatlariga hurmat va shahar sharoitlari, turmush tarzi va yangi ijtimoiy me‘yorlar bilan ifodalangan shiddatli tus olayotgan zamonaviylik o‘rtasidagi tafovutni jonlantiradi. Romanda yoritilgan or-nomus, burch, sharaf va oila tushunchalari o‘zbek madaniyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qahramonlarning motivlari ko‘pincha oilaviy sadoqat va oila sha’nini saqlash, o‘zaro mehr oqibat tamoyillariga bog‘liq va qahramonlarning “Qodir ota” ning o‘limiga g‘amgin va qayg‘uli munosabati va o‘kinish hissi betakror tarzda yoritilgan [5].

“Mo‘jiza”dagi sirli jinoyat -“qotillik” va adolat mavzulari mahalliy kolorit orqali tasvirlangan, hamda asardagi Buxoroning o‘ziga xos jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish dinamikasi va tarixiy muhiti hikoya uchun boy zamin yaratadi. Pragmatik tahlil natijasi personajlar muloqotida keng qo‘llanilgan rasmiyatchilik, mahalliy nutqiy etiket, o‘zaro hurmat, xushmuolalalik tamoyillarini ijtimoiy mavqe va munosabatlarni tasvirlab keladi. Matn kontekstli tushunishni talab qilishi mumkin bo‘lgan madaniy havolalar bilan to‘ldirilgan. Jumladan, “Amir paytlarida” (Amir davri) tarixiy Buxoro hukmdorlariga ishora qilib, voqeani muayyan tarixiy-madaniy muhitga asoslaydi. Ramziy obrazlar va tabiatga oid metaforik iboralar asar uchun yanada jonli va ishonchli sujetni yaratadi [6]. Tabiiy elementlar asarda ko‘pincha ramziy ma’noda qo‘llaniladi. Misol tariqasida “Qop-qora bulut” tasviri nafaqat tabiiy jismoniy manzarani, balki yaqinlashib kelayotgan havf-xatar, halokat yoki sirli jumboqning ramziy tasvirini ifodalaydi. Muqaddimadagi qorong‘ulik, soya va yorug‘lik tushunchalari sujet foni uchun sirli obraz yaratadi. “Sharpa” tushunchasi romanning semantik landshaftida asosan noma’lumlik, mavhumlik yoki yashirin haqiqatlarni, yorug‘lik esa aniqlash, ochish va fosh qilishning ramziy ifodasi sanaladi.

Dahshat va shubha fenomenlari qorishmasi tasviri bilan mashhur bo‘lgan Stiven King o‘zining “Janob Mercedes” romani bilan jinoyat fantastika olamida mashhur. 2014-yilda nashr etilgan bu roman Kingning odatiy adabiy janrdan voz kechib, detektiv janrga kirish bilan xarakterlanadi. “Janob Mercedes” romani protagonist, iste’fodagi detektiv Bill Xodjes ishtirokidagi sotsiopatik qotilga qarshi kurash va izquvarlik tasviri gavdalangan trilogiyaning birinchi qismidir. Roman sujeti semantik qatlamlari boy bo‘lib, til, ma’no va madaniy ohanglar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni ochib beradi. Janob Mercedesning asosini protagonist va antagonist miyasiga o‘rnashib qolgan fikr ta’qib qilishi va sirlilik mavzusi tashkil qiladi. Miyaga o‘rnashib qolgan fikr ta’qibi bilan bog‘liq semantik maydon majburlash, nazorat qilish va es-hushini yo‘qotish kabi so‘z va iboralarni o‘z ichiga oladi. Qotil Bredi Xartsfild taniqli bo‘lish va nazorat qilishga bo‘lgan doimiy ishtiyoq uning puxta rejalashtirishi, yuqori mavqe va boylik ramzi sanalgan Mercedes avtomobiliga qo‘ygan ramziy e’tiborida ko‘rinadi. “Nazorat”, “hukmronlik” va “egalik” kabi so‘zlarning qayta-qayta qo‘llanishi qotilga tinchlik bermaydigan psixologik holatni tasvirlovchi semantik maydonni hosil qiladi. Boshqa tomondan, Bill Xodjesning fosh qilinmagan jinoyat ishiga bo‘lgan qiziqishi va Xartsfildning beqaror ruhiy holati -vasvasa va maniyani aks ettiradi. Majburiyat, adolat va qat’iyat so‘zlari Xodjesni o‘rab turgan semantik maydonni to‘ldiradi va Xartsfild personaji bilan keskin farqni tasvirlaydi [7].

Ikki qahramon o'rtasidagi bu dixotomiya romanning keskin va sirli mazmuni tadqiqida markaziy o'rinni egallaydi, chunki u o'xshash harakatlarning axloqiy tanlovlar asosida xilma-xil natijalarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Yana bir muhim mavzu - bu shaxsiy va ijtimoiy begonalashuv. Xartsfildning jamiyatdan ajralishi semantik izolyatsiya sohasida o'z aksini topadi, "yakka", "odamovi" va "jamiyatdan ajralgan" kabi atamalar asar davomida takrorlanadi. Bu xarakterning ichki kurashlarini va uning atrofidagi jamiyatdan uzilishini kuchaytiradi. Aksincha, King Xodjes va uning ittifoqchilari uchun ko'proq umumiy hamkorlik va birgalikda harakatlanishga oid iboralar ifodalanadi, bu esa antisotsial personajga qarshi muvozanat sifatida jamoaviy birlik va harakatlar mavzusini kuchaytiradi.

Asar qaxramonini tasvirlash, personajlarni yaratishda leksik tanlovlar asosiy o'rinni egallaydi, xususan, nafaqadagi izquvar Xodjes va qotil Xartsfild og'zaki nutqida ovozlarni farqlash hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xartsfildning nutqi uzuq-uzuq, kesilgan, qisqa va o'tkir ma'noli jumlar bilan undagi o'zgaruvchan tabiat va fikrlarini oldindan fahmlashda qiyinchilik tug'diradi. Foydalanilgan So'z va iboralar ko'pincha zo'ravonlik, tajovuzkor va kamsituvchi atamalarni o'z ichiga oladi, bu antagonistning ichki ruhiy beqarorligi va sotsiopatiyaga moyilligini aks ettiradi. Misol uchun, uning fikrlari va dialoglari nafrat so'zi bilan bog'liq bo'lib, qurbonlarini insoniylikdan mahrum qilish va ularni o'zining o'ralgan nayranglari ob'ektiga aylantiradi. Aksincha, Xodjesning so'zlashuv nutqi ko'proq puxta o'ylangan va aql-idrok bilan xarakterlanib uning detektiv roliga mos keladi va hikoyaning axloqiy qamrovini aks ettiradi. Protagonistning ichki monologlari "mulohaza yuritish", "tahlil qilish", "tafakkur qilish" kabi chuqur mulohazani anglatuvchi so'zlar bilan to'ldiriladi [8]. Bu uning nafaqat tahliliy tabiatini ko'rsatibgina qolmay, balki uning nafaqaga chiqishga bo'lgan kurashi va jinoyat ishi jumbog'ini hal qilishda nima maqsad qilganini ham ta'kidlaydi. Ikki personajlar o'rtasidagi semantik ziddiyat Kingning betakror sintaksisdan foydalanishi bilan yanada kuchayadi, bu yerda Xartsfildning keskin va parchalangan nutq uslubi va Xodjesning ravon va izchil nutq namunalari qarama-qarshiligi bilan tasvirlanadi. Bundan tashqari, personajlar muloqotida Kingning norasmiy so'zlashuv va mahalliy dialektlardan foydalanishi personajlar va muhitga asllik va voqelikni kuchaytiradi. Sujet tasvirlangan AQShning O'rta g'arbiy mintaqasi muhiti personajlarning nutq namunalari va leksikonida aks ettirilgan bo'lib, hikoyadagi o'ziga xos madaniy va lingvistik kontekstni jonlantiradi. Mintaqaviylikning bunday ishlatilishi nafaqat personajlarning realizmini oshiradi, balki jamiyatga tegishlilik va begonalashuv mavzularini nozik tarzda mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Omon Muxtorning "Mo'jiza" va Stiven Kingning "Janob Mercedes" asarlari detektiv janrning nasriy qoidalariga rioya qilgan holda o'zbek va amerika madaniyati, tili va yashash tarzi to'g'risida umumiy tushunchalar beruvchi lingvistik va ma'no jihatidan boy matndir. Romanlardagi leksik tanlovlar, metaforik birliklar, mavzuviy elementlar va pragmatik strategiyalar orqali mualliflar nozik va madaniy asoslangan hikoyani yaratishga erishgan. "Mo'jiza" romanini mufassal leksik-semantik tahlil qilish orqali kitobxon O'zbekistondagi qayta qurish davri tasvirini kashf qiladi va Muxtor hikoyachiligiga xos mohirona singdirilgan til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro murakkab ta'sir va bog'liqlikni sezishi mumkin. Aksincha, Janob Mercedes romani zamonaviy AQSh madaniy konteksti, ijtimoiy holat va axborot texnologiyalarining jamiyatga ijobiy va salbiy ta'sirlarini yoritib beradi. Asardagi asllik, ishonchlilik va ma'no rang-barangligini ta'minlovchi madaniy havolalar va ramzlar aynan g'arb madaniyatiga xos hisoblanadi. Shuningdek romandagi axborot texnologiyalari va zamonaviylik talqini, personajlarning kompyuter savodxonligi va gadgetlar bo'yicha tajribasi "hack", "kod" va "virus" kabi atamalarni o'z ichiga olgan semantik maydon orqali tasvirlangan. Bu so'zlar ikki tomonlama ma'noga ega bo'lib, asosiy personajning texnologik qobiliyatini va harakatlarining makkor, invaziv xarakterini ifodalaydi. Bundan tashqari, Kingning teleko'rsatuvlardan tortib musiqagacha bo'lgan ommaviy madaniyatga oid ma'lumotlardan foydalanishi madaniy sharhlar qatlamini jonlantiradi. Ushbu havolalar romanga zamonaviylik shukuhini beradi va syujetdagi qorong'ulik, zo'ravonlik va keskinlik sifatleri o'rtasidagi kontrastni ta'minlaydi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mazkur ikkala asar semantik tahlili o'zbek va ingliz detektiv adabiyoti tarkibi, mohiyati va talqinida farqli va mushtarak lingvistik unsurlarni aniqlashda muhim o'rinni egallaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Huliak T. M. (2023), *The english detective novel: Historical and theoretical aspect.*, // "Folium" № 2 (2023), pp. 19-22
2. Дудина И.А., *Моделирование детективного дискурса: системообразующий аспект // Дискурс: концептуальные признаки и особенности их осмысления. № 1. Краснодар: КубГУ, 2007. с. 128-135*

LITERARY CRITICISM

3. Hakimov, M., *O'zbek tilida matnning semantik talqini: filol. fan. dokt. .diss.*, Toshkent 2001, b. 14-29.
4. Omon, M., "Mo'jiza", *Davr press nashriyoti*, 2008, b. 3-65
5. Atabayeva G., *Omon Muxtor romanlarida shakliy-uslubiy o'ziga xoslik: filol. fan. dokt. .diss. Guliston 2023*, b. 12-22.
6. Ashurova D., *Text linguistics, Manual 2011, Tashkent pp. 18-29.*
7. King, S. (2014). *Mr. Mercedes: A novel.* <http://ci.nii.ac.jp/ncid/BB18951047>, pp 14-159
8. Svetlana S&Ameliya Sh., *The main characteristics of Stephen King's idiostyle, // Science Journal of VolSU. Linguistics. 2018. Vol. 17. No. 3, pp. 140-144.*

HIKOYADA PEYZAJ TASVIRI VA UNDA RUHIYAT IFODASI

Sadullayeva Moxira Atavullayevna,
Qoraqalpoq davlat universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
Sadullayevamohira59@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hikoya janrida peyzajning o'rni, uning badiiy psixologizm ifodalashda asosiy vosita ekanligi, shuningdek, tabiat tasviri ijtimoiy-psixologik holatlarni ramziy-majoziy, metaforada aks etishda muhim vosita sifatida faol ishtirok etishi yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Kutilgan kun" hikoyasi tahlili asosida ochib berilgan. Shuningdek, maqolada hikoya qahramonining ruhiy holati tabiat hodisalari bilan uyg'unlikda aks etishi, inson va tabiat munosabati, ijodkor parallelizimi, peyzajning hikoyalarda qo'llanilish darajasi turlari va uning vazifalari bo'yicha umumiy-nazariy fikrlar keltirilgan va Luqmon Bo'rixon, Isajon Sulton hikoyalari orqali dalillangan.

Kalit so'zlar: ruhiyat, badiiy psixologizm, peyzaj, obraz, obrazlilik, qahramon, talqin, tahlil, hikoya, muallif, metafora, ramziylik, majoz, ijodkor parallelizimi, poetik tafsil, detall, jonlantirish, kolliziya, konflikt.

ОБРАЗ ПЕЙЗАЖА И ВЫРАЖЕНИЕ ДУХА В РАССКАЗЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается место пейзажа в жанре повествования, его основное средство выражения художественной психологии, а также активное участие образа природы как важного инструмента символично-образного, метафорического отражения социально-психологических ситуаций на основе анализа повести писателя Лукмана Бурихона «Ожидаемый день». Также в статье представлены общетеоретические представления об отражении душевного состояния героя повести в гармонии с явлениями природы, взаимоотношениях человека и природы, параллелизме творца, уровне использования пейзажа в рассказах и его функции, и это подтверждается историями Лукмана Бурихона и Исаджона Султана.

Ключевые слова: психика, художественная психология, пейзаж, образ, образность, герой, интерпретация, анализ, рассказ, автор, метафора, символизм, метафора, творческий параллелизм, поэтическая подробность, деталь, одушевление, коллизия, конфликт.

THE IMAGE OF LANDSCAPE AND THE EXPRESSION OF SPIRIT IN THE STORY

Abstract. In this article, the place of the landscape in the narrative genre, its main tool in the expression of artistic psychology, as well as the active participation of the image of nature as an important tool in the symbolic-figurative, metaphorical reflection of socio-psychological situations, based on the analysis of the story of the writer Luqman Borikhon "The Expected Day" revealed. Also, in the article, the mental state of the hero of the story is reflected in harmony with natural phenomena, the relationship between man and nature, the parallelism of the creator, the types of the level of use of landscape in stories and its functions, and evidenced by the stories of Luqman Borikhon and Isajon Sulton.

Keywords: psyche, artistic psychology, landscape, image, figurativeness, hero, interpretation, analysis, story, author, metaphor, symbolism, metaphor, creative parallelism, poetic detail, detail, animation, collision, conflict.

Kirish. Ma'lumki, san'atning barcha shakllarida voqelik obrazlar vositasida aks ettirilgan ekan, bu obraz voqelikning aynan o'zidan iborat emas. San'at asarlaridagi har bir obraz ijodkor shaxsining hissiy va aqliy idrokidan o'tgan voqelik parchasi sifatida poetik tasvirdan o'rin oladi. Epik turga mansub janrlarda peyzaj asosiy poetik unsur sifatida asardagi psixologik kayfiyatni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayni damda, faqatgina unsur emas, balki, bevosita ijtimoiy sharoit, muhit, va hodisa bilan uyg'unlik kasb etadi. Nasriy asarlarda ham peyzajning asosiy vazifasi asarning zamoni va makonini ko'rsatish bilan birga, voqelikka konkret yondashish orqali, asardagi personajlarning xarakterini o'quvchiga yanada yaqqolroq ko'rsatishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Asarning psixologik holatni teran anglatishda ham peyzaj dastak

vazifasini bajaradi. “Dramatik asarlarda faqat shartli ravishdagina peyzaj haqida gapirish mumkin”[5; 221]. Ya’ni bu xildagi asarlarda peyzaj boshqa adabiy turlarga qaraganda nafaol deyish mumkin.

Peyzaj “badiiy asar shaklining tarkibiy qismi bo’lib, asarning g’oyaviy mazmun ifodasiga xizmat qiladi, muallif asarda ilgari surgan g’oyaviy maqsadni ifodalashda u bilan uyg’unlashadi”[1;12], bu jihatdan peyzajning asarning g’oyaviy ahamiyatini ochib berishda uning alohida o’rni bor. Ko’p hollarda peyzajlar ijodkorning falsafiy mohiyatini belgilashda yetakchilik qilmasa-da, ko’p o’rinlarda muallifning g’oyasi bilan bevosita bog’liqlik kasb etadi.Ya’ni ayni zamonda tabiat tasviri ijtimoiy-psixologik holatlarni ramziy-majoziy, metaforada aks etishda muhim vosita sifatida faol ishtirok etadi.

Tahlil. Ma’lumki, ruhiy parallelizm insonning qalb iztiroblari, quvonchi, kechinmalarini tabiat tasviri orqali yanada yorqin ko’rsatadi. Ya’ni inson ichidagi tug’yonlarini tabiat orqali dalillashga urunadi. Bunda tabiatdagi har bir hodisa insondagi ruhiy holat bilan uyg’unlik kasb etsa, ba’zan qarama-qarshilik tarzida tasvirlanadi. Nima bo’lganda ham, tabiat tasvirini keltirishdan maqsad insonning ichki kechinmalarini yanada kuchliroq, ishonarliroq qilib tasvirlashdir. Masalan, yozuvchi Luqmon Bo’rixonning “Kutilgan kun”[3;65] hikoyasida asosiy syujet voqealar ketma-ketligi emas, balki qahramonning qalb tug’yonlari, bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan ichki kechinmalari, ruhiy holati, tabiat va undagi hodisalar, go’zal manzaralar orqali aks ettirilgan. Asarning boshlanishi adib ijodiga xos bo’lgan uslub tugun bilan boshlanadi va bu tugun vazifasini o’tagan jumla hikoya tadriji davomida naqorat kabi takrorlanib asarning jarangdorligini, musiqiylikini va o’qimishlilikini ta’minlashga xizmat qilgan. “*Boyxon bu kunni ilhaq kutgan edi*” degan jumla bilan boshlangan naqorat qismi “...*Boyxon bu kunni ixlos bilan kutgandi*”, “*Boyxon bu kunni entikib kutgan edi*”, “*Boyxon bu kunni shirin xayollar og’ushida kutgan edi*”, “...*Boyxon bu kunni intiq kutgan edi*” va asar yakunida “*Boyxon bu kunni zor-zor kutgan edi*” shakllarida takrorlangan. Bu naqoratday terilgan jumladagi so’zlarning o’zaro farqlanuvchi har biri, xususan, “ilhaq”, “ixlos”, “entikib”, “shirin xayollar og’ushida”, “intiq bo’lib” kabi ifodalar hikoya qahramoni Boyxonning ruhiy ahvolini darajama-daraja o’stiribgina qolmasdan, ayni paytda, nafsining quliga aylangan bo’lsada, qalbidagi sof tuyg’ulari, ayoliga bo’lgan mehr-muhabbati jo’sh urushining isboti sifatida ham keltirilgan. Aslida, tuzukkina insonning turli yo’llarga o’zi xohlamagan tarzda kirib qolishiga uning irodasizligi, sabrsizligi bilan bir qatorda, ijtimoiy muhit, ya’ni atrofidagi insonlar ham sababchi bo’ladi. Boyxon ham o’sha ilhaq kutayotgan kun, ya’ni ayolining tug’ilgan kuni uchun tanlangan sovg’ani olish maqsadida, qo’ldan kelgancha harakat qiladi, o’zini mast qiluvchi ichimlik kushandasi bo’lib qolganligi va boshqa ichmasligi uchun urunadi. Ammo ichki tug’yonlaridan, uning istaklari nafi ustun kelishi, hammasini barbod qiladi. Yozuvchi ana shu holatni quyidagicha tasvirlaydi: “*Boyxon tanasi taram-taram bo’lib ketgan daraxtga behol suyanib, chuqur-chuqur nafas oldi. Kulrang qorong’ulikka cho’mib borayotgan katta-kichik daraxtlar, baland-u past imoratlar, keng yo’lda g’iz-g’iz o’tib qaytayotgan mashinalar ko’z o’ngida betinim chayqalardi*”. Adib o’z qahramoni qalbidagi qorong’ulik, tushkunlik va g’am-qayg’uni har bahor kelsa ham gullamaydigan, sarg’ayib bitayotgan daraxtga qiyosan tasvirlaydiki, tabiat va inson o’rtasidagi o’zaro bu yaqinlik inson psixologizmining murakkab qirralarini anglashga turtki vazifasini o’tagan. Ayniqsa, asarda qahramonning har kuni kechki yemakdan so’ng, qorong’ulikka mahzun boqishi, uning ham qalbi zimiston bo’lib borayotganligini anglatadi: “*Boyxon ko’pincha kechki yemakdan so’ng muzday deraza oynasiga tanglay tirab, mahzun qorong’ulikka cho’ngan torgina hovlidagi sovuq urgan o’rik daraxtiga so’zsiz tikilardi. Necha-necha bahorlardan beri gullamaydigan, g’uj-g’uj yaproqlari kuzning olovli dami yetmasdanoq Sarg’ayib, qovjirab bitadigan bu daraxt, sertomir qadoq qo’llardek shoxlarini ko’kka cho’zib, nelarnidir falakdan so’rayotganday sovuq shamolda diydirab, chayqalib turar edi*”.

Hikoyada Boyxon ayoliga munosib er bo’lolmayotganidan azob tortadi. Butun xayoli ayolim meni tashlab ketadi degan hadik bilan yashaydi. Ammo rafiqasi oilasini yaxshi ko’radi, onasiga mehribonlik qiladi. Boyxonni asrab-avaylaydi. Boyxon unga bo’lgan tuyg’ularini oshkora aytishga jur’atsizlik qilardi. Asarda ayolini kuzatayotgan Boyxon ko’z oldida shunday tasvir chiziladiki, muallif shu o’rinda portret va peyzajning sintezini mohirlik bilan yaratgan. Ya’ni tabiatning go’zalligini, ayolning tashqi ko’rinishi bilan jonlantirarkan, bevosita qahramonning dil nolalari avj urayotgan holatdagi psixologik kayfiyatini yaratgan: “*Sochini chiroyli turmaklab, duracha bilan tang’ib olgan xotini o’sha o’rik daraxtining shoxlariga kir yoymoqda edi. Durrachasi tegidan chiqib turgan, shamolda hilpirayotgan uzun-uzun soch tolalariga daraxtning nurdek ingichka bir shoxi go’yo o’pmoqchiday ohista-ohista silanar, kelinchak esa shirin-shakar xayollar og’ushida zavqlanib betinim iljayardi*”. Ko’rinadiki, ushbu tasvir bir vaqtning o’zida peyzaj va portretning uyg’unlik kasb etishi orqali muallifning psixologizmni ifodalash mahoratini ham ko’rsatadi.

Quyidagi jumlada muallif Boyxonning ruhiy azoblanishini, dilidagi xunlikni qora tunda horg’in uchayotgan qushlar orqali jonlantirgan. Tabiat bilan qahramon o’rtasidagi qoralik bir xilday edi go’yo:

“Uning nazarida qushlar qop-qora tun aro horg'in uchib borishar, mitti ko'zlarida shubha-yu hadik, umidsizlik va alamzadalik qalqib turar, chor-atrofdagi hech bir qo'nalg'a belgisi ko'rinmas edi”.

Asardagi naqarot kabi jarang sochgan: *“...Boyxon bu kunni zor-zor kutgan edi”* jumlasining endi qahramon ruhiyatga zid kelishi, entikib, zor-zor kutgan kunning kutilganday kelmasligi, uning holati yomonlashgani, ruhi tushib ketganligi ichki “men”i o'z-o'zidan nafrat tuyib, qovjirab borayotganligi kuzatish mumkin: *“Endi esa ko'ngli aynib, qaqshab-titrab, daraxtga madorsiz suyanib turar, kimgadir tinmay aljiragisi, ho'ng-ho'ng yig'lagisi kelar, boyagina nafrat va masxaraga limmo-lim yuragi yana qurib-qovjirab, halim tortib borar edi”.*

Natija va muhokama. E'tiborli jihati, asarning muqaddimasidan tortib so'nggi jumlasigacha qahramonning ruhiy holati tabiat hodisalari bilan uyg'unlikda ochib berilgan. Demak, muallif peyzaj tasviri orqali badiiy psixologizmning mukammal namunasini yarata bilgan. Buni hatto hikoya so'ngida keltirilgan jumlada ham ko'rish mumkin: *“Qorong'ulik tobora quyuqlashardi...”*. Bu yerda tabiatning o'zgarmas qonuniyatlaridan biri bo'lgan qorong'u tunning tasviri emas, balki qahramonning ruhiyatini butun ruhiy olamini qorong'ulik, g'am-qayg'u egallab borayotganligi, borgan sari tushkunlik iskanjasida qolayotganligini anglash mumkin. Mana shu birgina jumla qahramon ruhiyatidagi tadrijiy azoblanishni borgan sari quyuqlashtirib, yanada kuchaytirgan. Bu jihat ham, yozuvchining inson ruhiyatini ich-ichiga kira olgani, avvalo, o'zida his qilib yaratganligining mahsulidir deyish mumkin.

Ma'lumki, peyzajning hikoyalarda qo'llanilish darajasi turlicha bo'lib, ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz: 1. Peyzaj tasviri, ayniqsa, istiqloq davrida yaratilgan hikoyalarda o'ziga xos ramziy-majoziy ma'no doirasida faol qo'llaniladi. Bunda ijodkor, tabiat tafsilotlari, undagi hodisalar, shuningdek, tabiatga xos ranglar jilosi ifodasini, inson ruhiy olami bilan hamohanglik kasb etibgina qolmay, badiiy niyatini chuqurroq anglatishga harakat qiladi. Bu usul, ayniqsa, yozuvchi Isajon Sulton hikoyalarida unumli qo'llanilgan: *“Shabada esmas, lekin o'rmon guvullab-shovullab turar edi. Sarv, qayrag'och, archalar baland o'sgan, o't-o'lanlar poyasi to'q yashil, daraxt ostidagilari esa siyrakroq, rangi ham nimdoshroq, ba'zilar gullagan, mayda-mayda gulchalar uzra asalarilar g'o'ng'illab uchib yurar edi. Daraxtlar ortida ko'rinmas-da, qaydadir quyosh yorqin nur sochardi. Osmon ko'm-ko'k, uvada oq bulutlar qimir etmasdi”*(I.S. *“O'rmondagi kulba”*). Mazkur parchada tabiatning bir bo'lagi bo'lgan o'rmon tasviri berilgan. Undagi o't-o'landan tortib daraxtlargacha xos ranglar jilosi aks etgan bo'lib, o'ziga xos ramziylik tashiydi.

2. Peyzajdan obrazlarni jonlantirishda mahsuliy foydalaniladi. To'g'ri, bu usul lirik asarlarda ancha faol ishlatiladi. Ammo zamonaviy nasrda ham bu kabi qo'llangan holatlarga yetarlicha misol keltirish mumkin. Bunda muallif insonga xos bo'lgan xususiyatlarni, tabiat hodisalari, hayvonlar, o'simliklar va shu kabilarga ko'chirib borish hamda ularni jonlantirish (insoniylashtirish) bilan o'zining maqsadini singdiradi. Masalan, Isajon Sultonning *“O'rmondagi kulba”* hikoyasida: *“Shamol og'ochlarning qurigan shoxlarini qisirlatib sindirayotir — shuning shovqini. Baland-baland daraxtlar og'ir-og'ir chayqalib ingranadi, yo'l ustidagi o't-u giyohlar egilib-bukilib shitirlaydi. Maysalar gullarni yer uzra sochib yuborishibdi. O'rmon turli ovozlari chiqarar, daraxtlar nola chekib ingramoqda edi”* parchasida daraxtlarning ingrash, o't-u giyohlarning egilib-bukilishi, maysalar gullarni sochishi, o'rmonning ovoz chiqarishi yoki daraxtlarning nola chekib ingrash kabilari insonga xos bo'lgan holatlar bo'lib, inson ruhiyatini yorqinroq ifodalash uchun qo'llanilgan.

3. Muallif tabiat bilan bog'liq poetik tafsillar (detallar) vositasida xarakterlarning ruhiy holatini ochib berishga diqqat qaratadi va bu orqali badiiy g'oyasini amalga oshiradi. Aniqroq qilib aytganda, tabiat bilan bog'liq hodisalar, poetik detal vazifasini o'taydi va bu orqali ijodkor ruhiy kechinmalarini konkret dalillashga urunadi. Asardagi personajning ruhiy holati tabiatdagi konkret hodisa bilan uyg'unlikda psixologik manzarani o'taydi va bu orqali ruhiy parallelizmlik hosil qiladi. Ya'ni inson va tabiatni yonmayon qo'yish orqali ruhiy holat manzarasi ifodalanadi. Masalan, Isajon Sultonning *“Oydinbuloq”* hikoyasidagi peyzaj mana shu vazifani bajarishga xizmat qilgan: *“Oydinda cho'milgan buloq, bujur tol yonida — zaminda bir o'zim qolaverdim. Ko'nglimni yomon bir g'ashlik qoplab oldi. Tegramni qurshagan afsonaviy manzara oddiy bo'lib qoldi, qaydadir qurbaqa qurilladi. Bezovta zag'chalar chug'ur-chug'ur qilishdi. Shom qo'ngan edi. Aziz bir nimasidan ayrilgan kabi, ortimga qaray-qaray, ko'nglimda benihoya yolg'izlikni tuygancha o'z yo'limga ketdim”*. Mazkur jumladagi har bir konkret keltirilgan tabiat hodisalari, poetik detal vazifasini o'tash bilan birga qahramon ruhiyatini, uning holatini aniq dalillash uchun xizmat qilgan. Jumladan, *“qurbaqaning qurillashi”*, *“bezovta zag'chalar chug'ur-chug'ur qilishi”* kabi hodisalar inson ruhiyatidagi g'ashlik, bezovtalikni aniq-tiniq dalillagan.

4. Nasriy asarlarda peyzajning konflikt bilan qo'llanilish darajasi ancha keng bo'lib, uning ruhiyat ifodalashdagi o'rni juda muhim hisoblanadi. Odatda, konflikt, o'zaro manfaat va qarashlar ziddiyatida namoyon bo'ladi. Ammo istiqloq davrida yaratilgan hikoyalarda keltirilgan peyzaj tasviridagi konflikt ko'p hollarda ruhiy ziddiyatni – kolliziyalarni yuzaga keltirgan. Biz bu masala haqida yanada batafsil to'xtalishni

ma'qul topdik. Sababi, peyzajdagi konfliktning paydo bo'lishi va shakllanishi turlichadir. Jumladan, tabiat va qahramon ziddiyatini alohida ta'kidlash lozim, Ya'ni tabiatdagi hodisalarning, chunonchi, tabiat va inson konfliktida peyzaj tasvirning asosida turgan tabiiy manzara insonga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunday turdagi konfliktida psixologizm muhim planda turadi. Ya'ni ruhiyat manzarasi tasvirida bu usul muallifga qo'l keladi. Masalan, Isajon Sultonning "Yangi yil kechasida" hikoyasida shunday tasvir bor: "**Havo bulut, lekin tungi osmon nimagadir yorug', bulutlarning qatlari ko'rinib turardi. Bayramlarda osmon yorishganday tuyulishi bor gap**". Ko'rinib turibdiki, osmonni bulut qoplagan payti qorong'u bo'lishi real haqiqat, ammo qahramonning qalbidagi zimiston o'rnini yorug'lik egallasa, ya'ni ruhiy holatiga bog'liq tarzda atrof-muhit ham shunga monand ko'rinadi.

Shuningdek, tabiat hodisalar bilan bog'liq ranglar ziddiyati asar qahramonining psixologik holati bilan o'zaro qarshilantiradi. Bunda an'anaviy ranglar faol qo'llaniladi. Masalan, Luqmon Bo'rixonning "Qorxat" hikoyasi yakunida xuddi shu qarama-qarshilik yanada chuqurlashtirilgan. "*Zarif ko'r-u kar bo'lib, qora terga botib qabulxonadan chiqdi. Tashqarida charx urib birinchi qor yog'ardi*". Qora va oq ranglarni o'zaro zid keltirish va bu orqali tabiat bilan insonning ruhiy holatini qarama-qarshi qo'ygan. Bundan tashqari, tabiat manzaralarini ziddiyat asosida ifodalashda metaforalardan ham samarali foydalaniladi. "Metaforada narsa yoki uning ma'nolari nafaqat o'xshashlik, balki zidlik asosida ham muqoyasaga kirishadi. Zidlik o'xshashlik bilan bir qatorda metaforani yuzaga keltiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu jihati bilan ham metafora qiyosiy adabiyotshunoslik prinsiplariga yaqin keladi"[7;30-son]. O'xshashlik va zidlash asosida peyzaj yaratish uchun muallifga tabiatdan istagancha dalillar topishi mumkin. Faqat bu narsa bevosita muallifning tabiat hodisalarini qay darajada bilishi va anglashi, his qilishi va uni qog'ozda badiiy qayta kashf etish salohiyatiga bog'liq jarayondir. Adabiyotshunos Sebinaga ko'ra peyzaj harakat joyi va vaqtini belgilaydi, syujet motivatsiyasi vazifasini bajaradi, psixologizmni yaratish va muallifning sub'ektiv rejasining namoyon bo'lishiga xizmat qiladi[8;104-105]. M.Sultonova esa "Peyzaj san'ati" kitobida, asosan, peyzajning voqelar kechadigan makon va qahramon ruhiy olamini ko'rsatish kabi ikki vazifa o'tashini Oybekning "Navoiy", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" va P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanlari misolida dalillashga urunadi[9;].

Xulosa. Demak, peyzaj badiiy asarning turiga qarab, turli xil funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Jumladan, she'riyatda lirik qahramonning nuqtayi nazari, kayfiyati, ruhiy manzarasini tasvirlashda, shuningdek, lirik voqelikka xos makonni ifodalashda asosiy o'rinni egallaydi. Nasriy asarlarda ham peyzajning asosiy vazifasi asarning zamoni va makonini ko'rsatish bilan birga, voqelikka konkret yondashish orqali, asardagi personajlarning xarakterini o'quvchiga yanada yaqqolroq ko'rsatishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Asarning psixologik holatni teran anglatishda ham peyzaj dastak vazifasini bajaradi. "Dramatik asarlarda faqat shartli ravishdagina peyzaj haqida gapirish mumkin"[10;221]. Ya'ni bu xildagi asarlarda peyzaj boshqa adabiy turlarga qaraganda nafaol deyish mumkin. Xullas, badiiy asarda peyzajning ahamiyati bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin: epik asarda peyzaj ruhiyat tasviri bilan uyg'unlikda poetik detallar vositasida amalga oshadi; muallifning ruhiyatni ifodalashdagi tadriji, uning g'oya va badiiy niyatini ramziy-majoziy simvollar, va metaforiklashtirishda, bir so'z bilan aytganda, tabiat tasvirlari ijodkor qarashlarini yaxlit bir tizimga solish imkonini beradi; zamonaviy o'zbek nasrida ijtimoiy voqelikni o'ziga xos yo'sinda bayon etish va shu orqali ijtimoiy muhit manzarasi va inson ruhiyatining boshqalar ilg'amas, oshkora etilmas ba'zi bir jihatlarni, peyzaj orqali, xususan, tabiat tasviri, undagi hodisalar vositasida majoziy timsollar, obrazlar yordamida yorqinoq va konkret ochish tamoyili ko'zga tashlanadi; peyzaj asardagi qahramonlar xarakterini badiiy jihatdan kashf etish va ularning ruhiy dunyosini to'laroq ifodalash uchun asosiy unsurdir; ijodkorning tabiat bilan munosabatini o'rganish orqali uning mahoratining ayrim qirralarini aniqlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Эркинов А. Навоий – пейзаж устаси. – Тошкент: Фан, 1988. -Б. 12
2. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Т.; Ф. Фулом номидаги наириёт–матбаа ижодий уйи, 2016. –Б. 3–184.
3. Bo'rixon L. Ovchi qismati. Hikoyalar. Toshkent. Turon Zamin.2023. 65-b.
4. Султонова М.Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983.
5. Қуроноф Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. -Тошкент, 2010. -Б.221
6. Sulton I. Bog'i Eram. T: Sharq. 2015.
7. Сувоп Мели. Поэттик алжабр ёхуд ноаниқ аниқлик. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 2015 йил30-сон.

LITERARY CRITICISM

8. Nancy Worman. *Landscape and the Spaces of Metaphor in Ancient Literary Theory and Criticism*. Cambridgeuniversity press, 2015. - P.104-108.
9. Султонова М. *Пейзаж санъати*. – Тошкент: Фан, 1983.
10. Қуроноф Д, Мамажонов З, Шералиева М. *Адабиётшунослик дугати*. -Тошкент, 2010. -Б.221.

PECULIARITIES OF TRANSFORMATION MOTIF IN UZBEK WRITTEN FAIRY TALES

Kadirova Nargiza Arifovna,

*TIAME National Research University, PhD, associate professor
Tashkent, Uzbekistan
nzkd117@gmail.com*

Abstract. Analysis of several works of famous Uzbek fairy tale writers shows that the transformation motif they use in their plots has some basic similarities from the position of core idea with the elements present in some traditional Uzbek folktales. The reason of such coincidence lies with the stability of moral values praised by Uzbek people for centuries. The preservation of cultural heritage results in creation of fairy tales that consider modern social changes but resemble traditional folktales from the position of the core message they are aimed to deliver.

Written fairy tales and traditional folktales may differ in their specific details, but they share a common thread: the transformative power of magic. This magical element plays a central role in both genres, shaping the stories and driving the characters' journeys.

Keywords: transformation motif, written fairy tales, Uzbek folktales, traditions and culture, moral values, commonality, difference.

O'ZBEK YOZMA ERTAKLARIDA EVRILISH MOTIVI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mashhur o'zbek ertaknavislarining bir qancha asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ular o'z syujetlarida qo'llagan evrilish motivi o'zbek xalq ertaklarida mavjud bo'lgan unsurlar bilan o'zak g'oya pozitsiyasidan tubdan o'xshashliklarga ega. Bunday uyg'unlikka sabab o'zbek xalqi asrlar davomida ulug'lab kelgan ma'naviy qadriyatlarining barqarorligidadir. Madaniy merosni asrab-avaylash zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarni ko'zda tutuvchi, ammo asosiy mazmun nuqtayi nazaridan an'anaviy xalq ertaklariga o'xshab ketadigan ertaklarning yaratilishiga olib keladi.

Yozma ertaklar va an'anaviy xalq ertaklari o'zlarining o'ziga xos tafsilotlari bilan farq qilishi mumkin, ammo ular umumiy mavzuga ega: sehrning o'zgartiruvchi kuchi. Ushbu sehrli element ikkala janrda ham markaziy rol o'ynaydi, hikoyalarni shakllantiradi va qahramonlarning sayohatlarini boshqaradi.

Kalit so'zlar: evrilish motivi, yozma ertaklar, o'zbek xalq ertaklari, an'ana va madaniyati, axloqiy qadriyatlar, umumiylik, farq.

ОСОБЕННОСТИ МОТИВА ПРЕВРАЩЕНИЯ В УЗБЕКСКИХ ПИСЬМЕННЫХ СКАЗКАХ

Аннотация. Анализ ряда произведений известных узбекских сказочников показывает, что используемый ими в своих сюжетах мотив превращения имеет некоторые принципиальные сходства с позиции основной идеи с элементами, присутствующими в некоторых традиционных узбекских народных сказках. Причина такого совпадения кроется в устойчивости моральных ценностей, воспетых узбекским народом на протяжении веков. Сохранение культурного наследия приводит к созданию сказок, учитывающих современные социальные изменения, но напоминающих традиционные народные сказки с точки зрения основного послания, которое они призваны донести.

Письменные сказки и традиционные народные сказки могут различаться в деталях, но их объединяет общая нить: преобразующая сила волшебства. Этот магический элемент играет центральную роль в обоих жанрах, формируя истории и направляя путешествия персонажей.

Ключевые слова: мотив превращения, письменные сказки, узбекские народные сказки, традиции и культура, нравственные ценности, общность, различие.

Introduction. Transformation motif plays an important role in folklore-based written magic-fantasy fairy tales, and serves as one of the key elements for interconnecting the development of plot events. Using the said motif, heroes gain opportunity to shift shapes and forms, turn into various objects, animals, birds and etc., usually using magic. The main line in creating such tails has much in common with the traditional

LITERARY CRITICISM

magic folktales, from the position of incorporating fictional metamorphosis into seemingly ordinary human life.

The comparison of transformation elements used in written fairy tales with the ones present in traditional folktales, reveals that despite the change of some fictional elements, the main concept of transformation motif remains quite the same. As could be seen from the examples below, the key methods of transformation, as well as the moral following in tale's conclusion, do not differ much from those often depicted in post popular Uzbek folktales.

Literature review. Just as in many other nations, there is a big number of fairy tale writers in Uzbek literature as well. Their works are mainly addressed to children. One of such well-known Uzbek storytellers - Tursunboy Goyibov, widely implements transformation motif inherent in folktales into his works. For example, his "Bigfoot" fairy tale is based on the story of searching for the legendary Yeti. The story highlights people's belief in the existence of the Bigfoot. But at the end of the story it turns out that it is not a real creature, but a kid who once annoyed everyone with his laziness, greed and selfishness. He was the son of a store manager, and was sent to a wild hillside as a punishment by an old wizard for not apologizing for bad behavior. Living alone, in the wild, on a deserted mountain made him look like a Yeti. The boy was deeply remorseful for his actions and gained a chance to return to the people again due to making right conclusion.

Offending elderly people, and facing metamorphosis as a result of their curse is a typical form of transformation motif involving magicians, and the story above describes a case in which a kid was turned into a Yeti because of offending the old wizard. It can be seen that the writer has preserved the image of transformation resulting from curse, the old wizard and the legendary creature, just as in Uzbek myths and folktales, however he used them creatively and in a form that teaches the readers a lesson. It should be noted that traditional folktales usually depict transformation into existing animals, or trees, and the introduction of Yeti in the story line highlights the modern nature of the plot.

This fairy tale also depicts the evolutionary processes undergone by the kid's character. And the old wizard's growth as high as a five-story building, and the description of his unusual appearance in details, might also be considered as the element of transformation motif. The image of a kid suddenly transferred to a far wild area by the old man, and covered with white fur are elements of magical transformation of the human body. So, readers find at least three forms of transformation motif in this story. While two of them are quite obvious and physical, the third one: the evolution of kid's views, is not that evident as a motif but very important for the tale's overall message.

In general, it is quite usual for Goyipov to depict in his tales the punishment of ignorant children through their transformation into various creatures. That's how the writer emphasizes the importance of education, implying that otherwise a person is nothing else but an unconscious creature. For example, in his "Greeting is the first word to say" the writer described transformation of a child into clay, thus sending a message that a person must live a meaningful life before he turns to clay, or dust. Here clay symbolizes death, and the transformation motif is used as a tool to emphasize the correlation between the person's behavior and the transient nature of life. Notable point about Goyipov's works is that they usually address issues of fostering, importance of zeal and differentiation of good from the bad.

For instance, Goyipov's "Giloskhon" (Cherry-girl) tells a story about a courageous girl raised from a cherry seed. The author was influenced by such famous Uzbek tales as "Nokhatpolvon", "Kulakboy", "Chinoqvoy", describing the struggle of small heroes and difficulties they meet in their lives. In "Giloskhon", the motif of transformation is used as tool to highlight the fictional nature of the plot, but makes it in a manner that allows to draw parallels with the real-life situations.

Another well-known Uzbek writer, often using folktale-inspired transformation motifs in his works is Mahmud Murodov. His poetic tale, "The Most Valuable Thing", reveals the contradictions in characters of two children. One of them, named Ahmad, is a well-behaving and smart boy, while the other one – Toshmat, is his antagonist. Toshmat had many bad habits, for instance, he could throw bread on the ground after having a bite. While Ahmad appreciated bread and even collected grains from the ground to feed chickens and birds.

The message of the fairy tale is to teach children to value the bread which is described as "the most valuable thing", and even said to be more valuable than a diamond. When a magical stork turns the bread in Toshmat's hand into a diamond, the boy can't eat it, suffers and learns a lesson that the bread must be respected. Just like many folktales, the plot of this story might also sound a little naive, but an attentive reader can notice that it's not only about the bread, but also about the moral values correlating with the

LITERARY CRITICISM

attitude to it. And the transformation motif here serves as the main element forcing Toshmat to make the right conclusion.

Another tale by Murodov - "Tilsim", praises the generosity of the Mother Nature. Here the image of Nature is enlivened in a generous rich man named Tabiatboy ("Nature-man") whose wealth is huge and inexhaustible. But all of a sudden, another character named Toymasboy (Greedy-man) appears and makes Tabiatboy angry. As a result, Tabiatboy enchants many of his riches. And only Hayotboy (Life-man), helping people, can return the wealth into its original form. Finally, Tabiatboy and Hayotboy meet, and the enchanted valuables are returned to the people. This beautiful story utilizes transformation motif as a mean to address environmental, moral and social issues more vividly. Distinctive feature of this tale is the figurativeness of all of its characters, which is usually more intrinsic to ancient Uzbek folktales.

One more unusual form of transformation motif can be seen in Murodov's "Gulsum - Tabassum" tale in which whimsical girl's psyche underwent a serious metamorphosis. The girl's name was Gulsum and she used to cry very often, for that reason she had no friends at all. Even animals tried to run away from her. One day Gulsum went to the kindergarten with her mother. She didn't stop crying there either. As she wept, the sky got covered with clouds and it began raining heavily. Sensing this, other children asked Gulsum not to cry, and surprisingly, the day became bright as she stopped crying and smiled. That's how Gulsum realized that her smile was better than her tears, and stopped crying. Since that time everyone called her "Gulsum - tabassum" (Gulsum-smile). This short tale, although contains no elements of magic, includes a very interesting form of transformation motif, that not only links plot episodes, but also influences its overall message. And also, it should be noted that, the transformation of behavior is one of the most widespread forms of transformation motif used in folktales.

In the "Bird of Freedom" by Miraziz Azam, the author of many poetic literary tales, the beautiful wife of the protagonist butcher Nahang dies unexpectedly. The young man remains with a ten-year-old daughter named Olmos and an eight-year-old son named Olmas. Meanwhile, the enemy invades Nahang's country. Nahang forgets his pain and sets out to fight valiantly for the independence and freedom of his people. Fearful of his courage, the enemy plotted to seduce Nahang. In this regard, the story line of the "Bird of Freedom" resembles that of the legend of "Tomaris" and Alisher Navoi's epic "Farhod and Shirin" where marriage serves as a tool to gain control over certain territory.

Nahang becomes the victim of this trick, and influenced by his new wife kills his own son. However, his daughter Olmos collects her brother's bones, buries them under a red flower and sings a song to bring Olmas back to life as a bird. The boy resurrected in the body of a bird kills his father and stepmother, and starts a war with his stepmother's homeland. His sister also bravely participates that war, and after winning gets elected as the ruler of her nation.

Analysis. The motif of transformation of a child killed by own parents into a bird can be met in Uzbek folktales quite often ("Sparrow", "Blue Dove", etc.). And as a rule, the metamorphosis follows the act of burial of bones by siblings under a certain plant. Although, the birds embodying the child's soul can differ depending on the folktale (sparrow, dove, cuckoo), the main aim of such transformation is to take revenge on ones responsible for the murder.

Various forms of physical and psychological transformation are mixed in "The Tale of the Kidnapped Hero", a fairy tale, written in a traditional Uzbek epic folktale style by a well-known children's poet Anvar Obidjon. The protagonists of the tale are Durbekshah, a thirty-year-old ruler of a prosperous country called Bagli, and his beloved companion Aykhan, who is unmatched in riding and hunting. They had no kids for a long time and finally, after many prayers, Aykhan gave birth to a child. The prince was named Khurbek. Durbekshah was very happy and held a great celebration. Meanwhile, Durbekshah's bitter enemy Sharmanshah, joined forces with a witch named Kekbu, and planned to make him suffer. The witch had a "magic mirror" through which she was able to see the events happening in the land of Bagli, also she had an ability to turn into various creatures. By turning into an eagle, a pigeon and a louse Kekbu reached Bagli and entered the palace. Then she turned into a parrot and greeted the king. The king liked the parrot and placed it in a golden cage in his son's room. One night Kekbu turned into a mosquito, escaped the cage, and by transforming into an eagle kidnapped the child and left the palace unnoticed. The child was brought to Sharmanshah, renamed as Hashrash, and has grown into a strong and brave man knowing nothing about his parents.

After losing his son, Durbekshah, became ill and died fifteen years later. Sharmanshah, who was waiting for his death, made an attempt to invade his rival's lands. But the population of Bagli resisted, so he had to ask young and strong Hashrash to join the war. The young warrior entered the battle and began to win. But at some point he meets his mother Ayhan fighting against him, and recognizes her by the triangular ring

she had on her finger, shaped exactly as the mark on Hashrash's shoulder. The plot of this tale emphasizes that the transformation of good to evil and evil to good may occur according very complicated laws of life, corresponding to the proverb stating that every coin has two sides.

Another skillfully used case of transformation motif can be seen in "White Swallow" poetic tale by famous writer from Bukhara Sadriddin Salimov. According to the plotline, the White Swallow saves a young girl, whose freedom and rights have been violated, from oppression, and the girl also turns into a swallow and flies with her savior to Gijduvan region. The metamorphosis described in the story figuratively reflects the transformation of pure soul into a swan, symbolizing freedom and chastity.

Similar transformation motif can be seen in D.Abdurakhimova's fairy tale "The Orphan's Happiness", where a wizard turns a woman into a crane. And her son disenchant his mother by playing a magic flute.

Discussion. One more element of transformation motif deserving consideration is depicted in the "Lesson in the Dream" fairy tale included in the "Children will save the world" collection by Kavsar Turdieva. It is about a boy named Bashar, who gave everyone nicknames. One day, hurrying down the street, he stumbled upon a hundred-year-old magician and shoved him over. Watching the old man falling on his back, the boy laughed and shouted, "Look at that myna, looking like a vulture", thus giving him a nickname. Suddenly the old man's eyes lit up and the city seemed to tremble. The old man said, "You have made fun of me, so I'll punish you. Whatever nickname you give to a person, he will turn into it!". But Bashar didn't pay attention to old man's words. Then, one day he opened his eyes in the morning and saw that his brothers were gone. Instead he saw a poplar tree in the room. The same situation was in his classroom. Bashar understood everything and started to cry. After a while bewitched classmates attacked and imprisoned him. Poor kid was sorry for what he had done and impatiently waited for the old man to show up in the window. And one day he saw a myna bird, and the bird told him that it used to be an old man before, but was enchanted by Bashar's words as well, and now can't help him to disenchant others. After hearing myna's words Bashar lost his consciousness. But when he opened his eyes he realized that it was just a dream and vowed never to nickname others again. This fairy tale describes the transformation motif appearing as a result of curse, which is quite usual for Uzbek folktales as was mentioned above. The conclusion of the story is shaped by the behavioral metamorphosis following the physical transformation, thus the fairy tale incorporates both types of transformation motif closely interconnected.

Dream-related transformation can also be seen in "The Mysterious Gate" fairy tale, where the protagonist named Alijon, being under impression of what he had seen in a historical museum, travels to the past, meets famous people and participates various adventures in his dream. The noticeable thing about the transformation motif used in this tale is that it relates to the transformation of time, while in previously mentioned stories the objects of transformation were mainly people.

“... Bir necha kundan so'ng Mister Bingli ularnikiga kelib, o'n daqiqacha Mister Bennetning kutubxonasida o'tirdi. Uning bu yerga kelishdan maqsadi odamlardan eshitgani ushbu oilaning go'zal qizlarini ko'rishga umid qilgandi, lekin unga faqat Mister Bennetningina ko'rish nasib qildi. Qizlar esa yigitdan omadliroq edilar: ular yuqoridagi derazadan uning otda kelganini va egniga ko'k syurtuk kiyib olganini ko'rishdi....”

Yuqoridagi parchadan ayon bo'lib turibdiki, XVIII-XIX asr Yevropasida ham sharq xalqlaridagi kabi, xususan, o'zbek xalqidagidek, oriyat, ibo-hayo kabi fazilatlar qadrlangan. Qizlarni ko'rish uchun kelgan yigit ularning otasiga bu maqsadini bildirishdan tiyiladi. Qizlar ham begona yigitga peshvoz chiqishga iymanshadi. Ushbu epizodning o'zi har ikki xalqda ham axloqiy qadriyatlarining naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi va shu o'xshashlik tarjimonni asar milliy konseptual manzarasini oson tasavvur etib, uni o'z ona tilida ifodalay olishiga yordam beradi. Shuningdek, bilvosita tarjimada “*rode a black horse*” iborasini “*uning otda kelganini*” kabi kichik yo'qotishlar ko'zga tashlangan, biroq bu kichik tafovut o'quvchining asar umumiy manzarasini tarjimada to'liq tasavvur qilishiga halal bera olmaydi.

Yuqoridagi misol orqali ko'rishimiz mumkinki, tarjimon asarni o'zbek tiliga rus tilidan tarjima qilgan. Odatda asliyatdan emas, tarjimadan tarjima qilinganda, badiiy asardagi ta'sirchanlik, asl manzara va ko'rinishga putur yetadi. Ammo “Andisha va g'urur”ni ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilgan badiiy tarjimon I.S.Marshakning mahorati va ziyrakligi tufayli asar asl varianti va uning rus tilidagi tarjimasidan xosil bo'lgan tasavvur o'rtasida tafovut sezilmagan va asarni o'zbek tiliga o'g'irgan tarjimon M.Ismoilova tomonidan asarning rus tiliga tarjimasidan foydalanib o'zbek tiliga tarjimasida yuqorida aytib o'tilgan xatolik va muammolar deyarli ko'zga tashlanmaydi. Shunday bo'lsa-da, badiiy asarni tarjima qilishda asarning tarjimasidan emas, asl nusxasidan foydalanilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Ingliz yozuvchisi Jeyn Ostinning taniqli va durdona asari bo'lgan “Andisha va g'urur” romani syujetining sodda va tushunarligi, qahramonlarning chuqur psixologik portretlari va sof klassik inglizcha xazilni o'zida mujassam etgan. Mazkur asar Jeyn Ostinning boshqa bir qator asarlari sirasida Buyuk Britaniyadagi barcha kollej va universitetlarda majburiy adabiyot sifatida o'quv dasturiga kiritilgan.

Roman bir nafasda o'qiladigan, qiziqarli va kishini o'ylashga undaydigan syujet chizig'iga ega. Janob Bennetning oilasida besh nafar yosh va go'zal qizlari bor. Ammo ularning munosib kuyov topib, muvaffaqiyatli turmush qurish imkoniyatlari kam, chunki oila badavlat emas. To'g'ri, ikki to'ng'ich qiz har qanday sepga sotib olib bo'lmaydigan noyob fazilatlar egasi – ular odobli, oqila, dilbar. Shaharchaga ko'chib kelgan yangi ijarachi – yosh, badavlat va bo'ydoq yigit paydo bo'lganda, mo'jazgina Hetford provinsiyasida jiddiy ehtiros qaynay boshlaydi. Bennet oilasining faol, tinib-tinchimas, har doim qizlarini badavlat kuyovlarga turmushga chiqarish uchun qayg'uradigan jonkuyar onasi qizlarining baxti ochilib ketishiga erishish uchun haqiqiy jang maydonini ochishga bel bog'laydi.

“Andisha va G'urur” 1796-1797-yillarda yozilgan bo'lib, hozirgi kungacha o'z mashhurligini yo'qotmay kelmoqda. 2003-yilda asar BBCning 200 ta eng yaxshi kitoblari ro'yhatida ikkinchi o'rinni egallagan. Asardagi go'zal tuyg'ular, oilaviy qadriyatlar, ayollik sha'ni e'zozlanishi bilan boshqa xalqlar madaniyatiga mushtarakligi sababli dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan va kitobxonlar orasida shuxrat qozongan.

Mazkur asarning badiiy qiymati va g'oyasini ifodalashda qator omillar faol rol o'ynagan. Bulardan biri – bu asarda ifodalangan xalq mentalitetidir. Ma'lumki, romanda XVIII-XIX asrlardagi o'rta va yuqori sinf ingliz xalqi vakillari hayoti yoritilgan. Ushbu va shu davrda yozilgan boshqa asarlardan ma'lumki, bu vaqtlarda turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar vakillari uchrashadigan, tanishadigan va ko'ngil ochadigan asosiy tadbir – bu bal bo'lgan. (Bal – fr. Bal – “bailer” – lot. “ballare” – “o'ynamoq”, “raqsga tushmoq”) biror voqea munosabati bilan ommaviy ko'ngil ochish ushuni uyushtirilgan raqs kechasi, o'yin-kulgu kechasi.

Shunday raqs kechalarida yoshlar bir-birlari bilan tanishadilar, yigitlar o'zlariga qalliq tanlaydilar, onalar o'z qizlarini birorta badavlat kuyovning nazariga tushadi, degan umidda yasantirib olib keladilar, eng asosiysi, hamma raqs tushib, ko'ngil yozadi. Bunday ballar o'sha davr va o'sha xudud turmush tarzi va hayotiga chuqur singib ketgan, ajralmas muhim voqealardan hisoblangan.

“Andisha va g'urur”da ham ballarning mana shunday ahamiyati ochib berilganki, bu omil kitobxonning davr va makon ruhini yanada yaqqol his etishiga o'z sezilarli hissasini qo'shadi. Asarda bal

sahnasidan olingan quyidagi parchadan ham bunday tadbirlarning yuqorida sanab o‘tilgan ahamiyatini ilg‘ab olishimiz mumkin:

“...Mr. Bingley had soon made himself acquainted with all the principal people in the room; he was lively and unreserved, danced every dance, was angry that the ball closed so early, and talked of giving one himself at Netherfield. Such amiable qualities must speak for themselves. What a contrast between him and his friend! Mr. Darcy danced only once with Mrs. Hurst and once with Miss Bingley, declined being introduced to any other lady, and spent the rest of the evening in walking about the room, speaking occasionally to one of his own party. ... Amongst the most violent against him was Mrs. Bennet, whose dislike of his general behaviour was sharpened into particular resentment by his having slighted one of her daughters. ...”

Asarning o‘zbek tiliga tarjimasida mazkur parcha quyidagicha berilgan:

“... Oradan ko‘p o‘tmay, mister Bingli baldagi hamma mehmonlar bilan tanishib oldi. U juda ochiqko‘ngil, mehmonnavoz bo‘lib, ziyofatning bunchalik tez tugab qolgnidan afsusda ekanligini bildirib qo‘ydi va hatto Nezerfildda ham bal o‘tkazilsa ko‘ngildagidek ish bo‘lishini gap orasida qistirib ketdi. U bilan do‘sti o‘rtasida yer bilan osmonchalik farq bor edi. Mister Darsi butun kecha davomida faqat missis Xyorst bilan bir marta va miss Bingli bilan bir martagina raqsga tushdi. O‘zini boshqa ayollar bilan tanishtirishlarini istamadi va kechaning qolgan qismini o‘zi bilan birga kelganlar bilan gaplashib o‘tirib o‘tkazdi. ... Yigitni yomonga chiqarganlardan biri missis Bennet edi. Ayniqsa, mister Darsining uning qizlaridan biriga e‘tiborsiz qaraganligi ayolga juda alam qilib ketgandi. ...”

Lingvomadaniy komponentli birliklarning yana biri – ekvivalenti bo‘lman leksika va bo‘shliqlar (lakunalar)dir. Bunday birliklarning har qanday asarda berilishi – ushbu asarda aks etgan xalq hayotining boshqalaridan nechog‘lik farq qilishini, naqadar o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradi.

Albatta, bunday o‘ziga xoslik markazida hamisha inson turadi. Inson biz tomonimizdan ma‘lum bir milliy mentalitet va tilning tashuvchisi, hamda boshqa milliy va etnik guruh vakillari bilan (asosan nutq faoliyatida) birgalikdagi faoliyat ishtirokchisi sifatida tushuniladi.[8,88-bet] Demakki, bunday hamkorlikdagi faoliyatlar natijasida xalqlar va millatlar madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va kundalik hayotida tafovutlar bilan bir qatorda o‘xshashliklar ham ko‘zga tashlanadi. Turli madaniyatlarining umumiy jihatlari uchrab turishi mana shunday madaniy hamkorlik faoliyati natijasidir.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, ba‘zida mana shunday birliklar yagona yagona bir xalqqa emas, til, din, etnik xususiyat, geografik joylashuviga ko‘ra umumiyliги bo‘lgan bir necha xalqlarga tegishli bo‘ladi. “Andisha va g‘urur” romanida ham muallif ekvivalentsiz so‘zlar va lakunalarga murojaat qilganki, bu asardagi xalq madaniyati, dunyoqarashi va turmush tarzining kitobxon avval tanish bo‘lman jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

“... that he is to take possession before Michaelmas and some of his servants are to be in the house by the end of next week...”

O‘zbek tilida:

“... O‘sha yigit Mixaylovo kunigacha ko‘chib kelmoqchi emish, kelasi haftaning oxirlarida esa xizmatkorlaridan kimdir kelarkan. ...”

Romandan olingan mazkur parchada berilgan “Michaelmas” – “Mixaylovo kuni” pravoslav slavyanlari uchun yilning 8-noyabr kuniga, katoliklar uchun esa 29-sentyabrga to‘g‘ri keladi va yil choraklaridan birining ochilishi hisoblanadi. Kunning nomi Arxangel Mixail nomidan kelib chiqqan. Shu kuni, xususan, har chorak uchun ijara haqlari to‘langan.

Mazkur misoldagi kabi madaniy va diniy marosimlar, odatlar, maxsus kunlarni bildiruvchi tushunchalar asar g‘oyasi, milliy koloritini, makon va zamon ruhini ochib berishda va kitobxonni ular bilan yaqindan tanishtirishda faol rol o‘ynagan.

“...his bounty and beneficence has preferred me to thevaluable rectory of this parish, where it shall be my earnest endeavour to demean myself with grateful respect towards her ladyship, and be ever ready to perform those rites and ceremonies which are instituted by the Church of England...”

O‘zbek tilida:

“...Bu ayolning sahiyligiya menga nisbatan yaxshi munosabati tufayli men shu yerdagi cherkovga ruhoni bo‘ldim va endigi faoliyatim ingliz cherkovining xodimiga munosib bo‘lgan barcha tadbir va tantanalarni o‘tkazish hamda zoti oliylariga nisbatan yetarlicha xurmatda bo‘lishdir...”

Yuqorida aytib o‘tilganidek, badiiy asarning asl tiliga xos bo‘lgan madaniyat unsurlari tarjimada aniq ko‘rsatilishi uchun tarjimon va kitobxonda yetarlicha tasavvur xosil bo‘lishi kerakki, bu borada badiiy tarjimon asar va kitobxon o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi.

LITERARY CRITICISM

Xulosa. Yuqorida berilgan parchalarda ingliz diniy tushunchalari va lavozim nomlaridan tashqari, xalqning muomala madaniyati, maktub yozish odobi va yuqori zodagon qatlamga murojaat qilishda ishlatiladigan iboralar va ularning tarjimada qanday ifodalanganligi bilan tanishishimiz mumkin. Misol uchun “rectory” (“*ruhoniyning daromadi*”, “*qavm ruhoniysining uyi, mansabi*”) romanning M.Ismoilova tomonidan qilingan o‘zbek tiliga tarjimasida “diniy nazorat ishlarini olib borish” sifatida talqin qilinganki, bu lavozimning bizning madaniyatimiz, turmush tarzimizga ham yot emasligi asardagi janob Kollinzing maktubidan keltirilgan parchaning tushunarligi uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, maktubda ingliz cherkovi tomonidan o‘tkaziladigan marosimlar, “*Honourable lady*”, “*his bounty and beneficence*” kabi xurmat bilan murojaat qilish iboralari ham tarjimada juda tabiiy va tushunarli ifoda etilgan. Bunday yutuqlarga erishishda tarjimonning shaxsiyati va dunyoqarashi katta rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Bhutto, S. (2024). *The importance of introducing Uzbek national culture to other nations in translation of literary works. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar*, 1(1), 189-191.
2. I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. *Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma*. – Toshkent: “Tafakkur Bo‘stoni”, 2012. 26-bet
3. Kaipbergenova, D.O. “*Tilshunoslikda olamning lisoniy va konseptual manzarasi tushunchalari*”. // *Proceedings of International Conference of Modern Science and Scientific Studies. November 2023*, 139-143 (p. 139)
4. Mahamataliyevna, N. O. (2023). *Translation of national words in artistic works translation*. // *Journal of language and linguistics*, 6(4), 209-214.
5. Muhammadaliyevna, N. U. (2022). *The Uniqueness of the Expression of National Peculiarities in the Novel “The Days Gone Bay”*. // *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 6, 82-84.
6. Ostin, Jeyn. *Andisha va g‘urur/ Rus tilidan Muhabbat Ismoilova tarjimasida*. –T: *Yoshlar matbuoti*, 2023. – 336 bet
7. Ковалева, Т.В. (2015) «Художественный перевод и личность переводчика». – *elib.bsu.by*
8. Маслова В.А. *Лингвокультурология*. М.: *Издательский центр «Академия»*, 2001. – 208 с.
9. Остен, Джейн. *Pride and Prejudice*. – Москва: *Эксмо*, 2020. – с 360.ил.
10. Остен, Джейн. *Гордость и предубеждение/ перевод Маршака И.С. Классическая зарубежная литература*. Изд. “*Neoclassic*” 2020. С 384
11. Чепель Н.П. *Приемы воссоздания национально-исторического колорита оригинала в переводе (на материале перевода романа А.Н.Толстого «Петр Первый» на английский язык)*// *Вестник ВолГУ. Серия 2: Языкознание*. 2010. №2-12.
12. <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Michaelmas>
13. https://www.litres.ru/book/dzheyn-ostin/gordost-i-predubezhdenie-11280949/?book_pair=11280949_67830513
14. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/bal>

THE INTERPRETATION OF THE FIGURE OF AMIR TIMUR IN UZBEK PROSE LITERATURE

Sayidova Shahrizoda Nasrulloevna,
Doctoral student of Bukhara State University
sh.n.sayidova@buxdu.uz

Abstract. This article deals with the works written in Uzbek prose literature dedicated to the image of Amir Temur, a great leader who held an important place in world history. Amir Temur, as a historical figure, is a hero who has a place not only in Uzbek literature, but also in the world's historical literary studies. His humanitarian qualities, political skills and victories in state management have attracted the attention of many writers. There are many novels, poems that illuminate his life and work. Temur is an important figure of Central Asian literature, and his contribution to culture, science and architecture, as well as to the civilization of several cities of Central Asia, was great. He is portrayed as a person who supported culture and art while also uniting the people under his righteous authority.

Keywords: historical figure, Uzbek prose, personality, patron of culture and art, spirituality, military leader, national hero, complex character, contribution.

O'ZBEK NASRIY ADABIYOTIDA AMIR TEMUR SIYMOSI TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tarixida muhim o'rin tutgan buyuk sarkarda Amir Temur siymosiga bag'ishlangan o'zbek nasriy adabiyotida yozilgan asarlar haqida so'z boradi. Amir Temur tarixiy shaxs sifatida nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon tarixiy adabiyotshunosligida ham o'z o'rniga ega bo'lgan qahramondir. Uning insonparvarlik fazilatlarini, siyosiy mahorati, davlat boshqaruvidagi g'alabalari ko'plab yozuvchilarning e'tiborini tortgan. Uning hayoti va ijodini yorituvchi romanlar, she'rlar juda ko'p. Temur O'rta Osiyo adabiyotining muhim namoyandasi bo'lib, uning madaniyat, fan va me'morchilik, shuningdek, O'rta Osiyoning bir qancha shaharlari sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi katta bo'lgan. U madaniyat va san'atni qo'llab-quvvatlagan, ayni paytda xalqni o'zining adolatli hokimiyati ostida birlashtirgan shaxs sifatida tasvirlangan.

Kalit so'zlar: tarixiy shaxs, o'zbek nasri, obraz, madaniyat va san'at homiysi, ma'naviyat, sarkarda, xalq qahramoni, murakkab xarakter, hissa.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХАРАКТЕРА АМИРА ТИМУРА В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗАИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются произведения, написанные в узбекской прозе, посвящённые образу Амира Тимура, великого лидера, занявшего важное место в мировой истории. Амир Тимур, как историческая личность, является героем, которому есть место не только в узбекской литературе, но и в мировом историческом литературоведении. Его гуманитарные качества, политические способности и победы в государственном управлении привлекли внимание многих писателей. Существует множество романов, стихов, освещающих его жизнь и творчество. Тимур – важная фигура среднеазиатской литературы, и его вклад в культуру, науку и архитектуру, а также в цивилизацию ряда городов Средней Азии был велик. Его изображают как человека, который поддерживал культуру и искусство, а также объединял людей под своей праведной властью.

Ключевые слова: историческая личность, узбекская проза, личность, меценат культуры и искусства, духовность, военачальник, национальный герой, сложный характер, вклад.

Introduction. One of the topical issues of literary science is the embodiment of the image of Amir Temur in Uzbek prose, which is covered in many works from different points of view. Amir Temur is often described as a great commander in the history of Central Asia. Amir Temur, also known as Sahibqiran, founded a mighty empire through extensive global military campaigns and activities throughout the centuries, capturing the attention of people worldwide. The Republic of Uzbekistan's Declaration of Independence shed light on the historical reality of Amir Temur's early years. Unjust condemnation of Amir

LITERARY CRITICISM

Temur's character during the Shura system was rectified. His military victories, state administration and contribution to culture are important in the works. He is shown as one of the most powerful statesmen of his time, which leads to his idealization. Some works highlight the human qualities of Amir Temur, such as justice, compassion and wise politics. This gives a deeper insight into his personality and management style. Amir Temur's attitude to culture, his role in the development of science and art are reflected in many works. He is shown as a person who turned Samarkand into a center of science and culture. The history of Amir Temur and the Timurid period in the East receives attention. While it weakens in one region, it grows stronger in Europe. Foreign scholars have produced numerous historical, scientific, and artistic works, as well as pamphlets and articles about Amir Temur and the Timurid dynasty, and this continues until today. When portraying historical figures, it is important to consider their interactions with others, as well as their actions, behavior, and emotional responses in various situations. Additionally, accurately capturing the historical context in which they lived is crucial for depicting their reactions to events.

Literature review. In world history the need to objectively study and research the life path and activities of our great ancestors, the rich spiritual heritage left by them is growing day by day. Studying the great activities of Amir Temur, the patron of science and art, the great general, his place in world history, and his characteristics as a person is one of the topics in the focus of attention of many artists, historians, writers and poets. The relative interest in the personality of Amir Temur in world literature has not faded over the centuries and still attracts the attention of many creators, playwrights and writers. In Uzbek literature, it is possible to give examples of works of various genres dedicated to the image of Sahibqiran. The portrayal of individuals in 20th century Uzbek novels in relation to historical principles is characterized by specificity in space and continuity in time, shaping the depiction of historical figures alongside events in a causal tradition. Muhammad Ali followed in the footsteps of many writers to enhance this tradition with his two novels, making a significant contribution. They are Muhammad Ali's "Sarbadorlar" diology, "Ulug' Saltanat" epic. In addition, several works dedicated to the image of Amir Temur by writers such as Tulqin Hayit, Nurali Qobil, Buriboy Akhmedov were able to reveal his personality and activities more deeply.

Methods and materials. The paper utilizes qualitative data collection for its content. It involves the analysis, comparison, and summarization of the scientific works of various Uzbek writers and scholars by examining excerpts from their works.

Discussion. Amir Temur, also known as Tamerlane, is a pivotal figure in Uzbek history and literature. Born in 1336 in what is now Uzbekistan, he rose to prominence as a conqueror and statesman, establishing a vast empire that stretched across Central Asia, the Middle East, and parts of South Asia. His legacy, however, extends beyond military conquests; he has become an enduring symbol of national pride and cultural identity in Uzbekistan. Amir Temur's reign marked a period of significant cultural and economic development in Central Asia. His establishment of the Timurid Empire fostered an environment where arts and sciences flourished. The capital, Samarkand, became a hub of intellectual and artistic activity, attracting scholars, poets, and artisans from across the region. This vibrant cultural landscape laid the groundwork for the portrayal of Temur in literature. Among the historical figures, such a prominent and honorable person as Amir Temur could attract the attention of fiction writers, writers, poets, dramatists, painters, sculptors, musicians, etc. In the history of the world, the need to deeply and objectively study the life and work of our great ancestors, their creative activities, and the rich spiritual heritage they left to the generations is growing stronger. The figure of Amir Temur, the great commander, patron of science and art, has not been ignored for such centuries, and has been the focus of attention of many writers, playwrights, composers and other representatives of the arts, and there are many works dedicated to him. Amir Temur is an important figure in Uzbek literature. Amir Temur's reign marked a period of significant cultural and economic development in Central Asia. His establishment of the Timurid Empire fostered an environment where arts and sciences flourished. The capital, Samarkand, became a hub of intellectual and artistic activity, attracting scholars, poets, and artisans from across the region. This vibrant cultural landscape laid the groundwork for the portrayal of Temur in literature. Writing biographical works about Amir Temur started from the time when he lived, Sharafiddin Ali Yazdi, Nizamiddin Shami, Ibn Arabshah and others wrote historical works about the life and work of Amir Temur. In Western literature, the works dedicated to Amir Temur began in the 15th century, and he was portrayed as the hero of Europe and embodied as the main character in several English, German, and French works.

In Uzbek literature, there are many poems, epics and novels that express the image of Sahibqiran. He is shown as a person who united the people with his just rule and developed culture and art. He lived in the 14th century and built a powerful state in Central Asia. The image of Amir Temur is depicted in many works of Uzbek literature, and he is usually seen as a symbol of strength, courage, strategic thinking and justice.

LITERARY CRITICISM

There are different stories about Amir Temur among the people. He is often portrayed as a hero, whose courage and wisdom are highly praised. He is shown as a person who fights for justice and cares about the well-being of his people. The personality of Amir Temur is known not only as a military leader, but also as a patron of culture and art. In addition to formal literary works, Amir Temur has become a central figure in Uzbek folklore. Tales and legends surrounding his life often highlight his cunning strategies in battle and his commitment to justice. These stories serve to inspire pride in Uzbek heritage and reinforce the notion of resilience against adversity. The oral tradition has played a significant role in keeping these narratives alive, ensuring that new generations continue to learn about their historical roots. In contemporary Uzbek literature, Amir Temur's legacy is revisited and reinterpreted. Authors explore themes of nationalism, identity, and historical memory through the lens of his life. Novels, plays, and poetry often grapple with the complexities of his character—viewing him not just as a conqueror but as a visionary leader who sought to create a prosperous society.

The application of Amir Temur's life and work in Uzbek literature began from the time of the Soviets, and in the artistic works created during this period, the figure of Sahibqiran was embodied as a "bloodthirsty, oppressive invader" and it was observed that he was described only by relying on primary sources. An objective assessment of the image of Amir Temur corresponds to the literature of the period after the independence of our country. After independence, many types of works, pamphlets, articles, scientific researches were written on the figure of Sahibqiran and many aspects of his activity. Despite the fact that Amir Temur began to be covered as a character in Western literature from the 16th century, he began to be embodied in the fiction literature of his country from the end of the 20th century as the main character of works of many different genres. After the independence, the personality of Amir Temur, who has a complex character, and his activities were studied through deep research and studies, and an objective assessment was made about him. For example, Buriboy Akhmedov's work "Amir Temur" can be said to be a work that illuminates the character of Sahibqiran quite objectively. Historical chronicles also play a crucial role in shaping the image of Amir Temur. Works such as "Amir Temur" by Buriboy Akhmedov, provide detailed accounts of his life and conquests. These texts not only document historical events but also reflect the values and aspirations of the time. They emphasize Temur's role as a unifier of the Turkic peoples and a patron of the arts, thus intertwining his legacy with the cultural identity of Uzbekistan.

He supported many cultural projects, which greatly influenced the cultural heritage of Uzbekistan. Amir Temur's contributions to cultural development were instrumental in shaping the identity of Central Asia. His patronage of the arts, promotion of education, and encouragement of cultural synthesis created a legacy that continues to influence the region today. By fostering a rich cultural environment, Temur not only solidified his rule but also laid the groundwork for a vibrant heritage that remains an integral part of Uzbek identity. The relationship of the owner's image to culture is also reflected in Uzbek literature, he is shown as a person who contributed to the cultural development of his time. Amir Temur placed great emphasis on education, understanding its role in fostering a knowledgeable and skilled populace. He established schools and madrasas (Islamic educational institutions) that provided education in various fields, including mathematics, astronomy, medicine, and philosophy. Temur encouraged the establishment of libraries and invited scholars to share their knowledge. This not only enhanced the intellectual environment of his empire but also facilitated the exchange of ideas across cultures. However, during the time of the Soviets, negative views of Amir Temur prevailed, and his services in the development of Uzbek statehood, spirituality and culture were denied. During the Soviets, Sahibqiran was depicted as a bloodthirsty and cruel king, and people had negative ideas about him. After gaining independence, the correct understanding of our national history, which is being restored, and re-incarnation of national heroes who made a great contribution to the development of the country, people's well-being, and science became one of the important topics in prose literature. The image of Amir Temur remains one of the most relevant topics in Uzbek literature today, as it represents national pride and historical heritage.

Some authors describe the image of Amir Temur from a critical point of view. They believe that their military victories and political ambitions are sometimes interpreted as harming humanity. Amir Temur is the source of inspiration for many works in Uzbek literature. He is known not only for his military strategy, but also as a patron of culture and art. In modern Uzbek literature, even more attention is paid to the image of Amir Temur. Writers and poets are trying to explore his personality in a new context. This allows to connect the image of Sahibqiran with modern values. Even today, it does not lose its importance as a symbol of national pride and historical heritage.

The role of the writer Muhammad Ali is very great in introducing the historical figure of Amir Temur as an image into the genre of the novel and expressing his life and the historical processes of his time, his

LITERARY CRITICISM

actions in a wonderful way. In his "Sarbadorlar" diology, Amir Temur's youth and the main aspects of his complex character are very well covered. This diology is written about the historical event of the "Sarbadorlar" movement during the time of Amir Temur, and along with the skillful description of the historical processes, the author has well revealed the characteristics of courage, humanity, valor, justice in the management of the country in the character of Amir Temur. The image of contradictions and conflicts between Amir Temur and Amir Husain is expressed in the work, and the historical characteristics of the image of these two historical heroes are revealed. The writer Muhammad Ali reflected the youth of Sahibqiran in the novel "Sarbadorlar", and wrote the epic "Ulug' Salatanat" as a continuation of it. This novel consists of 4 parts, and further activities and political actions of Amir Temur are widely covered. Each part of the novel is named after the 4 sons of Amir Temur.

Our historians have created a number of historical works dedicated to Sahibqiran, which will help us to study the great Temur more closely. One of such historical scientists, Buriboy Akhmedov, reflected the life and activities of Amir Temur in chronological order and described the personality of Sahibqiran more deeply. The narrative style of Buriboy Akhmedov's works dedicated to the great Temur is enriched with more facts and historical chronicles than other historical novels. Amir Temur, as the main character, was embodied in the way he participated in the historical process of that time, and an attempt was made to preserve historical authenticity. As the main character, the qualities of Amir Temur, such as a just ruler, a skilled general, an enlightened politician, an entrepreneurial leader and a pious Muslim, are skillfully reflected. Some modern interpretations delve into the moral ambiguities of Amir Temur's character. While he is celebrated for his achievements, certain narratives question the cost of his conquests, reflecting on the suffering inflicted upon conquered peoples. This nuanced portrayal invites readers to grapple with the complexities of historical figures.

In addition, it can be observed that Amir Temur's relations with the historical figures of his time as a historical figure, and his participation as a statesman in the events of that time are historically truthfully described. The description of his relations with historical figures of that time, such as Amir Husayn, Yildirim Bayazid, and Tukhtamishkhan, is particularly noteworthy. The writer Buriboy Akhmedov was able to skillfully reveal new facets of Amir Temur's character in historical processes and diplomatic relations as a historical figure. Amir Temur's personality is revealed not only as a statesman, but also through his relationships with children, family members, courtiers, and his qualities as a mature person.

Amir Temur plays a significant role in Uzbek literature and culture, symbolizing strength, leadership, and national pride. His legacy has inspired various literary forms, including poetry, prose, and historical narratives. Here are some key aspects of his influence on Uzbek literature:

- National Hero: Amir Temur is often depicted as a national hero in Uzbek literature, embodying the ideals of bravery and leadership.
- Symbol of Unity: Amir Temur represents a unifying figure for the Uzbek people, embodying their historical struggles and achievements. His portrayal fosters a sense of national pride and identity.
- Exploration of Leadership: Literature about Amir Temur often delves into themes of justice, governance, and the moral responsibilities of leadership, offering lessons that resonate with readers.
- Cultural Heritage: By incorporating his legacy into literature, Uzbeks can connect with their cultural roots and historical narratives, reinforcing their unique identity.
- Poetic Celebrations: Poets have written extensively about him, celebrating his conquests and contributions to the arts and culture.

Diverse Literary Forms: Temur's character has inspired various genres, including poetry, prose, and historical chronicles, enriching Uzbek literature and providing a canvas for creative expression.

- Legends and Myths: Amir Temur has become a central figure in Uzbek folklore, with numerous legends and stories passed down through generations that highlight his virtues and exploits.
- Cultural Identity: These tales contribute to a sense of national identity and pride among Uzbeks, reinforcing his status as a cultural icon.
- Themes of Justice and Leadership: Literature often explores themes of justice, governance, and the moral responsibilities of leadership through the lens of Temur's rule.
- Cultural Patronage: His support for the arts and architecture is frequently celebrated, showcasing his role in fostering a rich cultural environment.
- Support for Arts and Sciences: Temur is often depicted as a patron of the arts and sciences, contributing to the cultural renaissance of the Timurid period. This aspect highlights the importance of cultural development in literature.

LITERARY CRITICISM

- Legacy of Innovation: His influence on architecture and scholarship is celebrated in literature, emphasizing the role of cultural patronage in fostering innovation.
- Contemporary Works: Modern Uzbek writers continue to draw inspiration from Amir Temur, reflecting on his legacy in new narratives that address contemporary issues while honoring historical roots.
- Symbol of Unity: In modern literature, he is often portrayed as a unifying figure for the diverse peoples of Central Asia.

In **conclusion**, Amir Temur's presence in Uzbek literature is a testament to his enduring influence on the cultural landscape of Uzbekistan. From epic poetry to historical chronicles and modern interpretations, his legacy continues to inspire writers and resonate with readers. As Uzbekistan navigates its path in the 21st century, Amir Temur remains a symbol of resilience, unity, and cultural identity—an embodiment of the rich tapestry of Uzbek history that continues to shape its literature today. The image of Amir Temur in Uzbek prose is a powerful reflection of the nation's historical consciousness. Through various literary lenses, he emerges as a multifaceted character—heroic yet complex, a unifier yet a conqueror. In post-Soviet Uzbekistan, Amir Temur has become a symbol of national pride and resilience. Contemporary authors often invoke his image to inspire a sense of unity and cultural revival among Uzbeks. His story serves as a reminder of the nation's rich history and the importance of cultural heritage. Today, Amir Temur is more than just a historical figure; he represents the spirit of the Uzbek people. His image is frequently invoked in discussions about national pride and cultural revival. Writers use his story to explore contemporary issues facing Uzbekistan while drawing parallels between past struggles for sovereignty and present-day aspirations.

REFERENCES:

1. *Amir Temur in World History*. Publishing poligraphic share company "Sharq", 2001.p.145
2. *Tamburlaine the Great. The New Human*. <http://www.novelguide.com>
3. Nasrulloeva S. S. *The development of cultural ties through the great silk road //Archive of Conferences*. – 2021. – C. 45-47.
4. Khajieva, F. M. (2021). *The rise and development of the american biographical novel*. // *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 7(06), 262-267.
5. Khajieva, F. (2020). *Genesis and development of stylistic devices classifications*. // *Philology Matters*, 2020(3), 30-38.
6. Melsova, K. F. (2013). *Narrator in the Biographical Novels: A Typological Comparison*. // *Academic Journal of Interdisciplinary Studies*, 2(9), 357.
7. Yunusova Ganjina Rustamovna. (2023). *The role of the road chronotope on the plot and composition of the literary work*. // *International Journal Of Literature And Languages*, 3(04), 57–62. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue04-11>
8. Sayidova Shahrizoda Nasrulloeva. (2024). *Description of Tamerlane in "Tamburlaine the Conqueror" by Hilda Hookham*. // *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 31, 54–56. Retrieved from <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/820>.
9. *Амир Темур жаҳон тарихида*. — Тошкент: Шарқ, 1996. — 293 бет.
10. *Амир Темур ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни*. //Халқаро конференция тезислари. — Тошкент: Ўзбекистон, 1996. — 123 бет.
11. Узоков А.Х. *Мухаммад Али ижодида тарихий шахс камолоти. Замонавий ўзбек адабиётишунослигининг долзарб масалалар*. Республика илмий-амалий анжумани. - Гулистон, 2022. - Б. 121
12. Узоков. А.Х. *Мухаммад Алининг "Улуғ асарида Амир Темур образининг гавдаланиши тамойиллари // Маъмур Академияси ахборотномаси*. - Хива, 2022. № 9/4. - Б. 134-137. № 21.
13. <http://www.wikipedia.com>
14. <https://arboblar.uz>
15. <http://readbookonline.net>. Charles Lamb. *Queen Oriana's Dream*.Text of 1818.

MUHAMMAD SHARIF GULXANIY “ZARBULMASAL” ASARINING TOSHBOSMA NUSXALARI XUSUSIDA

*Safarova Hilola Oxunjonovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.n.
Muzaffarova Surayyo Furqat qizi,
Buxoro davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
2-bosqich magistranti, Qorako‘l tumani 53-sonli maktabning o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada “Zarbulmasal” asarining Buxoro san‘at muzey-qo‘riqxonasida saqlanayotgan ikkita toshbosma nusxasi haqida ma‘lumot beriladi. Bu nusxalarning biri to‘liq variantda bo‘lib, 12443/11(14) inventar raqami ostida, ikkinchisi esa to‘liq bo‘lmagan nusxa bo‘lib, 10522/11 inventar raqami ostida Buxoro san‘at muzey-qo‘riqxonasida saqlanadi. Biz o‘zimizning ilmiy ishimizda ayni ushbu nusxalarni o‘rganib, ularni qiyoslab, farqli va tafovutli o‘rinlarini aniqlashga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: Muhammad Sharif Gulxaniy, basmala, salovot, hamd, ramka, nasx, nusxa Buxoro san‘at muzey-qo‘riqxonasi.

О КАМЕННЫХ КОПИЯХ ПРОИЗВЕДЕНИЯ МУХАММАДА ШАРИФА ГУЛЬХАНИ «ЗАРБУЛМАСАЛ»

Аннотация. В статье представлена информация о двух сохранившихся в Бухарском художественном музее-заповеднике каменных копиях произведения “Зарбулмасал”. Одна из этих копий находится в полном варианте под инвентарным номером 12443/11(14), а другая-в неполном варианте под инвентарным номером 10522/11 в Бухарском художественном музее-заповеднике. В своей научной работе мы изучали эти же экземпляры, сравнивали их и пытались определить их различное и несопоставимое место.

Ключевые слова: Мухаммад Шариф Гульхани, басмала, Салават, хамд, рамка, насх, копия, Бухарский художественный музей-заповедник.

MUHAMMAD SHARIF GULKHANI'S “ZARBULMASAL” IS ON THE STONE COPIES

Abstract. The article provides information about two copies of the work “Zarbulmasal”, which are kept in the Bukhara Art Museum-Reserve. One of these copies is in full variant, under inventory number 12443/11(14), and the other is an incomplete copy, stored in the Bukhara Art Museum-Reserve under inventory number 10522/11. We studied these same copies in our scientific work, comparing them and trying to determine their different and disparate place.

Keywords: Muhammad Sharif Gulkhani, basmala, salovot, praise, frame, Naskh, copy, Bukhara Art Museum-Reserve.

Kirish. Muhammad Sharif Gulxaniy XIII asrning so‘nggi choragi va XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon adabiy muhitiga o‘zining munosib o‘rniga ega ijodkor. Amir Umarxon hukmronligi vaqtida Gulxaniy saroyda ijod qilgan. Gulxaniy haqidagi ayrim ma‘lumotlar Fazliy Namangoniyning “Majmuat ushshuaro” tazkirasida uchraydi.[6.38] U ham nasr, ham nazmda qalam tebratib, o‘z ijodi bilan xalq qalbidan o‘rin olgan.

Adabiyotshunos Buyuk Karimiy “Zarbulmasal” asarini o‘rganish jarayonida asarning qo‘lyozmalari Gulxaniy yashab turgan vaqtda ko‘chirilgan nusxasi uchramaydi, deb aytib o‘tadi. “Zarbulmasal” nusxalarining hammasi shoir vafotidan kamida 30-40 yil o‘tib ko‘chirilgan bo‘lib, til xususiyatlari bo‘yicha nusxalar bir-biridan farq qiladi [6.39] “Zarbulmasal”ning hozirga qadar 8 ta qo‘lyozma nusxasi va o‘ndan ortiq bosma nusxalari borligi aniqlangan. Bu borada, ayniqsa, N.P.Ostroumov asar qo‘lyozmalarini izlab topib, 1890-yilda birinchi marotaba uning litografik nashrini amalga oshirgan. Keyingi nashr etilgan barcha ishlar mana shu nashrga tayanilganligi adabiyotshunoslarimiz tomonidan ta‘kidlab o‘tilgan. Toshkentda asar litografik usulda bir necha marta chop etilgan. 1926-yilda Sadridin Ayniyning “Namunayi adabiyoti tojik” asarida Gulxaniy ijodidan namunalar berib o‘tadi. Abdurauf Fitratning adabiyotimiz tarixiga oid 1929- yilda yozilgan “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash” deb nomlangan maqolasida “Gulxaniy

davriga kelib Farg'ona saroy adabiyotining xalq adabiyotiga ayricha diqqat qilganligi ham ko'rinadur" [8.121] degan fikrni bildirib, buning natijasida "Zarbulmasal yuzaga kelganligini qayd etib o'tadi.

Asosiy qism. Sho'rolar davrida Gulxaniy ijodini o'rganishga yanada qiziqish oshdi, maqolalar yaratildi, ilmiy izlanishlar olib borildi. "Zarbulmasal" turli qo'lyozmalari asosida nashr qilindi. 1945-yilda Olim Sharafuddinov tuzgan "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi"da "Zarbulmasal"dan parchalar e'lon qilindi. 1951-yilda esa H.Yoqubov tomonidan asar nashrga tayyorlanib, "Zarbulmasal (Yapaloqqush hikoyasi)" nomi bilan "O'zbek adabiyotii klassiklari" seriyasida kitobcha holida nashr etildi. Gulxaniydan qolgan adabiy meros "Zarbulmasal va g'azallar" nomi bilan 1958- va 1960-yillarda chop etilib, asarning matni shu nashrlar asosida darslik va qo'llanmalarga kiritildi. Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi dastlabki yillarda "Zarbulmasal"ning ikki qo'lyozma va to'rt litografik nusxalari asosida asarning tanqidiy matni tuzilgan. Ammo bu tanqidiy matn, ma'lum sabablar asosida qo'lyozma holida qolib ketgan. 1970-yillarda Andijondan asarning eskiroq, butunroq va ishonchliroq qo'lyozma nusxasi topilgan. O.Sharafiddinov Gulxaniy "Zarbulmasal"ning Andijon nusxasi (A), Buyuk Karimiy qo'lida bo'lgan ikki qo'lyozma (BK1, BK2), Qo'qon adabiyot muzeda saqlanuvchi uch manba (Q1, Q2, Q3) va o'ndan ortiq litografik nusxalarni jamlab ularni qiyosiy o'rganish natijasida asarning ilmiy – tanqidiy matnini yaratdi. Asarning iliy-tanqidiy matnini yaratishga birinchi bo'lib qo'l urgan Buyuk Karimiy edi va u "Zarbulmasal" haqida shunday fikrlarni bildirib o'tgan: "Bu asar yuzasidan so'z yuritgan bir qator olimlar "Zarbulmasal"ni, ko'pincha, masallar to'plami sifatida izohlab kelishmoqda. Ammo shunisi hammaga aniq va ravshanki, o'zbek klassik adabiyotida "masal" va "Zarbulmasal" terminlari hozir biz tushunadigan ma'noda ya'ni "basnya" ma'nosida emas, balki boshqacharoq ma'noda qo'llaniladi" [5. 24].

Asarning 6ta qo'lyozma va 10dan ortiq toshbosma nusxalari mavjud. "Zarbulmasal" asari sho'rolar davrida ikki marotaba, ya'ni 1972-yil va 1974-yillarda F.Is'hoqov hamda S.Dolimovlar tomonidan o'qib tabdil qilinib nashrga tayyorlangan. Albatta ushbu yillardagi kitoblar krill alifbosida shakllangan. Keyinchalik mustaqillik yillarida ham ya'ni 2016-yil va 2019-yillarda S.Dolimov va H.Yoqubovlar tomonidan qayta nashrga tayyorlangan.

Gulxaniy ijodini o'rganish borasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilgan. Dastlabki ish Fitratning "Zarbulmasal" nomli maqolasidir. 1948-yilda R. Muqimov yirik tadqiqot, ya'ni maxsus dissertatsiya yozdi. Taniqli adabiyotshunos olimlarimizdan H. Yoqubov, V. Zohidov, V. Abdullayev, M.Qo'shjonovlarning bu boradagi xizmatlari ham e'tiborga molik. A. Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti" (1961y.) nomli kitobidan ham Gulxaniy hayoti, ijodi, o'zbek mumtoz adabiyotidagi mavqei bobida muhim ma'lumotlar olish mumkin [6].

"Zarbulmasal" asarining Buxoro san'at muzey-qo'riqxonasida 2 ta toshbosma nusxasi mavjud. Bu nusxalarning biri to'liq variantda bo'lib, 12443/11(14) inventar raqami ostida, ikkinchisi esa to'liq bo'lmagan nusxa bo'lib, 10522/11 inventar raqami ostida Buxoro san'at muzey-qo'riqxonasida saqlanadi. Biz o'zimizning ilmiy ishimizda ayni ushbu nusxalarni o'rganib, ularni qiyoslab, farqli va tafovutli o'rinlarini aniqlashga harakat qildik.

Buxoro San'at muzeyi xazinasidagi 10522/11 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxa to'liq shaklda emas, ya'ni chala nusxa ekanligi a'yon bo'ldi. Ushbu nusxa ustidagi izlanishlardan quyidagi xulosalarni keltiramiz:

1. Toshbosma nusxa 46sahifadan iborat. 10522/11 inventar raqamli nusxani o'rganish natijasida, asarning kirish qismida basmala, Olloh taologa hamd, payg'ambarimizga salovotlar mavjud emasligini kuzatdik. Ya'ni asar boshidagi ikki sahifa yo'qolgan va asar uchinchi sahifadan "...zulfidek oshufta qolsun..." jumlasini bilan boshlangan.

2. Toshbosma nasx xatida yozilgan. Matnlar bir ustun tarzda bitilgan. Har bir betda matnning atrofi bitta kichik ramka va bitta katta ramkaga olingan.

3. Asar tarkibidagi qushlar obrazi va qushlar tilidan aytilgan hikoyatlardagi obrazlarning ayrimlari qora rang bilan rasmlarda aks etgan va matn tarkibida ramkaning ichida chiroyli qilib chizilgan.

4. Toshbosma o'zbek tili bo'lib, uning tarkibida fors-tojikcha baytlar, iboralar ham mavjuddir.


5. Sahifalar alohida betlangan. Bundan tashqari har bir sahifa ostida keyingi sahifaning birinchi so'zi berilgan.

6. Toshbosmaning varag'i to'q sariq rangda bo'lib, uning muqova qismi saqlanmagan. Hamda muqovasining o'rniga qattiq kartondan muqova qilib uning ustiga sharikli ruchka bilan krill yozuvida "Gulzaniy „Zarbulmasal“ deb yozilgan so'zlar mavjud. Shu bilan birga necha sahifadan iborat ekanligi va o'lchami ham yozilgan. Uning ustidan yana bir moviy rangli yupqa muqova qilingan bo'lib, uning yuziga ham eski o'zbek yozuvida ham krill yozuvida asar va muallif nomi yozilgan. Bu yozuvlar Buxoro San'at muzeyi xodimlari tomonidan toshbosma asarlarni o'rganish jarayonida yozilgan.

7. Bu nusxaning kalafon qismi va qaysi xattot tomonidan ko'chirilgani noma'lumdur.

8. Toshbosma varag'ining hajmi 13x20smni tashkil etadi.

Ilmiy ishimiz uchun asosiy manba bo'lgan, hamda to'liq saqlangan 12443/11(14) inventor raqami ostidagi nusxani ham o'rganib chiqishga harakat qildik.



Shuni ta'kidlash o'rinliki, bu nusxa to'laligi bilan birga sifatli tarzda saqlangan va bizga yetib kelgan. O'rganishlar natijasida shunday xulosalarga keldik va ular quyidagilar:

1. Ushbu nusxa 49 sahifadan tashkil topgan. Uning muqova qismi yupqa kartondan ishlangan bo'lib, muqovaning chet qismiga aylana va rombsimon shaklda gulli naqshlar tushirilgan. Muqova va sahifalarning rangi bir xil rangdadir.

2. Toshbosma basmala bilan boshlangan bo'lib, basmala qismi sahifaning uchdan bir qismida alohida katta jadvalda berilgan. Undan so'ng Alloh taologa hamd, payg'ambarimizga salavotlar keltirilgan. Hamd va salavotlardan so'ng Umarxon nomi ham tilga olib o'tilgan.

3. Toshbosma nasx yozuvida bir qator qilib bitilgan. Hamda uning atrofi ramkaga olingan. Ramkalar ikkita bo'lib. Birinchisi katta ikki chiziqli, ikkinchisi esa kichik bir chiziqli ramkadir.


4. Asarning bu nusxasi hijriy 1332(milodiy 1914)-yili Xo'qandlik shoir Munir Umarxon xattot tomonidan tayyorlangan. Ushbu ma'lumot muqovaning ustki qismiga "Zarbulmasal" so'zidagi "lom" harfining ichiga pastdan tepaga holda yozib qo'yilgan.

5. Bu nusxada ham jumlarlar asosan o'zbek tilida va ayrim so'z, ibora va jumlarlar fors-tojik tillarida berilgan.

6. Bunda ham yuqoridagi nusxa kabi har sahifaning pastiga yangi sahifadagi birinchi so'z yozib qo'yilgan. Bu esa sahifalarda adashmaslikni ta'minlaydi.

7. Toshbosma sahifalari alohida betlangan.

8. Toshbosmada 14 o'rinda matnlar orasida asardagi obrazlarning suratlari keltirilgan. Ushbu suratlar matn tarkibiga alohida ramkaga olib berilgan. Rasmlarga qahramonlarning ismlari ham yozib qo'yilgan.



Gulxaniy ushbu asarini yozar ekan, asarni xalq og'zaki ijodi na'munalari bilan boyitib yozadi. Bu esa uning ayni vaqtda o'sha davr folkloristi deyishga sabab bo'ladi. Asarni tarbiyaviy ruhda yozilgan asar desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, "Zarbulmasal" asarining Buxoroda saqlanayotgan toshbosma nusxalarining biri chala holda yetib kelgan. Ushbu chala nusxada aynan basmala va hamd qismlari yo'qolgan. Oxiridan ham 3ta sahifasi yo'qolgan.

To'liq holdagi nusxada mumtoz adabiyotning o'ziga xos an'anasi bo'lmish, basmala, hamd, nat va salovotlar bilan boshlangan.sifatli va yaroqli holatda yetib kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari. – Toshkent: 2010. 39-bet.*
2. *Gulxaniy. Zarbulmasal. 12443/11(14) raqamli toshbosma nusxasi.*
3. *Gulxaniy. Zarbulmasal. 10522/11 raqamli toshbosma nusxasi.*
4. *Долимов С. Сўзбоши // Гулханий. Зарбулмасал. Ўқитувчи. – Тошкент, 1972. – 6 б.*
5. *Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий "Зарбулмасал"нинг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1997. – 43 б.*
6. *Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi. (XV-XIX asr I yarmi). Toshkent. "Innovatsiya - Ziyo". 2020.*
7. *Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi qirralari – Toshkent: "Akadem nashr". 2015.*
8. *Qodirova Saodat. "Zarbulmasal" asaridagi maqollar tizimi. "O'zbek bolalar folklorini to'plash va o'rganish va nashr qilish muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 8-9-noyabr. Buxoro. 120-124-betlar.*



Navoiy gulshani

“SHAHR BIR OY FURQATIDIN BAYTUL-AHZANDUR MANGA”...

To‘rayeva Maftuna Tolibjon qizi,

Buxoro davlat universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Alisher Navoiy turkiy she‘riyatda o‘z ijodi bilan ulkan mahorat maktabini yaratdi. Shoirning ilmiy, falsafiy, axloqiy-tarbiyaviy, tasavvufiy, ijtimoiy – ma‘rifiy, diniy - ilohiy mavzularda o‘ziga xos ifoda uslubida yaratgan nazm gavharlari kitobxonni o‘ziga maftun etadi. Shoir asarlarini mutolaa qilishga azm etgan har bir o‘quvchi bu asarlarini o‘rganish orqali chuqur bilim va teran ko‘nikmalarga ega bo‘lish - ayni haqiqatdir. Ijodkor qalamiga mansub g‘azallar mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, ifoda uslubi va poetik tasvirda ham biri ikkinchisini takrorlamaydi. Jumladan, Alisher Navoiyning majoziy ishq ta‘riflangan g‘azallarida ma‘shuqaning go‘zal portrefi yaratiladi. Bunda shoir majoziy tasvir usuli orqali haqiqatni chuqurroq anglash va bashariyatga yetkazmoqdir. Zero, Hazrat Navoiy ta‘biri bilan aytganda, “ ayni haqiqatdur majoz ” – tushunchasini ifoda etishdir. Bunday qarash “vahdat ul – vujud” ta‘limotidan kelib chiqqan. Bu ta‘limotga ko‘ra, Alloh hamma yerda mavjud, bu dunyo go‘zalligi, jumladan, insonning husnu tarovati ham Mutlaq ruhning hikmati natijasidir.

“ Shahr bir oy furqatidin baytul - ahzandur manga” g‘azalida ham xuddi mana shunday tasvir uslubi qo‘llanilgan. Ya‘ni Yor jamoli va unga oshufta oshiqning qalb to‘lg‘onishlari ohorli vazn, mayin tashbehlarda ifodalanadi.

Biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan g‘azal “Badoye’ ul – bidoya” devoni tarkibiga kiritilgan bo‘lib, g‘azalning to‘liq matni quyidagicha:

Shahr bir oy furqatidin baytul-ahzandur manga,

Bir guli ra‘no g‘amidin bog‘ zindondur manga.

Bazmi ishrat ichra siz may no‘sh eting, ey do‘stlar,

Kim nasib ul la‘li lab hijronidin qondur manga.

Chiqti aqlu fahm ila sabru ko‘ngul tan mulkidin,

Chiqmayin har lahza zahmat berguchi jondur manga.

O‘qi baskim tandadur, tegmas tanimg‘a o‘zga o‘q,

Ulki o‘q deb nola qildim, emdi qalqondur manga.

Uyla rasvomenki, ko‘yu ko‘chada holim ko‘rub

Ba‘zi el giryonu ba‘zi xalq xandondur manga.

Hajridin bag‘rim suvdur, ul suv aro bolig‘ kibi

Dardu mehnat o‘qidin bir necha paykondur manga.

Hur mujgonin agar surtay desa qilmon qabul,

Kim ayoqda orzu xori mug'ilon dur manga.

May ichib toatni favt etmangki, ul o't tobidin

Necha boqsam bahra holo dog'i hirmondur manga.

Ey Navoiy, xalq der: jon ber, vayo kech ishqidin,

Garchi bu dushvor erur, lekin ul osondur manga.

G'azalning g'oyaviy-badiiy tahlilini keltirishdan avval, undagi har bir baytning **nasriy bayonini** keltirish maqsadga muvofiqdir.

1- baytning nasriy bayoni:

Yorimdan ayriliqda yashaganimda maskanim men uchun g'amxonaga aylandi,

Bir guli ra'noning g'amidan bog' ham menga zindon bo'lib qoldi.

2- bayt. Ishrat bazmida siz menga may ichiring, ey do'stlar,

Uning qip-qizil lablarining hijroni qondir menga.

3-bayt. Jismimdan aql- zakovatim bilan sabru qalbim chiqdi,

Biroq har lahza chiqmay zahmat yetkazuvchi faqatgina jonimdir.

4- bayt. Baski, uning kamon o'qlari tanimdadir, bundan o'zga tanimga hech zahmat tegmas,

Uniki o'q deb nola-afg'on chektim, u o'q endi qalqondir menga.

5-bayt. Sen o'ylab ko'r men shunday rasvomanki, ko'chayu ko'yda holimni ko'rib,

Ba'zi el ahvolimga yig'laydi, ba'zi xalq esa xandon kuladi.

6-bayt. Yorimning hajridan bag'rim suvdir, u suvda xuddi baliq misolman,

Dardu mehnat alamlaridan bir necha tig'lar sanchiladi.

7-bayt. Agar ul hur kipriklarini menga sanchmoqchi bo'lsa ham qabul qilaman,

Kim ham qadahda menga tikanli mug'ilon (cho'lda o'sadigan tikanli o'simlik) ni tilardi?

8-bayt. May ichib zinhor toatni tark etmang, boisi, may (ilohiy ishq)ning o'ti taftiga necha marta nazar solsam hamki, hamon noumidlik dog'i meni o'rtaydi.

9-bayt. Ey Navoiy, xalq der: jon ber yoki uning ishqidan butunlay voz kech,

Garchi bu juda qiyindir, lekin u osondir.

G'azal baytlaridagi ma'no qatamlari va badiiy san'atlar.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning "Mukammal asarlar to'plami" mundarijasidagi birinchi devon – "Badoye' ul – bidoya" tarkibiga lirik janrdagi turli she'rlar kiritilgan, biroq asosiy o'rinni g'azal janri egallaydi. Alisher Navoiy "Badoye' ul – bidoya" va "Navodir un – nihoya"dagi she'rlarini "Xazoyin ul – maoniy" to'plamiga ham kiritdi. Shuning uchun "Shahr bir oy furqatidin baytul - ahzandur manga" misrasi bilan boshlanuvchi g'azal ham "Badoye' ul – bidoya"da, ham "G'aroyib us – sig'ar" da keltirilgan keltirilgan. Mazkur devonlardagi ushbu g'azallarni o'zaro qiyoslasak, ayrim kichik o'zgarishlar uchraydi. Masalan: (baytul – ahzan / baytul ahzon, qilmon/qilman, mug'ilon /mug'iyon, su / suv, kibi / kebi, dog'i /dag'i), ayrim so'zlar o'rnida shunga yaqin boshqa so'z qo'llangan (o'zga o'q / o'zga zahm, jon ber, vayo kech / jon beru yo kech). Ushbu o'zgarishlar ma'noga ta'sir etmaydi, devonni joriy yozuvda nashrga tayyorlaganda noshirlar tomonidan o'zgartirilgan gam bo'lishi mumkin. Ta'kidlash lozimki, g'azalning hajmi har ikkala devonda ham bir xil, ya'ni 9 baytdan iborat.

Hazrat Navoiyning ushbu g'azali ham Yor vasfiga bag'ishlangan oshiqona mavzuda yaratilgan g'azallaridan hisoblanadi. Zohiran olib qaralganda, g'azalda husnu malohatda bekamu ko'st bo'lgan ma'shuqa va unga erisha olmagan oshiqning fig'onlari tasvirlanadi. U shunday go'zalki, yorsiz yam-yashil bog' ham zindondek bo'lib qoladi, ma'shuqasiz har bir maskan oshiq uchun g'amxonaga aylanadi. Shoir birinchi baytdayoq istiora san'atidan o'rinli foydalanib, yorni "guli ra'no" ifodasi orqali ataydi. Navoiy fikr ta'sirchanligiga erishish uchun bir – biriga yaqin so'zlardan – tanosub guruhlaridan ham ustalik bilan foydalangan. Ushbu san'atning birinchi guruhini furqat, bayt ul- ahzan, g'am, zindon; ikkinchi guruhini gul, ra'no, bog' so'zlari yuzaga keltirgan.

Oshiq yoridan ayriliqda ekanini ma'lum qilib, keyingi baytda yoru do'stlariga murojaat qiladi:

Bazmi ishrat ichra siz may no'sh eting, ey do'stlar,

Kim nasib ul la'li lab hijronidin qondur manga.

O'zbek mumtoz she'riyatida may ilohiy ishq ramzi bo'lib, may quyiladigan kosa, jom, qadah kabi idishlar ko'ngil ramzlaridir. Baytda oshiqning do'stlariga murojaati zamirida ko'nglida (idishida) Yor

(Allohning) ishq (mayi) tushishidan umidvorlik hissi bo'ladi. Ma'lumki, may qizil rangda tayyorlangan va kosadagi bu qizillik, aslida, oshiqqa ma'shuqasining qip –qizil lablari hijronidan shunday rangga kirgan, - deya ifodalash o'ziga xos ifoda, tasvir uslubini keltirib chiqargan. Ayni ifoda ta'rifida husni ta'lil san'ati o'ziga xos o'rin egallaydi.

Muallif ma'shuqaning ta'rifini, chiroyini bayon etgach, uchinchi baytdan uning xarakter xususiyatlarini ifodalashga o'tadi:

Chiqti aqlu fahm ila sabru ko'ngul tan mulkidin,
Chiqmayin har lahza zahmat berguchi jondur manga.

Ushbu baytda oshiq mahbusining harakatlaridan aqli parishon bo'lib, sabr-toqati ham tugaganini aytadi, uning sarkashligi bois jonidan kechib, bu yorug' olamni tark etishga tayyorligini ma'lum qiladi.

Ma'lumki, Haqiqat yo'lga kirgan solik, yo'lida turli sinovlar, mashaqqatlarga duch keladi. Bunday paytda riyozatni qattiq tutib, maqsadiga erishish uchun tog'day sabotu matonatli bo'lishi, yor tarafidan, hayot sinovlaridan keladigan har qanday balolarga chidashi shart. Ana shunday chin oshiqninggina jasorati, komilligi atrofda qilarga ta'sir ko'rsatadi. Asl maqsadga erishish esa har doim ham matonatni, fidoyilikni taqozo etadi.

O'qi baskim tandadur, tegmas tanimg'a o'zga o'q,
Ulki o'q deb nola qildim, emdi qalqondur manga.

Go'zal parichehra o'zining chiroyli va uzun kipriklari (o'q) bilan oshiqni nishonga oladi va unga o'qlar yog'diradi. Natijada esa oshiqqa o'zga o'qlar ziyon yetkaza olmasdi, chunki ma'shuqa otgan o'qlar, aslida o'q emas, uni himoyalovchi mustahkam qalqon ekanligini anglaydi. Demak, oshiq ma'shuqaning har qandae ziyoni, jafosi ham naf, hayotini himoya qiluvchi qalqon kabidir. Keyingi baytda oshiqning ruhiy ahvoli tasvirlanadi:

Uyla rasvomenki, ko'yu ko'chada holim ko'rub,
Ba'zi el gironu ba'zi xalq xandondur manga.

Mumtoz adabiyotda shoirlar ilohiy ishq mayidan sarxush bo'lgan oshiqni "devona", "Majnun" istiorasi orqali ta'riflaydilar. Ushbu baytda ham ilohiy ishqdan oshiq nola – afg'on chekadi, Uning ishq dardidan olamni larzaga keltiradi. Uning bu ahvolidan ba'zilar ko'ziga yosh olib, ba'zilar bundan kulishadi... Oshiq esa bunga parvo qilmaydi. U uchun faqat yor ishq, vasfi bo'lsa bo'ldi. Navbatdagi baytda ham oshiq dardu alamlari, qayg'ularini oshkor etadi:

Hajridin bag'rim suvdur, ul suv aro bolig' kibi
Dardu mehnat o'qidin bir necha paykondur manga.

Oshiqning bexudu shaydologiga sabab yorning go'zal kipriklaridir. Kiprik kamon o'qiga o'xshatilgan, bu o'q esa to'g'ri oshiq qalbiga borib tegadi, demak, ma'shuqa oshiqqa e'tibor qilgan, bir bor nazar tashlagan. Ana shu nazari bir tomondan oshiqni xushnud etgan bo'lsa, ikkinchidan, uni azob va iztirobga duchor etgan. Oshiqning qalbida ma'shuqa ishq olovi yonsa-da, ammo uning kipriklari qalbiga tegib, bu o'tni o'chiradi, chunki uning o'qlari uchi temirdan, temir esa uning bag'rini suvga aylantirgan, deydi shoir. Baytda oshiqning holatini yanada ta'sirliroq yetkazish maqsadida mubolag'adan foydalanilgan.

Shundan so'ng keyingi baytda bu o'qqa bardosh bergan ko'ngil dardlari kuylanadi:

Hur mujgonin agar surtay desa qilmon qabul,
Kim ayoqda orzu xori mug'ilondur manga.

Agar ul dilrabo kipriklarini menga otmoqchi bo'lsa, qabul qilaman, zeroki, orzular iztiroblari ham menga tikanli daraxt misol sanchiladi. Ya'ni oshiq ma'shuqa haqida orzu qilganda unga azob yetar ekan, uning kipriklari o'qi ham, tabiiyki, sitam yetkazadi, shuning uchun bu alamlarni ham qabul qilishga tayyorman, - deydi oshiq.

Ushbu bayt orqali ayon bo'ladiki, oshiq endi chin oshiqlik va ishqida sodiq bo'lishlilik kerakligini anglab yetdi, u endi boshiga kelgan har qanday qiyinchiliklarga bardosh qila oladi. Keyingi baytda oshiq faqat ishq bilan maqsadga erishib bo'lmasligini, bu yo'lda tun- kun toat – ibodat bilan mashg'ul bo'lish lozimligini ta'kidlaydi:

May ichib toatni favt etmangki, ul o't tobidin
Necha boqsam bahra holo dog'i hirmondur manga.

Shuni aytib o'tish joizki, Alloh taolo bu dunyoda payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollalohu alayhi vasallamni barcha mo'min – musulmonlarga o'rnak qilib yaratdi. Payg'ambarimizning har bir qilgan ishlari, amallariga ergashish – sunnat. Muhammad alayhissalom: "Albatta, Allohning bandalaridagi haqqi ularning Allohga ibodat qilishlari, Unga biror narsani shirk keltirmasliklaridir", dedilar. Demak, Allohga ibodat qilish bandaning fitratida bor bo'lib, hayotining ajralmas qismi hamda farzi hisoblanadi.

Baytda xuddi mana shu g'oyaga – ibodatda mustahkam bo'lmoqlikka urg'u berilgan. Maqtada shoir o'ziga murojaati zamirida xalqning ikki xil talabini iqtibos qiladi. Agar u ma'shuqasi (Parvardigori) vasliga

yeta olmasa, bundan o'limi afzal ekanini yoki Unga bo'lgan ishqidan kechmog'ligi lozimligini aytishadi. Ular oshiq uchun bu ish qiyin ekanini bilishmaydi, oshiq uchun hamma vaqt o'z yoriga umidvorlik, u tomon intilib yashash va bu yo'ldagi qiyinchiliklarni bartaraf etib O'z maqsadiga erishish – ulug' saodatdir. Buni anglab yetgan kishigina biladi, xolos. Majozan olib qaraganda, bu xalqni solik yo'liga qarshi chiquvchi nafs lashkarlari yoki Haqiqiy ishq mohiyatidan yiroq bo'lgan g'ofil kimsalar deb tushunsa ham bo'ladi:

Ey Navoiy, xalq der: jon ber, va yo kech ishqidin,
Garchi bu dushvor erur, lekin ul osondur manga.

G'azal maqta'si – oxirgi baytida fikr xulosalanadi. Ya'ni hazrat Navoiy bu bayt bilan g'azalda tadrijiy davom ettirilgan fikr, harakat, isyonlarga yechim topadi. Dardu alamlarga muftalo bo'lgan oshiq uning o'zi ekani ma'lum bo'ladi va Haq murodigaga erishishda og'ishmay davom etmoqlikni afzal biladi.

G'azalning ritmik tahlili. Ushbu g'azal 9 baytdan iborat bo'lib, aruzning ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun –v--/ -v--/ -v--/ -v-) bahrida bitilgan.

Shahr bir oy / furqatidin/ baytul-ahzan/dur manga,
- v - - / - v - - / - v - - / - v - -
foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun

Bir guli ra'no g'amidin/ bog' zindon/dur manga.

- v - - / - v - - / - v - - / - v - -
foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun

G'azalning qofiya tizimi. G'azalda qofiyaga olingan so'zlar quyidagilar: zindon, qon, jon, qalqon, xandon, paykon, mug'ilon, hirmon, oson. G'azal a-a, b-a, c-a, d-a va hokazo tarzida qofiyalangan. Qofiya tarkibidagi raviy (ya'ni tirgak tovush) “ n ” tovushi hisoblanadi. Qofiyaning turiga ko'ra muqayyad qofiya sirasiga kiradi.

Tahlilga tortganimiz ushbu g'azalda oshiqona va orifona hissiyotlar yonma-yon tasvirlangan. Zero, bu ko'pgina g'azallarga xos bo'lgan umumiy jihatdir. Biroq Alisher Navoiy bu kayfiyatni o'ziga ohanglar, tasvir uslublari, betakror tashbehlar bilan ifodalagan. Asar bugungi kunda ham vafo va sadoqatni tarannum etish bilan birga, komillikka erishish yo'li va u bilan bog'liq amaliy jihatlarga e'tibor qaratganligi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX jildlik. 1- жилд. – Тошкент. «Фан», 1988-й
2. Алишер Навоий. «Ғаройиб ус – сигар». Мукаммал асарлар тўплами. 3-жилд. – Тошкент. «Фан», 1988-й
3. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев ва С. Иброҳимов. Тошкент: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат наشريёти, 1973-й.

IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING MA'NAVYI MOHIYATI

Ahrorova Shahlo O'rinboyevna,
Respublika MMM huzuridagi Ijtimoiy
ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
Shaxlo.67@mail.ru
ORCID ID 0000-0002-8777-9162

Annotatsiya. Bugungi globallashuv davrida jamiyat ma'naviy muhiti jamiyat boshqa sohalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Ayniqsa yoshlar tarbiyasida bu muhit muhim o'rin tutadi, shuning uchun ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etgan ijtimoiy munosabatlarni tahliliy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola mana shu masalada so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ma'naviy muhit, qadriyat, tizimi, shaxs, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy munosabatlar, milliy munosabatlar, jamiyat sohalar.

ДУХОВНАЯ СУЩНОСТЬ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. В сегодняшнюю эпоху глобализации всё более актуальным становится вопрос о том, что духовная среда общества оказывает своё влияние и на другие сферы жизни общества. Эта среда особенно важна в воспитании молодёжи, поэтому становится важным аналитическое изучение социальных отношений, составляющих социально-духовную среду.

Ключевые слова: социальная духовная среда, ценности, система, личность, общество, общественные отношения, духовные отношения, национальные отношения, сферы жизни общества.

SPIRITUAL ESSENCE OF SOCIAL RELATIONS

Abstract. In today's era of globalization, the issue of the spiritual environment of society exerting its influence on other spheres of society's life is becoming increasingly relevant. This environment is especially important in the education of youth, so it becomes important to analytically study social relations that make up the socio-spiritual environment.

Keywords: social spiritual environment, values, system, personality, society, social relations, spiritual relations, national relations, spheres of social life.

Kirish. Inson borkim, ma'naviy yetuk jamiyatda yashashni orzu qiladi. Uning ana shu orzulari ma'naviy-mafkuraviy munosabatlarda aks etadi. Ma'lumki, insonning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlovchi ijtimoiy, insoniy qadriyatlar uning ma'naviy olamida aks etadi va har bir shaxsning ma'nan shakl topishi, uning ijtimoiy mohiyati yuksalishi darajasida muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatda amal qiladigan inson borkim, ijtimoiy munosabatga kirishadi. "Ijtimoiy munosabatlardan tashqarida yashaydigan inson naqadar yuksak iqtidor va qobiliyatlar egasi bo'lmasin, bularning hammasi befoyda va keraksiz bo'lib qolaveradi". [5, 94-101-b.]

O'z navbatida ijtimoiy munosabatlar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: masalan, jamiyat yashab qolishi uchun ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy munosabatlar amal qilsa, bu munosabatlarning tartibotini yo'lga qo'yish uchun huquqiy munosabatlar amal qiladi. Kishilarning ma'naviy qiyofasi ularning axloqiy munosabatlarida aksini ko'rsatadi, e'tiqodlariga ko'ra esa kishilar jamiyatda diniy munosabatlarga kirishadilar. Jamiyat va boshqaruv bor ekan, siyosat va siyosiy munosabatlar ham yuzaga kelishi tayin. Bundan tashqari estetik va shaxslararo munosabatlar ham amal qiladi. Bularning hammasi ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Ijtimoiy munosabatlar asosan quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflanadi:

- ❖ Hukmronlik ko'lamiga ko'ra (vertikal yoki gorizontal munosabatlar);
- ❖ Mol-mulk egaligi hamda uning tasarrufiga ko'ra (sinf, tabaqa);
- ❖ Ijtimoiy xususiyatlarga ko'ra (iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, axloqiy, diniy, estetik, shuningdek, shaxsiy, guruh, ommaviy);
- ❖ Tartibga solish uslubiga ko'ra (rasmiy, norasmiy);

❖ Ichki ijtimoiy-psixologik tuzilishiga ko'ra (kognitiv, kommunikativ, konstitutsiyaviy).

Tasniflangan bu ijtimoiy munosabatlar turlari ham o'ziga xoslikka ega bo'lgan guruhlariga bo'linishi mumkin. Masalan, rasmiy va norasmiy ijtimoiy munosabatlar quyidagicha guruhlanadi:

- ❖ Uzoq muddatli munosabatlar (m: hamkasblar, do'stlar bilan)
- ❖ Qisqa muddatli munosabatlar (m: tasodifiy tanishlar bilan);
- ❖ Funktsional munosabatlar (m: pudratchi va mijoz o'rtasida);
- ❖ Doimiy xarakterdagi munosabatlar (m: oilaviy);
- ❖ Ta'limga oid munosabatlar;
- ❖ Bo'ysinish va bo'ysindirish bilan bog'liq (m: boshliqlar va xodimlar o'rtasida);
- ❖ Sabab va oqibatga ko'ra: (m: jabrlanuvchi va jabrlovchi yoki jinoyatchi).

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxslararo, shuningdek, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning ma'naviy mohiyati jamiyatdagi ma'naviy muhitning asosi hisoblanadi. G'arb faylasufi Albert Shveyser: "Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi - ma'naviyat va axloq. Qolgan barchasi ozmi-ko'pmi ikkinchi darajali". [7,25-b.] — degan edi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda esa, "ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir". [1,268-b.]

Ma'naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatti-harakatlarida, o'zligini qaysi darajada anglashida, o'zining oila va jamiyatdagi o'rnini tushunishida Vatan va millatga munosabatida namoyon bo'ladi. [2,5-b.]

Bir tomondan qaraganda, ma'naviyatning o'zi insonga ijtimoiy xususiyat beradi. U jamiyatga va dunyoga ma'naviyat orqali nazar soladi, uni nozik tuyg'ular orqali anglaydi. Ijtimoiy munosabatlarning ma'naviy mohiyati pasayganda yoki o'z kuchini yo'qotganda, bu munosabatlar ijtimoiy-ma'naviy muhitda o'z in'ikosini, salbiy natija va ta'sirini ko'rsatadi. Bu o'zaro dialektik ta'sirni keltirib chiqaradi. Aslida, moddiy va ma'naviyat qarama-qarshi tomonlarni aks ettiradi. Aytaylik, tovar ayirboshlash munosabatlarda moddiy manfaat ustuvorlik qiladi. Munosabatga kirishuvchi ikki tomon ma'naviy qiyofasining bu munosabatlarda o'rni yo'qday ko'rinadi. Yoki, masalan, iqtisodiy soha jamiyatning moddiy asosini yaratuvchi manba nuqtai-nazaridan ma'naviy asosga qarama-qarshi qo'yiladi. Iqtisodiy soha moddiy ne'matlar ishlab chiqaradi va yashashning moddiy ehtiyojini qondiradi. U ishlab chiqarish va xizmat sohalarni riqojlantirish, takror ishlab chiqarish orqali o'z jamg'armasini oshirib boradi. Bu jamg'arma ishlab chiqarish orqali to'planish bilan birga, yana o'sha ishlab chiqarishni kengaytirishga, qo'shimcha foyda va daromad olishga zamin yaratadi. Bu jamg'armaning ma'lum bir qismini ma'naviy-ma'rifiy sohaga, aytaylik, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga sarflanishi o'sha olinadigan qo'shimcha daromad hajmini kamaytirganday ko'rinadi. Haqiqatan ham shunday. Lekin, ma'naviy sohaga sarflangan xarajat ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga, barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy sohani yurituvchilar, ishlab chiqaruvchilar, moddiy ehtiyoj tovarlarini yaratuvchilar esa mana shu ma'naviy muhitning ichida yashaydilar. Ularning moddiy tovarlarni sifat jihatdan yaxshilashga bo'lgan rag'batini, iqtisodiy jarayonlarda o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishlarini, yoki moddiy va ma'naviy manfaatlar birligini yaratishlarini, shuningdek, iqtisodiyotni orqaga suradigan omillar bo'lmish – korrupsiya, mahalliychilik, o'g'rilik, pinhona iqtisod yuritish, soliqlarni yashirish kabi illatlardan holi bo'lishlarini ana shu ma'naviy muhit ta'minlab beradi. O'z navbatida, bunday illatlarning ildiz otishi ijtimoiy-ma'naviy muhitning zaiflashuviga olib keladi. Bu esa jamiyatda ma'naviy tarbiyaning o'rnini kuchaytirishni toqazo qiladi. Ma'naviy tarbiyadan, ma'naviy-ma'rifiy sohadan iqtisod qilingan bir so'm pul iqtisodiyotga illatlar kirib kelishiga yo'l ochish orqali o'n so'm pulning yo'qolishiga olib keladi. Bu qarama-qarshiliklar bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi va dialektik tarzda rivojlanib boradi.

Ijtimoiy munosabatlar shaxslar o'rtasida, guruhlar, jamiyat subyektlari, jamiyatlar, davlatlar o'rtasida, shuningdek, bu subyektlar aralashgan holda, ya'ni masalan shaxs va jamiyat, shaxs va davlat, jamiyat va davlat, jamiyat subyektlari va davlat kabilar o'rtasida amalga oshiriladi. Demak, ushbu munosabatlar ma'naviy asosini shaxs ma'naviy olamida o'rin olgan qadriyatlar va undan kelib chiqadigan ehtiyojlar, ijtimoiylashgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar, davlat tomonidan o'rnatilgan me'yor va tartibotlar, tizimlar, qonunlar, jamiyatdagi ustuvor qadriyatlar, guruh va jamiyat subyektlarining g'oya va maqsadlari, mafkuraviy yo'nalishlari tashkil qiladi. Va tabiiyki, bunday munosabatlar ijtimoiy-ma'naviy muhitning ichki va tashqi qiyofasini ham shakllantirib beradi.

Ijtimoiy-falsafiy fanlar tizimida ijtimoiy-ma'naviy hayot bilan bog'liq voqelikni ifoda etishda huquqiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy singari turli munosabat va qarashlar nuqtayi nazaridan yondashuvlarni kuzatish mumkin. Bular ijtimoiy-ma'naviy muhitning ma'no-mazmuni, xarakterini

anglashga yordam beradi. O'zi ijtimoiy-ma'naviy muhit tarixiy shakllanish jarayonini oladigan bo'lsak, unda inson ruhiyati, ma'naviy olami bilan bog'liq yuksalishlar va pasayishlar, yutuqlar va talofotlar aks etib, ularning nomuvofiqliklari o'ziga xos ijtimoiy o'zgarishlarni yaratib kelganining guvohi bo'lamiz. Bu ijtimoiy o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlar bilan dialektik ravishda amalga oshadi. Demak, jamiyatga oid tartibotlar, siyosiy o'zgarishlar, islohotlar ijtimoiy munosabatlarga va ular orqali ijtimoiy-ma'naviy muhitga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan kelib chiqadi-ki, jamiyat boshqaruvi hamda shu jamiyatga xos ijtimoiy-ma'naviy muhit o'rtasida ham o'ziga xos munosabatlar yuzaga keladi.

Natijalar va muhokama. A. Ibrohimovning fikriga ko'ra: "Jamiyat - insoniyat tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Ijtimoiy munosabatlar ichida eng asosiysi, bu - ijtimoiy ong shaklini belgilaydigan munosabatlar - iqtisodiy munosabatlardir... Jamiyat taraqqiyotini butunlay iqtisodiy munosabatlarga bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Bu - moddiyunchilikdir. Odamlarning irodasi, azmu-qarori, tarixiy shaxslarning faoliyati, ma'naviy omillarni ham unutmazlik kerak." [3,208-b.]

B. Iminov: "Jamiyatning jami jabhalaridagi ijtimoiy munosabatlar mazmunida shakllanib, rivojlanib borgan mazkur salbiy holatlar ko'p kezlarda o'z holiga tashlab qo'yilgani sababli ham iqtisodiy munosabatlarda – pinhona iqtisod; ijtimoiy munosabatlarda – mahalliylik va millatchilik; siyosiy munosabatlarda- ekstremizm; ma'naviy munosabatlarda - ma'naviy qashshoqlik; huquqiy munosabatlarda – qonunbuzarlik va jinoyatchilikning shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit vujudga keladi.", -deb keltiradi. [4,81-b.]

Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy-ma'naviy muhitni yuzaga keltirar ekan, bemaqsad, shunchaki sodir etilmaydi, u jamiyat boshqaruvi bilan bog'liq ma'lum bir tartibot, ma'lum bir qonun-qoidalarga, ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga, ma'lum darajada shaxsning o'zligiga oid qadriyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlarning subyektlari – xoh u ayrim shaxs bo'lsin, xoh jamoa, xoh ijtimoiy guruh, - o'zaro aloqalarni amalga oshirishda va munosabatga kirishishda o'z mayl-istaklariga zid kelsa ham, ma'lum bir tartibotga bo'ysunadilar. Demak, bunday aloqalarni tizimga solish va shu orqali jamiyatga xos tizimlilikni yaratish maqsadida ijtimoiy aloqalarni belgilovchi, ta'sir ko'rsatuvchi, tartibga soluvchi, gohida esa ularning erkinliklarini kafolatlovchi qonunlar amal qiladi. Bu esa mavjud ijtimoiy-ma'naviy muhit va uning boshqaruvi o'rtasida o'ziga xos bog'liqliklar va munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Aslida, jamiyat mavjudligining o'zi, shuningdek, uning ichida ro'y beradigan barcha turdagi o'zaro aloqa va munosabatlarning mavjudligi ham boshqaruvni talab qiladi. Jamiyatni takomillashtirish masalalari bilan bog'liq ishlarni boshqaruv amalga oshiradi va uni ma'lum bir maqsadlar sari yo'naltirib boradi. Bunday boshqaruv maxsus tashkil qilingan tuzilma, ya'ni hokimiyat orqali amalga oshadi. Hokimiyat jamiyatda mavjud ijtimoiy guruhlar, subyektlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni boshqarish, tartibga solish, yo'naltirishi bilan siyosiy hukumat mavqeini egallaydi. Siyosiy hokimiyat mavjud ekan, demak siyosiy tizim ham mavjud. Davlatning jamiyatni boshqaruvi, mavjud ijtimoiy-ma'naviy muhitni yuzaga keltirishi yoki unga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq munosabatlar mana shu tizim asosida yotadi. Davlat jamiyatda barcha jarayonlar, jumladan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, ichki tarmoqlarning (jumladan ma'naviy muhitga aloqador sohalarning) konstruksiyasini ishlab chiqadi va takomillashtiradi, ularning huquqiy asosini tashkil etadi va islohotlarda yetakchilik qilib, boshqaruvni tizimlashtiradi, jamiyat hayotini boshqarish va takomillashtirishning siyosiy-huquqiy, g'oyaviy-nazariy hamda ma'naviy asoslarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbiiq etadi. Demak, qonunlarning ishlab chiqilishi va amal qilishi - ijtimoiy zarurat hisoblanib, ijtimoiy-ma'naviy muhit munosabatlarini tartibga solishning muhim vositasi sanaladi.

Ammo, har qanday boshqaruv mavjud ijtimoiy-ma'naviy muhitni hisobga olishi zarur va shu bilan ma'naviy hodisa siyosiy ahamiyat kasb etadi. Bunda boshqaruv va mavjud ijtimoiy-ma'naviy muhit o'zaro dialektik aloqaga kirishadi. Milliy asoslarga, milliy qadriyatlarga tayangan ma'naviy muhitdan chiqib ketib, ulardan yiroq bo'lgan qonuniyat va tartibotni bu muhitga singdirib bo'lmaydi. Bunday qonuniyatlar ishlamasligi va jamiyatda o'zbilarmonchilik, parokandalikka olib kelishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkin. O'z navbatida ijtimoiy-ma'naviy muhit ham o'zaro munosabatda boshqaruv qonuniyatlarini hisobga olishi zarur, gohida esa majbur bo'ladi. Masalan, ta'lim tizimida tarbiyaga oid fanlarning qisqarishi, yoki o'qituvchi(ustoz) sha'ni va nufuzining pasayishiga olib keladigan qonun va tartibotning ijroga yo'naltirilishi ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatgani kabi, ushbu qonun va tartibotlarning mualliflari, isloh qiluvchilari mana shu muhitda ulg'aygan yoki uning ta'siri ostida bo'lishi mumkinligini hamisha hisobga olish lozim bo'ladi. Albatta, bunday boshqaruvlar ma'lum bir mexanizmlarga amal qiladi. Masalan, O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhitni tartibga solish quyidagi mexanizm vositasida amalga oshiriladi: buning birinchi darajasi - konseptual bosqich hisoblanib, boshqaruvning nazariy asoslarini ishlab chiqish ko'zda tutiladi; ikkinchi darajali bosqichda – huquqiy-me'yoriy asoslar ishlab chiqiladi, ya'ni boshqaruvning qonuniy asoslarini yaratish nazarda tutiladi; navbatdagi uchinchi darajada

tashkiliy bosqich amalga oshiriladi, bunda davlat organlari, boshqaruv bilan shug'ullanuvchi maxsus institutlarning faoliyati yo'lga qo'yiladi; to'rtinchi darajada texnologik bosqich amalga oshadi va unda boshqaruvning turli uslublari va shakllari namoyon bo'ladi.

Xulosalar. Ijtimoiy munosabatlarni faqat davlat va qonunlar boshqarar ekan, degan xulosadan yiroqmiz.

Har qanday ijtimoiy munosabatlarni boshqarish masalalarida uchta ijtimoiy-huquqiy asos asosiy o'rin tutadi. Bularning birinchisi bu – yozma hujjatlar bilan asoslangan qonun bo'lib, unga amal qilinishi majburiylik kasb etadi, zero ularni nazorat qilish jarayonida davlat sanksiyalarining qo'llanilishi nazarda tutiladi. Ikkinchisi esa madaniy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar orqali yuzaga chiqadigan ijtimoiy-ma'naviy, milliy, madaniy qadriyatlar, mavjud an'analar bilan bog'liq bo'lgan milliy tafakkur tarzidir, bular o'ziga xos tarzda va ko'rinishda, hujjatlarda yozilmagan qonunlarga asoslangan holda amal qiladi. Uchinchi asos esa boshqaruv subyektlari va obyektlarining me'yoriy-huquqiy tartiblar vositasida amalga oshiradigan faoliyatlari bilan bog'liqdir. Bunday faoliyatlar ham insonlararo qadriyat me'yorlarga, ham qonuniy tartiblarga suyangan holda amalga oshiriladi.

Bularning orasida ikkinchi asos, ya'ni, milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan milliy tafakkur tarzi muhim hisoblanadi. Jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy "...millatlar diniy va milliy hissiyotga molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar. Va luzumi kelganda bu yo'lda molu jonlarini fido etmoqga hozir turarlar. Mana, hozirgi urushlar va iqtisodiy tortishlar diyonat va milliyat hissiyoti natijasidir", deganda aynan mana shu ikkinchi asosni nazarda tutgan bo'lsa ajab emas.[6,971-b.] Unutmaslik lozim-ki, milliy mentalitetimizda an'anaviylik bilan zamonaviylik, umumbashariylik bilan milliylik, hurfiylik bilan diniylik mudom uyg'unlashib, qorishiq holda amal qiladi. Mana shu ma'noda birinchi asos ikkinchi asosni nafaqat rad etmaydi, balki, jamiyat boshqaruvi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga molik qonunlar ishlab chiqishda bu uyg'unlikni hisobga olishi lozim bo'ladi. Bunday uyg'unlashuvni tahlil qilish, puxta o'rganish milliy tafakkur tarzi, milliy mentalitet mohiyatini tushunish, uning asl tabiatini teran tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2021 y. -B. 268.*
2. Ahrorova Sh. *Ma'naviyat eng ta'sirchan va qudratli qurolimizdir. "Ma'naviyat" nashr. T.-2022y.*
3. Ibrohimov A. *Bizkim, o'zbeklar. Sharq. T.: 1999 y. B. - 208.*
4. Iminov B. *Mafkuraviy o'zaro munosabatlardagi uyg'unlik. // Ijtimoiy fikr, inson huquqlari. 2001 y. №2. B. – 81.*
5. Lutfullaevich, S. B. (2021). *The views of philosophical analysis of ancient greek scholars on social relations. // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(07), 94-101.*
6. «Oyina» jurnali, 1914 yil, 41-son, 971-bet.
7. Raimov A., Raimova H. *Hikmatlar shodasi T.: "Ozbekiston", 2015 25-b.*

YEVROPA ITTIFOQI-XITOIY XAVFSIZLIK SOHASIDAGI HAMKORLIK

Sadibaqosev Habibullo Shodiboy o'g'li,

*O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi tadqiqotchisi,
O'zXIA, Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti dekani,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

h.sadibaqosev@iiu.uz

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida Yevropa Ittifoqi va Xitoyning xavfsizlik sohasidagi bog'liqligi, siyosiy ishonchni mustahkamlash, muhim global oqibatlariga olib keladigan xalqaro va mintaqaviy muammolar bo'yicha muloqotni kuchaytirish, ikki mintaqaga o'rtasidagi hamkorlikning murakkab masalalarining asosiy yo'nalishlari, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, xalqaro savdo va investitsiyalar, atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xitoy-Yevropa Ittifoqi sammiti, xavfsizlik, global muammolar, ko'p qutbli dunyo, CEU 1985, BMT, ekologik xavfsizlik.

СОТРУДНИЧЕСТВО ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА И КИТАЯ В ОБЛАСТИ
БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация. В данном исследовании освещены взаимосвязи Европейского Союза и Китая в сфере безопасности, укрепление политического доверия, усиление диалога по международным и региональным проблемам, приводящим к важным глобальным последствиям, основные направления комплексных вопросов сотрудничества между двумя регионами, включая экономическое взаимодействие, международную торговлю и инвестиции, а также особенности охраны окружающей среды и экологической безопасности.

Ключевые слова: саммит Китай-ЕС, безопасность, глобальные проблемы, многополярный мир, CEU 1985, ООН, экологическая безопасность.

EU-CHINA SECURITY COOPERATION

Abstract. This research paper examines the security relationships between the European Union and China, focusing on strengthening political trust, enhancing dialogue on international and regional issues with significant global consequences, and key aspects of complex cooperation between the two regions. The study covers main directions of collaboration, including economic cooperation, international trade and investment, environmental protection, and specific aspects of ecological security.

Keywords: China-EU summit, security, global issues, multipolar world, CEU 1985, UN, ecological security.

Kirish. Yevropa Ittifoqi va Xitoy bir-birining iqtisodiga muhim sarmoyadorlar bo'lishi bilan bir qatorda, asosiy savdo sheriklariga aylandi. To'g'ridan to'g'ri iqtisodiy aloqalardan tashqari, Yevropa Ittifoqi va Xitoy ochiq, barqaror va yaxshi ishlaydigan global iqtisodiyotdan manfaatdor. Xavfsizlik sohasiga umumiy iqtisodiy manfaatlarning kengayishi odatda Yevropa Ittifoqi va Xitoy o'rtasidagi xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning asosiy sababi sifatida tilga olinadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiyot nafaqat xavfsizlik munosabatlari doirasini, balki ularning o'ziga xos xususiyatini ham belgilaydi [1]. Yevropa Ittifoqi va Xitoy o'rtasidagi savdo va hamkorlik shartnomasi (CEU 1985) ikki tomon o'rtasidagi asosiy huquqiy kelishuv bo'lib qolmoqda. Shunga ko'ra, xavfsizlik bo'yicha muloqot iqtisodiy xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgani aytiladi va dolzarb xavfsizlik masalalari bo'lmaganda iqtisodiy manfaatlar ayniqsa muhim bo'ladi. Yevropa Ittifoqi va Xitoy bir-birini dushman yoki potensial harbiy tahdid sifatida qabul qilmaydi va "Xitoyning yuksalishi" Yevropa Ittifoqi manfaatlariga bevosita ta'sir qilmaydi [2]. O'z navbatida, Xitoyning kuchayishi jahonda Yevropa Ittifoqining muvozanat saqlovchi pozitsiyasini yanada ahamiyatli qiladi. AQSh prezidentligiga Donald Tramp kelganidan so'ng, uning Yevropaga bo'lgan o'zgacha siyosati va Yevropani Amerika "qaramog'idan" chiqarishga urinishi davrida, Xitoy ular bilan ham iqtisodiy ham xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni kuchaytirdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzu doirasida ko'plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borilgan. G'arblik olimlardan M.Smith, J.Wilson, D.Scott, U.Wissenbach va boshqalarning ishlarini, sharq olimlaridan

V. B. Amirov, B. B. Михеев, W.Song, H.Xie, Zh.Pan va boshqalarni ilmiy ishlarini tahlil qilish va ulardan foydalangan holda yozilgan. Ushbu tadqiqot ishida Yevropa Ittifoqi va Xitoyning xavfsizlik sohasidagi bogʻliqliklari, siyosiy ishonchni mustahkamlash, muhim global oqibatlariga olib keladigan xalqaro va mintaqaviy muammolar boʻyicha muloqotni kuchaytirish, ikki mintaqada oʻrtasidagi hamkorlikning murakkab masalalarining asosiy yoʻnalishlari, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, xalqaro savdo va investitsiyalar, atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikning oʻziga xos jihatlari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Yevropa ittifoqi va Xitoy (YI+XXR)ning iqtisodiy, siyosiy, savdo investitsiyalar hamda xavfsizlik sohasiga nisbatan nazariy qarashlari va yondashuvlarini oʻrganish uchun sifatli tadqiqot metodologiyalaridan foydalanilgan. Maʼlumotlarni toʻplash hukumatlarining siyosiy hujjatlari, rasmiy bayonotlar, ilmiy maqolalar va ekspert tahlillarini keng koʻlamli koʻrib chiqishni oʻz ichiga olgan. Tadqiqot ishida keltirilgan har bir aktorning xalqaro va mintaqaviy muammolar boʻyicha tahliliy hujjatlari ularning strategik ustuvorliklari va turli sohalardagi xavfsizlikka yondashuvlarini tushunish uchun koʻrib chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida YI+XXRning xavfsizlik strategiyalari, nazariy asoslari va geosiyosiy xatti-harakatlaridagi farqlarni aniqlashda tizimli taqqoslash imkonini beruvchi qiyosiy tahlil tizimini oʻz ichiga olgan.

Tahlil va natijalar. Xitoy-Yevropa munosabatlaridagi burilish nuqtasi 2003-yildagi konsolidatsiya, har tomonlama strategik sheriklik maqomi oʻsha yili Xitoy Tashqi ishlar vazirligi birinchi marta Xitoyning Yevropa Ittifoqiga nisbatan siyosati boʻyicha siyosiy hujjatni eʼlon qildi. Tadqiqotchilar 2003-2004-yillarni Yevropa-Amerika munosabatlarining keskinlashuvi va AQShning Iroqdagi siyosati munosabati bilan Bryussel bilan aloqalarni kuchaytirishni Pekinning eng yuqori umidlari davri deb atashgani bejiz emas.

Yevropa Ittifoqi va Xitoy oʻrtasidagi xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning asosiy yoʻnalishlari [3]:

- muhim global oqibatlariga olib keladigan xalqaro va mintaqaviy muammolar boʻyicha muloqotni kuchaytirish, Afrika, Markaziy Osiyo, Lotin Amerikasi hamda tegishli Yevropa Ittifoqi va Xitoy qoʻshnilari boʻyicha maslahatlashuvlarni faollashtirish;

- xalqaro savdo va investitsiyalar, moliya, atrof-muhit va iqlim oʻzgarishi, Internet va yangi avlod simsiz texnologiyalar kabi asosiy sohalarda adolatli, oqilona va samarali qoidalarni ishlab chiqish orqali muvofiqlashtirish va hamkorlikni mustahkamlash;

- yadro xavfsizligi sohasida hamkorlikni mustahkamlash, yadro qurolini tarqatmaslikning xalqaro rejimini va tegishli eksport nazorati mexanizmlarini mustahkamlash, yadroviy materiallar kontrabandasiga qarshi kurashish;

- Yevropa Ittifoqi-Xitoy kibermakon boʻyicha ishchi guruhi kabi platformalar orqali oʻzaro ishonch va hamkorlikni ragʻbatlantirish orqali tinch, xavfsiz, mustahkam va ochiq kibermakonni yaratishni qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish;

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi doirasida Yevropa Ittifoqi va Xitoy oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlash;

- transmilliy jinoyatchilik, noqonuniy migratsiya va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish boʻyicha loyihalarni amalga oshirishda hamkorlik qilish, shuningdek, tegishli vaqtda terrorizmga qarshi kurashish masalalari boʻyicha maxsus maslahatlashuvlar oʻtkazish;

- mudofaa va xavfsizlik siyosati masalalari boʻyicha muntazam muloqotlar oʻtkazish, taʼlim almashinuvlarini kengaytirish va mudofaa va xavfsizlik sohasida Yevropa Ittifoqi va Xitoy muloqoti va hamkorlik darajasini bosqichma-bosqich oshirish, amaliy hamkorlikka oʻtish;

- dengiz xavfsizligini taʼminlash, shu jumladan qaroqchilikka qarshi kurashish sohasida hamkorlikni davom ettirish va qaroqchilikka qarshi kurashish boʻyicha qoʻshma mashgʻulotlar oʻtkazish;

- dengizda xavfsizlik va xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha birgalikdagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish; tegishli xalqaro huquq sohasida tajriba almashish; Arktika boʻyicha axborot almashinuvini, shu jumladan qoʻshma tadqiqot loyihalarini rivojlantirish.

Baʼzi mualliflar 2018-yil iyul oyida boʻlib oʻtgan Xitoy-Yevropa Ittifoqi sammitida muhim mavzuga aylangan ekologik xavfsizlik sohasida Xitoy-Yevropa strategik hamkorligining yangi istiqbollari koʻrishmoqda. Yevropa Ittifoqi iqlim oʻzgarishiga qarshi kurash muhimligini yana bir bor tasdiqlaganidan soʻng, Xitoy iqlim boʻyicha Parij kelishuviga (2015-yilda qabul qilingan) qoʻshildi. Ajablanarlisi shundaki, Yevropa Ittifoqi davlatlari global isishga qarshi kurashda, ayniqsa 2017-yilda AQSh Parij kelishuvidan chiqqanidan keyin asosiy hamkor sifatida koʻrayotgan issiqxona gazlarining dunyodagi eng yirik manbasi boʻlgan Xitoydir. Xitoyning dunyoda yetakchi rol oʻynashga qatʼiy qaror qilgani, jumladan, atrof-muhit siyosati orqali kambagʻal mamlakatlarga iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yengishda yordam berish uchun Yevropa Ittifoqi bilan qoʻshma rejalari ham taʼkidlangan [4]. Xitoyning Yevropa Ittifoqi bilan ekologik

sohada hamkorligi iqlim o'zgarishi, barqaror rivojlanish va ekologik texnologiyalarni rivojlantirish kabi masalalarga qaratilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi va Xitoy qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Ular quyosh, shamol va suv energiyasi bo'yicha texnologiyalar almashinishi hamda yangi, ekologik toza energiya ishlab chiqarish usullarini o'rganish bo'yicha loyihalarda ishlamoqda. Shuningdek Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Yevropa bilan ekologik infratuzilmalarni yaratish va yashil shaharlar loyihalarida hamkorlik qilinmoqda. Bu loyihalar atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi maqsadlariga erishish uchun Xitoy o'zining yevropalik hamkorlarining tajribasi va texnologik yechimlariga tayanishni rejalashtirayotgani ham muhimroq. Shu maqsadda Xitoy Yevropa texnologiyalari va sarmoyalarini jalb qilish uchun eng qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratmoqda. Shunday qilib, ekologik xavfsizlik Yevropa texnologiyalarini Xitoyga o'tkazish shaklida Xitoy-Yevropa hamkorligining muhim sohasiga aylanishi mumkin. Xitoyning Arktikaga bo'lgan qiziqishi iqlim o'zgarishiga doir muammolar bilan bog'liq bo'lib, u bu yo'nalishda Yevropa Ittifoqi bilan, ayniqsa, shimoliy mamlakatlar bilan muloqotni faol rivojlantirmoqda. Xitoy allaqachon Arktika Kengashida kuzatuvchi maqomini olgan va hech bo'lmaganda qutbli hududlarning rivojlanishini kuzatishga (va, ehtimol, uzoq muddatda ishtirok etishga) qiziqish bildirmoqda. 2018-yil iyuldagi sammitda Pekin va Bryussel dengiz va qutb mintaqalari huquqi bo'yicha ikki tomonlama muloqotga qiziqish bildirgan holda okean siyosati bo'yicha hamkorlik shartnomasini (Okeanlar uchun moviy sheriklik) imzoladilar [5]. Ularning asosiy maqsadi dengiz va qutb hududlarining ekologik himoyasini ta'minlash va ushbu hududlardagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish bo'lgan. Kelishuvga ko'ra, Xitoy va Yevropa Arktika va dengiz ekotizimlarini o'rganish uchun ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar bo'yicha hamkorlikni kuchaytiradi. Ushbu hamkorlik nafaqat ilmiy ma'lumotlar almashinuvini o'z ichiga oladi, balki dengiz biologiyasini va dengizda yashovchi turli organizmlar hayotini o'rganish, shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llashni ham nazarda tutadi.

Yevropa Ittifoqi o'zini Sharqiy Osiyo davlatlari uchun xavfsizlik masalalarini hal qilishda hamkor sifatida ko'rsatadi va Xitoy bilan birgalikda hududiy nizolarni hal qilishda qonun ustuvorligini ta'minlashga chaqiradi. Ammo Bryusselda bu chaqiriqni qo'llab-quvvatlash uchun kam imkoniyatlar va aniq vositalar mavjud. Evropa Ittifoqi mintaqaviy siyosat masalalarida Xitoy va uning qo'shnilariga bosim o'tkazishdan qochadi, masalan, Bryusselning Gaagadagi doimiy arbitraj sudining 2016-yil 12-iyuldagi qaroriga nisbatan mo'tadil munosabati bilan namoyon bo'ldi. Xitoyning Janubiy Xitoy dengizidagi harakatlari va hududiy da'volarini noqonuniy deb tan oldi. AQSh, Yaponiya va Avstraliyadan farqli ravishda Yevropa Ittifoqi Xitoyning mintaqadagi siyosatini ochiqdan-ochiq qoramadi yoki sud qarorini zudlik bilan amalga oshirishga chaqirmadi. Yevropa Ittifoqi Xitoyni tanqid qilish o'rniga mojarodagi barcha tomonlarni muzokaralar olib borishga va hududiy muammoni tinch yo'l bilan hal qilishga chaqirdi. Bundan tashqari, sud qaroridan bir necha kun o'tib bo'lib o'tgan Osiyo-Yevropa forumining (Xitoy va Yevropa Ittifoqi ishtirokida) yakuniy hujjatlarida Janubiy Xitoy dengizidagi hududiy bahs to'g'ridan-to'g'ri tilga olinmagan. OAV xabarlariga ko'ra, rasmiy Bryusselning yakuniy bayonotiga Vengriya va Gretsiyaning Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga intilayotgan pozitsiyalari ta'sir qilishi mumkin edi. Xitoy uchun Yevropa Ittifoqining Sharqiy Osiyoning boshqa davlatlari bilan bo'lgan ziddiyatlariga munosabati Xitoyning Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan alohida davlatlardagi iqtisodiy ta'siri darajasini ko'rsatadigan ko'rsatkichdir. Yevropa Ittifoqining Sharqiy Osiyodagi past siyosiy rolini, shuningdek, Yevropada bir qator boshqa tashqi siyosat masalalari bo'yicha konsensus yo'qligini ham hisobga olish zarur [6]. Bunga asosiy sabab esa Yevropa Ittifoqi a'zolari o'zlarining tarixiy, geosiyosiy va madaniy kontekstlariga ko'ra turlicha qarashlarga ega ekanligida. Shuningdek Yevropa Ittifoqi a'zolari turli iqtisodiy manfaatlarga ega ekanligini ham alohida ta'kidlash zarur. Ushbu omillarga ko'ra Sharqiy Yevropa mamlakatlari Xitoy bilan iqtisodiy aloqalar va savdo hamkorligini rivojlantirishni ustuvor deb hisoblashsa, G'arbiy Yevropa mamlakatlari inson huquqlari va xavfsizlik masalalari bo'yicha qat'iyroq pozitsiyani qo'llab-quvvatlaydi. Bu farqliliklar YI ichidagi bir xildagi siyosiy pozitsiyalarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Yevropa Ittifoqi va Shimoliy Koreya o'rtasidagi siyosiy muloqotlarga (1998-2015) kelsak, ular Yevropa Ittifoqining nizolarni muzokaralar yo'li bilan tinch yo'l bilan hal qilishga chaqiruvchi mas'uliyatli global o'yinchi sifatidagi imidjini qo'llab-quvvatladilar va bundan tashqari, Bryusselning Koreya yarim orolidagi harbiy-siyosiy vaziyat borasidagi haqli xavotirini aks ettirdilar. Koreya yarim orolidagi vaziyatni bashorat qilish imkoniyatini oshirish uchun bunday muzokaralar platformalarini saqlab qolish zarurligiga qaramay, mintaqa muammolarini hal qilish uchun faqatgina Yevropa Ittifoqining sa'y-harakatlari yetarli bo'lmasligi aniq [7]. Bu borada Yevropa Ittifoqi to'ridan-to'g'ri Shimoliy Koreya bilan emas balki Xitoy orqali muloqotga kirishi maqsadga muvofiq. Chunki aynan Xitoy Koreya Xalq Demokratik Respublikasining bugungi kunga qadar YI sanksiyalarini yengib o'tishiga yordam berayotgan kam sonli

mamlakatlardan biri hisoblanadi. Qolaversa, Xitoy Koreya Xalq Demokratik Respublikasining yadrosizlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Aden ko'rfazida va Afrika shoxi yaqinida qaroqchilikka qarshi kurashish bo'yicha Yevropa Ittifoqi va Xitoyning kelishilgan yondashuvlari ushbu hududlarda yuk tashish xavfsizligini yaxshilagan. Doimiy hamkorlik siyosiy ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynashda davom etmoqda.

Yevropa Ittifoqi va Xitoy o'rtasida mustahkam aloqalar mavjud. Bular dunyodagi uchta yirik iqtisod va savdogarlardan ikkitasi hisoblanadi. Xitoy hozirda Yevropa Ittifoqining AQShdan keyin ikkinchi yirik savdo sherigi, Yevropa Ittifoqi esa Xitoyning eng yirik savdo sherigi hisoblanadi. Har ikki tomon Yevropa Ittifoqi va Xitoyning 2020-yilgi strategik hamkorlik kun tartibida ifodalanganidek, keng qamrovli strategik sheriklik tarafdori [8]. 2020-yilda Xitoy va YI o'rtasida Keng qamrovli investitsiyalar bo'yicha kelishuv (Comprehensive Agreement on Investment, CAI) bo'yicha kelishuvga erishildi. Bu kelishuv ikki tomonlama investitsiyalarni osonlashtirish, bozorlarni ochish, intellektual mulk himoyasi kabi masalalarni hal qilishga qaratilgan. Biroq, kelishuvni ratifikatsiya qilish jarayoni inson huquqlari bilan bog'liq muammolar, jumladan, Xitoyning Shinjon va Gonkongdagi siyosati tufayli qiyinlashdi. O'zaro munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilish ham shu o'rinda zarurdir.

Xitoy va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, u 40 yildan ortiq vaqt davomida rivojlanishda davom etganini ta'kidlash kerak. Hamkorlik esa tobora rang-baranglashib bormoqda. Xitoy tashqi siyosatining ekskluziv Yevropa yo'nalishi bo'yicha manfaatlarini aniqlab, shuni aytishimiz mumkin, bir tomondan, iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra Xitoy kuchli va birlashgan Yevropaga muhtoj. Ichki bozorning to'yinganligi Xitoyni o'zining ortiqcha quvvatidan foydalanish va tovarlarni xorijga jo'natish imkoniyatlarini izlashga majbur qilmoqda. Siyosiy nuqtai nazardan, Yevropa Ittifoqi Xitoy tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ko'p qutbli dunyoning "qutblaridan" biridir. Bunga Yevropa Ittifoqiga a'zo 14 davlat Osiyo infratuzilma investitsiyalari bankiga a'zo bo'lganligi eng yaxshi misoldir. Boshqa tomondan, Xitoy zaif Yevropa Ittifoqidan manfaatdor. Bunday Yevropa Ittifoqi Xitoyga nisbatan nomaqbul qarorlar qabul qilish ehtimoli kamroq bo'ladi. Natijada, Xitoyning kuchayib borayotgan ta'siriga to'siq sifatida qabul qilingan "G'arb" o'z ahamiyatini yo'qotadi. YI ichidagi zaiflik Xitoy uchun Yevropa siyosatiga ta'sir o'tkazish imkonini oshirishi mumkin. YI ichida yagona va kuchli siyosiy qarorlar qabul qilish qiyinlashgan taqdirda, Xitoy individual davlatlar bilan alohida diplomatik aloqalar o'rnatib, o'z manfaatlarini ilgari surishi mumkin. Bu esa Xitoyning YIdagi ta'sirini mustahkamlashga yordam beradi. [9]. Chindan ham YI zaiflashishi G'arb birligini buzishi va Xitoyning global miqyosda o'z ta'sirini kuchaytirishiga olib kelishi mumkin. YI va AQSh o'rtasidagi aloqalar zaiflashganda yoki YI ichidagi birlik bo'linib ketsa, bu Xitoyning geosiyosiy pozitsiyasini mustahkamlash imkonini yaratadi, ayniqsa G'arb davlatlari bilan raqobatlashayotgan bir paytda. Qolaversa YI ichidagi ayrim zaif yoki iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan davlatlar Xitoyning "Bir kamar-bir yo'l" tashabbusi orqali investitsiyalar va infratuzilma loyihalariga qiziqishi mumkin. Shu tariqa Xitoy ushbu davlatlarga osonroq kirib, iqtisodiy ta'sirini kengaytirishi va global savdo yo'llarini nazorat qilishda yanada kuchayishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi manfaatlarini ko'rib chiqayotganda, YI ham ikki xil yondashuvga ega ekanligini ta'kidlash kerak. Yevropa Ittifoqining Xitoyga nisbatan siyosat maqsadlarini iqtisodiy va tartibga solish maqsadlariga bo'lish mumkin. Iqtisodiy nuqtai nazardan, Xitoy - Yevropa Ittifoqining AQShdan keyin ikkinchi yirik savdo sherigi - daromadli sarmoya bozori sifatida muhim rol o'ynaydi. Yevropa Ittifoqi Xitoyni Yevropa kompaniyalariga Yevropadagi xitoylik tadbirkorlar bilan bir xil sharoitlarni berish uchun o'z bozorini tartibga solish va erkinlashtirishga chaqirmoqda. Biroq Xitoyda hukumatining mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash siyosati mavjud. Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining ko'p qismi mahalliy tadbirkorlar va kompaniyalar hisobiga amalga oshirildi. Xitoy hukumati mahalliy bizneslarga soliq imtiyozlari, subsidiyalari va boshqa qo'llab-quvvatlashlar orqali yordam beradi, bu esa xalqaro kompaniyalar uchun raqobatbardoshlikni qiyinlashtiradi. Shu sababli ular ham turli to'siqlarni saqlab kelmoqda va Yevropa kompaniyalariga tenderlarda ishtirok etishga ruxsat bermaydi. Xitoy, shuningdek, texnologiya transferi yoki xitoylik hamkorlar bilan qo'shma korxonalar kabi yuqori kirish talablarini qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun ham Yevropa Ittifoqi Xitoyni bir necha bor o'zaro kelishuv tamoyiliga amal qilishni boshlashga chaqirgan va Xitoy sarmoyasini jalb etish niyatida [10]. Rossiya- Ukraina mojarosi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy krizis davrida Xitoyning katta sarmoya resurslari Yevropaning iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlash va rivojlanishiga yordam beradi. Xitoy investitsiyalari YI mamlakatlarida infratuzilma, texnologiya va boshqa muhim sohalarga investitsiya kiritish orqali iqtisodiy faollikni oshirishi mumkin.

Xulosa. YIning XXR bilan munosabatlari ko'proq savdo, sarmoya va iqtisodiy xavfsizlik sohasida hamda BMT doirasidagi xavfsizlik sohasi bo'yicha hamkorlik, iqlim o'zgarishi kabi bir qator global muammolarni o'z ichiga qamrab oladi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi va Xitoy o'rtasidagi xavfsizlik sohasidagi hamkorliklar global xavfsizlik muammolariga qarshi kurashda va mintaqaviy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu hamkorliklar ikki tomonlama manfaatlar va global xavfsizlik uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, xavfsizlikka oid ko'plab sohalarda qo'shma sa'y-harakatlarni talab qiladi. Ammo o'rtasida muzokaralar olib borish mumkin bo'lmagan ayrim jihatlar jumladan, inson huquqlari va ba'zi hollarda xalqaro huquq kabi murakkab mavzular mavjud.

ADABIYOTLAR:

1. *Security Cooperation in EU-China Relations*. Dorussen, Christiansen and Emil Kirchner [Электронный ресурс] // *European Foreign Affairs Review*/ Режим доступа: https://www.researchgate.net/publication/327830959_Security_Cooperation_in_EU-China_Relations_Towards_Convergence
2. Smith, Michael, and Huaixian Xie. "The European Union and China: The Logics of "Strategic Partnership", // *Journal of Contemporary European Research*, vol. 6, no. 4, 2010, c. 432 – 448
3. *European External Action Service (2019): EU-China Relations factsheet* // *European External Action Service (EEAS)* / [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://eeas.europa.eu/headquarters/headquarters-homepage/34728/euchina-relations-factsheet_en
4. Кузнецов А. В. *Перспективы отношений ЕС и Китая* // *Китай и глобализация / отв. ред. В. Б. Амиров и В. В. Михеев. М., 2012. с. 55-66.*
5. *Delegation of the European Union to China (2018): Joint statement of the 20th EU-China Summit* // *European External Action Service (EEAS)* / [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://eeas.europa.eu/delegations/china_en/48424/Joint%20statement%20of%20the%2020th%20EU-China%20Summit
6. *Keeping EU-Asia Reengagement on Track*. Youngs, Richard [Электронный ресурс] // *Carnegie Europe* / Режим доступа: https://carnegieendowment.org/files/eu_asia_reengagement.pdf
7. *European Council: «Declaration and Statements Issued by the 11th ASEM Summit in Ulaanbaatar (2016)»* / [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://www.consilium.europa.eu/en/press/press-releases/2016/07/16/asemdocuments/>
8. Wang, Song. *China, the European Union, and the International Politics of Global Governance*. Macmillan, 2016, c. 59-91
9. Zhongqi, Pan. *Conceptual Gaps in China–EU Relations: Global Governance, Human Rights and Strategic Partnerships*. Palgrave Macmillan, 2012, c.267
10. *European Commission and HR/VP contribution to the European Council (2019): EU-China – A strategic outlook* // *European Commission* / [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://ec.europa.eu/commission/sites/betapolitical/files/communication-eu-china-a-strategic-outlook.pdf>

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В
СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Абдувоитов Сирожиддин Хикматуллаевич,
соискатель Ташкентского государственного университета востоковедения
sirojiddinabduvoitov@gmail.com

Аннотация. В начале XXI века с приходом к власти «Партии справедливости и развития» во главе с Эрдоганом внешняя политика Турции подверглась значительному реформированию с учётом культурных, исторических и географических особенностей государства, а также современных геополитических реалий. В период правления «Партии справедливости и развития» произошли существенные изменения во внешней политике Турции. Турция стала уделять больше внимания национальным интересам по сравнению со второй половиной XX века. В процессе трансформации современных международных отношений внешняя политика Турецкой Республики формируется под влиянием как внутренних, так и внешних факторов и приобретает чётко выраженный многовекторный характер. В данной статье проведён научный анализ направлений внешней политики Турции в современной системе международных отношений.

Ключевые слова: Турция, международные отношения, внешняя политика, внутренняя политика, мировой порядок, неоосманизм, идеология, доктрина, османы, Центральная Азия.

ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDA TURKIYA TASHQI SIYOSATINING
USTUVOR YO'NALISHLARI

Annotatsiya. XXI asr boshlarida Erdog'an boshchiligidagi "Adolat va taraqqiyot partiyasi"ning hukumatga tepasiga kelishi tufayli Turkiya davlatining madaniy, tarixiy va geografik xususiyatlarini, shuningdek, zamonaviy geosiyosiy voqelikni hisobga olgan holda mamlakat tashqi siyosati ham sezilarli darajada isloh qilindi. "Adolat va taraqqiyot partiyasi" hukmronligi davrida Turkiyaning tashqi siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Turkiya XX-asrning ikkinchi yarmiga qaraganda milliy manfaatlariga ko'proq e'tibor bera boshladi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasi jarayonida Turkiya Respublikasining tashqi siyosati ham ichki, ham tashqi omillar ta'sirida shakllanib, aniq belgilangan ko'p vektorli xususiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Turkiya tashqi siyosatining yo'nalishlari ilmiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Turkiya, xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, ichki siyosat, dunyo tartiboti, neousmonizm, mafkura, doktrina, Usmonlilar, Markaziy Osiyo.

PRIORITY DIRECTIONS OF TURKEY'S FOREIGN POLICY IN MODERN
INTERNATIONAL RELATIONS

Abstract. At the beginning of the 21st century, with the rise to power of the "Justice and Development Party" led by Erdoğan, Turkey's foreign policy underwent significant reform. This reform took into account the cultural, historical, and geographical characteristics of the Turkish state, as well as contemporary geopolitical realities. During the rule of the "Justice and Development Party," Turkey's foreign policy experienced substantial changes. Compared to the second half of the 20th century, Turkey began to place greater emphasis on national interests. In the process of transforming modern international relations, the foreign policy of the Republic of Turkey is being shaped by both internal and external factors, acquiring a clearly defined multi-vector nature. This article provides a scientific analysis of the directions of Turkey's foreign policy in the contemporary system of international relations.

Keywords: Turkey, international relations, foreign policy, domestic policy, world order, neo-Ottomanism, ideology, doctrine, Ottomans, Central Asia.

Введение. Всем нам известно, что в настоящее время на международной арене сложилась непростая ситуация, и мир переживает фундаментальные преобразования, последствия которых трудно прогнозировать и даже предвидеть. Более того, на мировой сцене остро ощущается кризис взаимного доверия и взаимопонимания. Угрозы глобальной и региональной безопасности усиливаются, и возникают новые вызовы. В связи с этим научный анализ трансформационных

процессов, происходящих в современных международных отношениях, приобретает как никогда актуальное значение.

После прихода к власти в Турции "Партии справедливости и развития" произошли значительные изменения во внешней политике Анкары. Приход этой партии к власти изменил приоритетные направления внешней политики страны и более четко обозначил национальные интересы государства. В период правления "Партии справедливости и развития" Турция проводит активную региональную внешнюю политику, осуществляя взаимодействие с соседними регионами, в том числе со странами Ближнего Востока и Центральной Азии, посредством политики "мягкой силы."

Безусловно, во внешней политике Анкары наблюдается определённая диверсификация, что означает отход Турции от позиции малого партнёра Америки в регионе и стремление к дальнейшему укреплению связей с восточными государствами.

Анализ литературы по теме. В статье проанализированы и изучены исследования авторитетных исследовательских центров, университетов, ведущих учёных Турции и России, в частности, книги, статьи и тезисы научных трудов таких зарубежных учёных, как Айдын М., Эрсанлы Б., Ирхин А., Москаленко О., Ландау Дж., Най Дж., Аватков В. А., Васильев А. Д., Дружиловский С. Б., Хуторская В. В., Мартынов В. Л., Сазонова И. Е. и других.

Методология исследования. Теоретическую и методологическую основу изучения внешней политики Турецкой Республики в трансформации современных международных отношений составляют современные методы политологии, в частности, теоретические, эмпирические и практические методы. Автор руководствовался общими научными методами - анализом и синтезом, дедукцией и индукцией. Кроме того, среди теоретических методов приоритетными являются такие методы, как системный, институциональный и сравнительный анализ. В данной статье метод системного анализа поможет изучить внешнюю политику Турции в трансформации современной системы международных отношений.

Анализ и результаты. В условиях трансформации современных международных отношений Турция проводит активную внешнюю политику на мировой арене. Разумеется, как и в любом государстве, внешняя политика Турции основывается на национальных интересах страны. Основу внешней политики составляют идеология и идеи. Наиболее эффективным, апробированным и признанным механизмом достижения поставленных целей в современной внешней политике Турецкой Республики является концепция "мягкой силы," применяемая с конца XX века. Несомненно, именно использование стратегии "мягкой силы" в XXI веке обеспечивает не только благосостояние страны, но и укрепление её безопасности, реализацию экономических интересов, улучшение внешнеполитического имиджа, а также повышение международного авторитета.

Таким образом, политическая картина мира в последнее время трансформируется своеобразным образом: в современных международных отношениях страны стремятся использовать теорию "мягкой силы" (soft power) вместо "жёсткой силы" (hard power) для продвижения своих национальных интересов. В настоящее время концепция "soft power," то есть "мягкая сила" [5], вызывает большой интерес у представителей научных кругов, занимающихся мировой политикой.

Происхождение термина "мягкая сила" (англ. "soft power") впервые встречается в древнекитайском письменном источнике Лао-цзы, а в Средние века - в трудах Антонио Грамши. В современную эпоху этот термин ввел в оборот Джозеф Най, который в ряде своих научных исследований пытался объяснить теоретические аспекты "мягкой силы." Дж. Най в своей книге так определяет понятие "soft power": "Что такое мягкая сила? "Мягкая сила" - это достижение желаемых результатов не с помощью принуждения, а, напротив, путем добровольного привлечения союзников и партнёров. Желаемого результата можно достичь, прежде всего, за счёт развития духовной и материальной культуры, повышения эффективности внешней и внутренней политики [3]."

Как известно, "жёсткая сила" (hard power) стремится установить политику на основе давления и насилия (с помощью военной силы или экономических ресурсов). В отличие от этого, эффективность "мягкой силы" (soft power) формируется путём распространения различной информации через средства массовой информации. Таким образом, и "жёсткая сила" (hard power), и "мягкая сила" (soft power) в определённом смысле имеют общую стратегию, однако тактики реализации этой стратегии для каждой из них обладают своими особенностями.

Не будет ошибкой сказать, что активное применение турецкой "мягкой силы" обрело чёткую цель после назначения Ахмета Давутоглу министром иностранных дел. Безусловно, именно Давутоглу подчеркнул важность для современной Турции развития широкого сотрудничества не только в политико-экономической, но и в культурно-гуманитарной сферах с государствами,

входившими в состав бывшей Османской империи, такими как страны Ближнего Востока, Кавказа, Балкан, Северной Африки, Саудовская Аравия, а также с братскими странами Центральной Азии. Соответственно, его взгляды и политика впоследствии нашли своё отражение в концепции внешней политики Турции.

С момента образования Турецкой Республики основу внешней политики Турции составляет внешнеполитическая доктрина, сформированная Мустафой Кемалем Ататюрком в 1923-1938 годах. На протяжении многих лет Турция в своей деятельности на международной арене широко применяла внешнюю политику, определённую Ататюрком.

Позже во внешней политике Турции произошёл ряд изменений. В частности, после прихода к власти Партии справедливости и развития основное направление внешней политики страны стало основываться на идеях дореспубликанского периода. В результате появились новые проявления таких идей, как османизм, пантюркизм и панисламизм. Однако многие специалисты, проводящие научные исследования внешней политики Турции, утверждают, что направление внешней политики Турции с момента появления республики несколько раз трансформировалось, но коренных изменений не произошло [9].

Трансформация современной системы международных отношений и изменение роли ключевых государств в мире требуют пересмотра направлений внутренней и внешней политики многих стран. Внешнеполитическая стратегия Турции также не стояла на месте, а непрерывно развивалась, и, как мы наблюдаем, сегодня Турецкая Республика продолжает оставаться одним из основных центров силы в регионе Ближнего Востока.

Ещё одной из таких идей является доктрина "Ноль проблем с соседями," предложенная бывшим министром иностранных дел и премьер-министром Турции Ахметом Давутоглу. Доктрина была принята в 2008 году и долгое время служила решающим фактором во внешнеполитической деятельности Турции [2]. Эта доктрина основывалась прежде всего на принципах мира и справедливости и отражала всю сущность турецкого идеализма. Основной идеей было проведение миролюбивой внешней политики, и это учение соответствовало главному лозунгу Ататюрка "Мир в стране, мир во всём мире." Согласно доктрине, Турция сосредоточилась на установлении взаимовыгодных экономических связей со странами Ближнего Востока. Уже тогда Турецкая Республика заявила о готовности взять на себя ответственность за обеспечение стабильности на Ближнем Востоке. Однако такие заявления Турции объяснялись стремлением к лидерскому статусу как в регионе, так и за его пределами. Ахмет Давутоглу в своей работе "Стратегическая глубина," опубликованной до разработки концепции "Ноль проблем с соседями," разделил государства на четыре типа и считал, что политика кемализма повлияла на активную позицию Турции на международной арене. По его мнению, эта политика вела страну к статусу "малого государства" в глазах мирового сообщества, что, в свою очередь, противоречило будущему республики с таким огромным потенциалом, как Турция [8]. После таких заявлений было нетрудно предсказать, в каком направлении будет действовать Турция во внешней политике. Официальное принятие доктрины "Ноль проблем с соседями" подтвердило эти предположения и стало логическим продолжением процессов трансформации во внешней политике страны.

В настоящее время внешнеполитический курс Турции значительно отклонился от этой концепции. В качестве подтверждения можно привести действия, осуществляемые руководством государства в Ираке и Сирии. По всей видимости, вместо того, чтобы тратить значительные ресурсы на разработку новых концепций, Анкара предпочитает принимать правила, сформировавшиеся на протяжении многих лет, в качестве основы своей внешнеполитической деятельности [7].

В целом, современный внешнеполитический курс Турецкой Республики сформировался, прежде всего, под влиянием глобальных геополитических изменений, связанных с переходом от биполярной системы к многополярному миропорядку, но при этом сохранил свою цивилизационную самобытность.

Страна нуждалась в сильной личности, способной вывести направление внешней политики на новый уровень, объединить различные слои населения и ещё раз представить турецкий народ на международной арене как великую, сплочённую и непобедимую нацию. В такой момент к власти пришёл сильный политик Реджеп Тайип Эрдоган. Став лидером Партии справедливости и развития (ПСР), он создал в стране систему, отвечающую вышеуказанным характеристикам. Кроме того, ПСР разработала конкретные и эффективные программы развития страны, охватывающие различные турецкие общества и объединяющие все сферы. Более того, Р.Т. Эрдоган внедрил в стране новую западную модель развития и сумел восстановить исламские ценности, что в свою очередь получило поддержку широкого круга избирателей страны [6]. В период пребывания Эрдогана на посту

премьер-министра Турции он разработал новую дорожную карту под названием "Видение - 2023," включающую в себя несколько целей и задач для развития страны. В этой программе отмечается необходимость разработки новой внешней политики, направленной на пересмотр места и роли Турции в мире, исходя из её уникального потенциала. Помимо этого, Турция поставила перед собой новые внешнеполитические цели. Эти цели и задачи должны были быть выполнены к 2023 году. Целями и принципами внешней политики Турции, сформулированными бывшим премьер-министром Турции Ахметом Давутоглу, являлись:

1. Создать все условия для вступления Турции в Европейский Союз и стать влиятельным государством-членом ЕС к 2023 году;
2. Турция продолжит региональную интеграцию в форме сотрудничества в сфере безопасности и экономики;
3. Играть важную роль в разрешении региональных конфликтов;
4. Активно участвовать на международном уровне;

Турция должна играть решающую роль на международной арене и войти в десятку крупнейших экономик мира. Для достижения этого Турция должна всесторонне развиваться во всех сферах, проявлять интерес и вносить достойный вклад в каждый вопрос, связанный с глобальной стабильностью [4].

По нашему мнению, мы наблюдаем, что Турция в определённой степени реализует свои внешнеполитические цели. В частности, вторжение России на территорию Украины 24 февраля 2022 года оказало существенное влияние на существующий миропорядок. Такие лозунги, как "специальная военная операция" и "борьба с нацизмом," со временем переросли в широкомасштабный конфликт. 31 марта 2023 года на заседании по Украине в рамках 52-й сессии Совета ООН по правам человека было сообщено, что в результате российского вторжения в Украину погибло 8400 мирных жителей [1]. Эта война привела к резкому росту цен на продовольствие, энергоресурсы, удобрения и другие необходимые товары в мире, что вызвало усиление напряженности и неравенства во всех регионах. В такой ситуации Турция приступила к усилиям по мирному урегулированию конфликта между двумя государствами. Кроме того, по инициативе Турции 22 июля 2022 года в Стамбуле были заключены соглашения по экспорту украинского зерна сроком на 120 дней с возможностью автоматического продления при отсутствии возражений сторон. Документы были подписаны ООН и Турцией отдельно с Россией и Украиной. Верховный комиссар ООН по правам человека подчеркнул важность Черноморской зерновой инициативы. Эти усилия Турции позволили обеспечить глобальную продовольственную безопасность в мире, в первую очередь, оказав помощь наиболее нуждающимся странам.

Выводы и предложения. В настоящее время Турецкая Республика остаётся верной своим идеологиям неоосманизма и неопантюркизма. С этой целью Турция развивает широкомасштабное стратегическое сотрудничество со странами Центральной Азии и тюркоязычными регионами Российской Федерации. Однако тот факт, что эти отношения не соответствуют интересам многих крупных государств, в определённой степени создаёт препятствия для взаимоотношений между Турцией и тюркскими народами. Например, в России со времён Российской империи существует и до сих пор сохраняется мнение, что "идея пантюркизма представляет угрозу для страны и способствует развитию национализма."

Действительно, во внешней политике Турции присутствует идея объединения тюркских народов. В частности, такая идея может быть реализована посредством экономической, гуманитарной политики и политики "мягкой силы." Например, развитие межгосударственных диалогов, визитов, политических, экономических и культурных связей, появление турецких культурных центров, образовательных программ и учебных центров, а также возникновение и развитие Организации тюркских государств служат доказательством нашего мнения.

Кроме того, Турция в настоящее время, опираясь на вышеупомянутые идеологии, расширяет сферу своего влияния на страны Ближнего Востока и Африканского континента. Во внешней политике Турции это отражается в концепции "евразийства," в рамках которой она развивает активное политическое и экономическое сотрудничество со странами и народами Центральной Азии, Кавказа, а также с Россией и Китаем.

Таким образом, мы считаем методологически правильным изучать внешнюю политику Турции в идеологической и ценностной сферах как в связи с глобальными тенденциями, так и в связи с изменением политического режима в стране. Соответственно, в современной трансформирующейся системе международных отношений сформировались основные методологические аспекты изучения внешнеполитического курса Турецкой Республики.

ЛИТЕРАТУРА:

1. BMT Ukrainadagi urushda qancha tinch aholi halok bo'lganini ma'lum qildi. <https://www.qalampir.uz/uz/news/bmt-ukrainadagi-urushda-k-ancha-tinch-a%D2%B3oli-%D2%B3alok-bulganini-ma-lum-k-ildi-80079>
2. Irkhin A., Moskalenko O. *Russia's Foreign Policy in the Great Mediterranean: Prospects and Constraints // Geopolitics Quarterly*. 2020. Vol. 15. № 4. P. 116.
3. Nye J. *Soft Power. The Means to Success in World Politics*. - New York: Public Affairs, 2004. – P.192.
4. *Turkey's Strategic Vision 2023 Project [Электронный ресурс] // АК Parti*. URL: <https://www.ak-parti.org.tr/parti/2023-siyasi-vizyon/>
5. Yumshoq kuch (ingliz tilida “Soft power” odatda “yumshoq kuch” deb tarjima qilinadi, mazkur atama muallifi Jozef Nay hisoblanadi. Olim tomonidan ilk marta “yumshoq hokimiyat” (мягкая сила) degan qarashni ilgari suradi) <https://books.google.com/books?id=wuqOAAAAMAAJ>
6. Мартынов В. Л., Сазонова И. Е. *Турция между Западом и Востоком [Электронный ресурс] // Василий Львович Мартынов*. URL: http://lwowich.ucoz.ru/statja_pro_turcija.pdf
7. Михеева Н.М. *Внешиполитическая идеология Турции: текущие тенденции и перспективы развития // Турция: новые реалии во внутренней политике и участие в региональных геополитических процессах*. Под. ред. В.А. Аваткова, С.Б. Дружиловского, А.В. Федорченко. М.: МГИМО-Университет, 2014. С. 99.
8. *Ноль проблем с соседями. Как Турция превратилась из «совести Ближнего Востока» в страну-отшельницу [Электронный ресурс] // Международный дискуссионный клуб «Валдай»*. Режим доступа: <http://ru.valdaiclub.com/a/highlights/nol-problem-s-sosedyami-turtsiya/>
9. Шлыков П. *Политика и экономика «турецкого потока»: интересы расчёты Анкары // Европейская безопасность: события, оценки, прогнозы*. 2015. № 37. С. 2–5.

ЭКОЛОГИК БАРҚАРОРЛИК

Ходжаева Азиза Бахтияровна,

*Тошкент давлат юридик институти докторанти
azihodje@gmail.com*

Аннотация. Маълумки, экологик барқарорлик масаласи, иқлим ўзгариши бугунги техника ривожланган асрда долзарб масалалар қаторига кўтарилди. Ушбу муаммонинг ортидан инсоният ҳаёти учун хавфли бўлган яна бир қатор муаммолар юзага келмоқда. Ушбу мақолада ана шу муаммолар, уларнинг сабаб ва оқибатлари, кўрилиши лозим бўлган чоралар тўғрисида сўз юритилган.

Калит сўзлар: экология, иқлим, глобаллашув, техника, тараққиёт, барқарорлик, табиат, сув, экологик мувозанат, фан ва техника ютуқлари, иқтисодий танглик, экологик хавфсизлик.

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ

Аннотация. Известно, что вопросы экологической стабильности, изменения климата поднялись в ранг актуальных проблем в современный технологически развитый век. За этой проблемой следует ряд других проблем, опасных для жизни человека. В данной статье рассказывается об этих проблемах, их причинах и последствиях, а также мерах, которые следует предпринять.

Ключевые слова: экология, климат, глобализация, технологии, развитие, стабильность, природа, вода, экологический баланс, научно-технические достижения, экономический стресс, экологическая безопасность.

ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY

Abstract. It is known that the issues of environmental stability and climate change have risen to the rank of urgent problems in the modern technologically advanced age. This problem is followed by a number of other problems that are dangerous to human life. This article describes these problems, their causes and consequences, as well as the measures that should be taken.

Keywords: ecology, climate, globalization, technology, development, stability, nature, water, ecological balance, scientific and technical achievements, economic stress, environmental safety.

Кириш. Президентимиз Ўзбекистон халқини мустақилликнинг 33 йиллиги билан табриклаган нутқида Янги Ўзбекистонни барпо этишда асосий эътибор қаратилиши лозим бўлган бешта устувор йўналишни санаб ўтар экан, бешинчи йўналиш сифатида бежизга экологик барқарорликни таъминлаш масаласини эътироф этиб ўтмади. Дарҳақиқат, бугунги кунда бутун сайёрада экологик муҳит бузилиши билан боғлиқ муаммо бирламчи масалалар қаторига кўтарилди. Бугунги глобаллашув даври эса бу муаммонинг долзарблигини янада оширди. Аслида, бу бугун пайдо бўлган масала эмас. Унинг азали инсоният ўтмишига бориб тақалади. Даставвал табиатнинг тайёр неъматларини ўзлаштириш орқали кун кўрган одам ўз ривожланиш ва такомиллашиш босқичида, эволюцион тарзда табиатга таъсир кўрсатиб, уни ўзлаштиришга киришди. Фан-техника тараққиёти, инсониятнинг ишлаб-чиқариш ва эҳтиёжни қондириш борасидаги янгидан-янги кашфиётлари бу жараёнларни янада тезлаштириб юборди. Экологик ўзгариш юзага кела бошлангани ва уни муаммо сифатида кўриш эса охириги асримизда бошланди, холос.

Тадқиқот методологияси. Экологик барқарорликни таъминлаш фақат мамлакат ичидагина амалга ошириладиган вазифа бўлмай қолди. Муаммо чегараларни хатлаб ўта бошлади ва умуминсоний масала даражасига кўтарилди. Мамлакатлар ўртасида иқтисодий, ижтимоий, сиёсий алоқалар билан бирга алоҳида экологик сиёсий муносабатлар юзага кела бошлади. Экологик мувозанатни таъминлаш билан боғлиқ ҳуқуқий нормалар нафақат ҳудудий, балки халқаро аҳамият ҳам касб эта бошлади. Маълум бир тарихий жараён ва муайян бир ижтимоий маконда халқаро экологик сиёсий муносабатларни мувофиқлаштирувчи ва глобал экологик муаммоларнинг олдини олишга қаратилган халқаро экологик ҳуқуқ нормалари ишлаб чиқиладиган бўлади. Бу нормаларнинг ҳаётийлигини таъминлаш эса ижтимоий-сиёсий барқарорликнинг муҳим шарти бўлиб бормоқда.

Келинг, дунё миқёсидаги айрим факт ва рақамларга тўхталамиз. Инсоннинг табиатни ўзлаштириши ёки бошқа воситалар ёрдамида зарар етказиши туфайли сайёрамизнинг ўпкаси ҳисобланмиш ўрмонларнинг 32 миллион гектари қисқариб кетди.

БМТнинг Атроф-муҳит дастури маълумотларига суянадиган бўлсак, сайёрамиздаги қуруқликларнинг тўртдан уч қисми, сувликларнинг эса учдан икки қисмида инсон омили воситасида экологик муҳит ўзгарган. Олимларнинг ўрганишича, уммонларнинг шўрланиш даражаси ортиб бормоқда. Охирги 150 йил мобайнидаги глобал иссиқ музликларга кескин таъсир кўрсатмоқда ва уларнинг эришини тезлаштирмоқда. Бу эса сув ҳавзаси бўйида аҳоли яшайдиган маконларнинг сув остида қолиши эҳтимолини янада кучайтиряпти.

Муҳокама ва натижалар. Кўплаб ривожланган давлатлар ўз халқ хўжалиги доирасида табиатга нисбатан индустриал босимни кучайтирмоқда. Бу босим фақат маҳаллий ёки миллий доирада қолаётгани йўқ. Улар ҳатто минтақавий чегараларни ҳам босиб ўтиб, умумсайёравий экологик мувозанатнинг бузилишига сабаб бўлмоқдалар ва бу экологик барқарорликни таъминлаш билан боғлиқ глобал муаммоларни келтириб чиқармоқда. Саноат корхоналарининг чиқиндилари сув ҳавзаларини ифлослантириши эвазига кўплаб сув жонзотларининг қирилиб кетиши содир бўлмоқда. Ёввойи ҳайвонот дунёси ҳам бугун мана шу хавф лстонасида турибди: мутахассислар яқин ўн йилларда уларнинг турлари чорак қисмга камайиши мумкинлигини башорат қилмоқдалар.

Бу каби муаммоларни бартараф қилишда эса энди алоҳида мамлакатларнинг имконияти ҳам, кучи ҳам етмайди. Негаки, она ер ва унинг табиати, ҳавоси бутун сайёрада ягона тизимни ташкил қилади. Демак, экологик барқарорликни сақлаш борасидаги алоҳида ҳудудлардаги ва халқаро миқёсдаги ишлар диалектик характер касб этади. Ҳар хусусийдаги ўзгаришлар умумийга ўз таъсирини кўрсатиши билан бирга, умумийдаги яхлит жараёнлар хусусийнинг ҳам характерини ўзгартириб юбориши мумкин. Экологик таркиб ёки тизимнинг бир қисмидаги салбий ўзгариш бошқа бир қисмига ҳам албатта салбий таъсир кўрсатади. Айтайлик, сув таркибининг ўзгариши сувдаги жонзот ва ўсимликлар оламига таъсир кўрсатади, Тупроқ таркибининг ўзгариши – ўсимликлар, экинлар, умуман олганда биологик тизимни ўзгартиради. Биологик таркибнинг ўзгариши эса ўз-ўзидан у билан озикланувчиларга ҳам ўз таъсирини ўтказмай қўймайди. Ёки қардадир дарахт ва буталарнинг камайиши қушларнинг миграциясига сабаб бўлгани ҳолда, бу ерда ана шу қушлар туфайли сақланиб турган қайсидир мувозанат бузилади. Эҳтимол ўсимликларга қирон келтирадиган ҳашаротларнинг қайсидир тури, масалан чигиртка кўпайиб кетиши мумкин. Экологик таркибда мана шундай занжирли боғланиш мавжуд. Масалан, музликларнинг эрий бошлагани нафақат иқлим ўзгаришига сабаб бўлади, нафақат сув ҳавзалари яқинидаги аҳоли пунктлари сув остида қолиш хавфини солади, балки кўзда тутилмаган бошқа салбий оқибатлар ҳам келиб чиқиши мумкин. Яқинда олимларимиз эрий бошлаган музликларда ўлмай, музлаган ҳолда сақланиб келган 17 мингта вирусни аниқлашди. Уларнинг айримлари 41 минг йиллик тарихга эга экан. Демак, битта экологик муаммо ҳамиша ўз ортидан иккинчисини, иккинчиси эса учинчисини етаклаб юради.

Азон қатламининг емирилиши, атмосфера ҳавоси таркиби ифлосланиши бевосита инсоният иштироки, фан ютуқларининг бир тарафлама қаралиши оқибатидаги натижаларидир. Биологик хилма-хилликнинг камайиши ҳам табиий мувозанатга путур етказиши, тупроқ деградацияси эса бунга омил бўладиган глобал ташвишлардан биридир. Бугунги кунда табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва бизни ўраб турган табиий муҳитни асраб қолиш ҳаёт-мамонт масаласига айланаётганлиги аксиоматик вазифага айланмоқда. [2]

Яна рақамларга мурожаат қиламиз: халқаро ташкилотлар келтирган маълумотларга асосан, жаҳон қишлоқ хўжалиги айланмасидан йилига унумдор бўлган 7 миллион гектар ер тортиб олинмоқда, ҳавонинг ифлосланиши таъсиридан эса 7 миллион киши вафот этмоқда, 2030 йилларга қадар, дунё аҳолисининг эллик фоиздан ошиғи сифатли ичимлик суви таъминотидан маҳрум бўлиши башорат қилинган.

Бундан келиб чиқадики, бугунги умумжаҳон кун тартибда миллийлик қобигидан чиқиб, глобал экологик барқарорликни таъминлаш учун барча давлатларнинг ҳамкорликдаги ҳаракати бирламчи ўринлардан бирига чиққан.

Гап шундаки, инсоният умумий табиий ҳаёт кечириш муҳитининг экологик барқарор бўлмаслиги яшовчанлик даражасини пасайтиради. Бу барқарорлик жуда ҳам нозик бўлиб, ҳар бир таъсирни сезувчандир. Шу боис, муайян мамлакатларга тегишли муайян ҳудудда арзимас кўринган ва табиатга кичик таъсир кўрсатадиган, “соф миллий” ҳисобланган хўжалик фаолияти минтақавий, ёки ҳатто умумсайёравий аҳамиятга эга бўлган глобал муаммоларни келтириб чиқариши мумкин.

Бу эса, бир қанча давлатларга тегишли бўлган табиий воситадан фойдаланишда мазкур давлатларнинг экологик суверинитетлиги дахлсизлигини ҳисобга олган ҳолда, ўзаро келишилган

халқаро даражадаги экологик ҳуқуқ нормалари, шунингдек, биосферанинг табиий мувозанатини сақлашга оид талаблардан келиб чиқиб, тегишли қарорлар қабул қилишни тақозо қилади. Маълумки, мамлакатлар ўртасидаги бўлинишлар, суверинитетлик экологик суверинитетликни ҳам талаб қилади. XX аср охирида қарама-қарши сиёсий тизимлар парокандаликка учраб, бир қанча мустақил давлатлар вужудга келди, жаҳон сиёсий харитасида ўзгаришлар пайдо бўлди. Бу ўз навбатида экологик барқарорлик масаласида ҳам миллий, ҳам халқаро талаблар асосида глобал ҳамкорликни йўлга қўйиш заруратини келтириб чиқарди. Бундай ҳамкорликларни ташкил этишда экологик муҳофаза соҳасида фаолият юритадиган бир қанча халқаро даражадаги жамоат ташкилотлари, хусусан, “БМТнинг табиатни қўриқлаш Дастури” – (ЮНЕП); “Табиат ва табиий ресурсларни қўриқлаш халқаро иттифоқи” – (ТҚХИ–МСОП); “Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти” – (ЖССТ); “БМТнинг Европа иқтисодий комиссияси” – (ЕИҚ–ЕЭК); “БМТнинг таълим, фан ва маданият бўйича ташкилоти” – (ЮНЕСКО); “Атом энергияси бўйича Халқаро агентлик” – (МАГАТЭ); “Халқаро денгиз ташкилоти” – (ХДТ–ИМО); “Парламентлараро иттифоқ” ва шу каби ташкилотлар муҳим роль ўйнайди.

Президентимизнинг “Янги Ўзбекистон стратегияси” китобидаги Ўзбекистон ва умумбашарий муаммоларга қаратилган муаммолар бобида ҳам глобал муаммолар қатори “иқлим ўзгаришлари, экологик бўҳронлар, Орол ва она табиатни асраш зарурати” масаласига алоҳида тўхталинган. “Ҳамкорликда изланиш ва ўзаро манфаатли қарорлар қабул қилиш – тинчлик, барқарорлик ва тараққиётни таъминлаш сингари эзгу мақсадларимизга эришиш имконини беради”, деб таъкидлайди Президент ушбу китобда [1,376].

Глобал экологик барқарорликни таъминлашни фақатгина илм, техника ва технологиялар билан боғлиқ муаммо сифатида кўриш нотўғри. Бу муаммо бугунги кунда ҳам ижтимоий-иқтисодий, ҳам сиёсий-ҳуқуқий, ҳам маънавий характер касб этишини англаб олиш лозим.

Эътироф этиш лозимки, бугун халқаро экологик ҳуқуқий назоратни амалга оширувчи институтларнинг нигоҳи барча давлатларда ҳам экологик барқарорликка путур етказиши мумкин бўлган индустрияларини, айниқса қурол ишлаб чиқариш саноатини қамраб ололмапти. Бундай саноатлар ҳатто жамоатчиликнинг эътиборидан ташқарида ривожланиб бормоқда. Бу эса экологик барқарорлик билан боғлиқ муаммоларни янада кескинлаштирмоқда.

Турли оммавий қирғин қуроллари яратилишининг ўзи инсоният учун ҳам, сайёрамиз ва унинг экологияси учун ҳам жуда катта хавф ҳисобланади. Бу каби қирғин қуролларининг яратилиш жараёни ҳам, синовлари ҳам ҳали қўлланилмай туриб ўз зарарини кўрсатади. Унинг қўлланилиши эса барқарор тараққиётни ва экологик мувозанатни издан чиқариб юборади.

Шу ўринда, БМТнинг табиий атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича Махсус қўмитасининг маърузасида келтирилган рақамларга эътиборни қаратиш зарур. Маърузада таъкидланишича, оммавий қирғин қуролларининг синовдан ўтказилиш жараёнида “10 минг тонна тротил эквиваленти кувватига тенг бўлган битта ядро зарядини портлатиш 400 дан 1300 гектаргача майдонда ўсимликларнинг тўлиқ ёки катта миқёсда йўқотилишига олиб келади. Бир минг тонна тротил эквивалентига тенг нейтрон бомбасининг 200 метр баландликда портлаши эса – 40 гектар ердаги микроорганизмларни, 100 гектардаги ҳашоратларни, 330 гектардаги ўсимликларни, 250 гектардаги сув ва қуруқликда яшовчи жониворларни ҳамда судралиб юривчиларни, 490 гектар майдондаги кўплаб сут эмизувчилар ва қўшларни йўқотиб юбориши кўрсатилган”.[3]

Умуман олганда, ҳар қандай уруш, у қандай мақсадни кўзда тутган, қандай кўламни қамраб олган ва қандай усуллардан фойдаланган бўлмасин, табиат таркиби мувозанатини издан чиқарувчи, унинг фауна ва флорасига салбий етказувчи, экологик барқарор тараққиётнинг асосий қушандаларидан бири бўлиб қолаверади. Уруш қанчалик юксак технология ва фан ютуқларига асосланган бўлса, унинг вайронаганлик оқибатлари шунчалик катта бўлади.

Биз юқорида келтирган мисолларимиз, мамлакатларнинг экологик суверинитетлиги глобал экологик барқарор тараққиёт билан бевосита алоқадорлигини намоён этади. БМТ Бош Ассамблеясининг 1981 йилдаги XXXVI сессиясида қабул қилинган “Ер табиатини ҳозирги ва келажак авлодлар учун сақлашда давлатларнинг тарихий жавобгарлиги ҳақида”ги резолюциясида, шунингдек, БМТ Бош Ассамблеясининг 1982 йилги XXXVII сессиясида эълон қилинган “Бутунжаҳон табиат хартияси”да ҳам айнан ана шу фикрлар эътироф этилган.[6]

Мамлакатларнинг экологик суверинитетлиги глобал экологик барқарор тараққиёт билан бевосита алоқадорлигини намоён этади. БМТ Бош Ассамблеясининг 1981 йилдаги XXXVI сессиясида қабул қилинган “Ер табиатини ҳозирги ва келажак авлодлар учун сақлашда давлатларнинг тарихий жавобгарлиги ҳақида”ги резолюциясида, шунингдек, БМТ Бош

Ассамблеясининг 1982 йилги XXXVII сессиясида эълон қилинган “Бутунжаҳон табиат хартияси”да ҳам айнан ана шу фикрлар эътироф этилган.[3.24-27]

Охирги маълумотларга асосан қарайдиган бўлсак, “дунёнинг 145 та мамлакатидан 270 дан ортиқ дарё бўйи худудлари мавжуд бўлиб, уларда сайёрамиз аҳолисининг қарийб 40 фоизи истиқомат қилади; дунёдаги чучук сувнинг 60 фоизи шу дарёлардан олинади”[6]. Дунёнинг аксарият давлатлари каби Марказий Осиё мамлакатлари ҳам Амударё ва Сирдарё трансчегаравий дарёларининг сув ресурсларидан адолатли ва оқилона фойдаланилмаганлиги оқибатида аҳолининг турмуш тарзи ва фаровонлиги учун муҳим аҳамиятга эга бўлган сув тақчиллиги муаммосига дуч келмоқда.

Хулосалар. Мухтасар қилганда, биринчидан, бир нечта давлатларга тегишли бўлган ёки ўзаро худудидаги табиий ресурслардан, бойликлардан фойдаланишда экологик барқарор таракқиётга таъсир кўрсатувчи салбий омилларни бартараф этишда давлатлааро самарали ҳамкорлик йўлга қўйилиши;

иккинчидан, глобал экологик макон ягоналигини эътироф этган ҳолда, давлатларнинг экологик суверинитети таъминланиши;

учинчидан, XX аср охири ва XXI аср бошларида дунё экологик барқарорлигида бошланган йирик таназзулни эътиборга олиб, табиий ресурслардан бесамар фойдаланиш, экологик жиноятларни содир этилишига қарши кескин чоралар белгиланиши;

тўртинчидан, нафақат фуқароларнинг табиатни муҳофаза қилиш бурчини белгилаш, балки экологик муҳофаза борасида уларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш, қулай табиий муҳитда яшаш шароитларини яратишга қаратилган ҳуқуқий асосларнинг мустаҳкамлигини таъминлаш;

бешинчидан, аҳолининг экологик маданиятини оширишга қаратилган чора-тадбирлар комплексида аждодлар мероси ва кадриятларига суянишнинг илмий асосларини яратиш;

олдинчидан, экологик-ҳуқуқий тарбиялашнинг тизимли амалга оширилишини таъминлаш ва шу каби қатор вазифалар, президентимиз таъкидлаганидай, асосий йўналишдаги вазифалар сирасига кириб, тизимли тарзда амалга оширилиши йўлга қўйилиши лозим.

АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2021. – Б.376.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Экологик хавфсизлик тўғрисидаги умумий техник регламентни тасдиқлаш ҳақида” қарори. <https://lex.uz/>
3. Александров В., Мусеев Н. Ядерный конфликт – глазами климатологов и математиков. // *Знание – сила.* – 1992 - № 2.
4. Peter Rallero. *Dinah Zike.Ecology,USA,Glencoe.2005.*
5. Тўхтаев А. *Экология.* – Т.: Ўқитувчи, 1998.
6. Сафаров Б. “Авесто” меросида экологик маданият. *Alfraganus халқаро журнали.* – 65 б.

ЎЗБЕКИСТОНДА ПАРТИЯЛАРАРО КУРАШ ИНСТИТУТИ РИВОЖИГА ДОИР
АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Якубов Бахтиёр Султонназирович,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
Сиёсий фанлар кафедраси доценти в.б.
b.s.yakubov@mail.ru

Аннотация. Партиялараро курашлар мавзуси кейинги йилларда сиёсатишуносликда мутахассислар эътиборида бўлаётган мавзулардан бирига айланди. Сабаби, партиялараро курашларнинг характери жамиятда кечаётган сиёсий жараёнларнинг демократиклик даражасини кўрсатувчи асосий омиллардан бири сифатида қаралаётганлигидир. Мақолада партиялараро кураш шакллари, функциялари очиб берилиши билан бир қаторда ушбу институтнинг Ўзбекистонда шаклланиши ва ривожланиб боришидаги хусусиятлар таҳлил қилинади.

Калим сўзлар: партиялараро кураш, партиялараро кураш генезиси, партиялараро кураш шакллари, партиялараро кураш функциялари.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О РАЗВИТИИ ИНСТИТУТА МЕЖПАРТИЙНОЙ
БОРЬБЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Тема межпартийной борьбы стала одной из тем, привлекавших внимание специалистов в области политологии в последующие годы. Причина в том, что характер межпартийной борьбы рассматривается как один из основных факторов, свидетельствующих о степени демократизации политических процессов, происходящих в обществе. Помимо раскрытия форм, функций межпартийной борьбы, в статье анализируются особенности становления и развития этого института в Узбекистане.

Ключевые слова: межпартийная борьба, генезис межпартийной борьбы, формы межпартийной борьбы, функции межпартийной борьбы.

SOME CONSIDERATIONS ON THE DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE OF INTER-
PARTY STRUGGLE IN UZBEKISTAN

Abstract. The topic of inter-party struggle became one of the topics that attracted the attention of specialists in the field of political science in subsequent years. The reason is that the nature of the inter-party struggle is considered as one of the main factors indicating the degree of democratization of political processes taking place in society. In addition to revealing the forms and functions of the inter-party struggle, the article analyzes the features of the formation and development of this institution in Uzbekistan.

Keywords: interparty struggle, genesis of interparty struggle, forms of interparty struggle, functions of interparty struggle.

Қириш. 2024 йил октябрида бўлиб ўтадиган парламент ва маҳаллий кенгашларга сайловлар илк бора аралаш сайлов тизими асосида бўлиб ўтаётганлиги сайлов тизимига, партия қурилишига оид масалаларга, шу жумладан, партиялараро кураш (рақобат) масалаларига экспертлар ва мутахассислар томонидан қизиқишни кучайтириб юборди.

Бу бежиз эмас, албатта. Партиялараро рақобат сайлов тизими, сиёсий мобилизация шакллари билан бевосита боғлиқ тушунча ҳисобланади ва сайлов жараёнларида айниқса яққолроқ кўзга ташланади.

Албатта, масалага қизиқишнинг кучайиб бораётганлиги унинг мазмунини янада чуқурроқ таҳлил қилишни талаб қилади.

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар. Муаммога дастлабки ёндашувнинг ўзидаёқ масалага қизиқиш тарихан анча эрта пайдо бўлганлигини кўрсатади. Партияларга оид илк маълумотларни қолдирган антик давр алломалари асарларидадаёқ ушбу рақобат тури ўзига хос тарзда эътибор марказида бўлганлигини кўрсатади.

Арасту ўзининг “Афина политияси” асарида Солон ҳукмронлигидан кейин ҳокимиятга интилган гуруҳлар ўртасидаги курашни таърифлаб, шундай дейди: “Бундай партиялар учта эди: бири

Мегакл етакчилигидаги паралийлар партияси бўлиб, улар ўртача бошқарув тарафдорлари эдилар; иккинчиси Ликург тепасида турган педиақларга тегишли бўлиб, улар олигархияга интилишар эди; учинчиси Писистрат етакчилигидаги диақрийлар партияси бўлиб, улар демократия тарафдори сифатида кўринардилар” [8]. Эрамиздан олдинги VI асрга оид ушбу воқеаларни ёритган мазкур лавҳадан партиялараро кураш тўғрисидаги илк маълумотлар бундан қарийб икки ярим минг йил олдинги даврга бориб тарқалишини кўрсатади.

Албатта, у даврдаги партиялараро кураш ушбу тушунчага ҳозирда бериладиган маъно-мазмундан анча узоқ бўлган. Лекин ушбу лавҳа айнан турли сиёсий уюшмаларга бирлашган гуруҳларнинг ҳокимият учун ўзаро рақобатга киришиши сиёсий тарихдан яхши маълумлигини яққол кўрсатади.

Қадимги давр, ўрта асрлар ва янги даврга оид кўпгина манбаларда бундай ўзаро партиявий курашлар давом қилиб, такомиллашиб борганлигини кўриш мумкин [9].

Кейинчалик илк парлментларнинг вужудга келиши, сайлов тизимининг такомиллашиб бориши билан партиялараро кураш ҳам ўзгача сифат даражасига чиқиб, янги мазмун кашф этиб, ҳозирги шаклига яқинлаша борган.

Бугунги кунга келиб партиялараро кураш демократик ривожланиш тизимида алоҳида ўринга эга бўлган муҳим институтлардан бири сифатида қаралмоқда.

Хусусан, бир қатор сиёсатшуносларнинг фикрича айнан партиялараро кураш характери жамиятда кечаётган сиёсий жараёнларнинг демократиклик даражасини кўрсатувчи индикаторлардан бири саналади. Бунга қўшимча қилиб айтиш мумкинки, партиялараро кураш (рақобат) нафақат юқоридаги жараёнларнинг даражасини кўрсатади, балки сиёсий жараёнларнинг сифати ошиб боришига ҳам бевосита таъсир кўрсатади. Яъни, унинг йўқлиги ёки паст даражада қолиб кетиши тўғридан-тўғри жамиятнинг демократик йўлдан ривожланиш борасидаги ҳаракатларига салбий таъсирини кўрсатади.

Шу ўринда савол туғилади. Нимага унга демократик давлатларда бу қадар катта ўрин берилади, Партиялараро кураш қандай вазифаларни бажаради ўзи?

Узоқ тарихий ривожланиш йўлини босиб ўтган ва бугунги кунда демократик ривожланиш тизимида муҳим ўринлардан бирини эгалловчи партиялараро рақобат институти бир қатор муҳим функцияларни бажариши билан ажралиб туради.

Энг асосий функцияларидан бири сиёсий партияларнинг асосий мақсади бўлмиш ҳокимият учун кураш билан боғлиқ. Партиялараро кураш институти сиёсий партияларнинг мана шу ҳаракатини институционал ва ҳуқуқий-норматив жихатдан тартибга солиб туради. Яъни, партияларнинг ушбу ҳаракати ва ўзаро кураши мамлакатда белгилаб қўйилган тегишли конунчилик талаблари доирасида амалга оширилишини қатъий белгилаб беради [2].

Жамиятдаги турли манфаатлар агрегациясини амалга ошириш ва артикуляциясини таъминлашдек йўналиш ҳам партиялараро курашнинг муҳим функцияларидан бири ҳисобланади.

Ушбу кураш жараёнида айниқса яққол кўринадиган сиёсий партиялар, уларнинг ғоявий-сиёсий қарашлари ва йўналишларидаги муқобил ёндашувлар орқали жамиятда мавжуд барча ижтимоий манфаатлар ўзининг бутун ранг-баранглигини намоён этади.

Натижада, партиялараро курашда ўз дастурларида жамият ва давлат учун энг мақбул дастурни илгари сура олган, уни аҳоли учун қизиқарли ва ўзига торта оладиган шиорлар орқали ифодалай олган, ижтимоий коммуникация каналларини аҳоли эътиборини тортадиган маълумотлар билан тўлдира олган партия ғалаба қозонади. Айнан партиялараро кураш аҳолига тўғри танловни амалга ошириш имконини яратади.

Партиявий кураш ўз навбатида жамоатчилик фикрини шакллантиришга, аҳолининг сиёсий билимлари ошишига, сиёсий социализация даражаси кўтарилишига асос яратади. Демак, шулар орқали жамиятда сиёсий ҳаётнинг фаоллашувига ҳам хизмат қилади.

Ўзаро партиявий кураш жараёнида янги сиёсий етакчилар, жамоатчилик фикри лидерлари ҳам етишиб чиқади.

Энг муҳими, партиялараро рақобат фикрлар кураши орқали ҳокимиятнинг, унинг тепасида турувчи сиёсий партияларнинг алмашилиб туришини таъминлайди, шу орқали жамиятда барқарорликни таъминлаб, сиёсий тизим ривожидида ижобий динамика шаклланиши учун асос яратади.

Бир вақтнинг ўзида партиялараро кураш жамиятда юзага келиши мумкин бўлган қарама – қаршилиқлар ва конфликт вазиятларга ўз вақтида таъсир ўтказиб, уларнинг муҳокамаси ва ҳал қилинишини институционал доирага кўчириш орқали уларнинг олдини оладиган самарали восита ҳамдир [7].

Шу туйфаи хам ривожланган демократияларда партияларо кураш юзага келиши мумкин бўлган сиёсий келишмовчиликларни ҳал қилишга қодир институционал воситалардан бири сифатида қаралади.

Лекин партияларо рақобат демократик тараққиёт даражасини кўрсатиши унинг барча жамиятларда ҳам бир ҳил тарзда кечишини назарда тутмайди.

Унинг қандай шакл ва мазмунда кечишига кўплаб омиллар, хусусан, мавжуд сиёсий бошқарув тизими хусусиятлари, сайлов ва партиявий тизим хусусиятлари, қонунчилик, жамиятнинг тарихий ривожланиш хусусиятлари ва менталитет, сиёсий маданият даражаси ва бошқалар таъсир кўрсатади [12].

Партияларо рақобатнинг асосий шаклларида бири бу электорал кураш бўлиб, унинг ҳал қилувчи палласи сайлов кампанияси ва овоз беришда ўз аксини топади. Сайлов натижаларига кўра партияларо рақобатнинг кейинги босқичи парламент даражасида, турли блокларга бирлашиш, парламент кўпчилиги ва муҳолифат ўртасидаги кураш шаклида давом этади.

Бунда партияларо курашнинг мазмунини аввало ғоялар, дастурлар кураши, партия ташкилий тузилмаларининг электоратни йўналтира олиш, аҳоли учун долзарб кун тартибини илгари сура олиш, жамоатчилик манфаатларини ифодалай олиш, партия дастурини амалга оширишга қаратилган парламент фаолиятини, зарур бўлса муҳолифатда туриб ишни йўлга қўя олиш, партиянинг умумий стратегиясини ишлаб чиқиш каби йўналишлар ташкил қилади.

Ўзбекистонда партияларо рақобат муҳитининг шаклланиши ва динамикаси ушбу жараёнлар бизнинг мамлакатимизда ҳам дунё амалиётига ҳос умумий жиҳатлар билан бирга бир қатор ўзимизга ҳос жиҳатларни қамраб олган даражада ривожланиб бораётганилигини кўрсатади. Қуйида шу жиҳатларга тўхталиб ўтамыз.

Ўзбекистонда ҳам ўтган асрнинг 90-йилларида мустақил ривожланиш йўлига ўтилиши, сиёсий бошқарувда айнан кўппартиявийлик тизими асосларининг жорий қилиниши билан партияларо рақобатнинг дастлабки элементлари кўзга ташлана бошлади. Мамлакатда кўппартиявийлик тизимни ривожлантишини кўзда тутган ҳолда қонунчиликка киритиб борилган ўзгаришлар ушбу рақобатнинг янада янги сифат даражасига чиқиб боришини таъминлади.

Натижада 1994 йилда бўлиб ўтган парламент сайловлари Ўзбекистонда илк бор кўппартиявийлик асосида, демакки партияларо рақобат руҳида бўлиб ўтди. Жамиятда яккапартиявийликка асосланган ижтимоий-сиёсий тизимдан реал кўппартиявийликка, мафкуравий фундаментализмдан партияларо рақобатга асосланган сиёсий ва ижтимоий плюрализмга конституциявий-ҳуқуқий ўтиш амалга оширилди. Бу жараён кейинги сайловларда янада ривожланиб борди.

2004 йилда илк бор янгича – профессионал асосда ишлови парламентга сайловлар бўлиб ўтди, парламентда биринчи марта сиёсий партиялар фракциялари фаолият юрита бошлади. Уларнинг орасидаги муносабатлар, шу жумладан, улар ўртасида бўладиган партияларо кураш доиралари қонунчиликка киритилган тегишли ўзгаришлар билан аниқ белгилаб қўйилди [6].

1994 йилда сайловларда кўзга кўрина бошлаган партияларо кураш эндиликда парламентга кўчди. Айниқса, 2005 йилда ЎзЛиДеП, “Фидокорлар” МДП ва “Адолат” СДП фракцияларининг Қонунчилик палатасида Демократик блокга бирлашиши ва шу орқали парламент кўпчилиги эришиши, ўз навбатида ХДП фракциясининг ўзини парламент муҳолифати сифатида эълон қилиши улар ўртасидаги партияларо рақобат бошланганлигини кўрсатди.

Шунга қарамадан бу жараёнларни Ўзбекистонда партияларо курашнинг ҳали дастлабки даражаси сифатида баҳолаш мумкин. Чунки сайлов жараёнларида ҳам парламент фаолиятида ҳам партияларо курашларнинг айрим элементларидан фойдаланиш билан чекланиш, дунё амалиётидаги кўплаб усулларни қўллашдан тийилиб туриш кўзга ташланар эди(масалан, сайловларда очик дебатлардан, ёки ижтимоий тармоқ имкониятларидан фойдаланиш амалиёти кузатилмаган, бирор партиянинг ижтимоий тармоқларда аккаунтлари, профиллари мавжуд бўлмаган).

2016-2017 йиллардан бошлаб Ўзбекистонда партияларо кураш жараёнларида мутлақо янги босқич бошланганлигини кўрсатиш мумкин.

Бунга асосий сабаблардан бири мамлакат сиёсий раҳбариятининг ўзи томонидан партияларо рақобатнинг демократик ривожланишдаги, қолаверса жамиятда парламент ролини кучайтиришдаги муҳим ўрнига алоҳида эътибор қаратилганлиги ҳам бўлдики, мазкур ҳолат ушбу жараёнларнинг жамият сиёсий ҳаёти учун аҳамиятини, миқёсини кўрсатиб берди дейиш мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёев ўзининг илк Олий Мажлисга Мурожаатномасидаёқ “Партияларо рақобатни таъминлаш, барча сиёсий субъектлар учун тенг

шароитлар яратиш парламент ролини кучайтиришнинг муҳим шarti ҳисобланади”,- деб таъкидлаб ўтганлиги бунинг ёркин мисоли бўла олади [1].

Натижада, 2016 йилда бўлиб ўтган Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловларидаёқ бу борадаги ўзгаришлар кўзга ташлана бошлади. Ушбу сайловларда илк бор сиёсий партиялар томонидан тарғибот ва ўзаро курашларда ижтимоий тармоқлардан фойланилди, ваҳоланки, бунгача бирорта партия ижтимоий тармоқларда ўз akkaунтлари ёки профилларига эга бўлмаган эди. Аҳолининг катта, қолаверса фаол қисми ижтимоий тармоқлардан кенг фойдаланишини ҳисобга олсак, партияларнинг ушбу йўналишда ишларнинг йўлга қўйиши улар томонидан ўз ғояларини тарғиб қилиш учун ҳам, бошқа партиялар билан ўзаро курашга киришиш учун ҳам жуда катта имкониятларни очиб берди. Жуда тезликда ҳар бир партия ижтимоий тармоқлар орқали ўн минглаб ўз кузатувчиларига эга бўлиб олгани шундан далолат беради.

2019 йилги парламент сайловларида мавжуд воситалар қаторига биринчи марта амалга ошира бошланган партиялараро дебатлар қўшилдики, эндиликда партиялараро кураш эфир орқали тўғридан-тўғри узатила бошлади. Буларнинг барчаси сиёсий партиялар ўртасидаги курашлар олдинги формал шакллардан эндиликда тобора реал асосларга қўча бошлаганлигини кўрсатди.

2021 ва 2023 йиллардаги Президентлик сайловларида дебатлар янада сайқаллашди. Агар сиёсатшунослар томонидан партиялараро курашларнинг сифати мамлакатда демократия даражасини кўрсатувчи муҳим индикаторлардан бири сифатида қаралиши тўғрисидаги фикрлари инobatга олинса, ушбу ўзгаришларни мамлакат ўз сиёсатида очиқлик, шаффофлик томон ташлаган жуда муҳим қадамлар сифатида баҳолаш мумкин.

Айнан ана шу муҳит 2024 йилдаги сайловлардаги партиялараро кураш сифатига ўзини таъсирини кўрсатди ва ушбу сайловлар партиялараро курашнинг янги сифат даражасига чиқишида ўз ўрнига эга бўлган навбатдаги босқични бошлаб берди.

Энг аввало, ушбу сайловларнинг аралаш тизим асида ўтказилаётгани сиёсий партияларнинг сайловолди кампаниясини янги асосда куриш, алҳида номзодлардан фарқли равишда партия дастурини тарғиб қилиш, унинг бошқа партиялардан устун томонларини кўрсатишга бўлган ҳаракатларнинг кучайишига олиб келди. Мана шунинг ўзиёқ партиялардан илгари бўлмаган мутлақо янги ёндашувларни талаб қилди.

Натижада сиёсий партиялар партиялараро рақобатнинг муҳим элементларидан бири бўлган ўзининг бошқалардан фарқ қилувчи имиджини яратишга, сайловларда илгари ишлатилмаган янги тарғибот усулларидан фойдаланишга интилаётгани кўзга ташланди.

Илк бор партиялар ўзларининг саёсий майдондаги ўрнини аниқ белгилаб олишга (ўнг, марказ ва сўл партиялар сифатида), ўзаро баҳсларга киришганда айнан шу позициядан туриб ёндашишга ҳаракат қила бошлашдики, бу ҳам уларнинг жамиятдаги айнан қайси ижтимоий қатламга таянган ҳолда ўртага чиқаётгани, ушбу қатлам манфаатларини ифода қилувчи ғоялари бошқалардан нимаси билан фарқ қилишини намоён қилди. Бу эса партиялараро курашларга илгари кузатилмаган мазмун ва ранг-баранглик олиб кирди.

Ушбу сайловлардаги дебатлар партия спикерлари ўртасидаги баҳслардан ташқари, партия ёшлар қанотларининг ўзига хос “шоу”лари фонида амалга оширилаётганлиги, партиялар ўзаро курашларга ёш ҳамкасбларини ҳам кенг жалб қилаётганлиги, уларни ҳам бўлғуси партия раҳбарлари сифатида тарбиялаётганлигини кўрсатади.

Ва ниҳоят, газета саҳифаларида эълон қилинаётган партия дастурларига оид саҳифаларда ҳар бир партия ўз рақиблари фикрларини танқид остига олаётганлигини кўриш мумкин. Масалан, ЎзЛиДеП “Адолат” СДПнинг тиббиёт даромад манбаига айланиб қолмаслиги учун нодавлат тиббиёт ташкилотлари “тижорат ташкилоти”дан нотижорат ташкилотга ўтказилиши зарурлиги тўғрисидаги ғоясини танқид остига олган бўлса, Ўзбекистон Экологик партияси ЎзЛиДеПнинг атроф муҳитга катта зиён етказётган энергия манбалари бўлмиш кўмир ва мазут ўрнига геотремал ва бошқа қайта тикланадиган энергия манбаридан фойдаланиш зарурлиги тўғрисидаги ғоясини танқид остига олади. Бундай ўзаро танқидларга мисоллар кўп ва уларнинг контент-тахлили алоҳида тадқиқот мавзуси.

Албатта, сайловлар даврида партиялараро курашнинг қонунчилик доирасида олиб боилишида марказий Сайлов комиссияси ҳам муҳим арбитрлик функциясини амалга оширади. У томонидан зарур қарорларнинг ўз вақтида қабул қилиниши, партияларга ўз ғояларини тарғиб қилиш учун тенг имкониятларнинг берилиши ушбу рақобатни адолатли асосда амалга оширилишига имкон яратади [5].

Дунё тажрибаси шуни кўрсатадики, партиялараро кураш маълум жамиятда қарор топган сиёсий маданият доирасида, қонунлар билан белгиланмаган бўлса-да, лекин уларга амал қилиш курашнинг адолатли, рақиб шахсиятига ўтмасдан, жамиятда қабул қилинган ахлоқ нормаларидан чиқиб

кетмаган ҳода ўтишини таъминлаб берадиган “ўйин қоидалари” талабларига мос равишда олиб борилиши ҳам муҳим аҳамият касб этади.

2024 йилги сайловлар масаланинг ушбу томони ҳам эътибордан четда қолмаганлиги билан кизиқарли бўлди. Яъни, 21 сентябрь куни Марказий Сайлов комиссияси ташаббуси билан сайловларда иштирок этаётган барча сиёсий партиялар “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар кенгашлари сайловида сиёсий партиялар томонидан сайловолди ташвиқотини амалга оширишнинг одоб-ахлоқ қоидалари” [6] ни имзолашди. Буларнинг барчаси мамлакатда партиялараро рақобат кучайиб бориши баробарида, уларни регламентлаш тизими ҳам такомиллашиб борганлигини кўрсатадики, бу дунё амалиётига ҳам мутлақо мос бўлган жараён ҳисобланади.

Хулоса. Хулоса қилиб айтиш мумкинки, юқоридагиларнинг ўзиёқ Ўзбекистонда партиялараро кураш институти динамик равишда ривожланиб, сифат даражаси ошиб бораётганлигини кўрсатади.

Кўппартиявийликка асосланган демократияларда партиялараро курашнинг алоҳида ўрнидан келиб чиқиб, мамлакатимиз сиёсий ҳаётида ушбу институт сифат даражасида кузатилаётган ўзгаришлар сайловчилар сиёсий фаоллигининг ошиб боришига, сиёсий партиялар томонидан жамият учун долзарб бўлиб турган масалаларда илгари сурилаётган янги ва муҳим таклиф ва ғоялар сонининг орта боришига ва шу орқали уларнинг мамлакат сиёсий ҳаётидаги ўрни янада ошиб боришига олиб келди деб айтишга асос бўла олади.

Албатта, бу жараёнлар партиялараро курашларнинг сайловолди жараёнлари билан чекланиб қолмасдан, парламентда қанчалик самарали давом этишига ҳам бевосита боғлиқ. Партияларда ҳозирда кузатилаётган фаоллик ва уларда ўтган йиллар давомида шаклланган парламентда ўз фракциялари орқали ўзаро рақобатга киришиш тажрибасининг мавжудлиги улар ўртасидаги рақобат энди парламентга кўчади деб айтишга асос яратади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. *Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 - жилд.* - Тошкент: “Ўзбекистон” ИМИУ, 2020.
2. *Ўзбекистон Республикаси Конституцияси*// <https://lex.uz/docs/6445145>; *Ўзбекистон Республикасининг “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги Қонуни. 1996 йил 26 декабрь. 337-I-сон* // <https://lex.uz/docs/54191>.
3. *Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида. 12.12.2002 й. N 434-II*
4. *Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Регламенти тўғрисида. 29.08.2003 й.* /nrm.uz/contentf doc.
5. *Ўзбекистон Республикаси Марказий Сайлов Комиссиясининг “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва маҳаллий Кенгашлар депутатлари сайловида иштирок этувчи сиёсий партиялар ва депутатликка номзодларнинг сайлов кампанияси даврида сайловолди ташвиқоти тўғрисида”ги қарори. №1384. 2024 йил 20 сентябрь*
6. *“Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар кенгашлари сайловида сиёсий партиялар томонидан сайловолди ташвиқотини амалга оширишнинг одоб-ахлоқ қоидалари.*
7. Алисова Л.Н., Гончаров Л.А. *Институт межпартийной конкуренции в структуре современного парламентаризма // Журнал “Наука. Культура. Общество”. 2019. №1.*
8. Аристотель *Стагирит. Афинская полития*// Электрон адрес: <https://ancientrome.ru/antlitr/t.htm?a=1443001000&ysclid=m24qekf5o3109846058#o1-1>
9. Макиавелли Н. *История Флоренции. М., 1987; Юм Д. О партиях вообще / Юм Д. Малые произведения. М., 1996..*
10. Руссо *Об общественном договоре. Трактаты. М., 2000.*
11. Токвиль А. *Демократия в Америке. М., 1992.*
12. *Political parties: old concepts and new challenges /ed. by R. Gunther, J. Linz, J.R. Montero. Oxford; New York: Oxford University Press, 2002.*

SULTON HUSAYN MIRZO DAVRIDA AYOLLAR

*Jurayev Sherzod Norovich,
Oriental universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sulton Husayn Mirzo hukmronligi davrida ayollarning mavqeyi va davlat boshqarividagi roli o'rganilgan. Sovet davrida ayollarning huquqlari kamsitilgan degan qarashlarga zid ravishda, maqolada tarixiy manbalar asosida ayollarning jamiyatdagi o'rni va siyosiy ta'siri yuqori bo'lganligi ko'rsatib berilgan. Maqolada ayollarning hukmdorlarga ta'siri, siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki va davlat hokimiyati uchun kurashdagi o'rni alohida ta'kidlangan. Bu esa o'sha davrda ayollarning jamiyatdagi mavqei va roli haqidagi an'anaviy qarashlarni qayta ko'rib chiqishga chorlaydi.

Kalit so'zlar: Sulton Husayn Mirzo, Temuriylar davri, ayollar mavqei, siyosiy ta'sir, davlat boshqaruvi, Feruzabegim, Hadichabegim, Poyanda Sulton begim, Beka Sultonbegim.

ЖЕНЩИНЫ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ СУЛТАНА ХУСЕЙНА МИРЗЫ

Аннотация. В данной статье исследуется положение и роль женщин в государственном управлении в период правления Султана Хусейна Мирзы. Вопреки представлению о том, что права женщин были подавлены в советское время, статья демонстрирует, основываясь на исторических источниках, что женщины обладали высоким социальным статусом и политическим влиянием. В статье подчёркивается влияние женщин на правителей, их участие в принятии политических решений и их роль в борьбе за государственную власть. Это призывает к пересмотру традиционных взглядов на положение и роль женщин в обществе в тот период.

Ключевые слова: Султан Хусейн Мирза, тимуридский период, положение женщин, политическое влияние, государственное управление, Ферузабегим, Хадичабегим, Поянда Султан бегим, Бека Султанбегим.

WOMEN DURING THE REIGN OF SULTAN HUSAYN MIRZA

Abstract. This article explores the position and role of women in state governance during the reign of Sultan Husayn Mirza. Contrary to the notion that women's rights were suppressed during the Soviet era, the article demonstrates, based on historical sources, that women held a high social status and political influence. The article highlights the influence of women on rulers, their participation in political decision-making, and their role in the struggle for state power. This calls for a reconsideration of traditional views on the position and role of women in society during that period.

Keywords: Sultan Husayn Mirza, Timurid period, women's status, political influence, state governance, Feruzabegim, Hadichabegim, Poyanda Sultan begim, Beka Sultanbegim.

Kirish. So'nggi temuriy shahzoda Sulton Husayn Mirzo saltanatida ayollarning mavqeyi haqida ushbu maqolamizda so'z yuritimiz. Ma'lumki, sovet davrida ayollarni ozodlikka chiqarganlik da'vo qilingan va Markaziy Osiyoda ayollarning huquqlari umuman bo'lmagan, degan fikrlar o'rtaga tashlanar edi. Biz esa tadqiqotlarimiz natijasida manbalarni tahlil qilib, aksincha xulosalarga ega bo'ldik. Ayollarning jamiyatdagi hurmati va o'rni hamda davlat boshqaruvidagi hissasi manbalarni xolis tadqiq qilish orqali aniqlanishi mumkin. Tadqiqotimiz markazida turuvchi Sulton Husayn Boyqaroning 1469-yildan 1506-yilgacha bo'lgan 37 yillik boshqaruvi temuriylar sulolasining eng gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Bu davrda davlat boshqaruvida muhim rol o'ynagan to'rt malika: Feruzabegim, Hadichabegim, Poyanda Sulton begim va Beka Sultonbegimlarning mamlakat taqdiridagi o'rni hamda siyosatda tutgan mavqeyini ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning «Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar» asarida Sulton Husayn Mirzoning nomini qisqacha ifodalash uchun «Mansur xoqon» deya ataydi. Buning birinchi sababi Sulton Husayn Mirzoning otasining ismi Mansur bo'lganligi, ikkinchidan, ushbu podshoh doim g'alabaga erishgan, ya'ni mansur (g'olib) bo'lganligidir. Asarda Sulton Husaynning yana bir alohida e'tiborga molik jihati tilga olinadi. Muallif bu jihat Sultonga juda katta imtiyoz ekanligini ta'kidlaydi. U Buyuk Tangri ayrim ulug' sultonlarga baxshida qilgan eng go'zal xislat yaxshi nasab ekanligini va shu sababli nasab barcha millat va dinda muhim hisoblanishini, ajam va arab xalqlari ham nasabni sog'lom va nuqsonsiz saqlashga alohida e'tibor berganliklarini eslatib, Sulton Husaynning nasabining yuqoriligini

ko'rsatadi [1; 670]. Otasi Sulton G'iyosiddin Mansur bin Amirzoda Boyqaro bin Umarshayx Bahodir bin Amir Temur Guragondir. Ota buvisi Qutluq Sultonbegim Chingizxon naslidan edi. Sulton Husaynning onasi Feruzabegim bo'lib, bu ayol Amirzoda Sulton Husaynning qizi bo'lib, o'z navbatida Amirzoda Sulton Husayn Oqobegim bint Amir Temur Guragoning o'g'li bo'lgan. Darhaqiqat, Feruzabegim nasl-nasab jihatidan katta hurmatga ega bo'lib, siyosiy voqealarda ham ayol sifatida hurmat qilinganligi tarixiy manbalarda alohida ta'kidlanadi.

Xondamirning yozishicha, «[Sulton Husayn] bolalik sabosi (ta'siri) nasimidan to'la ochilmasdan turib, farmon berishlik tarovatlari hayoti va gap-so'zlaridan sezilib turardi». Yana, «Yurt olishlik alomatlari o'tirib-turishidan ko'rinib turardi. Ishlari, gap-so'zlaridan tez orada davlat kalitlari uning turmush yuzi sari ochilajagini farosatli kishilar sezardi» [1; 671], deb keltirishidan ma'lum bo'ladi, yosh shahzoda davlat boshqarish ishlariga yoshligidan tayyorlangan. Hatto o'tirib-turishiga ham e'tibor berilgan. Otasiz shahzodaning keyingi barcha harakatlari onasi bilan maslahatlashib amalga oshirilganligi va bu malikaning ancha oqila ayol ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Ma'lumki, Sulton Husayn 7 yoshida yetim qoladi. Onasining maslahati bilan Abdulqosim Bobur xizmatiga o'tadi va Sulton Abu Said davrida 1454-yilda Abdulqosim Bobur Xurosondan yurish qilib kelib Samarqandni qamal qiladi. 40 kundan ortiq qamal natija bermagach, yarash sulhi tuziladi, Sulton Husayn esa Samarqandda qolishga qaror qiladi. Manbada Xondamir bu voqea hijriy 858 yili Mirzo Abdulqosim Mirzo Sulton Abusaid bilan Samarqand atrofida yarashgan paytda qarindoshlik mulohazasini qilib, Sulton Abu Sa'id xizmatiga Samarqandga ketadi deb ta'riflagach, shu joyda muallif oqila onasi bilan maslahatlashib, Mirzo Abdulqosim xizmatiga o'tganligini alohida ta'kidlaydi [1; 672].

Sulton Abu Said xizmatida turgan Sulton Husayn uchun qiyin davr boshlanadi. Mirzo Sulton Uveys bin Mirzo Muhammad bin Bayqaro bosh ko'taradi. Abusaid boshqa shahzodalarga ishonchsizlik bildiradi va Husayn Bayqaroni 13 kishi bilan Samarqand qal'asiga qamaydi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, bu xabarni eshitgan Sulton Husaynning validasi Feruzabegim Abdulqosim Boburga shikoyat qiladi. "Nomi atalgan mirzo (Sulton Husayn) mirzo Sanjarning kuyovidir, uni qanday bo'lmasin Hirotda yuborsinlar", – deb qat'iy talab bilan bir maktub yozdi. Mirzo Sulton Abu Said unga ijozat berdiyu, ammo (Jayxun) suvidan o'tganidan keyin pushymon bo'lib orqasidan odam jo'natdi, ammo yaxshi natija bermadi [2; 374]. Demak bir ayolning iltimosini Abdulqosim Bobur inobatga olib maktub yozib beradi. Ikkinchi yirik shox Sulton Abu Said Feruzabegimni yaxshi kutib olib, o'g'liga ijozat beradi. Bu holat esa yuqoridagi fikrimizni ochiq oydin tasdiqlaydi.

Onasi Samarqandga kelib, Abusaidan iltimos qilgach, Mirzo ozod etiladi. Onasi bilan Hirotda qaytib, Abdulqosim Mirzo xizmatiga o'tadi va Sulton vafot etgach, Marv shahriga ketishga majbur bo'ladi. Demak, bu voqea 1457-yilda bo'lgan. Marv hukmdori Muizziddin Sanjar Mirzo o'z qizi Beka Sultonbegimni Sulton Husaynga nikohlab beradi. Tez orada Badiuzzamon Mirzo tug'iladi. Asarning boshqa o'rnida Sulton Husaynning validasi yillar bo'yi bu davlatni umid qilib kelgan va ko'pdan beri bu saodatga intizor edi. Umridan bir talayi o'tgach, saltanat asboblari muyassar bo'lib, mahdi ulyo va aziz bonu izzat oyog'ini saltanat osmoni taxtiga qo'ygach, mirzo Sulton Husayn mulku mol ixtiyorini mislsiz validasiga topshirib, ertayu kech uning mulozamatida bo'lgach, zamona bu shodlikni yoqtirmaydi [2]. Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asarida yozishicha, malikaning vafoti 1469-yil 14-iyulda yuz beradi. Sulton Husayn Xiyobon ko'chasida katta va bezakli maqbara qurdiradi. Xondamirning yozishicha, bu makon obod holda bo'lib, uzoq-yaqindagilarning ziyoratgohi sanaladi.

Bu malika Feruzabegim bo'lib Amir Temurning qizi Oqobegim nabirisi. Demak temuriy malika qonida davlat boshqarish, hokimiyatga intilish tug'ma bo'lgan. Feruzabegim o'g'lining hokimiyatga chiqishini orzu qilgan va bu yo'lda tinmay harakat qilgan. Yosh shahzodani devonga joylashtirib, ish o'rgatishi va Abdulqosim Mirzo saroyiga olib kelib topshirishi va maslahatlashib, Abu Sa'id Mirzo xizmatiga o'tqazishi va hatto qamoqdan qutqarish maqsadida Hirotdan Samarqandga kelish uchun jasorat topishi uchun qanchalik matonat kerak.

1457-yilda Marv hukmdori Muizziddin Sanjar Mirzo o'z qizi 15 yoshli Beka Sultonbegimni 19 yoshli Sulton Husaynga nikohlab beradi. Sulton Husaynning katta o'g'li Badiuzzamon mirzo Beka sultondan 1457-yilda tug'ilgan. Dastlab ota-bola bo'lib yurgan Sulton Sanjar mirzo va Sulton Husayn o'rtasida adovat paydo bo'ladi. Qaynotasi bilan qanchalik kelishmasa ham sulton Husayn malikani tashlab qo'ymaydi. Qayerda bo'lsa o'zi bilan olib yuradi. Beka Sulton begim chiroyli va latofatli bo'lishi bilan birga o'ta rashkchi va xudbin hamda tili zahar ayol bo'lganligi haqida Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo shunday yozadi: "Ko'p kajxulq edi. Sulton Husayn Mirzoni ko'p og'ritur edi. Kajxulqligidan mirzo batang keldi, oxir qo'ydi va xalos bo'ldi, ne qilsin haq Mirzo jonibida erdi. Malika haram ahliga ham tinchlik bermagani, agar shoh boshqa biror ayol bilan gaplashib qolsa janjal ko'tarilishi haqida ma'lumotlar beriladi. Oxiri taloq qilgach, baxtsizlikka dosh berolmay kasal bo'lib qolgan". Badiuzzamon Mirzoning onasi Beka

Sultonbegim 1487 – 1488-yillar oralig'ida vafot etadi. Malika o'zi qurdirgan "Badia madrasasi" gumbazida dafn etiladi. Xondamir bu malikani jahdor, daga'l so'zli malika edi. Hoqonni rashk qilavergnidan taloq berildi deb yozish bilan birga bu malikaning katta Madrasa qo'rdirganligini yozib qoldiradi [2; 792]. Tarixda Badiuzzamon Mirzoni valiahd qilishga qattiq kirishganligi va injiqliklarining zamirida ham shu maqsadni amalga oshirish ilinji bo'lganligini ko'ramiz. Malika shahzodalar hamda arkoni davlat ishtirokida shohona dafn etiladi. Ajrashgan bo'lsa ham davlat miqyosida dafn marosimining o'tkazilishi malikaning davlat hayotida muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi.

O'z davrining yetuk olima ayollaridan Poyanda Sulton begim 1470-yildagi siyosiy jarayonlarga faol aralashadi. Yodgor Muhammad Mirzoning ammasi bo'lganligi sababli bu shahzodagi yoshligidan Xuroson taxti biz uchun ota meros degan g'oyani unga singdiradi [5; 351]. Yodgor Muhammadning jangda chiniqmagani, harbiy salohiyati ham yuqori emasligi ma'lum bo'lsada, uning taxtga da'vogarlik qilishida asosiy g'oyaviy qo'llovchi ekanligi shu davrning barcha manbalarida keltirilib o'tiladi. Poyanda Sulton begim Yodgor Mirzoning turkmanlardan yordam olishiga va 19 yoshli shahzodaning qo'qqisdan Xurosonga hujum uyishtirishiga erisha olgan. 1469-yilda turkman qo'shini yordamida Hirot taxtiga o'tirgach boshqaruv ishlarini ammasi Poyanda Sulton begimga topshirib, aysh-ishratga berilib ketadi. Sulton Husayn va Alisher Navoiy uni qo'lga olganlarida ham aysh-ishratdan mast holatda bo'ladi. 1470-yil Abdurazzaoq Samarqandiy Yodgor Muhammad Mirzoning taxtga kelishini bayon etar ekan shunday yozadi; "Mirzo Yodgor Muhammadning ammasi bo'lmish mahdi uzmo izzatli bonu Poyanda Sulton beka shahar tashqarisidagi o'z visoqidan kelib, Bog'i shahrga tushdi, amir Pir Luqmon barlosning o'g'li amir Faridun bir guruh amirlar bilan birga beka Poyanda Sultonning xizmatiga yig'ilishib, shodiyona nog'arasini chaldilar, muharram oyining oltinchisida (5-iyul 1479) xutba uning nom va laqablari bilan oroyish topdi." [2; 657] Demak, bu manbadan ko'rinadi Poyanda Sulton begim ba'zi amirlar bilan Hirot shahriga kiradi va nog'ora chaldirib Yodgor Mirzoni taxtga o'tqazadi. Lekin kutilmaganda yana bir qirol temuriy malika Feruzabegim tomonidan ilgari surilayotgan shahzoda Sulton Husaynning Feruzabegim tomonidan taxtga ilgari surilgan Sulton Husaynning qo'qqisdan hujumi tufayli Yodgor Mirzo qo'lga olinadi va qatl qilinadi. Hirot aholisi Yodgor Muhammad Mirzo o'dirilgach, ko'p shovqin ko'tardilar. Bu isyonlar boshida turgan Poyanda Sultonni tutib ikki uch kun mahkam hibsda saqlab turdilar-da, so'ng boshqa og'alarining sharofatiga binoan bo'shatib yubordilar [2; 666].

Demak Hirot shahrida to's-to'polonlar boshlanishiga sabab aynan shu beka tarafdorlari bo'lgan, bekani uch kun hibsda saqlab, isyonlar bostirilgach qo'yib yuborishga majbur bo'lishgani Shoxruh mirzo tarafdorlari Hirotida juda ko'p ekanligidan dalolat beradi. Sulton Husayn Sulton Abu Said tajribasiga teskari ravishda davlat to'ntarishi uyishtirgan, o'zini vaqtincha taxtdan ag'darishga bosh bo'lgan malikani qo'yib yuborgan, yoki shunga majbur bo'lgan. 1457-yilda Abdulqosim Bobur vafotidan keyin Mirzo Sulton Ibrohim taxtga keladi va dushmanlari sanalgan Malik Qosim va Qaromonlarni tutib keladi, lekin o'ldira olmaydi. Chunki o'rtaga Gavharshodbegim tushadi va ularning joni saqlanib qoladi. 1457-yil 31-mayda Ibrohim Mirzo taxtga o'tirgach, 18-iyul 1457-yilda Sulton Abu Said taxtni tortib oladi va Hirot shahriga kirib kelgach birinchi qilgan ishi Bog'i shahardan tashqari chiqib, Gavharshodbegim bilan uchrashib, uni hurmatlash ishlarini bajarish bo'ladi. Bundan malikaning Hirotidagi o'rni naqadar katta ekanligini ko'rish mumkin. Malikaning Sulton Ibrohimni qo'llab-quvvatlashi tufayli vujudga kelgan qaltis vaziyat tufayli malika qatl etiladi. Bu voqea 1457-yil 31-iyulda bo'lib o'tadi. Malikaning ko'plab imoratlar "Jome" masjidlari qurganligi manbalarda keltirilgan. Mashhad shahridagi "Jome" masjidi mashhur bo'lgan. Aynan Gavharshodbegimning himoyasi va tarbiyasida Poyanda Sultonbegim siyosatga dahldorlikni o'rgangan. Hamda bu Malikaning ham birinchi maqsadi o'z shahzodasini taxtga olib chiqish bo'lganligini ko'rish mumkin. Malika bu maqsadga erishadi ham, 1470-yil 5-iyulda Mirzo Yodgor Muhammad nomiga xutba o'qittiradi [1; 726]. Poyanda Sultonbegim madhida Hasanshoh shoir qasida bitadi:

Haq fazlidan payg'ambar Sulaymonga uzuk tegdi,

Yurt Bilqisi Sultonbegim Poyandaga mulk tegdi.

Sulton Husaynning xotini Hadichabegim ham davlat siyosatida muhim o'rin egallaydi. Bu ayol Sulton Abu Saidning haramida bo'lgan edi, Sulton Husayn uni sevib qoladi va uylanadi. Boshqa xotinlariga nisbatan Sulton uni sevishidan foydalanib hokimiyat ishlariga ustalik bilan aralashadi. Taxt vorisi Badiuzzamonni hokimiyat uchun kurashdan chetlatib otasi bilan qonli urushlarga kirishiga ma'lum ma'noda sababchi bo'ladi. Alisher Navoiyning tarbiyasida bo'lgan va taxt vorisi bo'lishi kutilayotgan Mo'min mirzoni bosh vazir bilan kelishib yo'q qilishga kirishadi. Astrobodda asirga olingan Mo'min Mirzo ixtiyoriddin qal'asiga qamaladi. Xoja Nozomulmulk va uning o'g'illarini o'ziga ittifoqchi qilgan malika sharob ichaverib mast bo'lib yotgan Sulton Husaynga Mo'min Mirzoning o'limi to'g'risidagi farmonga imzo chektirib, zudlik bilan ijro etish uchun yuboradi. Ertasi kuni Sulton Husayn o'ziga kelib shahzodaga ziyon

yetkazmanglar deb farmon yuboradi. Ammo Erali Baxshi va Abduvali Yasovul hamda yana ikki nafar ishonchli vakil jami 4 kishi Mo‘min Mirzoni o‘ldirib, Hirot xalqini chalg‘itish uchun o‘likni qal‘adan pastga tashlashadi. Mo‘min Mirzoning o‘ldirilishi Badiuzzamon Mirzoning otasi bilan bo‘lgan qonli kurashlarini avj olishiga sabab bo‘lib, Navoiy bobomiz tomonidan yarashish harakatlarini ham yo‘qqa chiqariladi. Bu siyosiy nayranglarning barchasining zamirida Hadichabegimning Muzaffar Husayn ismli o‘g‘lini taxtga olib chiqish maqsadi turadi. Bu xabar Amir Alisherga yetqazilganda Xondamirga bir necha bor “Muhammad Mo‘min Mirzoning qatli voqeasi Shayx Majdiddin Bag‘dodiyning o‘ldirish uchun berilgan hukm sifatiga egadir. Chunki, o‘sha vaqtda Movarounnahr, Xuroson, Iroq viloyatlarining barchasi Chingizxonning qo‘shin tortib kelishi oqibatida qatli omga duchor bo‘lib vayronaga aylandi. Ushbu ayyomda ham bu hodisa kasriga qolib, shaharlar xaroblighiyu aholi azob-uqubatiga sabab bo‘luvchi ulkan bir buzg‘unchilik ko‘payajakdir [1; 853]”, deyдилar. 1498-yilda Sulton Husayn vazir Nizomulmulknı ikki o‘g‘li bilan qatl ettiradi. Chunki Sulton Husayn Mirzo Xoja Nizomulmulknı Mo‘min Mirzo o‘limida aybdorligi tufayli undan gina saqlardi [1; 859]. 1498-yil 5-iyul Xoja Nizomulmulk, o‘g‘li Xoja Kamoliddin Husayn va Xoja Abdumalik o‘ldiriladi. Xoja Nizomulmulknı qal‘a darvozasiga olib keladi va terisini shildiradi. Demak, Navoiyning bu darajada qattiq jazolashidan maqsad, Mo‘min Mirzoning o‘ldirilishi bilan o‘zi aytganidek, buzg‘unchiliklarning boshlanishiga sabab bo‘liganligi, yoki farzand o‘ldirilishi qanday bo‘lishini ko‘rsatishdir. Yoki davlat barqarorligini saqlab qolish muhim masala ekanligidadir.

Hadichabegim boshchiligidagi guruh Sulton Husaynning yana biri o‘g‘li Muhammad Husaynnı Iroqdan qaytib kelishini o‘z maqsadlariga qarshi deb hisoblashadi. Bu shahzoda akalarining yomonliq qilishidan qo‘rqib Iroqqa qochib ketgan edi, oradan vaqt o‘tib Hirotga kelayotgan edi. Uning qaytishi Sulton Husaynnı quvontirib yuborganligini ko‘rgan Hadichabegimga bu holat yoqmagan ko‘rinadi. Natijada g‘arazgo‘ylar Muhammad Husayn mirzoning kelishi ixlos va qullik yuzasidan emas, balki biror sabab va yomonlikni o‘ylab bu tomonga kelmoqda dedilar. Shunda Sulton Husayn 2 ming askarnı jo‘natadi. Ilojini topsangiz o‘glimni tutib olib keling degan farmon beradi. Mashhad shahriga amirlar yetib kelgach, Shahzodaga bu haqida xabar berdilar. Shahzoda amirlarga hujumga o‘tib, ularni mudofaa qilishga majbur qiladi. Yordam kelishidan qo‘rqib, Muhammad Husayn Mirzo Astrobodga qarab jo‘naydi. Yana qochqinlikda yurishga majbur bo‘ladi.

1507-yilda Hirotga Shayboniyxon boshchiligida ko‘chmanchi o‘zbeklar hujum qilayotgan davrda Hadichabegim shahar bog‘iga kelib, Hirotning barcha akobiru oliy tabaqa arboblari, olim-u aslzodalarini to‘playdi. Ularga: “Sizlar Sulton Husayn mirzo davlatida molu dunyo topdingiz, baxtli hayot kechirdingiz. Riyoat qilib, hurmatingizni shunday joyiga qo‘ydiki, hech bir podsho sizdeklarga bundayin munosabatda bo‘lmagan. Bugungi kunda uning o‘g‘ g‘ ‘illari boshiga shundayin hodisalar va voqea tushib, ular qochib ketishdi. Maslahat shulki, ular yana qaytib, shaharga egalik qilishlari lozim. Sizlardan shu narsa munosib va ravo bo‘lur ediki, haqiqat qilib, ularga otalari huquqini manzur qilsangiz va shahar muhofazasini qo‘lga olsangiz...” [3; 169] dedi. Shayxulislom, Amir Sayyid Abdulqodir va boshqa akobir dedi: “Ey, zamon Bilqisi! Siz juda to‘g‘ri gap aytdingiz. Taqdirda bor ekan. Lekin biz shahzodalardan umid qilurmiz. Siz yaxshi bilursizki, Shoh Badiuzzamon va o‘glingiz Muzaffar Husayn Mirzo otalari vafotidan keyin qay tarzda podsholik qildilar? Ulardan xalqning hech bir umidi yo‘q. Ikkinchidan, ular qaytib kelarli darajada shikast topmadilar! Ularning ko‘pchilik amirlari o‘ldirildi, butun qurol-yarog‘i qo‘ldan ketdi. Shayboniyxon o‘ta qahr-u g‘azabli podsho. Biz mabodo sarkashlik qiladigan bo‘lsak, ustimizdan g‘olib kelsa, birortamizni ham tirik qo‘ymaydi. Butun shahar g‘orat qilinadi, xalq asir olinadi. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, o‘n kun yoki bir oy shaharnı mudofaa qildik deylik, bari bir natijasi biz aytgandek bo‘ladi, bundan nima foyda?” Hadichabegim, rost aytasizlar, deb akobirdan uzr so‘rab yig‘laganacha ularga ijozat berdi [3; 170].

Ushbu ma‘lumotdan ko‘rinib turibdiki, Hadichabegim butun boshli Poytaxt aholisining boshliqlarini to‘plab ular bilan maslahat olib boradi. Bu holat ayollarning siyosat bobidagi o‘rnini ko‘rsatib beradi. Hadichabegim o‘z xazinasini yashirganda xizmatkorlari sakkiz kun tashishadi [3; 173].

Xulosa. Temuriylardan bo‘lmish Sulton Husayn davlatida ayollar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etgan. 37 yillik boshqaruvga ega bo‘lgan bu davlatda katta hurmat va mavqega ega bo‘lgan to‘rt ayol Hadichabegim, Feruzabegim, Poyanda Sulton begim, Beka Sulton begimlarning hayot yo‘llariga qisqa nazar tashladik. Bu malikalar o‘zlarining nomzodlarini taxtga olib chiqishga intilishadi va siyosiy maydonda faol qatnashadilar. Masalan, Feruzabegim Sulton Husaynnı, Poyanda Sulton Yodgor Mirzoni, Beka Sulton Badiuzzamon Mirzoni, Hadichabegim Muzaffar Husayn Mirzoni taxtga olib chiqish uchun kurashadilar. Eng muhimi qisqa vaqt bo‘lsa ham to‘rt malika o‘z nomzodlarini taxtga olib kela oladi. Bundan tashqari bu malikalar ta‘lim tarbiya ishlarida faol qatnashib ko‘plab malikalar, shahzodalarga ustozlik qilish bilan birga tolibi-ilmlar uchun madrasalar, xonaqohlar quradilar. Hadichabegim Sulton Husaynga shunchalik ta‘sir eta olganki podsho uning so‘zini ikki qilishga jur‘at qila olmasdi. Mol-mulk boshqaruvida bu ayollar mustaqil bo‘lib o‘z mablag‘lariga katta qurilish ishlariga bosh bo‘lganlar. Masalan,

HISTORY

Beka Sulton o'g'li sharafiga "Badia" nomli madrasa qurdiradi. Bu kabi faollik o'z navbatida o'rta va quyi qatlam aholisi orasida ham ayollar haq-huquqlari keng miqyosda ta'minlanib qo'yilganini bildiradi.

ADABIYOTLAR:

1. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. Toshkent "O'zbekiston" 2013 b-1265. 700 bet.
2. Samarqandiy, Abdurazzoq. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. K.II Toshkent: O'zbekiston, 2008. B. 643
3. Zayniddin Mahmud Vosifiy. Badoe'ul vaqoe'. / Fors tilidan Naim Norqulov tarjimasi. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1979. 213 bet.
4. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. Toshkent: "O'zbekiston", 2012.
5. Vohidov Sh. Qodirov A. Sharqning mashhur sulolalari. Toshkent: "Akademnashr", 2013.
6. Fayziyev T. Temuriy malikalar. (Matn): Risola T.: "Ziyo nashr" nashriyoti, 2023. B. 48.

BUXORO JADIDLARI MEROSINING O'RGANILISHI

Baxtiyorov Behruz Bobirovich,

Buxoro davlat universiteti

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoroda yuzaga kelgan jadidchilik harakati va uning namoyondalari faoliyati keng yoritilgan. Ayniqsa, F.Xo'jayev va uning izdoshlari olib borgan faoliyati, yutuq va kamchiliklari sobiq sovet olimlari tomonidan o'rganilganligi tahlil qilib chiqiladi. Bundan tashqari, jadidchilik oqimining boshqa namoyondalari faoliyatidagi o'xshash va farqli tomonlari xususidagi fikr va mulohazalari ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jadid, bolshevik, sovetlar, qizil armiya, partiya, sotsializm, proletariat, matros, revolyutsiya, burjua, kolonna.

ИЗУЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ БУХАРСКИХ ДЖАДИДОВ

Аннотация. В данной статье освещается движение джадидизма и деятельность его представителей в Бухаре. В частности, анализируются деятельность, достижения и недостатки Ф. Ходжаева и его последователей, которые изучались бывшими советскими учёными. Кроме того, упоминаются мнения и комментарии о схожих и различных сторонах деятельности других проявлений течения джадидизма.

Ключевые слова: джадид, большевик, советы, красная армия, партия, социализм, пролетариат, матросы, революция, буржуазия, колонна.

STUDYING THE HERITAGE OF BUKHARA JADIDS

Abstract. This article covers the Jadidism movement and the activities of its representatives in Bukhara. In particular, the activities, achievements and shortcomings of F. Khodjaev and his followers, which were studied by former Soviet scholars, are analyzed. In addition, opinions and comments on similar and different aspects of the activities of other manifestations of the Jadidism movement are mentioned.

Keywords: jadid, bolshevik, soviets, red army, party, socialism, proletariat, sailors, revolution, bourgeoisie, column.

Kirish. Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati serqirra bo'lib, uning asosiy yo'nalish oqimlaridan biri Buxoro jadidchiligi edi. Buxoro jadidchiligi o'z xususiyatlari va rivojlanish shakllariga ega bo'lib, Buxoro amirligidagi iqtisodiy, siyosiy va jamiyatning axloqiy ahvoli bilan bog'liq edi. O'ziga xos tarzda ajralib turadigan va murakkab shaxs Fayzulla Xo'jayev va uning maslakdoshlari Buxoro jadidchiligida markaziy o'rin tutardilar.

O'rta Osiyoda jadidlar harakati sovet tarixshunosligi masalalarini o'rganish jarayonida shu narsa diqqatga sazovorki, mintaqadagi ushbu harakat tarixi asrimiz boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liqdir. Ayniqsa, Turkiston mustaqilligi uchun kurash jarayoniga ma'rifatparvar ziyolilar tabaqasining kirib kelishi mustamlakachi hukmron doira tomonidan salbiy kutib olingan edi. Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Andijon, Qo'qon kabi O'rta Osiyoning eng gavjum shaharlarida jadidchilik harakati va uning rahbarlari faoliyati turlicha bo'lganligidan tarixiy manbalar guvohlik beradi. Jadidchilik harakati sovet tarixshunosligining shakllanishi dastlab Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari tarixiga oid dastlabki maqolalarda ko'zga tashlanadi. Jumladan, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixiga oid dastlabki ishlar gazeta maqolalari bo'lib, ular respublika rahbarlari qalamiga mansub. "1920-yil 9-sentyabrda "Buxoro axbori" gazetasi o'zining birinchi sonida mahalliy inqilobchilar sardori, Buxoro jadidlarining rahnamosi Fayzulla Xo'jayevning "Kun tug'di" maqolasini bosib chiqardi" [1].

F. Xo'jayevning yaqin maslakdoshlaridan biri sifatida 1920 yilda Buxorodagi demokratik harakatning mashhur namoyandasi Sadridin Ayniyning ilmiy-publitsistik faoliyati avj oladi. 1920 yilning sentyabrda "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi "Buxorodan bir kishi" imzosi bilan S.Ayniyning Buxoro Inqilobiy harakati tarixiga oid kattagina ilmiy ishini bosishni boshladi. Bu o'zbek tilida yozilayotgan "Buxoro inqilobi tarixi" edi. Uning tayyor qismlari gazetada, "Uchqun" jurnalida e'lon qilinayotgan edi. To'liq holda bu kitob

Moskvada 1926 yilda o'zbek tilida nashr etiladi. Uning asosiy mazmunini Buxorodagi 1918-1920 yillardagi demokratik harakat, jadidlar faoliyati tashkil qiladi.

Yangi tuzilgan respublika va uning oldidagi vazifalar haqida yozilgan dastlabki ishlardan biri V.Yudovskiy maqolasidir. Muallif Buxorodagi siyosiy to'ntarishga baho berib, yosh davlat istiqbollari haqida fikr yuritadi. Sovet hokimiyati shiorlari ostida ish boshlayotgan yangi rahbariyat, uning fikricha, o'zlashtirilgan sovet shakllarni shunga mos mazmun bilan to'ldirishga intilishi kerak. V.Yudovskiy Buxoro ijtimoiy hayoti sharoitida sovet hokimiyati tamoyillarni amalga oshirish mutlaqo mumkin emasligini e'tirof etishga majbur edi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Buxoro Respublikasining ilk tarixshunosligida A.Mashiskiyning ishlari alohida o'rin egallaydi. Uning maqolalari fakt va raqamlarga boy va buning ma'lum sabablari bor. Muallif 1920-yil yozida Buxoroda Sovet to'ntarishini tayyorlashda bevosita qatnashgan edi. U 1920-yil iyulida amirlikni tugatish uchun tuzilgan harbiy inqilobiy byuro uch a'zosining biri edi. Qizil armiya qismlarining "inqilobiy" harakati tugagach, A.Mashiskiy muhim hujjatlar asosida sentyabr to'ntarishining siyosiy shart-sharoitlarini aniqlashga harakat qildi. 1920-yillarning o'rtalarida sobiq sovet davlatida shakllanishi boshlangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va uning mafkurasi mahalliy tarixshunosligimizga o'zining dastlabki ta'sir kuchini ko'rsata boshladi.

Ayni paytda Buxoro Respublikasiga rasmiy mafkura nuqtayi nazaridan emas, balki milliy qadriyat va milliy istiqbol nuqtayi nazaridan qarash urinishlari bo'lganini ham qayd qilish lozim. Norasmiy qarash tarafdorlari asosan Buxoro va Turkiston ijtimoiy hayotining ko'zga ko'ringan arboblari, milliy ziyolilar-Elbek, Botu, Fitrat, Cho'lpon, S.Ahrori va boshqalar edilar. 1921-22 yillarda ular Buxoro respublikasi poytaxtida yashab turib "Uchqun", "Maorif va madaniyat" kabi jurnallarda "Turkiston va oktyabr", "Sharq musulmonlari va sotsializm" mavzulari bo'yicha erkin, hur fikrli maqolalar bilan chiqdilar. Bu maqolalarning asosiy yo'nalishi rasmiy bolshevistik g'oyadan farq qilib, mahalliy ziyolilarni Vatan va millat istiqboli haqida chuqur o'ylashga chaqirar edi. Boshqa muammolar qatorida hur fikrlilarni Buxoro taqdiri ham qiziqtirardi. Yosh respublikada bolshevistik tartiblarning zo'r berib joriy etilishi ularni tashvishlantirardi.

Ma'lum darajada bu millatparvarlarning fikri Moskvadan Buxoro va Turkistonga yuborilgan G.Safarovning "Колониальная революция" kitobdagi xulosalar bilan hamohang chiqdi. O'rta Osiyo sharoitini yaxshi bilgan G.Safarov rasmiy mafkura qolipini rad etib, o'z tadqiqotlarida oktyabr inqilobi, marksizm g'oyalarning mahalliy xalqlar uchun yot ekanligi, ular proletariat diktaturasi, sotsialistik tuzum, jamoalashtirilgan mulk kabi tushunchalardan yiroq ekanligi, binobarin, Turkiston va Buxoro hayotiga sotsialistik prinsiplar zo'rvonlik bilan kiritilayotgan eski mustamlaka siyosati yangicha, bolshevistik qiyofa olayotganini isbotlashga harakat qildi. Mahalliy ziyolilar, madaniy arboblariga bunday mushohadalar ma'qul edi, lekin ular o'z fikrlarini ochiq-oydin targ'ib qilolmasdilar. 1923-1924 yillar matbuotda kuchayib ketgan nazorat, senzura bunga imkon beradi. Aytish mumkinki, taraqqiyparvar ziyolilar faoliyati yoritilgan Buxoro Respublikasi tarixshunosligi bo'yicha norasmiy yo'nalish shakllanib ulgurmasdanoq, cheklandi.

Jadidlar harakatini o'rganish va unga baho berishda O'rta Osiyodagi XX asr boshidagi jarayonlar bir xil kechmaganligi ko'zga tashlanadi. "Buxorodagi jadidizm yangidan paydo bo'lib kelayotgan, mustabid amir hokimiyatini cheklab qo'yish va Buxoroda mamlakatni boshqarishning yevropacha tartibini (konstitutsiyaviy monarxiyani) o'rnatish uchun kurashgan milliy burjuaziya sinfining ideologiyasidir, u o'sib kelayotgan savdo-sanoat kapitali vakillarining hokimiyatni qo'lga olishlariga yo'l ochib berishi kerak edi. 1917 yil voqealaridan so'ng jadidlarning muayyan qismi islohotchilik-ma'rifatchilik harakatlaridan siyosiy jarayonlarga o'tib ketdilar" ularning orasida aniq maqsadi, harakat mohiyatini to'la tushunib yetmaganlik oqibatida bo'linish holati yuzaga keldi [2].

Jadidchilik harakati sovet tarixshunosligining shakllanishida Buxoro jadidlarining rahnamosi Fayzulla Xo'jayev va Sadridin Ayniy konsepsiyasi ham shakllandi. Bu ikki tarixiy siymolarning Buxoro tuprog'ida tug'ilganligi, hayotlarining katta qismi ham aynan Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan bog'liqligi o'tgan asr tarixiy jarayonlari orqali bizga ma'lumdir. Sadridin Ayniy va Fayzulla Xo'jayevlar o'z davrining taraqqiyparvar ziyolilari sifatida faoliyat yuritishgan.

1917 yil chop etilgan "Sharq yulduzi" jurnalining ikkinchi sonida Majid Xasanov maqolasi nashr etilgan. Ushbu maqola ham sovet mafkurasi ta'sirida yozilgan. Unda ham jadidchilik harakatini qoralovchi fikrlar, hatto, taniqli o'zbek tarixchilarining 60-70 yillardagi mafkuraviy tazyiq ostida yaratgan noilmiy tarzda buzib talqin etilgan maqolalari o'rin olgan.

Shu o'rinda Fayzulla Xo'jayev va Sadridin Ayniyning ham jadidchilik harakatidagi ishtiroklari sovet mafkurasi talabi asosida buzib talqin etiladi va xalqimizga hatto ommabop tarzda chop etilayotgan gazeta, jurnallarda bosib chiqariladi. 1966-yil 26-maydagi "Sovet O'zbekistoni" gazetasi sahifalarida Fayzulla Xo'jayevning shunday fikrlari keltiriladi: "Men bolshevik sifatida emas, balki millatchi, Buxoroni burjuaziya

asosida qayta qurish tarafdori sifatida amirlikka qarshi kurasha boshladim”. Sadridin Ayniy ham Fayzulla Xo‘jayev qayd etganidek, “o‘z davrida amirlik tuzumini tanqid ostiga olgan faol ishtirokchilardan biri sifatida tanildi. Ayniy amirlik bilan bevosita kurashda mavjud tuzum zulmining barcha dahshatlarini, o‘sha vaqtda avj olgan huquqsizlik, qirg‘inlarni shaxsan o‘z boshidan kechirgan edi”. Buxorodagi jadidchilik va xalq ozodlik harakatining faol ishtirokchisi bo‘lgan Sadridin Ayniy o‘z hayoti davomida nafaqat adabiy asarlar yaratish, balki, Buxoro tarixshunosligining ham shakllanishida katta xizmatlari bor. Bu yo‘ldagi birinchi urinish 1920 yilda yaratilgan “Buxoro jallodlari” asari bilan boshlanadi.

Muhokama va natijalar. Jadidchilik harakati sovet tarixshunosligining shakllanishidagi Sadridin Ayniy konsepsiyasi ham ushbu asardan boshlanib, 1920-21 yillarda yaratilgan “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” tadqiqotida davom ettiriladi. Sadridin Ayniy bu tarixiy adabiy asarni 1920-1921- yillarda, Samarqanddagi Buxoro konsulxonasida konsultant bo‘lib ishlab va mahalliy ishlarida faol qatnashib, ijodiy ishlar bilan shug‘ullanib yurgan vaqtda yozdi.

Muallif bu asarni 1921-yilning boshlarida Buxoro sovet xalq Respublikasi Davlat nashriyotiga topshiradi. Mazkur asardan ayrim parchalar “Buxoro inqilobi tarixi” sarlavhasi ostida “Uchqun” jurnalining 1923-yil, 2-sonida bosildi, shuningdek, “Buxorodan bir kishi” imzosi bilan “Buxorodagi inqilobiy harakatning qisqacha tarixi” nomli sarlavha ostida “Mehnatkashlar tovushi” gazetasining 1920-yil 18-noyabr sonida ham bosiladi. Nihoyat, bu kitob “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” nomi ostida Moskvada 1926- yilda SSSR xalqlari Markaziy Davlat nashriyoti tomonidan arab alifbosi bilan o‘zbek tilida nashr etiladi.

“Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asari 1963-yilda chop etilgan Sadridin Ayniy asarlarining I tomiga kiritilgan. Tadqiqot bevosita sovet mafkurasi talabalariga mos holda qayta ishlangan. S.Ayniy o‘z ijodining dastlabki yillarida jadidizmning ijtimoiy hayotdagi rolini xato tushungan. Yozuvchi dunyoqarashidagi bu cheklanganlik uning mazkur “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” kitobida ham aks etmay qolmadi, albatta [3]. Bu narsa jadidlarning reaksiyon mohiyatini tushunib yetmaslikda, uni ba’zi ijobiy ma’noda talqin etishda ba’zan esa noaniq izoh etishda ko‘rinadi. Vaholanki, jadidlarning (yosh) buxoroliklarning ijtimoiy pozitsiyasi aniq edi. Jadidlarning faoliyati, bu yerda ham endi anchagina rivojlanayotgan marksistik ta’limotga, revolyusion ishchilar harakatiga qarshi qaratilgan bo‘lib, Buxoro amirining hokimiyatini buzishni emas, balki uni bir oz isloh qilishni, ya’ni milliy burjuaziya manfaatlariga moslashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Jadidizm g‘oyaviy oqimining tub mohiyati shundan iboratki, u panislomizni, millatchilikni targ‘ib qildi, boshqa mamlakatlardagi milliy burjuaziya bilan raqobat qilishga urinayotgan milliy burjuaziyaning “ma’rifatparvarligini” qondirishga intildi.

Jadidizmning shu tomoni ayrim olim va yozuvlarining yengilishiga sabab bo‘ldi. Chunki ular bu oqimning reaksiyon xarakterini darhol tushunib yetmadilar. S.Ayniy ham shulardan biri edi. U o‘zining xatosini keyinchalik tushuna boshladi va asarlarini ulardan tozaladi [4]. Sadridin Ayniy va Fayzulla Xo‘jayevlar Buxorodagi demokratik harakatning faol ishtirokchilaridan edilar. Shu sababdan ham ular Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy voqealar tarixini tarixchi sifatida yaxshi bilganlar va yosh buxoroliklar partiyasi faoliyatini va Buxoro inqilobi tarixini yaratish niyatida bo‘lganlar. Bu ishga birinchi bo‘lib qo‘l urgan Sadridin Ayniy asari Nazir Turaqulov (Darvish)ning mazmundor so‘z boshisi bilan 1926- yili Moskvada nashr etilgan edi. Sadridin Ayniy ko‘p asarlarining konspekti hisoblangan bu asarda yuzga yaqin tarixiy shaxs ishtirok etib, uch inqilob (1905-1907, 1917-y) voqealari davridagi Buxoro hayoti tasvirlandi. Bundan tashqari, muallif Fayzulla Xo‘jayev haqida ham ma’lumot beradi. Ammo 1963- yilda chop etilgan S.Ayniyning 8 tomli tanlangan asarlarining birinchi tomiga kirgan F.Xo‘jayev haqidagi ma’lumotlar olib tashlanib nashr etilgani asar mazmunini o‘zgartiradi. 1920-yildagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni o‘rganishda Sadridin Ayniyning yana bir asari muhim ahamiyat kasb etadi. 1920-yilda yaratilgan “Buxoro jallodlari” asari fikrimiz dalilidir. “Men bu hikoyani 1920-yil Buxoro revolyusiyasi arafasida boshlab, revolyusiya davom etayotgan vaqtda-sentyabr oyida tugatgan edim. Bu hikoya o‘sha vaqtning o‘zidayoq Buxoro Davlat nashriyotiga topshirilgan bo‘lsa ham “hikoya yo‘qoldi” bahonasi bilan bosilmadi.

Bu hikoya 1922-yilda Toshkent shahrida nashr bo‘layotgan “Inqilob” jurnalida qisqartirilgan holda (arab alifbosi bilan) bosilgan edi. 1936- yilda bu hikoyamni qayta ishlab, O‘zbekiston Davlat nashriyotiga topshirgan bo‘lsam ham, u vaqtdagi rahbarlar bosmagan edilar”. Ushbu fikrlar muallif tomonidan xotira sifatida yozib qoldirilgan. Ayniqsa, asardagi jadidlar bilan bog‘liq jarayonlarning yoritilishi ham asarning tarixiy qimmatini oshiradi.

1930- yillarda S.Ayniyning jadidizm qarashlarida tub o‘zgarish ro‘y berdi. S.Ayniy 1930- yilda bosilib chiqqan “Doxunda” romanida jadidizmning ijtimoiy mazmuniga boshqacha baho beradi. “Jadidizm amir tuzumini “takomillashtirish” gagina qaratilgan milliy burjuaziya harakati ekanligini ko‘rsatib o‘tdi” [5].

Ushbu manbalardagi bir-birini sekin-asta inkor etuvchi qarama-qarshi fikrlar, baholashlar Buxoro jadidlarning yo‘lboshchilari bo‘lgan bu ikki shaxsning shaxsan o‘zlari tomonidan 20-30- yillarda jadidchilik reaksiyon burjua millatchilik harakatidir, degan konsepsiya mustahkam o‘rin olgan edi.

1920-yilda boshlanib ketgan sobiq jadidlarni tanqid qilish kompaniyasi 30-yillardagi qatag‘on davriga ulashib ketadi. Jadidlar repressiya tig‘idan to‘la qirilib ketadilar. Bu o‘rinda Fayzulla Xo‘jayevning nohaq ravishda “Xalq dushmani”, “Xalqaro imperializmning agenti” deb qoralanishi yoki bo‘lmasa, u boshqargan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi va tarixshunosligi bilan bog‘liq barcha shaxslar ta‘qib ostiga olindi. Uning asarlari, shuningdek, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Muso Saidjonov, Abduqodir Muhitdinov singari mashhur jadidlar ijodi namunalariidan foydalanish taqiqlandi. 30-yillarning ikkinchi yarmida sobiq SSSRda boshlanib ketgan ommaviy qatag‘on tarix faniga qattiq shikast yetkazdi. O‘rta Osiyoning barcha hududlarida bo‘lgani kabi bu davrda Buxoro tarixshunosligidagi qimmatli asarlar ham 45-50- yil davomida ilmiy muomaladan chiqarib tashlandi va bu hol mavzuni tadqiq qilish ishiga katta ziyon yetkazdi.

Jadidchilik harakatining buzib talqin qilinishiga, noto‘g‘ri ilmiy xulosalarning paydo bo‘lishiga, ilg‘or jadid ziyolilarning repressiya qurboni bo‘lishiga sabab bo‘lgan voqealardan yana biri rahbar kadrlarning markaz talabiga ko‘ra noto‘g‘ri faoliyat yuritganligi hamdir. Rustam Shamsutdinovning 1991 yil “Muloqot” jurnali sahifalarida o‘rin olgan “Jadidchilik: haqiqat va uydirma” nomli maqolasida yuqorida tilga olingan voqealarni tilga oladi. Albatta, muallifning 30-40-yil voqealariga xolisona, tarixiy jihatdan yondashuvi mustaqillik istiqloq sharofatidir.

F.Xo‘jayev fikricha: “Jadidchilik yosh buxoroliklar partiyasi tashkil topishi bilan tugaydi. Yosh buxoroliklar partiyasi dasturi jadidlarning radikal maqsadlaridan farq qilib, o‘z oldiga amirni ag‘darish va Buxoroda inqilob qilish vasifasini qo‘ygan edi”, degan fikr bildiradi. “Buxoro inqilobi tarixiga doir” nomli asarida esa bu masalaga boshqacha yondashib, jadidchilikni yosh buxoroliklar tarixining ajralmas qismi, asosi sifatida yoritadi. “Panislomizm” atmasini esa u xalqaro jadidchilik ko‘rinishi sifatida ijobiy baholaydi. Uni barcha musulmonlarning musulmon madaniyati asosida birlashuvi deb tushunadi.

“Ilg‘or musulmon taraqqiyparvarining eng jasur talablari, - deb yozgan edi u,-bu panislomizm, barcha musulmonlarni birlashtirish shiori bilan o‘z musulmonligini ta‘kidlash orqali milliy o‘z-o‘zini anglashni o‘stirish, kuchaytirish edi”. F.Xo‘jayev “Buxoro inqilobi tarixiga doir” nomli kitobida jadidchilikning ichki rivoji, uning boshqa mamlakatlardagi taraqqiyot uchun olib borilgan harakatlar bilan aloqasini ko‘rsatib beradi [6].

Rus va o‘zbek tillarida chop etilgan “Buxoro inqilobi tarixiga doir” nomli kitob jamoatchilik tomonidan katta e‘tibor bilan kutib olindi va tezda tarqalib ketdi. Jadidlar haqidagi tasavvurlar hali kishilar xotirasida yaxshi saqlangan, jadidlarning o‘zlari esa sovet hokimiyati o‘rnatilib bo‘lgan bu davrda o‘lkada omma o‘rtasida ma‘rifat va ta‘lim ishlarini rivojlantirish yo‘lida bor kuchlarini sarflamoqda edilar. Kitob faktlar asosida yozilgan, inkor etib bo‘lmaydigan ma‘lumotlarning qayd etilishi hukumat doiralarini tashvishga solib qo‘ydi.

Totalitar tizim tobora barqarorlashib borayotgan bir sharoitda “jadidchilikni ulug‘lash-bolshevizmni yerga urish” deb qabul qilindi. Matbuotda O‘rta Osiyo Kommunistik Universiteti kafedra mudiri P.Galuzoning “Туркестанский” taxallusi ostida chop etilgan maqolasida unga shunday deb ayb qo‘yiladi, (Коммунистическая мысль, 1926 № 2). Bu taqriz yuqoridan berilgan buyurtma asosida yozilgan edi. Bu F.Xo‘jayevni ta‘qib qilish kompaniyasining debochasi edi. U darhol VKP (b) MK O‘rta Osiyo va O‘zKP(b) MKning majlisiga chaqirilib, bu masala yuzasidan muhokama o‘tkazildi. F.Xo‘jayev jadidchilikni ijtimoiy-inqilobiy harakat deb, ta‘riflab, uning mohiyatini noto‘g‘ri ko‘rsatganini qayd etuvchi qaror qabul qilindi. F.Xo‘jayevning xatolari, uning jadidchilikka munosabati masalasi O‘zbekiston KP III s‘ezdida ham ko‘tarildi.

F.Xo‘jayev G.Turkestanskiyning tanqidiga javoban atroflicha bergan javobida uni qisman tan olganini bildirsa, ham unga qarshi guruhbozlik to‘xtamadi. G.Turkestanskiy bu bilan kifoyalanmay, jadidchilikka bag‘ishlangan ikkita taqrizdan iborat alohida risola chop etadi, undagi taqrizlardan biri F.Xo‘jayevning “O‘rta Osiyoda inqilobiy harakat ocherklari” nomli to‘plamida chop etilgan maqolasidagi jadidchilik haqida Ye. Fedorov, T.Risqulov va Ginzburglar tomonidan bildirilgan qarashlarga, ikkinchisi esa to‘plamdagi F.Xo‘jayevning ikkinchi kitobiga bag‘ishlangan F.Xo‘jayevning millatchilik xarakteridagi g‘oyaviy xatolari tanqidga qo‘shilgan so‘nggi hissa VKP (b) MK O‘rta Osiyo byurosi kotibi I.K. Baumanning Toshkent shahar partiya konferensiyasida (1932 y) so‘zlagan nutqi bo‘ldi. F.Xo‘jayevning tanqid qilish olti yil davom etdi. U asarini qayta ishlashga majbur bo‘ldi va ikkinchi nashri o‘zgarishlar bilan 1932- yilda chop etildi. F.Xo‘jayev asarning kirish qismini va xulosasini qayta ishlaydi. 1926 -yilgi nashr etilgan asarda muallif jadidchilikni alohida tahlil qiladi [7].

Mazkur kitobda jadidlarning O‘rta Osiyoda milliy inqilobiy harakatni boshqara oluvchi kadrlar tarbiyalab berishdagi xizmati va bu harakatning oktyabr inqilobi oqimiga qo‘shilib, kommunistik bayroq

ostida faoliyat ko'rsatgani asoslab berildi. Ammo o'sha yiliyoq yuqorida ta'kidlangandek, Fayzullo Xo'jayev jadidlar masalasidagi avvalgi qarashlarini "Tuzatishga" majbur bo'ldi. 1926- yilda G.Turkestanskiy Fayzulla Xo'jayev kitobidagi kamchiliklarni, jumladan unda, siyosiy arboblarning mafkuraviy nazariyalari yo'q, deb ayb qo'yadi. G.Turkestanskiy jadidchilikning inqilobiy-demokratchilik, so'ngra esa bolshevikchilik evolyusiyasini to'raligacha inkor etadi. 1927-yili O'zbekiston Kompartiyasi III qurultoyida "Jadidchilikni ideallashtirgani" uchun millatchilikda ayblangan vatandoshimiz partiya matbuotida keskin tanqid qilinadi. U "yo'l qo'ygan xatosini anglab" "Коммунистическая мысль" jurnalida "Spravka va javob", shuningdek, O'zbekiston Kompartiyasi III qurultoyiga «bayonot beradi". Buxoroda jadidchilik harakatiga baho berishda, yo'l qo'ygan "xato" larini tan olib, "Buxoro revolyusiyasiga oid va O'rta Osiyoda milliy chegaralanish" asarining ikkinchi tuzatilgan va to'ldirilgan nashri (Toshkent, O'z.dav.nashr, 1928 -yil) ning "Buxoro revolyutsiyasi tarixga oid" qismi matniga muallif jiddiy tuzatish kiritishga hamda Buxoro Xalq Sovet respublikasi tarixiga oid yangi bo'lim qo'shishga majbur bo'ldi. Bu davrdagi tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, boshqa mas'ul arboblari ham jadidchilikni salbiy baholay boshladilar [8].

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining kotibi Akmal Ikromov O'zbekiston LKSMMKning 1926-yil 19-mayda bo'lib o'tgan II plenumida "Jadidizmning burjua ideologiyasi savdo burjuaziyasi ideologiyasidir. Uning bizga hech bir dahli yo'q", deb chiqdi. Jadidchilik harakati zamondoshi olim Otajon Xoshimov shunday yozdi: Jadid adabiyoti O'zbek burjuaziyasining adabiyotidir. Jadid adabiyoti o'zbek burjuaziyasining fikrini va uning boshdan kechirgan holatlarini aks etiradi, uning uchun ishlaydir, kuyadir, yig'laydir. 1932- yilda qayta chop etilgan asarida Fayzulla Xo'jayev xulosasini o'zgartirsada, asosiy mohiyatini saqlab qolishga urindi. Asarning birinchi nashri 60 - yildan ortiq davr mobaynida kitobxonlar ommasiga tavsiya etilmadi. Bugungi kunda bu asar mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tafakkur hamda milliy taraqqiyot uchun harakatlar tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyatga egadir. Uning qimmatli asar muallifi ham sharq, ham Yevropa ta'limini olgan intellekt egasi bo'lib va shu tufayli Buxoro turmushi va hayotining milliy-an'anaviy va diniy xususiyatlari bilan belgilanadigan shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jadidlarning to'g'ri tushungani bilan xarakterlanadi [9].

Fayzulla Xo'jayev bu harakatning eng yosh a'zosi sifatida, Moskvada o'qishni tugallab, 1912-yilda Vataniga qaytib kelgan, aholi o'rtasida maorif bo'yicha tashviqot yuritib tez orada jadidchilik sardorlaridan biriga aylanib qoladi. U jadidlarning yuragida o'ti bor, maqsad sari intiluvchan va unga erishish uchun voqealarni tezlashtirish istagi bilan ajralib turadigan yangi avlodiga mansub edi. U jadidlar tashkilotining muntazam ravishda qayta saylanib turadigan Markaziy qo'mitasining tarkibiga kirgan. Unga ishonganlar, unga ishonch bilan qarab hurmat qilganlar va qadrlaganlar. F.Xo'jayev ikki marotaba amir saroyiga yuborilgan delegatsiya tarkibiga kiritilgani ham shundan dalolat beradi.

Bu delegatsiyalar rus rezidenti Miller va amir bilan muzokara uchun yuborilgan edi. Lekin F.Xo'jayev o'z faoliyatini kamtarona baholab, A.Fitrat, Abdul Voxid Burxonov, Muxiddin Rafoat, Musa Saidjonov, Usmon Xo'jayev kabi shaxslarni jadidchilikning tashkil topishi va rivojlanishidagi rolini yuqori baholadi. U Buxorodagi jadidchilik tarixi haqida yozishni uzoq vaqt rejalashtirib yurgan. Uning bu maqsadining amalga oshishi S.Ayniyning xotiralar ko'rinishida yozilgan "Buxoro inqilob tarixiga doir materiallar" kitobi chop etilgach, tezlashdi. U muallifning ayrim qarashlarini ma'qul topmadi. F.Xo'jayev bo'lib o'tgan ijtimoiy-tarixiy voqealarni chuqur ilmiy asosda, hujjatlarni jalb etgan holda yozish lozimligini tushunib yetadi. U S.Ayniy asarini tarixiy psixologik esse sifatida yuqori baholasa-da, unda jadidchilikni bolshevizm bilan bir qatorda, uning ajralmas qismi sifatida baholanishiga qarshi edi. Haqiqatdan ham bolshevizm jadidchilikdan maqsadi, mohiyati, axloqiy asoslari bilan juda yiroqda edi. Bu asarning mazmunidan sezilib turadi [10].

Xulosa. F.Xo'jayevning Buxoroda jadidchilikning yuzaga kelishiga "xonlikning iqtisodiy negizi, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'lib turgan" g'ayri tabiiy va dahshatli tartibsizliklar sabab bo'lgan,- degan fikrlarini inkor etish qiyin. Ayni paytda muallif Buxoro O'rta Osiyoning markazida-qadimiy savdo yo'llarida joylashganini, aholining asosiy qismi savodsiz bo'lsa-da, arab-fors madaniyatining izlari har qadamda uchrab turganini tushunib yetgan. Uning fikricha, jadidchilik Buxoroda Turkistonga qaraganda kechroq yuzaga kelgan bo'lsa-da, jadidchilik jamoat hayotidagi o'gir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi va bu harakat 1915- yildan boshlab madaniyatdan siyosatga qarab yo'l tutdi [11].

Buxoro jadidlari xususan A.Fitratning (masalan "Bayonoti sayyohi Hindi") asarlarida nafaqat manaviy hayot, balki qonunchilik, savdo va boshqaruv usullarni tanqid ostiga olgan. Uning publitsistik va badiiy asarlari buni tasdiqlaydi.

F.Xo'jayevning Fitrat asarlari adabiy qimmatga ega bo'libgina qolmay, tashviqot ham qimmatli edi, degan fikriga qo'shilib, shuni qayd etish lozimki, Turkiston jadidlarining, xususan, Behbudiy maqolalarining tanqidiy kuchi ham bundan kam emas edi.

Sadriddin Ayniydan farq qilib, F.Xo'jayev jadid maktablarining siyosiy ahamiyatini ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, bu maktablar o'quvchilar va ularning ota-onalari orasida yangilikni targ'ib qilishi bilan

HISTORY

hukumatga qarshi muxolif kayfiyatning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash lozimki yuqorida keltirilgan barcha fikrlar jadidlarning o'z ona yurti mustaqilligi va xalqining ma'rifati yo'lida jasorat ko'rsatganligini isbotlab turubdi deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Qosimov F. *Buxoro: tarix sahifalari Buxoro 1999*. B- 92.
2. Файзулла Хўжаев. *Танланган асарлар. I-том. Тошкент. Фан. 1976*. Б-483.
3. Садрриддин Айний. *Асарлар. Биринчи том. Тошкент. Бадиий адабиёт. 1963*. Б-9.
4. *Buxoro tarixi sahifalari. Maqolalar to'plami. Buxoro. 1999*. B-97.
5. Файзулла Хўжаев. *Танланган асарлар. I-том. Тошкент. Фан. 1976*. Б-483.
6. Попов А.Л. *Внешняя политика русскою царизма в XIX веке в "кривом зеркале". Ч.2. М. 1940*. С-72.
7. Халфин Н.А. *Присоединение Средней Азии к России (60-90-е годы XIX в.)*. – М., 1965. – С. 224.
8. Мирзо Абдулазим Сомий. *Тарихи Салотини Мангития*. - М., 1962. – С. 66.
9. Ахmadjonov F.A. *Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda*. - T., 2003. - B. 78.
10. Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. *Jasorat va xiyonat // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1998, 27 fevral*.
11. Abdurauf Fitrai. *Amir Olimxonning hukmronlik davri /Tojik tilidan A.Irisov tarjimasi*. - T.: Minhoj, 1992. - B. 10.

O'ZBEKISTON VA ERON ALOQALARINING TARIXIY ILDIZLARI

*Qo'chqarov Temirbek Baxromjon o'g'li,
Oriental universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston-Eron xalqlarining bugungi kundagi hamkorlik aloqlarining bir necha guruhlarga ajratib o'rganishni va ushbu guruhlarni ilk bosqichi - qadimgi davr aloqalariga doir ma'lumotlar berilgan. Qadimgi davr muarrixlarini ma'lumotlariga tayanib, ikki mamlakatning hamkorlik aloqalarining ilk bosqich ildizlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Eron, hamkorlik, tashqi siyosat, Ahamoniyalar, Kir II, zardushtiylik, Avesto, Geradot, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar, Parfiya, Yunon-Baqtriya.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ УЗБЕКСКО-ИРАНСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. В статье приведены сведения о сегодняшнем изучении узбекско-иранских отношений сотрудничества путём разделения их на несколько групп и о раннем этапе этих групп - отношениях древности. Опираясь на сведения древних историков, говорится о корнях раннего этапа сотрудничества двух стран.

Ключевые слова: Узбекистан, Иран, сотрудничество, внешняя политика, Ахемениды, Кир II, зороастризм, Авеста, Геродот, Александр Македонский, Селевкиды, Парфия, Греко-Бактрия.

HISTORICAL ROOTS OF UZBEKISTAN-IRANIAN RELATIONS

Abstract. The article provides information on the study of cooperation between the peoples of Uzbekistan and Iran, divided into several groups, and the first stage of these groups - ancient relations. Drawing on the information of ancient historians, the roots of the first stage of cooperation between the two countries are highlighted.

Keywords: Uzbekistan, Iran, cooperation, foreign policy, Achaemenids, Cyrus II, Zoroastrianism, Avesta, Herodotus, Alexander the Great, the Seleucids, Parthia, Greco-Bactrian.

Kirish. O'zining boy tarixiga ega bo'lgan o'zbek xalqi qadimdan to bugungi kunga qadar xorijiy davlatlar bilan yaqin aloqada bo'lib kelgan, ushbu jarayon hozirgi kunda ham yosh avlod tomonidan qadrlanib kelmoqda. Ammo, shuni ham inobatga olish kerakki, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro hamkorligining zamonaviy manbalarining chuqurroq anglash uchun tarixga murojat qilish kerak.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi suverenitetini tan olgan va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan ko'plab mamlakatlar mavjud bo'lib, ushbu mamlakatlar bilan aloqalar qadimdan to bugungi kunga qadar do'stona hamda uzluksizlik tamoyili asosida davom etyotganligini ishonch bilan ayta olamiz. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 10-noyabrda Samarqand shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusida o'tkazilgan konferensiyasida "Bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari bog'lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi"[1] deya, O'zbekistonning tashqi siyosatini asosiy tamoyillarini ko'rsatib o'tdi. Turli davlatlar xalqlari hamkorligining ko'p asrlik an'analari, ularning tub ildizi, yuqorida takidlaganimizdek, Buyuk Ipak yo'li va ushbu yo'ldan ilgari ham mavjud bo'lgan savdo yo'llari mavjud bo'lgan davrlarga borib taqaladi. O'zbek xalqi bilan qadimdan an'anaviy, uzluksizlik hamda e'tiqod umumiyligi tamoyili asosida do'stona aloqalar o'rnatgan xalqlar qatoriga ishonch bilan Eronni ham kiritishimiz mumkin.

Dolzarblik. O'zining boy tarixiga ega bo'lgan o'zbek xalqi qadimdan to bugungi kunga qadar xorijiy davlatlar bilan yaqin aloqada bo'lib kelgan, ushbu jarayon hozirgi kunda ham yosh avlod tomonidan qadrlanib kelmoqda. Ammo, shuni ham inobatga olish kerakki, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro hamkorligining zamonaviy manbalarining chuqurroq anglash uchun tarixga murojat qilish kerak. Shu jihatdan, O'zbekiston-Eron hamkorlik aloqalarini qadimgi davr tarixiy ildizlari haqida ma'lumotlar bugungi kunga qadar tizimli tarzda alohida o'rganilmaganligi dolzarb hisoblanadi.

Metodlar. Mazkur maqolada davriylik, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiylik, xolislik, ma'lumotlarni tizimlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Bugungi kundagi O‘zbekiston va Eron munosabatlari – qadimdan to bugungi kunga qadar sinovdan o‘tgan ko‘p asrlik an‘anaviy o‘zaro manfaatli aloqalarning uzviy davomidir. Ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni tarixiy ildizlari uzoq o‘tmishdan bugungi kunga qadar katta bir tarixiy davrni o‘z ichiga olib, ushbu davrni bir nechta guruhlariga ajratib o‘rganish mumkin. Jumladan:

1. Qadimgi davrdan to ilk o‘rta asrlargacha;
2. ilk o‘rta asrlardan to Amir Temur va Temuriylar davrigacha;
3. Amir Temur va Temuriylar davridan to Markaziy Osiyo xonliklari davrigacha;
4. Markaziy Osiyo xonliklari davri;
5. Rossiya mustamlakachiligi va Sovet davri;
6. Mustaqillik yillari (1991-2024).

Maqolada biz ikki mamlakat o‘rtasidagi qadimgi davri aloqalari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘rta Osiyoning janubida joylashgan o‘nlab yangi tipdagi voqa davlatlari so‘nggi bronza va ilk temir davrida yirik siyosiy birlashma(davlat)larga birlasha boshladi. Tarixchi-arxeolog T.Shirinovning ma‘lumotlariga qaraganda yirik podsholiklarning tashkil topishida, ichki ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari, tashqi subyektiv omillar ham muhim rol o‘ynagan. Ushbu omillardan biri Mesopotamiyaning davlatlari – Midiya, Ossuriya, Mitanni tomonidan solingan xavf edi[2]. Ushbu kurashlarning biri Markaziy Osiyo tarixidagi birinchi xalqaro hujjat deya e’tirof etiladigan, malika Zarina boshchiligida saklarning Midiya bilan urushga yakun yasagan tinchlik shartnomasi hisoblanadi[3]. Uning sanasi mil.avv. VII asr oxirlari VI asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu qahramon saklarning qahramonlik eposining yorqin dalili desak ham bo‘ladi. Aynan bu xalqaro hujjat ham bugungi O‘zbekiston va Eron mintaqalari o‘rtasidagi dastlabki kurtakdir. Mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoning ilk davlat tuzilmalari ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan[4]. Yozma manbalar, eng avvalo “Avesto” va yunon-rim tarixchilarining guvohlik berishiga qaraganda ushbu siyosiy voqealar eramizgacha bo‘lgan VII-VI asrlarda, Eronda Ahamoniylar sulolasi boshchiligidagi imperiya tuzulguniga qadar bo‘lib o‘tgan[5]. Ushbu imperiyaning asoschisi Kir II tomonidan Baqtriya, Sug‘diyona, Marg‘iyona, Xorazm bosib olingan (mil.avv. 559-530). Ahamoniylar davrida muzokaralar turli davlatlar va Markaziy Osiyoning qabilalari o‘rtasidagi o‘zaro fikr almashinuvining maxsus shakli sifatida barqaror xususiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo qadimgi davr tarixini yoritib bergan eng qadimgi yozma manba zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” bo‘lib, unda O‘rta Osiyodagi, shu jumladan, O‘zbekistondagi ko‘plab jug‘rofiy nomlar va xalqlarning nomlari tilga olinadi. Unda shunday deyiladi: “Eng yaxshi yerlar va mamlakatlarning birinchisi qilib, men Axura Mazda, Aryanem Vaychaxni yaratdim - deya, hammasi bo‘lib 16 ta mamlakat sanab o‘tiladi[6], ular orasida Aryanem Vaychax, Surd (Gova), Baqtriya va Marg‘iyona aniq lokalizatsiyaga egadir. Aynan Aryanem Vaychaxni ba‘zi tarixchilar Xorazmga nisbatan qo‘llanilgan deyishsa, ya‘na birlari O‘rta Osiyodan tortib, to Sharqiy Eron mintaqasigacha hududni qamrab oladi[7]. – deydi. “Avesto”da ham Axura Mazda tomonidan eng birinchilardan bo‘lib yaratilgan deya aynan Markaziy Osiyo-Eron yuqorida turganligi ham ikki mintaqani tarixan yaqin muloqotda bo‘lganligiga da‘lil bo‘la oladi.

Vatanimiz tarixini o‘rganish borasida Gerodotning asari[8], ayniqsa, juda muhim o‘rin tutadi. Muarrir bizning zaminga oyoq bosmagan bo‘lsa ham, yurtimizning uzoq o‘tmishi haqida to‘g‘ri ma‘lumotlar beradi. Uning aytishicha, Kaspiy dengizining sohillaridan boshlab, Sirdaryoning o‘rtalariga qadar cho‘zilib boradigan keng sahroda massaget deb atalgan ko‘chmanchi qabilalar yashagan, ular hech qanday ekin ekmasdan, faqat chorvachilik bilangina kun kechirgan, ovqatlari mol go‘shiti hamda daryodan ovlanadigan baliq bo‘lgan, ular temirni bilmagan, hamma asboblarni va qurol-aslahalarni misdan yasagan; ayollar erkaklar bilan bir qatorda janglarda qatnashar va hatto qabila boshlig‘i bo‘lib saylanar edi[8], - deya o‘zining mintaqa aholisining turmush sharoiti haqidagi fikrni yakunlaydi.

Ahamoniylarning Markaziy Osiyo shimoli-g‘arbiga siljib borishlari shaksiz ular bilan qudratli sak-massaget qabilalar uyushmasi o‘rtasida to‘qnashuvni keltirib chiqardi. Shu sababli, ahamoniylar davlati chegaralari xavfsizligini ta‘minlash uchun Kir bu paytda Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimidagi hududni egallab turgan sak-massagetlarga qarshi harbiy yurish qo‘llashga qaror qildi. Tarix otasi Gerodotning “Tarix” asari orqali yetib kelgan manbaga ko‘ra, avval Kir va massagetlar malikasi To‘maris o‘rtasida og‘zaki shaklda xabar almashinuvi bo‘lib o‘tadi. Kir elchilar orqali To‘marisdan o‘ziga turmushga chiqishini so‘rab diplomatik hiyla qo‘llaydi. Biroq To‘maris “Kir unga emas, massagetlar hukmronligiga uylanmoqchi” ekanligini tushunib, bu hiylaning tagiga yetadi va taklifni rad qiladi (Gerodot). Kir massagetlarga qarshi harbiy harakatlar boshlaydi. To‘maris maxsus elchi orqali Kirga “Ahamoniylar hukmdori urushni to‘xtatsin” - degan mazmunda og‘zaki xabar yo‘llaydi. Lekin u To‘marisning maslahatiga ko‘nmaydi va mag‘lubiyatga uchrab, massagetlar bilan urushda o‘ldiriladi[8]. Ushbu ma‘lumot bizga ma‘lumki, mintaqalar o‘rtasidagi ilk muloqotni boshlanish bosqichini ko‘rsatib beradi.

Vatanimiz tarixi haqida eng qadimgi manbalardan biri Behistun qoyatosh yozuvlari ham muhim tarixiy manba bo'lib, unda Doro I (mil.avv. 522-486) tomonidan bosib olingan yurtlar haqida ma'lumot berilgan. Ushbu qoyatosh bitiklarida shoh Doro aytadi: "Bu saklar Ahuramazdani qadrlaganlar, men Ahuramazdani ulug'layman. Ahuramazda irodasi va o'z xohishim bilan men ularni tinchitib qo'ydim". "Men - Doro, ulug' shoh, shahanshoh, davlatlar podshosi, Vishtasp o'g'li, Ahamoniy". "Mana huzurimda bo'lgan podsholik: So'g'diyonaning narigi yog'idagi saklar yurtidan Efiopiyagacha, Hindistondan Midiyagacha - bu podsholikni menga Ahuramazda - xudolar o'rtasidagi ulug' xudo, tortiq qilgan". "Men - Doro, ulug' podsho, shahanshoh ko'p qabilali mamlakatlarning podshosi, keng sayxon yerlarning podshosi, Vishtasp o'g'li, Ahamoniy fors, forsning o'g'li, ariylar urug'idan kelib chiqqan ariy". "Shoh Doro ayturki: Fors viloyatidan tashqari quyidagi mamlakatlarni men bo'ysundirganman, menga xiroj to'lovchi bo'lgan, mening so'zimni ijro etgan, mening qonunimga asos lanib rivojlanayotgan: Midiya, Parfiya, Aryo, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm..., Saka Xauomarka, Saka Tigraxauda..., dengizdan narigi yerdagi saklar"[9]. Markaziy Osiyoni Ahamoniylar davrida o'z satrapliklari qatoriga qo'shib olganidan keyin, mintaqada mavjud bo'lgan eng qadimgi diniy e'tiqodlardan biri – zardushtiylikni davlatning bosh diniga aylantiradi.

Tarixchi A.Asqarovning ma'lumotlariga qaraganda, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan, deb e'tiqod qilingan. Mazda so'zi oldiga Axura – "ulug'lash" so'zi qo'shilib, zardushtiylikning ilohiy xudosi – Axura Mazda nomi paydo bo'lgan. "Avesto" haqida gap ketganda, uning tarixiy taqdirida o'ziga xos voqealar davri boshlandi. Avvalo, arablar ilk harbiy yurishlari bilan VII asr o'rtalarida Sosoniylar Eroni, so'ngra Markaziy Osiyoning janubiy o'lkalariga kirib kelgandayoq ajdodlarimizning qadimiy dini zardushtiylik bilan yuzma-yuz kelgan edi. Keyinchalik fath ishlari poyoniga yetib, islom dini yoyilgan pallada zardushtiy jamoalari yalpi ta'qib ostiga tushdi. Bu hol Eronu Turon o'lkalarida ayovsiz davom etdi. Shu vaziyat taqozosi bilan zardushtiylikning bir qismi xavfsiz o'lkalarga ko'chib ketishga majbur bo'ldi[10]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, ikki mintaqani din umumiyliigi ham o'zaro aloqalarning mustahkam bo'lishiga sabab bo'lgan.

Markaziy Osiyo xalqlari (Sug'd, Baqtriya, "Katta Xorazm", Marg'iyona, Ustrushona) ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirish davrida ushbu ulkan davlatning barcha qismlari bilan qizg'in aloqalarni yo'lga qo'ygan edi, bu haqida Persepol, Pasargadax, Naqshi Rostamdagi saroy devorlaridagi tasvirlar, shuningdek, mashhur Kirmonshohdagi Behistun yozuvlari guvohlik beradi[11]. Ularning barchasi Markaziy Osiyo xalqlari va ularning ahamoniylar siyosiy hayotidagi, shu jumladan, yunon-eron urushi, xususan, Marafon va Salamin janglaridagi ishtiroki to'g'risida tasavvur paydo qiladi.

Ahamoniylar imperiyasi tarkibida bo'lgan davrida O'rta Osiyo harbiy-ma'muriy okruglarga bo'lingan bo'lib, ularning tepasida fors yer egalari va juda ko'p hollarda mahalliy qabila boshliqlari turar edi. Qadimgi yunon tarixchilari fors hukmdorlari mahalliy qonunlar, urf-odat hamda e'tiqodlarni o'zgartirishga urinmaganliklariga e'tiborni qaratadilar. Ahamoniylar saltanati uchun turli xil aholi istiqomat qilishi xos edi. Asli kelib chiqishi Markaziy Osiyodan bo'lib, keyinchalik Misr, Bobil, Eronda istiqomat qilganlar ham ko'pchilikni tashkil qilgan. Ular fors qo'shinida xizmat qiluvchi harbiylar, savdogarlar, davlat ustaxonalarida ishlaydigan hunarmandlar edi. So'nggi ahamoniylar davrida Xorazm, So'g'd va sak qabilalari forslarning ittifoqchisiga aylandilar. Miloddan avvalgi IV asr o'rtalarida Xorazm forslar hukmronligidan xalos bo'ldi va mustaqil davlatga aylandi, bu esa o'z ortidan davlatlararo va ilk diplomatik munosabatlarning yangi shakllari kirib kelishiga sabab bo'ldi (elchixonalar almashinuvi, sovg'alar almashish)[11]. Albatta mintaqalar o'rtasidagi muloqotlar diplomatik munosabatlar kurtak yoyishiga, ushbu zaminning o'ziga xos an'anaviy diplomatiyasining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Miloddan avvalgi 330-327-yillarda Aleksandr Makedonskiy tomonidan Markaziy Osiyoning istilo qilinishi mintaqada deyarli 200 yil davom etgan ellinizm davrini boshlab berdi. Mazkur o'sha paytdagi tashqi aloqalarini tarixchilar tomonidan ikki davrga: 1) Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyo xalqlari bilan aloqalari; 2) mintaqaja janubiy hududlarining ellin davlatlari - salavkiylar va Yunon-Baqtriya tarkibiga kirishi davrlariga bo'lishadi. Birinchi davr haqida yunon tarixchisi Arrian o'z asarida[12], Markaziy Osiyo davlatlari va qabila uyushmalarining Aleksandr Makedonskiy bilan turli xildagi tinchlik shartnomalari va harbiy ittifoqlar tuzishi haqida yozib qoldirgan.

Ikkinchi davrga (mil.avv. IV asr oxiri II asr ikkinchi yarmi) Markaziy Osiyoning katta qismi ellin davlatlari - Salavkiylar (mil.avv. IV asr oxiri III asr o'rtalari), Salavkiylardan keyin ushbu davlat hududining katta qismida Parfiya davlati (mil.avv. III asr o'rtalari – milodiy II asr birinchi yarmi) va Yunon-Baqtriya (mil.avv. III asr o'rtalari II asr ikkinchi yarmi boshlanishi) va ellin madaniyatining keng tarqalishi xosdir. Ayni paytda, mil.avv. III asr o'rtalarida Markaziy Osiyo janubi g'arbida ko'chmanchi eroniyzabon parni qabilalari tomonidan Parfiya davlati yaratilgan, Markaziy Osiyo Ikki daryo oralig'ida esa mil.avv. II asrda Qang', Dovon - qator mustaqil davlatlar vujudga kelgan. Ellin madaniyati ta'siri ostida vujudga kelgan Parfiya va Yunon-Baqtriya davlatlari diplomatik munosabatlarning yangi bosqichga olib chiqdi[13]. Aynan

ushbu holat eng avvalo, Salavkiy hukmdorlar va Yunon-Baqtriya davlatida, hukmdorlar barcha elchilarni o'zlari qabul qilar va shaxsan muzokara olib borar edilar. Masalan, mil.avv. 237-yildan keyin shoh Diodot II bilan Parfiya hukmdorini Tiridatning Markaziy Osiyoni qaytadan bosib olishga uringan umumiy dushmanlari Salavka Iga qarshi kurashi uchun tuzgan Parfiya - Yunon-Baqtriya shartnomalari va ittifoqlari ma'lum. Yunon-Baqtriya shohlari tomonidan tuzilgan boshqa shartnomalar to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud[11]. Ushbu jarayonlar shuni ko'rsatadiki, qadimgi davr diplomatiyasining yuksak darajada rivojlanib, asriy an'analarni shakllanganligini ko'rsatib turibdi.

Xulosa. Umuman olganda, Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan so'ng O'rta Osiyo xalqlarining ellinistik dunyo tarkibiga kiritilishi mintaqada madaniy sinkretizm va tamaddunning yuksalishiga olib keldi. Aleksandr Makedonskiyning istilochilik yurishlaridan boshlab, Yunon-Baqtriya podshohligining qulashigacha bo'lgan ellinizm davri tashqi siyosiy faollikning ortishi, ko'p sonli elchixonalar va vakolatxonalari, diplomatik aloqalarning namoyon bo'lish shakllarining turli xilligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston va qo'shni xalqlarining yuksak moddiy va ma'naviy madaniyatidan hamda o'sha davr xalqaro iqtisodiy va madaniy tizimida faol ishtirok etganidan dalolat beruvchi ko'plab moddiy madaniy yodgorliklar topib o'rganilgan. O'rta Osiyoda Markaziy Osiyo xalqlarida muzokara olib borish va davlatlararo shartnomalar tuzishning yangi uslub va vositalari paydo bo'ldi. Muzokara olib borish san'atining o'zi takomillashadi, elchilar sifatida eng savodli, ma'lumotli kishilar yetishib chiqqan boshladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. Асарлар. 2-жилд. –Б. 264.*
2. *Alimova D.A., Rtveldze E.V. O'zbekiston davlatchiligi tarixi: (Ocherklar). -T.: Sharq, 2001. -B. 8-14.*
3. *Гулямов Я. Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. -Т.: 1957. С. 35; Массон В. М. Средняя Азия в эпоху раннего железа: культурная и социально-экономическая динамика. С. 9.*
4. *Древнебактрийское царство «Большой Хорезм» (VII-VI вв. до н. э.) // Очерки по истории государственности Узбекистана. –Т.: Авесто, 2001. С. 8-14.*
5. *Алимова Д.А., Ртвеладзе Э.В. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи: (Очерклар). — Т.: Шарқ, 2001. -Б. 8-14.*
6. *Соколов С. А. Духовная культура. Религия. Религиозная система зороастризма // История таджикского народа. Т. 1. -М.: 1963. -С. 82.*
7. *Дьяконов И. М. Восточный Иран до Кира (К возможности новых постановок вопроса) // История Иранского государства и культуры. — М.: 1971. -С. 137.*
8. *The Histories by Herodotus translated by George Rawlinson. –М.: Roman Roads Media, 2013. – P. 691.*
9. *Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. Т.: O'qituvchi, 1996. -B. 30-32.*
10. *Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Т.: O'zbekiston, 2015. –B. 91-92.*
11. *O'zbekiston tarixi. (O'zbekiston diplomatiyasi tarixi) VII jild [Matn] / Jamoa. –Т.: Ma'naviyat, 2023. –B. 18.*
12. *Арриан. Поход Александра. / Пер. М.Е. Сергеенко. М.: Миф, 1993. –С. 272.*
13. *Массон Э.В. Деметрий Бактрийский и завоевание Индии // ВДИ. 1961. № 2.*

O‘ZBEKISTON IQTISODIY O‘ZGARISHLARI VA O‘SISHLAR**Salimov Aziz Farxod o‘g‘li,***Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali o‘qituvchisi
salimovaziz28101990@gmail.com*

Annotatsiya. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida keng tarmoqli katta o‘zgarish va o‘sishlar amalga oshirilmoqda. Bu iqtisodiy o‘zgarishlarda ayollarning hissasini ham hisobga olish zarurdir. Bugungi kunda ayollarni iqtisodiyotning har bir sohasida, jumladan, tadbirkorlik, kichik biznes va boshqa sohalarga kirib borayotganini kuzatib borishimiz mumkin. Maqolada jahon va mamlakatimiz miqyosida, ayollarga berilayotgan imkoniyatlar va ularning iqtisodiyotdagi o‘rni haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, ishsizlik, faol aholi, iqtisodiy o‘sish, tashqi savdo, investitsiya, ishlab chiqarish, samaradorlik, yangi ish o‘rinlari, tizimli islohotlar.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПЕРЕМЕНЫ И РОСТ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Сегодня развитие мировой экономики претерпевает серьёзные изменения и рост. Необходимо учитывать вклад женщин в эти экономические изменения. Сегодня мы можем видеть женщин, входящих в каждый сектор экономики, включая предпринимательство, малый бизнес и многое другое. В статье рассматриваются возможности, предоставляемые женщинам, и их место в экономике на глобальном и национальном уровне.

Ключевые слова: экономика, безработица, активное население, экономический рост, внешняя торговля, инвестиции, производство, эффективность, новые рабочие места, системные реформы.

ECONOMIC CHANGES AND GROWTH IN UZBEKISTAN

Abstract. Today, the development of the world economy is undergoing major changes and growth. It is necessary to take into account the contribution of women in these economic changes. Today, we can see women entering every sector of the economy, including entrepreneurship, small business, and more. The article discusses the opportunities given to women and their place in the economy at the global and national level.

Keywords: economy, unemployment, active population, foreign trade, investment, production, efficiency, new jobs, systemic reforms.

Kirish. O‘zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasidagi ilmiy salohiyati yuqori mamlakat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi tizimli islohotlarni boshqa davlatlarga nisbatan ancha kechroq boshlaganiga qaramay, buni yaxshi o‘zlashtirib yo‘lga qo‘ydi. Yurtimiz iqtisodiyoti juda tez sur‘atda o‘smayotgan bo‘lsa-da, sekin astalik bilan ijobiy tomonga o‘zgarimoqda. Ayniqsa hozirgi kunlarda ijtimoiy-siyosatdagi o‘zgarishlari, kamdaromadli oilalarni qo‘llab-quvvatlash dasturini yanada kengaytirish orqali qashshoqlikni kamaytirishga e‘tiborlarini qaratmoqda. 2019-yilda davlatimiz ijtimoiy himoya harajatlarini 50%ga oshirdi. Hozirgi kunda ishsizlikni kamaytirish maqsadida yurtimizda har yili 280 mingga yaqin yangi ishchi o‘rni yaratilmoqda, afsuski demografik sabablarga ko‘ra har yili 600 mingta yangi ishchi o‘rinlari yaratilishi kerak. Har yili yetishib chiqayotgan yangi ishchilarni band qilish uchun yangi ishchi o‘rinlari ikki barobarga oshirilishi kerak va ba‘zi kichik korxonalarini kengaytirish va qo‘shimcha ishchi o‘rnini yaratish, yangi korxonalar va zavodlarni tashkil etish lozim.

Asosiy qism. O‘zbekiston iqtisodiyotining yangi talablariga zaruriy javob sifatida ishlab chiqilgan va amalda 1990-yillarda boshlangan bozor iqtisodiyoti yo‘nalishidagi o‘zgarishlar o‘z oldiga ma‘lum bir iqtisodiy rejimni qurish emas, balki samarali va dinamik iqtisodiy konsepsiyani maqsad qilib qo‘ygan. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti yangi inson taraqqiyotining o‘ziga xos shakli va omili bo‘lib, yuksak madaniyat, inson erkinligi va axloqiy insoniy qadriyatlarini ifodalashi lozim bo‘lgan asosiy omil bo‘lishi kerak. O‘zbekistonda neft va gaz qazib olish, kimyo va neft-kimyo tarmoqlari, shuningdek, vakuumli piroliz moslamalari, LED lampalar, turli xil transport vositalari va maxsus mashinalar kabi murakkab muhandislik ishlangan sanoat va xalq iste‘mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi yuqori texnologiyali mashinasozlik sohasi uchun salmoqli salohiyat mavjud. , iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga asoslangan. Bu holat SSSR

parchalanganidan keyingi dastlabki o'n yilliklarda ilg'or texnologiyalar va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarolmagan ko'plab postsovet mamlakatlari uchun xosdir. Shunga qaramay, O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi va mamlakat hozirda paxta-karo mamlakatlari orasida yetakchi o'rinni egallab turibdi. Agar asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasiga qisqacha nazar tashlaydigan bo'lsak, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasining faol, samimiy va professional iqtisodiy siyosati sa'y-harakatlari qanchalik samarali bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Quyidagi noqulay tashqi omillar fonida O'zbekiston iqtisodiy faoliyati muvaffaqiyatining muhim tarkibiy qismi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning yuqori ko'rsatkichlari, past inflyatsiya, barqaror valyuta kursi, past davlat qarzi bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, jahon inqirozi oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy dinamikaga salbiy ta'sirlar ta'sirini kamaytirish, mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni saqlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni alohida ta'kidlash zarur. Innovatsion klasterlarni shakllantirish asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqarorlashtirishni ta'minlash, infratuzilmani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu, ayniqsa, iqtisodiy o'sishning to'yingan noresurs modeliga o'tish sharoitida zarur.

O'zbekistonda 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotni liberallashtirish darajasini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, yanada rivojlantirishni rag'batlantirish, mamlakatimizning iqtisodiy mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan. "Demokratik jamiyat qurish va qonun ustuvorligini ta'minlash" beshinchi strategik yo'nalishining muammo va vazifalaridan kelib chiqib, global va mintaqaviy iqtisodiy sharoitlarga xos bo'lgan tez va sifat jihatidan o'zgarib borayotgan iqtisodiy sharoit bilan bog'liq holda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bugungi kunda ayniqsa zarur bo'ldi. hozirgi kundagi munosabatlar. O'zbekistonning JST bilan assotsiatsiyasi, hamkorlikning kengayishi va O'zbekistonning Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi faoliyati tizimidagi ishtiroki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish, banklarni ishlab chiqilgan xalqaro standartlarga rejalashtirilgan transformatsiya qilish va ushbu tashkilotga kirish jahon qimmatli qog'ozlar bozori klassik tasviriy misollardir.

Yangi naflilik ish o'rinlari yaratilishi iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush tarzini ancha yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Oxirgi 2 asr davomida daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlarda mehnat unumdorligi keskin oshdi, mehnat unumdorligining yuqori ko'rsatkichlarda o'sishi yuqori maoshli ishchi o'rinlari yaratilishiga sabab bo'ladi. O'zbekiston mehnat bozorida quyidagi tarkibiy tizimli kamchiliklar mavjud;

1. Ishchi xodimlarning malakasi kamligi,
2. Xodimlarni yangi texnikaviy ko'nikmalarga o'qitish imkoniyatlar yo'qligi,
3. Yoshlar o'rtasida ishsizlikning ko'pligi.

Davlatimizda 1996-yil va 2016-yillar oralig'ida aholi boshiga yalpi ichki mahsulotning kumulyativ o'sishi 165% deb belgilandi. Yalpi ichki mahsulotning o'sishi va mehnat unumdorligi yuqorilashi, demografik o'zgarishlar natijasida yuz berdi. Afsuski ushbu davrda faol aholi darajasi ancha pasaydi. Keyingi yillarda tez iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosini inson kapitali yuqori malakali kadrlar, innovatsiya, investitsiya kabi omillar tashkil etmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishiga islohotlar ikkinchi bosqichining dastlabki yillaridanoq erishila boshlandi, bu jamiyat ijtimoiy iqtisodiy faoliyati natijalarini ifodalovchi pirovadi ijobiy natija bo'ldi. O'zbekiston 2023-yil 9 oyda 193ta mamlakat bilan savdo aloqalarini amal oshirgan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilning yanvar sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 44,7 mlrd AQSh dollaridan oshgan.

O'zbekiston keyingi yillarda sezilarli o'sish va ijobiy o'zgarishlarga olib kelgan muhim iqtisodiy islohot va o'zgarishlar yo'lga o'tdi. Bu yerda umumiy ko'rinish:

Mustaqillikdan keyingi muammolar:

1991-yilda mustaqillikka erishgach, O'zbekiston ko'plab iqtisodiy muammolarga duch keldi:

Markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotdan o'tish: Sovet iqtisodiy modelidan uzoqlashish va bozor tizimiga o'tish jiddiy tarkibiy islohotlarni talab qildi.

Xususiy sektor rivojlanishining cheklanganligi: davlat korxonalarining ustunligi xususiy sektorning o'sishi va investitsiyalariga to'sqinlik qildi.

Asosiy tovarlarga qaramlik: Iqtisodiyot asosan paxta, oltin va tabiiy gaz eksportiga tayanib, uni tashqi ta'sirlarga nisbatan zaif qilib qo'ydi.

Infratuzilma cheklavlari: noadekvat infratuzilma, ayniqsa transport va energetika, iqtisodiy rivojlanishni cheklab qo'ydi.

Islohot tashabbuslari:

2016-yildan beri hukumat ushbu muammolarni hal qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun bir qator ulkan islohotlarni amalga oshirdi:

Valyutani liberallashtirish: suzuvchi ayirboshlash kursi rejimini joriy etish valyuta konvertatsiyasini yaxshiladi va xalqaro savdo va investitsiyalarni osonlashtirdi.

Savdoni liberallashtirish: Savdo to'g'ri va tariflarini pasaytirish iqtisodni katta raqobat va xorijiy investitsiyalar uchun ochib berdi.

Xususiy lashtirish va davlat korxonalarini isloh qilish: Hukumat samaradorlikni oshirish va xususiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida davlat korxonalarini xususiy lashtirish dasturlari va islohotlarini boshladi.

Investitsiya muhitini yaxshilash: me'yoriy-huquqiy hujjatlarni soddalashtirish, byurokrtiyani qisqartirish va investorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish borasidagi sa'y-harakatlar O'zbekistonni to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun yanada jozibador joyga aylantirdi.

Infratuzilmani rivojlantirish: Iqtisodiy o'sish va ulanishni qo'llab-quvvatlash uchun transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasiga katta sarmoyalar kiritilmoqda.

Inson kapitalini rivojlantirishga e'tibor qaratish: Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar ishchi kuchini zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlashga qaratilgan.

Ijobiy natijalar:

Ushbu islohotlar ijobiy natijalar berdi:

Iqtisodiy o'sish: O'zbekiston barqaror iqtisodiy o'sishni boshdan kechirdi, so'nggi yillarda YaIM o'rtacha 5 foizdan oshdi.

Xorijiy investitsiyalarning ko'payishi: to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar sezilarli darajada oshdi, bu ishbilarmonlik muhiti va investitsiya imkoniyatlarining yaxshilanishi tufayli jalb qilindi.

Eksportning diversifikatsiyasi: Iqtisodiyot ko'proq diversifikatsiya qilinmoqda, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va turizm kabi sohalarda o'sish.

Turmush darajasining o'sishi: Iqtisodiy o'sish ko'plab o'zbekistonliklarning turmush darajasining yaxshilanishiga olib keldi, daromadlar ortdi va qashshoqlik darajasi pasaydi.

Qiyinchiliklar va kelajakdagi yo'nalishlar:

Taraqqiyotga qaramay, muammolar saqlanib qolmoqda:

Keyingi diversifikatsiya: asosiy tovarlarga qaramlikni kamaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tarmoqlarda o'sishni rag'batlantirish barqaror rivojlanish uchun juda muhimdir.

Mintaqaviy nomutanosibliklar: Mintaqaviy iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etish va inklyuziv o'sishni ta'minlash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Institutlarni mustahkamlash: huquqiy institutlarni mustahkamlash, boshqaruvni takomillashtirish va korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy sa'y-harakatlar barqaror iqtisodiy taraqqiyot uchun zarurdir.

Tashqi savdo aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 22,1 foizga oshgan.

Eksport- 17,7mlrd

Import- 27,0mlrd

O'zbekiston 2023-yilning yanvar – sentabr oylarida jaxonning 193 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirdi.

Iqtisodiy o'sish iqtisodiyotda tarmoqlarida turli ko'rinishlarda ta'minlanmoqda. Bu davlatning strategic manfaatlari va vazifalari, mineral xomashyo resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, xorijiy investitsiyalarning soxasini rivojlantirishdan manfaatdorligi darajasi, tarmoq moddiy texnika ba'zasining xolati, xususiy kapitalning tadbirkorlik imkoniyatlari, mehnat resurslarining malakasi, ichki va xalqaro bozordagi talab darajalariga bog'liq. Yurtimizning iqtisodiy o'sishiga tashqi savdoning ham ahamiyati juda katta. Tashqi savdoni erkinlashtirish iqtisodiyot ochiqlik darajasining o'sishiga ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ichki imkoniyatlarini kengaytirishiga sabab bo'ladi. So'ngi yillarda iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanmoqda. Makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlanmoqda, ishlab chiqarish va iste'mol, jamg'arish va investitsiyalar, daromad va xarajatlar o'rtasida uzviy bog'liqlik va mutanosibliklar tobora kuchayib bormoqda. O'zbekiston barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, ko'p jihatdan uning jahon xo'jaligi integratsiallashtirishiga, eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora tadbirlar natijasiga bog'liqdir. So'ngi yillarda O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar jalb qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida bevosita xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy va eksporti salohiyatini oshirishdagi roli o'sib bormoqda, ma'lumki xorijiy investitsiyalar jalb qilishning sabablaridan biri eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat.

Xulosa. O'zbekistonning islohotlarga sodiqligi va so'nggi yillarda erishgan yutuqlari uni iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning davom etishi uchun yaxshi ko'rsatmoqda. Qolgan vazifalarni hal qilish va

ECONOMY

islohotlarni davom ettirish orqali O'zbekiston o'z fuqarolari uchun keng imkoniyatlar yaratib, yanada gullab-yashnagan va diversifikatsiyalangan iqtisodiyotga aylanish maqsadiga erishishi mumkin. Ushbu maqolada Respublikamizda turli yo'nalishdagi kichik korxonalar ochish, kichik korxonalar kengaytirish, iqtisodiyoti yuqori jahon miqyosidagi davlatlar bilan aloqalar, ya'ni eksport-importni yo'lga qo'yish, ishsizlik darajasini kamaytirishga kerak. Importga nisbatan eksport yo'nalishiga katta e'tibor berishimiz kerak. Mamlakatimiz yoki qolgan davlatlarda ham iqtisodiy o'sishiga eksport eng katta rol o'ynaydi. Shunday ekan biz ham eksport yo'nalishiga katta e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. G'aybnazarova Z.T., Isamuhametov Sh.A. *Iqtisodiy nazariya. (Darslik) – T.:*
2. "Innovatsion taraqqiyot nashriyoti", 2020. 526 b. Tuxliev N. va boshqalar
3. O'zbekistonning iqtisodiy asoslari /N. Tuxliev, K. Xaqberdiev, Sh. Ermamatov. N. Xolmatov. - :T.
4. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat oliy nashriyoti. 2006. - 280 b.
5. www.cer.uz iqtisodiy tadqiqotlar markazi. *Global moliyaviy landshaftda rivojlanayotgan ichki suveren obligatsiyalar bozorlari uchun yangi strategiyalar* (Hans J. Blommestein *Xaver Santiso).

2030

UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE

uzjournals.edu.uz



® digital object
identifier

Google
scholar

ROAD

DIRECTORY
OF OPEN ACCESS
SCHOLARLY
RESOURCES

ADVANCED SCIENCES INDEX

**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
28.09.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.

Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344